

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



Yuldashev N.K., Umarxodjaeva M.G`

“RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BOZOR TAJRIBASI”
(darslik)

Toshkent-2013

Yuldashev Nuritdin Qurbonovich, Umarxodjaeva Muyassar G`anievna, Abdiev Behzod Quvvatalievich. Rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasi. Darslik. -T.: Iqtisodiyot, 2013. - 365 b.

Darslik Davlat ta'lim standartining talablariga muvofiq tayyorlangan bo'lib, talabalarning rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasining o'ziga xos xususiyatlari, tadbirkorlik va iqtisodiy rivojlanishning rivojlangan mamlakatlar modellarini o'rganishiga bag'ishlangan.

Darslik 5A340201 – “Menejment” (tarmoqlar bo'yicha) mutaxassisligi talabalari uchun mo'ljallangan, shuningdek darslikdan aspirantlar, ilmiy tadqiqotchilar, o'qituvchilar malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muxarir: I.f.d., prof. Jumaev N.X.

Taqrizchilar: I.f.d., prof. Shodiev T.Sh.

I.f.n.Eshtaev A.A.

Uchebnik podgotovlen v sootvetstvii s trebovaniyami Gosudarstvennogo obrazovatel'nogo standarta i soderjit zarubejnyy opyt razvitiya rynochnykh otnosheniy, predprinimatelstva, osobennosti razvitiya modeley ekonomicheskogo razvitiya razvityx stran.

Uchebnik prednaznachen dlya studentov, obuchayushixsya v ekonomicheskix napravleniyax, a takje dannym uchebnikom mogut polzovatsya aspiranty, soiskateli, slushateli kursov povysheniya kvalifikatsii, podgotovki i perepodgotovki prepodovateley.

Otvetsvennyy redaktor, d.e.n., prof.Jumaev N.X..

Retsenzenty: d.e.n., prof. Shodiev T.Sh.

I.f.n. Ishtaev A.A.

Yuldashev Nuritdin Kurbanovich, Umarhodjaeva Muyassar Ganievna, Abdiev Behzod Quvvatalievich. market experience of the developed countries. The textbook. -T.: TSUE, 2011. - 371 p.

The textbook is prepared according to the requirements by the State educational standard and assumes the students training market experience of the developed countries.

Editor in chiet prof.

The reviewers

© Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, 2013.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti shakllanishi va taraqqiyotini rivojlangan mamlakatlar tajribasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Rivojlangan mamlakatlar bozor tajriabsini o'rganish jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv hamda jahon standartlarini o'zlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish uchun yo'l ochadi. Rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish, halqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etish, ilg'or tajribalar xususiyatlarini chuqur o'rganish orqali amalga oshirish mumkin. Chunki bozor iqtisodiga o'tish jarayonining faqat mamlakatning o'z yo'li bilan chegaralanish doimo muvaffaqiyatli yakunlanmaydi. Jarayonni tez rejalashtirish rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish, ularni o'zlashtirish va tadbqiq qilishni talab etadi. Bu bozor iqtisodiga o'tish muammolarini tez xal qilish, ortiqcha urinishlarni oldini olish, sinovdan o'tgan usul va yo'llarni qo'llash imkonini beradi.

Mazkur darslikning maqsadi – talabalarni jahonning yetakchi mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos hususiyatlari bilan tanishtirish, milliy xo'jaliklar taraqqiyoti hususiyatlari va maqroiqtisodiy modellar taxlili, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi jahon tajribasini o'rganishdan iborat.

Prezident Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganlaridek: “Mamlakatimizda, xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rgangan holda, iqtisodiy islohotlar bo'yicha o'ta muhim chora-tadbirlarning amalga oshirilayotgani, bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shaklini rivojlantirish, tadbirkorlik harakatini qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy tashkiliy hamda moliyaviy shart-sharoitlarni tug'dirib berish bunday yuksak natijalarni qo'lga kiritishda hal qiluvchi omil bo'lmoqda, desam, hech mubolag'a bo'lmaydi”.

“Mamlakatimizdagi ishbilarmonlik muhiti jahon tajribasida qabul qilingan biznesni yuritish mezonlariga qay darajada mos kelishini doimo kuzatib borishimiz va tegishli qarorlar qabul qilishimiz zarur”.¹

Talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida jahon bozor tajribasini puxta o`zlashtirishlari, kelgusi faoliyatda samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondashishlarini ta`minlash fanning oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Ana shu masalalar bo`yicha haqiqiy ahvolni atroflicha o`rganishimiz, hozirgi vaqtda mutaxassislar tayyorlanayotgan har qaysi ixtisoslik yo`nalishi real hayot talablariga qay darajada javob berishi, unga nafaqat bugungi, balki yaqin istiqbolda qanday ehtiyoj borligini har tomonlama chuqur aniqlashimiz lozim.

¹ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko`lamli islohotlar va modernizatsiya yo`lini qat'iyat bilan davom ettirish. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2012 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilgi iqtisodiy dasturning asosiy ustuvor vazifalariga bag`ishlangan majlisi. –T.: Xalq so`zi 2013 yil 19 yanvar, № 13(5687), 3 bet.

1-BOB. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING BOZOR TAJRIBASI VA UNI O`RGANISHNING AHAMIYATI

1.1. Rivojlangan mamlakatlarning bozor tajribasini

o`rganish zaruriyati

Iqtisodiyotning bozor usuli jahon uzra keng quloch yozmoqda. Iqtisodiy munosabatlarni samarali tashkil etish va resurslarni oqilona joylashtirish avvaldan insoniyat diqqatini, ayniqsa iqtisod ilmi ahlini, o`ziga jalb etib kelgan. Bunda ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish imkoniyatini tug`diruvchi har qanday ijtimoiy shakl tan olingan. “Resurslar taqchilligi – ehtiyojning poyonsizligi” muammosi insoniyatni doimo o`ylantirib, buni xal qilishda inson bozor usulini tanlagan va uni eng ma’qul usul deb bilgan.

Ma’lumki, jamiyat ixtiyoridagi ishlab chiqarish imkoniyatlari, iqtisodiy resurslar, mehnat resurslari, turli mablag`lar, tabiiy boyliklar, yer kabilar poyonsiz emas, ya’ni bu resurslar chegaralangan bo`lib, ulardan foydalanish, ularni joylashtirish oqilona yondoshuvni talab etadi.

Basharti ma’lum tarmoqlar tezroq taraqqiy etib, bir xildagi tovarlar ishlab chiqarish ko`paytirilsa, demak bunga ko`proq resurslar jalb etiladi hamda shunga ko`ra qolganlariga kamroq resurslar sarf etish zaruriyati tug`iladi. Bunday alternativ (ya’ni ikki yo`ldan birini) tanlash muammosi tug`iladi.

Iqtisodiy taraqqiyot amaliyoti shuni isbotlab bormoqdaki, hozirgi vaqt bozor iqtisodiyoti hukmronligi resurslarni samarali taqsimlab joylashtirish va iqtisodiy o`shishni tezlashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash va yuqori turmush darajasini ta’minlash imkonini tug`diradi. Bunday tizim mehnatni rag`batlantirish va shaxsiy boylikni, pirovardida esa milliy boylikning ortib borishini tezlashtiradi.

Bozor tizimi barcha mamlakatlar iqtisodiga xos bo`lib, u o`z doirasini to`xtovsiz kengaytirib bormoqda. Bu ayniqsa, sivilizatsiya darajasiga bog`liq bo`lib, u o`z taraqqiyot jarayonini tezlashtirib bormoqda. Eng taraqqiy etgan va qudratli iqtisodiyot salohiyatiga ega bo`lgan mamlakatlar asosan erkin bozor sharoiti tufayli xalq farovonligini yuqori ko`rsatkichlariga erishmoqdalar. Bular avvalo yuqori darajali industrial mamlakatlardir. Bularning ketidan borayotgan va bozor

munosabatlariga o`tishda yaxshi natijalarga erishayotgan mamlakatlarning soni ortib bormoqda.

Sivilizatsiyali iqtisodiyot (madaniylashgan iqtisodiyot) bozor mexanizmini, bozor munosabatlarini takomillashtirib, bozor iqtisodiyotiga, umuman iqtisodiy taraqqiyotga katta o`zgarishlar kiritmoqda. Bu iqtisodiyotning ijtimoiy yo`nalishi, davlatning iqtisodiyot voqeligiga ishtirokining kengayishi, aralash iqtisodiyotning ahamiyatli bo`lib borishi kabilarda o`z aksini topmoqda.

O`zbekiston ham o`z iqtisodiy taraqqiyotida bozor yo`lini tanladi. Zero, O`zbekiston faqat bozorgina inson manfaatlariga mos mehnatni rag`batlantiruvchi mexanizmga ega bo`lgani, jahon hamjamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichiga juda mosligi, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantira olishi, ishlab chiqarishni iste`molchilar manfaatiga bo`ysundirishi, tejamli xo`jalik yuritishning kuchli, oqilona jixatlarini yaratishi, yangiliklarga sezgirlikni oshirishi va fan-texnika yutuqlarini dadil joriy etish sharoitlariga ega bo`lishi kabilarni e`tiborga olgan xolda uzil-kesil bozor munosabatlariga o`tishni tan olib, bozor iqtisodiyoti sari dadil qadamlar qo`ymoqda.

Davlatimiz Prezidenti I.A. Karimov aytganidek, "Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadni amalga oshirishning mantig`i mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlangan va O`zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo`naltirilgan tarkibiy o`zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish siyosatini 2011 yildagi asosiy ustuvor yo`nalish sifatida davom ettirishni taqozo yetmoqda"².

Sobiq Ittifoqning tarqalishi, o`z mustaqilligini ta`minlash, iqtisodiy kompleksdan chiqish, milliy iqtisodiyotni shakllantirish, industrlashtirish kabi jiddiy qiyinchilik sharoitlarida O`zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o`tish boshlandi. Yangi iqtisodiy tuzumga o`tish yangi texnologiya asosida ishlab chiqarish tuzumini o`zgartirish va uni boqarish munosabatlari asosida olib borish bilan birgalikda amalga


² Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz tarraqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo`ljallangan eng muhim ustuvor yo`nalishlarga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma`ruzasi. // Xalq so`zi, 2011 yil 22 yanvar.

oshirila boshladi. Qisqa vaqt o`lishiga qaramay o`tish iqtisodiyoti davomida katta muvaffaqiyatlar kuzatilmoqda. Markazlashgan umumrejali ma`muriy iqtisodiyot o`rniga erkin bozor iqtisodiyoti sari katta qadamlar bosildi. Bozor munosabatlariga o`tishni ta`minlovchi yirik o`zgarishlar yuz berib, erkin iqtisodiy taraqqiyot uchun sharoitlar yaratilmoqda. Bozor iqtisodiyoti asoslari yuzaga kelmoqda.

Bozorni asosan talab, taklif, raqobat va bozor bahosi kabilar shakllantiradi. Umuman olganda bahoning tashkil topish usuliga qarab xo`jaliklarni bozor yoki nobozor xo`jaliklar qatoriga qo`shish mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o`tishni uch tomoni mavjud bo`lib, bu umumiylik, xususiylik va jahon tajribasidir. Umumiylik bozor iqtisodiga o`tishda barcha mamlakat, xudud va xalqlar uchun bir xildir. Aytaylik, uning umumiy darajalari (kategoriya), mexanizmlari, munosabatlari mavjudki, ular milliy davlat chegaralarini tan olmaydi, barchaga taalluqli va zarurdir, bularsiz bozor umuman o`z mazmuniga ega bo`lmaydi. Lekin hech vaqt bozor munosabatlarining shakllanishi mamlakatlarda bir xilda yuz bermaydi. Chunki, bozor iqtisodiga o`tishda mamlakatlarda o`ziga xos xususiyatlar mavjud bo`lib, bunga ta`sir ko`rsatuvchi tomonlar, omillar ko`pdir. Har bir mamlakatda bozor iqtisodiyotining

1.1.1.-chizma Bozor iqtisodiyotiga o`tishning tarkibiy qismi



barpo etilishi umumiy qonuniyatlarning aniq sharoitda amalga oshishi va barcha mavjud xususiyatlarni, aniq shart-sharoitlarni e`tiborga olgan xolda reallashuvi mumkin. Bu jarayonda har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, intellektual xolati, moddiy boyliklar, ayniqsa tabiiy boyliklar, mehnat resurslari kabi imkoniyatlar xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Agar bularga geografik joylashuv,

milliylik, urf-odat, xalq birligi kabilarni qo`shsak, umumiy sharoit yana ham oydinlashadi.

Bozor iqtisodiga o`tishdagi eng muhim tomonlardan yana biri jahon tajribasi, mamlakatlar hamkorligidir va bu bozor iqtisodiyotining zarur doimiy qismidir. Chunki bozor iqtisodiga o`tish jarayonining faqat mamlakatning o`z yo`li bilan chegaralanish doimo muvaffaqiyatli yakunlanmaydi. Jarayonni tez rejalashtirish rivojlangan mamlakatlar tajribasini o`rganish, ularni o`zlashtirish va tadbiq qilishni talab etadi. Bu bozor iqtisodiga o`tish muammolarini tez xal qilish, ortiqcha urinishlarni oldini olish, sinovdan o`tgan usul va yo`llarni qo`llash imkonini beradi.

Bundan tashqari rivojlangan mamlakatlar bozor tajriabsi jahon iqtisodiyotiga qo`shilish, jahon standartlarini o`zlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish uchun ham yo`l ochadi. Chunki jahonga yuz tutish, halqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etish, har bir mamlakat iqtisodiyotida faoliyat ko`rsatish avvalo uni o`rganish, bilish va o`z joyini topa bilishni talab etadi. Buning uchun mavjud yig`ilgan iqtisodiy faoliyat tajribalari, iqtisodiy sharoitlar, xususiyatlarni anglashgina bunga yo`l ochishi mumkin. Jahon standartlarini olsak, bu yuqori darajali talab asosi bo`lib, avvalo bunday standartlar, buni yaratuvchi texnologiya va erishilgan tajribaning o`zlashtirilishi talab etiladi.

Shunday qilib bozor iqtisodiyotiga o`tishning tarkibiy qismi bo`lgan jahon tajribasi uch tomonlama ahamiyat kasb etadi:

- bozor iqtisodiyoti shakllanishi va taraqqiy etishi bilan bog`liq rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish;
- jahon iqtisodiyotiga qo`shilish maqsadida mamlakatlar bozor rivoji tajribasini o`rganish;
- jahon standartlari darajasida bo`lishlik uchun ilg`or mamlakatlar bozor tajribasini qo`llash.

Ko`rinib turibdiki bozor iqtisodiyoti shakllanishi va uning mustahkamlanishi, taraqqiyotini rivojlangan mamlakatlar tajribasisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Bu jarayon axborot uchungina bo`lmay, bozor amaliyoti uchun zarurdir va buni o`rganish, qo`llash, foydalanish texnologiyasi bilan mustahkamlanishi talab etiladi.

Tajribalardan foydalanish esa xususiylik sharoitlari, milliylik, maxalliylik bilan mustahkamlanishi mavjud qo'llash sharoitlariga to'la ob'ektiv xolda moslashtirilishi talab etiladi.

Bozor tajribalarini axborot uchun o'rganish o'z yo'liga ega bo'lib, asosiy maqsad ularni to'la singdirib, bevosita qo'llash darajasiga olib kelishgina samara berishi va iqtisodiy jarayonni tezlashtirishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlar tajribalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llash mumkin emas va ularni mavjud sharoitlarga to'la moslashtirgan xolda o'zgartirish, mahalliy talablar, usullaridan to'la foydalanilgan xolda qo'llash yaxshi samaralar beradi.

Rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasi bozor iqtisodiyoti asoslariga kirib, bunga aloxida ahamiyat berish talab etiladi. Buni Fan sifatida tan olish, shakllantirish, predmet va usullarini belgilash muhim bo'lib, bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti uchun zarur shartdir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga jahon iqtisodiyoti rivoji tufayli yondoshuv ham muhimdir. Bozor iqtisodiyoti rivoji bilan jahon iqtisodiyoti shakllanishi o'sib boradi. Mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini ikki tomonlama o'z aksini topadi:

iqtisodiy resurslar joylanishi;

jahon mehnat taqsimoti.

Ma'lumki resurslar, ishlab chiqarish omillari yer yuzida bir xil joylashgan bo'lmay, juda turlichadir. Bir xil mamlakatlarda tabiiy boyliklar xillari va miqdori ko'p bo'lsa, boshqa xili kam yoki miqdori oz bo'lishi mumkin. Shuningdek, tabiiy iqlim ham bunda asosiy rol o'ynashi mumkin. Ishlab chiqarish mavjud resurslar asosida bo'lib, mahsulot yetishtirish shunga bog'liq bo'lishi mumkin. Bu maxsuslashuvga olib kelib, ma'lum mahsulotlar ko'p miqdorda ishlab chiqarilishi va buning miqdori ichki iste'mol xajmidan katta bo'lishi hamda chetga chiqarish zaruriyati tug'ilishi mumkin. Bu bilan jahon savdosi, mamlakatlarning tashqi savdosi avj olishi yuz berishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy munosabatlarda avvalo tabiiy omillar, so`ngra mahsulotlar ishtirok etadi. So`ngra mahsuslashuv orqali kapital, ish kuchi va texnologiya almashuvi yuzaga keladi.

Eksport va import ortiqchalik tufayli amalga oshsa, so`ngra zaruriyatga aylanib, oddiy iqtisodiy harakatga aylanadi. Bu barcha halqaro iqtisodiy munosabatlarni o`z ichiga oladi.

Tashqi iqtisodiy munosabatlar rivoji jahon iqtisodiyotining shaklanishiga olib kelib, uning rivojlanishi, kengayishiga olib keladi va o`z navbatida tajribalar almashuvini kuchaytiradi. Demak, rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasining ahamiyati jahon iqtisodiyoti rivoji tufayli o`sib boradi, ta'sir doirasini kengaytirib o`z tarkibiy qismiga aylantirib boradi.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishi bilan rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasining zaruriyatini kuchaytirib, bozor iqtisodiga o`tuvchi mamlakatlarga ta'sirini orttiradi va bozor iqtisodiga o`tishni tezroq boshidan kechirish taraqqiyot yo`liga o`tishni tezlashtiradi.

1.2. Rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasining magistrlar faoliyatidagi ahamiyati

Magistr bozor iqtisodiyotida yetakchi, katta mutaxassis sifatida innovatsion faoliyat ko`rsatuvchi shaxs hisoblanadi. U o`z mavqeiga ko`ra ilg`or, kompleks mutaxassisdir. Chunki u haqiqiy rahbar va yirik tashkilotchi bo`lishi talab etiladi. Shuning uchun ham magistr o`z nomi, faoliyat xususiyati bilan doimo yangilikka intiluvchi, jarayonga yangilik kiritib boruvchi xodim hisoblanadi.

Mamlakatlar bozor tajribasini o`rganish doimiy tartibda bo`lib, uzulishga yo`l qo`ymaslik zarur. Bu doimiy kundalik talabga aylanganidagina tegishli foyda berishi mumkin. Uzilgan xolda yoki istagan vaqtdagina e'tibor berib shug`ullanish kutilgan natija bermay, ma'lumotlardagi yaxlitlikni ta'minlamaydi. Shuning uchun avvalo bunga ajratiladigan vaqtni mazmunli aniqlash taqozo etiladi. Shu bilan bunga bu ish uchun ajratiladigan va belgilangan vaqt ma'lumot va axborot olish shart-sharoitlariga

bo`ysundirilgan bo`lishi shart. Lekin qanday bo`lmasin belgilangan vaqt doimiy tavsifda bo`lishi muhimdir.

Keyingi zarur talablardan yana biri manbaalarni aniqlash hisoblanadi. Ishni boshlash va bog`lanishdan oldin rivojlangan mamlakatlar tajribasini o`rganish manbaini to`la aniqlash va uning turi, xilini tanlay bilish bilan bog`liq ishlar amalga oshiriladi. Busiz ish samara berishi qiyin. Bunda aniqlik bo`lmasa vaqtning behuda ketishi, vaqtni unumsiz o`tkazish mumkin. Manbaalarni belgilashda eng, yangilik tomonlari bor, foydalanish oson bo`lganlarini tanlash va ularga moslashish maqsadga muvofiq bo`lib, bu har tomonlama yengillik tug`diradi.

Manbaalarni to`g`ri belgilagandan keyin foydalanish usullari va yo`llarini aniqlab belgilash kerak bo`ladi. Chunki har bir manbaadan foydalanishning o`z shart-sharoitlari bo`lishi mumkin. Bularni tezroq to`la bilgan xolda harakat qilish yaxshi samaraga olib kelishi ma`lum. Shart-sharoitlar manbaalarga qarab boshqacha bo`lishi, shu bilan birga ular oson xal qilinadigan yoki mushkulroq bo`lib, turlicha yondoshuvga olib kelishi mumkin.

Har sohaga o`xshagan rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasini o`rganish tizimlilikni talab qiladi. Bunda bevosita faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar, tashkilotga xos yoki tarmoqqa taalluqli bo`lib, bularga ko`proq e`tibor berish zarur bo`ladi. Bu sohadagi ma`lumot va axborotlar birinchi navbatda va tezroq, ko`proq bo`lishi turgan gap.

Shu bilan birga mamlakatlar bo`yicha eng zarurlarini ajratish mumkin bo`ladi. Korporatsiyalar, trans milliy kompaniyalarga aniqlik kiritish foydadan xoli emas.

Umumiy oqimli soha, mamlakatlar tizimi bo`lishi mumkin. Aytaylik, yetakchi "sakkizlik", "O`nlik", "yigirmalik" mamlakatlari, yoki Yaponiyaning o`zi, yangi industrial Sharqiy Osiyo mamlakatlari, shuningdek sobiq sotsialistik iqtisodli bozorga o`tuvchi mamlakatlar yoki sobiq Itifoqqa kiruvchi O`zbekistonga o`xshagan suveren mustaqil davlatlar kabilarga bo`lingan xolda o`rganib, ma`lumotlar yig`ish va tahlil qilish ma`lum ma`noni belgilaydi va tizimlar turliligiga qarab ish tutishga undaydi.

Magistr uchun eng muhim narsa ma`lumotlarni tahlil eta bilish va maksimum ravishda foydalana olishdir. Biznes faoliyatda yangilikka intilish rivojlangan

mamlakatlarda bozor tajribasini qo'llay bilishni talab etadi. Buning uchun bunga taalluqli ma'lumot, axborotlarni tahlil etish, to'la tushunish va amaliyotda ishlata olish darajasiga olib kelish ishlarini amalga oshirish jarayonlarini bajarish kerak. Shu bilan birga o'z amaliyotidagi o'lchovlarga taqqoslay bilish salbiy va ijobiy tomonlarini aniqlay bilish muhimdir. Shu taqdirda amalda qo'llash uchun yo'l ochilishi mumkin.

Tahlil eta bilish, taqqoslash xulosa chiqarishga olib kelib, amaliy yo'llarni aniqlash talab etiladi. Buning uchun bu tajribalardan kelib chiqadigan xulosalardan foydalanish yo'llari, usullarini belgilash bilan bog'liq ishlarni bajarish kerak. Bunda samaradorlikni belgilash amalda qo'llash darajasini aniqlash bilan bog'liq vazifalar ado etiladi.

Ma'lumot, axborotlarni tizimlay bilish va vaqt, hudud, tarmoqlar bo'yicha tartiblashtirib borishi zarur. Bularni yig'ish tartibi, ularni o'rinlashtirish va kerakli vaqtda qayta foydalanish imkonini beruvchi tartibli xolda saqlanishini ta'minlash talab etiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda bozor tajribasini o'rganish va ulardan samarali foydalanish diqqat bilan ish tutishni taqozo etadi. Shu bilan birga bu ma'lumot va tajribalardan firma ichki faoliyati va chet iqtisodiy harakatlarda, shuningdek halqaro faoliyatda foydalanishda mustaqil ish yurita bilish magistrdan malakali bo'lishni talab etadi.

Magistr bu sohada ilmiy ishlar olib borishi hamda tajriba materiallaridan erkin xolda keng foydalana olishni taqozo etadi. Chunki bu sohadagi faoliyat shaxsan o'z manfaati bilan chegaralanmay boshqalar uchun foyda keltirishi kerak.


Magistr jahon bozori tajribasidan keng foydalanishi uchun bunga taalluqli vositalarni bilishi va erkin tarzda ishlata olishi zarur. Bular internet, kompyuter, ilmiy adabiyotlardan iboratdir. Bunda boshqalarning yordamisiz mustaqil ishlay bilishi zarur.

Shuni ta'kidlash kerakki, bozor munosabatlari harakati, biznes avji jahon tajribasisiz kutilgan natija bermaydi va bu vaqtinchalik narsa bo'lmay, doimiy davom etuvchi, to'xtovsiz yangilanib turuvchi xodisalarki, buni hech qo'ldan bermay doimo

shug`ullanib borish maqsadga muvofiqdir. Bu har bir magistr uchun ihtiyoriy zaruriyatga aylanishi hamda xavas, ko`ngil qo`yish bilan bajarilib borishi talab etiladi. Magistr uchun jahon bozor tajribasini o`rganib, uni amalda qo`llab borish zarur shartdir.

1.3. Rivojlangan mamlakatlar tushunchasi

Bozor iqtisodiga o`tishda jahon tajribasi ichida rivojlangan mamlakatlar aloxida o`rin egallaydi. Rivojlangan mamlakatlar bozor munosabatlari asosida katta-katta iqtisodiy muvaffaqiyatlarni qo`lga kiritganda, hatto asrlar ichida chiniqib, juda ko`p marta sinovlardan o`tgan. Bu munosabatlar chiniqqan, murakkablashgan, samaradorligini amalda isbotlagan va iqtisodiyotni yuqori cho`qqilarga olib chiqib, rivojlanishning tezlashuvini ta`minlagan. Rivojlangan bozor usuli mamlakatlar jamiyati taraqqiyotning moddiy asosiga aylanib, uning barcha muammolarini xal qilishda negiz hisoblanadi. Chunki bu mamlakatlar o`z taraqqiy etgan iqtisodiyotlariga asoslangan xolda ichki va tashqi vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharoitlariga ega bo`lgan davlatlardir. Bunday eng muhim tomon yuqori texnikali ishlab chiqarish xanizmlariga ega bo`lish, barcha xalq xo`jaligi soha va tarmoqlarini sanoat usuli bilan ta`minlanganligi bo`lib, bu yoppasiga yuqori unumli mehnatni joriy etish imkonini tug`diradi. Bozor usuli ta`siri ostida iqtisodiyotning tuzumli tuzilishi tub o`zgarishlarga olib kelib, birinchi sektor hisoblangan tabiatga asoslangan qishloq xo`jaligi, o`rmonchilik, baliqchilik yalpi ichki mahsulotda orqaga surilib, birinchi o`ringa xizmat ko`rsatish, so`ngra sanoat va qurilish chiqadi. Sanoatda esa ishlov beruvchi tarmoqlar yetakchi o`rinni egallab, sanoat asosini tashkil etgan. Sanoat usuli xalq xo`jaligini barcha sohalariga tarqalib, uning texnologik asosini tashkil etgan. Bu esa umumiy rivojlanishni ta`minlab, jamiyat talabini qondirish jarayonini tezlashtirgan.



1.3.1-rasm. Dunyo mamlakatlarini toifalashtirish

Bozor iqtisodiyoti sivilizatsiyalashgan bo'lib, inson manfaatiga qaratilishi, ijtimoiy yo'nalishda bo'lishligi asos hisoblangan. Yovvoyilashgan erkin raqobatning oldini olish yo'llari qo'llanilib, madaniy usullari o'rin egallagan. Bozor

munosabatlari marketing va konsyumerizm bilan mustahkamlanib, iste'molchilar manfaatidan kelib chiqishga bo'ysuna boshlagan.

Bozor munosabatlari jamiyat ijtimoiy – iqtisodiy xolatining yuqori darajali bo'lishini ta'minlay oldi. Demokratik tartiblar hukmronligi ta'minlandi. Aholining huquqiy erkinligi o'rnatilib, insoniy manfaatlar ustuvorligi ta'minlana boshladi. Insoniy hayotiy kafillikning yuzaga kelishi eng muhim va asosiy yutuqlardan hisoblanadi.

Iqtisodiy erkinlik, demokratik xolat, inson huquqlarini ta'minlash kabilar jamiyat taraqqiyotiga aylandi. Bunda rivojlangan mamlakatlarda aholi turmush darajasi, turmush sifati yetakchilik qilib, taraqqiyotning eng asosiy ko'rsatkichlarini tashkil etadi. Turmush darajasining asosini moddiy ta'minlanish, hayotiy sharoitlar mavjudligi tashkil etadi. Bu mo'l-ko'lchilikning ta'minlanishini zarur shart qilib qo'ysa, shu bilan birga buning inson hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lishini talab etadi. Xaridorlik qobiliyatining yuqori darajada bo'lishi erkin va to'la iste'molga yo'l ochadi. Bular esa turmush darajasi yuqoriligining asoslarini belgilaydi. Tovarlar va xizmatlar mo'l-ko'lchiligining inson iste'moliga qaratilishi shaxsiy daromadlar darajasiga bog'liqdir.

Rivojlangan mamlakatlarda shaxsiy daromad boshqalarga nisbatan juda yuqori bo'lib, bu turmush darajasining o'sib borishida asos hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, texnik taraqqiyot yuqoriligi, yalpi ichki mahsulot tarkibi takomillashganligi, mehnat unumdorligining yuqoriligi, maoshlarining kattaligi, daromadlarning yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi. Rivojlanyotgan mamlakatlarga nisbatan bu sohadagi farq juda katta bo'lib, 8-10 martani tashkil etadi. Aytaylik, AQSH va G'arbiy yevropa mamlakatlarini Sobiq Ittifoq respublikalari bilan taqqoslasak, o'rtacha bir ishchining kundalik yaratgan mahsuloti miqdori 8-9 marta ko'p. YOki mahsulot tarkibidagi mehnat qismini olsak, rivojlangan mamlakatlarda 60-80% ni tashkil etsa, suveren mustaqil davlatlarda 30-35%dan oshmaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda ish joylari ancha qimmat baholanadi va ish kuchi juda qadrlidir. Shuning uchun ham mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan

tadbirlar juda qadrlil hisoblanadi va kam mehnatli mahsulot ishlab chiqarish muhim bo`lib, avvalo intellektual mehnatga talab yuqoridir..

Maoshlarning yuqori bo`lishi, daromadlarning kattaligi iste`molning yuqori bo`lishini ta`minlaydi va iste`molning to`la hamda sifatli bo`lishiga asos soladi. Turmush darajasining yuqoriligi va o`sib borishi turmush sifatini ta`minlaydi. Turmush sifati esa avvalo iste`mol darajasi, hayotiy sharoitlarning mavjudligi bilan bog`liqdir. Turmush sifati yaxshi yashash, erkin hayot kechirish va buning uchun barcha moddiy va nomoddiy sharoitlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham turmush sifatini faqat moddiy boyliklar bilan o`lchab bo`lmaydi. Buning omillari juda ko`p bo`lib, sivilizatsiyali jamiyat taraqqiyotining eng katta muvaffaqiyati hisoblangan xolda u eng muhim xodisadir.

Turmush sifati kasal bo`lishlik, shaxsiy xavfsizlik, tabiiy muxit, ishsizlik, turli xil tovarlar va xizmatlarni iste`mol etish darajalari bilan belgilanib, eng muhimi umr uzoqligidir. Ma`lumki, rivojlangan mamlakatlarda o`rtacha umr uzoqligi 85 yilga teng bo`lsa, hatto bu ko`rsatkich 25 yilga teng mamlakatlar ham mavjud. Eng umr uzoqligi Yaponiya bo`lib 87 yilni tashkil etadi. Rosiyada bu ko`rsatkich 65 yildan iborat.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishning eng ma`qul usuli, chunki bu imkoniyatlardan maksimal foydalanish sharoitini yaratadi. Shu bilan birga iste`molchilar manfaatidan kelib chiqib, iqtisodiy taraqqiyotni xalq manfaatiga bog`lay oladi. Rivojlangan mamlakatlardagi erishilgan iqtisodiy daraja bozor munosabatlari rivoji natijasidir. Bu shunchalik inson manfaatlarini ta`minlay oladiki, ko`pchilik bunday mamlakatlarga xavas bilan qarab, shu darajaga erishishni istaydi, shunday mamlakatlarda yashashga intiladi. Bunday insonga xos haqiqiy hayot kechirish uchun mos iqtisodiyot bozor munosabatlari tufayli yaratilishini rivojlangan mamlakatlarda bozor tajribasi amalda isbotlab bermoqda.

Ma`lumki, jahon iqtisodiy standartlari rivojlangan mamlakatlar tajribasidan olinadi. Shu bilan birgalikda ekologik muammolarni xal qilishda ham rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasi ustunlik qilmoqda.

1.4. Rivojlangan mamlakatlar belgilari

Jahon iqtisodiyoti ko'p turli iqtisodiyotlardan iborat o'lib, u bir necha guruhlariga bo'linadi. Buning ichida 3 xil yirik guruhlariga bo'linishi e'tiborlidir. Bular: rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotli mamlakatlardir. Mamlakatlarni bu asosiy guruhlariga qo'shishlik turli usul (kriteriya)lar bilan belgilanadi. Eng avvalo iqtisodiyot tafsiloti, ya'ni bozor yoki o'tkinchi iqtisodiyot bilan mamlakatlar farqlanadi va baholanadi. So'ngra ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Bunda yalpi ichki mahsulot (YAIM) ishlab chiqarish xajmi uning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi hamda YAIMning tarmoqlar bo'yicha tuzumi, turmush darajasi va sifati bilan o'lchanadi.

1.4.1.-jadval

Jahon mamlakatlari yalpi mahsulotining taqsimlanishi 2010 yil

№	Mamlakatlar nomi.	Yalpi ichki mahsuloti (nominal), mln.dollar.	Yalpi ichki mahsuloti (nominal), %.
1.	Afg'oniston	13 320	0,0231
2.	Albaniya	11730	0,0203
3.	AQSH	14270000	24,804
4.	Angola	69710	0,1211
5.	Antigua va Barduba	1180	0,002
6.	Argentina	301300	0,5237
7.	Armaniston	8683	0,015
8.	Avstraliya	920 000	1,5991
9.	Avstriya	374400	0,6507
10.	Bagama	7403	0,0128
11.	Baxrayn	19360	0,0336
12.	Bangladesh	92120	0,1601
13.	barbados	3595	0,0062
14.	Belgiya	461500	0,8021
15.	Beliz	1407	0,0024
16.	Belorussiya	49040	0,0852
17.	Benin	6401	0,0111
18.	BAA	228600	0,3973
19.	Balgariya	44780	0,0778
20.	Boliviya	17550	0,0306
21.	Bosniya va Gersegovina	16960	0,0294
22.	Botsvana	10810	0,0187
23.	Braziliya	1482000	2,576
24.	Bruney	14700	0,0255
25.	Burkina Faso	7780	0,0135
26.	Burundi	1410	0,0025
27.	Butan	1493	0,0025
28.	Buyuk Britaniya	2198000	3,8206
29.	Daniya	308300	0,5358
30.	Dominika	376	0,0006

31.	Dominikana Respublikasi	44720	0,0777
32.	Efiopiya	33920	0,0589
33.	Ekvador	55610	0,0966
34.	Ekvatorial Gvineya	11180	0,0194
35.	Eritreya	1694	0,0029
36.	Eron	331800	0,5767
37.	Estoniya	18050	0,0313
38.	Fiji	3048	0,0052
39.	Fillipin	3048	0,0052
40.	Finlyandiya	242300	0,4211
41.	Fransiya	2635000	4,5802
42.	Gabon	10940	0,019
43.	Gaiti	6908	0,012
44.	Gambiya	726	0,0012
45.	Gana	14760	0,0256
46.	Gayana	1196	0,002
47.	Germaniya	3235000	5,6231
48.	Gonduras	14580	0,0253
49.	Grenada	683	0,0011
50.	Grettsiya	338300	0,588
51.	Gruziya	10980	0,019
52.	Gvatemala	36470	0,0633
53.	Gvineya	4436	0,0077
54.	Gvineya-Bisau	438	0,0007
55.	Xindiston	1243000	2,1606
56.	Indoneziya	514900	0,895
57.	Iordaniya	226800	0,3942
58.	Iroq	70100	0,1218
59.	Islandiya	11780	0,0204
60.	Ispaniya	1438000	2,4995
61.	Isroil	215700	0,3749
62.	Italiya	2090000	3,6328
63.	JAR	277400	0,4821
64.	Jazoir	134800	0,2343
65.	Jibuti	1089	0,0018
66.	Kabo-Verde	1755	0,003
67.	Kambodja	10900	0,0189
68.	Kamerun	21820	0,0379
69.	Kanada	1319000	2,2927
70.	Keniya	30210	0,0525
71.	Kipr	23220	0,0403
72.	Kiribati	114	0,0001
73.	Kolumbiya	228600	0,3973
74.	Kongo	8632	0,015
75.	Kongo Demokratik Respublikasi	11100	0,0192
76.	Koreya Respublikasi	800300	1,3911
77.	Koreya Xalq Demokratik Respublikasi	27820	0,0483
78.	Kosta Rika	29290	0,0509
79.	Kotd'Ivuar	22910	0,0398
80.	Kuba	55430	0,0963
81.	Laos	5721	0,0099
82.	Latviya	24200	0,042
83.	Lesoto	1624	0,0028
84.	Liberiya	868	0,0015

85.	Litva	35960	0,0625
86.	Livan	32660	0,0567
87.	Liviya	60610	0,1053
88.	Lixtenshteyn	4993	0,0086
89.	Lyuksenburg	46510	0,0808
90.	Madagaskar	8974	0,0155
91.	Malavi	4909	0,0085
92.	Malayziya	207400	0,3605
93.	Maldiv	807,5	0,0014
94.	Mali	8757	0,0152
95.	Malta	7714	0,0134
96.	Markaziy Afrika Respublikasi	1983	0,0034
97.	Marokash	90780	0,1577
98.	Marshall orollari	161,7	0,0002
99.	Mavrikiy	9156	0,0159
100.	Mavritaniya	3241	0,0056
101.	Meksika	866300	1,5058
102.	Mikroneziya	238,1	0,0004
103.	Misr	188000	0,3267
104.	Moldaviya	5328	0,0092
105.	Mangoliya	4212	0,0073
106.	Mozambik	9654	0,0167
107.	Myanma	26520	0,046
108.	Namibiya	9039	0,0157
109.	Nepal	12470	0,0216
110.	Niderlandiya	789700	1,3726
111.	Niger	5323	0,0092
112.	Nigeriya	165400	0,2875
113.	Nikaragua	6298	0,0109
114.	Norvegiya	369000	0,6414
115.	Ozarbayjon	42510	0,0738
116.	Palau	164	0,0002
117.	Panama	24750	0,043
118.	Papau yangi Gvineya	8200	0,0142
119.	Paragvay	13610	0,0236
120.	Peru	127400	0,2214
121.	Pokiston	166500	0,2894
122.	Polsha	423000	0,7352
123.	Portugaliya	219800	0,382
124.	Qamar orollari	525	0,0009
125.	Qatar	92540	0,1608
126.	Qirg'iziston	4681	0,0081
127.	Qozog'iston	107000	0,1859
128.	Quvayt	114900	0,1997
129.	Rossiya	1255000	2,1814
130.	Ruanda	5011	0,0087
131.	Ruminiya	160700	0,2793
132.	Salvador	22170	0,0385
133.	Samoa	567	0,0009
134.	San-Marino	1048	0,0018
135.	San-Tome va Prinsipi	189	0,0003
136.	Saudiya Arabistoni	379500	0,6596
137.	Senegal	12610	0,0219
138.	Sent-Kits va Nyovis	547	0,0009

139.	Sent-Lyusiya	991	0,0017
140.	Sent-Vinsent va Grenadina	625	0,001
141.	Serbiya	42390	0,0736
142.	Seyshel orollari	656	0,0011
143.	Singapur	163100	0,2836
144.	Slovakiya	88300	0,1534
145.	Sloveniya	49550	0,0861
146.	Solomon orollari	668	0,0011
147.	Somali	2731	0,0047
148.	Sudan	54290	0,0943
149.	Surinam	3147	0,0054
150.	Suriya	54350	0,0944
151.	Svazilend	2929	0,005
152.	Syerra-Leone	2064	0,0035
153.	Tailand	266400	0,463
154.	Tanzaniya	22160	0,0385
155.	Togo	2771	0,0048
156.	Tojikiston	4577	0,0079
157.	Tonga	259	0,0004
158.	Trinidad va Tobago	2300	0,0399
159.	Tunis	39570	0,0687

Yuqoridagi jadvalni quyidagicha turkumlash mumkin. Bundan xulosa shuki, dunyoda 20 davlat yer shari quruqligining 61,78% tashkil qilar ekan, dunyoda 20 davlat yer shari aholisining 70,55%ni hamda dunyoda 20 davlat jahon yalpi ichki mahsulotini 82,45%ni tashkil qilar ekan. E'tibor bersangiz turli ranglarga bo'yalgan mamlakatlar bu uch ko'rsatkichda ishtirok etgan: ya'ni, Rossiya yer shari quruqligini 11,48% egallagan holda 2,06% dunyo aholisiga ega, shu bilan birga 2,18% dunyo yalpi ichki mahsulotida ulushi bor.

Jalvalda 160 dan ortiq mamlakatni 3 guruhga bo'lingan xolda asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari keltirilgan. Yuqori darajali ko'rsatkichga 24 mamlakat ajratilgan bo'lib, ularning aholi soni 13,5 % ga teng bo'lgan xolda umumiy yalpi mahsulotda 80% ga teng bo'lgan. Aksincha, past darajali mamlakatlar soni 45 ta bo'lib, aholining miqdori 55 % ga teng bo'lgan xolda umumiy YAIMning 5%inagina tashkil etgan. Jon boshiga olganda YAIM 324 dollar bo'lib, yuqori darajali mamlakatlarga nisbatan 71 marta pastdir. Iste'mol xajmini taqqoslasak, bu ko'rsatkich bo'yicha tafovut 60 barobarga to'g'ri keladi.

O'rta darajadagilarga nisbatan ham aholi jon boshiga YAIM 11 barobar va iste'mol xajmi bo'yicha esa 10 barobar yuqoridir.

Yuqori darajadagilar albatta rivojlangan mamlakatlardir. Bular bilan boshqa mamlakatlar iqtisodiy darajasidagi farq juda katta. Ayniqsa past darajali mamlakatlar bilan taqqoslash keskin farqlar mavjudligini ko`rsatadi. Shu bilan birga rivojlangan mamlakatlar juda katta imkoniyatlarga egaligi va ustuvor ahamiyatli istiqodiyot darajasida ekanligini bildiradi.

1.4.2.-jadval
Jahon mamlakatlari yalpi mahsulotining taqsimlanishi 2010 yil

Maydoni, %		Aholisi, %		Yalpi Ichki Mahsulot, %	
Rossiya	11,48	Xitoy Xalq Respublikasi	19,49	Amerika Qo'shma Shtatlari	24,80
Kanada	6,70	Hindiston	17,29	Yaponiya	8,78
Amerika Qo'shma Shtatlari	6,47	Amerika Qo'shma Shtatlari	4,52	Xitoy Xalq Respublikasi	8,27
Xitoy Xalq Respublikasi	6,40	Indoneziya	3,46	Germaniya	5,62
Braziliya	5,72	Braziliya	2,82	Fransiya	4,58
Avstraliya	5,16	Pokiston	2,48	Buyuk Britaniya	3,82
Hindiston	2,20	Bangladesh	2,39	Italiya	3,63
Argentina	1,87	Nigeriya	2,30	Tuvalu	2,60
Qozog'iston	1,83	Rossiya	2,06	Braziliya	2,58
Sudan	1,68	Yaponiya	1,85	Ispaniya	2,50
Jazoir	1,60	Meksika	1,58	Kanada	2,29
Kongo Demokratik Respublikasi	1,57	Filippin	1,37	Rossiya	2,18
Saudiya Arabistoni	1,44	Vyetnam	1,25	Hindiston	2,16
Meksika	1,32	Efiopiya	1,24	Avstraliya	1,60
Indoneziya	1,28	Germaniya	1,19	Meksika	1,51
Liviya	1,18	Misr	1,15	Koreya Respublikasi	1,39
Eron	1,09	Eron	1,09	Niderlandiya	1,37
Mongoliya	1,05	Turkiya	1,06	Turkiya	1,03
Peru	0,86	Kongo Demokratik Respublikasi	0,99	Indoneziya	0,90
Chad	0,86	Tailand	0,98	Shveysariya	0,84
JAMI	61,78	JAMI	70,55	JAMI	82,45

Rivojlangan mamlakatlar qatoriga G`arbiy yevropa mamlakatlarining barchasi, AQSH, Kanada, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi mamlakatlar kiradi. Shu bilan birga 1997 yildan boshlab janubiy Koreya, Singapur, Gonkong, Tayvan va Isroilni kirita boshlandi. Shunday qilib bunday mamlakatlar soni 30 taga yetdi. Albatta bularning soni ko`payib boradi. Bu avvalo yevropa Ittifoqiga qo`shiladigan Polsha, Vengriya, Chexiya, Sloveniya, Kipr, Estoniyalar hisobiga bo`ladi.

Rivojlangan mamlakatlar ichida YAIM bo`yicha eng salmoqliklari bo`lgan "Ettliklarni" ajratadilar. Bular: AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Italiyalardan iborat.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko`rinib turibdiki, bu mamlakatlar haqiqatdan ham jahonda eng iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar va har tomonlama kuchli, inson taqdirini belgilovchi iqtisodiy yuqori ko`rsatkichlarga ega.

1.4.3-jadval

Rivojlangan "Yettilar" ko`rsatkichlari 2010 yil

№	Mamlakatlar	Aholi mln.	Yalpi ichki mahsuloti (nominal), mln.dollar.	Yalpi ichki mahsuloti (nominal), %	YAIM hajmi, mln. doll.	Jon boshiga YAIM doll.	O`rtacha umr ko`rish, yil hisobida
1.	AQSH	282	14 270 000	24,804	9646	34260	77
2.	Kanada	31	1319000	2,2927	840	27500	78
3.	Germaniya	82	3235000	5,6231	2054	25010	77
4.	Yaponiya	127			3354	26460	81
5.	Fransiya	59	2635000	4,5802	1440	24470	79
6.	Buyuk Britaniya	60	2198000	3,8206	1407	23550	80
7.	Italiya	58	2090000	3,6328	1348	23370	78

shuki, aholiga xizmat ko`rsatish juda taraqqiy etgan bo`lib, iqtisodiyotning ko`pchiligini tashkil etadi. Bu ayniqsa bandlik darajasida sezilarlidir. Aytaylik, AQSHda xizmat sohasidagi bandlik umumiyga nisbatan 85%ni tashkil etadi. G`arbiy yevropa mamlakatlarida ham bu ko`rsatkich 65-80 % ga boradi. **SMM mamlakatlarini** olsak, bu sohadagi bandlik 27-30%dan oshmaydi. Demak, jamiyat taraqqiyotida xizmat ko`rsatish sohasi asosiy belgi bo`lib hisoblanadi. Keyingi guruhga kiruvchi mamlakatlar rivojlanayotganlar bo`lib, bular bozor iqtisodiyotli va iqtisodiy past rivodlangan mamlakatlardir. Halqaro valyuta fondiga kiruvchi 182 mamlakatdan 121 tasi shular qatoriga kiradi. Bular ko`pchilikni tashkil etuvchi va aholi soni bo`yicha eng yirik mamlakatlar bo`lishiga qaramasdan jahon YAIM mahsulotning 28% to`g`ri keladi, xolos. Bular juda turli darajadagi mamlakatlardir. Chunki ancha rivoj topgan, jon boshiga YAIM ko`p to`g`ri keladigan Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan birga juda qoloq mamlakatlar ham ko`p. Eron ko`rfazi, yangi industrial Osiyo mamlakatlari albatta boshqalardan o`z iqtisodiy darajasi bo`yicha farqlanadi.

Bu guruhdagi neft eksport qiluvchi OPEK mamlakatlarini ajratadilar. Chunki tabiiy boylikka ega mamlakatlar o`z iqtisodiyotini ancha mustahkamlab, kelajakda rivojlanish imkoniga ega bo`ladilar.

Asriy qoloqlik, tabiiy qashshoqlik, dengizga chiqishdan mahrum bo'lgan, tabiiy ofatlar tez duch keladigan sharoitdagi kam rivojlanayotgan mamlakatlar soni ortmoqda va ular hozir 47 taga yetgan. Bulardagi eng muhim muammo qoloqlik, qashshoqlikni oldini olish uchun iqtisodiy resurslarning yo'qligidir.

Uchinchi mamlakatlar guruhi o'tuvchi iqtisodiyotlilar bo'lib, bular asosan sobiq sotsialistik ma'muriy-buyruqbozlikdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlardir. Bu 12 Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlari va 15 Sobiq Ittifoq respublikalaridir. Shuningdek, Mongoliya, Xitoy va Vetnamlardir. Bu guruhdagi mamlakatlar jahon YAIMning 12 %ini xosil qiladi. Buning ichida Rossiya – 3%, Xitoy – taxminan 12 %ni tashkil etadi. Hozirgi vaqtga kelib sobiq sotsialistik ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodi tizimida faqat Kuba va Shimoliy Korea mamlakatlari qoldi.

1.5. “Rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasi”

fani predmeti va usullari

“Rivojlangan mamlakatlarda bozor tajribasi” fanining predmeti jahon bozori tajribasi tahlili va uni o'rganishdan iborat bo'lib, bunda asosiy diqqat rivoj topgan mamlakatlarga qaratiladi. Bu jarayon tizimli tavsifga egadir. Avvalo bozor iqtisodiyotiga o'tish va uning rivojlanishiga oid umumiy masala, qoidalarga e'tibor berib, qisqacha talqin beriladi. Bu taqqoslash va predmetni aniqlash hamda belgilashga yordam beradi. Bular qatoriga bozor iqtisodiyoti shakllanishi asosiy shartlari, ko'p mulkchilik, tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes, bozor milliy modellari kabilarni kiritish mumkin.

Avvalo eng yirik va yuqori darajada rivojlangan hamda bozor rivoji etaloni vazifasini bajaruvchi mamlakatlardan AQSH, Yaponiya, Fransiya va Germaniya iqtisodiyotining shakllanishi, rivojlanishi xususiyatlari, belgilari tahlil etilgan xolda bayon etiladi. Ma'lumki, bu mamlakatlarning bozor sohasidagi tajribalari juda katta va ularga taqlid qilish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga bu mamlakatlarning jahon mamlakatlari rivojiga ta'siri katta va bu sohada juda xajmli salohiyatga ega.

Rivojlangan mamlakatlar yetakchilarini birlashtiruvchi “ettilik” aloxida o`rganiladi. Shunga o`xshash yevropa Ittifoqiga ham mustaqil o`rin ajratilib tahlil etiladi. Ahamiyatiga ko`ra e`tibor berishni talab qiluvchi Xitoy mamlakatidagi bozor islohotlariga ham aloxida o`rin ajratilib, bundagi diqqatga sazovor tajribaga arziydigan masalalar ko`rib chiqiladi.

O`ziga xoslik xususiyatlari mavjud bo`lgan Osiyodagi yangi industrial mamlakatlar “Osiyo ajdaholari” va “Osiyo yo`lbarlari” deb atalib, bularda ham bozorga o`tish va uni mustahkamlash sohasida keng tajribalar mavjud. Shu bilan birga bularga O`zbekistonga xos mentalitet o`xshovliklar bo`lib, biz uchun amaliy ahamiyatlidir.

Bozorga o`tishda sobiq sotsialistik iqtisodli mamlakatlar tajribasi, ayniqsa hozirgi SMM mamlakatlar tajribalari diqqatga sazovorki, bizning amaliyotimizda o`xshovlik ko`p uchraydi. Bular ham diqqatga sazovor bo`lib, tahlil etilgan holda o`rganiladi. Markaziy Osiyo davlatlari bizga bevosita qo`shni holda umumiyliklar ko`p va bularni ham e`tiborga olish zarur.

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va taraqqiyoti ko`p jixatdan umumjahon tashkilotlari faoliyatiga bog`liqdir. Bular BMT, Jahon valyuta fondi va shu toifadagi banklar kabilar bo`lib, bularni o`rganishlik kerakligini davrning o`zi taqozo etadi.

Bundan tashqari iqtisodiy hamkorlikka qaratilgan halqaro birlashmalar, kelishuvlarning ham ahamiyati kam emas, ularning faoliyat tajribalarini o`rganish, amaliyotimizga taalluqli tomonlarini belgilash foydadan xoli emas. Ayniqsa bunda O`zbekiston bevosita aloqador bo`lgan tashkilotlar ahamiyatlidir, qaysiki sarmoyalar va tashqi savdo bilan bog`langan jahon, qit`alar banklari, halqaro savdo tashkiloti kabilardir.

Rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasini o`rganishda davlat iqtisodiy faoliyatiga ahamiyat beriladi. Chunki bozor usuli iqtisodiyot taraqqiyotini to`liyg`icha ta`minlay olmaydi va buning uchun qo`shimcha mexanizmlar talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, bozor umumiy iqtisodiy taraqqiyot uchun yordamga muxtojdir. Bunday yordamchi kuch davlat va jamiyat faoliyati bo`lib, sivilizatsiya taraqqiy qilgan sari bularning ahamiyati o`sib bormoqda va bozor

sharoitida iqtisodiy taraqqiyotning ijtimoiylik ta'sirini kuchaytirish, iste'molchilar manfaatini himoyalash, iqtisodiy istiqbollarni belgilash, pul-kredit, solig', byudjet siyosatlaridan to'g'ri foydalanish imkonini bermoqda. Ijtimoiy infratuzilmaning asosan davlat tasarrufida bo'lishi va buning bozor iqtisodiyotiga samarali ta'siri, umuman davlat va bozor iqtisodiyotining bir-biriga mos xolda harakatda bo'lishi iqtisodiy taraqqiyot va aholi turmush darajasi muammolarini xal qilishda juda qo'l kelmoqda. Bunday eng muhim tomonlar bozorni ijtimoiy tartiblashtirish, milliy iqtisodiyotni himoyalash, iqtisodiy strategiyalarni boshqarish, davlat tijoratini uyushtirish kabilardan iborat.

Jahonda ikki qarama-qarshi tizimlar mavjudligida kapitalizm asosan salbiy hisoblanar va faqat ekspluatatsiya mazmunida talqin etilar edi. Albatta buning bozor iqtisodiga o'tish davrlariga oid XIX va XX asr birinchi yarimlarida jonli tomonlari mavjud edi. Lekin so'ngra, ayniqsa hozirgi bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar salmog'i ortib borishi bilan bunday tushunchalar o'zgarmoqda. Chunki bu jarayon bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti bilan ijtimoiy muammolarning muvaffaqiyatli xal qilinishi tufayli ijobiy o'zgarmoqda va insoniylik, insonparvarlik mazmunini oshkor qilmoqda va bozor iqtisodiyoti rivoji o'z mazmunini ko'proq ochmoqda.

“Rivojlangan mamlakatlarda bozor tajribasi” fanining predmetini o'rganishda taqqoslash, tarixiy-mantiqiylik usullarni tajribada sinash kabilas asosiy usullari qilib qo'llaniladi. Haqiqatdan ham usullar qabul qilish muammolarini ijobiy xal qilishda ijobiy o'rin egallashi mumkin. Chunki har qanday bozor iqtisodi sohasidagi tajribalarni to'g'ridan-to'g'ri boshqa mamlakatlarda qo'llab amalga tadbiiq etib bo'lmaydi. Bu jarayon juda murakkab va ehtiyotkorlikni talab etadi-ki, har tomonlama tahlil etish, o'lchash, taqqoslash, foydali tomonlarini aniqlash, muayyan sharoitlarga mosligini belgilash va qo'llaniladigan sharoitlarni to'la e'tiborga olish kabilarni aniqlashda zarur va samarali usullardan foydalanish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, jahon iqtisodiyoti rivojlanishi bilan rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasini o'rganish zaruriyatini kuchayib, bozor iqtisodiga

o`tuvchi mamlakatlarga ta`sirini orttirmoqda va bozor iqtisodiga o`tishni tezroq boshidan kechirish taraqqiyot yo`liga o`tishni tezlashtirmoqda.

Shuni ta`kidlash kerakki, bozor munosabatlari harakati, biznes avji jahon tajribasisiz kutilgan natija bermaydi va bu vaqtinchalik narsa bo`lmay, doimiy davom etuvchi, to`xtovsiz yangilanib turuvchi xodisalarki, buni hech qo`ldan bermay doimo shug`ullanib borish maqsadga muvofiqdir. Bu har bir magistr uchun ihtiyoriy zaruriyatga aylanishi hamda xavas, ko`ngil qo`yish bilan bajarilib borishi talab etiladi. Magistr uchun jahon bozor tajribasini o`rganib, uni amalda qo`llab borish zarur shartdir.

Ma`lumki, jahon iqtisodiy standartlari rivojlangan mamlakatlar tajribasidan olinadi. Shu bilan birgalikda ekologik muammolarni xal qilishda ham rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasi ustunlik qilmoqda.

“Rivojlangan mamlakatlarda bozor tajribasi” fanining predmetini o`rganishda taqqoslash, tarixiy-mantiqiylik usullarni tajribada sinash kabilar asosiy usullari qilib qo`llaniladi. Haqiqatdan ham usullar qabul qilish muammolarini ijobiy xal qilishda ijobiy o`rin egallashi mumkin. Chunki har qanday bozor iqtisodi sohasidagi tajribalarni to`g`ridan-to`g`ri boshqa mamlakatlarda qo`llab amalga tadbiiq etib bo`lmaydi. Bu jarayon juda murakkab va ehtiyotkorlikni talab etadi-ki, har tomonlama tahlil etish, o`lchash, taqqoslash, foydali tomonlarini aniqlash, muayyan sharoitlarga mosligini belgilash va qo`llaniladigan sharoitlarni to`la e`tiborga olish kabilarni aniqlashda zarur va samarali usullardan foydalanish talab etiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Milliy bozor iqtisodiyoti shakllanishidagi jahon tajribasi ahamiyati nimadan iborat?
2. Rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasi mohiyatini tushuntirib bering.
3. Rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasi o`rganish magistrantlar uchun nimaga kerak?
4. Rivojlangan mamlakatlar qanday belgilar bilan farqlanadi
5. Jahon mamlakatlari guruhiy turlarini aytib bering.

6. Turmush sifati deganda nimani tushunish kerak?

7. Rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasining predmeti nima?

8. "Rivojlangan mamlakatlarda bozor tajribasi" fanida iqtisodiy hamkorlik tushunchasini izohlang.

9. Rivojlangan mamlakatlar yetakchilarini birlashtiruvchi "ettilik" haqida nimalarni bilasiz?

10. Ushbu fanni o`rganuvchi magistr asosan nimalarga e'tibor berish lozim?

2-BOB. BOZOR IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY SHARTLARI

2.1. Bozor iqtisodiyotining asosiy mohiyati

Bozor sivilizatsiyali taraqqiyot maxsuli bo`lib, u inson iqtisodiy faoliyatining yuqori cho`qqisidir. Iqtisodiy faoliyat amaliyoti shuni tasdiqlaydiki, xo`jalikni bozor asosida uyushtirish eng samarali usuldir. Chunki u iqtisodiy taraqqiyotni haqiqatdan ham inson manfaatidan keltirib chiqaradi.

Bozorning tarixi katta, u qadam-qadimdan ma'lum narsa. Ayniqsa, sharq bozorlari asrlar osha o`z dovrug`ini taratib kelgan. O`zbekiston hududida ham shunday bozorlar va "Buyuk Ipak Yo`li" kabi savdo yo`llari o`tgan. Lekin hozir bozor iqtisodiyotini qurmoqdamiz. Bunda qarama-qarshilik, tushunmovchilik mavjuddek tuyiladi. Buning uchun bozor iqtisodiyoti mohiyatiga diqqatimizni qaratishimiz kerak.

Bozor eskidan oldi-sotdi joyi, sotuvchi va xaridorlar joyi, chakana savdo jarayoni bilan chegaralanib, qadimiy "Sharq bozori" mazmunini bildirib, hayot asosan natural xo`jalikka asoslangan bo`ladi. Bozor oddiy va hayotiy yuzaki tushunchani bildirsa, bozor iqtisodiyoti to`la mazmunli va ilmiy tushunchadir.

Bozor iqtisodiyotida iste'molning barchasi bir tizim sifatida bozor munosabatlari asosida shakllanib rivojlanadi. Ishlab chiqarish bozorning asosiy mexanizmlaridan biri bo`lgan taklifga aylanishi tufayli reallashadi. Moddiy ishlab chiqarish jarayoni qanchalik muhim ahamiyat kasb etmasin, u iste'mol uchun atalgan va bozor sharoitida talabdan kelib chiqadi. Chunki inson iste'moli uning ehtiyoji talabga aylanishi tufayligina yuzaga keladi. Bozor munosabatlari sharoitida bozordagi talab asos bo`lganligi uchun ishlab chiqarish vosita sifatida xizmat qiladi, ishlab chiqarish bozor iqtisodiyoti tarkibida bo`lib, uning moddiy asosini tashkil etadi. Umuman ishlab chiqarish bozor munosabatlari, uning qonun talablari asosida rivojlanadi. Demak, bozor iqtisodiyotida inson talabi, uning iste'moli yuqori bo`lgani xolda ishlab chiqarish buning vositasi vazifasini bajaradi va talab uchungina xizmat qiladi. Shuning uchun bozor iqtisodiyotida tovar muomalasi tushunchasi bilan birga

iqtisodiy aloqa usuli, umuman xo`jalik yuritish usuli tushunchalari mavjud, bularni aslo inkor etib bo`lmaydi.

Lekin bozor iqtisodiyotining mohiyati muomala va iqtisodiy aloqalarga nisbatan kengdir. Bozor iqtisodiyoti avvalo barcha xo`jalik tarmoqlari, iqtisod turlari, sohalariga ta'sir o`tkazadi. Bunday ta'sir etish mikroiqtisodiyot bilan chegaralanmay, balki makroiqtisodiyotning asosiy tomonlariga mazmun berib, ularni o`z doirasiga oladi. Ma'lumki, iqtisodiy proporsiya, balanslar bozor ta'sirisiz bo`lishi mumkin emas. Chunki avvalo resurslar bozori mavjud bo`lib, ularning joylashuvi va taqsimlanishi bozor mexanizmlari ta'siri ostida bo`ladi. Ishlab chiqarish sohalari va ularning hosilasi – tovarlar bozorining asosi hisoblangan talab ta'siri tufayligina reallashmog`i mumkin.

Shunday qilib bozor iqtisodiyoti tovarlar muomalasi, iqtisodiy aloqa usuligina bo`lib qolmay, balki iqtisodiy tizimdir, ya'ni iqtisodiyot tizimiga xos barcha xususiyatlarni o`zida aks ettiruvchi va iqtisodiyotning barcha tomonlariga ta'sir etib, o`ziga qamrab oluvchi iqtisodiy tizimdir. Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy sohalari va tarmoqlarning o`zaro bog`liqligi asosidagi birlikdir.

Bozor iqtisodiyoti deganda avvalo bozor usulidagi iqtisodiyot, bozor munosabatlari asosidagi rivojlanayotgan iqtisodiyotni tushunamiz. Iqtisodiyotning ayrim qismlari yoki ayrim hudud iqtisodiyotida bozor munosabatlarining ta'sir etishi emas, balki iqtisodiyotning asosiy va ko`pchilik qismida yoki asosan iqtisodiyotning bozor munosabatlari asosida to`la rivojlanishidir. Bunday xolda iqtisodiyot bozor mazmuniga ega bo`ladi, chunki bozor munosabatlari tasodifiy, ayrim xollarda uchraydigan voqelik bo`lmay, balki u umumiy va ommaviy iqtisodiy xodisa bo`lib, zaruriy talab xolatiga aylanadi. Bozor iqtisodiyotida bozor munosabatlari tizimi yuzaga keladi va iqtisodiyot shunday tizim asosida rivojlanadi.

Bozor iqtisodiyoti erkin harakatdagi, o`zini-o`zi boshqaruvchi va tartibga soluvchi ichki qudratga ega. Bu qudrat – kuch bozor munosabatlari, bozor mexanizmlaridir.

Bozor iqtisodiyotining erkinlik xususiyati avvalo tadbirkorlar va tanlov erkinligidan iboratdir. Xususiy tadbirkor iqtisodiy resurslarni erkin qo`lga kiritish va

egallik qilish huquqiga ega bo`lib, resurslardan ixtiyoriy ravishda tovarlar ishlab chiqarish, shuningdek firmalarning istagi bo`yicha ularni sotish imkoniga egadir. Nima ishlab chiqarish, qachon, qancha, qaerda, mahsulotlarni qanday tasarruf etish erkin xolda xal qilinadi. Tadbirkorlarning ma`lum tarmoqda ish ko`rish yoki tarmoqdan chiqish ixtiyori o`zlarida bo`lib, bunga to`siqlik qiluvchi kuch bo`lmasligi kerak.

Erkin tanlash imkonini olsak, bozor sharoitida kapital va moddiy resurslar egalarining bularni o`z ixtiyorlari bo`yicha ishlatish yoki ish tutish huquqi va imkoniga ega bo`lishdan iboratdir. Shu bilan birga ishlovchilar istagan mehnat turi bilan shug`ullana olish imkoniga ham ega bo`ladilar. So`ngra iste`molchilar o`z daromadlari xajmiga qarab istagan miqdorda, sifatda biror yoki turli xildagi tovar va xizmatlarni sotib oladilar. Iste`mol tanlovi eng kuchli erkinlikdir. Shu nuqtai nazardan ishlab chiqaruvchi – sotuvchining erkinligi xaridor erkinligiga bog`liq va shundan kelib chiqib, pirovardida ishlab chiqaruvchining erkinligi xaridor erkinligi tufayli reallashadi.

Bozor iqtisodiyotining muhim tomoni shuki, u inson manfaatidan kelib chiqadi. Chunki barcha bozor ishtirokchilari go`yo o`zlarining shaxsiy manfaatlari uchun kurashadilar, amalda esa deyarli barchaning manfaati ta`minlanadi.

Ma`lumki, amalda tovar ishlab chiqaruvchi tadbirkor – sotuvchi faqat o`z shaxsiy manfaatini asos qilib oladi va barcha faoliyatini shunga qaratadi. Iste`molchi esa imkoni boricha arzonroq mol olish va ko`proq foydaga erishishga harakat qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha shaxsiy manfaat ustida qayg`uradi va biri ikkinchisining hisobiga o`z manfaatini ta`minlashga urinadi. Lekin aytganimizdek, deyarli barchaning manfaati ta`minlanadi.

Ishlab chiqaruvchi – sotuvchi iste`molchini manfaatini o`ylamaydi, u o`zini o`ylab harakat qiladi va iste`molchi – xaridor hisobiga boyishni chamalaydi. Lekin tadbirkor albatta tovarini sotishi kerak. Bu esa faqat unga bog`liq emas. Tovlar sotilishi uchun iste`molchining manfaatini ifodalovchi talab shakllanishi zarur. Bu esa asosan iste`molchi - xaridorga bog`liqdir. Tadbirkor iste`mol talabiga mos tovar ishlab chiqarishi mumkin xolos. Har qanday sharoitda ham tadbirkor iste`molchini

e'tiborga olishga majbur. Bozor iqtisodiyotining qonuni shuki, unda talabga mos, sotiladigan tovarlarga ishlab chiqariladi. Iste'mol har qanday ishlab chiqarishning maqsadidir va ishlab chiqaruvchining manfaatlari shuning uchun ham e'tiborliki, u iste'molchilar manfaati uchungina xizmat qiladi.

Demak, tadbirkorning manfaati xaridorning manfaatiga mutloq bog'liqdir. Tadbirkorning manfaati inson shaxsiy manfaati tufayli ro'yobga chiqishi mumkin. Bozor munosabatlarigina iqtisodiyotni inson manfaatiga to'la qarata oladi. Bu esa bozorning asosiy ustunligi, barqarorligi va istiqbolini belgilab beradi. Aytish mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida manfaatlar mosligi, shu tufayli iqtisodiyotning to'laqonli harakati, yuqori darajali taraqqiyoti ta'minlanishi mumkinligi mavjuddir. Manfaatlar mosligi, ayniqsa inson shaxsiy manfaatini asoslanganligi bozor iqtisodiyotiga qudratli kuch bag'ishlaydi.

Bozor iqtisodiyotida tovar ishlab chiqarish juda ahamiyatlidir. Asli bozor tovar ishlab chiqarish mahsulidir. U qadimiy iqtisodiy voqelikka ega bo'lib, o'z taraqqiyoti tufayli bozorni yuzaga keltiradi. Ma'lumki, tovar ishlab chiqarishning tub mohiyati ayirboshlash, bozor uchun ishlab chiqarishdir. Mahsulot ayirboshlash, uning darajasi, mavjud shakllari tovar ishlab chiqarishga bog'liqdir. Zero, bozor munosabatlari tovar ishlab chiqarish va uning muomalasi tufayli yuzaga kelib rivojlanadi.

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi tovar ishlab chiqarishni va muomalasini taraqqiy ettirish, ularning yuqori darajasiga erishuvini talab etadi. Bu avvalo, bozor uchun zarur tovarlar mavjudligiga erishish bilan bog'liqdir. Ma'lumki, bu juda yuqori darajada bo'lmog'i zarur. Keng tarmoqli, katta xajmdagi va juda xilma-xil tovarlar ishlab chiqarishni tashkil etish kerak. Shunday yo'l bilangina bozor iqtisodiyotining moddiy asosi yaratiladi. Bu ayni vaqtda zarur bozor munosabatlari uchun iqtisodiy sharoitlarni kengaytirib boradi.

Ma'lum darajagacha bu jarayon tovar ishlab chiqarishdan kelib chiqsa, so'ngra ahamiyat nuqtai nazaridan o'zaro o'rin almashish yuz berib, bozor iqtisodiyoti tizimi shakllanishi tufayli tovar ishlab chiqarishga ta'sir kuchayib boradi. Natijada tovar ishlab chiqarish bozor iqtisodiyoti qismiga aylanib, uning moddiy

asosini yaratuvchidan iborat bo`ladi. Endi bozorning rivoji tovar ishlab chiqarish miqyosiga bog`liq bo`lib qoladi va talabning miqdori va tuzumiga bog`liq bo`ladi.

2.2. Bozor iqtisodiyotining yetakchi mexanizmlari

Bozor iqtisodiyotida ahamiyatli, uni rivojlantiruvchi, harakat mazmunini belgilovchi mexanizmlar bo`lib, ularsiz bozor iqtisodiyotini tasavvur etib bo`lmaydi. Tub mazmuni bilan bozor mohiyatini belgilab beruvchi mexanizmlardan talab, taklif, raqobat, bozor bahosini ko`rib chiqaylik. Bozor mexanizmlarini korxonalarining boshqarilishi, ish yuritilishi, xo`jalikning tashkil etilishi bozor mazmunida bo`lishi, umumiy bozorcha iqtisodiy yo`nalishda ta`sir etishida sezamiz va bozor harakatini ular tufayli amalga oshuvida kuzatamiz.

Talab bozordagi eng muhim xodisa bo`lib, u inson shaxsiy manfaatidan kelib chiqadi va shunga xos iqtisodiylikni o`zida aks etadi. Talab insonga bevositalik, uning manfaatini bozorda ifodalash tufayli bozor iqtisodiyotining tub mazmuniga asosiy ta`sir ko`rsatadi va uning harakat yo`nalishini belgilab beradi. Iste`mol ehtiyoj – talab shakllarini boshdan kechirmog`i zarur. Talab mavhum narsa emas, u faqat istak emas, balki real voqelikdir. Ehtiyoj ma`lum va aniq pul miqdori bilan qoplansa u talabga aylanmaydi. Demak, iste`molchi bozorda talab mazmunida harakat qilar ekan, u, zarur miqdordagi pul bilangina o`z ehtiyojini talabga aylantira oladi. Shuning uchun ham bozordagi talab pul bilan qoplangan, xaridlikni to`la ta`minlay oladigan xaridor-iste`molchining namoyon bo`lishidir. Pulsiz talab shakllanmaydi va ehtiyoj istak va hayol darajasida qolaveradi.


Iste`mol uchun
avvalo tovardan
foydalanish asos bo`lib,
iste`mol talablariga mos
kelishini aniqlaydi, so`ngra
uning bahosiga e`tibor
beradi. Ko`pincha tovar

bahosi talabni belgilovchi asosiy omilga aylanadi.

2.2.1.-chizma

Ishlab chiqarish va talab davrlariga oid ifodatushunchalar

Talab o'zgarishi mavjud bo'lib, u baholar o'zgarishi va xolati, xaridorlar miqdori va ularning didi, istagi, iste'molchilar pul daromadi, o'rnini bosuvchi tovarlar xajmi, inflyatsiya ehtimoli kabilarga bog'liq bo'lib, bular ayni vaqtda talab omillari hisoblanadi.



Talabga eng asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar daromad va bahodir. Daromad yuqori bo'lsa talab o'sadi, baho yuqori bo'lsa talab pasayadi.

Talabning bir necha turlari va ko'rinishlari mavjud bo'lib bular: salbiy, yashirin, kamayib boruvchi, uziluvchan, ortiqcha, o'sayotgan talab kabilardir. Shu bilan birga normal va vaximali talablar ham mavjud.

Taklif mexanizmi ishlab chiqarish tomoni, uning bozorda ifodalanishidir. Buning ahamiyati nuqtai nazaridan talabdan keyingi muhim mexanizmlardir. Ayirboshlash, sotish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar taklifni shakllantiradi. Taklifsiz tovar ishlab chiqarish amalga oshmaydi, u taklif shaklidagina reallashadi. Tovar ishlab chiqaruvchining maqsadi daromad ekan, u tovarining iste'molchisini topib, o'z maqsadiga erishuvi darkor. Bu o'zidan-o'zi bo'lmaydi va u albatta talabni qondirishga atalgan bo'lishi kerak.

Talabga har tomonlama mos tovar ishlab chiqarilishi taklifning asosidir. Bozorda sotuvga taklif etilgan tovarlar xajmi, taklif etilgan tovarlar miqdori deyiladi. Bu ishlab chiqarish miqyosi tuzumiga bog'liqdir. Bozorga chiqmagan mahsulot qismi taklifga kirmaydi.

Taklifning bir necha ommillari mavjud. Bularning qatoriga, avvalo taklif etiladigan tovarlar bahosi darajasi, ishlab chiqarish texnologiyasi, tovar ishlab chiqaruvchilar miqdori, ishlab chiqarish omillari bahosi, soliqlar va subsidiyalar, baholarning oshish ehtimoli kabilarni qo`shish mumkin.

Taklif miqdoriga kuchli ta'sir ko`rsatuvchi omil bozorda sotiladigan tovarlar bahosidir. Tovarlar bahosining ko`tarilishi ishlab chiqaruvchini rag`batlantiradi. Bu esa ishlab chiqarishni kengaytirishga olib keladi. Baholarning pasayishi, albatta buning aks xolatiga olib keladi. Demak, taklif yo`nalishi bunday xolatda baho harakatiga qarab belgilanadi.

Talab va taklif birgalikda harakat qiladigan va bir-birini belgilab keladigan mexanizmlardir. Talab taklifsiz va aks xolda taklif talabsiz bo`lishi mumkin emas.

Resurslarga nisbatan bozordagi talab va taklifning shakllanishida o`ziga xos xususiyatlar mavjud. Umuman resurslarning iqtisodiy bahoga ega bo`lishi ularning talabga nisbatan muvozanatiga bog`liqdir. Talabga nisbatan resurslar oz bo`lsa, ular resurslar qatoriga qo`shiladi, talabga nisbatan ko`p bo`lsa tabiiy boyliklar hisoblanadi. Bular iqtisodga nisbatan ichki va tashqi xolatda bo`lib, ishlab chiqarish zaruriyati bilan bog`liq elementlardir.

Umuman resurslar cheklanish bilan bog`liqdir. Mehnat ashyolari, mehnat vositalari ishlab chiqarish resurslarini tashkil etishi mumkin. Lekin taraqqiyot resurslar chegarasini kengaytirib boradi va mazmunini o`zgartiradi. Shu bilan birga postindustriya davriga xos bo`lgan ilm-fan resurslarini hisobga olmay bo`lmaydi.

Pirovardida resurslarga bo`lgan talab bozorda tovarlarga bo`lgan talabdan kelib chiqadi. Chunki qaysi tovarga talab ko`tarilsa buni ishlab chiqarish bilan bog`liq resurslarga talab oshadi. Aytaylik, transport vositalariga bo`lgan talab metal va yoqilg`iga bo`lgan talab darajasida o`z ifodasini topadi. Resurslar talab va taklifiga ta'sir etuvchi 3 omilga e'tibor berish lozim: tayyor mahsulotga tovar elastikligi (o`zgaruvchanligi), resurslarni almashtirish imkoni, tovarning umumiy xarajatlaridagi ayrim resurslar miqdori.

Keyingi muhim mexanizm raqobatdir. Raqobat kurashining ahamiyati shunchalik yuqoriki, usiz bozorni tasavvur etib bo`lmaydi, chunki u bozor

iqtisodiyotining mazmuniga aylanib ketadi. Bu – iqtisodiy raqobat. Raqobatdagi asosiy maqsad bozor ishtirokchilarining erkin faoliyati sharoitini yaratish, har bir ishtirokchi o'z harakati uchun zarur muhim va xolatni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kurashdan iborat. Kerakli ishlarni boshqalarga nisbatan muvaffaqiyatli xal qilish, buning uchun oldindan va o'z vaqtida sharoit yarata olishi, doimo ustunlikka ega bo'lishi kabilar iqtisodiy raqobat kurashi mazmunini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyotida qatnashuvchilar bir-birini shaxsan bilishlari, tanish bo'lishlari shart emas. Ular bir-birlari uchun raqib hisoblanadi. Raqobatda barcha ham muvaffaqiyatga erishavermaydi. Bu tajriba, bilim, matonat, tavakkalchilik va albatta sarmoyaga ega bo'lishni talab qiladi.

Raqobat kurashi keng mazmunli, ko'p qirrali bo'lib, bozor iqtisodiyotining barcha davrlari, sohalari, tarmoqlarida yuz beradi. Raqobatga bardosh bera oladigan shaxsgina bozor taraqqiyotiga ko'p hissa qo'sha oladi. Raqobatdagi eng ko'zga tashlanadigan asosiy mazmunga aylanadigani xaridorlar uchun kurashdir. Chunki buning asosida tovarlarni tez va ko'p sotish muammosini xal qilish yotadi. Tovarni sotish va o'z pul sarmoyalarini foyda bilan qaytarish xaridorlarga bog'liqdir.

Bu muammoni hal qilishda marketing tadqiqoti va bu sohadagi faoliyati juda qo'l keladi. Chunki u ko'p tovar ishlab chiqarish va xaridorlarini o'z vaqtida, yetarli miqdorda ta'minlash yo'llarini o'rganadi. Bunday raqobat harakati bevosita tovarlarni sotishda ifodalansa, shu mazmundagi kurash ishlab chiqarishda xomashyo, ish kuchi, energetika, ilg'or texnika-texnologiya kabilar uchun bo'lgan jarayonlarda o'z aksini topadiki, barcha tarmoqlar, iqtisodiy sohalar busiz bo'lmaydi.

Raqobat kurashida xal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan narsa *bozor bahosidir*. Umuman, baho talab va taklif muvozanatining natijasi bo'lib, raqobat orqali yuzaga keladi. Iste'molchining daromad darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi baho raqobat xolatiga bog'liq bo'lib, u turg'un bo'la olmaydi va to'xtovsiz o'zgarib turadi. Bozor xolatini to'xtovsiz ko'rsatib turadigan narsa ham baho bo'lib, u sotuvchi va xaridorlarning harakat yo'nalishini aniqlab beradi. Shunga ko'ra bozorga qancha va qachon tovar yetkazib berishni baho darajasi orqali aniqlaydilar. Bu esa bevosita

ishlab chiqarishga ta'sir etadiki, qachon qancha tovar ishlab chiqarishni bozordagi yuzaga kelib turgan baho orqali belgilab ish ko`riladi.

Raqobat tufayli paydo bo`ladigan bozordagi baholarning tadbirkor va iste'molchilar uchun muhimligini belgilovchi ikki tomoni mavjud. Birinchisida, tadbirkorning foydasi va daromadi ifodalansa, ikkinchisida bozor xolati aniqlanadi. Shunga ko`ra barcha bozor ishtirokchilari, ayniqsa tadbirkorlar, katta diqqat va e'tibor bilan bahoni kuzatib boradilar, uning o`zgarishini o`z vaqtida bilib turish choralari qo`llaydilar. Demak, bozorda paydo bo`ladigan baho bozor iqtisodiyotining ko`zgusi bo`lsa, raqobat uni yuzaga keltiruvchi kuchdir.

Aytish mumkinki, raqobatning asosida shaxsiy manfaat yotadi va bu raqobat kurashining kuchayishi, ta'sirining ortib borishi uchun kuch bag`ishlaydi. Buning boisi shuki, har bir iqtisodiy birlik o`z nafsini ko`zlaydi. Tadbirkor yuqori foyda uchun, hech bo`lmaganda kam zarar uchun kurashadi. Moddiy resurslar egalari sotishda yoki ijaraga berishda yuqori baho orqali ish tutishga urinadi. Ish kuchi egalarini olsak, miqdori va murakkabligi bir xildagi mehnatlariga imkoni boricha ko`p daromad olishga harakat qiladilar. Bularning hammasi xaridor siftida past bahoning tarafdorlaridir. Shaxsiy manfaatdorlik bozor iqtisodiyoti faoliyatida tartib o`rnatib turadi, manfaatsizlik esa kutilmagan tartibsizliklarga olib kelishi mumkin. Bunday voqelik shunday xulosaga olib keladiki, turli iqtisodiy birliklar o`z ixtiyoriy tanlovini amalga oshirishi davrida shaxsiy manfaat asosida harakat tarzi shakllanadi. Bu bozor iqtisodiyoti taqozosidir.

Umuman olganda raqobat quyidagilarni bildiradi:

1) Bozorni turli, istagan aniq mahsulot, resurslarni erkin xolda sotuvchi va sotib oluvchilarning mavjudligi.

2) Sotuvchi va xaridorlarning istagan bozorda yoki tarmoqda erkin qatnasha olishi yoki istaganda tarmoqdan chiqib keta olishi.

Raqobatchilar o`z mohiyatini bozor ishtirokchilariga taalluqli iqtisodiy kuchlar tarqoqligida ifoda etadi. Ma'lumki, har bir bozorda juda ko`p sotuvchi va xaridorlar mavjud. Shuningdek tovarlar mo`l-ko`l deylik, bunday sharoitda sotuvchi

va xaridorlar o'zlari uchun ma'qul bahoni talab eta olmaydilar, balki mavjud muvozanat belgilaydigan umumiy baho bo'yicha oldi-sotdi amalga oshadi.

Raqobatning mohiyati shuki, har bir taklif sub'ekti umumiy taklifga kichik hissa qo'sha oladi va umumiy oqim ichida bo'ladi. U yakka ishlab chiqaruvchi sotuvchi sifatida bozor ixtiyorida bo'ladi. Bozorda raqobat yakka xoldagi barcha yoki juda ko'pchilik sotuvchilar harakatidan iborat bo'ladi. Demak, raqobat bozorda hamkorlikni inkor etib, erkin harakatni talab etadi.

Raqobatning asosini tashkil qiluvchi iqtisodiy hokimiyatning keng tarqoqligi bu hokimiyatdan foydalanishni tartibga solib turadi va undan zararli foydalanish imkoniyatlarini chegaralab boradi. Iqtisodiy imkoniyatlar uchun kurash iqtisodiy birliklarning o'z foydasini ko'zlab bir-biriga zarar keltirishga to'siq bo'lib xizmat qiladi. Raqobat sotuvchi va xaridorlarning o'z manfaatlarini ta'minlashning amalga oshuvini chegaralarini belgilab turadi. Shuning uchun ham raqobat bozor iqtisodiyotida asosiy tartibga soluvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Raqobatning tarmoqlar manfaatlari bilan birga tarmoqlararo, halqaro manfaatga qaratilgan harakati mavjuddir. Bu yangi texnologiya, tejamli resurslar kombinatsiyasini qo'llashda namoyon bo'ladiki, raqobat bunga undaydi. Raqobat uchun xo'jaliklar turli-tumanligi, ko'p shakllilik talab etiladi. Ayniqsa, xususiy xo'jalik hukmronligi sharoiti mavjud bo'lishi kerak. Busiz xo'jalik yuritishda mustaqillik bo'lmaydi, turlilik raqobatga undaydi, uni jonlantiradi. Raqobat jahon iqtisodiyotida ham bo'lib, uning milliy mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri bo'ladi.

Raqobat kuchi ta'siri sharoitida xaridorlar to'la xo'jayin, bozor – ularning vakili, korxonalar esa ularning xizmatkori vazifasini bajaruvchi sifatida mavjud bo'ladilar.

Bozor iqtisodiyotida raqobatning aksi bo'lgan *monopoliya* ham mavjud bo'ladi va u raqobat sharoitini o'zgartiradi. Monopoliyada sotuvchi yoki xaridorlar o'z kuch qudratiga ishonib, boshqalarga o'z hukmini o'tkazadi. Taklif xajmi va bozordagi baho monopoliya tomonidan belgilanadi. Raqobat va monopoliyaga qarab bozorning 4 xil modeli mavjud bo'lishi mumkin: sof raqobat, sof monopoliya, monopoliyali raqobat va oligapoliya.

Monopoliyaga qarshi kurash olib boriladi va ular asosan ta'qiqlanadi. Bunday harakat "trestlarga qarshi kurash" harakati deyiladi. Buni davlatlar qo'llaydi, tegishli qonunlar mavjud. Chunki bozor raqobat sharoitidagina rivojlanadi, kengayadi. Aksmonopoliya siyosati erkin raqobatni rag'batlantiradi.

Baho mexanizmi shunchalik ahamiyatliki, har bir bozor ishtirokchisi o'z faoliyatini shu orqali belgilaydi va baho xuddi bozorning asosiy ko'rsatkichi sifatida barchaga o'zining ta'sirini o'tazadi. Bahoning quyidagi vazifalari mavud bo'lib, u umumiy iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagilar:

- bozor muvozanatini ta'minlash;
- raqobat vositasi;
- hisob-kitob, o'lchov;
- tartibga solish.

Tovarlar bozor bahosida sotiladi. Chunki pirovard baho bozorda shakllanib, haqiqiy bozor bahosi yuzaga keladi. Bozor bahosi barcha xarajatlarni qoplagan xolda sotilgandan keyin egasiga foyda keltirishi kerak. Bozor bahosining shakllanishi faqat xarajatlar asosida bo'lmaydi. Xarajatlar bilan birga boshqa ob'ektiv va sub'ektiv omillar mavjud bo'lib, bular qatoriga mahsulot nafligi, iste'mol vaqti, raqobat, taklif va talab muvozanati, ruhiy omillar kabilarni kiritish mumkin. Lekin har qanday sharoitda tovarning qiymati uning uchun ob'ekt asosi bo'lib, baho undan yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Birinchi navbatda, tovar bahosining shakllanishida uni ishlab chiqarish, iste'molchiga yetkazishgacha bo'lgan barcha mehnat sarflari ishtirok etadi. So'ngra qo'shimcha mahsulot qiymati ham qo'shib, tovar egalari, sotuvni tashkil etuvchilarni foyda bilan ta'minlaydi.

Tovar nafligiga iste'mol to'yinish, iste'mol vaqti kabilar kiradi. Talab va taklif, ularning muvozanati bahoning shakllanishiga ta'sir etadi. Talab yuqoriligi bahoning ko'tarilishiga moyillik qiladi, past bo'lsa bahoning pasayishiga olib keladi. Agar muvozanat ta'minlansa, baho o'rtacha bo'ladi. Bularning barchasi raqobat orqali yuz beradi. Asosan bozor bahosi - bu raqobat kurashi natijasidir. Raqobat va baho mexanizmlari o'z ta'sirlari bilan bahoni harakatlantiruvchi muhim kuch bo'lib, bozor iqtisodiyotining boshqarilishida xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ular bozor

iqtisodiyotining o'zidan-o'zi harakatga keltiruvchi va boshqaruvchi ichki kuchlaridirki, unga tashqaridan sun'iy ta'sir ko'rsatish va bahoni raqobatsiz oldindan belgilash bozor tabiatiga to'g'ri kelmaydi, uning mexanizmi harakatlariga faqat salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Talab etilganda bahoning shakllanishiga davlat ham aralashuvi mumkin. Bahoda inflyatsiyaning o'ziga xos salbiy oqibati mavjud. Bu bahoning ortiqcha ko'tarilishi va pulning qadsizlanishi bilan bog'lanadi. Bahoning qat'iy va o'zgaruvchan, milliy va jahon baholari mavjud va uning mutlaq va nisbiy darajalari bor.

Baho mexanizmi to'g'risida yakuniy ravishda aytish mumkinki, bozorning tub mohiyatini ko'rsatuvchi va talab-taklif muvozanatini belgilovchi bozor bahosi bo'lgan erkin bahodan iboratdir. Shu bilan birga bu erkin bozor baho talab, taklif va raqobat mexanizmlari harakatining o'zida mujassamlashtiruvchi sifatida harakatdagi bozor mexanizmidir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish huquqiy muxitga muxtojdir. Erkin iqtisodiy faoliyat ko'rsatish, tijorat bilan shug'ullanish kafolatlikni talab etadi. Erkin iqtisodiy faoliyat ishonchsiz bo'lishi mumkin emas. Buning uchun qonuniy himoya zaruriyati tug'iladi. Ma'lumki, bularsiz bozor shakllanmaydi va tashabbuskorlik rivojlana olmaydi. Bozor munosabatlari ishbilarmonliksiz yuzaga kelmaganidek, buning sharoitlari mavjudligi talab etiladi, bu esa o'z navbatida huquqiy muammolar bilan bog'liqdir.

Bozor iqtisodiyotining huquqiy asoslari davlat tomonidan yaratilishi kerak. Bu kuchli jamiyat paydo qilish muammolaridan bo'lib, uning tarkibiy qismi bo'lgan qonun hokimiyatining shakllanishi bilan bog'liqdir. Qonun hokimiyatining yuzaga kelishi har tomonlama erkin rivojlanayotgan jamiyatning barpo bo'lishidagi muhim jarayondir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichlari

Bosqichlar	Tadbirlar
1-bosqich "Huquqiy asoslarni yaratish"	<ul style="list-style-type: none"> * mulk to`grisida; * banklar to`grisida; * bandlik to`grisida; * investitsiya haqida; * tadbirkorlik to`grisida; * tashqi iqtisodiy faoliyat haqida; * xususiylashtirish to`grisidagi qonunlarni qabul qilish.
2-Bosqich "Moliya-kredit tizimini soYOmlashtirish"	<ul style="list-style-type: none"> * narx nazoratini cheklash; * inflyatsiyani jilovlash; * byudjet taqchilligini qisqartirish; * daromadlarni ideksatsiyalash va boshq.
3-Bosqich "Bozor munosabatlarini shakllantirish"	<ul style="list-style-type: none"> * ish haqini isloh qilish; * chet el investitsiyasiga sharoit yaratish; * birjalar faoliyatini tashkil qilish; * monopoliyaga chek qo`yish; * valyuta bozorini rivojlantirish; * tashqi va ichki narx nisbatiga sharoit tugdirish; * xususiylashtirishga sharoit yaratish va boshq.
4-Bosqich "Bozor munosabatlarini rivojlantirish"	<ul style="list-style-type: none"> * soYOlom bozor raqobatiga o'tish; * o`z-o`zini tartibga soluvchi bozor strukturasi rivojlantirish; * bank-kredit tizimini takomillashtirish; * davlat soliq tizimini soYOmlashtirish; * kon'yunkturani jonlashtirish va boshq.

Demak, bozor iqtisodiyotining shakllanishi qonun hokimiyatining yaratilishi bilan chambarchas bog'langan xolatdirki, bular kuchli jamiyatning kuchli iqtisodiyotini yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi. Aytish mumkinki, bozor huquqiy muxitining yaratilishi aloxida jarayon bo'lmay, qonuniy hokimiyat yaratilishi zarur bo'lgan kuchli jamiyat shakllanishining tarkibiy qismiga kiradi. Qonuniy hokimiyatning yaratilishi ayni vaqtda bozor huquqiy muxitining barpo etilishini taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti huquqiy muxitini yaratilishining boshlanishiga O'zbekiston Konstitutsiyasida asos solingan, uning 53-moddasida iqtisodiyotning bozor

munosabatlarini rivojlantirishi tasdiqlanadi. Bozor iqtisodiyoti huquqiy muxitining yaratilishi asosida qonunchilik yotadi va qonunlar negizida ularni ijro yo'l va usullarini belgilovchi farmon, qaror va qoidalar yuzaga keladi.

Bunga xos qonunlar ichida harakatdagi O'zbekiston Respublikasida "Korxonalar to'g'risida", Xususiy mulk to'g'risida", "Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlik to'g'risida"ga kabi bir muncha qonunlarni ko'rsatish mumkin. Bu kabi qonunlar ijrosiga qaratilgan qaror, farmonlar tufayl huquqiy muxit yuzaga keltirilmoqda.

Huquqiy muxitning ikki tomoni mavjud: erkin va majburiylik. Erkinlik bozor ishtirokchilarining bozor iqtisodidagi erkin faoliyatini ta'minlash, jamiyat a'zolari o'rtasidagi va jamiyat bilan bo'lgan iqtisodiy mazmun harakatining ijro etilishini ta'minlash bilan bog'langandir. Tijoriy erkinlik va faoliyat sohasi tanlovi erkinligi qonunlar va ularning ijrosi tufayli ta'minlanadi. Shu bilan birga daromad oshishining chegaralanmasligi, resurslardan foydalanish, ish kuchini yollash erkinligi juda muhimdir. Iqtisodiy faoliyat erkinligining asosini tashkil etuvchi mulk shakllarining mavjudligi muhim bo'lib, mulk munosabatlarining bozor munosabatlari asosida bo'lishi, xususiy mulk va sarmoyalar xajmining chegaralanmasligidagi erkinliklar huquqiy muxitda ahamiyatlidir. Qonunlarda bozor munosabatlari asosidagi harakatlar to'la kafolatlanadi va to'la himoyalanaadi.

Bozor iqtisodiyoti huquqiy muxitining ikkinchi tomoni jamiyat oldidagi va inson huquqlari hamda turmush sharoitlari bilan bog'langan majburiyatlardan iborat. Bu sohada salbiy oqibatlarining oldini olish asos hisoblanadi. Ma'lumki, har bir bozor munosabatlari bilan bog'liq shaxs ijtimoiy xarajatlarda ma'lum o'rin egallaydi va bu majburiyat soliq qonunlarida o'z aksini topadi. Bundan tashqari ekologiyani saqlash, tabiatga zarar keltirmaslik sohasida javobgarliklar mavjud bo'lib, tabiiy boyliklardan to'g'ri va samarali foydalanish, havo, suv, yer, havoni sof saqlash sohasida katta javobgarliklar mavjud. Mehnat huquqi, ishga yollash, mehnatni muhofaza qilish, ishlovchilarning daromadlarini kafillash, inson huquqlari, uning manfaatini ta'minlash kabilar bilan bog'langan majburiyatlar mavjud.

Shunday qilib, huquqiy muxit deganda bozor munosabatlari asosidagi faoliyat uchun huquqlar va majburiyatlarni tushunamiz. Bu sohadagi erkinlik jamiyat, davlat va inson oldidagi majburiyatlar muvozanatining doimo ta'minlanib borishi uchun zarur shartdir.

2.3. Bozor infratuzilmasi

Bozor iqtisodiyotining muhim shartlaridan biri uning infratuzilmalarining shakllanishidir. Busiz va uning rivojisiz bozorni tasavvur etib bo'lmaydi hamda iqtisodiyot samarali harakatda bo'la olmaydi. Bunda biz vositachilik tarmoqlari, transportning barcha turlari, aloqa, axborot kabilarni ko'zda tutmog'imiz darkor. Chunki bularsiz tovarlar harakati, tijorat kabilarni amalga oshirib bo'lmaydi, albatta. Buning uchun birinchi navbatda bozorning tijoriy tomonlarini ifodalovchi *savdo-vositachilik* bo'limlari va birjalar bilan tanishmoq zarur.

2.3.1.- jadval

Bozor infrastuzilmasi

№	Infratuzilmasi turlari	Infratuzilma tarmoqlari
1.	Ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infrastruktura	* transport; * aloqa; * ombor xo'jaligi; * yo'l xo'jaligi; * suv va energetika ta'minoti va boshq.
2.	Tovarlar va xizmatlar muomalasiga ya'ni savdo-sotiq ishlariga xizmat qiluvchi infrastruktura	* birjalar; * savdo uylari; * auktsionlar; * tijoratchilik idolari; * reklama firmalari va agentliklari; * davlatning savdo-sotiq va ulrni nazorat qiluvchi muassasalari.
3.	Moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infrastruktura	* tijorat banklari; * o'z-o'zini kreditlash idoralari; * sug'urta kompaniyalari; * moliya kompaniyalari; * soliq undirish mahkamalari; * har xil pul jamg'armalari.
4.	Aholiga xizmat	* uy-joy, kommunal va transport xizmati;

	qiluvchi Eki sotsial infrastruktura	* maorif; * madaniyat; * sog`liqni saqlash; * aholini ishga joylashtirish firmalari va idoralari.
5.	Axborot xizmati	* iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo`lgan har xil axborotlar, ma'lumotlar va xabarlarni: - to`plash; - umumlashtirish; - sotish bilan shug`ullanuvchi turli kompaniyalar, firmalar, maslahat idoralari va davlat muassasalari.

Bozor avvalo tovarlar oldi-sotdisi, shuningdek, savdo vositachilik faoliyati jarayonidan iborat. Bunda mustaqil ish ko`ruvchi savdo vositachisi ishlab chiqarishning topshirig`i bilan shartnomalar yoki aloxida topshiriqlar bo`yicha oldi-sotdi ishini bajaradi. Bu dastlabki ko`rinishi bo`yicha oddiy bo`lsa ham, aslida murakkab jarayon. Xaridor topish, oldi- sotdini bajarish, to`lovlar kafilligini ta`minlash va ularni qarz pullar bilan qoplash, tovarlarni bexatar yetkazib berish, zaruriyat bo`lsa chegaradan tovar o`tkazishni eplash kabi vazifalarni ijro etiladi.

Infratuzilmadagi vositachilik faoliyati asosan qayta sotish, komission, vakillik va brokerlikdan iborat. Qayta sotish o`z mablag`i hisobiga o`z nomidan, vositachi savdogar tomonidan bajariladi. Tovarlarini qayta sotish bilan savdo uylari, eksport va import, chakana savdo firmalari, importyorlar kabilar shug`ullanadi.

Bozor infratuzilmasida birja katta ahamiyat kasb etadi. Birjalar tovar, fond, mehnat kabi shakllarga ega. Tovar birjasi doimiy harakatdagi bozor ko`rinishlari bo`lib, asosan qishloq xo`jalik mahsulotlari, oziq-ovqat, xomashyo savdosi amalga oshiriladi. Savdoda bevosita tovarlarning o`zi qatnashmay, belgilangan standart va nishonalar bilan oldi-sotdi qilinadi. Odatda bu real tovar ustida kelishuv va muxlatli (fyuchersli) kelishuvdan iborat.

Fond birjalari qimmatbaho qog`ozlar bilan bog`liq kelishuvlarini amalga oshiradi. Mehnat birjalarida ish kuchi savdosi, yollanish bajariladi.

Bozor infratuzumida *banklarning* ahamiyati katta bo`lib, bu pul muomalasi, harakati bilan bog`langandir. Bank pul harakati bilan bog`liq muomalalarni uyushtiruvchi korxonadir. Markaziy, davlat, milliy va tijoriy banklar mavjud. Banklar

bozorning juda muhim va ta'sirli ishtirokchilari bo'lib, pul orqali bozorni jonlantirib, bozor faoliyatini kuchaytiradilar va barcha bozor faoliyati turlariga ta'sir etadilar.

Bozor iqtisodiyotida *transportning* o'rnini katta. Bilamizki, tovarlar ichki va tashqi bozorlar miqyosida talabga qarab harakatda bo'ladilar. Buning uchun turli xil transportlar xizmat qiladi. Transport xillari har turli tovarlarni tashish va manziliga yetkazish vazifasini bajaradi.

Tovar harakati *ombor* xo'jaliklariga bog'liq bo'lib, bu juda keng tarmoqqa ega. Omborlarning tovar turlariga qarab moslashuvi, transport rivojiga qarab joylashuvi ahamiyatlidir. Har bir tovar turi va xili iste'mol xususiyatiga qarab mavjud sifatlarini saqlash maqsadida maxsus ombor, bazalarni talab etadi.

Bozor rivoji uchun muhim infratuzilma qismlaridan *axborot* va aloqa tarmoqlaridir. Yangi texnika-texnologiya tufayli bu tarmoqlar juda avj olgan va inson hayoti, faoliyatiga bog'liq barcha sohalarni bilish, xabardor bo'lib turish, ulardagi xolatga to'g'ri baho berib ish tutish, o'zining ish samaradorligi bilan bog'liq tarmoq soha faoliyatlarini bilib o'z xulosasining to'g'ri ekanligiga ishonch xosil qilish har bir bozor ishtirokchisi uchun zarur talabdir.

Axborot, aloqa xo'jaliklari keng tarmoqli bo'lib, tez va ko'p axborot olish imkonini tug'diradi va bozor ishtirokchilarining bu sohadagi talablarini qondirish darajasiga ko'tariladi. Kompyuterlar, elektron hisoblash mashinalari, kosmos aloqa usullari, zamonaviy radio, telefon aloqalari, internet kabilar shular jumlasidandir.

2.4. Davlat faoliyati va bozor iqtisodiyoti muvozanati

Bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti shartlaridan biri uning tartiblashtirish zaruriyatidir. Shu bilan birga u to'ldirish va yordamga muxtoj iqtisodiy tizim hisoblanadi. Chunki bozor iqtisodiyoti barcha soha va tarmoqlarini to'la qamrab ololmaydi hamda uning ta'siri tarmoqlarda bir xil emas va samarali darajasi turlichadir. Shu bilan birga bozor iqtisodiyotining bir muncha salbiy oqibatlari mavjudki, u tartibga solib borishga muxtojdir.

Bunday xolat davlat iqtisodiyoti zarurligini taqozo etadi. Iqtisodiyotning shunday qismlari mavjudki, bu davlat tomonidangina amalga oshirilishi va kutilgan

samara berishi mumkin. Bunday zaruriyat sof ijtimoiy iste'mol bilan bog'langan mudofaa, harbiy xavfsizlikni ta'minlash, davlatni boshqarish, ekologiya, ichki tartib o'rnatish, obodonchilik, milliy iqtisodiyotni himoyalash, iqtisodiy istiqbol, bozor iqtisodiyotini ijtimoiy tartiblashtirish, aholini ijtimoiy himoyalash kabi iqtisodiy mavjudki, bularni bozor mexanizmlari tufayli, talab va taklif, raqobat, erkin baho asosida tashkil etib, boshqarib bo'lmaydi.

Davlat iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotini to'ldiradi. U bozor iqtisodiyotiga yordamlashadi, uni tartibga keltiradi, iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalish beradi. Davlat iqtisodiyoti bozor iqtisodiyoti bilan birga iqtisodiy turlilikni ta'minlagan xolda jamiyatning yagona iqtisodiy xolatini ta'minlaydi.

Davlat iqtisodiyotini ikki qismga bo'lish mumkin:

- 1) tijoriy biznes mazmunidagi faoliyat;
- 2) haqiqiy davlat mazmunidagi iqtisodiy faoliyat.

Birinchisi, davlatning bozor sub'ekti sifatidagi faoliyati bo'lsa, ikkinchisi uning zaruriyati bilan bog'langan tub mazmunli davlat asosidagi faoliyatidan iboratdir. Sof davlat iqtisodiyoti markazlashgan, oldindan belgilangan, reja asosida va aniqlangan baholar ta'siri ostidagi harakatdan iboratdir.

Tijoratli tarmoqlar, korxonalar xususiy bozordan qolgan, ko'p xarajat talab etuvchi, boshqarilishi qiyin bo'lgan, past samarali, balansli usulni talab etadigan, taraqqiyot iziga solish zarur bo'lganlardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari kontrakt bozor, tashqi savdo ham mavjuddir.

Sof davlat iqtisodiyoti umumiy iqtisodiy funksiyalarni o'z ichiga oladi. Bular iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni ijtimoiy yo'naltirish, iqtisodiyotni ijtimoiy tartiblashtirish, milliy iqtisodiyotni himoyalash, daromadni qayta taqsimlash, pul muomalasini ta'minlashlardan iboratdir.

Bu vazifalar albatta bozor iqtisodiyotiga aralashuv, tartiblashtirish, rag'batlantirish kabilar bilan bog'liqdir. Davlat faoliyatida bu sohada ikki usul qo'llaniladi. Birinchisi, ma'muriy-huquqiy usullarni o'z ichiga olsa, ikkinchisi iqtisodiy mexanizmlardan foydalanishdir.

Davlatning bozor iqtisodiyotiga aralashuvi, uning tartibga solish jarayoni katta ixtiyotkorlikni talab etadi. Bunda ma'muriy va iqtisodiy usullarni qo'llashda chegarani bilishlik katta ahamiyat kasb etadi. Buning bir necha asosiy talablari mavjuddir.

Birinchi, bozor mexanizmlari bog'liqligiga ta'sir etish va ularning tuzilishiga olib keluvchi har qanday harakat zararlidir. Bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Aytaylik, direktiv mazmundagi harakat to'g'ri kelmaydi. Majburiy rejalashtirish va tovarlarni sun'iy taqsimlash, baholar ustidan ma'muriy nazorat olib borish kabilar direktiv mazmunidagi harakat qatoriga kirib, bular bozor mexanizmlarini ishdan chiqaradi.

Ikkinchi, bozor iqtisodiyoti o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmlariga ega bo'lganligi uchun iqtisodiy usullarni qo'llash ko'proq qo'l keladi. Lekin bu zaruriy vaqtlarda ma'muriy usullarning qo'llanishini inkor etmaydi, hatto taqozo etadi. Umuman olganda, bozor iqtisodiyotini tartibga solishda ma'muriy va iqtisodiy usullarni bir-biridan ajratish qiyin, ular birga qo'llanilishi va bir-birini to'ldirishi zarur.

Uchinchi, iqtisodiy usullar qanchalik ma'qul bo'lmasin, ulardan juda ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur. Agarda soliq, kredit – pul, byudjet – pul usullarini oladigan bo'lsak, bular ham eski majburiy rejalashtirishdan kam emas, bilmay qo'llanilsa bular ham katta zarar keltirishi mumkin.

To'rtinchi, iqtisodiy usullarning hammasi ham kam-ko'stsiz emas, ular ichida ijobiy bilan birga salbiy usullar ham bor. Masalan, davlat qimmat yangi texnologiyani kiritdi deylik. Dastlab uning foydali tijoriy tomonlari bo'lmasligi mumkin. Bu texnologiya ishsizlikni ko'paytirishi, ijtimoiy muammoni kuchaytirishga olib kelishdan yiroq emas, yoki inflyatsiyaga qarshi pul siyosati bank foizining o'sishiga olib kelishi kabi hodisalar salbiy mazmunga egadir.

Bozor bilan bog'liq bo'lgan har qanday harakat, davlat chora-tadbiri juda o'ylanilgan, ko'p chamalangan va barcha oqibatlarini e'tiborga olgan tavsifda bo'lishni talab etadi. Chunki bozor ishtirokchilari, ayniqsa tadbirkorlar faoliyatiga, aralashuv juda nozik narsa bo'lib, bundagi xatolik juda qimmatga tushishi mumkin.

Chunki u ortiqcha xarajatlar, buzilishlar bilan bog`liq bo`lib, qo`rquvlik, ishonchsizlik tug`iladi. Bu albatta bozorning shakllanishiga katta zararlar keltirib, bu jarayonni orqaga suradi. Pirovardida bozorga o`tish qimmatlashadi, cho`ziladi, natijada buning hammasi aholining iqtisodiy axvoliga o`zining salbiy oqibatlarini kuchaytiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bozor davlatning tartibga solish faoliyatini chegaralaydi, juda noziklik bilan ish tutishni talab etadi. Hech qachon bozor iqtisodiyoti imkoniyatlari to`la ishga solingan deb bo`lmaydi. Bu sohada bitta ham ideal davlat bor, deyish qiyin. Lekin bu sohadagi eng muhim xulosa shuki, davlat faoliyati bilan bozor iqtisodiyoti o`rtasida muvozanat mavjudligi muhim taqdiriy talabdir.

2.5. Mulk shakllarining bozorga ta`siri

Har qanday iqtisodiy tizimda bo`lganidek, bozor iqtisodiyotida ham mulk muammosi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi va harakatdagi mavjud mulk shakllarining bozor talabiga, uning xususiyatlariga mos kelishi talab etiladi. Yuqorida qayd qilganimizdek, erkin iqtisodiy taraqqiyot, xo`jalik xillarining turliligi, iqtisodiy tashabbuskorlik, raqobat xolati bozorning mohiyatini belgilovchi asoslardir. Bular avvalo mavjud mulk shakllariga bog`liq bo`lib, ularning ifodasini tashkil etgan xolda asosan mulk mohiyatidan kelib chiqadi.

Iqtisodiy tizimlar mulk shakllarining aksi bo`lganidek, bozor munosabatlari ham o`zlariga xos va mos mulk shakllarini talab etadi.

Tarixda turli mulkchilik va yakka mulkchilik shakllari mavjud bo`lgan. Jamiyat turli xil mulkchilik asoslarida ham doimo rivojlanib kelgan. XX – asrga kelib yakka mulkchilik tizimi ham barpo bo`ldi. Bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyotining mulk shakllariga bog`liqligi ijtimoiy mulkchilik sharoitida, ayniqsa juda ayon bo`ldi.

Xo`jaliklarning turliligi, darajalarining har xilligi kurashga da`vat etadi, ya`ni raqobatga olib keladi. Ijtimoiy mulk esa, aksincha tenglik, bir xillilik xususiyatini yaratadi. Bundan tashqari u xo`jalik yuritishda markazlashuvga olib kelib, mustaqil

harakat qilish, tashabbus ko`rsatish imkonlarini yo`q qiladiki, bunday sharoit bozorcha taraqqiyotni inkor etadi.

Eng muhim narsa shuki, ijtimoiy mulk bir xillilik bo`lsa, xususiylik turlilikdan iboratdir.

2.5.1. -jadval

Xususiylashtirishning yo`nalishlari

№	Yondashuvlar	Ch u n k i
1.	Chek vositasida xususiylashtirish g`oyasidan voz kechildi.	<p>* bir necha avlodlar mehnati bilan yaratilgan ishlab chiqarish salohiyatiga respublikada yashaydigan har bir kishining qo`shgan xaqiqiy ulushini xolisona baholab bo`lmaydi;</p> <p>* mol-mulkning qiymatini baholab, uning miqdorida cheklar, vaucherlar va boshqa shunga o`xshash qimmatli qogozlar chiqarish hamda bu qogozlarini butun aholi o`rtasida taqsimlash - bu ijtimoiy adolat tamoyiliga rioya qilish emas, balki sotsialistik sun`iy ravishda tenglashtirishning buzilgan bir shaklidir, xolos;</p> <p>* cheklarni bepul taqsimlash va shundan keyin ularga korxonalarining aksiyalarini sotib olish mulkdorlar guruhini vujudga keltirmaydi, balki, aksincha, boyligimizni qadrsizlantiradi. Tekin narsaning qadri ham bo`lmaydi.</p> <p>* aholining ko`pchilik qismi qimmatli qo`YOozlar bilan muomala qilish ko`nikmasiga ega emas, hali chek bozori samarali ishlashi uchun qimmatli qo`YOozlar bozori shakllanmagan edi. Bu narsa ijtimoiy vaziyatining keskinlashuvchiga olib kelar edi.</p>
2.	Davlat mol-mulkini faqat yangi mulkdorlarga sotish yo`li bilan xususiylashtirish ma`qul deb topildi.	<p>* bepul qo`lga kirgan mol-mulk Eki uning bir qismi chinakamiga asrab-avaylanmaydi, ehtiCt qilinmaydi;</p> <p>* xususiylashtirilaCtgan ob`ektning bunCd qilishga ilgari sarflangan xarajatlarni qoplash zarur. Bu esa xususiylashtirish, ob`ektlarini tanlov bo`yicha va kim oshdi savdosiga qo`yib sotishni taqozo etadi.</p>
3.	Xususiylashtirishga dasturiy Endoshuvni ta`minlash va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur deb topildi.	<p>* bunday Endoshish har bir boshich uchun xususiylashtirish sohasidagi asosiy ustivorliklarni aniqlash ikonini beradi. Dastlabki, bosqichda xususiylashtirish jaraCni:</p> <ul style="list-style-type: none"> - umumiy uy-joy fondini, - savdo shaxobchalarini, - maxalliy sanoat korxonalarini, - maishiy xizmat ko`rsatish shaxobchalarini, - qishloq xo`jalik maxsulotlarini tayCrlash tizimini, xullas, "kichik xususiylashtirish"ni qamrab oladi. <p>* yengil va mahalliy sanoatga, transport va qurilishga, boshqa tarmoqlarga qarashli ayrim o`rta va yirik korxonalar keyinchalik sotib olishi huquqi bilan ko`proq:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ijara korxonalariga, - jamoa korxonalariga, - Cpiq turdagi aksionerlik jamiyatlarga aylantirildi. <p>* Paylar (aktsiyalar)ning nazorat paketi davlat ixtiyorida</p>


		saqlab qolindi.
4.	Xususiylashtirish choYOida aholi uchun kuchli sotsial kafolatlarini yaratish va uni ta'minlash vazifasi qo'yildi.	<p>* fuqarolarning mulkdan ulush olishda teng huquqqa egaligi hamda ularning ijtimoiy himoyalanishi qoidasiga amal qilmasdan turib xususiylashtirishni adolatli bajarib bo'lmaydi. Shu sababli:</p> <ul style="list-style-type: none"> - xususiylashtirilayotgan korxonalar xodimlariga aktsiyalarni imtiyozli shartlar bilan sotib olishlariga imkon yaratildi; - yangi mulkdorga ancha eskirgan asosiy fondlar hamda ijtimoiy infrastruktura ob'ektlari bepul topshirildi; - davlat xo'jaliklarining mol-mulki, fermalar, bog'lar va uzumzorlar imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirilaboshlandi; - xususiylashtirilgan korxonalar ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq to'lashda ayrim imtiyozlar belgilandi.

Mulk moddiy va boshqa boyliklardan foydalanish sharoitlari, munosabatlari, egalik qilish, o'zlashtirish mazmunini o'z ichiga oladi. Mulkka egalik esa ko'proq boylikka ega bo'lish va u bilan bog'liq barcha sharoitlarni qo'lga kiritishdir. Shunga ko'ra u iqtisodiy mazmunga ega iqtisodiyot asosidir. Iqtisodiy faoliyatda mulkning hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi unga egalik darajasini kuchaytirish va boyliklarga nisbatan erkin munosabatga bo'lishga erishishda ifodalanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish sharoiti, taqsimot va iste'mol xolati, miqdori va darajasi albatta mulk munosabatlariga bog'liq va u bilan belgilanadi. Undan foydalanish, unga egalik qilishda umumiylik va xususiylilik mavjuddir, boshqacha qilib aytganda, uning qatnashchilari tenglik va tengsizlik hamda itoatkorlik xolatida bo'lishi mumkin. Bunda albatta mulkiy munosabat

ta'sirda bo'ladi.

2.5.1.-chizma

O'zbekistondagi mulk shakllari



Mulkdagi xususiylikning ijobiy tomonlari ko'p, u ijtimoiylikka nisbatan bir qancha ustunliklarga ega. U, avvalo, umumiylikning teskarisi bo'lgan turlilik, xilma-xillik, tengsizlik sharoitlari bilan bog'liqdir. Bunda egalik darajasi yuqori bo'lib, javobgarlik hissiyoti kuchli bo'ladi. Eng muhimi shaxsiy manfaatdorlik to'la yoki to'laroq ifodalanadi. Mulkdan foydalanishning shaxsga bevosita bog'liqlik darajasi yuqori bo'ladi.

Mulk xususiyligi xo'jalik yuritishdagi turlilik, xilma-xillik va erkinlik sharoitlarini yaratish tufayli bozor munosabatlariga mos keladi va raqobatga asos soladi. Bozor munosabati bilan mulk muammosi, uning harakatdagi shakllariga e'tibor berar ekanmiz, uning bozor iqtisodiyoti rivojida o'rni, ahamiyati, bozor uchun uning ma'qul va zarur ko'rinishlari, bozor iqtisodi rivoji maqsadida mulk munosabatlarining taraqqiyotiga e'tibor berishimiz zarur.

Yakka mulkchilik to'la ijtimoiy mulk shaklidan iborat bo'lsa, mulk shakllarining turliligi asosan davlat mulki, shaxsiy mulk, shuningdek jamoa, qo'shma, kooperativ mulklari kabilardan iboratdir. Mulkdan foydalanishda yana qo'shimcha shakllar ham yuzaga keladi. Bular qatoriga ijara, pudrat, sheriklik, fermerlik (dehqonchilik) kabilarni qo'shish mumkin.

Mulk shakllari mulkni o'zlashtirishdagi ko'rinishlar, mulkning amaliy ifodasi bo'lib, uning mazmunini bildiradi.

Aytganimizdek, bozor iqtisodiyoti turli mulk shakllarini taqozo etadi. Yuqoridagi chizmada mavjud mulk shakllari bog'liqligi ko'rsatilgan.

Har bir mamlakatning davlati o'z mulkini tashkil etadi. Bu asosan xo'jalik bilan, avvalo, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Keyingi vaqtlarda buning xajmi sezilarli darajada bo'lib, umumiy mulk miqyosida nisbati Fransiyada deyarli uchdan bir qismga, Angliyada 20-21 foizga, AQSHda 13-14 foizga tengdir. Bular asosan barcha tarmoqlarga oid va xalq xo'jaligi infrastrukturallari sohasidadir. Lekin kapitalistik deb atalayotgan davlat mulklari qaysi shaklda bo'lishiga qaramay, asosan xususiy xarakterda va bozor qoidalari asosida faoliyat ko'rsatadi. Shunga ko'ra u bozor munosabatlarini rivojlantirish, raqobatga sharoit yaratish uchun xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davlat mulki monopoliyasiga barham berish va uni xususiy lashtirishni talab etadi.

Assotsiatsiyalar, ya'ni korxonalar va tashkilotlar uyushmasi mulki mavjud bo'lib, bular asosan davlat mulki asosida bo'lganligi tufayli, buni davlat mulkiga bog'lab ko'rsatmoqchimiz. Chunki bu umuman birlashma mazmunida bo'lib, xususiy mulk ishtirokida ham bo'lishi mumkinligi va xususiylik munosabatlariga moyillik bo'lishiga qaramay davlatchilik ustunlik qiladi va asos bo'lib hisoblanadi. Bunday mulk ham boshqalarga o'xshagan xalq xo'jaligining barcha tarmoq va sohalarida yuzaga keladi. Uyushma mulki esa ishtirokchilar mulkidan ajratilgan qisminigina tashkil etib, umumiy manfaat uchun ishlatiladi. Bu, ayniqsa o'tish davriga juda xarakterli bo'lib bo'lib, O'zbekistonda ham ko'p qo'llanilmoqda.

Eng qadimgi va keng tarqalgan mulk xususiy shakldagi mulk bo'lib, u asosan ayrim shaxslar bilan bog'liqdir.

Xususiy mulkning asosiy xususiyati shuki, mulk bir kishining ihtiyorida bo'ladi va mulkka nisbatan to'la mustaqil ish tutish imkoniyati tug'iladi. Xususiy mulkning chegarasi bo'lmay, bu faqat uning egasining imkoniyati, qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti rivojida bu tur alohida o'rin egallaydi. Xususiy mulk bir shakldagi mulk, lekin har bir xususiy mulk o'ziga xos aloxida mulk bo'lganligi tufayli, ular mustaqil mulklar, ya'ni juda ko'p miqdordagi, ming-minglab sonli mulklardir. Ularning har biri bozorning aloxida ishtirokchisi va raqobat kurashining qatnashchisidir. Bundan xususiy mulk raqobatni kengaytiruvchi, kuchaytiruvchi mulk shakli ekanligi yana bir bor oydinlashadi.

Shunga ko'ra xususiy mulk bozor sharoitiga juda tez moslashadigan, xaridor talabini tez e'tiborga olib ish tutish va faoliyat ko'rsatish uchun eng qulay sharoitga ega bo'lgan mulk shaklidir. Bunday xususiyat bozor iqtisodiyotida xususiy mulkning ahamiyatini kuchaytiradi va yetakchilik rolini belgilab beradi. Demak, bozor rivoji uchun birinchi navbatda, xususiy mulk keng quloq yozmog'i, iqtisodiyotda asosiy o'rinni egallamog'i talab etiladi. Zero, xususiy mulk taraqqiyotsiz bozor iqtisodiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Xususiy mulk asosiy o'rinni egallamaguncha

va davlat mulki ustunligi yo`q qilinmaguncha baribir iqtisodiy taraqqiyotning ob`ektivligiga nisbatan sun`iylikning ustunligi sharoiti mavjud bo`laveradi.

Xususiy mulk ikki, ya`ni individual va korporativ shaklda bo`ladi. Individual mulk sharoitida boylik alohidalik asosida o`zlashtiriladi. Bunda mulk egasi mulkidan foydalanishda ijaraga berish yoki biron guruhga qo`shilib ish tutishda to`la mustaqillikka ega bo`ladi.

Oila mulki ham individual xususiy mulkdan ajrab chiqib, alohidalashadi.

Korporativ mulk shakli hissadorlikka asoslanadi, ya`ni bunda birgalikda ish ko`rish uchun guruhlarga qo`shilish yuz beradi. Korporativ mulk faqat xususiy mulkdan tarkib topadi. Bunda, albatta mulkdor boylikni yakka o`zlashtirish huquqiga ega bo`ladiyu, lekin bu ma`lum guruhlarga birlashuv sharoitida yuz beradi. Korporativ xususiy mulkning tub mazmuni individual mablag`larni birlashtirish tufayli paydo bo`luvchi jamiyatlarning korporativ mulkidan iboratdir. Korporativ xususiy mulk xo`jalik yuritish zaruriyatidan kelib chiqib, katta mablag`lar ishlatish va kapitallarni birlashtirish orqali yuzaga keladi. Shu bilan birga mayda xususiy mulk mas`uliyati o`rniga korporativ mas`uliyat paydo bo`ladi.

Korporativ xususiy mulk monopolistik mulkni ham yuzaga keltiradi. Bular korporativ mazmundagi yirik xususiy mulk birlashmalaridan iborat va ular juda katta hajmdagi boylik, bu boylik esa ozchilik ihtiyorida bo`ladi.

Tub xususiy mulkdan keyin miqdor jihatdan ko`p shaklli turi hisoblangan *birlashma mulki* turadi. Bu bir necha mustaqil mulk shakllaridan, ya`ni aksionerlik, jamoa, korporativ, qo`shma tashkilotlar mulki kabilardan iborat bo`ladi. Shu bilan birga korporativ xususiy mulkdan farqli o`laroq bunda davlat va chet mamlakatlar mulklari ham ishtirok etadi. Bundagi ko`p tarqalgan bu mulk shakli avvalo *jamoa mulki*dir. Bu mayda xususiy mulkchilarning birlashmasi sifatida yuzaga kelib, bir qancha ustunliklarga ega. Bundagi muhim tomon asosan sarmoyalarni kuchaytirish imkoniga ega bo`lish, mulkchilarning monopollik harakatiga bardosh bera olish imkonini yaratishdir. Bu xil jamoa mulki turli tarmoqlarda harakatda bo`ladi, ya`ni bu mulkchilik ishlab chiqarish, muomala sohalari, infrastrukturallarda faol qatnashishi mumkin.

Bizning sharoitimizda asosan qishloq xo'jaligida bu mulk shakli keng quloch yoygan. Bular asosan jamoa, guruh mulki asosida harakatdagi xo'jaliklardir. Bundan tashqari savdoda, qishloq mahsulotlarini xarid qilish va qayta ishlashda ham bu xil mulk keng tarqalgan bo'lib, ular matlubot jamiyatlari, xarid-savdo birlashmalaridir.

Jamoa mulki, ayniqsa bevosita iste'mol buyumlari ishlab chiqarish va iste'mol qilish tarmoqlarida katta o'rin egallaydi. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, ta'minlash, qurilish kabilarda uning ta'siri juda katta. Ovro'pa mamlakatlarida, ayniqsa Yaponiyada bevosita iste'mol va umuman, inson hayoti sharoitida bu mulk shaklining o'ri katta. U yerda minglab jamoa korxonlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Jamoa mulki mayda mulkchilar faoliyatida ahamiyatlidir. Chunki alohida holda mayda mulk Samara keltirishi u yoqda tursin, hatto raqobatga bardosh bera olmasligi va arzigulik ish ko'ra olmasligi mumkin, mayda mulkdorlar esa o'zaro birlashib, kattaroq xajmda tijorat ishlarini amalga oshirish imkonini tug'diradi. Shuning uchun ham haqiqiy demokratik asosda yuzaga kelgan jamoa mulki va bu asosdagi xo'jalik juda ahamiyatlidir. Har bir bunday birlashma ma'lum darajada erkin harakatni chegaralashi sababli birlashuv faqat ixtiyoriylikni talab etadi. Shuni e'tirof etish zarurki, jamoa mulkiga davlatchilikni singdirish faqat zarar keltiradi: jamoa mulkidan kutilgan samara bo'lmaydi

Jamoa mulkining qo'llanishidagi yana bir xususiyat shundan iboratki, boylikning o'zlashtirilishi uchun ish faoliyatida birgalikda qatnashish talab etiladi, chunki jamoa mulki mehnatsiz o'zlashtirishni inkor etadi va korporativ mulkdan farqlanib, ham mulkka, ham mehnatga hissa qo'shishi zarur hisoblanadi. Bu asosda tashkil etilgan xo'jalikdagi asosiy kuchi shu mulk egalarning o'zidir. Shu bilan birga zaruriyat talabi bilan yollanma mehnat jalb etilishi xollari ham mavjud bo'ladi. Mayda mulk bozorda ta'sirli kuchga ega bo'la olmasa, uning birlashuvi natijasida yuzaga keladigan jamoa mulki katta o'rin egallaydi va bozor iqtisodiyotining muhim ishtirokchisiga aylanadi, uning rivojida faol qatnashish imkonini tug'diradi.

Kooperativ mulk jamoa mulkining ko'p uchraydigan shaklidir. Kooperativ xillari ko'p, ular shu xil mulkka asoslangan va keng tarqalgan korxonalardir. Kooperativlarga birlashganlarning mulki umumiy va daromadi asosan sarf etilgan

mehnati bilan belgilanadi. Bu guruh asosidagi birlashma bo`lib, hissadorlik mazmunida tashkil topadi. Kooperativlarga qo`shilgan mulk bilan bir qatorda shaxsiy qatnashuv hal qiluvchi rol o`ynaydi. Har bir kooperativ bozorda mustaqil ishtirokchi sifatida faoliyat ko`rasata oladi.

Qo`shma mulk – bu mulklarning bir-biriga qo`shilishi tufayli yuzaga keladi. Ikki usulda barpo bo`lishi mumkin bo`lgan bu xil mulk mamlakatlarning ichki va tashqi imkoniyatlariga bog`liqdir. Chunki qo`shma mulk ichki yirik mamlakatlarning bir-birlari bilan qo`shilib ish ko`rishga asoslansa, shu bilan birga mamlakatlararo qo`shilish tufayli ham shakllanadi. Shuning uchun ham boshqa xil mulk shakllaridan farqli o`laroq, bu mulk xalqaro ahamiyat kasb etadi.

Ma`lumki, bozor munosabatlariga o`tishda chet sarmoyalarni jalb etish bu jarayonni tezlashtirishda juda qo`l keladi. Mulk nuqtai nazaridan olsak, bu chet kapitalini jalb etgan xolda qo`shma mulkni avj oldirishdir. Mamlakatimizda, ayniqsa Turkiya, Korea Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi, AQSH kapitallari qatnashuvida qo`shma mulklar ko`paymoqda.

Chetki kapital asosidagi qo`shma korxonalarining ahamiyati investitsiyani kuchaytirish, milliy iqtisodiyotni bozor munosabatlari asosida shakllantirishda ortib boradi. Katta mablag`lar zaruriyati sharoitida qo`shma mulk orqali chet kapitalini jalb etish zaruriyatdir. Zero, yuqorida aytib o`tganimizdek, Respublikamiz oldida xalq xo`jaligi tuzilishini tubdan o`zgartirish, yangi tarmoqlar yaratish, zamonaviy texnologiyani o`zlashtirish kabi yirik iqtisodiy vazifalar o`z-o`zidan katta-katta sarmoyalarni talab etadi. Qo`shma mulk esa bu muammoni yechishda katta rol o`ynashi turgan gap.

Qo`shma mulk tufayli jalb etiladigan chet kapitali yangi texnologiyani olib kirmoqda. Chunonchi, Korea Respublikasi, Germaniya Federativ hukumati kapitallari asosida yuzaga kelgan qo`shma korxonalar Respublikamiz uchun yangi avtomobil sanoatini zamonaviy darajada yuzaga keltirish imkonini bermoqda.

Xomashyoviylik yo`nalishini bartaraf etib, tayyor mahsulot yaratishni o`zlashtirishdan paxtadan kiyim-kechak tayyorlashgacha bo`lgan texnologik ishlab chiqarishni yaratishda Turkiya, Korea Respublikasi kabilar bilan yuzaga kelayotgan

qo'shma mulk juda ahamiyatlidir. Bunday jarayonlar kundan-kunga rivojlanib, turli mamlakatlar ishtirokida qo'shma mulkni kengaytirish tufayli avj olmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad qo'shma mulkning shakllanish jarayoniga chetdan yirik kapitallarni jalb etish, uni miqdoriy va hajmiy kengaytirish yo'li bilan yangi tarmoqlar barpo etish, zamonaviy texnologiyani qo'llash kabi hajmli sarmoyalarga bog'liq masalalarni muvaffaqiyatli bajarilishni tezlashtirishdir.

Diniy tashkilotlar mulki – bu faqat diniy bino va inshootlar bilan chegaralanmay, balki xo'jalik faoliyati imkon tug'dirgan jamg'armalar, turli marosimlardan tushadigan mablag'lar hisobiga ortib boradi. Ular oddiy xo'jalik faoliyati bilan birga katta qurilish ishlari va boshqa kapital xarajatlarni bajarib boradilar. Bu mulk faqat diniy yo'lda qo'llaniladi va ishlatiladi.

Aksioner mulk – bu turkumdagi eng salmog'li va ta'sirli shakl bo'lib, keng tarqalgandir. Bu ham aslida birlashgan mulk bo'lib, aktsiya chiqarishga asoslangandir. Bu aktsiyalar erkin harakatda bo'ladi, qimmatbaho qog'ozlar qatorida savdoda ishtirok etadi va sotiladi, sotib olinadi. Aktsiyaga ega bo'lganlar shu asosdagi mulkning qatnashchilari hisoblanadilar. Korxonalarining faoliyatida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladilar. Aktsiyalar uchun korxonalar faoliyatlari natijasiga qarab daromad oladilar Bu mulkda ishtirok etish juda ixtiyoriydir. Chunki istagan vaqtda aktsiyani sotib olish yoki sotib yuborish mumkin.

Xalq korxonasi mulki – bu shakldagi mulk aksioner mulkdan kelib chiqadi. Chunki aktsiyalar egalari korxonada ishlaydilar. Shuning uchun ular ayni vaqtda korxonaning mulkdori huquqiga ega bo'ladilar. Bu korxonasi faoliyatiga aktsiyaga ega bo'lgan xodimlar ham qatnashuv huquqini qo'lga kiritadilar. Natijada aksioner korxonasi daromadidan shu aksionerlar manfaatdor bo'ladilar. Masalan, AQSHni xalq kapitali mamlakati deydilar. Chunki aktsiyaga ega bo'lgan xodimlar korxonalarda ko'pchilikni tashkil etadi. 1994 – yilda xalq korxonalarida 11 mln.dan ortiq kishi ishlagan va aktsiyalarning 20-50 foizgachasi ishlovchilarning birgalikdagi mulkidan iborat bo'lgan. U yerda xalq korxonalarida deb ataluvchi xo'jaliklar miqdori ortib bormoqda. Bunday holatda, albatta, ekspluatatsiya mazmuni o'zgaradi va mehnatga erkli munosabat asos bo'lib hisoblanadi.

Mulk shakllarining mohiyati va mazmuni bilan tanishish shuni ko`rsatadiki, bozor iqtisodiyoti uchun barcha mulk shakllari ahamiyatli bo`lib, har biri o`ziga xos ustunlikka egadir. Aytish mumkinki, har bir mulk shakli bozor iqtisodiyoti uchun zaruriy bo`lib, ular umumiy taraqqiyot jarayonida bir-birini to`ldirib boradi. Shuning uchun ham bozor munosabatlari sharoitida mulk shakllarining turiligi va har bir mavjud shaklining taraqqiy etib borishi talab etiladi. Bu jarayon erkin raqobat sharoitida amalga oshishi kerak.

2.6. Davlat mulkini xususiylashtirish

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishida mulk shakllarining turiligi va xususiy mulkning asosiyligini ta'minlash davlat mulkini xususiylashtirish, uning monopol holatini bartaraf etishni muhim masala qilib qo`yadi. Chunki bozorga o`tish, nobozorcha boshqarish usuli o`rniga bozorcha xo`jalik yuritishni o`rnatish, davlat iqtisodiyotini parchalash, raqobatbop xo`jalik turlarini yaratish asosiy muammolardandir.

Davlat mulkini xususiylashtirish (privatizatsiya) umumiy iqtisodiy voqealik bo`lib, bozor iqtisodiyoti shakllanishi va rivojining zarur shartidir. Privatizatsiya davlat mulkidan boshqa mulk shakllariga o`tishni anglatadi. Privatizatsiya lug`aviy mazmuni xususiylashtirish bo`lgani uchun bu iqtisodiy jarayonni davlat mulkini xususiylashtirish, deb ataydilar. Lekin mazmunan xususiylashtirish privatizatsiyaga nisbatan kengroqdir. U yana umuman iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat mulkiga xususiylashtirish munosabatlarini singdirish kabi erkin, iqtisodiy sharoitga bog`liq chora-tadbirlarni ham o`z ichiga oladi.

Xususiylashtirish davlat iqtisodiy monopolligini bitirish va o`rniga bozorga xos bo`lgan mulk erkinligini ta'minlashga qaratilgan. Chunki bunda davlat mulki hukmronligi o`rniga asta-sekinlik bilan nodavlat, birinchi navbatda xususiy mulk shakllarini yaratish va bozorga o`tish sharoitlarini paydo etish uchun davlat mulkini xususiylashtirilayotgan bo`lsak, rivoj topgan mamlakatlarda bozor iqtisodi rivoji sohasida katta tajriba orttirib, bozor taraqqiyotini takomillashtirish vash u sohada davlat va bozor tizimlari o`rtasidagi muvozanatni zamonaviylashtirish amalga

oshmoqda. Bu ham tub mazmuni bilan monopollashuvga qarshi kurash, raqobatli bozorin kuchaytirish bilan bog`langandir. Shuning uchun bizdagi va G`arbdagi xususiylashtirishni bir xil deb bo`lmaydi. Bizning sharoitimizdagi bu jarayon o`tish vazifasini bajarish va bozor iqtisodiga asos solish bilan bog`langan bo`lsa, G`arbdagisi bozor iqtisodiyoti taraqqiyotini ta`minlash hamda navbatdagi davlat va raqobat bozori o`rtasidagi yangi balansni ta`minlashdan iborat.

Mulkiy munosabatlarning umumiy va xususiy tomonlari mavjud bo`lganidek, xususiylashtirishning ham umumiy qonuniyat va talablari hamda shuningdek, milliy, ommaviy xususiyatlari ham mavjuddir. Keyingi yillarda iqtisodiyotni nodavlatlashtirish jarayoni sharoitida nog`oyaviylashtirish kuchaymoqda. Chunki faqat xususiylashtirishni ta`minlovchi davlat iqtisodiyoti ta`minlovchi bo`lganlar kamayib, o`z ahamiyatlarini yo`qotmoqdalar. Aytaylik, Buyuk Britaniyaning yirik neft kompaniyasi bo`lgan "British petroleum"ni konservatorlar emas, balki leyborist demokratlar xususiylashtirishdi. Shvetsiyada ham sotsial-demokratlar xuddi shunday qilishdi. Bunday misollarni ko`plab keltirish mumkin.

Nodavlatlashtirish faqat xususiylashtirishdan iborat emas. Buning yo`l va usullari ko`p bo`lib, iqtisodiy ahvol, kuchlar muvozanati, hozirgi holat kabilarni hisobga olgan holda qulay usullardan foydalanish talab etiladi.

G`arb davlatlari tajribasiga ko`ra iqtisodiyotning nodavlatlashtirish usullaridan to`rt xilini samarali deb tanlasa bo`ladi. Albatta bu usulni O`zbekiston uchun to`g`ri keladi deb bo`lmaydi. Lekin ulardan foydalanish mumkin. Shunga ko`ra ularni tahlil etish foydadan holi emas deb o`ylaymiz.

1.*Bozorni liberallashtirish* – bu baholar erkinligiga o`tish bilan birga, raqiblarni bozorda ko`paytirish choralarini qo`llash, kichik biznesni kuchaytirish, chet tovarlarni ko`proq keltirish sharoitlarini kengaytirish kabilar bozorni o`zidan o`zi privatizatsiyasiz nodavlatlashtirib, kengaytiradi va talabni qondirish darajasini ko`taradi.

2.*Aksionerli davlat – shaxsiy korxonalarini yaratish*, ularning faoliyat sohasini kengaytirish. Bunda davlatning aktsiyali kapitaldagi hissasini pasaytirib borishga qaratilgan soliq, kredit kabi mexanizmlar mavjud.

3. *Davlat iqtisodiyotiga xos nobozor muhitni ketma-ket yo`q qiluvchi nodavlatlashtirish usullari.* Bular byudjet hisobiga korxonalarining ishini yaxshilash, davlat buyurtmasini qisqartirish, kredit qarzlardan voz kechmaslik, xususiy investitsiya sharoitlarini davlat korxonalariga tadbiiq etishlardan iboratdir. Bu bozor munosabatlariga yo`l ochadi.

4. *Xususiylashtirishni amalga oshirish.* Agar xususiylashtirish keng qo`llanilsa ayrim shaxslar, sotiladigan korxonalar, bank, yangi aktsioner jamiyatlar, chet firmalarning jamoa a`zolari mulkdorlar qatoriga qo`shilib boradilar.

Quyidagi jadvalda iqtisodiyotning nodavlatlashtirishga xos usullarini ko`rsatuvchi tomonlarni umumlashtirilgan holda ko`rsatishga harakat qildik. Bularni alohida-alohida qo`llaniladi, deb bo`lmaydi. Bu, albatta taraqqiy etgan g`arb mamlakatlar tajribasi asosida tuzilgan. Lekin respublika sharoitlarini hisobga olgan holda bulardan muvaffaqiyatli foydalanish va bu bizning shakllanayotgan bozor iqtisodiyotimiz uchun katta foyda keltirishi mumkin. Bu to`rt usul bozor usuliga o`tgan mamlakatlarga xos bo`lib, ularda xususiylashtirish oldindan hal qilingan. O`zbekiston uchun esa hozirgi asosiy vazifa – xususiylashtirishni to`la amalga oshirishdir.

2.6.1.-jadval

Iqtisodiyotni nodavlatlashtirish usullari

№	Usullar	Usulning mazmuni	Usulning maxanzimlari	Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari
1.	Bozorni liberallashtirish	Erkin baxolar kiritilishi, raqobatga yo`l ochish, bozor qatnashchilarini ko`paytirish	Baho, raqobat, privatizatsiyasiz nodavlatlashuv	Mayda korxonalar ko`payishi, bozorda taklifning o`shishi, bozor tuzilishinino`zgarishi	Bahoning ko`tarilib borishi
2.	Davlat shaxsiy aktsionerli korxonalarini yaratish	Aktsioner kapitalda davlat hissasini kamaytirish	Soliq, kredit	Mulkchilar ko`payadi, erkin iqtisodiy faoliyat o`sadi	Tabakalanish kuchayadi
3.	Davlat iqtisodiyotiga xos nobozor usullarini ketma-ket	Davlat korxonalarida bozor munosabatlarini qo`llash	Byudjet, kredit, xususiy investitsiyalardan foydalanish	Davlat buyurtmalarini qisqartirish, korxonalar faoliyatini	O`tish bilan bog`liq, ishlab chiqarishning vaqtincha qisqarishi

	yo`q qilish			yaxshilash	
4.	Xususiylash tirish	Davlat mulkini xususiylashtirish	Auksion, aktsiyalar sotilishi, tekinga mulkni tarqatish	Mulk egasini topadi, uning samaradorligi oshadi	Ta'siri ma'lum vaqt o'tganda kuchga kiradi, katta o'zgarishlarni talab etadi

Amalda yuqorida keltirilgan to'rt usul birgalikda olib boriladi. Lekin iqtisodiyotning nodavlatlashtirishda liberallashtirish va xususiylashtirish bir-birini to'ldirib keladi. Chunki bularning o'ziga xos katta ustuvorliklari mavjud. Liberallashtirishni olsak, u bozor eshiklarini keng ochib qo'yadi. Bunda bozorning ichki tuzilishi o'zgarib boradi va iqtisodiyotning nodavlatlashuviga yordam qiladi hamda monopolashuvni zaiflashtiradi. Xususiylashtirish esa birdaniga bunday o'zgarishlarga olib kelmaydi, chunki faqat mulk shakli o'zgaradi, bozorda darrov o'zgarishlar yuz bermaydi va o'sha tovar taqchilligi, monopoliya mavjudligi, tovar sifatining pastligi saqlanib qolaveradi.

Lekin xususiylashtirishning ijobiy tomoni shuki, u mulkning real – haqiqiy egasini topadi. Bilamizki, mulk egasini topmaguncha samaradorlik bo'lmaydi. Demak, bozor mexanizmlari ishga tusha boshlaydi, ishlab chiqraish o'sib, taklif kuchaya boradi.

Rivoj topgan mamlakatlarda xususiylashtirish moliya bozoriga ta'sir etadi, natijada sotiladigan aktsiyalar ko'payishi bilan taklif ortadi. Bu hech qanday xarajatlar bilan bog'liq bo'lmaydi va iste'mol buyumlariga bo'lgan talabning qisqarishiga olib keladi. Foydali bo'lgani uchun fuqarolar xursandlik bilan davlat mulkining sotilishida faol qatnashadilar. Inflyatsiyaga qarshi ta'sir kuchli bo'ladi. Daromadlarning bir qismi aktsiyalar sotib olishga sarflanganligi sababli tovar va xizmatlar bozorida talab pasayadi. Angliya, Fransiyaga o'xshagan mamlakatlarda xususiylashtirish jarayonida xuddi shunday voqelik yuz bergan.

Rossiyada ahvol boshqacha bo'lib, xususiylashtirish cheklari chiqariladi, bu ijtimoiy-siyosiy muvozanatga ancha yordam berdi.

Xususiylashtirishning muvaffaqiyati uchun bir nechta shartlarni bajarish talab etiladi:

1. Mulkning taqdirini belgilashda, imkoni bo'lsa xususiylashtiriladi. Bunday nohaqlik, nazoratsizlik yuz bermasligi uchun, avvalo davlat mulki sub'ektlarining to'la aniqligi talab etiladi.

2. Xususiylashtirish iqtisodiyotning bozor potentsiallarini tezda ishga solishi uchun kapitallar harakatini ta'minlash, ularning tarmoqlararo va sohalararo siljish yo'llarini ochish talab etiladi.

3. Sotiladigan aksiyalarning oldindan ma'lum bo'lishi. Rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon haqiqiy bozor usulida erkin tarzda bo'lmaydi. Masalan, Fransiyada sotiladigan korxonalar aksiyalarining 10 foizi chet elliklarga, 50 foizi Fransiya fuqarolariga va bank, yirik moliya institutlariga sotiladi. Germaniyada esa davlat o'ziga 51 yoki 25 foizini qoldiradi.

4. Xususiylashtirishning oxirigacha amalga oshishini ta'minlash uchun mulkning biri xususiylashtirilib, ikkinchisini byurokrat apparat qo'lida qolishiga yo'l qo'yilmaslik kerak.

Yuqoridagi shartlar bajarilsa, xususiylashtirish muvaffaqiyatli o'tadi. Masalan, Germaniyada bu qiyinchilik bilan ko'chdi. Chunki mahalliy hokimiyatlarning huquqlari katta. Angliyada "British Genekom"ni xususiylashtirish natijasida 2,25 mln. kishi sherik mulkdor bo'lishdi. Bu, korporatsiyaning 96 foizi xodimlariga teng, deng so'z.

Davlat xususiylashtirishni kengaytirar ekan, demak u o'z faoliyatini bozor iqtisodiyoti talabiga moslashtirish, uning rivojini kuchaytirish va talab tomon to'la harakatda bo'lish, iste'molchilar uchun zarur tovarlar bilan bozorni to'ldirishni ko'zda tutadi. Privatizatsiya ishlab chiqarish samaradorligi va aholining yuqori darajali turmushini ta'minlash uchun bo'lgan harakatdan iboratdir.

O'zbekistonda raqobat bozoriga xos erkin iqtisodiyotni shakllantirishda albatta xususiylashtirish muhim asos bo'lib, u tezlashtirilishi kerak. Ammo yuqoridagi shartlarni e'tiborga olish va sharoitga qarab yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullardan foydalanishni esdan chiqarmaslik shart. Xususiylashtirishni iqtisodni liberallashtirish bilan bog'liq holda olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki

liberallashtirish bevosita bozorni kengaytiradi, ya'ni bu jarayonga hoziroq ta'sir ko'rsatib, tezda samara bera boshlaydi.

Respublikamizda baho liberalligi amalga oshdi va o'z samarasini bermoqda, boj sohasidagi amaliy ishlar chet tovarlarining ichki bozorimizda o'z o'rnini kengaytirmoqda. Pul-kredit sohasidagi ishlar, milliy pulning mustahkamlanishi kabilar bozor munosabatlariga o'tishni tezlashtirmoqda.

Lekin xususiylashtirish sohasida ham bir qancha ishlar bajarilib, bunda davlat katta tashabbuskorlik qilmoqda. Puli, pulsiz va imtiyozli usullar keng qo'llanilmoqda. Aytaylik, turar joylarni xususiylashtirish juda tez vaqt ichida keng miqyosda o'tkazildi. Bunda imtiyozli usul qo'llanilib, uy-joylar arzon bahoda kam pul hisobiga O'zbekiston fuqarolarining xususiy mulkiga aylantirildi. Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari, avvalo mayda va o'rta, so'ngra katta savdo korxonalari ham xususiylashtirildi. Bunda xizmatchilarga imtiyozli sharoitlar yaratib berildi.

Auktsion yo'li bilan kim oshdi savdosi orqali nodavlatlashtirish ham qo'llanilib, bu asosan viloyat va tumanlar hududlarida o'tkazilmoqda. Tez vaqt ichida davlat sanoat, qurilish, transport korxonalarini aksionerlashtirish tufayli mulkchilarning soni ancha ko'paytirildi. Bunda korxonalar xizmatchi va ishchilariga ustuvorlik huquqi berilib, avvalo ular cheklangan aksionerlik korxonalariga aylantira boshlandi.

O'zbekistonda ham xususiylashtirishda chet el kapitali qatnashib, mulk sotib olishi mumkin. Bu mulk turiligi sharoitini yaratishda ahamiyatlidir. Xususiylashtirishning tezlik bilan olib borilishi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ming-minglab xususiy korxonalar mavjud bo'lmoqda. Ularning soni hozirgi kunda ko'payib bormoqda.

Xususiylashtirish natijasida davlat monopoliyasiga barham berilmoqda, nodavlat mulkining barcha shakllari rivojlanmoqda. Xususiy mulkchi ishlab chiqaruvchilarning miqdori borgan sari ko'payib, erkin iqtisodiy harakat sharoitini yaratuvchi sog'lom raqobat uchun qadam tashlanmoqda. Natijada mulk egasini topib, undan foydalanish samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish sari siljish tezlashmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ma'lum darajagacha bozor iqtisodiyoti shakllanish jarayoni tovar ishlab chiqarishdan kelib chiqsa, so'ngra ahamiyat nuqtai nazaridan o'zaro o'rin almashish yuz berib, bozor iqtisodiyoti tizimi shakllanishi tufayli tovar ishlab chiqarishga ta'sir kuchayib boradi. Natijada tovar ishlab chiqarish bozor iqtisodiyoti qismiga aylanib, uning moddiy asosini yaratuvchidan iborat bo'ladi. Endi bozorning rivoji tovar ishlab chiqarish miqyosiga bog'liq bo'lib qoladi va talabning miqdori va tuzumiga bog'liq bo'ladi.

Huquqiy muxit deganda bozor munosabatlari asosidagi faoliyat uchun huquqlar va majburiyatlarni tushunamiz. Bu sohadagi erkinlik jamiyat, davlat va inson oldidagi majburiyatlar muvozanatining doimo ta'minlanib borishi uchun zarur shartdir.

Bozor iqtisodiyotining muhim shartlaridan biri uning infratuzilmalarining shakllanishidir. Busiz va uning rivojisiz bozorni tasavvur etib bo'lmaydi hamda iqtisodiyot samarali harakatda bo'la olmaydi. Bunda biz vositachilik tarmoqlari, transportning barcha turlari, aloqa, axborot kabilarni ko'zda tutmog'imiz darkor. Chunki bularsiz tovarlar harakati, tijorat kabilarni amalga oshirib bo'lmaydi, albatta. Buning uchun birinchi navbatda bozorning tijoriy tomonlarini ifodalovchi *savdo-vositachilik* bo'limlari va birjalar bilan tanishmoq zarur.

Bozor davlatning tartibga solish faoliyatini chegaralaydi, juda noziklik bilan ish tutishni talab etadi. Hech qachon bozor iqtisodiyoti imkoniyatlari to'la ishga solingan deb bo'lmaydi. Bu sohada bitta ham ideal davlat bor, deyish qiyin. Lekin bu sohadagi eng muhim xulosa shuki, davlat faoliyati bilan bozor iqtisodiyoti o'rtasida muvozanat mavjudligi muhim taqdiriy talabdir.

Mulk shakllarining mohiyati va mazmuni bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti uchun barcha mulk shakllari ahamiyatli bo'lib, har biri o'ziga xos ustunlikka egadir. Aytish mumkinki, har bir mulk shakli bozor iqtisodiyoti uchun zaruriy bo'lib, ular umumiy taraqqiyot jarayonida bir-birini to'ldirib boradi. Shuning uchun ham bozor munosabatlari sharoitida mulk shakllarining turliligi va har bir mavjud shaklining taraqqiy etib borishi talab etiladi. Bu jarayon erkin raqobat sharoitida amalga oshishi kerak.

Xususiylashtirish natijasida davlat monopoliyasiga barham berilib, nodavlat mulkining barcha shakllari rivojlanmoqda. Xususiy mulkchi ishlab chiqaruvchilarning miqdori borgan sari ko`payib, erkin iqtisodiy harakat sharoitini yaratuvchi sog`lom raqobat uchun qadam tashlanmoqda. Natijada mulk egasini topib, undan foydalanish samaradorligini to`xtovsiz oshirib borish sari siljish tezlashmoqda.

Takrorlash uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining mohiyati deganda nimani tushunasiz?
2. Bozor iqtisodiyoti tizimining samaradorligi nimada?
3. Bozor iqtisodiyotini belgilovchi asosiy mexanizmlarni aytib Bering.
4. Talab deganda nimani tushunasiz?
5. Taklifning mohiyati nimada?
6. Raqobatning bozor munosabatlaridagi o`rni nimada?
7. Bozor bahosining mazmuni nimadan iborat?
8. Davlatning umumiqtisodiy funksiyalarini aytib Bering.
9. Mulk munosabatlari va mulkchilikning bozor iqtisodiyotidagi o`rni deganda nimani tushunasiz?
10. Mulk turlari va shakllarini qanday tushunasiz? Har bir mulk shaklini bozor uchun ahamiyatini ochib bera olasizmi?
11. Xususiy mulk va uning ko`rinishlarini bozor rivoji uchun alohida ahamiyat kasb etishining sababi nimada?
12. Xususiylashtirishning mazmunini to`laroq tushuntirib bering. Uning boshqa usullar, ayniqsa bozorni liberallashtirish bilan bog`liq bo`lgan ta`siri nimada?

3-BOB. BOZOR IQTISODIDA TADBIRKORLIKNING O`RNI

3.1. Tadbirkorlik mohiyati

Hayotimizga tadbirkorlik, biznes kabi tushunchalar to`la kira boshladi. Bizning turmush tarzimiz uchun bular yangi tushunchalardir.

Ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida tadbirkorlik keng ijtimoiy munosabatlarni o`z ichiga oladi va bunda huquqiy, ruhiy va tarixiy tomonlar mavjud. Lekin o`zining tub mohiyati bo`yicha tadbirkorlik iqtisodiy hayotga kirib ketadi. O`z iqtisodiy tabiati bo`yicha tadbirkorlik ikki tomonning diametrik birligini: umumiy iqtisodiy mazmun va maxsus ijtimoiy shakllari birligini tashkil etadi.

Tadbirkorlik doimo ma`lum mazmunda tashkil topib, aniq shakllarda ifodalanadi. U xo`jalik yuritish usuli sifatida bir qancha umumiy belgilarga ega. Bularga asosan xo`jalik sub`ektlarining mustaqilligi va suverenligi, iqtisodiy manfaatdorlik, doimiy xo`jalik xatarliligi va javobgarliklarni kiritish mumkin.

Tadbirkorlik doimo ma`lum mazmunda tashkil topib, aniq shakllarda ifodalanadi. U xo`jalik yuritish usuli sifatida bir qancha umumiy belgilarga ega. Bularga asosan xo`jalik sub`ektlarining mustaqilligi va suverenligi, iqtisodiy manfaatdorlik, doimiy xo`jalik xatarliligi va javobgarliklarni kiritish mumkin.

Tadbirkorlikdagi mustaqillik, avvalo, erkin holda mustaqil ravishda bir qarorga kelish imkoniyatini beradi, bu qaror bozor mexanizmi harakatini ta`minlaydi. Aytaylik, ma`lum sarmoyaga ega va istagi bor shaxs biznesga kirishishi, o`zining tijoriy ishini yoki ishlab chiqarishini tashkil etishi mumkin. Chunki ishlab chiqarish resurslari, ya`ni ishlab chiqarish vositalari va ish kuchini bozordan sotib olishi mumkin. Nima ishlab chiqarish, qancha ishlab chiqarish, kimga ishlab chiqarish, kimdan nima sotib olish, kimga sotish, qaysi bahoni belgilash kabilar erkin tarzda, baho holatini e`tiborga olgan holda tadbirkor tomonidan hal etiladi. Lekin tadbirkorlikni soddalashtirib bo`lmaydi, ya`ni hamma narsa mumkin deb, ish tutib bo`lmaydi, har bir tadbirkor butunlay yakka emas. Zero, bozor iqtisodiyoti ko`pchilik faoliyati yakunidir. To`g`ri, tadbirkorlik yuqoridan xo`jayinlik qilishdan, nima qilish, qanday ishlashni belgilab berishdan ozod bo`ladi, ammo bozordan va uning qattiq talablaridan, mexanizmlari ta`siridan xoli bo`la olmaydi. Tadbirkorlikda mustaqillik

bilan iqtisodiy manfaatdorlik ajralmas holda bog`langandir. Daromadni, foydani yuqori darajaga yetkazish tadbirkorlik faoliyatini belgilovchi asosiy omil bo`lib hisoblanadi. Umuman, boshlangan ish, uning kengayishi, o`zgarib borishi dastavval shunga bog`liqdir. Lekin shaxsiy manfaatdorlikni xudbinlik bilan adashtirish noto`g`ridir. Chunki bozor iqtisodiyotining taraqqiyotida boshqaruvchi shaxs xo`jalikni o`zining maxsus ta`siri ostida ijtimoiy maqsadga erishish tomon yo`naltiradi va jamiyat uchun xizmat qiladi. Masalan, Genri Fordni olsak, u albatta o`z faoliyatini xayriya maqsadida boshlagani yo`q. U shaxsiy manfaatini ko`zlab ish uyushtirdiyu, lekin natijada avtomobil imperiyasini tuzdi, mahsuloti bilan jahonga nom taratdi, xo`jaligini tub o`zgarishlarga olib keldi.

Tadbirkorlikni boyish maqsadidagi tijoriylik, yakkayu-yagona maqsad faoliyati deb bo`ladimi, degan savol tug`iladi. Bunga ijobiy javob berish mumkin. Bunda umuman haqqoniylik mavjud. Tadbirkorlik daromadsiz boshlanmaydi va shu boshlang`ich faoliyat davrida foydani ko`paytirish asosiy maqsad bo`lib, barcha imkoniyat va qobiliyat shunga qaratiladi. Masalan, kapitalizmning boshlang`ich va taraqqiyot davrida tezda boyish, iloji boricha ko`p kapital yig`ishdan boshqa narsa ko`zlanmaydi. Asosiy maqsad qanday yo`l va usullarni qo`llab bo`lsada, faoliyatni kengaytirish, ta`sirni oshirishdan iborat bo`ladi.

Lekin hozir unday deb bo`lmaydi. Zamonaviy biznesmenning harakati faqat iqtisodiy maqsadlar bilan chegaralanmaydi. Agarda shunday bo`lmasa, tadbirkorlikning ijtimoiy masalalarga aralashishi, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni xal qilishdagi faoliyatlarini tushunib bo`lmas edi. Chunki rivoj topgan mamlakatlarda maorif, sog`liqni saqlash, ekologik maqsadlarni ko`zlab sarmoyalar ajratish va sarf etish, shuningdek, qashshoqlikka qarshi kurashish kabi xayrli harakatlar tadbirkor e`tiboridan chetda emas.

Tadbirkorlikning asosiy xususiyati. Tadbirkor avvalo novatorlik bilan belgilanadi. U doimo iqtisodiy faoliyatda yangiliklarni axtarish, ularni amalga oshirish, faoliyat samaradorligini ko`tarish uchun harakatda bo`ladi. Kuchli raqobat kurashi sharoitida boshqacha bo`lishi ham mumkin emas. Chunki hech narsani o`zgartirmay, eski tartibda baho hisobiga foyda olish uzoqqa bormaydi.

Xaridorlar doimiyligi, ularning oqimi, tovar va tovarlashgan xizmatlar sifati, bu sohadagi doimiy o'zgarish va yangiliklar xaridorlarni o'ziga tortadi. Shu bilan birga boshqalarga nisbatan bahoning ham pastroq bo'lishi tovarlarning o'tishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tadbirkorlikda tovar xillarini o'zgartirib turish, uning sifatini ko'tarish, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish uchun kurash ketadi. Bu esa ishlab chiqarishning yangi texnologiya asosida tashkil etilishida, yangi usullarini qo'llab-quvvatlash, tovarlar sotilishining yangi-yangi yo'llarini topib qo'llab borishda o'z ifodasini topadi.

Yuqorida aytilganlarga bog'liq xolda tadbirkorlikni ikkiga bo'lish mumkin: klassik va innovatsion, bular bir-biridan farq qiladi. *Klassik tadbirkorlikni* olsak, bunda biznes kompaniya yoki firma ixtiyoridagi resurslardan eng yuqori natijaga erishish faoliyatning asosi deb olinadi. Resurslarga mo'ljallangan tadbirkorlik o'z yechimlarini mavjud resurslarga moslashtirgan xolda belgilaydi va resurslardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini qo'llab boradi.

3.1.1.-jad

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish metodologik bazasini chuqurlashuvi

- ✓ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qoninchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi Prezident ma'ruzasi (12 noyabr, 2010 y.);
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Prezident ma'ruzasi (7 dekabr, 2010 y.);
- ✓ Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning 2011 yildagi ustuvor yoqnalishlari (yanvar, 2011 y.);
- ✓ "2011-2015 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida isloxotlar ko'lamini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatda tadbirkorlik muhitini shakllantirishga oid mezonlar va baholash tizimini amalga oshirish dasturi to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-1464 7 yanvar, 2011 y.);
- ✓ "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi

Ikkinchi xil tadbirkorlik, ya'ni *innovatsion tadbirkorlik* faqat mavjud resurslarga emas, balki iloji boricha imkoniyatlarga, resurslar kombinatsiyasini amalga oshirishga mo'ljallangan. Tadbirkor faoliyatini ta'minlay oladigan o'z

resurslariga yetarli miqdorda ega bo`lmasa ham o`z maqsadiga erishish uchun har qanday usullar, yo`llar bilan ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyatlarini topishga urinadi. U o`z ixtiyoridagi va tashqi resurslardan foydalanishning ma`qul variantlarini tanlaydi. Ilmiy texnika taraqqiyoti, mahsulot sifati va chidamliligiga bo`lgan talabning o`sib borishi tadbirkorlik oldida tub yangi texnik-texnologik yechimlarni tadbiriq etish zaruriyatini qo`ymoqda. Buning uchun “aqliy xujum” deb atalmish yo`nalishni asos qilib olish talab qilinadi. Keyingi yillarda G`arb mamlakatlarida kichik xajmdagi ilmiy ishlov tadbirkorligi avj olmoqda.

Tadbirkorlik uchun keyingi ahamiyatli xususiyat shuki, u xo`jalik sohasidagi to`xtovsiz va xatarli javobgarlikning mavjudligidir. Bu tushunchalar bir xil bo`lmasa ham, lekin ular bir-biriga bog`liq va bir-birini keltirib chiqaradi.

Xatar deganimizda noma`lum, kutilmagan holatlar bo`lishi mumkinligini tushunamiz. Qanchalik o`ylab ish qilinmasin, oldindan qanchalik hisob-kitob va chamalab ish tutilmasin, baribir kutilmagan hodisalar yuz berishi turgan gap va uning oldini olib bo`lmaydi. Xatarlikka iqtisodiy baho berib ham bo`lmaydi. Javobgarlikni olsk, bu ancha aniq narsa va uni ma`lum ko`rsatkichlar bo`yicha aniqlash va baholash mumkin. Tadbirkorlikdagi xatarlik mavjudligining sharoitlari yuqori darajali ishbilarmonlik, serharakatlik va raqiblik qila olish qobiliyatlarini talab etadi. Tadbirkorlikda muvaffaqiyatga erishish yoki tushkunlikka tushish muqarrar. Chunki doimo omad kelavermaydi. Xatarlikda sarf-xarajatlar hamda natijalar o`rtasidagi muvozanat ish taqdirini bildiruvchi ko`rsatkich bo`lib hisoblanadi. Agar bu muvozanat buzilsa, bozordagi baho xarajatni qoplash darajasida bo`lmasa, demak tadbirkorlikda hisobga olinmagan tasodifiy tomonlar mavjudligi aniq. Bunda yo tadbirkorning faoliyati samarasiz, yo bozor kon'yunkturasi buzilgan bo`ladi. Ishlab chiqarish va tovarlar sotilishi sharoitlari kombinatsiyasini doimo nazorat ostida tutish, ishlovchilarni ham shunday sharoitida tutish talab qiladi.

Tadbirkorlik faqat mulkdorlarga xos deb bo`lmaydi, ya`ngi o`z mulkini ishlatish tufayligina tadbirkor bo`lishi mumkin, deyish noto`g`ridir. Chunki mulkka ega bo`lmay, qarz sarmoya, ijara asosida ham tadbirkorlikning tashkil etsa bo`ladi. Buni davlat korxonalaridagi tadbirkorlikda yaqqol ko`rish mumkin. Ma`lumki, o`tgan

asrdayoq kapital mulk va kapital funksiya ajralishi yuz berib, buni o`z vaqtida K. Marks atroflicha ta`riflab bergan edi. Xo`jalikni yuritish, bundagi tadbirkorlik bo`yicha zarur qarorga kelish allaqachonlar kapitalning egasidan kapitalni ishlatuvchi-boshqaruvchi ixtiyoriga o`tgan. Bunday harakat, ayniqsa, hissadorlik jamiyatlarining paydo bo`lishi bilan kuchaydi. Yakka xususiy korxonalarda, albata mulkdorning o`zi tadbirkor hisoblanadi. Chunki ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish bilan bog`liq barcha zaruriy ishlarni uning o`zi olib boradi. Hozirgi zamon iqtisodiyotida xo`jaliklar faoliyati korporativ asosda rivojlanishi tufayli tashkiliy-texnik rahbarlik menejerlik tomonidan amalga oshirilmoqda. Demak, tadbirkor va mulkdor o`rtasida qattiq bog`liqlik yo`q. Shunga ko`ra tadbirkorlikni mulkdorlik xususiyati belgilamay, uni qaramsizlikning moddiylashuvi, xo`jalik yurituvchilarning mustaqilligi belgilaydi.

Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati iqtisodiy fikr yuritishsiz to`la yechilmaydi. Tadbirkorlikka xos fikr yuritish oddiy ma`lum va singib ketgan xolatlardan butunlay boshqacha bo`ladi. Qabul qilinadigan qaror va yechimlar o`zgacha yangiligi, alohidaligi bilan farqlanishi kerak. Bunda eng markaziy narsa qo`l ostidagi kishilarni qo`yilgan maqsadga bo`ysindirish va ularni ana shu maqsad atrofida birlashtira olishdir. Bu albatta zarur axborotlarni o`z vaqtida yig`ish, ularni ishlab chiqish va foydalanishni talab qiladi. Hisob-kitob va harakat dasturlarini ishlash yuqori bilimga asoslanadi. Kashfiyotchidan farq qilgan xolda tadbirkor shu kashf etilgan ish bilan qanoatlanmaydi, balki uni tadbiriq qilish va bu jarayonda yuqori samaraga erishishini ko`zlaydi. Bu jarayonda ko`p to`siqlar, qiyinchiliklar bo`lishi tufayli qat`iylik, iroda talab etiladi.

Yuqorida aytilgan fikrlarni hisobga olgan holda tadbirkorlikni xo`jalik sub`ektlarining xatarliligi bilan bog`liq holdagi tashabbuskorlik, o`z g`oyalari va ijtimoiy iqtisodiy samaraga erishish maqsadida yangi kombinatsiyalarni amalga oshiruvchi iqtisodiy faoliyat deb ifodalash mumkin.

Tadbirkorlikni taraqqiy etishi nuqtai nazariyadan rivojlangan va rivojlanmagan tadbirkorlikka bo`lish mumkin. O`tish davri uchun rivojlanayotgan tadbirkorlik xos bo`lsa, bozor iqtisodiyoti taraqqiy etgan davr rivojlangan

tadbirkorlikni yaratadi. Tadbirkorlik bozordan kelib chiqqanligi tufayli, u bozor munosabatlari xususiyatlari va ularning ta'sir doirasi kengligi bilan bog'liqdir. Agarda buni bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni bilan bog'lab ko'radigan bo'lsak, korxonalar mustaqilligi darajasi bilan uning ham o'zgarib borishini fraqlay olish mumkin. Lekin baribir korxonalar faoliyatida davlat ta'sirining saqlanib turishi tadbirkorlik uchun yo'lni tor qilib qo'ymoqda. Bundan tashqari mavjud, aniqrog'i sobiq ishlab chiqarish tuzilishining asosligi, batamom yangilanmaganligi ishlab chiqaruvchilarning monopolligiga barham berish imkonini yaratgani yo'q. Bu hozircha bozorda tovarlar taklifi sharoitini o'zgartirgani yo'q. Xaridorlar – iste'molchilarning tor hajmli, cheklangan miqdordagi ishlab chiqaruvchilarga bog'liqligi saqlanmoqda. Bu, albatta tadbirkorlikni ancha chegaralaydi va bunday sharoitda u tez rivojlana olmaydi. Tadbirkorlikdagi javobgarlikka kelsak, ularning muvaffaqiyatli faoliyatlari uchun ijobiy ta'sir etuvchi sharoitlar zaruriy qonuniyatlar bilan ta'minlanmog'i kerak. Bunda qonunlarning to'la ijrosi uchun muhit yaratish ahamiyatlidir.

Bozor iqtisodiyotining shakllanish tezligiga qarab tadbirkorlik ham rivojlanib borishi kerak.

Tadbirkorlik faoliyatini belgilovchi xususiyatlardan yana biri uning tashkil etilishi usulidir. Bu jarayon stixiyali yoki tashkiliy ravishda yuz berishi mumkin. Tarixan bu jarayon stixiyali paydo bo'lib kelgan. Lekin hozir bunday bo'lishi mumkin emas. Chunki stixiyali jarayon uchun juda uzoq vaqt kerak va u salbiy oqibatlarga olib keladi. Bor tajribalarga asoslangan holda tadbirkorlikning shakllanishini tashkiliy ravishda amalga oshirish imkoni bo'lib, bunda davlat asosiy rol o'ynaydi.

Innovatsion tadbirkorlik. Tadbirkorlikka iqtisodiyotdagi yangicha yo'nalish, yangi korxonalar ochish asos bo'lib, tub maqsadlarni belgilaydi. Chunki tadbirkorlik deganda, avvalo yangicha ishlash, yangi mahsulot, yangicha xizmat xillarini yaratish, yangi texnologiya va usullarni qo'llash tushuniladi. Tadbirkorlik darajasi yangi mahsulot, yangicha ishlab chiqarishni joriy qilish, fan yangiliklari, yangi

texnologiyani joriy qilish darajasi bilan belgilanadi. Demak, tadbirkorlik avvalo iqtisodiy yangilik bilan bog`liqdir, ya`ni u innovatsion tadbirkorlikdir.

Innovatsion tadbirkorlikka keyingi vaqtlarda rivojlanayotgan venchur kapital juda mos keladi. Venchur so`zi inglizcha xatarli ma`nosini bildiradi. U faqat yangi mayda korxonalar, kashfiyot, ilmiy yangiliklarga asoslangan holda ish boshlashi kerak bo`lgan korxonalariga sarf etilib, buning uchun yakka kapitaldan tashqari fondlar, hattoki korporatsiyalarga shunga qaratilgan maxsus bo`limlar tashkil etiladi.

Yangilikning darajalari bo`lib, ular oddiy yangilik, texnologik yangilik, inqilobiy kashfiyotlardir. Oddiy yangilik tovardagi to`xtovsiz o`zgarishlar, ularning takomillashib borishidan iboratdir. Moda, tovarlar xususiyatlarining yangilanib borishi, iste`mol qulayliklarini kengaytirib borishlar shular jumlasidandir.

Texnologik yangilik esa xomashyolarni, materiallar, energetika xillarini o`zgartirish, ishlab chiqarishning yangi usullarini qo`llashni o`z ichiga oladi. Bunda avtomatlashtirish, kimyoviy usullar juda qo`l keladi.

Inqilobiy kashfiyot yangi xil tovarlar va ularning kompleksi, ishlab chiqarishning tub o`zgarishi bilan bog`liqdir. Bunda yangi tarmoqlar yuzaga keladi. Masalan, kompyuter tizimi, elektronika, videotexnika, tub yangi aloqa vositalari, kosmotexnika kabilar shular jumlasidandir.


Yangiliklar darajasidan qat`iy nazar, ular uch yo`l bilan tijoriy mahsulot darajasiga yetkaziladi: 1) davlat korxonalari; 2) "ichki" tadbirkorlik; 3) tadbirkorlik orqali. Ilmiy g`oyalarni amalga oshirish muhim muammolardan hisoblanadi. Chunki juda ko`p ilmiy tadqiqot va kashfiyotlar hayotiy amaliyotsiz qolib ketadi. Kamdan-kam kashfiyotlar, ilmiy g`oyalar ishlab chiqarishga va umuman hayotga tadbiq qilinadi. Ilmiy yangilik natijalari bilan tijoriy mahsuot o`rtasidagi masofa juda uzoqdir.

Fan bilan ijtimoiy talab o`rtasida o`zaro aloqa o`rnatishda, ularni tijoriy mahsulot darajasiga yetkazishda davlatning o`rni katta. Avvalo davlat o`z korxonalaridagi yangiliklar bilan bog`liq vazifalarni, shuningdek, barcha xalq xo`jaligidagi texnik yangilik siyosatini boshqaradi.

Tadbirkorlik nuqtai nazaridan davlat sektorida bu sohada ma’lum qulayliklar bilan birga salbiy tomonlar ham mavjuddir. Bu salbiy tomonlar byurokratik, sansolarlik holatlari bilan bog`liq. Natijada kutilgan samaraga erishilmaydi. Bu tomondan davlat sektori xususiy sektor oldida zaiflik qiladi va yangiliklarni hayotga tadbiri qilishda xususiy tadbirkorlik ustunlik qiladi.

Ilmiy tadqiqot natijalarini tijoriylashtirishdagi ikkinchi yo`l “ichki” tadbirkorlik bo`lib, bunda mavjud tadbirkorlik faoliyati tushuniladi. Chunki bularda ham ilmiy yechimlarni ishlab chiqarishda qo`llanishning imkoniyatlari, yangi moliyaviy resurslar, ishbilarmonlik, harakatdagi tezboblik, marketing tizimi mavjud bo`lib, yangi mahsulotni muvaffaqiyatli tijoriylashtirish sharoitlariga ega bo`ladilar.

3.1.1.-chizma Respublikada tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilgan huquqi baza



Xususiy tadbirkorlikda ham hamma narsa silliq yuz beradi deb bo`lmaydi. Chunki ularda ham byurokratlik, boriga ko`nikish, yangi oqimni o`z vaqtida sezmaslik, bori bilan qanoatlanish kayfiyatlari yo`q, deb bo`lmaydi. Bunday salbiy tomonlar mavjudligini sezgan korporatsiyalar bu sohadagi to`siqlarni olib tashlash va to`xtovsiz yangilanib borish uchun kurashib, haqiqiy tadbirkorlik mohiyatini saqlab qolishga harakat qiladilar.

Ilmiy g`oyalarni yangi mahsulotlarda moddiylashtirishga keyingi yo`l tub mazmuni bilan tadbirkorlik bo`lib, yangi g`oya asosida korxonaga bunyod qilishdir. Bu eng og`ir yo`l. Chunki bu yangi tadbirkorlik faoliyati bilan bog`langandir. Ma`lumki, yangi ishni boshlash hamma vaqt katta qiyinchiliklar bilan bog`liqdir. Yangi tadbirkorlik barcha narsalarni yangidan, boshidan boshlashni talab etadi. Bunda tadbirkordan zarur pulni topish, korxonaga ega bo`lish va uni ishga tushirish, tijoriy ish tajribasiga ega bo`lish va boshqa bir qancha muammolarni hal qilish talab etiladi. Bunda yangi g`oyani maromiga yetkazish, uni reallashtirish uchun qayta-qayta ko`rib chiqish zaruriyati majuddir. Yana bankirlar bilan, mahsulot yetkazib beruvchilar, iste`molchilar, ulgurji savdogarlar, reklama agenti vakillari kabilar bilan muomala qila bila shva hamkorlikka qo`shila bilish uquvi bo`lishi zarurdir. Bularsiz hech qanday muvaffaqiyatga erishib bo`lmaydi.

Tadbirkorlik va iqtisodiy o`sinh. Ilmiy tadqiqot natijalarini tijoriy mahsulotga aylantirish, yangi tovar va xizmatlar turlarini yaratish sohasidagi eng ma`qul yo`l yangi korxonalar, yangi tarmoqlar yaratishdir. Shu kunda bu sohadagi eng ma`qul yo`l yangi tadbirkorlik, yangi korxonalar, yangi ish boshlash yo`li bilan yangi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni tashkil etishdir.

Tadbirkorlik mahalliy iqtisodiy holatga katta ta`sir ko`rsatib, yangi ish joylari yaratadi, iqtisodiy asosni kuchaytiradi. Shuning uchun ham bunday tadbirkorlik iqtisodiy taraqqiyotda eng ahamiyatlidir.

Umuman tadbirkorlikning iqtisodiy taraqqiyotdagi roli, o`rni haqida gap yuritar ekanmiz, avvalo daromadlarning o`sishi, aholi iste`molining ortib borishini tasavvur etamiz. Chunki har bir mamlakatda tadbirkorlik rivoji har bir tadbir, har bir ishlovchining individual daromadlarining o`sib borishiga va natijada umuman, milliy daromadning ortib borishiga, shaxsiy iste`mollar ko`payib, aholi turmush darajasining ko`tarilishiga olib kelishini ko`ramiz. Eng rivoj topgan, qudratli iqtisodiyotga erishgan va aholisining turmush darajasi yuqori bo`lgan mamlakatlar muvaffaqiyatlari tadbirkorlik taraqqiyoti natijasidir. Lekin tadbirkorlik ahamiyati faqat bu bilan chegaralanmaydi. Chunki tadbirkorlik iqtisodiyot, jamiyatdagi o`zgarishning harakatga keltiruvchi mexanizmi, uni amalga oshiruvchi vazifasini

bajaradi. Bu o`zgarishlar umumiy iqtisodiy o`shishni ta'minlab, mahsulotning to`xtovsiz ko`payib borishiga olib yeladi. Bunday hodisadan barcha manfaatdordir.

Tuzilma o`zgarishi va iqtisodiy taraqqiyotning mexanizmi nimadan iborat bo`lishi mumkin? degan savol tug`iladi. Ba`zilar buni innovatsiya jarayoni bilan bog`liq deb tushuntirailar. Innovatsiya tufayli yangi oovar va xizmatlar barpo etiladi, shuningdek, yangi tuziladigan kompaniyalardagi investitsiyalar ham rag`batlantiriladi. Iqtisodiy tenglashuvda yangi investitsiya talab va taklifning o`shishiga qaratiladi. Chunki yuzaga keluvchi kapital tovarlar chiqarishni ko`paytirib, taklifni qo`llaydi. Xarajatlarning ko`payishi va mahsulot o`shishi esa talabni kuchaytiradi.

Shunga qaramay, innovatsiya va investitsiyaning iqtisodiy o`shisdagi ahamiyatliligi tadbirkorlikning ahamiyatini to`la ochib bera olmaydi. Chunki yuqorida ko`rsatganimizdek, innovatsiya davlat va mavjud korxonalarda ham amlaga oshishi mumkin.

Tadbirkorlikning taqdiri, istiqboli bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti bilan bog`liqdir. Kelajak bozor iqtisodiyoti bilan belgilanar ekan, demak, tadbirkorlik ijtimoiy hayotda o`zining ahamiyatini oshirib boradi. Shuning uchun yildan-yilga tadbirkorlikka jamiyat, davlat va hukumatlarning e`tibori ortib bormoqda. Bular tadbirkorlikka bog`liq ilmiy tadqiqotlarning kengayishi, tadbirkorlik mutaxassisligini o`rgatishning rivoji, davlatning tadbirkorlikni kuchaytirish sohasidagi tadbirkorliklarining kengayishi, jamoatchilikning e`tiborini o`shishi kabilarda o`z ifodasini topmoqda.

Tadbirkorlik barcha sohalarda va tarmoqlarda mavjud. Tadbirkorlik darajasiga kelsak, bu hamma sohada bir xil bo`lmaganidek, davlat korxonalari va korporatsiyalardagi yollanma boshqaruvchilik bilan xususiy korxonalaridagi tadbirkorlik sharoiti va darajasini ham bir xil deb bo`lmaydi.

Yollanma boshqaruvchilik sharoitida tadbirkorlik to`la erkinlikka ega emas, chunki bunda chegaralanish mavjud va asosan ijrochilik ustunlik qiladi.

Xususiy korxonalarda esa ahvol boshqacha va tadbirkorlikdagi chegaralanish deyarli yo`q. Ularda to`la iqtisodiy harakat sharoitlari hukmronlik qiladi,

tashabbuskorlik, xatarlilik cheklanmaydi. Korxonaning, sarmoyaning batamom tadbirkor ihtiyorida bo`lishi to`la erkinlik imkonini tug`diradi. Shunga qarab tadbirkorlikning ikki xilini e`tiborga olish mumkin: cheklangan va cheklanmagan (suveren) tadbirkorlik. Birinchisi, yollanma boshqaruvchilik, ya`ni davlat va korporatsiyadagi boshqaruv faoliyatiga taalluqli bo`lsa, ikkinchisi, xususiy korxonalar, xususiy mulk sharoiti hukmronligi asosidagi tadbirkorlikka taalluqlidir. Bular bir-biridan mustaqil ish yuritish darajasi bilan farqlanadilar.

3.2. Tadbirkorlik sharoitlari

Tadbirkorlik sivilizatsiyali tarzda shakllanishi va shu asosda rivojlanishi uchun ma`lum sharoitlar talab etilib, bularni 4 qismga bo`lib ko`rish mumkin: iqtisodiy, siyosiy, ruhiy va yuridik asosda. Bular ayni vaqtda omillar bo`lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy omillar. Tadbirkorlik sharoitlari deganda avvalo erkin iqtisodiy taraqqiyotni tushunamiz, ya`ni bu bozor iqtisodiyoti mohiyatidan kelib chiqadigan erkin iqtisodiy faoliyat, demokratik iqtisodiyot sharoitidir. Ma`muriy ta`sirdan xolilik, buyruq va majburiylikning tubdan yo`q qilinishi tufayli tadbirkorlikka yo`l ochish mumkin. Chunki bular bir-birini inkor qiladigan sharoitlardir.

Tadbirkorlikda nima ishlab chiqarish, qancha va qanday ishlab chiqarish, ishlab chiqarilgan tovarni qaerda, qaysi bahoda sotish erkin xoldagi ta`sir ostida hal qilinishi kerak. Erkin faoliyat avvalo resurslarga bo`lgan munosabatda ifodalanib, zarur vosita istagan miqdorda, xohlagan xilda maqsadga muvofiq tarzda olinishi kerak. Bularning hammasi erkin bozor sharoiti asosida malga oshadi. Tadbirkor bozordagi talab va taklif ta`siri, ularning muvozanati talabi asosida harakat qiladi. Baho esa erkin shakllanib, talab va taklif muvozanatining natijasida yuzaga keladi, u doimo o`zgaruvchan bo`ladi. Tadbirkor tarmoq tanlovi, faoliyat sohasi tanlovida to`la erkin bo`lmog`i zarur. O`z kapitalini qaerda, qanday, nima uchun ishlatishni to`la mustaqillik bilan hal qiladi. U faqat bozor uchun ishlab, talab va taklif, erkin baho ta`sirida bo`lishi kerak.

Erkin iqtisodiyotni o`zboshimchalik deb tushunmaslik zarur. Chunki tadbirkorlikdagi mustaqillik jamiyat talabiga mos holda, joriy qonun, qoidalar talabi asosida hamda mavjud belgilangan huquq va majburiyatlar asosida amalga oshadi.

Erkin iqtisodiyot taraqqiyoti, o`z navbatida, asoslarga ega bo`lib, bu avvalo ko`p shaklli mulkchilik va raqobat sharoitlarining yaratilishida ifodalanadi. O`tish davrida iqtisodiy asosning negizini davlat mulkini xususiylashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish tashkil etadi. Tadbirkorlikni shakllanishi va uning taqdriri shu jarayonga, uning uslubiga, tezligiga, xajmiga o`xshagan muhim tomonlariga bog`liqdir. Shuning uchun ham mulkning xususiylashuvi, uning yakka shaklliligi hukmronligiga barham berish tadbirkorlik rivojining asosidir.

Ma'lumki, mulkni xususiylash jarayoni aralash iqtisodiyotni yuzaga keltirish bilan tadbirkorlikka yo`l ochadi. Xususiylashtirish, birinchi navbatda, oz hajmli kapital talab etadigan, tez foyda keltiradigan tarmoqlarda rivojlanadi. Bu esa mayda korxonalarining avj olishi, bandlik va xalq iste'moli muammolarini hal qilishda juda qo`l keladi. Hozir respublikamiz sharoitida bu jarayonning ahamiyati cheksizdir. Oldin bu savdo-tijoriy, umumiy ovqatlanish, xizmat ko`rsatish tarmoqlari kabilardan boshlanib, o`z navbatida, mayda ishlab chiqarishga o`tadi.

Xususiylashtirishning keyingi qismi o`rta, katta korxonalarni o`z ichiga olib, asosan hissadorlik, korporativ usullar bilan amalga oshadi. Bunda avvalo yopiq, so`ngra ochiq aksiyali jamiyatlarni tashkil etishga o`tish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Mulkni xususiylashtirish ayni vaqtda tadbirkorlik uchun zarur bo`lgan raqobat sharoitlarini yaratib beradi. Shunga ko`ra nodavlat mulklarining shakllanishi xo`jalik sohasidagi monopollashuvning oldini olish bilan birgalikda olib borilishi zarur. Monopoliyaga qarshi kurashish va tadbirkorlik sharoitlarining yaratilishida raqobat asosiy ta'sir ko`rsatishi kerak. Tadbirkor uchun xo`jalik yuritish raqobat kurashini olib borish degan so`z. Ishlab chiqarish tashkil etilar ekan, demak, raqobat kurashiga e'tibor berish zarur, ya'ni ijtimoiy iste'molga to`g`ri kelmaydigan va bozor tomonidan siqib chiqarilayotgan hodisani e'tiborga olmaslik va shu asosda ishni tashkil etmaslikning iloji yo`q. Har bir tovar bo'yicha agarda ko`p miqdorli ishlab chiqaruvchilar bo`lmasa, raqobat ham bo`lmasligi mumkin, ya'ni monopoliya

raqobatni so`ndirishini yuqorida ko`rib o`tgan edik. G`arbdagilarning fikricha raqobat sharoiti bo`lishi uchun odatda kamida 8-15, lekin 4-5 dan kam bo`lmagan miqdorda bir xil tovar ishlab chiqaruvchilar bo`lishi talab etiladi.

Tadbirkor uchun infrastrukturaning rivoji rivoji talab etiladi. Chunki ishlab chiqarish resurslarini qaerdan, qanday usulda olish no`malum bo`lsa, kreditga ishonch bo`lmasa, tovar xaridorlari noma`lum bo`lsa, reklama bo`lmasa va aloqa vositalari past darajada bo`lsa, bozor iqtisodiyoti taraqqiy etishi mumkin emas.

Siyosiy, ruhiy va xuquqiy omillar. Siyosiy omillarni olsak, Prezident Islom Karimov ta`kidlaganidek, iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi ta`minlanmog`i zarur, busiz tadbirkorlik yuzaga kelmaydi. Siyosiy vaziyat tadbirkorlikka qulaylik yaratishi, ya`ni barqarorlik, demokratiya rivoji sharoitlarini ta`minlashi talab etiladi. Iqtisodiyotni g`oya va siyosatga bog`liqligiga barham berish va taraqqiyot uchun xizmat qilishga qaratish zarur.

Tadbirkorlik ruhiyati ham bozor iqtisodiyotining shakllanishi, uning hayotiy ta`siri darajasiga bog`liq. Shu vaqtgacha hukmronlik qilib kelgan tenglik asosan iste`mol tengligini bildirib kelgan. Bozor esa bunday tenglikni inkor etib, faqat imkoniyatlar tengligini inobatga oladi xolos. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir kishi o`zining xususiy ishiga ega bo`lgan xolda biznes bilan shug`ullanish huquqiga ega. Bozor teng taqsimotni qabul qilmaydi. Unda faoliyat natijasiga qarab daromad taqsimlanishi asos bo`lib hisoblanadi.

Pirovard tadbirkorlik rivojidagi qism huquqiy asoslar bo`lib, shuni ta`kidlash lozimki, tadbirkorlik qonun obro`si mavjud sharoitda taraqqiy eta oladi. Samarali ta`sir etuvchi huquqiy mexanizmni yaratish tadbirkorlikka keng yo`l ochish va tadbirkorlik faoliyatida yuz berishi mumkin bo`lgan salbiy tomonlarni kamaytirish va oldini olish imkonini tug`diradi. Shuning uchun eng muhimi tadbirkorlik uchun huquqiy muxit yaratishdir.

Tadbirkorlik uchun yagona harakat maydoni mavjudligi, yagona pul birligi ahamiyatlidir. Mamlakatlararo iqtisodiy maydonda erkin ish tutish, iqtisodiy bitimlar tuzib ish ko`rish mumkin. Bu bir davlat hududi bilan chegaralanmaydi. Shu iqtisodiy maydonda tadbirkorlik uchun zarur bo`lgan sharoit, ya`ni tovarlar, pullarning erkin

harakati, resurslarning erkin oqimi, kapital va ish kuchi oqimi erkinligi kabilar mavjud bo`ladi. Iqtisodiy maydon zarur infrastrukturaga ega bo`ladi, shu bilan birga baho, tariflar shaklanishi umumiyliigi bo`ladi. Lekin iqtisodiy maydonning doirasi har xil bo`lishi mumkin. Masalan, yevropa bozori bir necha G`arbiy yevropa mamlakatlarini o`z ichiga oladi. Shimoliy Amerika, AQSH, Kanada, Meksikani birlashtiradi. Markaziy Osiyo hozircha O`zbekiston, Qozog`iston, Qirg`iziston hududlarini birlashtiradi va h.k.

Tadbirkorlikning muhim xususiyati o`z-o`zini boshqarish va mahalliy hokimiyat doirasida boshqarilishi bo`lib, bu usul iqtisodiy federalizm deyiladi. Bu ayniqsa, AQSH, Germaniya, Rossiya, Braziliya kabi mamlakatlarga xosdir.

Biznes-reja mohiyati. Tadbirkorlikni asosiy tarkibiy qismlaridan biri biznes-rejadir. Har qanday ish rejs asosida bo`lsa muvaffaqiyat keltiradi. Oldindan zarur hisob-kitoblar qilinib, imkoniyatlar to`la e`tiborga olinsa, o`ylangan ish ustida to`la tasavvur hosil qilinsa, uni amalga oshishiga ishonch hosil qilinadi va uni bajarish uchun dalil kiritiladi. Bunday tomonlar biznes-rejada o`z ifodasini topishi kerak.

Biznes-rejaning ikki tomonlama ahamiyati bo`lib, bu ichki va tashqi zaruriyatlardan kelib chiqadi. Chunki u birinchidan, tadbirkorlikning o`z ichki imkoniyatlarini baholay bilishga, faoliyatning ma`qul usullarini belgilashga yordam beradi va bilan birga faqat tadbirkor uchungina emas, balki korxonadagi barcha xizmatchilarda to`la ishonch tug`dirishga, ikkinchidan, tashqi aloqalar o`rnatishda ham ktata yordam beradi. Bank, materiallar, energiya va xomashyo yetkazibberuvchilar bilan iqtisodiy aloqada bo`lish uchun avval real haqiqatdan kelib chiqadigan biznes-reja bo`lishi kerak.

Ishni umuman korxonaga ochishdan oldin maqsadni aniqlashdan boshlash talab etiladi. Chunki biznes-reja va faoliyat shu maqsadni amalga oshuviga qaratilgan bo`ladi. Masalan, tikuv korxonasi ochilishi ko`zda tutilgan bo`lsin, deylik. Bunga aniqlik kiritish zarur, chunki tadbirkorlikka uyda tikilgan kiyimga talab mavjudligi va bu ishni kengaytirishga turtki bo`lishi mumkin. Lekin yakka yoki ommaviy buryurtma asosida ish tashkil qilinadimi? Bular oldindan aniqlangan bo`lishi kerak. Chunki bularning mijozlari va ish texnologiyasi bir xil emas. Yakka buyurtma faqat

individual mijoz uchun va yakka kiyim tikish texnologiyasi asosida tashkil etiladi. Ommaviy buyurtma ham magazinlar buyurtmasiga asoslanadi, lekin buning mijozini aniq bir shaxs deb bo'lmaydi, balki umumiy xaridor qatoridagi shaxslar bo'ladi. Shuning uchun oldindan donalab yoki ommaviy kiyim tikish korxonasi bo'lishini belgilab ish boshlash talab etiladi va axborot yig'ish shu maqsadga erishish yo'nalishida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Biznes-rejani tuzishda axborotning ta'siri juda kattadir. Bu avvalo talab, taklif, moliya kabilarga taalluqlidir. Mavjud talab xajmi va korxonaning ishlab chiqarish hamda moliyaviy ehtiyojlarini aniqlash axborotsiz biznes-reja mazmunsiz bo'ladi. Ishni umuman korxonadan oldin maqsadni aniqlashdan boshlash talab etiladi. Chunki biznes-reja va faoliyat shu maqsadni amalga oshuviga qaratilgan bo'ladi.

Bunda albatta quyidagilarga e'tibor berish zarur: korxonaning o'ziga yoki subpodryadchiklarga topshiriladigan ishlar xili, material va xomashyo miqdori va bahosi, ularni ta'minlovchi firmalarning nomi, manzili, jixozlar va ular bilan ta'minlovchilar to'g'risidagi to'la ma'lumotlar, mehnat resurslariga oid ma'lumotlar (ish haqi, hunarlar xili, miqdori, ularni tayyorlash imkoniyati), bino va inshootga talluqli to'la ma'lumotlar, ustama xarajatlar – mahsulot, boshqaruv xarajatlari, elektr va suv kabi xarajatlari. Bunday ma'lumotlar tadbirkor va investor usun albatta kerak bo'ladi.

Talab xolatiga bog'liq axborot tadbirkorlikning ishlab chiqarmoqchi bo'lgan talab va xizmat sohasini tanlash uchun kerak bo'ladi. Bunday axborotni tadbirkor o'zi yig'ishi yoki maxsus tashkilot, maxsus jurnallarga murojaat qilish orqali olishi mumkin. Shu bilan bunday axborotlar raqobatchi firmalar savdoning qo'shimcha bahosi darajasi, bozor harakati va o'sish istiqboli kabi ma'lumotlar bilan to'ldirilishi kerak.

Ishlab chiqarishga oid axborotni olsak, korxonaning ishlab chiqarishini belgilash uchun kerak bo'ladi. Bunday axborotni xuddi shunday mahsulot yetishtirayotgan korxonalarga bevosita murojaat etish yo'li bilan olsa bo'ladi.

Yangi korxonaning hayotiyligini belgilovchi uch guruh moliyaviy ko`rsatkichlar mavjud: 1) birinchi uch yillik uchun daromad va xarajat istiqboli; 2) shu muddat ichidagi naqd pul istiqboli; 3) joriy vaqtdagi korxonaning balans hisoboti va korxonaning kelajak bir yilga mo`ljallangan aktiv (faol) va pasiv (sust) holati balansi (balans rejasi).

Biznes-rejani tuzish tadbirkorning ma'lum vaqtini, tajribasini, bunday ishga tayyorgarlik darajasini talab etadi. Bu zarur narsa, uning uchun vaqt va bilimni ayash yaramaydi.

Biznes-rejaning taxminiy tuzilishi haqida shuni aytish mumkin: bu asosan 4 qismni o`z ichiga oladi: umumiy, ishlab chiqarish rejasi, marketing rejasi, tashkiliy reja, moliyaviy reja.

Umumiy titul varag`i, kirish qismi, tarmoqdagi ahvol tahlili, taqdim etilayotgan loyiha mohiyati, xatarlik bahosi va qo`shimchaar kiradi. Titul varag`ida firmaning to`la nom iva mazmuni, tadbirkorning ismi va uy telefoni, taqdim etilayotgan loyihaning qisqacha mohiyati, loyihaning yalpi qiymati kabilar ko`rsatiladi.

Moliyaviy axborot bo`lajak korxonada faoliyatining moliyaviy tomonlarini baholash uchun zarurdir. Bo`lajak korxonani qurish, ishga solish, boshlang`ich davrida moliyaviy qo`llash va umuman sarflangan sarmoyalarni qaytarish bilan birga loyihaning rentabellik darajasini aniqlanadi.

Biznes-rejaning muvaffaqiyatli bajarilishi nazorat tizimini yaratish va ish jarayonida unga o`z vaqtida tuzatishlar kiritib borish imkonini beradi. Biznes-rejaning bajarilishi kuzatish uchun yil oxirini kutib o`tirishning xojati yo`q. Buning uchun ish boshlanishi bilan nazoratni ham boshlash kerak. Bu nazorat nuqtalarini belgilashdan boshlanadi. Aytaylik, daromad va xarajat muvozanati, naqd pul xolati, ombordagi zahiralar darajasi, mahsulot sifati, ishlab chiqarish rejasi kabilar kamida har oyda kuzatiladi. Nazorat tizimi juda oddiy bo`lishi, yechimlarni belgilovchilarning o`z vaqtida xabardorligi joyida chora ko`rishni ta'minlashga yordam beradi.

3.3. Tadbirkor tushunchasi

Tadbirkor bozor talabi asosida faollik qiladi. Shuning uchun ham tadbirkorsiz bozor iqtisodiyotini, bozor munosabatlari harakatini tasavvur etib bo'lmaydi.

Tadbirkor – bu asosan mulkdor, mayda, o'rtta va yirik mulk egasidir. Mulkdorlar sinfi deganda, birinchi navbatda, tadbirkorlarni tushunamiz. Tadbirkor o'z mulkidan kapital sifatida foydalanib, korxonalar tashkil etadi, tijorat bilan shug'ullanadi, boylikka boylik qo'shadi, mamlakatning iqtisodiy qudratini oshiradi. Agar tijorat ijora, qarz asosida olib borilsa ham baribir mahsulot, tovar uning mulkidir. Shuning uchun ham mulkdorlar qancha ko'p bo'lsa va ularning mulki qancha yirik bo'lsa mamlakat shunchalik boy va xalqining iste'mol darajasi yuqori bo'ladi.

Agar mulki bo'lsa inson o'zini mustaqil va erkin sezib, hayotiy asosi mavjud ekanligi, kelajakka ishonch bilan qarashi, mulki bor hududni Vatan deb bilishi haqiqatdir. Ulug' davlat, avvalo mulkdorlar sinfi holati bilan namoyon bo'lishi mumkin. Prezident Islom Karimov aytganidek, mamlakatimizda mulkdorlar sinfini shakllantirish, ularning ahamiyatlilik darajasini ko'tarib borish zarur. Chunki bozor iqtisodiyotini qurishda, kelajakda buyuk davlatni yuzaga keltirishda mulkdorlar sinfi muhim rol o'ynashi va bu sohadagi muvaffaqiyatlarga erishishda yetakchi bo'lishi kerak.

Ma'muriy davlat iqtisodiyoti hukmronligidagi "sotsializm tizimiga" xos davrni olsak, unda ham tadbirkor inkor etilmagan, ishbilarmonlik talab qilingan, shunga chaqirilgan. Lekin uning tub mazmunda bo'lishiga sharoit bo'lmagan. Unda har qanday xo'jalik va tashkilot boshliqlari, ularning ishini yuqoridan tayinlagan va yuqori belgilagan vazifanigina bajargan. Chunki korxonalar, xo'jalik tashkilotlari to'la davlat ixtiyorida bo'lib, davlat vakili sifatida uning nomidan ish tutgan. Albatta, bunday holatda va vakolatlik sharoitida haqiqiy tadbirkorlik bo'lmaydi, mustaqil ish yuritish mumkin emas. Xo'jalik rahbari, boshlig'i, boshqaruvchisi o'z mulkiga ega bo'lmagandan keyin uni chegaralovchi yuqori boshliq tashkilotlar bilan maslahatsiz, ularning roziligisiz mustaqil qarorga kela olmaydi. Bundan tashqari bozor bilan


bevosita bog`lana olmaydi. Chunki ular bozor bilan bog`liq emas va umuman, talab ta`siridan chetda bo`lgan holda harakat qiladi.

Bundan tashqari xo`jalik faoliyati bilan bog`liq barcha masalalar reja orqali belgilangan. Shu bilan birga ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, ularni baholash va umuman, bu sohalarga biron-bir o`zgarishlar kiritish faqat ma`lum tashkilotlar orqali amala oshirilishi tufayli ish yuritishda hech qanday mustaqillik bo`lmagan. Rejalar, ularning ko`rsatkichlari, yuqori tashkilotlar topshiriqlari, siyosiy organlar qarorlarini bajarish, ularga hech qanday o`zgarishlar o`zgarishlar kiritmaslik qattiq nazoart ostida bo`lgan, xo`jalik sohasida mustaqil ish ko`rish, ishbilarmonlik qilib, tadbirkorona tashabbus ko`rsatish jazolangan. Ma`lumki, bunday xo`jalik yuritish sharoitida tashabbuskorlikdan mahrum etilgan va faqat ijrochiga aylangan xolos.

Tadbirkor o`z nomi bilan eski bo`lsa ham shakllanayotgan, munosabatlari kengayayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida yangidan paydo bo`lishi, bozor rivoji uchun to`laqonli harakat qila oladigan darajada bo`lmog`i kerak. Chunki amalda bozor rivoji darajasi, uning miqyosi, zamonaviyligi avvalo tadbirkorlarga bog`liqdir.

3.3.1.-chizma

Biznes maqsadi



Ularning darajasi, saviyasi, ish uslubi, harakatchanligi, mahorati bozor yo`nalishini belgilab beradi.

Shunga ko`ra bozor taqdiri, uning holati, muvaffaqiyati, samaradorligi, ijtimoiy yo`nalishi tadbirkorlar faoliyati. ularning ishbilarmonligi, bozorni tashkil eta bilishlariga bog`liqdir. Maqsadimiz zamonaviy uivilizatsiyali bozor iqtisodiyotini tashkil etish, samarali bozor munosabatlari mexanizmlarini uyushtirish ekan, tadbirkorlar to`g`risida g`amxo`rlik qilish, maqsadga muvofiq

tadbirkorlar armiyasini yaratish va tarbiyalash kabilarga katta e'tibor berish, shu bilan birga bu sohadagi mavjud va ma'qul jahon tajribalarini qo'lash talab qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish yuritish, sarmoya, ishlab chiqarish bilan bog'liq mulk asosan tadbirkorlar ixtiyorida bo'lgani tufayli ishlovchilar ikkiga, ya'ni: tadbirkorlar va yollanuvchilarga bo'linadi. Ma'lumki, tadbirkorlik, ishbilarmonlik har kimga ham buyurmaganligi uchun bunday bo'linish, ya'ni tadbirkor va yollanuvchilar bo'lish ixtiyoriydir. Ishlovchilarning asosiy qismi yollanuvchilar bo'lganligi sababli tadbirkorlar nisbatan son jixatidan kam bo'ladi. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti asosidagi mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlar miqdor jixatdan bandlikning 8 foizi ko'pi bilan 9 foizdan oshmaydi. Demak, ish bilan band bo'lgan aholi qismining asosiysi yollanma ishlovchilardir. Albatta, ular tadbirkorlar va xususiy, davlat, korxonalar, muassasalarda yollanib ishlovchi shaxslardir. Bu bozor iqtisodiyotiga xos, g'oya nuqtai nazaridan biz uchun yangilikdir. Bunday yangi xolatga ko'nikish, unga o'rganish va oddiy tabiiy hayotiy talab deb qarash zarur. Ishga yollash tadbirkor ixtiyorida bo'lib, u ish manfaati asosida kimni yollash, qanchaga yollash, yollanuvchidan qanday va qaerda foydalanish kabi masalalarni o'zi xal qilishi kerak.

Tadbirkor va tadbirkorlikning avj olishida bunday xolat to'siq bo'lmasligi va bundagi ko'zga tashlanadigan "nohaqlik"ning oldini olish talab qilinib, tadbirkorga nisbatan do'stona munosabatda bo'lish haqiqatga to'g'ri keladi. Rivoj topgan mamlakatlarda bu muammo ancha yaxshi hal qilinib, ziddiyatlar asosan bartaraf etilgan. Tadbirkor – sohibkor bilan yollanma ishchilar o'rtasidagi ziddiyatlar hozirgi davrda o'z keskinligini yo'qotgan va jamiyat bu sohada juda ko'p ijobiy ishlarni amalga oshirib, nohaklikni asoslari yo'qotilib, ikki tomon o'rtasidagi kelishmovchilikka asosan barham berilgan. Yollovchi va yollanuvchilar o'rtasida kelishmovchilikka nisbatan kelishuv, bir-birini to'g'ri tushunish ustunlik qiladi. Qashshoqlanish xolatlarining oldi olingan va manfaatdorlikka yo'l ochilib, tadbirkor va yollanuvchilar o'rtasidagi bir-biriga qarshi kurash sabablari deyarli yo'q qilingan. Natijada yollanuvchilarning milliy daromaddagi ulushi ortib bormoqda, rivojlangan mamlakatlarda u 70-72 foizini tashkil qiladi. Bundan yollanma ishchilarning

daromadlari yuqori darajada va tadbirkorlar hamda yollanuvchilarning manfaatdor ekanligini ko`ramiz. Ilg`or mamlakatlarda ikki tomonning bir-biridan manfaatdorligini ko`rsatuvchi dalillar ko`p. Aytaylik, tadbirkor – korxonaga egasining daromadi darajasining ishchi ish haqiga ta`siri, sohibkor foydasiga sheriklik, yollanma ishchilar ichida aksiya egalarning ko`payishi, ya`ni ishchilarning o`zi mulkdorga aylanishi, ish kuchining normaligi, ish kunining qisqaligi, keng hamda ijtimoiy himoyaning qo`llanishi, nafaqa, daromad kafolati kabi chora-tadbirlar borgan sari takomillashib bormoqda va o`zining samaradorligini mehnat unumdorligining o`sib borishida isbotlamoqda. Eng muhimi – bu chora-tadbirlar ishchilarning turmush darajasida o`z aksini topmoqda.

Yollovchi bilan yollanuvchilar o`rtasida munosabatning yaxshi bo`lishi, sohibkorga to`la ishonch xosil qilish tadbirkorning samarali faoliyatining zarur shartidir.

Shakllanayotgan tadbirkorlar mamlakatimizdagi bozor iqtisodiyotining muvaffaqiyatida o`z o`rnini topa bilishlari uchun bu muammoning to`g`ri hal qilinishi va yollanuvchilarning tadbirkorlarga nisbatan to`g`ri munosabatda bo`lishlari juda katta ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkor o`z mablag`i-kapitali va ish hajmiga ko`ra yirik yoki o`rta, mayda bo`lishi mumkin. Bu, albatta korxonalar hajmi, bandlilik darajalarida ifodalanadi. Xalqaro o`lchov bo`yicha asos qilib korxonada ishlovchilar soni olinadi. 100 kishigacha ishlovchisi bor korxonaga mayda, 100-500 gacha band bo`lganlari o`rtacha va undan yuqorilari yirik korxonaga hisoblanadi. Minglab ishlovchilari bor birlashma korxonalar, konsernlar mavjud bo`lib, bular juda yirik-gigant korxonalaridir. Ularning eglarining mavqei ham yiriklikka qarab belgilanadi.

Qishloq xo`jaligi, ya`ni agrar sektorni oladigan bo`lsak, fermerlar kamdan-kam ishchilarni yollaydilar va asosan oila a`zolari bilan barcha xo`jalik ishlarini bajaradilar. Mehnat unumdorligi yuqoriligi sababli erkin raqobat davriga oid fermer-tadbirkorlarning xonavayron holatlari birmuncha qisqarib, ancha turg`unlik mavjud bo`lgan.

Yirik tadbirkorlik asosan aksiyali kapital orqali faoliyat ko`rsatadi. Bunda tadbirkorlik darajasi yuqori, ish natijasiga nisbatan javobgarlik ham juda katta. Lekin bu o`ziga xos afzallik va ustunliklarga ega. Chunki bunda bozorni o`rganish va shakllantirish, mehnat, moliya, moddiy sarmoyalardan foydalanish kabilarda imkoniyat juda kattadir. Mehnat taqsimoti afzalligidan foydalanish uchun katta sharoitlarga ega. Bozor kon'yunktura o`zgarishiga yaxshi moslashadi, mehnat ixtisoslashuvini keng qo`llay oladi. Shuning uchun ham yirik tadbirkorning turg`unlik darajasi va faoliyat samaradorligi darajasi juda yuqori bo`lishi mumkin.

Tadbirkorlar davlat va kopperativ korxonalarida ham mavjud, ya'ni ular umumlashtirilgan mulk sharoitida ham faoliyat ko`rsatadilar. Davlat tadbirkorligi ishlab chiqarish, infrastruktura, istiqboli ilmiy texnikaviy tarmoqlarning ish me'yorini ta'minlashda zarur. Ma'lumki, iqtisodiyotni markazlashgan holda tartibga solish muhtojligi yuzaga kelishi davlatning xo`jalik bilan shug`ullanishi zaruriyatini tug`diradi. Uzoq muddatli xarajatlar, markazlashtirish talab etadigan, yirik mablag`lar zaruriyati tug`iladigan tarmoqlar, korxonalar o`ziga xos tadbirkorlikni talab etadi va bunda davlat qo`l keladi. Kooperativlar mayda tadbirkorlikning birlashuvi natijasida yuzaga keladi. Bundagi asosiy maqsad mablag`larni birlashtirish, raqobatga bardoshli bo`lish uchun birgalashib ish yuritishdir. Shunday qilib, xususiy tadbirkorlik bilan birga davlat va kooperativ tadbirkorligi ham mavjud.

2000-2010 yillarda tadbirkorlikni rivojlanish ko`rsatkichlari

O`zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik rivojlanishining 2000 – 2010 yillardagi asosiy ko`rsatkichlari								
Ko`rsatkichlar	O`lchov birliga	2000 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.
Kichik tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi	%	31,0	38,2	42,1	45,7	48,2	50,1	52,5
Kichik tadbirkorlikda band bo`lganlar soni	ming kishi	4316,5	6679,0	7258,6	7762,8	8024,1	8402,3	8639,3
Iqtisodiyotda band bo`lganlarning umumiy sonidagi ulushi	%	49,7	65,5	69,3	72,3	72,7	74,2	74,3
Yangi tashkil etilgan o`rinlari soni	ming o`rin	296,9	434,2	425,5	...	313,5	391,8	480,0
Har 1000 fholiga to`g`ri keladigan faoliyat yuritayotgan subektlar soni	dona	6,0	10,3	13,2	14,7	14,7	15,1	15,0

Tadbirkor haqiqiy va har tomonlama mustaqil bo`lishi va faoliyati chegaralangan bo`lishi mumkin. Bu tadbirkorning mulk egasimi yoki yollanganmi ekanligiga bog`liq, chunki xususiy mulk egasi bilan bir qatorda mulksiz boshqaruvchi-tadbirkor bo`lishi ham mumkin. Mulksiz tadbirkor albatta yollangan bo`ladi. Ishni mustaqil olib borishiga va tijorat, faollikda mustaqil bo`lishiga qaramay, yollangan-boshqaruvchi muhim taqdiriy masalalar bo`yicha mulkdor-tadbirkorga bog`liqdir. Tadbirkorning erkinligi, ish ko`rishda mustaqilligi, mulkka bo`lgan munosabatiga bog`liqdir. Haqiqiy, to`la huquqli, to`laqonli tadbirkor xususiy mulkchidir.

Tadbirkorlarning uch asosiy omili mavjud: huquqiy, sarmoyaviy va shaxsiy. Avvalo tadbirkor bo`lish uchun huquqiy muhit zarur. Tadbirkorlik uchun erkin iqtisodiy faoliyat yuritish, tijorat bilan shug`ullanish huquqiga ega bo`lish, tadbirkorlik kafolati kerak. Agarda tadbirkorlik uchun ishonch bo`lmasa, qonunan u

himoya etilmasa, qanday qilib u faoliyat ko`rsatadi, tijorat bilan shug`ullanadi va bozorni shakllantirib bera oladi? Shuning uchun ham bozor munosabatlariga o`tish qanchalik huquqiy muxitga talabgor bo`lsa, tadbirkor ham shuncha qonuniy va huquqiy himoyaga muhtoj. O`zbekiston davlatining “O`zbekiston Respublikasining tadbirkorlik to`g`risidagi” qonuni bu borada eng ahamiyatli bo`lib, u tadbirkorlikning faoliyati uchun yo`l ochadigan huquqiy majmuadir. Ishbilarmonlikka sharoit tug`dirib beradigan huquqiy iqlim yana “O`zbekiston Respublikasi mulkchilik to`g`risida”, “Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish to`g`risida”, “Xususiy mulk to`g`risida”, “O`zbekiston Respublikasi korxonalar to`g`risida” kabi birmuncha qonunlar tufayli yuzaga kelmoqda.

Tadbirkor faoliyati uchun zarur huquqiy muhitning ikki tomoni mavjud: erkinlik va majburiylik. Birinchisi, uning erkin faoliti, jamiyat va jamiyat a`zolari bilan bo`lgan erkin munosabatlarni ta`minlash bilan bog`liqdir. Ta`kidlaganimizdek, tijoriy erkinlik va faoliyat sohasi tanlovi erkinligi qonunlar va ularning ijrosi tufayli ta`minlanadi. Shu bilan birga daromad oshishining chegaralanmasligi, rusurslardan foydalanish, ish kuchini yollash erkinliklarini ta`minlash tadbirkor uchun juda ahamiyatlidir. Eng muhimi huquqiy masala tadbirkorlikning mulk munosabatlaridagi, mulk va sarmoyalar hajmining chegaralanmasligidagi erkinlikdan iboratdir. Chunki u tadbirkor iqtisodiy faoliyatining asosini belgilaydi.

Qonunlarda tadbirkor harakatining asosiy tomonlari kafolatlanadi va to`la himoyalanaadi. Aytaylik, uning mulkka egaligi, daromad olishining chegaralanmay, bundagi kafillikning to`la kuchga ega bo`lishi ahamiyatlidir va bu ishlab chiqarishni rivojlantirish, daromadlarning ortib borishi, natijada inson iste`molining o`sib borishini ta`minlaydi. Davlatning tadbirkorga nisbatan bo`lgan munosabati, avvalo bularning qonunlarda aks ettirilishida va ijrosini to`la ta`minlashda o`z ifodasini topadiki, bu tadbirkor huquq muhitining asosini tashkil etadi.

Tadbirkor huquqiy muhitining ikkinchi tomoni uning jamiyat oldidagi va inson huquqlari ham turmush sharoitlari bilan bog`langan majburiyatlaridan iboratdir. Tadbirkorning majburiyatlari uning faoliyatidagi salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilganligidir. Tadbirkor ijtimoiy xarajatlarda ma`lum o`rin egallaydi, bu miqdoriy


majburiyat shaklida bo`lib, soliq qonunlari bilan belgilanadi, ijrosi esa soliq boshqarmalari tomonidan amalga oshirilishi ta'minlanadi. U daromad va foydaning bir qismini doimo byudjetga ajratib beradi. Bu davlat tomonidan kuchli nazorat ostida amalga oshadi.

Ekologiyani saqlash, tabiatga zarar keltirmaslik sohasida tadbirkorning javobgarligi katta bo`lib, bu ham qonunlarda o`z aksini topadi. Tabiiy boyliklardan to`g`ri va samarali foydalanish, havo, suv, hududlarni sanoat va umuman, tijoriy faoliyatlar tufayli ifloslantirmaslik bo`yicha tadbirkorlarga katta majburiyatlar yuklanadi. Shuningdek, aholining yashash sharoitlari, dam olish imkoniyatlarini saqlash va yaxshilash kabilarni ham tadbirkor o`z faoliyatida e`tiborga olishi majbur. Ishga yollash, ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilab borish, ishlovchilar daromadlarini kafolatlash, ish kuni muhlati va boshqa bir qator ijtimoiy himoyalash sohasidagi qoida va tadbirlarga rioya qilish majburiyatlari ham mavjud.

Sivilizatsiya taraqqiyoti tufayli tadbirkorning majburiyatlari, ayniqsa inson huquqi, uning turmush darajasini ko`tarish ortib borishi kerak.

Shunday iqlib, tadbirkorning huquqiy muhiti deganimizda unga taalluqli huquqlar va majburiyatlar yig`indisini tushunamiz. Chunki tadbirkor iqtisodiy faoliyatidagi to`la erkinlik uning jamiyat, davlat va inson oldidagi majburiyatlari muvozanatining doimo ta'minlanib borishi uchun zarur shartdir.

3.3.2.-chizma Tadbirkor sarmoyasi shakllari



Tadbirkor huquqiy muhitining yuzaga kelishida davlatning roli asosiy bo`lib, ketma-ket zaruriy qonunlar chiqarilishi, ularning amaliyiligini ta'minlab bori shva ijro

faoliyatining takomillashib borishi tadbirkorlikning rivojlanishida ham qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Demak, qonunlar tadbirkorning davlat, jamiyat, jamiyat a'zolari bilan bo'ladigan munosabatlarini ham aniqlaydi. Agarda tadbirkorga taalluqli qonuniyat atroflicha bo'lib, zarur masalalarni to'lig'icha o'zida aks ettira olsa, unda tadbirkor uchun zarur huquqiy muhit yaratilgan, deyishga asos yetarli bo'ladi. Shu narsani yana qayd qilib o'tish kerakki, qonunlarni to'g'ri, ongli talqin eta bilish va ularning to'g'ri bajarilishini nazorat etish, qisqasi bu qonunlarning to'la bajarilishini ta'minlash bu sohada kutilgan samarani berishi mumkin. Lekin qonun juda yaxshi, sermazmun bo'lsa-yu, ijrosi boshqacha bo'lsa, albatta tadbirkor avj olmaydi va tadbirkor erkin harakat qila olmaydi. Bundan faqat bozorga o'tish sekinlashib, iqtisodiyot rivoji zarar ko'radi. Bu esa, o'z navbatida, bevosita aholining turmush darajasida o'z aksini topadi.

Tadbirkor sarmoyasi. Tadbirkor uchun yana bir muhim omillardan biri sarmoyadir, ya'ni u sarmoyador bo'lmasa o'zi mustaqil ish tashkil eta olmaydi. Sarmoyasiz ish yurituvchi har qanday sharoitda ham qaram va ijrochi, yarim mustaqil bo'lib qoladi.

3.4. Tadbirkor va menejment

Bozor iqtisodida tashkilotchilik, boshqaruv juda katta o'rin ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish, uning taraqqiyotini ta'minlash xo'jalik harakatini, tijoratni samarali tashkil eta bilish, boshqaruvni amalga oshiruv bilan bog'liqdir. Bular menejerlikda o'z ifodasini topadi. Menejerlik o'zi alohida juda katta fan. Biz bu yerdani uni faqat tadbirkorga bog'labgina ko'rib chiqamiz.

Tadbirkor iqtisodchi, xo'jalikning tashkilotchisi, boshqaruvchisi ekan, demak, u avvalo menejerdir va menejerlik kasbini egallamaguncha, menejercha tashkilotchi va boshqaruvchi bo'lmaguncha, u o'z maqsadiga erisha olmaydi, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlay olmaydi. Demak, menejerlikni tadbirkorlikdjan ajratib bo'lmaydi. Menejer – tadbirkor degan tushunchani anglatmaydi. Chunki bularda umumiylik bilan birga xususiylik – o'zgachalik mavjuddir. Menejer tadbirkor bo'lishi

mumkin, lekin tadbirkor albatta menejer bo'lishi kerak. Menejerlar asosan yollanuvchilardir va ular hamma vaqt ham tadbirkor emas. Tadbirkor menejerlar xizmatidan keng foydalanadilar va bir tadbirkor qo'lida o'nlab, yuzlab menejerlar xizmat qilishi mumkin.

Albatta, tadbirkorga faqat ishbilarmon, tashaubbuskor deb qarasa, uning menejerdan farqi mbo'lmaydi. Ammo tadbirkor shaxsiy sifati, mustaqil ish egasi, yangilik tarafdori nuqtai nazaridan qaralsa, ular o'rtasidagi farq katta.

3.4.1.-jadval

Tadbirkor va menejer o'rtasidagi tafovutlar

Faoliyat turlari	Tadbirkor	Menejer
Strategik yo`nalish	Asosiy harakatlantiruvchi kuch – istiqbolli imkoniyatlardan foydalanish	Asosiy harakatlantiruvchi kuch – mavjud resurslardan foydalanish
Maqsadlarni amlaga oshirish	Inqilobiylik – keskinlik asosida tezlik bilan natijaga erishuv	Evolyutsion usullar – uzoq istiqbolni ko`zlash
Resurslarni ishga solish	Keng tomonli, iloji boricha erkin harakat imkonini saqlash	Bir qadamlilik, qo`yilgan vazifaga atalgan fondlarni birdaniga qo`lga kiritish
Resurslarni jalb etish shakllari	Ijara va zarur resurslarni vaqtincha jalb etishning boshqa shakllari	Resurslarni o`z mulkiga aylantirish va ishlovchilar sonini ko`paytirish
Tashkiliy struktura	Gorizontol, norasmiy aloqalardan foydalanish	Rasmiylashgan bog`liqlik aloqalari

Jadvaldagi taqqoslashga e'tibor bersak, xo'jalik faoliyati tadbirkor va menejerning xususiyatlari va bir-birlaridan asosiy tomonlar bo'yicha katta, hattoki qarama-qarshi tafovutlar borligini kuzatish mumkin. Keltirilgan eng muhim tomonlar shuni ko'rsatadiki, hayot tadbirkorlik va menejerlar uchun turli talablar qo'yadi.

Strategik nuqtai nazardan tadbirkor, avvalo yangi imkoniyatlar axtarishga intiladi. Bu ayniqsa daromad pasaya borishi, texnologiyaning tez almashuvi, iste'molchi talabining o'zgarib borishi, ijtimoiy talablarning o'sishi tufayli siyosiy ko'rsatmalarning yangilanishi sharoitlarida juda sezilarli darajada bo'ladi. Agarda faqat rejani bajarish va resurslardan foydalanish samaradorligini hisoblash yo`nalishi bo'lsa, tadbirkorga nisbatan ma'muriyatchi menejer qo'l keladi.

Maqsadlarni amalga oshirishni olsak, bunda ham ular tubdan farqlanadilar. Tadbirkor masalani o`rnida hal qilishi, juda tezlik bilan choralar qo`llashi, maslahatlashib o`tirmay, zudlik bilan aniq bir fikrga kelishi, xatarli yo`l tanlashi kerak. Menejer esa, aksincha, yangi ish tarafdori bo`lmay, ko`ngilsizlik bilan kirishadi va kirishsa ham hech o`zgarishlarga yo`l qo`ymay, ishga zarar keltiradi.

Resurslardan foydalanishda ham shunday holatga duch kelamiz. Tadbirkor ish davrlari va ma`lum maqsadga erishuviga qarab vaqti-vaqti bilan yangi-yangi resurslarni ishga solib boradi. Bu albatta qiyin jarayon, chunki investor, kreditchilar bilan hal qilinadi. Menejer esa resurslarni ishning ayrim qismlarini ko`zlab emas, balki jarayonlarni boshidan oxirigacha ko`zlab oladi.

Resurslarni ishga solishda ham ularning harakatlari boshqachadir. Menejerning ish haqi real foydalanilayotgan resurslarga bog`liq bo`lgani uchun resurslarni ko`paytirishga, fondlarni kengaytirishga urinadi. Korporatsiyaning ichki qoidalari, mavjud xo`jalik va moddiy qiziqish ma`muriyatchi-menejerning ijara va boshqa resurslarni vaqtincha jalb etish usullarini qo`llamaslikka undaydi. Tadbirkor uchun, aksincha, doimo pul yetishmaydi, yangi jihozlarga to`xtovsiz ehtiyoj tug`ilib turadi. Juda tezkorlik, chaqqonlik, xatarlilikka moyillik kuchli bo`lib, zaruriyatga ko`ra ijara va resurlardan vaqtincha foydalanishning boshqa turlarini qo`llash ehtiyoji tadbirkorda kuchli bo`ladi.

Keyingi taqqoslash tashkiliy tuzilmaga oid bo`lib, menejer mavjud tuzilma tarafdoridir. Bu bir-biriga bog`liq tepadan-pastga qaratilgan tashkiliy tuzilmadir. Bunday sharoitda boshqaruv nazariyasining o`zi vakolatlik va javobgarlikni juda aniq belgilanishini talab qiladiki, bundan og`ish menejer uchun ma`qul bo`lmaydi, uning moddiy taqdirlanishi ham topshirilgan vazifaning to`la va aniq bajarilishiga bog`liqdir.

Tadbirkor bilan menejer o`rtasidagi umumiylik deganimizda mohir tashkilotlilik, boshqaruvchanlik, tashabbuskorlik, mas`uliyatchilik, jonkuyarlik kabi xususiyatlarni keltirish mumkin. Bular, albatta juda muhim ijobiy tomonlardir. Lekin ish muvaffaqiyati uchun, yuqori samara natija uchun bular yetarli emas.

Tadbirkordan qo`shimcha ravishda to`xtovsiz yangilik tarafdori va u boridan qoniqmaydigan, tezkorlik, xatarlilik, o`ta javobgarlilik, to`la mustaqillik xususiyatlariga ega bo`lishi talab etiladi. Tadbirkorda ijodkorlik va ijrochilik mujassamlashsa, menejerda ijrochilik ustun keladi.

Bularning asosida mustaqil harakat negizi yotadi. Tadbirkor, bilamizki, kapital egasi, korxon boshlig`i. Shuning uchun ham kapital harakati to`lig`icha tadbirkor ixtiyoridadir. Bu esa unga to`la mustaqil ish tutish imkonini beradi va u harakatidagi kapital yo`nalishini belgilash, yo`nalishini o`zgartirishda to`la huquqlidir. Korxon faoliyatidagi vazifani tadbirkor belgilaydi va u korxon ishi uchun to`la javobgardir.

Menejer esa yollanuvchi, u ma`muriyatchi, ya`ni yo mudir, direktor, yo boshqaruvchi. Shuning uchun ham unga xos narsa masalani hal qilish, yangi yo`nalishlar, umumiy vazifalarni belgilash emas, balki asosan ijro etish va mavjud belgilangan vazifalarni o`z vaqtida to`la bajarishdir. Demak, umumiy farq shuki, tadbirkor mustaqil ish olib boruvchi bo`lsa, menejer ijrochidir.

Bu taqqoslash, umumiy xususiyatlarni aniqlashda qaratilgan fikrlardir. Bundan istisno holatlar ham mavjuddir. Aytaylik, menejerlar ichida shundaylari borki, yollanuvchi bo`lishiga qaramay tadbirkorning vazifalarini ham bajaradi. Bu ko`pinchi yirik korxonalar, korporatsiyalar boshqaruvchilariga taalluqli bo`lib, ularda mustaqillik darajasi va javobgarlik yuqori bo`ladi. Oladigan daromadlari ham shunga monand; juda yuqori ish haqi oladilar va katta boylikka ega bo`ladilar, mavqelari ham shunga qarab yuqori bo`ladi. Bunday talantli boshqaruvchi – menejerlar juda qadrlanib, tadbirkorlar ular bilan hisoblashadilar. Shuningdek, menejerlik qobiliyati past bo`lgan tadbirkorlar ham bo`lb, asosiy ishni mustaqil ish olib borib, deyarli tadbirkorga xos xususiyatlarga ega bo`lgan boshqaruvchilarga yuklaydilar. Chunki bunday tadbirkorlar o`z vazifalarini chegaralaydilar.

Ijodkor-kashfiyotchi, konstruktorlar bilan tadbirkorni taqqoslasak, albatt atadbirkorning ustunligini ko`ramiz. Chunki kashfiyotchi yangilik ochish bilan chegaralanadi va shu bilan uning vazifasi tamom bo`ladi. Yangilikni hayotga tadbiriq qilish, ishlab chiqarishga singdirishga qurbi yetmaydi. Yangilikni ishga solish, undan

foydalanish tadbirkorning qo`lida va ixtiyorida bo`ladi, kashfiyot tadbirkor faoliyati tufayligina amalda qo`llanilishi mumkin.

Tadbirkor o`ziga xos xususiyatlar, shaxsiy sifatga ega bo`lib, har bir mamlakatning katta milliy boyligini tashkil etadi. Shuning uchun ham yuqori darajali barcha xususiyatlarga ega bo`lgan tadbirkorlikni shakllantirish o`tish davrini boshidan kechirayotgan respublikamiz uchun zaruriyatdir.

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishida mayda tadbirkorlikning ta`siri va ahamiyati kattadir. Har bir mustaqil faoliyatli fuqaro o`rnini biznesda sinab ko`rishga urinadi. Shuning uchun ham tadbirkorlik eng ommaviy va keng tarmoqli xolatdir. Bu to individual, oilaviylikdan tijoriy tashkilot darajasigacha bo`lishi mumkin. Lekin eng muhim tomoni shuki, bu ko`p bo`lmagan va oz sonli yoki o`rta miqdordagi ishlovchilardan iborat bo`lib, bular kichik va o`rta tadbirkorlik mazmunida bo`ladi.

Bunday tadbirkorlikning asosiy belgisi xodimlar miqdori, rejali kapital xajmi, foyda miqdori kabilar bilan ifodalanadi. Ko`pchilik manbaalarda mayda tadbirkorlik nisbatan katta bo`lmagan ishlovchilar guruhi yoki korxonaga bo`lib, u yagona mulkdor tomonidan boshqariladigan faoliyat, deb tushuntiriladi.

Albatta bu oddiy ishlab chiqarish bo`lmay, yangilik, tashkiliy talant, ijodiy boshlanuv, boylikni orttirish va xatarlikka tayyorlik mazmunidagi xo`jalik yuritish mazmunida bo`lib, haqiqiy tadbirkorlikdan iborat bo`lishi kerak. Tadbirkorlikni chegaralab turadigan xususiyatlar ham shundan iborat.

Chunki xususiyatdagi biron tomon yetishmasa, aytaylik, doimo yangilikka erisha olmasa, ya'ni daromad qila olmasa, ijodiylik, tashkilotchilik ham yetishmasa va h.k. ishlarga o`xshagan xususiyatlar mavjud bo`lmasa, albatta u bozordan siqib chiqariladi va tadbirkorlik bilan shug`ullana olmaydi.

Tadbirkor barcha soha, tarmoqlarda faoliyat ko`rsatib, o`zini sinab ko`rishi mumkin. Ma'lumot, tibbiyot, ilm-fan, yurisprudensiya, arxitektura-qurilish, ijtimoiy xizmat ko`rsatish, ishlab chiqarish, taqsimot sohalarida harakat qilishi mumkin. Mayda biznesni umumlashtirib aytganda, bu qandaydir yangilik yaratish jarayoni, boylik – qadrlil narsa yaratish, o`ziga moliyaviy va ijtimoiy-ruhiy javobgarlikni

bo`yniga oluvchi hamda natijada pul daromadi ishlarining natijasi bilan qanoatlanuvchi jarayon deyish mumkin.

O`z ishini tashkil qilishni hal qilgan shaxs ishonchlarga to`la, ko`ngilsizlik, notinchlik, qattiq mehnat qilish kabilarga boy bo`ladi. Shu bilan birga omadsizlikka duch kelishi ham turgan gap. Chunki kutilgan talab bo`lmaydi. Raqobat kuchli bo`lishi mumkin, yoki kutilgan moliyaviy qo`llash bo`lmasligi mumkin. O`z tijoratini boshlashda moliyaviy va emotsional xatarlik kuchli bo`lishi mumkin. Shuning uchun ham o`z tijoratiga kiritish va uni jonlantirib, gurkiratib yuborish juda og`ir narsa. Shuning uchun dunyoda har yili millionlab yangi korxonalar ochiladi, yopiladi. Haqiqatdan ham iqtisodiy tushkunlik, iqtisodiy tizimlar o`zgarishi, inflyatsiya, kredit haqining oshib borishi, zaruriy infratuzilmalar yo`qligi, kelajakning noaniqligi, xatarlikni kuchliligi kabilarga qaramay yangi korxonalar ochiladi, biznes, tadbirkorlik faoliyati kengayadi.

Tadbirkorlikka otlanish hayotda keskin yasashdan iboratdir. Bunda hayotiy tarzda burilish paydo bo`ladi. Mavjud hayotiy tarzdan voz kechib, yangisiga o`tishga, ya`ni tadbirkorlikni boshlashga ahd qilinadi. Eng muhimi bunday keskinlikda turtki bilan birga katta istak talab etiladiki, u tijoratni o`z hayotida asos qilib belgilaydi.

Tadbirkorlikka kirishishda qandaydir boshlang`ich asoslar bo`lishi shart. Chunki bir istak, turtki, tavakkalchilikning o`zi yetishmaydi. Avvalo sarmoya asosi, ma`lum moddiy qo`lanish, atrof-muxit, davlat tomonidan qo`llash va doimo yordam olish imkoniyatlari mavjudligi ko`zda tutiladi.

Umuman olganda iqtisodiy tarmoqlar turliligidan qat`iy nazar kichik biznesni uch xil kompaniyalarga bo`lish mumkin: oilaviy uy firmalari, innovatsion korxonalar va kelajakli venchur kompaniyalar.

“Uy” firmasi xususiy bo`lib, o`sishi sekin davom etadigan, sarmoyalari chegaralangan bo`ladi. Albatta bular kichik korxonaligicha davom etadi. Bunday asosiy maqsad korxonaga egasining hayotiy vositalar bilan ta`minlanishidir. Bular imkoniyatlari bilan chegaralangan xolda kengayish va ilg`orlar qatoriga chiqishni maqsad qilib qo`ya olmaydilar.

“Innovatsion” korxonalar asosan ilmiy kashfiyotlar yoki yangi texnologiyalar manbaida tashkil etiladi. Ko`pincha yangi tarmoqlar asosi hisoblanadi. Bular aksionerlik kompaniyalari darajasiga kamdan-kam erishadi.


Kelajakli venchur kompaniyalari asosan innovatsion tavsifli bo`lib, xatarlilik kuchli va tez rivojlanadigan biznesdir. Bular ko`pincha aksionerlik kompaniyalariga aylanib ketadi yoki yirik kompaniyalar sotib olib, o`zlariga qo`shib yuborishadi.

Aytganimizdek, xo`jalik sub`ektlarining kichik tadbirkorlik mazmunida bo`lishi xodimlar soni, aktiv miqdori, daromad xajmi bilan belgilanadi. Bu turli mamlakatlarda har xildir. Lekin barcha mamlakatlarda bu sohada birinchi o`rinda bandlik miqdori turadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlardan iborat bo`lgan yevropa Ittifoqini (EI) olsak, bunda kichik korxonalar xodimlar soni 50 kishi, yillik mablag` aylanishi 4 mln. yevro, balans summasi 2 mln. yevro miqdorida bo`lishi belgilangan.

Bu mamlakatlarda o`rta korxonalar xodimlar soni 50-250 kishi, yillik aylanma 16 mln. yevro, balans summasi 8 mln. yevro miqdorida deb belgilangan. yel komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mayda korxonalar ko`rsatkichida xodimlar soni 100 kishidan oshmasligi, xususiy asosiy sarmoyalar 75 mln. yevrodan kam bo`lishi kerak. Lekin yirikroq kompaniyalarning hissasi 1/3 dan oshmasligi sharti belgilangan.

3.4.1.-jadval

Kichik korxonalarda innovatsion jahon tajribalari



Bu komissiya tavsiyasi bo`yicha korxonalarining 9 kishigacha xodimlarga ega bo`lishi ko`zda tutiladi. Bunga albatta individual korxonalar, oilaviy va fermer xo`jaliklari kiradi. Shu bilan birga 10-99 kishi band bo`lgan mayda korxonalar ham ko`zda tutiladi. Yuqori darajali rivojlangan mamlakatlar kiradigan halqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti quyidagicha belgilaydi: 19 kishilik korxonalarni - “juda kichik”; 99 kishigacha bo`lgan korxonalarni - “kichik”; 100 dan 499 kishigacha bo`lganlarini – “o`rtacha” va 500 kishidan ortiq band bo`lgan korxonalarni - “yirik” korxonalar qatoriga qo`shiladi. Ba`zi rivojlangan mamlakatlarda mayda, o`rta biznesni belgilash yana boshqacha bo`lishi mumkin. Masalan, Buyuk Britaniyada maydalarga kiruvchilari faqat ikki ko`rsatkich bo`yicha, ya`ni sarmoyalar aylanishi va bandlik miqdori bo`yicha belgilash mavjud. Juda mayda korxonalariga 1 kishidan 24 kishigacha va maydalarga 24 kishidan 99 kishigacha band bo`lgan korxonalarni kiritishadi. Ishlov beruvchi sanoat korxonalarida 200 kishigacha bandlik korxonalari mayda hisoblansa, chakana savdoda bundaylarga 400 ming funt sterling tovar aylanishi xajmigacha bo`lgan korxonalar kiradi. Korxonalar bo`yicha kompaniyalar to`g`risidagi qonun bo`yicha mayda korxonalarda sarmoya 1,5 mln. yevrodan oshmasligi, o`rtacha bandlik 50 kishigacha bo`lishi kerak.

Fransiyani olsak, mayda korxonalar qatoriga kiradigan korxonalarda bandlik 500 kishidan ko`p bo`lmasligi kerak, yillik mablag` aylanishi jami balans bo`yicha 200 ming frankdan kam bo`lmasligi kerak. Tarmoqlarga qarab bu ko`rsatkichlar o`zgaradi. Aytaylik, qishloq xo`jaligi va oziq-ovqat sanoatida bandlik 200 kishidan yuqori bo`lsa, yirik hisoblanadi, jixozlar ishlab chiqarish tarmoqlarida esa bandlik 500 kishigacha bo`lgan korxonalar mayda hisoblanadi.

Germaniyada mayda korxonalarining rasmiy belgilanishi yo`q. Lekin xo`jalik vazirligi mayda firmalarga bo`linishni amalda qo`llaydi. Bunda bandlik 49 kishigacha bo`lgan va sarmoya aylanishi 1 million markagacha bo`lgan korxonalarni kiritadi. Lekin yuridik mustaqil shaxs boshqarishi iqtisodiy xatarlilik, ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etishi, o`z faoliyatini kreditsiz ta`minlovchi shartlari mavjud. Lekin odat bo`yicha Germaniyada 500 kishi bandligi, yillik sarmoya aylanishi 50 ming

markadan ko'p bo'lmagan korxonalarni mayda va o'rta korxonalariga kiritishadi. Bu moliyaviy boshqa imtiyozlar zarurligida ishlatiladi.

Aytaylik, Gretsiya va Shvetsiyada ham bu sohada o'ziga xoslik mavjud. Yaponiyada mayda va o'rta korxonalar bo'yicha maxsus qonun mavjud. Bu qonun bo'yicha qazilma va ishlov berish sanoatida risola kapital 100 mln. ien va bandlik 300 kishigacha, ulgurji savdoda kapital 30 mln. ien va bandlik -100 kishigacha, chakana savdo va xizmat industriyasida kapital 30 mln. ien, bandlik 50 kishigacha bo'lgan korxonalar mayda va o'rta biznesga kiritiladi. Bu ko'rsatkichlar zaruriyat tufayli o'zgarishi mumkin. Masalan, davlat qo'llashi kerak bo'lgan chinnisozlik, sopol idishlar va rezina sanoatida bu toifaga 900 ishlovchisi bo'lgan korxonalar kiritiladi. Shu bilan kichik xajmli korxonalar tushunchasi bo'lib, bunga bandlik 20 kishigacha bo'lgan korxonalar qo'shiladi. Hatto savdoda va xizmat ko'rsatishda 5 kishigacha hisoblanadi.

AQSHning kichik biznes to'g'risida Federal qonunida bitta yoki bir necha egasi bo'lgan 500 kishigacha bandlik va 5 mln. dollar aktiv miqdoriga ega, yillik foyda 2 mln. dollargacha bo'lgan korxonalar kichik firma hisoblanadi. AQSH kichik biznes ishlari bo'yicha ma'muriyat (KBM) barcha bunday korxonalarni beshga bo'ladi: eng kichik 1 – 24 kishilik; kichik 25 – 99 kishilik; o'rtacha 100 – 499 kishilik; yirik - 500 – 999 kishilik; eng yirik – 1000 va undan ortiq kishilik korxonalar. Bunda yana faoliyat va tarmoqlar turiga qarab turlilik mavjuddir. Aytaylik, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, transport, ulgurji savdo, chakana savdo tarmoqlariga qarab aniqlik kiritiladi.

Lekin kichik korxonalar albatta mustaqil mulkdorlar va tovar bozorida yetakchi xolatda bo'lishligi talab etiladi. Buni dalvat tomonidan tabaqalangan tarzda qo'llash imkonini beradi.

Rossiyada ham bozor munosabatlariga o'tish bilan mayda va o'rta biznesni rag'batlantirish zaruriyati tug'ilishi tufayli ularni belgilash boshlangan. Aytaylik, sanoat, qurilish, transportda 50 kishi band bo'lgan korxonalar kichik hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi va innovatsion faoliyatda 30 kishi, ilmiy sohada 15 kishi, chakana

savdo va umumiy ovqatlanishda, maishiy xizmatda 15 kishi, ulgurji savdo va boshqa tarmoqlarda 25 kishigacha bandlik korxonalar mayda korxonalar hisoblanadi.

Rossiya fuqarolik qonunchiligi bo'yicha mayda tadbirkorlik sub'ektlari tijoriy tashkilotlar va individual tadbirkorlari bo'lib, ular turli tashkiliy-huquqiy shakllarda kichik korxonalar tuzish huquqiga ega bo'ladilar.

O'zbekistonda kichik va o'rta biznesga taalluqli korxonalar sub'ekt sifatida 1998 yil 9 apreldagi PF – 1987 sonli Prezident Farmoni bilan belgilangan. Bunda mulk shaklidan qat'iy nazar, ishlab chiqarish sohasida yiliga - 10 nafargacha, savdo, xizmat ko'rsatish hamda boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda - 5 nafargacha ish bilan band xodimga ega mikrofirmalar; shuningdek ishlab chiqarish sohasida yiliga o'rtacha - 40 nafargacha, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohaslarida - 20 nafargacha, chakana savdo hamda boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda - 10 nafargacha ish bilan band xodimga ega bo'lgan korxonalar kichik biznesga kiradi.

Ishlab chiqarish sohasida - 100 nafardan, qurilishda - 50, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohaslarida, ulgurji savdoda – 30, chakana savdo, xizmat ko'rsatishda – 20 nafardan oshmaydigan ish bilan band xodimga ega bo'lgan korxonalar o'rta biznesga kiradi.

3.5. Mayda tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rni

Ko'pchilik mamlakat bozor iqtisodiyotida kichik biznesning ahamiyati juda katta. Mayda tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni xal qilishda yetakchi o'rinni egallaydi. Hatto bozor iqtisodi rivojlangan mamlakatlarda ham bu soha xalq xo'jaligi rivoji, ijtimoiy muammolarni yechishda, ishda bandlik darajasida katta rol o'ynaydi. Ishlab chiqariladigan tovarlar va ularni sotish, xizmat ko'rsatishni rivojlantirish sohaslarida salmog'i juda katta. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida esa iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, raqobatni taraqqiy ettirishda, yangi ish joylarini ko'paytirishda, iste'mol bozorini tovarlar bilan to'ldirishda, tadbirkorlikni kengaytirishda asosiy ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari tadbirkorlik iqtisodiyotda va jamiyatda tuzumiy o'zgarishlarning boshlovchi va ularni ishga tushuruvchi mexanizm vazifasini ham o'sishning katalizatori bo'lib, yalpi mahsulot ko'payishiga yordamlashadi. Bunda asosiy narsa innovatsiyadir. Chunki bu tufayli yangi tovar va xizmat turlari paydo bo'ladi.

Mayda tadbirkorlikning bir qancha ustunliklari mavjud. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mayda tadbirkorlik yirikka nisbatan har bir mamlakat sharoitiga qarab ko'p sohalarda ustunlik qiladi. Bular quyidagilardan iborat: kichik biznes xo'jalik yuritishda mahalliy sharoitga juda tez moslashadi, ularning sub'ekti faoliyatida katta mustaqillik mavjud. Chunki erkin harakat imkoniyati katta. Xo'jalik xajmi katta emasligi manevr qilish, o'zgarishlar kiritish erkinligini kengaytiradi. Mayda tadbirkorlikda operativlik, chaqqonlik darajasi yuqori bo'ladi. Ular sharoit va talabga qarab tez qaror qabul qilish imkoniga ega. Korxonalar mayda bo'lgani tufayli xarajatlar nisbatan past bo'lishi mumkin, bu ayniqsa ma'muriy boshqarish xarajatlariga taalluqlidir. Xo'jalikni yuritish uchun katta kapital talab etilmaydi. Bozor talabiga asosan mahsulot ishlab chiqarishni o'zgartirish imkoni katta bo'ladi. O'z kapitalining aylanishini tezlashtirish, undan unumli foydalanish darajasi yuqori. Shu bilan birga tadbirkor o'z g'oyalarini biznesga tez singdirish imkoniga ega. Masalan, Halqaro mehnat byurosining dokladida mayda va o'rta tadbirkorlar katta raqobatlik qobiliyatiga ega, yirik korxonalarga nisbatan har bir ishlovchi hisobida kam kapital xarajat qiladilar, mahalliy xomashyo va mehnat resurslaridan keng foydalanadilar, deb ta'kidlaydi. Mayda korxonalar egalari tejamlikka va investitsiya qo'llashga moyilligi ko'p, yangilik-innovatsiyaga motivatsiyasi yuqori bo'lib, korxonalar faoliyatiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Kichik korxonalar sub'ektlari mahalliy bozorlarning kon'yukturasini, talab darajasini yaxshi biladilar va bu sohada ham yirik korxonalarga nisbatan ustunlikka ega. Bu mutaxassis xodimlarni tayyorlash va ularning tajribasini yoyishga ko'maklashadilar. Mayda va o'rta korxonalar soni, tovarlar ishlab chiqarish xajmi, ish xajmi va xizmat ko'rsatish bo'yicha mamlakatlarda har tomonlama balandlik qiladilar.

Albatta mayda va o`rta tadbirkorlik sub`ektlarining faoliyatidagi ustunlik va kamchiliklar ichki va tashqi sabablar, xizmat sharoitlariga ko`p tomondan bog`liq bo`ladi. Tahlillar shuni ko`rsatadiki, mayda firmalarning muvaffaqiyatsiz faoliyati ko`pincha menejerlar tajribasizligi yoki korxonaga egalarning kasbiy noliyqligi tufayli yuzaga keladi.

Kichik firmalar faoliyati amaliyoti shuni ko`rsatadiki, bitta tadbirkorlik darajasi, ishga jadallik bilan kirishishning o`zi yetishmaydi. Hozirgi davrda kichik biznes maxsus bilimni talab qiladi. Amalda esa ko`pincha kommersant, yo injener tijoriy ish boshlaydi. Lekin u ishlab chiqarish yoki tijorat to`g`risida hech narsa bilmaydi. Kichik firma egalari ichida biznes maxsus tuzilmasini boshqarish tajribasi bilan firmaning muvaffaqiyat imkoni ortib boradi. Firmaga bir kishi uzoq rahbarlik qilsa daromad doimiyliigi yuqori bo`ladi. Agar u tez-tez o`zgarib tursa buning aksi bo`ladi.

Firma faoliyatida bir pasayib, bir ko`tarilib turadigan ijtimoiy ehtiyojlarni doimiy axtarish va unga to`xtovsiz moslashib borish kichik biznesni ng strategiyasini belgilab beradi. G`arb mutaxassislarining bir qismi kichik tadbirkorlikni yangi shaxsiy o`zaro munosabatlarning maktabi va kelajak tadbirkorlik asoslari usullarining sinov maydoni, deb biladilar.

Mayda va o`rta firmalarning ish bilan band bo`lishdagi hissasi katta. Aytaylik, AQSHda mayda va o`rta tadbirkorlikda - 70,2 mln. kishi; yeIida - 68 mln.; Germaniyada - 15,5 mln.; Italiyada - 16,8 mln.; Fransiyada - 15,2 mln. va Yaponiyada - 39,5 mln. kishi band. YAIMdagi hissasiga kelsak (% hisobida): Buyuk Britaniyada - 50-54; Fransiyada - 55-62; yeI mamlakatlarida - 63-67; AQSHda - 50-52; Yaponiyada - 52-55; Rossiyada - 20-22; O`zbekistonda - 30-32.

Kichik va o`rta tadbirkorlik quyidagi masalalarni xal qilishning sharti bo`lib xizmat qilishi mumkin:

- raqobatli, uivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarini shaklantirish;
- tovarlar, xizmatlar va ish assortimentini yaxshilash, ularning sifatini ko`tarish;

- ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarni aniq iste'molchilarga yaqinlashtirish;

- iqtisodiyotning tuzumiy qayta tuzilishiga ko'maklashuv;

- ishlab chiqarish rivojiga aholining shaxsiy mablag'larini jalb etish;

- qo'shimcha ish joylarini yaratish va ishsizlik darajasini pasaytirish;

- shaxslarning ijodiy imkoniyatlarini ishga solish, ularning talantini ochish, turli hunarlarni rivojlantirish;

- aholining ayrim guruhlarini, ayniqsa yirik ishlab chiqarish ma'lum chegaralanishni yuklagan shaxslar- uy bekasi, nafaqaxo'rlar, nogiron va o'quvchilar kabilarni ish faoliyatiga jalb etish;


- mulkdorlar, xo'jalik egalari, tadbirkorlar kabi ijtimoiy qatlamning shakllanishi;

- ilmiy-texnik rivojni faollashtirish va yirik korxonalar chiqindilarini o'zlashtirib foydalanish;

- ijara va sotib olish yo'li bilan davlatni past rentabelli va foydasi ishlaydigan korxonalardan xoli etish.

3.5.1.-chizma

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish bosqichlari



Amaliyot shuni ko`rsatmoqdaki, texnik rivojlanish, aholi talabini to`laroq qondirish ko`p tomondan mayda korxonalar faoliyatiga bog`liqdir. Yuqori texnikani qo`llash, texnologik o`zgarishlar amaliyoti, bandlikning o`sishi, xizmat ko`rsatish rivoji ko`p jixatdan kichik biznesga bog`liqdir. Bundan tashqari narx-navo va nonarx raqobati bir tomondan uning pasayishi bilan bog`liq bo`lsa, ikkinchi tomondan iste'molchi yuqori sifatli tovar va xizmatlarga ega bo`ladi. Shu bilan birga davlat soliq yo`li bilan katta mablag`larga ega bo`ladi. Bularning hammasi mayda korxonalarining mamlakat iqtisodiyotiga qo`shgan hissasi hisoblanadi.

Asosan kichik tadbirkorlik individual va tijoriy-tashkiliy sub'ektlarga ega. Lekin bular turli shaklda bo`lishi mumkin.

3.5.1-jadval

Kichik biznes sub'ektlarining asosiy tashkiliy shakllari

Mamlakatlar	Korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari
Buyuk Britaniya	individual korxonalar; assosiatsiyalashgan egalik qiluvchilar; chegaralangan javobgarlik kompaniyalar.
Fransiya	individual kompaniyalar; aksioner kompaniyalar; cheklangan javobgarli birlashmalar.
AQSH	yakka egalik; birlashmalar; korporatsiya.
Germaniya	individual mehnat faoliyati; shiriklik umumiy va cheklangan; mayda aksioner jamiyati.

Jadvalda ba'zi rivojlangan mamlakatlardagi mayda tadbirkorlik sub'ekt shakllari keltirilgan. Ko`rinib turibdiki, mayda biznesda eng keng tarqalgani individual tadbirkorlik hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko`rsatadiki, kichik biznes doimo davlat yordamiga va mahalliy hokimiyat qo`llashiga muxtoj. Bunda avvalo huquqiy muxitning yaratilishi ahamiyatlidir. Chunki busiz mayda tadbirkorlik faoliyat uchun juda ojizlik qiladi. Shu bilan birga zarur infratuzilmalar mavjudligi va ularni to`xtovsiz takomillashtirib

borish talab etiladi. Ma'lumki, moliyaviy-kredit tomonidan qo'llanilib turish, shu bilan birga ma'qul soliq tizimining shakllanishi taqdiriy masalalardan hisoblanadi.

Mayda tijorat sub'ektlarining faoliyati iqtisodiy erkinlik, huquqiy, kafolatli sharoitlarni mukammal bo'lishini talab etadi. Chunki busiz qonun tomonidan belgilangan huquqlar asosida faoliyat ko'rsata oladi, ya'ni tadbirkor faoliyati erkin harakat, lekin u qonun bilan chegaralangan biznesdir. Ikkinchi tomondan mayda tadbirkorlik qonuniy va boshqa rasmiy xujjatlar bilan ma'lum darajada majburiyatlarga ham ega.

Qonuniy va normativ xujjatlar tufayli tadbirkorning moliyaviy, iqtisodiy, moddiy rag'batlantiruvchi tizim shakllari, bozor iqtisodidagi xolati belgilanadi. Shuningdek noqonuniy harakatlar ta'qiqlanadi. Ayni vaqtda tadbirkorlik organlari tashqi tazyiq va hokimiyat organlari tomonidan nohaq qilinadigan harakatlardan himoyalaydi.

Huquqiy muxitning yaratilishi tadbirkor duch keladigan ko'pchilik muammolarni xal qilish sharoitini yaratadi. Bu tadbirkorlikning shakllanishidan tortib, to rivojlanishigacha bo'lgan jarayonlarni muvaffaqiyatli o'tishida asos bo'lib hisoblanadi. Aytaylik, ro'yxatga olish va rasmiylashtirish, faoliyat turini litsenziyalashdan to bankrotlashuv va faoliyatni to'xtatuvgacha bo'lgan muammolarni yechishda yordamchi vazifasini o'taydi.

Davlat qonunlarida tadbirkorlikning huquqiy va erkinliklari, faoliyatlarining tashkiliy-huquqiy shakllari, tashkil etish, o'zgartirish va faoliyatning to'xtatish mexanizmlari belgilanadi. Mulkiy huquqlari va uni himoyalash, bundagi javobgarlik kabilar kafolatlanadi.


Soliq imtiyozlari qo'llaniladi, ayrim hollarda byudjetdan fondlar tashkil etish, tezlashtirilgan amortizatsiya ajratmalar usullarini qo'llash kiritiladi. Ustuvor tarmoqlar va bunda kichik biznesning imtiyozlari qo'llaniladi. Hatto bunday tarmoqlarda tadbirkorlar ma'lum vaqtga soliqlardan ozod qilinadi va so'ngra imtiyozli soliq qo'llaniladi. Kichik korxonalarni moliyalashtirib kredit xizmati ko'rsatadigan banklar uchun soliq miqdori kamaytirilishi ham mayda biznesni qo'llashga qaratilgan tadbirlardan hisoblanadi.

Qonu va qoidalarda kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyati har tomonlama taqdirlanadi. Uni himoyalash, imtiyozli kredit qo'llash, davlat tomonidan ko'p jarayonlarga yordam berish kabilar qo'llaniladi. Hatto eksport va import bilan bog'langan eng og'ir jarayonlarni davlat o'z zimmasiga oladi.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes uchun yaratilgan infratuzilmaning yaratilishi juda muhimdir. Masalan, AQSHda kichik biznes uchun maxsus ma'muriyat tashkil etilgan. Bu kichik biznesni qo'llash, rivojlantirish bilan bog'liq ishlarni amalga oshiradi. Ayniqsa moliyaviy yordam, texnik va maslahat xizmatlari ko'rsatish, kadrlar tayyorlash, davlat buyurtmalarini olish va boshqa shunga o'xshash xizmatlar amalga oshiriladi. Bu ma'muriyat shtabi AQSH poytaxtida joylashgan bo'lib, 10 regional birlashmalar, 100 maxalliy bo'limlarga ega. Bo'limlar davlat hokimiyati organlari, kollej, universitetlar, korxonalar va jamoat tashkilotlari bilan bog'liq xolda faoliyat ko'rsatadi. Bu ma'muriyatdan tashqari Ichki ishlar vazirligi, Uy-joy qurilish va shaharlarni rivojlantirish vazirligi, Milliy ilmiy fond, Fermer xo'jaliklari bo'yicha ma'muriyat, mayda biznesni rivojlantirish institut va markazlar ham mayda korxonalarni qo'llash bilan shug'ullanadi. Bularning soni AQSHda 2700 dan ortiq.

Rossiyada esa kichik biznesni rivojlantirish ishini boshqaradigan maxsus organ kichik tadbirkorlikni qo'llash va rivojlantirish Davlat komitetidir. Bu asosan mamlakatda kichik biznesni rivojlantirish va qo'llash bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish bilan bog'langan takliflar ishlab chiqish, tadbirkorlarning haqqoniy talablarini qondirish, tajribalarni umumlashtirish kabilar bilan shug'ullanadilar. Shu bilan

3.3.2.-chizma Solliq yukining pasayishi



birga Rossiyada yana shu soha bilan shug`ulanuvchi kichik tadbirkorlikni qo`llovchi Federal fond mavjud. Bu fond asosiy diqqatini kichik biznesning davlat tomonidan qo`llanilishini moliyaviy ta'minlashga qaratadi. Shuningdek Rossiya mayda tadbirkorlikning ilmiy-texnik sohada rivojlanishiga yordam ko`rsatish Fondi ham tashkil etilgan.

Kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan infratuzilmaga yana bir necha nodavlat tashkilotlarni qo`shish mumkin. Ayniqsa bunday tuzilmaga kiruvchi tashkilotlar Moskva shahri hukumati qoshida ham ko`p tuzilgan. Bularning ichida eng asosiysi Shahar kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va qo`llash Departamentidir. Mayda tadbirkorlik infratuzilmasiga lizingli firma va kompaniyalar biznes-inkubator, ishlab chiqarish-texnologik markaz, kredit va boshqa tashkilotlarni kiritish mumkin.

Kichik biznes faoliyatidagi eng muhim omil soliqlardir. Bu majburiy to`lov hisoblanadi. Soliqlar davlat, maxalliyarga bo`linadi. Bu asosan foydadan olinadi. Shuningdek yig`imlar, boj to`lovi, aksiz kabi turli to`lovlar ham mavjud.

Bozor iqtisodiyotida soliqlar asosan ikki vazifani bajaradi: fiskal va rag`batlantiruvchi. Fiskallik byudjetni to`ldirish uchun kerak bo`lsa, rag`batlantirish korxonalar faoliyatini boshqarish uchun qaratiladi. Qo`llaniladigan soliqlar miqdori, darajasi soliq to`lov ob`ektlari bu sohadagi qonuniyatlarni buzish javobgarligi, soliq imtiyozlari provardida mayda korxonalar faoliyatining yillik natijasida o`z ifodasini topadi.

Albatta soliqlar tizimida davlat byudjeti manfaati tadbirkorlar manfaati bilan yaxshi bog`langan xolda bo`lishi yaxshi samara beradi. Buning uchun fiskal siyosat albatta tadbirkorlikni taqdirlash va uning faoliyatini rivojlantirishga qaratilsa kichik biznes moddiy rag`batlantirilgan bo`ladi. Bunda mamlakatlarda o`tkazilgan tijoriy faoliyatni rag`batlantirish bo`yicha davlatning fiskal siyosatning samarali darajasini aniqlash reytingi o`tkazilishi natijasi qiziqarlidir. Bunda eng yuqori ko`rsatkich 9,11-7,08 bo`lib, bu eng tez iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlardan Yangi Zelandiya, Malayziya, Singapur, Gonkongdir. Bundagi o`rtacha ko`rsatkich AQSH, Yaponiya, Shvetsiya, Xitoy kabi mamlakatlar bo`lib, bularda taxminan 6,5-4,6 bo`lgan. Past

ko`rsatkich 4-2 Portugaliya, Ispaniya, Vengriya davlatlariga to`g`ri kelgan. Bu reyting Rossiya fiskal siyosati uchun 0,56 ga teng bo`lgan.

Mayda korxonalar bilan individual tadbirkorlik o`rtasida soliq to`lashda tafovutlar mavjud. Individual tadbirkorlikda daromad solig`i asos bo`lib, bunda yalpi daromad, daromad bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar, yalpi yillik (sof) daromad, soliq olinadigan yalpi milliy daromad kabilar hisoblanishi kerak. Yalpi daromad bilan xarajatlar o`rtasidagi farq miqdori soliq olinadigan yillik yalpi daromad miqdorini tashkil etadi.

Mayda tadbirkorlikni huquqlari bilan birga sub`ektlarning javobgarligi ham mavjud. Javobgarlik qonunlarga rioya qilmaslikdan kelib chiqadi. Asosan soliq, bojxona, jinoiy ekologiya va boshqa shunga o`xshash qonunchilikni buzishdan kelib chiqadi. Bunday xolat har qadamda bo`lishi mumkin. Shuning uchun har qanday tadbirkor o`z faoliyatiga xos qonunlarni yaxshi bilishi kerak. Ma`lumki, qonunlar ijrosi boshqa rasmiy xujjatlarda ifodalaniib, ularning barchasi yaxshi o`rganish va ularni qo`llash yo`llarini puxta bilishni talab etadi. Bunday beparvolik juda qimmatga tushishi mumkin. Imkoni bo`lsa bu sohada yuristlar xizmatidan foydalanish mumkin. Lekin bari-bir mavjud qonun-qoida va tartiblarni belgilovchi xujjatlarni o`rganish juda zarur.

Tadbirkorlikdagi javobgarlik avvalo majburiyatlarda o`z ifodasini topadi. Har bir tadbirkor qonun oldida, shartnomalar bo`yicha javobgarligi mavjud. Belgilangan majburiyatlarni ijro etish javobgarlikdan xoli etadi. Agar bu bajarilmasa albatta javobgarlikka olib keladi. Majburiyatlarni bajarmaslik yoki kerakli darajada ijro etmaslik boshqa tomonga zarar keltirishi yoki jamiyatga ziyon keltirishi mumkin. Har bir majburiyatning miqdori va sifat tomoni, muxlat va xususiy shartlari bo`lib, kelishilgan yoki talab etiladigan darajada ijro etilmasligi ko`ngilsiz voqealar bilan bog`liqdir. Bu albatta jazoga olib keladi. Jazolar esa shartnomalarda, qonun-qoidalarda belgilanadi.

Javobgarlik ijro etish bilan yoki rasmiy bekor qilinishi bilan yakunlanishi mumkin. Javobgarlik bajarilmasa zarar ko`rgan tomon belgilangan vositalar asosida ijro etishni talab etadi. Bu zarar darajasiga qarab ma`muriy, jarima yoki sud asosida

qoplanishi kerak. Sud tomonidan zararni to'la qoplash bilan birga qonun va shartnoma buzuvchiligi uchun muayyan jazo belgilanadi.

Tadbirkorlik faoliyatiga taalluqli majburiyat, javobgarlik bilan bog'langan masalalar xo'jalik sudi, fuqarolik sudi va agar jinoylik mavjud bo'lsa jinoyat sudi tomonidan xal qilinishi kerak.

Javobgarlik ichida davlat byudjeti oldidagi majburiyat aloxida o'rin tutadi. Bu asosan soliq to'lovlari bilan bog'langandir va jamiyat oldidagi majburiyat hisoblanib, hatto bu bankrotlikka olib kelishi mumkin. Chunki barcha asosiy va aylanma mablag'lar davlat ixtiyoriga o'tishi mumkin. Ma'lumki bu to'lov layoqatligini yo'qotish hisoblanadi. Bu tadbirkorlik uchun taqdiriy hukmdir.

Shuningdek, bojxona to'g'risidagi qonunlar oldidagi majburiyatlarni bajarmaslik ham yomon xolatlar bilan bog'langan bo'lib, kechirib bo'lmaydigan buzuvchilik hisoblanadi va oqibati og'ir bo'ladi. Albatta har bir tadbirkor uchun juda muhim talab iste'molchilarga hiyonat qilmaslik va ularning manfaatini doimo ko'zlashdan iborat bo'lishi va ular oldidagi majburiyatni to'la bajarish zarur ekanini esdan chiqarmaslik kerak.

3.6. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sharoitlari

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan mayda biznesga katta e'tibor berilmoqda. Qisqa vaqt ichida bu sohada ko'zga ko'rinarlik ishlar amalga oshirilib, kichik va o'rta korxonalar oilaviy ravishda paydo bo'la boshladi. Kichik va o'rta biznes shaklanishida katta muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Shu kunlarga kelib, mayda va o'rta tadbirkorlikning mahsuloti mamlakat YAIM (yalpi ichki mahsulot)da 1/3 qismiga tenglashdi. Bular barcha iqtisodiy tarmoqlarda shakllana boshladi. Ayniqsa qishloq xo'jaligida katta o'rin egallab, bunda asosan fermer xo'jaliklari avj olmoqda va mamlakat agrobiznesida asosiy o'rin egallamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 aprel №1987 raqamli Farmonida xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish chora-tadbirlariga qaratilgan bo'lib, mayda va o'rta biznes bandlik miqdoriga qarab belgilangan. Bunda mulk shaklidan qat'iy nazar, ishlab chiqarish sohasida yiliga o'rta

hisobda 10 nafargacha, savdo, xizmat ko`rsatish hamda boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 5 nafargacha ish bilan band xodimga ega bo`lgan mikrofirmalar mayda biznesga kiritiladi. Shu bilan birga yiliga o`rtacha ishlab chiqarishda bandlik 40 nafargacha, qurilish, qishloq xo`jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohaslarida 20 nafargacha, ilm-fan, ilmiy xizmat ko`rsatish, chakana savdo hamda boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 10 nafargacha ish bilan band xodimga ega bo`lgan kichik korxonalar ham kiritiladi.

Shu bilan birga yiliga o`rtacha ishlab chiqarishda bandlik 40 nafargacha, qurilish, qishloq xo`jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohaslarida 20 nafargacha ilm-fan, ilmiy xizmat ko`rsatish, chakana savdo hamda boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 10 nafargacha ish bilan band xodimga ega bo`lgan kichik korxonalar ham kiritiladi.

O`rtacha korxonalariga mulk shaklidan qat`iy nazar, kichik korxonalar uchun yiliga belgilangandan ortiq, lekin ishlab chiqarish sohasida 100 nafardan, qurilishda 50 nafardan, qishloq xo`jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohaslarida, ulgurji savdoda 30 nafardan, chakana savdo, xizmat ko`rsatish hamda boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 20 nafardan oshmaydigan ish bilan band xodimga ega bo`lgan korxonalar kiritilgan.

O`rta va kichik korxonalarining asosiy faoliyat yo`nalishlari ham tavsiya etilib, odatda xomashyo va materiallarni dastlabki qayta ishlash, kichik xajmli, lekin ko`p mehnat talab qiladigan butlovchi mahsulotlar, jixoz va asbob-uskunalar, xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`ati buyumlari ishlab chiqarish sohaslarida, shuningdek servis xizmati va aholiga xizmat ko`rsatish sohaslarida barpo etishga e`tibor beriladi.

Mayda biznesga imtiyozlar berilib, bularning ichida eng muhimlari birinchi yillar ichidagi faoliyatda soliqlardan ozod qilish va to`la soliqqa asta-sekin o`tish kabilar, tarmoq va soha ahamiyati, ish sharoitlarini e`tiborga olgan holda tadbiq etiladi. Agar o`zlari tashkil etayotgan ishlab chiqarish uchun xorijiy texnologiyani olib kirsam, bojxona to`lovidan to`la ozod qilinadi.

Kredit bo'yicha bir qancha yengilliklar tug'dirish ko'zda tutilgan. Ishlab chiqarish binolari, inshootlarga ega bo'lish, ijaraga olish sharoitlarini tug'dirish imkoniyatlarini yaratishga e'tibor qaratilgan.

Kichik va o'rta biznesning respublika infratuzilmasi tashkil etilgan. Bu asosan nodavlat tashkilotlardan iborat bo'lib, bularning ichida asosiylari kichik va o'rta tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantiruvchi, Respublika Koordinatsiyalash Kengashi, O'zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, Dehqon va fermer xo'jaliklari assosatsiyasidan iborat.

Respublika koordinatsiyalash Kengashining asosiy vazifalari belgilanib, bunga avvalo mayda va o'rta tadbirkorlikni rag'batlantirish davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlash, mayda biznesni kafolatlash, imtiyozlarini amalga oshirish, kredit resurslaridan foydalanishning ta'minlanishini amalga oshirish; investitsiya loyihalari va takliflarini konkurs asosida tanlash va monitoringini tashkil etish; investitsiya loyiha va takliflarini moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish; kreditlashtirish masalalari muammolarini xal qilish; investitsiyalarning moliyalashga qabul qilinishini hisobga olish tizimini tuzish, ularning bajarilishini nazorat qilish va kredit resurslarining maqsadli foydalanishini, samaradorligini tahlil qilib borish.

Tadbirkor va tovar ishlab chiqaruvchilar Palatasi respublika Koordinatsiyalashtirish Kengashining qarorlarini amalga oshirishni tashkil etish, davlat hokimiyati va organlari oldida kichik va tadbirkorlar manfaatini himoya qilish, davlat registri asosida kichik va o'rta biznes sub'ektlari registrini olib borish kabilarni o'z vazifasi deb belgilaydi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari Assosatsiyasi dehqon va fermer xo'jaliklarini birlashtirgan xolda ularning manfaatlarini davlat va boshqa tashkilotlar oldida ta'minlaydi. Boshqaruv organlari qurultoy tomonidan saylanadi va xisobot beriladi. Shu bilan dehqon, fermer xo'jaliklari ishlab chiqargan mahsulotlarni sotishga yordam qiladi. Kreditlar olish, yangi jixozlar bilan ta'minlash kabilarda maslahat va uslubiy yordam ko'rsatishni amalga oshiradi.

Mayda va o'rta biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlash sohasida davlat va nodavlat tashkilotlarning vazifalari, majburiyatlari aniqlangan bo'lib, bu sohaning

rivojlanishi sharoitlari ta'minlangan. Ayniqsa mayda tadbirkorlikning muvaffaqiyatli faoliyati uchun ularda tekshirishlar o'tkazish chegaralangan bo'lib, norasmiy va nozarur taftish o'tkazishlar ta'qiqlangan. Bu sohada o'rnatilgan nazorat ham tizimli va samaralidir.

Xulosa qilib aytganda, xususiy korxonalarda tadbirkorlikdagi chegaralanish deyarli yo`q. Ularda to`la iqtisodiy harakat sharoitlari hukmronlik qiladi, tashabbuskorlik, xatarlilik cheklanmaydi. Korxonadagi sarmoyaning batamom tadbirkor ihtiyorida bo`lishi to`la erkinlik imkonini tug`diradi. Shunga qarab tadbirkorlikning ikki xilini e'tiborga olish mumkin: cheklangan va cheklanmagan (suveren) tadbirkorlik. Birinchisi, yollanma boshqaruvchilik, ya'ni davlat va korporatsiyadagi boshqaruv faoliyatiga taalluqli bo`lsa, ikkinchisi, xususiy korxonalar, xususiy mulk sharoiti hukmronligi asosidagi tadbirkorlikka taalluqlidir. Bular bir-biridan mustaqil ish yuritish darajasi bilan farqlanadilar.

Tadbirkorlikda asosiy yo`nalishni belgilab olishda yordam beruvchi, biznes-rejaning muvaffaqiyatli bajarilishi nazorat tizimini yaratish va ish jarayonida unga o`z vaqtida tuzatishlar kiritib borish imkonini beradi. Biznes-rejaning bajarilishi kuzatish uchun yil oxirini kutib o'tirishning xojati yo`q. Buning uchun ish boshlanishi bilan nazoratni ham boshlash kerak. Bu nazorat nuqtalarini belgilashdan boshlanadi. Aytaylik, daromad va xarajat muvozanati, naqd pul xolati, ombordagi zahiralar darajasi, mahsulot sifati, ishlab chiqarish rejasi kabilar kamida har oyda kuzatiladi. Nazorat tizimi juda oddiy bo`lishi, yechimlarni belgilovchilarning o`z vaqtida xabardorligi joyida chora ko`rishni ta'minlashga yordam beradi.

Tadbirkor uchun yana bir muhim omillardan biri sarmoyadir, ya'ni u sarmoyador bo`lmasa o`zi mustaqil ish tashkil eta olmaydi. Sarmoyasiz ish yurituvchi har qanday sharoitda ham qaram va ijrochi, yarim mustaqil bo`lib qoladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo`llab-quvvatlash sohasida davlat va nodavlat tashkilotlarning vazifalari, majburiyatlari aniqlangan bo`lib, bu sohaning rivojlanishi sharoitlari ta'minlangan. Ayniqsa mayda tadbirkorlikning muvaffaqiyatli faoliyati uchun ularda tekshirishlar o'tkazish

chegaralangan bo`lib, norasmiy va nozarur taftish o`tkazishlar ta'qiqlangan. Bu sohada o`rnatilgan nazorat ham tizimli va samaralidir.

Takrorlash uchun savollar

1. Tadbirkor tushunchasi nima?
2. Tadbirkorning asosiy xususiyatlarini tushuntirib bering.
3. Nima uchun tadbirkorga qonuniy ustuvorlik kerak?
4. Tadbirkor shaxsini qanday tasavvur etasiz? Sizningcha tadbirkor qanday bo`lishi kerak va kim tadbirkor bo`la oladi?
5. Tadbirkor va menejerning qanday o`xshashlik va alohidalik xususiyatlari bor? Buni misollar bilan tushuntirib bering.
6. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qanday tushunasiz?
7. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bozor iqtisodiyotida o`rni nimalar bilan belgilanadi?
8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qaysi mulk shakli asosida shakllanishi mumkin?
9. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning O`zbekistonda shakllanishining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka mamlakatimizda yaratilayotgan sharoitlar xaqida nialarni bilasiz?


4-BOB. BOZOR IQTISODIYOTINING MILLIY MODELLARI

4.1. Milliy model mohiyati

Bozor munosabatlariga o'tish va bozor iqtisodiyotining shakllanishida mamlakatlar uchun umumiylik mavjud, ya'ni bu jarayonning barcha davlatlar uchun umumiy hisoblangan qonun, qonuniylik, iqtisodiy voqeliklari bo'lib, ular zaruriy kuchga egadir. Biz yuqoridagi mavzularda ularning asosiylarini ko'rib chiqdik. Mulk shakllari turlicha, xo'jalik yuritishning erkinligi, talab va taklifning shakllanishi, raqobat sharoiti, baho erkinligi va bozor baho muvozanati, davlat iqtisodiyoti mavjudligi bilan aralash iqtisodiyot barqarorligi kabilar mamlakatlar sharoitlari, ulardagi mavjud xususiyatlardan qat'iy nazar bozor iqtisodiyoti uchun zarur shartdirki, bularsiz bozorni umuman tasavvur etib bo'lmaydi.

4.1.1.- chizma

Taraqqiyotning "o'zbek modeli"



bozorga o'tishdagi va uni rivojlantirishdagi tajribalaridan foydalanishdir. Chunki hech bir mamlakat alohida holda, boshqalardan ajralgan tarzda bu jarayonni amalga oshira olmaydi. Mavjud tajribalardan foydalanish va imkoniy yordamlarni qabul qilish bozor taraqqiyotini tezlashtiradi va bu boradagi faoliyat samaradorligini oshiradi.

Shuning uchun ham bu sohada, avvalo bozor iqtisodi asoslarini bilish, uning umumiy xususiyatlarini anglash talab qilinadi. Zero, aniq tushunchaga ega bo'lmagan, bozor iqtisodiyoti umumiy qonuniyatlarini, jarayonini bilmasdan, mamlakatlarning tajribalarini e'tiborga olmasdan turib bozorga o'tishda katta muvaffiqiyatlarga erishib bo'lmaydi.


Bundan tashqari bozor iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi, hatto uning barcha tomonlarini aniqlaydigan xususiyliklar mavjud. Bu, avvalo hududiy belgilar, tabiiy holat bo'lsa, yana taraqqiyot darajasi, iqtisodiy ahvol, mavjud urf-odat, milliy va diniy hodisa hamda omillar hamdir. Bu tomonlar hech bir mamlakatda boshqalariga o'xshagan bir xil bo'lishi mumkin emas. Bular va shularga o'xshash xususiyat, omillarni hisobga olmasdan va ularga asoslanmasdan bozor iqtisodiyotiga o'tish, yumshoqroq qilib aytganda xayoliy urinishdir. Chunki umumiylik, ya'ni bozor tomon bo'lgan harakat xususiylikdan boshlanadi yoki mavjud alohida har bir mamlakat uchun xos bo'lgan xususiyatlarni e'tiborga olgan holda boshlanadi.

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi shu ikki asos bo'yicha: umumiylik, ya'ni umuman bozor iqtisodiga xos qonun hodisalar va xususiylik, ya'ni har bir mamlakatga xos xususiyatlar bo'yicha amalga oshadi. Buning boshqacha yo'li bo'lishi mumkin emas. Shu ikki tomonni e'tiborga olgan holda bir butun harakat dasturi yaratiladi. Natijada bozor munosabatlariga o'tishning yo'li belgilanadi. Shuning uchun ham har bir mamlakatning o'ziga xos bozorga o'tish yo'li mavjud deyiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning yo'li har bir mamlakat uchun o'zining milliy modelini yuzaga keltiradi va shu model umumiylik va xususiylik, shu bilan birga foydalanish kerak deb ma'qul topilgan mamlakatlar tajribalaridan tarkib topib, u harakat dasturi bo'lib hisoblanadi.

4.1.2.-chizma

Bozor iqtisodiyotiga o'tish asoslari



Har bir mamlakatning bozor munosabatlari tizimini yaratish dasturi bo'lar ekan, u milliy bozor modelida o'z aksini topadi. Chizmadagi uch asosiy qismdan iborat milliy model barcha mamlakatlar uchun xos bo'lib, o'z ichiga bozor iqtisodiga o'tishning zarur tomonlarini oladi. Agar umumiy qonun, qonuniyat va iqtisodiy voqeliklarni umumiylikka kiritsak, har bir mamlakat uchun xos mavjud sharoitlarni xususiylik deb olsak, jahon bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti tajribalari yordamlarini hamkorlik deb umumlashtirish mumkin.

Masalan, O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi islohot va dasturlarning asosiy mazmunini olsak, albatta ular shu qismlardan tarkib topadi, unda umumiy qonuniyatlarni va jahon tajribasi O'zbekiston sharoiti asosida amalda qo'llanilishi mumkin. Jahon tajribasi o'zaro yordam va hamkorlikni ham o'z ichiga oladi.

Bunda yana bir narsaga e'tibor berish kerak bo'ladi. U ham bo'lsa, shuki, balki eng so'nggi bozor samaralari asosida yuzaga kelishi kerak. Chunki bir vaqtlari mavjud bo'lgan bozor bilan hozirgi bozorlarning farqi juda katta. Hozirgi davr rivojlangan bozor iqtisodiyoti ancha tartibli, yuqori samarali, uyushgan darajada bo'lib, qadimgi bozordagi ko'p salbiy tomonlarning oldi olingan va katta tajribalar natijasida bozor iqtisodiyoti rivojlanib borganidir. Shuning uchun milliy model inson qo'lga kiritgan bozor iqtisodiyoti rivojining eng ma'qul usullarini qo'llash va bunday iqtisodiy tizim o'zgarishida kam talofot ko'rish, imkoni boricha qisqa vaqt ichida amalga oshirish yo'llari asosida shakllanishi kerak. Bozorga o'tishda bu sohada salbiy tomonlarni, og'ir oqibatlarini chetlab o'tish, uni qaytarmaslik yo'llarini qo'llashda bor tajribalardan unumli foydalaniladi.

4.1.1.-jadval

XVIII-XIX asrlar va hozirgi davr bozorini taqqoslash

XVIII-XIX asrlardagi bozor iqtisodiyoti belgilari	Hozirgi davr bozor iqtisodiyoti belgilari
1.Stixiyali yovvoyi raqobat	Sivilizatsiyalashgan raqobat
2.Xususiylar, asosan mayda xo'jaliklar	Yirik xo'jaliklar, korporatsiyalar
3.Sof bozor iqtisodiyoti	Aralash iqtisodiyot
4.Stixiyali bozor iqtisodiyoti	Tartibga solinayotgan bozor iqtisodiyoti

Jadvaldagi taqqoslashlar eski va hozirgi bozor iqtisodiyotining farqlarini ko'rsatishi mumkin. Agar bozor iqtisodiyoti boshlang'ich davrlariga uning salbiy tomonlari ko'proq ta'sir etsa, hozirgi davrda uning har tomonlama yuqori darajada uivilizatsiyalashgani va jamiyat bozor taraqqiyoti jarayonida o'tgan davr ichida uning bir qancha salbiy tomonlarining oldi olinganligi va ijobiy tomonlari boyitilganligini farqlay olish mumkin.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotini shakllantirish modeli uch narsaga asoslangandir: 1) umumiylik – bozor iqtisodiyotining umumiy qonun, jarayon, voqealari; 2) xususiylik – bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi O'zbekistonda mavjud sharoitlar, ya'ni tabiiy, milliy, iqtisodiy, geografik va madaniy xususiyatlar kabilar; 3) mavjud jahon mamlakatlari bozor tajribasi, undagi hamkorlik.

4.1.2.-jadval

O'zbekistonning milliy bozor modeli

Umumiylik	Xususiylik	Xalqaro tajriba, hamkorlik
1) Bozor iqtisodiyoti qonunlari	1) Iqtisodiyot darajasi va xalq xo'jalik tuzilmasi	1) Jahon bozor huquqiy asoslari
2) Ijtimoiy muhofaza	2) Geografik holat	2) Bozor taraqqiyoti usullari
3) Bozorga xos umumiy boshqa voqealari	3) Tabiiy boyliklar	3) Umumiy hamkorlik
4) Bozor shakllanishining umumiy amaliy qoidalari	4) Madaniy, ilmiy daraja	4) Iqtisodiy yordam
	5) Milliy xususiyatlar	

O'zbekiston milliy bozor modeli asoslari, jadvalda ko'rsatilganidek, milliy model bozor iqtisodiyoti shakllanishi uchun zarur asos va tomonlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, ularning birgalikdagi amaliyoti o'zining katta samarasini bermoqda.

O'zbekiston bozor iqtisodiyoti yo'lini uzil-kesil tanlaganligini ta'kidlar ekanmiz, milliy mustaqillik avvalo mustaqil, rivojlangan iqtisodiyotga asoslangan bo'lishi, bu esa sovet imperiyasi davridagi iqtisodiyotni tubdan o'zgartirish, uning o'rniga har tomonlama rivojlangan va xalq faromonligini ta'minlay oladigan iqtisodiyotni paydo qilishni, hozirgi uivilizatsiyali jamiyatga xos bozor iqtisodiyoti barpo etishda boshqacha yo'li yo'q ekanligini tan olmog'imiz zarur.


Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tishning konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosini bozor iqtisodiyotini shakllantirishning milliy modeli tashkil etadi. Bu milliy model bir qancha amaliy dasturlarni o'z ichiga oladi. Bularning eng asosiylari: xususiy, korxonalarni kengaytirish, mulkni keng xajmda xususiylashtirish, tadbirkorlikni avj oldirish, mayda ishlab chiqarishni rivojlantirish, qo'shma korxonalarni ko'paytirish, jahon iqtisodiyotiga qo'shilib borish, erkin baholarni joriy etish, yangi moliya-kredit tizimini yaratish, bozorga xos pul muomalasini paydo qilish va umuman, iqtisodiy raqobat ta'sirini kengaytirish sharoitlarini yaratib borishdan iborat.

O'zbekistonning kelajagi iqtisodiyoti rivojlangan, aholisi farovon, haqiqiy demokratiyaga asoslangan jamiyatni barpo etish ekan, demak, buning asosiy sharti bozor munosabatlari asosidagi iqtisodiyotni qurishdir. Bu O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasining tub mazmunini anglatadi. Bu konsepsiya iqtisodiy qoloqlikdan qutilish, uning o'rniga rivojlangan va respublika xalqi manfaatiga bo'ysungan iqtisodiyotni qurish uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish zaruriyatiga asoslanadi.

O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li mavjud ekan, uning asosida bozor iqtisodiyoti konsepsiyasi va milliy modeli yotadi. Prezident I.A. Karimov "Respublikaning bozor munosabatlariga o'tishida o'z yo'lida izchillik bilan borishi demokratik o'zgarishlar, respublikani rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqish, uni xalqaro obro'-e'tiborini mustahkamlash uchun puxta moddiy negiz yaratadi", deb ta'kidlaydi.

4.1.3.- chizma

Milliy taraqqiyotning birinchi davrida erishilgan natijalar



O`zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o`tishdagi o`z yo`li, o`z milliy modeli mavjud, degan so`z respublikaning o`z maxsus bozor iqtisodiy qonunlari, ya`ni milliy iqtisodiy qonunlar bor, degan xulosa emas. Bu, biz yuqorida ko`rib o`tgan umumiylik, xususiylik va mamlakatlar tajribalari birligidir va shu bilan birga hamkorlikda, birgalikda amalga oshiriladigan vazifalar, degan ma`noni bildiradi.

O`zbekiston milliy modeli bozor iqtisodiyotini izchillik bilan tiklab borish, unga bosqichma-bosqich va sharoitlar yaratilishi bilan asta-sekin o`tish, aholini ijtimoiy himoyalashni keng qo`llagan holda ijtimoiy barqarorlikni ta`minlab borish yo`li bilan o`tishni taqozo etadi. Milliy modelda o`z aksini topgan O`zbekistonning bozorga o`tishdagi o`z yo`li bozor iqtisodiyoti shakllanishi uchun uch tomonni, ya`ni ichki va tashqi sharoitlarni yaratish, bozor iqtisodiyoti maqsadlariga erishish va umuman, bu jarayonlar shakllarini yaratish kabilarni o`z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyotiga o`tishdagi milliy modelning amaldagi harakati real sharoitga asoslangan holda, mavjud va ro`y berishi mumkin bo`lgan barcha iqtisodiy hodisalarni e`tiborga olgan tarzda bo`lishi, juda ehtiyotkorlik, hamkorlik va tadbirkorlik asosida bo`lishini talab qiladi.

Bozor iqtisodiyoti shakllanishining *ichki sharoitlari* deganimizda, avvalo mulkni xususiyashtirish, davlat monopoliyasining oldini olish, xususiy mulkning turli shakllarini yaratish, shuningdek, ishbilarmonlikni rivojlantirish, barcha mulk shakllari tengligini ta`minlash, xalq xo`jaligi va ishlab chiqarishning zamonaviy samarali tuzulishini yaratish va bular asosida xalq farovonligi hamda istiqbol ishonchini yaratish, aholining ijtimoiy himoyalaniishi kabilarni tushunamiz.

Bu jarayonning *tashqi sharoitlari* deganimizda jahon iqtisodiyotiga qo`shila borish usullarini qo`llash, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol qatnasha borish, jahon mehnat taqsimotida o`z o`rnini yarata borish, jahon bozorida kengroq ishtirok etish yo`l va usullarini qo`llab borish kabilarni tushunamiz.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish shakllarini yaratib borish deganimizda iqtisodiy erkin faoliyat, bozor ishtirokchilarining erkin raqobatlashuvi, xo`jaliklarning turliligi, ijtimoiy hamkorlik munosabatlarini o`rnatish kabi iqtisodiy voqeliklarga o`tish o`zining shakllarini talab etib, bular mavjud sharoitlariga qarab paydo bo`lishi,

o`zgarishi va takomillashuvini tushunish kerak. Masalan, xo`jalik yuritish shakllarining turlicligi, mulk shakllari tengligi va raqobat rivoji bizning sharoitimizda, birinchi navbatda, davlat mulk monopoliyasiga barham berish va uning xususiylashtirish shakllariga bog`liq. Bu hech qachon bir xil bo`lmaydi va oldindan ma`lum andoza bo`yicha ro`y bermaydi. Bu jarayon davlat mulkini tekinga berish, imtiyozli bahoda berish, kim oshdi savdosi asosida xususiylashtirish kabilari bilan bir qatorda ijara, oilaviy pudrat, hissadorlik kabi shakllarni yuzaga keltirmoqda va buni belgilaydigan ko`p miqdordagi omillar e`tiborga olinmoqda. Zero, bozorning turli tomonlariga taalluqli jarayonga xos shakllarni e`tiborga olish, ulardan o`z joyida va vaqtida iqtisodiy sharoitga mos holda foydalanish va ularni takomillashtirish bozor iqtisodi shakllanishini tezlashtiradi.

O`zbekiston milliy modelidagi muhim tomonlardan yana biri shuki, bozor iqtisodiga o`tish silliq, osonlik bilan ro`y beradi deb hisoblamay, bu og`ir, mashaqqatli va ma`lum iqtisodiy buzilish, beqarorlik kabi salbiy hodisalar bo`lib turishi, e`tibor susayganda bunday salbiy oqibatlarining chuqurlashuvi ro`y berishi mumkin. Chunki bu bir iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o`tishdan iborat bo`lib, ko`pchilik iqtisodiy voqelik bir-biriga qarshidir. Bunday o`zgarish milliy modelning har tomonlama mukammal bo`lishi va umumiylik, xususiylilik hamda jahon tajribasini o`z sharoitlarini to`la hisobga olib qo`llash kabilarni o`z ichiga olishni talab qiladi.

4.2. Iqtisodiyotning barqarorlashuvi zaruriyati

O`zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishida katta ta`sir ko`rsatadigan o`ziga xos xususiyatlar borki, bular mavjud iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqadi. Ma`lumki, bularni e`tiborga olmay, bu sohada kutilgan natijaga erishib bo`lmaydi. Iqtisodiy vaziyat bozor munosabatlariga o`tishni milliy iqtisodiyotning shakllanishi, industrilashtirishni tezlashtirib, me`yorga yetkazish bilan birgalikda amalga oshirib borishni talab etadi. Avvalo shuni ta`kidlash kerakki, bular bir vaqtda yuz beradigan hodisalar bo`lib, ularni bir-biridan ajratib bo`lmaydi. Ular ayni bir vaqtdagi harakatdan iborat. Uchchovi ham juda ahamiyatli va respublika taqdirini belgilovchi


ijtimoiy-iqtisodiy asoslardir. Bularni o'z ahamiyati, asosi va harakat xususiyatlari bo'yicha uch iqtisodiy jarayon birligi (uch birlik) deb atash to'g'ri bo'ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotning tub mazmuni milliy iqtisodiyotni yuzaga keltirish, uni shakllantirishdan iboratdir. Chunki mamlakat busiz o'z suverenlik mazmunini yo'qotadi. Mustaqil iqtisodiyotsiz siyosiy mustaqillik e'tiborsiz bo'lib, jamiyat tuzumlari xalq manfaatiga to'la xizmat qila olmaydi, avvalo tub mazmuni bilan iqtisodiyotdan respublika manfaati uchun samarali foydalanib bo'lmaydi. Milliy iqtisodiyotni shakllantirish uning barqarorligini ta'minlashdan boshlanadi. Sobiq mavjud yagona xalq xo'jaligi kompleksi buzilishi bilan iqtisodiy aloqalar barbod bo'ldi, ular uzilib ketdiki, busiz xalq xo'jaligi harakati normal davom eta olmaydi va mavjud inqiroz holati yuz beradi. Barqarorlashtirish iqtisodiy aloqalarni tiklashga harakat qilish va yangilarini yuzaga keltirishni talab qiladiki, bu barcha tarmoq, korxonalar, xo'jaliklar va ishlab chiqarish, ijtimoiy infrastrukturaga taalluqidir.

Iqtisodiy aloqalarni tiklash va yangilarini yuzaga keltirish xalq xo'jaligini tiklash va rivojlanish asosi bo'lib, u o'z ichiga ichki va tashqi aloqalarni oladi.

Mustaqil iqtisodiyot dalatning o'z moliya-kredit, pul tizimlarini talab qiladi. U, avvalo mamlakatning manfaatidan kelib chiqsa, so'ngra tashkil topish zarur bo'lgan bozor iqtisodiyoti manfaatidan kelib chiqadi. Bunda milliy pulni joriy qilish, yangi banklar tizimi, ayniqsa keng tarmoqli tijorat banklarini tuzish zaruriydir.

4.2.1.-chizma Respublikada mustaqil taraqqiyot davrida erishilgan



Milliy manfaat, yangi ijtimoiy-iqtisodiy holatni e'tiborga olgan holda yangicha taqsimot munosabatlarini kiritish, uning amaliy shakllarini qo'llash zaruriyati tug'iladi. Birinchi navbatda, bunda ijtimoiy himoya e'tiborga olinib, daromad manbai bo'lmagan yoki past bo'lgan, yordamga muhtojlarni qo'llash ahamiyatlidir.

Bulardan tashqari respublika xalq xo'jaligi tuzilishini o'zgartirish talab qilinadiki, u mustaqil milliy iqtisodiyot talabiga mos kelishi kerak. Uni xomashyo yo'nalishidan ozod qilib yuqori darajali ishlab chiqarishga va tayyor mahsulotlar yaratuvchi ishlab chiqarishga aylantirish maqsadga muvofiqdir.

4.2.1.-jadval

O'zbekiston xalq xo'jaligi tuzilishi

Tarmoqlar	1990 yil	1993 yil	1996 yil
Sanoat	22,8	28,9	25,8
Qurilish	10,6	11,7	10,8
Qishloq xo'jaligi	33,3	30,8	32,54
Xizmat ko'rsatish	34,4	31,3	31,0

Jadvalda keltirilgan raqamlardan ko'rish mumkinki, qishloq xo'jaligi tarmoqlari juda katta o'rin egallaydi. Sanoat va qurilish rivoz topgan mamlakatlarga taqqoslaganda nisbatan juda orqada.

Endigi dastlabki vazifa, inqiroz tarzida yuzaga kelgan shaxsiy iste'mol bozori muammosidir. Bunda, avvalo oziq-ovqatlar ishlab chiqarishni izga solib, bevosita og'ir ahvolning oldini olish shu bilan birga eng zarur nooziq-ovqat mollari yetishtirishni hal qilishdir. Bu sohada mamlaktimizda avj olayotgan mayda korxonalar juda qo'l keladi. Bularning afzalliklari shuki, katta kapital xarajatlarni talab qilmaydi. Bu sohada birinchi navbatda mayda korxonalar, ayniqsa qishloq xo'jalik mahsulotlariga birlamchi ishlov beruvchi tarmoqlarning yuzaga kelishi ayni muddaodir. Bular fermer xo'jaliklari, ijara asosidagi oilaviy pudrat, kasanachiliklar kabilardir.

Shu bilan birga katta-katta inshootlar ham yuzaga kelmoqdaki, bular respublikamiz manfaatiga bo'sundirilayotgan yangi ishlab chiqarish tuzilishini yaratishda katta ishlar boshlanganidan dalolat beradi. Chunonchi, avtomobil sanoati,

metallurgiya tarmog`i, farmokologiya, energetika va boshqalarni bunga misol qilsak bo`ladi.

Milliy iqtisodiyotning shakllanishida jahon mehnat taqsimotida respublikaning o`z o`rnini topishi va xalqaro xo`jaligi integratsiyasiga tezroq qo`shila borishi katta ahamiyat kasb etadi. Bu albatta yangi ishlab chiqarish tuzilishiga bog`liqdir.

Milliy iqtisodiyot yangicha infrastrukturani shakllantirishni talab etib, bu ham ishlab chiqarish infrastrukturaga, ham ijtimoiy infrastrukturaga taalluqlidir.

4.3. Industrlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o`tish

Uch birlikning ikkinchi tarkibiy qismi industrlashtirish bo`lib, bu sohada sobiq sovet davrida, ayniqsa, uning 1920-1930 yillarda olib borilgan industrlashtirish siyosati tufayli bir qator ishlar qilindi va sanoat tarmoqlari vujudga kelib, respublikada ham o`ziga xos industriya yaratildi. Lekin bu industriyani miqdor va sifat, umuman mohiyati nuqtai nazaridan haqiqiy industrlashtirishdan farqlash kerak. Chunki o`sha davrdagi industrlashtirish sobiq sovet davlati manfaatiga qaratilgan edi. U respublika iqtisodiyoti manfaatiga mos kelmay, xalq iste`moli sanoati juda zaif holda bo`lgan edi. Bundan tashqari yirik korxonalar asos bo`lib, mayda ishlab chiqarish industriyasi deyarli yaratilmagandi.

Xalq xo`jaligining ko`pchilik tarmoqlarida asosan qo`l mehnati hukmronlik qiladi. Bu, avvalo qishloq xo`jaligi, qurilish kabi tarmoqlarga taalluqlidir. Aytaylik, eng og`ir ishlardan bo`lgan yuklash va yuk tushirish asosan qo`lda bajariladi. Bog`dorchilik, sabzavot, polizchilikda deyarli texnika qo`llanilmaydi. Savdoda mexanizatsiyalash hatto 10 foizga ham yetmaydi. Fermer xo`jaliklari, ijara va oila pudrati xo`jaliklari uchun texnikaviy qurollar yaratilmagan, yordamchi xo`jaliklarni butunlay tilga olmasa ham bo`ladi.

Hisoblash, axborot, asbobsozlik tarmoqlari ham boshlang`ich darajada bo`lib, tibbiyot, maorif, ilmiy-tadqiqot kabilarning texnik ta`minot holati juda past darajada bo`lgan.

Milliy iqtisodiyotning shakllanishi va industrilashtirish, albatta bozorga moslashgan holda amalga oshishi zarur. Masalan, yangi iqtisodiy aloqalarni yuzaga keltirish, xalq xo'jalik tuzumini, ayniqsa ishlab chiqarish tuzumini yangilash bozor talabi asosida olib borilmoqda. Xomashyo yo'nalishini o'zgartirish zarur ekan, avvalo u bozor talabi asosida, eng zarur xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishning ustunligi, bundagi yo'q bo'lgan tarmoqlarni tashkil etib, uni rivojlantirishdan boshlanadi. Paxta kompleksida tayyor kiyimlargacha bo'lgan kompleks ishlab chiqarishning tashkil etilishi va buning jamoa xo'jaliklarining o'zlarida amalga oshirilib, bunda chet kapitali bilan qo'shma korxonalar tashkil etilayotgan maqsadga muvofiqdir.

Oziq-ovqat, yengil sanoatda, qurilish materiallari va xo'jalik mollari ishlab chiqarilishida xalq talabidan kelib chiqadigan bozorgir yangi mollarning paydo bo'lishi amaliy misollardir. Mamlakatimiz ishlab chiqarishi uchun, yangi bo'lgan avtomobilsozlik tarmog'ining yaratilishi juda quvonchli hol. Chunki bunga bozor talabi juda yuqori. Shuningdek, televizorlar, kompyuterlar, elektron apparatlar ishlab chiqarish yuzaga kelmoqda. Xalqaro bozorga kirib borish, mustaqil ravishda eksport va importni amalga oshirish va bunda samaradorlikka erisha borish bozor shakllanishidagi muhim bosqichlardir. Oz vaqt o'tishiga qaramasdan bu sohadagi AQSH, Yaponiya, Turkiya, Germaniya, Angliya, Janubiy Korea, Xitoy kabi mamlakatlar bilan kengayib borayotgan iqtisodiy aloqalar, chet mamlakatlar investitsiyasining kengayib borishi buning yaqqol misolidir. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikning kuchayishi va jahon iqtisodiy integratsiyalashuvi, birinchi navbatda, dunyo bozoriga qo'shilish va umuman, bozor munosabatlarining keng harakatiga yo'l ochishni talab qiladi.

Bozor uchun zarur shart bo'lgan mulk shakllari paydo bo'lmoqda. Bunda davlat mulki tasarrufidan chiqarishni tezlashtirish, mulk xususiylashuvini avj oldirish juda muhimdir. Mamlakatimizda fermer xo'jaliklarini tashkil etish, haqiqiy dehqon xo'jaliklarini tiklash, ijara, oila pudrati kabi xo'jalik turlarini rivojlantirish tezlashmoqda. Demak, bozor munosabatlari asosi bo'lgan mulk shakllari va turlari, xo'jalik xillarining paydo bo'lishi, albatta, amalga oshayotgan iqtisodiy islohotning

ta'sirini kuchaytirmoqda, bularning barchasi bozor iqtisodiyoti shakllanishining odim qadamlaridir.

Shuningdek, hissadorlik jamiyatlari, birlashmalar, konsern, kooperativlar, shirkatlarning ko'payishiga keng yo'l ochilmoqda, bularning barcha bozor munosabatlari uchun zarur bo'lgan iqtisodiy harakat maydonini kengaytirmoqda.

Shu bilan birga bozorga o'tish bilan bog'liq bo'lgan baho siyosati amalga oshirilib, asosan erkin baho siyosati yuzaga keltirildi. Chunki tovarlarni sotishning chakana narxlari talab va taklif asosida erkin shakllanmoqda. Mehnat bozori, qimmatbaho qog'ozlar bozorlari asta-sekin shakllanmoqda, ko'chmas mulklar oldi-sotdisi boshlangan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi muhim sohalardan hisoblangan moliya-kredit va pul tizimlarining yangilashishi, milliy lashishi bozor mazmunida bo'lishi sohasida katta ishlar, keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Chunonchi, juda qisqa vaqt ichida haqiqiy milliy pulga ega bo'ldik.

Bozor infrastrukturasi yaratishda odim qadamlar ham sezilarlidir. Bunga kompyuterlarning dadil kirib kelishi, aloqa vositalari, axborot tizimi, tovarlar siljishi va ularning tez harakati sharoiti, yirik oldi-sotdi hisob-kitoblarini amalga oshirish asoslari kabi tarmoqlar yuzaga kelmoqda va bozor sharoitlarini kengaytirmoqda.

Respublikamizda iqtisodiy faoliyat har tomonlama bozorning shakllanishiga qaratilmoqda. Bunga faqat biz milliy iqtisodiyot shakllanishi va industrilashtirishning bozorga mos holda amalga oshishi bilan chegaralanmasdan, balki maxsus bozorga xos jarayonlarning amalga oshuvi va bozor munosabatlariga o'tish, bozor iqtisodiyoti shakllanishining tezlashuvini ko'ramiz.

Bu narsa hozirgi mamlakatimizdagi jarayon faqat bozor munosabatlariga o'tish bilan chegaralanadi, degan so'z emas, vaholanki bozor yo'nalishi asosiy yo'nalish ekanligini e'tirof etgan holda iqtisodiy holatning uch birlik jarayonidan iborat ekanligini inkor etib bo'lmaydi, chunki iqtisodiy islohotning mazmuni shu bilan belgilanib, uning mohiyatini ko'rsata olishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O`zbekiston milliy modelida bozor iqtisodiga o`tish silliq, osonlik bilan ro`y beradi deb hisoblamay, bu og`ir, mashaqqatli va ma`lum iqtisodiy buzilish, beqarorlik kabi salbiy hodisalar bo`lib turishi, e`tibor susayganda bunday salbiy oqibatlarining chuqurlashuvi ro`y berishi mumkinligi e`tirof e`tiladi. Chunki bu bir iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o`tishdan iborat bo`lib, ko`pchilik iqtisodiy voqelik bir-biriga qarshidir. Bunday o`zgarish milliy modelning har tomonlama mukammal bo`lishi va umumiylik, xususiylik hamda jahon tajribasini o`z sharoitlarini to`la hisobga olib qo`llash kabilarni o`z ichiga olishni talab qiladi.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotining shakllanishida katta ta`sir ko`rsatadigan o`ziga xos xususiyatlar borki, bular mavjud iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqadi. Ma`lumki, bularni e`tiborga olmay, bu sohada kutilgan natijaga erishib bo`lmaydi. Iqtisodiy vaziyat bozor munosabatlariga o`tishni milliy iqtisodiyotning shakllanishi, industrlashtirishni tezlashtirib, me`yorga yetkazish bilan birgalikda amalga oshirib borishni talab etadi. Avvalo shuni ta`kidlash kerakki, bular bir vaqtda yuz beradigan hodisalar bo`lib, ularni bir-biridan ajratib bo`lmaydi. Ular ayni bir vaqtdagi harakatdan iborat. Uchchovi ham juda ahamiyatli va respublika taqdirini belgilovchi ijtimoiy-iqtisodiy asoslardir. Bularni o`z ahamiyati, asosi va harakat xususiyatlari bo`yicha uch iqtisodiy jarayon birligi (uch birlik) deb atash to`g`ri bo`ladi.

Respublikada iqtisodiy faoliyat har tomonlama bozorning shakllanishiga qaratilmoqda. Bunga faqat biz milliy iqtisodiyot shakllanishi va industrlashtirishning bozorga mos holda amalga oshishi bilan chegaralanmasdan, balki maxsus bozorga xos jarayonlarning amalga oshuvi va bozor munosabatlariga o`tish, bozor iqtisodiyoti shakllanishining tezlashuvini ko`ramiz.

Bu narsa hozirgi mamlakatimizdagi jarayon faqat bozor munosabatlariga o`tish bilan chegaralanadi, degan so`z emas, vaholanki bozor yo`nalishi asosiy yo`nalish ekanligini e`tirof etgan holda iqtisodiy holatning uch birlik jarayonidan iborat ekanligini inkor etib bo`lmaydi, chunki iqtisodiy islohotning mazmuni shu bilan belgilanib, uning mohiyatini ko`rsata olishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar

1. Milliy model nima va uning bozor iqtisodiyotiga o`tishdagi o`rni nimada?
2. O`zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishidagi modelni atroflicha va misollar bilan boshqar mamlakatlar tajribalari bilan tushuntirib bering.
3. O`zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o`tish konsepsiyasi deganda nimani tushunasiz?
4. O`zbekistondagi mavjud uch birlikdan iborat iqtisodiy voqelikning qanday tushunasiz, uning mohiyati nimada?
5. O`zbekiston iqtisodiyotidagi barqarorlikni ta'minlash va uning bozor iqtisodiyotining shakllanishi bilan birgalikda amalga oshuvini tushuntiring.
6. Nima uchun iqtisodiyotni barqarorlashtirish va industrlashtirish jarayonlari bozor iqtisodiyotining shakllanishi bilan bog`liq holda amalga oshishi kerak?
7. Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishida umumiy qonun va jarayonlar xaqida nimalarni bilasiz?
8. Mamlakat rivojida "o`zbek modeli" ning tutgan o`rni nimalardan iborat?
9. "O`zbek modeli"ning asosi qanday xususiyatlarga bog`liq?
10. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nima?

5-BOB. AQSH NING BOZOR IQTISODIYOTI TAJRIBASI

5.1. AQSHning jahon bozor iqtisodiyotidagi yetakchi o`rni va buni belgilovchi asosiy ko`rsatkichlar

AQSH jahonda eng katta mamlakatlar qatoriga kiradi. Mamlakat maydoni 9,7 mln km² ni tashkil etib, maydoni jixatdan dunyoda to`rtinchi o`rinni egallaydi. Xalqi 270 mln. kishini tashkil etadi. yetishtiriladigan mahsulot bo`yicha bunga teng keladigani yo`q. Yillik ichki mahsulot xajmi 8 trln. dollarni tashkil etib, eng bunga yaqin mamlakatlardan bir necha marotaba ko`pdir. Chunki jahon ichki mahsulot xajmining 21 foizini tashkil etadi. Aholi jon boshiga hisoblaganda 30 ming dollardan to`g`ri kelib, bu juda katta ko`rsatkichdir. Chunki hatto bozor iqtisodi rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ham ancha yuqoridir. Oddiy mamlakat yoki qoloq mamlakatlar bilan taqqoslasak, aql bovar qilishi qiyin.

Yillik o`rtacha o`sish ham past bo`lmay, 2,2-2,5 foizni tashkil etib, bunda ham boshqa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ustunlikni ko`ramiz. AQSH tabiiy resurslarga boy. 100 dan ortiq xil foydali qazilmalari mavjud. Bularning ichida eng muhimlari neft, gaz, toshko`mir, rangli va qimmatbaho metallar. Energoresurslar eng salmog`li hisoblanib, qiymati

bo`yicha qazilma boyliklarning 90 foizini tashkil etadi. Foydalaniladigan mineral resurslarning 50 foizi import hisobiga to`g`ri keladi. Shu bilan birga tabiiy resurslarni himoyalash va saqlash, tijorat yo`lida foydalanishni taqiqlash siyosati qo`llanilib, AQSHda bir necha o`n yillardan beri qazilma

AMERIKA QOSHMA SHTATLARI

Rasmiy nomi - Amerika Qoshma shtatlari. Poytaxti - Vashington. Xududi - 9363200 km kv. Aholisi - 284500000 kishi. Davlat tili - ingliz (ispan, fransuz, nemis, italyan, polyak, portugal, arab, hind tillari ham keng tarqalgan). Dini - protestantlar (53%), katoliklar (26%), yaxudiylar (2% ga yaqin), pravoslavlar (2% ga yaqin), musulmonlar (2% ga yaqin).

Pul birligi - AQSH dollari.

Geografik joylashuvi: Shimoliy Amerika materigida joylashgan.

Iqtisodi: AQSH ilg`or ibdustrial va sanoatning yuqori diversifikasiyasiga ega davlat bo`lib, neft sanoati (dunyoda 2-o`rinda), metallurgiya (alyuminiy, qo`rg`oshin, mis ishlab chiqarish bo`yicha eng yirik davlat), mashinasozlik, aerokosmik, kimyo, elektron, oziq-ovqat, yog`ochni qayta ishlash va qishloq xo`jaligiga qaratilgan.

boyliklar manbaalari hisobiga ishlab chiqarish bir muncha qisqartirilib, vaqtincha to`xtatilgan. Ayniqsa neft manbaalarining ancha qismi qayta bekitilib, qazib olish to`xtatilgan. Asosiy talab chet el xomashyolariga qaratilgan.

Resurslardan foydalanishning yuqori samarali darajaga erishuvi tabiiy boyliklardan juda ehtiyotkorlik bilan foydalanish imkonini tug'dirmoqda. AQSH iqtisodiyotidagi muhim xususiyatlardan biri xizmat ko'rsatish sohasining ustunligidir. Bu ayniqsa XX – asrga kelib juda avj olgan. Xizmat sohasining yalpi ichki mahsulotdagi qismi 77 foizga yetgan. Sanoat va qurilish – 20 foiz bo'lsa, qishloq xo'jalik mahsulotlari atigi – 3 foizga teng bo'lgan.

Hozirgi davr AQSHning sanoat ishlab chiqarish tuzumi shakllanishida mashinasozlik yetakchi o'rinni egallaydi. Ma'lumki, AQSH yirik muhim mashinalar ishlab chiqarishda dunyoda katta o'rin egallaydi. Elektron, elektrotexnika bilan bog'langan mashinasozlik boshchilik qilib, bunga xos zamonaviy texnikalar yaratiladi. Transport mashinasozligi esa oldindan dovrug'i ketgan bo'lib, bunda asosiy urg'u avtomobillarga qaratilgan. Lekin aviatsiya mashinasozligida ham dunyoda yetakchilik qiladi.

Moliyaviy inqiroz davrida ko'pgina Mamlakatlar iqtisodiyoti xykymat xamda tashqi kreditorlarning Moliyaviy ko'magiga ancha myxtojlik sezdi. Bu esa, o'z navbatida, davlat qarzi yoki tashqi qarzlarning oshib ketishiga olib keldi.

Ko'pgina G'arb Mamlakatlarida davlat byudjetining defitsiti, davlat qarzi va xysusiy sektor qarzining o'sib borishi odatiy xolatdir. Biroq, 2008-yilning 4 choragida boshlangan jaxon moliyaviy inqirozi davrida ba'zi Mamlakatlarning iqtisodiyoti qarz botqog'iga batamom botib qoldi.

Tashqi qarz - by, mamlakatning tashqi majburiyatlari, xorijiy kreditlar va yillar bo'yicha foiz to'lovlarining yig'indisidir. Bunda faqatgina xykymatning tashqi qarzi emas, balki korporatsiyalar va individual shaxslarning xam mamlakat tashqarisidagi qarzlari xisobga olinadi.

Biz shy paytgacha AQSH tashqi qarzlarining tinmay o'sib borayotganligi va buning oxir oqibat qanday salbiy natijalarga olib kelishi xaqida bir necha marta "qayg'yrigan" xam edik. Aslida xam bu xaqda qayg'yrishga arzigulikmi?

Mamlakatning qarz pozitsiyasini boshqa mamlakatlarniki bilan solishtirishda, odatda, yalpi tashqi qarz miqdorining yalpi ichki maxsulotga nisbati (foiz xisobida), ya'ni uning qarzdorlik darajasi e'tiborga olinadi.

Aytish mymkinki, AQSH tashqi qarzi miqdor jixatdan eng kattasi bo'lishi mymkin, lekin mamlakat yalpi tashqi qarzining yalpi ichki maxsulotga nisbati esa dunyodagi eng yuqori ko'rsatkich xisoblanmaydi.

Tashqi qarz (yalpi ichki maxsulotga nisbatan, %): 98,4%
 Yalpi tashqi qarz miqdori: 13,92 trln. \$
 Yalpi ichki maxsulot (2009): 14,14 trln. \$
 Kishi boshiga to'g'ri keluvchi tashqi qarz miqdori: 45 302 \$

Elektron mashinasozlikda maishiy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlar asos bo'lmay, sanoat tarmoqlari uchun, ayniqsa harbiy xizmatlar uchun texnika ishlab chiqarish yetakchilik qiladi.

Mashinasozlikda aviatsiya sanoati bilan raketa mashinasozligi katta xajmlidir. Bu bevosita harbiy maqsadlarga qaratilgan bo'lsa, shu bilan birga kosmik xizmatlarga ham qaratilgan. Mashinasozlik sanoatida kosmik texnika asos bo'lib, bu sohada AQSH dunyoda eng yetakchi o'rinni egallaydi va bu sohadagi mahsulotning eng ko'p miqdorini ishlab chiqaradi va natijada kosmik fazoni o'rganish bo'yicha asosiy ish xajmi keyingi yillarda AQSHga to'g'ri keladi.

Er atrofi fazosini o'rganish, quyosh sayyoralarini o'rganishda yaratilgan kosmos, raketa texnika asboblari katta ahamiyat kasb etish bilan birga iqtisodiyotni rivojlanishida borgan sari ko'proq qo'llanilmoqda.

AQSH sanoat ishlab chiqarishi tuzumidagi ikkinchi darajalisi kimyo sanoatidir. Bu tarmoq korxonalarini asosan

neft va gaz qazilma joylarida bo'lib, shu bilan birga chetdan keladigan neft importi, terminallari yaqinida ham joylashgan. Ma'lumki, Kime sanoatining mahsulotlari iqtisodiyotning ko'p tarmoqlari uchun juda zarur bo'lib, bu ayniqsa qishloq xo'jaligi, uy-ro'zg'or,

Yer shari iqtisodiy faol aholisining 60% dan ortig'i qishloq xo'jaligida band. Afrika va Osiyoning ko'pchilik davlatlarida bu ko'rsatgich 70%ni tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda sanoati rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatgich yil sayin pasayib bormoqda. Jymladan AQSHda qishloq xo'jaligida iqtisodiy faol aholining 5% i, Buyuk Britaniyada 4% i band.

sanoat tarmoqlari, kosmetika, bo'yoqchilik kabilarda juda ko'p ishlatiladigan mahsulot va vosita hisoblanadi.

Iqlim sharoitlarining qulayligi, tuproq unumdorligining yuqoriligi qishloq xo'jaligining rivojlanishiga yaxshi imkoniyatlar tug'diradi. Chorvachilik, g'allachilik, paxtachilik, bog'dorchilik, sabzavot va polizchilik yuqori unumli bo'lib, oziq-ovqat va xomashyo mahsulotlarining turli xillarini yetishtiruvchi xo'jaliklar uyushtirish imkonini beradi. Serunum, yuqori xosilli xo'jaliklar yetarli darajada mahsulotlar yetishtirish, shu bilan birga ichki talablarni to'la ta'minlagan xolda katta qismini jahon bozoriga chiqarish sharoitini tug'diradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi boshqa soha va tarmoqlarga o'xshagan juda yuqori darajada tashkil etilgan.

Qishloq xo'jaligining taraqqiyot darajasi shuni ko'rsatadiki, bandlik 3 foizni tashkil etadi xolos. G'oyat ko'p miqdordagi mahsulotning shuncha oz miqdordagi

ishlovchilar bilan yetishtirilishi ilg`or texnologiya, ishbilarmonlik, tashkiliylik, yuqori mehnat unumdorligining natijasidir. Albatta bozor mexanizmlarini qo`llashdagi uddaburonlik, yuqori darajadagi tijoratlik katta o`rin egallaydi. Xatoki shu kunlarda O`zbekiston bozorlarida AQSH tovuqchilik, sholikorlik va boshqa mahsulotlari kabilarni tez-tez uchratish mumkin. Albatta bu AQSH qishloq xo`jaligi qudratining ta`siriy natijasidir.

Amerikalik fermerlar jahonda eng yuqori mehnat unumdorligi darajasiga erishgan. Agar rivojlanmagan mamlakatlar qishloq xo`jaligida band bo`lgan bir ishlovchi o`zi va oila a`zolarini zo`rg`a boqa olsa, Yaponiyada bir fermer 16 kishini, G`arbiy yevropada 19 kishini ta`minlasa, AQSHda esa bir fermer 59 kishining qishloq xo`jalik mahsulotlariga bo`lgan ehtiyojini qondira oladi. Albatta bunda murakkab va yuqori unumli qishloq xo`jalik mashinalaridan foydalanish katta yordam beradi. Shu bilan birga infratuzilmaning yuqori darajada taraqqiy etganligi ahamiyatlidir. Bunga qishloq xo`jaligi mahsulotlarini tashish va omborlarda saqlashning yuqori darajada tashkil etilishini ham qo`shish kerak. Eng muhimi davlat tomonidan qishloq xo`jalik ishlab chiqarishning har tomonlama qo`llanilishidir. Fermerlar doimo davlat himoyasida bo`lib keladi, katta-katta davlat dasturlari amalga oshiriladi. Masalan, qishloq xo`jaligi va oziq-ovqat sohasiga qaratilgan davlat dasturlari bo`yicha xarajatlar AQSH Federal byudjetining 4,5 foizini tashkil etadi. Bu esa qishloq xo`jaligi mahsuloti yillik qiymatining 27 foiziga teng bo`ladi, yoki bo`lmasa har bir gektar ekinga davlatning yillik 410 dollarini subsidiyasiga tengdir.

AQSH iqtisodiyoti taraqqiyotida ilmiy-texnik salohiyatning jang`arilishi sharoitlarini doimo ta'minlashda davlatning hissasi katta. Ayniqsa harbiy xarajatlarni qisqartirish hisobiga ilmiy sig`imli tarmoqlarning asosiy kapitaliga investitsiyani qo`llash ahamiyatlidir. Mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini o`shirishda va Amerika tovar hamda xizmatlarining jahon bozorlarida raqobatbardoshlik darajasini saqlashda bilim olish va ilmiy kadrlar tayyorlashdagi solig`imtiyozlari va uning xarajatlarini oshirib borishning byudjet hisobiga amalga oshirilishi yaxshi natijalar bermoqda. Shu bilan birga immigratsiya siyosatining bu sohada maqsadli yo`nalishida bo`lishi ham qo`l kelmoqda. Chunki bunda butun dunyodan ilmiy, injener va boshqaruv kadrlarini jalb etishga katta yo`l ochib berilgan.

Jahon er fondining umumiy maydoni - 134 mln.km kv. (13,4 mlrd.ga) bo`lib, uning asosiy qismi Afrika, MDH, Xorijiy Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerikada joylangan. Jon boshiga er fondi eng ko`p Avstraliyaga to`g`ri kelsa, eng kam Xorijiy Osiyoga to`g`ri keladi. Ishlov beriladigan erlar maydoni bo`yicha AQSh (190 mln.ga), Hindiston (100 mln.ga), Rossiya (134 mln.ga), Xitoy (95 mln.ga), Kanada (46 mln.ga), Qozog`iston (36 mln.ga), Ukraina (34 mln.ga) ajralib turadi. Evropadan tashqari, jahonning barcha mintaqalarida tabiiy o`tloq va yaylovlar ishlab berilgan yrlarga nisbatan ko`proq. Jahon bo`yicha 720 mln.gektar erga donli ekinlar ekilmoqda. Ular jami ekin maydonining Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiyada 50-60% ini, Rossiya, Polsha, Bengriya, Ruminiya va Yaponiyada 60-65% ini, GFPda - 70%, Vetnam va Mongoliyada 80% egallagan. Jahonda jami ekin maydonining asosiy qismini 3ta ekin, ya'ni bug`doy (23 mln.ga), sholi (140 mln.ga), makkajo`xori (180 mln.ga) egallaydi. Jahon bozoriga yiliga 5-6 mln.t. o`rta tolali paxta chiqariladi. Asosiy paxta tolasini eksport qiluvchi mamlakatlarga AQSh, O`zbekiston, Xitoy, Pokiston, Hindiston, Afrika mamlakatlari, Paragvay, Avstraliya hisoblanadi. Paxta importini ikki mintaqaga belgalab beradi:
-Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo (Yaponiya, Tayvan, Koreya Respublikasi, Gonkong, Tayland, Indoneziya)
-Evropa - Italiya, FFP, Fransiya, Polsha, Chexiya, Slovakiya va boshqalar.

Shuning uchun ham AQSHning iqtisodiy o`shirishda ilmiy-texnik progress eng muhim omilga aylangan va fan-texnikaning ko`pchilik sohalarida dunyoda tan olingan liderga aylangan. Jahonda eng yirik salohiyatga ega bo`lib, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI) umumiy xajmi bo`yicha jahonda birinchi o`rinda turadi. Shu bilan birga kompaniyalarning bunday xarajatlari borgan sari ortib bormoqda. Yaponiya va yevropa mamlakatlarning ham bunday xarajatlarning tezlik bilan ortib borishiga qaramay, kamdan-kami Amerika darajasiga yaqinlashmoqda. ITTKI xarajatlari AQSH davlat byudjetida ham katta o`rin egallamoqda. Keyingi

to'rt o'n yillik ichida Federal byudjetning fan, kosmos va texnologiya uchun xarajatlarning salmog'i 11 marta o'sib, 0,1 foizdan o'tgan asrning 90 – yillari o'rtasiga kelib 1,1 foizgacha yetdi.

AQSH bozor iqtisodiyoti rivojining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri ish joyi qiymatining yuqoriligidan iboratdir. Bu rivojlangan mamlakatlarda milliy mahsulotning $\frac{3}{4}$ qismigacha yetsa, Amerikada 80 foizgacha boradi. Albatta bu umumiy taraqqiyotning eng muhim natijasidir. Ma'lumki, bu ishlovchining ish haqi degan so'z, ya'ni uning daromad manbaini tashkil etadi. Aholi turmush darajasining manbai ham daromaddan iborat bo'lib, bu provardida inson turmush sifatida o'z ifodasini topadiki, ishlovchining asosiy maqsadi mana shu daromaddir.

Fan – texnika inqilobinig kengayishi va chuqurlashuvi, jahon xojaligiga tasirining kuchayishi kopchilik mamlakatlarda industrial turdan keyin shakillangan va postindustrial deb nom olgan (rost – lotincha “keyin”) iqtisodiyotning mutlaqo yangi turning tarkib topishiga olib keldi

Ish joyining qimmatligi hayotiy muammolarning hal qilinishining asosi ekanligi ma'lum narsa, chunki uning sifatini ko'tarish uchun sarf etiladigan asos hisoblanadi. Bu tibbiyotga, madaniyatga, dam olishga talabni oshiradiki, bular doimo talab yuqoriligi uchun sifatli darajada bo'ladi. Hayotiy talab to'laligi ta'minlanadi. Uzoq sermazmun umr ko'rish ta'minlanadi.

Ish joyi qimmatligi asosidagi bunday xolat bandlik uchun bo'lgan talabni ko'paytiradi. Bu bir tomondan yuqori malakali ishlovchilar taklifi darajasini ko'tarsa, ikkinchi tomondan boshqa mamlakatlardan keladigan asosan yuqori intellektual mehnat egalari oqimini kengaytiradi. Inson maqsadi yaxshi hayot va buning asosi yuqori daromadga erishish bo'lgandan keyin albatta Amerikada ishlashni, undagi yuqori darajali hayot kechirish lazzatidan bahramand bo'lishni istaydiganlar ko'p bo'ladi va immigratsiya harakatini kuchaytiradi.

Amerika millati ommaviy immigratsiya natijasida shakllangan bo'lib, ko'p millatli xalqdan tarkib topgan. Asosan yevropaliklar bo'lib, birinchi navbatda Angliya, Shotlandiya, Irlandiyadan kelganlardir. Germaniya, Italiya, Polsha va Rossiyadan kelganlar ham ko'p. Shu bilan birga Osiyoliklar ham ancha qismini tashkil etadi. Lekin o'z vaqtida Afrikadan qul qilib sotilganlar solmog'i sezilarli

bo`lib, deyarli umumiy aholining 12 foizini tashkil etadi. Negrlardan tashqari ish axtarib, baxt izlab kelganlar ham ko`p bo`lgan. yerlar ko`p, serhosil, iqlimi yaxshi, yuqori daromad olish ehtimoli o`z vaqtida ommaviy ravishda kelishga olib kelgan. Mavjud siyosiy va boshqa erkinliklar bunga juda moyillik tug`dirgan. Bu narsa deyarli AQSH tarixi davrida doimiy bo`lib, xattoki hozirgacha davom etadi deyish mumkin. Chunki mavjud yuqori iqtisodiy imkoniyatlar, yuqori turmush xali ham bo`lsa o`ziga tortadi.

AQSH davlatining yuzaga kelishi, rivojlanishi erkinlik ruhiyatida davom etib, bu o`ziga xoslikni shakllantirgan. Mavjud tabiiy va ijtimoiy sharoit ishbilaromlik, tashabbuskorik, ijtimoiy faollik ruhida bo`lishga moyilik tug`dirib, har qanday qiyinchilik, mehnatsevarlikka da`vat qilgan. Bu siyosiy erkinlik, demokratik tizim sharoitida jamiyatning shakllanishi, iqtisodiy rivojlanishning tezlashuvi va sog`lom ravishda davom etishiga katta ta`sir ko`rsatib keladi. Siyosiy, iqtisodiy erkinlik haqiqiy kuchli davlat va jamiyatni yaratishga olib kelgan. Albatta bunda avvalo kuchli, taraqqiy etgan bozor munosabatlari asosidagi iqtisodiyotning xal qiluvchi ahamiyati kattadir. Aytish mumkinki, AQSHni shu darajaga yetkazgan avvalo uning qudratli bozor iqtisodiyotidir.

5.2. Milliy xo`jalikda nomoddiy ishlab chiqarish ustuvorligi

Iqtisodiy taraqqiyot darajasi moddiy ishlab chiqarish emas, balki nomoddiy ishlab chiqarish darajasi va undagi bandlik bilan belgilanadi. AQSH esa xatto eng rivojlangan bozor iqtisodiyotli mamlakatlar ichida bu sohada eng oldinda turadi. Amerikacha bozor iqtisodiyoti rivoji xizmat ko`rsatish sohasining taraqqiyoti bo`yicha dunyoda tengi yo`q mamlakatdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda noishlab chiqarish sohasida o`rtacha 22,3% ishchi mashg`ul. Bu ko`rsatgich Nepalda atigi 8%, Bangladeshda 10%, Nigeriyada 10%ga teng, shu bilan bir qatorda ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda noishlab chiqarishda band ishchilarning salmog`i yuqori. Bular yo`q ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ancha ilgari ketgan mamlakatlar (Argentina 59%, Meksika, Braziliya, Koreya Respublikasi), yoki moliyaviy faoliyat va ishbilarmonlik xizmatining yirik markazlariga aylangan neft eksport qiluvchi mamlakatlari (Liviya 55%, Jazoir, Saudiya Arabistoni), yoki vositachilik faoliyati va turizmga ixtisoslashgan mamlakatlar (Bogam orollari mamlakati 80%) hisoblanadi.

Ta'kidlaganimizdek, AQSH milliy mahsulotining $\frac{3}{4}$ dan ko'proq qismi xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi. Bandlikni olsak, bunda ham shunday darajani ko'ramiz, ya'ni 77 foiz ishlovchilar shu sohada banddir. Qishloq xo'jaligida band bo'lganlarni chegirib tashlangandan keyin hisoblanadigan bo'lsa, bu ko'rsatkich 73 foiz ish joyini tashkil etadi. Agarda buni boshqa rivojlangan mamlakatlarga taqqoslasak, aytaylik, Germaniya Federativ Respublikasida ish kuchining 41 foiz, Italiyaning 35 foiziga to'g'ri keladi.

Buni Amerika fenomeni deb atashadi. Bu avvalo aholi farovonligi bilan bog'langan. Farovonlikning o'sib borishi xizmat ko'rsatishga talabni kuchaytiradi. Chunki turmush yaxshilanib borishi bilan, moddiy ta'minotning o'sib borishi iste'molni xizmat sohasiga qaratib boradi. Bu esa xizmat ko'rsatish turlarini kengayishi, yangi-yangilarini paydo bo'lib borib, har tomonlama kengayib borishiga olib keladi. Natijada daromadning ma'lum qismi xizmat sotib olishga qaratiladi va xizmat turlariga bo'lgan xaridorlik xajmini ko'paytirib boradi. Iste'mol sohasidagi xizmat ko'rsatish tovarlashib boradi va oldin iste'molchi bajaradigan ishlar pulga ijro etadigan korxonalar, shaxslar tomonidan bajarilishi kengayib, bundagi vaqt tejaladi va mutaxassis tomonidan bajariladi.

Ikkinchidan, mehnat unumdorligining o'sishi bo'sh vaqtni ko'payishiga olib keladi. Ortib boradigan bo'sh vaqt esa bundan unumli foydalanishni talab etadi. Eng bundagi ma'qul keladigan narsalar xizmatlardan foydalanishdir. Dam olish, xursandchilik bilan bog'liq, sport bilan shug'ullanish kabilar bilan bog'langan xizmat turlaridan foydalanishga talab ortadi.

Uchinchidan, texnik xizmat ko'rsatish zaruriyati ortib boradi. Ma'lumki, uy-ro'zg'or buyumlari ichida texnik vositalar xilma-xilligi ortib bormoqda. Turli elektr va elektron asboblarning texnik uskunalari hayotda ko'payganki, bularni iste'mol etish xizmat ko'rsatishni talab etadi. Bundan tashqari tashqi dunyo bilan aloqada bo'lishda, turizm kabilar ham o'ziga xos xizmatlar turini talab qiladi.

Ko'rinib turibdiki, farovonlik bilan bir qatorda umuman taraqqiyot xizmat ko'rsatish sohasini oldinga surib, uning tez rivojlanishini taqozo etadiki, bunda

Amerikada juda katta ishlar amalga oshirilgan va AQSHni jahonda xizmat iqtisodiyoti bo'yicha birinchi o'rindagi mamlakatga aylantirgan.

Xizmat ko'rsatish shunchalik taraqqiy etganki, u xaddan tashqari turli-tumandir. Avvalo bunga davlat sektori o'zining sud tizimi, mehnat birjasi, kasalxonlar, harbiy xizmat, kirim kassalari, militsiyalar, yong'inga qarshi xizmat, pochta, maktablar, boshqarish va nazorat organlari kiradi. Shu bilan birga ajoyibxona, sahovat tashkilotlari, cherkov va machitlar, kollej-litseylar, kasalxona va jamg'armalari bilan xususiy sektor kiradi.

Bundan tashqari xizmat ko'rsatish sohasiga xususiy tijoriy sektorga kiruvchi aviakompaniyalar, banklar, kompyuter xizmati byurolari, mehmonxonalar, sug'urta kompaniyalari, sarmoya firmalari, shaxsiy shifokorlar, kinofirmalar, santexnika jixozlarini ta'mirlash firmalari kabilari kiradi.

Bular ommaviy xizmat ko'rsatish sohasiga kirsa, to'xtovsiz yangi xizmatlar paydo bo'lib bormoqda. Aytaylik, ma'lum pulga oila byudjetini balanslashtiruvchilar, uy topishga yordam qiluvchilar, ish topib beruvchi, xizmat joyiga olib boruvchi, ijaraga bog'cha, traktor kabilarni topib beruvchilar va h.k.

Xizmat ko'rsatish bozor iqtisodiyoti sharoitidagi moddiy tovarlarga o'xshagan talab, taklif, raqobat, bozor bahosi xususiyatlarida bo'lib, iste'molda juda ahamiyatlidir va u ayniqcha Amerika hayotida to'xtovsiz turlanib, o'z o'rnini kengaytirmoqda. U xattoki AQSHning tashqi savdosida o'z o'rnini kengaytirmoqda va jahon xizmat ko'rsatish bozorlarida pishiq o'rinni egallaydi. O'tgan asrning 90 – yillar oxiriga kelib rivojlangan mamlakatlarning 70 foizdan ortiq ma'lumot banklari (jamg'arilishi) AQSHda jamlangan edi.

Amerika kompaniyalari EHMlarni resurslar bilan ta'minlash bo'yicha jahon bozorining $\frac{3}{4}$ qismini o'z qo'llarida ushlab turadilar. Chet mamlakatlar uchun patentlarni ro'yxatga olish, avtorlik huquqlarini rasmiylashtirish, litsenziyalar majburiyatini amalga oshirish, dizayn ishlab berish, korxonalar menejment boshqaruvi tajribalarini ommalashtirish kabilari xizmat bozoriga kiradi.

5.3. XX – asr birinchi yarimida bozor iqtisodi rivoji

AQSH bozor iqtisodiyotida XX – asr birinchi yarmida keskin oʻzgarishlar yuz beradi. Bunday asosiy turtki 1929-1933 yillarda yuz bergan iqtisodiy inqiroz – depressiyadir. Bunda mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 1/3 qismga qisqargan edi. Ishsizlik esa ¼ qismga yetgan edi. Bu inqiroz iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini egallab, ayniqsa ishlab chiqarish va savdoga katta zarar keltirgan. Koʻp xoʻjalik turlarini ishdan chiqargan, chuqur iqtisodiy tushkunlik yuz bergan, katta zararlar yetkazilgan.

Bevosita iqtisodiy tushkunlik katta ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirgan. Chunki ishsizlik koʻpchilikni daromad manbaidan maxrum qilib, katta hayotiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan. Ommaviy noroziliklar kelib chiqqan.

Iqtisodiy aloqalar buzilib, iqtisodiy muvozanat izdan chiqqan. Albatta bu katta talofatlarni keltirgan. Inqirozni oldini olish va depressiyadan chiqish tub oʻzgarishlarni talab etar va katta matonat, kuch va iroda zarurligini yuzaga ketiradi. Bunday muhim narsa milliy birlikni taʼminlash, inqirozdan chiqish yoʻllarini belgilash va bor imkoniyatlarni tiklanish uchun qaratish zaruriyati talab etilib, Amerika davlati va hukumati bu ogʻir va taqdiriy masalalarda yetakchi rolini bajarishi zaruriyati tugʻilgan edi.

Katta iqtisodiy islohotlar oʻtkazilib, buning negizida oʻsha vaqtdagi AQSH Prezidenti Franklin Ruzvelt islohoti boʻlib, bu “yangi kurs” deb nomlangan. Bunda “biznes hukumatdan yuqori boʻlishi mumkin emas” degan tamoyil asos boʻlgan. Bu islohotda iqtisodiyotning asosiy tomonlariga tub oʻzgarishlar kiritilib, yangi yoʻnalishlar belgilangan. Iqtisodiy islohotlarda 400 mingdan ortiq dasturlar tuzilib, amalga oshirilgan. Bularning ichida yangi aerodromlar, temir yoʻl va avtomobil yoʻllari, shosselar, maktablar va boshqa bir qancha infratuzilmalar qurilishi koʻzda tutilgan. Bularni amalga oshirishda mehnat bilan yordam berib, safarbarlik usullari qoʻllanilgan. Albatta bu davlat tomonidan toʻlanib turilgan. Buning uchun maxsus mehnat lagerlari tuzilib, bunga asosan ishsizlar jalb etilgan.

Energetika sohasida katta ishlar olib borilgan. Energetika Amerika iqtisodiyotida negizli sohalardan boʻlib, buning bandlikka va mamlakatga XX – asr

30-yillarida iste'mol talabini jonlantirishda, yangi joylarini tashkil etishda ahamiyati katta bo'lgan. Shuning uchun yirik xajmda davlat gidroelektrostansiyalari qurilishi amalga oshirilgan. Bu boshqa iqtisodiy masalalar bilan birga raqobat muxitini yaratishga ta'sir ko'rsatgan. Federal Komissiya tuzilgan bo'lib, bu o'z navbatida shtatlar o'rtasida energoresurslarni taqsimlanishi nazoratini bajargan. Shtatlardagi tuzilgan muayyan komissiyalar elektroenergiya baholari, energiyaga esa neft mahsulotlari, tabiiy gaz va shunga o'xshashlarni ham baholashni nazorat etish vakolatiga ega bo'lgan.

Bu orqali umuman eng muhim iqtisodiy sohalardan hisoblangan energetikadagi amalga oshirilgan asoslar iqtisodiyotning barcha tomonlarini jonlantirish va rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatgan va qudratli energetika negizi barpo etilib, bu mamlakat salohiyatida kuchli asosga aylangan.

Iqtisodiy islohotda moliyaviy o'zgarishlar ta'sirli bo'lgan, chunki u iqtisodiyotning qon tomirlari sifatida ahamiyatlidir. Bunda eng muhim va ta'sirlisi banklar to'g'risidagi tasodifiy qonun bo'lgan. Bu qonun bo'yicha banklar qimmatbaho qog'ozlarning egalari bo'lishi taqiqlangan va ular bularning omonat saqlanishi sifatidagi xizmat bilan chegaralanishi talab etiladi. Shu bilan birga banklarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi ham taqiqlanib, o'z bevosita vazifalari bilan chegaralanish tartibi o'rnatiladi. Bunda moliya-kredit faoliyati bo'yicha qimmatli qog'ozlar komissiyasining ishlari ta'sirli bo'lgan.

Iqtisodiy tuzilmalar bo'yicha qo'llanilgan tadbirlar ham muhim bo'lib, ichki ishlab chiqarishni jonlantirishga ijobiy ta'sir etgan. Bunda milliy mahsulotga talabni oshirish bilan uni himoyalash qo'llanilib, importni qisqartirgan xolda milliy sanoatni rag'batlantirish siyosati olib borilgan. Aytaylik, Amerika mahsulotlarini sotib olish shiori ostida o'z ishlab chiqarishi uchun bozorni kengaytirish ham ijobiy rol o'ynagan. Bundan tashqari qishloq xo'jalik mahsulotlarini ortiqcha ishlab chiqarish bilan kurash olib borish va bunga taalluqli tadbirlar qo'llash amalga oshirilib, agrar sohani tartiblashtirish choralari qo'llanilgan.

Inqirozdan chiqishga qaratilgan usullardan yana bir muhimi ijtimoiy sohaga taalluqlidir. Bunda avvalo ishsizlikni oldini olish juda muhimdir. Chunki ahvolni

og'irlashtiradigan, notinchlikka olib keladigan muhim sabablardan bo'lgan inqiroz natijasidan iborat ommaviy ishsizlik eng dolzarb muammodir. Aytganimizdek, 1929-1933 yillar inqirozida 1/3 qism ishchilar ishsizlikka duchor bo'lgan edi. Buning asosida ishsizlik to'g'risidagi qonun katta ahamiyat kasb etib, bundagi tadbirlar bilan bevosita 4 mln. kishi jalb etilgan. Ko'p sonli dasturlarning bajarilishi, alohida mehnat lagerlarining tashkil etilishi bu muammoni xal qilishda juda qo'l kelgan.

Bundan tashqari to'g'ridan-to'g'ri moddiy yordam ko'rsatish ham keng miqyosda qo'llanilib, bunga hukumat tomonidan 5 mlrd. dollar ajratilgan va bevosita muxtojlariga, kamxarj shaxslarga, avvalo ishsizlar, o'rtasida taqsimlangan.

Ruzveltning "yangi kurs" siyosati inqirozdan chiqishda va iqtisodiyotni sog'lomlashtirishdagi barcha tadbirlarni amalga oshirilishida konsolidatsiyaga erishish, bunda milliy birlikni ta'minlay olish, vatanparvarlik tuyg'usini uyg'ota olishlik xal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Amerikacha milliy birlik, g'urur bundan keyin ham Amerika jamiyatining taraqqiyotida ko'p ahamiyatli rol o'ynagan. Chunki chuqur inqirozdan chiqish, depressiyaning oldini olish ko'p yo'qotishlarni talab etib, talofatlardan qutilish, barcha qiyinchiliklarni boshdan kechirish tufayli taraqqiyotga yo'l ochishni talab etadi.

Iqtisodiyotni sog'lomlashtirish, raqobatdoshlikni ta'minlash, ish o'rinlarining qimmatlashib borishi kabilar va shuningdek ayniqsa xomashyolarga jahon narxnavolarining ko'tarilib borishi yangi resurslarni saqlovchi texnologiyani qo'llash, mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlovchi texnika va ish usullarini qo'llagan xolda ishlab chiqarishni yangilab borish ilg'or iqtisodiyotni yuzaga keltirishda asos bo'lib xizmat qilgan. Bu esa ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish va yangi serunum texnika va texnologiyalarga talabni kuchaytirib bordi.

AQSH ning raqobat va monopoliyalar xaqida qonunchiligi

Xorijiy mamlakatlarning qonunchiliklaridagi tafovutlar turlicha va nihoyatda kengdir. Shuning uchun ushbu tahlil birinchi navbatda ushbu tafovutlarni aniqlash va tushuntirib berishga qaratildi. Tahlil uslubiyoti O'zbekiston Respublikasida raqobat to'g'risida yangi qonunni ishlab chiqishda amaliy foydalanish mumkin bo'lishi nuqtai

nazaridan tanlab olindi. Shu munosabat bilan, mualliflar o`tkazilgan ushbu tahlil natijalarini O`Rda amalda bo`lgan raqobatga qarshi qonunni xorijiy mamlakatlardagi qonunlar bilan moddalar bo`yicha taqqoslash foydali va samarali bo`ladi deb hisoblaydilar. Bunda dastlabki qadam bo`lib O`R “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to`g`risida”gi Qonunidan foydalanildi.

Ushbu ishni amalga oshirish uchun Qo`mitaning Hay`ati yig`ilishida bir qator mamlakatlar tanlab olindi va ularning qonunchiliklari o`rganib chiqildi. Bular: AQSH, yevropa Hamjamiyati, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Vetnam. Quyida nima sababdan aynan shu mamlakatlar tanlab olinganligi qisqacha sharhlab berilgan:

- AQSH: AQSHning monopoliyaga qarshi qonunchiligi eng birinchi bo`lib qabul qilingan qonun bo`lib hisoblanadi. U shuningdek, eng ko`p o`rganilgan va amaliyotda foydalanilgandir. Bundan tashqari, AQSH jahonning eng yirik milliy iqtisodiyoti hisoblanadi.

AQSHda trestlarga qarshi qonunning barcha normalarini belgilovchi yagona qonun yo`q. Asosiy qonunlar yuqorida aytib o`tilgan qonunlardan iborat. Ushbu qonunlarning o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularning matnida maqsad to`g`risida xech nima aytilmagan. Ushbu qonunlarni har birini maqsadi, shuningdek ulardan olingan alohida normalarning maqsadlari, odatda ishni ko`rib chiqish davomida sud tomonidan qaror, xususan AQSH Oliy sudi qarori e`lon qilinadi va umumiy Huquqqa asosan yuridik ta`rifi qabul qilinadi.

Masalan, Oliy Sud Norzern Pasifik AQSHga (1958) qarshi ishni ko`rib chiqishda Sherman qonuni maqsadini quyidagicha bayon qilgan:

Sherman qonuni savdo-sotiq qoidasi sifatida erkin raqobatni saqlab qolishga yo`naltirilgan keng hajmli iqtisodiy erkinlik huquqidan iboratdir. U bozor kuchlarini o`zaro erkin harakatlanishi bizning iqtisodiy resurslarimizni to`g`ri taqsimlashga, past narxlarga, yuqori sifatga va keng ma`noda moddiy taraqqiyotga olib keladi degan g`oyaga asoslanadi, shu vaqtni o`zida bizni demokratik, ijtimoiy va siyosiy institutlarimizni saqlash uchun qulay muhitni ta`minlaydi. Lekin ushbu g`oya shubha

ostida bo`lgan taqdirda ham, Qonunda bayon qilingan siyosat raqobatga aynan taalluqlidir.

AQSH raqobat to`g`risidagi qonunlari matnlarida qonunni qo`llash sohasi aniq aks ettirilmagan.

Savdo-sotiqni ba`zi sohalarida federal va mahalliy hokimiyatlar erkin va ochiq raqobat to`g`risidagi qonun g`oyalari va normalariga zid holda, o`ziga xos xususiyatga ega bo`lgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni qabul qiladilar. Ba`zi hollarda ushbu ziddiyat Kongress darajasida hal qilinadi. Bunda, qonunchilik asosida odatda sektorial (tarmoq) “erkinlik” (istisno) beriladi. Shunisi qiziqki, shu kabi istisnolar O`zbekiston Respublikasida “Tabiiy monopoliyalar to`g`risida”gi qonun bilan tartibga solinadigan sohalarga taalluqli bo`ladi, yoki umuman “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to`g`risida”gi qonun amal qilinadigan sohalarga kirmaydi. AQSHda sektorli “erkinliklarga” quyidagi tarmoqlarga berilgan :

- Qishloq xo`jaligi
- Davlat kontraktlari
- Sog`liqni saqlash
- Sport
- Telekommunikatsiyalar*
- Energetika* (jumladan, neft, gaz, elektr energiyasi, atom energiyasini

transportirovkalash)

- Moliya institutlari va bozorlar*
- Sug`urtalash*
- Mehnat bozorlari*
- Transport* (temir yo`l, havo transporti, dengiz transporti)

Mahalliy hokimiyatlar darajalarida sudlar ushbu siyosatni cheklashga harakat qiladilar va bunga sabab qilib “ushbu siyosat raqobatni asossiz cheklaydi va unga zarar yetkazadi” degan fikrni bildiradilar.

Qonunda ta`rif berilmagan. Amerika yurisprudensiyasi odatda “tovar” deganda faqat aniq tovar nazarda tutiladi, ya`ni tovar sifatidagi xizmat tovar sifatida tan olinmaydi.

Agarda xizmat tovarni sotishni o`z ichiga olsa, u holda sudlar diqqat-e'tiborni "bitimni ustunlik tusiga" qaratadilar. Masalan, sug`urta polisini sotish (yozma hujjat) ko`proq xizmat sohasiga tegishlidir. Sug`urta polisi oddiy qog`oz emas, balki uni egasiga ma'lum bir huquqlarni beruvchi hujjat. Shu vaqtni o`zida, gazeta sotish xizmati mohiyatiga ko`ra ko`proq seziladigan tovar – gazetani sotish bo`yicha bitimni o`z ichiga oladi.

Ma'lum darajalarda bir-birini o`rnini bosadigan tovarlar odatda o`zaro raqobatlashadi va shu sababli yagona (mahsulot/tovar) bozorlariga kiritiladi. Tovarlar shuningdek agarda bitta tovarni ishlab chiqaruvchilar boshqa tovarni narxi oshganligi sababli ikkinchi tovarni ishlab chiqarishga oson o`tishlari mumkin bo`lsa ham yagona bozorga kiritilishi mumkin.

AQSH qonunida shunga o`xshash ustun mavqe degan ta'rif yo`q. AQSH yurisprudensiyasida ishlatiladigan o`xshash tushuncha – monopol (yoki bozor) hukmronlik, u qonun matnida yo`q bo`lsada, Oliy Sud tomonidan belgilangan (AQSH/Dyu-Pont, 1956): Monopol hukmronlik – bozor narxlarini yoki raqobatni nazorat qiladigan hukmronlikdir.

Ta'rif berilmagan. Uni o`rniga raqobatni cheklovchi yoki monopollashishga qaratilgan yo`nalishlar deganda quyidagilar ko`zda tutilgan:

Monopol hukumronlikni mavjudligi + raqobatga qarshi oldindan o`ylash elementi (yirtqich, chiqarib tashlovchi, insofsiz cheklovchi, o`z mavqesini suiiste'mol qilish).

Oldindan o`ylash elementi xozirda savol ostida. Ba'zi sudlar monopolistning xatti-harakati oldindan o`ylab qilinganmi, yo`qmi qat'iy nazar raqobatga yetgan zararga e'tiborini qaratmoqdalar.

Narx sohasida kamsitish

Sifati va sorti o`xshash bo`lgan va raqobatga zarar yetkazishi mumkin bo`lgan tovarni bitta tovar sotuvchidan harid qiladigan ikkita haridor o`rtasida kuzatiladigan narx bo`yicha tafovut.

Monopol qimmat narx

Qonunchilikda ta'rif berilmagan. Ba'zan "haddan tashqari qimmat narxlar" tushunchasidan foydalaniladi, lekin unga tushuntirish berilmagan. Umuman olganda, korxonalarni bozor ulushini yoki foydani (qimmat narxlar hisobiga) oshirish bilan bog'liq harakatlari Amerika sudlari tomonidan qachonki ular raqobatga zarar yetkazmaslar qonunga qarshi emas deb topiladi. Haddan tashqari qimmat narxlar o'rnatilishi bo'yicha sud tomonidan aybdor qilish amaliyotda deyarli uchramaydi. Qimmat narxlar (demak foyda ham) bozor sharoitlarida doimiy hodisa hisoblanmaydi, sababi haddan tashqari qimmat foyda o'ziga ko'psonli raqobatlashuvchilarni jalb qiladi, natijada ular keyinchalik narxni pasaytirib yuborishlari mumkin. Shuning uchun, raqobat havfi mavjud bo'lgan taqdirda ham, monopolist uchun haddan ziyod qimmat narxlarni belgilash noto'g'ri bo'ladi, yuqori darajada foydani mavjud bo'lishi esa faqat raqobatni kuchaytiradi (jumladan, potentsial) degan taxmin mavjud.

Monopol arzon narx

Monopol arzon narxlar tushunchasi, ya'ni monopsoniya (yoki ustun mavqega ega bo'lgan korxonalar – sotib oluvchi) holatida o'rnatiladigan narxlar ta'rifi berilmagan. Kamdan-kam ko'rib chiqiladigan "yirtqich narxlar" tushunchasi mavjud.

Xalqaro shartnomalar

"Bir nechta shtatlar yoki xorijiy millatlar o'rtasida savdo-sotiq" tushunchasini keng talqini Kongress tomonidan Xorijiy savdo-sotiqni trestlarga qarshi takomillashtirish to'g'risida Qonun qabul qilingandan so'ng, 1982 yilda kuchga kirgan tuzatishlar orqali birmuncha cheklandi. Ushbu tuzatish Sherman qonunini (shuningdek, Federal Savdo Komissiyasi to'g'risidagi qonunni) xalqaro iqtisodiy munosabatlarni boshqa turlarini mustasno qilgan holda, faqat tovarlarni eksport va import bo'yicha savdo qilishgacha qo'llashni chekladi. Ushbu tuzatishlarni qabul qilarkan, Kongress qonunni eksport-import bitimlar diapazonidagi ta'sirini aniq cheklagan holda, o'zini xalqaro bitimlarga nisbatan neytral munosabatini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Aralash qo'llash, bunda istisno emas – qachonki boshqa sohalardagi harakatlar qonun bilan tartibga solinadigan sohalarda savdo-sotiqni (raqobatni) kamsitishga olib kelsa.

Ustun mavqeini suiiste'mol qilish

Ustun mavqeni suiiste'mol qilishni taqiqlaydigan normalar AQSHning qonunchiligida yo`q, ustun mavqe konsepsiyasi ham yo`q. "Ustun mavqe"ga monopol hukmronlik o`xshash bo`lib, monopol hukmronlikni suiiste'mol qilishga savdo-sotiq/tijoratni monopollashishini misol qilish mumkin.

Sherman Qonunining 2 moddasida shunday deyilgan:

Bir nechta shtatlar, yoki xorijiy millatlar o`rtasida savdo-sotiq va tijoratni har xil qismini monopollashtirishga harakat qilgan har bir shaxs yoki boshqa shaxs bilan yoki shaxslar bilan kelishgan shaxs qonunbuzilish holatini sodir etilishida aybdor hisoblanadi...

Shu bilan Amerika Qonunini ustun mavqeini suiiste'mol qilishni taqiqlaydigan normasi tugaydi. Qonun ushbu norma tushunchalariga ham, savdo-sotiq va tijoratni monopollashishga tushadigan qismiga taalluqli bo`lgan xatti-harakatlarga ta'rif bermaydi.

Lekin an'anaviy tarzda noqonuniy monopollashish shaklidagi qonunbuzilish quyidagicha aniqlangan

- 1) Monopol hukmronlikni mavjudligi; plyus
- 2) Raqobatga qarshi ataylab qilinganlik elementi (yirtqichlik, chiqarib tashlovchi, insofsiz cheklovchi, suiiste'mol qiluvchi xatti-harakatlar).

Ataylab qilinganlik elementi hozirda sudlar tomonidan shubha ostiga olingan. Ba'zi sudlar asosiy e'tiborini monopolistni xatti-harakati ataylab qilinganmi yoki yo`qmi qat'iy nazar raqobatga yetgan zararga qaratishga xayrixohlar.

Oliy Sud AQSH Grinnel Korp. (1966 yil) ga qarshi ishida ushbu normani buzish elementlarini belgilab berdi.

Sherman Qonuning 2 moddasiga asosan monopol buzilish ikkita elementga ega: 1) relevant bozorda monopol hukmronlikka ega bo`lish va
2) tovarni afzalligi, ishbilarmonlik yoki tarixan yuzaga kelgan vaziyat natijasida o`shirish va rivojlanishdan farqli ravishda ushbu hukmronlikni ataylab qo`lga kiritish yoki ushlab turish.

Shunisi qiziqki, Sherman Qonunining 2 moddasi iste'molchilarni manfaatlarini himoya qilish uchun emas balki raqobat/erkin savdo/sotiqni himoya qilishga yo'naltirilgan. Shunday qilib, iste'molchilar/xaridorlar uchun haddan ziyod qimmat narxlarni qo'llash kabi iste'molchilarni huquqlarini kamsituvchi suiiste'mol qilishlar AQSHning monopoliyaga qarshi qonunchiligi bilan deyarli ta'qib qilinmaydi. (yuqoriga qarang, 32 bet, AQSH). Mana shu holat AQSHning trestlarga qarshi qonunini kontinental yevropa mamlakatlarining monopoliyaga qarshi qonunlaridan prinsipial farqini aks ettiradi.

AQSHning trestlarga qarshi qonunini savdo-sotiqni monopollashtirishni taqiqlash (ya'ni bozor hukmronligini suiiste'mol qilish) qismidagi yana bitta muhim jihati bu Amerika sudlarini jamoa ustunligini tan olmasligidir. (bir nechta yirik korxonalar bozor hukmronligiga ega). Shu vaqtni o'zida kollektiv ustunlik doktrinasini kontinental yevropa va yeh mamlakatlarini ko'pchiligida mavjud.

Raqobatga qarshi bitimlar va kelishib qilingan harakatlar

Sherman Qonunining 1 moddasida shunday deyiladi:

Trest shaklidagi har xil bitim (kontrakt) yoki birlashish, yoki bir nechta shtatlar, yoki millatlar o'rtasidagi savdo-sotiqni yoki tijoratni cheklash maqsadida boshqa turdagi kelishib olishlar qonuniy emas deb hisoblanadi

Shu bilan AQSHning raqobatga qarshi kelishib qilinadigan harakatlarini man qiladigan qonunchilik normasi tugaydi. Modda esa barcha kerakli elementlarga ega:

1) Har xil shakldagi harakatlar kelishilgan hisoblanadi (shartnoma, trest ko'rinishida yoki boshqacha birlashish, kelishish, jumladan yashirincha va h.k.).

2) Kelishilgan harakatlar raqobatni cheklaydi.

Ushbu modda ta'siriga tushgan harakatlar ro'yxati Sherman Qonuni amalda bo'lgan vaqt davomida o'zgarib kelgan va Umumiy huquq (sud pretsedenti) asosida shakllantirilgan. AQSHning huquqni qo'llash amaliyoti hozirgi kunda raqobatga qarshi kelishilgan harakatlarni gorizontal va vertikal harakatlarga, shuningdek noqonuniy per se harakatlar to'g'ri yondashish qoidasi asosida ko'riladi. (yuqoriga qarang, 6-8 betlar).

Rer se noqonuniy kelishilgan harakatlarga asosan narxlarni belgilash, bozorlarni taqsimlash va bo`lib olish, vertikal kelishuvlarda narxlarni bog`liqligi, ya`ni bitta shaxs bozorga salbiy ta`sir ko`rsatadigan hukmronlikka ega bo`lishini keltirib chiqaradigan gorizontel kartel kelishuvlar kiradi. To`g`ri yondashish qoidasiga binoan ko`rib chiqiladigan kelishilgan harakatlar ro`yxati (qachon raqobatga qarshi harakatlar samarasi ijobiy samara ehtimoliga qarama-qarshi tortiladi) birmuncha kengdir.

AQSHda iqtisodiy fikr nazariyasini rivojlantirish orqali raqobat huquqini rivojlantirish

1980 yilda Sherman qonuni qabul qilinishidan oldin, Amerika sudlari Umumiy Huquqni qo`llaganlar. Umumiy Huquq raqobatga ko`rsatadigan samarasi va asoslanganligiga qaramasdan, raqobatchilar o`rtasidagi barcha kelishuvlarni (kontraktlar) umuman taqiqlaganlar. Ular, jamiyat manfaatlariga zid bo`lgan, va monopollashish yoki tovarlarni olib qo`yishda namoyon bo`ladigan trestlarni man qilishga uringanlar.

19 asrning ikkinchi yarmidagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahvollar, shuningdek Umumiy Huquqqa binoan trestlarning maqomi va ushbu trestlarni neft, po`lat va shakar ishlab chiqarish tarmoqlaridagi ayovsiz faoliyati kichik ishlab chiqaruvchilar va iste`molchilarni yirik tijorat manfaatlariga nisbatan noroziligiga sabab bo`lgan. Ushbu ommaviy g`ulg`ula 1888 yildagi prezident saylovi bo`sag`asida ham Respublikachi ham Demokratik partiyalar platformalarida trestlarga qarshi qonunchilikni qo`llab-quvvatlanishiga sabab bo`ldi.

1890 yilda AQSH Kongressi Sherman (qonunni ko`rib chiqish uchun kiritgan kongressmenning nomidan olingan) Qonunini qabul qildi. Ushbu qonun "bir nechta shtatlar, yoki xorijiy millatlar o`rtasida har xil kelishish (kontrak), trest shaklida birlashish yoki o`rtasida savdo-sotiqni yoki tijoratni cheklash maqsadida kelishib olishlar"ni taqiqlaydi. Sherman qonuni uni buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni va zarar ko`rgan shaxslarga uch barobar miqdorda kompensasiya to`lashni taxmin qilgan.

Sherman qonunini qabul qilgan Amerika qonunshunoslari iste'molchilarni manfaatlariga qaraganda ko'proq raqobatchilarni manfaatlarini ko'zlaganlar. Kichik korxonalariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan bitimlarni keng ko'lamda qabul qilinishini man qilish maqsadida, Kongress savdo-sotiqni tartibga soluvchi norma sifatida emas, balki konstitutsiya moddasi sifatida o'qiladigan qonunni qabul qildi. Sherman qonunini keng talqin qilish imkoniyati sudlarga tobora o'zgarib borayotgan siyosiy va iqtisodiy nazariyaga javob sifatida qo'llash va shu bilan Kongressni dastlabki maqsadiga kam e'tibor ajratish imkonini yaratdi.

20 asrning dastlabki dekadalarida sudlar Sherman qonunini mayda raqobatchilarni yirik xamkorlar tomonidan insofsiz raqobatlashuvidan implitsit himoyalovchi (yaqqol emas) sifatida tushunganlar.

Chuqur Turg'unlik (depsinishlar) sodir bo'lgunga qadar, sudlar iqtisodiy tafakkurni klassik va neoklassik nazariyalariga muvofiq, ko'pchilik mayda firmalar o'rtasida atomistik raqobatni afzal ko'rganlar. Shu vaqtni o'zida, "to'g'ri yondashish qoidasi" tug'ildi, unga muvofiq faqat savdo-sotiqni asossiz cheklashi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar qoralangan.

Xuddi shunday, atomistik raqobatga nisbatan hayrixohlik va iqtisodiy hukmronlikni xolding kompaniyalari qo'lida jamlanishi maqsadga muvofiq emasligi to'g'risidagi fikrlar 1914 yilda Kleyton Qonunini qabul qilinishi bilan yakunlandi. Ushbu qonun monopolistik faoliyatni, kamsituvchi shartlar, eksklyuziv dilerlik va boshqalar xillarini taqiqlaydi. (Kleyton Qonunining 3 moddasi).

Eng sezilarli oqibatlar Kleyton Qonunini 7 moddasini qo'llash natijasida yuzaga keladi. Ushbu modda bir korporatsiyani boshqa korporatsiyaning aksiyalarini sotib olish va shu bilan sotib oluvchi va sotuvchi tomonlar o'rtasidagi raqobatni kamaytirishi nuqtai nazaridan man qilgan. Bundan tashqari, sudlar 7 moddani ta'rifini endigina paydo bo'lish bosqichida qo'shib ketishlar raqobatga ko'rsatishi mumkin bo'lgan zararni, Sherman Qonuniga binoan ishlarni ko'rib chiqishda raqobatga yetadigan sezilarli zararni mavjudligini isbotlash kerakligi to'g'risida sudlarni ta'kidlashlaridan farqli tarzda birmuncha kengaytirdilar.

1914 yilda qabul qilingan yana bitta trestlarga qarshi qonun – Federal Savdo Komissiyasi (FSK) AQSH Hukumatiga bo`ysunmaydigan, mustaqil vakolatli organi tuzdi. U erkin va insofli savdo-sotiqni ilgari surishga javob bergan. FSK to`g`risidagi Qonunning 5 moddasi raqobatni insofsiz usullarini ... qonundan tashqari deb e`lon qilgan. Ushbu modda ta`siriga tushadigan xatti-harakatlar bir necha o`n yilliklar mobaynida kengayib borgan. Kongress ataydan ushbu qonundagi tushunchaga ta`rif keltirmagan, buning sababi FSK ushbu xatti-harakatlarni ko`rib chiqishida kengroq vakolatlarga ega bo`lishi va ularga nisbatan tez chora ko`rishi uchun shunday qilingan.

1927 yilda Oliy Sud “per se ” doktrinasini kiritilishi haqida e`lon qildi. Ushbu qoidaga binoan, sudlar “per se” qoidasiga binoan chora ko`riladigan xatti-harakatlar toifalarini kengaytirib borganlar, ya`ni mazkur xatti-harakat raqobatga zarar yetkazadimi yoki yetkazdimi qat`iy nazar ko`rib chiqmasdan hukm chiqarganlar. Ushbu tendentsiya Keynesian iqtisodiyotini keyingi vaqtlarda keng tarqalishi va iqtisodiyotni neoklassik nazariyasidan voz kechish bilan bog`liqdir. Ushbu davrda sudlar “per se” ta`siriga tushmaydigan bitimlar va harakatlarni raqobatga ko`rsatadigan ta`sirini iqtisodiy tahlil qilishga unchalik chuqur yondashmaganlar.

1936 yilda Kongress Robinson-Petman Qonunini qabul qildi, ushbu qonun ma`lum sharoitlarda narx sohasida kamsitishni taqiqlagan. Ushbu qonunning ta`siri “faqat Amerika Qo`shma Shtatlarida sotiladigan, iste`mol qilinadigan yohud qayta sotiladigan” tovarlar yoki mahsulotlarga taalluqli bo`lgan bitimlarga tegishli bo`lgan.

1970 yillar Xarta-Skotta-Rodinoni Trestlarga qarshi O`zgartirishlar to`g`risida qonunni qo`llanilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu qonun agar bitim tomonlar hajmi va bitim hajmi sinov shartlarini qondirsa, u holda ushbu bitim to`g`risida oldindan ma`lum qilish tartibini belgiladi. Bitim to`g`risida ma`lum axborotni ilova qilgan qolda tuzilgan bildirishnoma (buyurtmanoma) FSK yoki Yustitsiya Departamentini Trestlarga qarshi Boshqarmasiga topshiriladi. Trestlarga qarshi O`zgartirishlar to`g`risida qonun shuningdek Kleyton Qonunini 7 moddasiga binoan ko`rib chiqiladigan qo`shilib ketishlar to`g`risidagi bitimlar bo`yicha da`volar sonini keskin kamaytirgan.

Trestlarga qarshi O'zgartirishlar to'g'risidagi qonun keyinchalik ko'p sonli mamlakatlar tomonidan qabul qilingan qonunlarda qo'shib ketishlar to'g'risida oldindan xabardor qilish to'g'risidagi tartiblarni kiritishiga sabab bo'ldi.

XX asrning 70-yillari iqtisodiy nazariyaning Chikago maktabi keng tarqalgan davr bo'ldi. Ushbu maktab namoyondalari trestlarga qarshi qonunchilikni maqsadi iste'molchilarni manfaatlarini ko'zlagan holda raqobatchilarni emas, balki raqobatni himoya qilish deb ishonganlar. Yangi iqtisodiy tafakkurni paydo bo'lishi natijasida sudlar raqobat bilan bog'liq masalalar va xarajatlarni pasaytirishga qaratilgan ma'lum tartib-qoidalarni qayta ko'rib chiqish boshlaganlar. Masalan, sudlar "per se" doktrinasi ta'siriga tushadigan xatti-harakatlar ro'yxatini qisqartira boshladilar va ularni iqtisodiy tahlil qilishni boshladilar. Lekin narxlarni gorizontol cheklash yoki savdo-sotiqdagi insofsizliklar "per se" noqonuniy tarzda (yashirincha) qolgan.

Bozorlarni iqtisodiy tahlil qilishga boshqa yondashuvlar 1990 yillarda paydo bo'ldi. Ular yangicha iqtisodiy usullarni taklif qildilar va Chikago maktabi tomonidan taklif qilingan an'anaviy usullarni inkor qildi. Qisqasi, yangi tafakkur samaradorlikni oldinga surilishiga qarshi emas, lekin bozorlarni tahlil qilishda avval qo'llanilmagan emperik jihatlarni kiritadi.

Iqtisodiy nazariyani butun dunyo miqyosida tarqalishi va rivojlanishiga qaramasdan, AQSHning siyosiy, madaniy va iqtisodiy tarixi butun jahon miqyosida eng rivojlangan, noyob hisoblangan trestlarga qarshi yurisprudentsiyani vujudga keltirdi.

5.4. Federal iqtisodiyotni boshqaruv xususiyatlari

AQSH iqtisodiyotining rivojlanishida mamlakat xududlarida iqtisodiy rivojlanishning bir tekisligiga erishishga qaratilgan, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash, iqtisodiy muvozanatni saqlash kabilarda federal boshqaruvning ahamiyati kattadir. Shu bilan birga mahalliy va markazlashgan boshqaruvning mosligini ta'minlash muhim o'rin egallab keladi. AQSH davlat organlarining erkin iqtisodiy faoliyatini mustaxkamlab borishi, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishi, raqobatning himoyalaniishi, monopoliyalarning

chegaralanishi kabilarning amalga oshirib borishi iqtisodiy siyosatining tamoyillaridandir. Masalan, AQSHning nomonopolistik siyosati bozor xo'jaligi tizimli davlatlarga namuna bo'lib hisoblanadi. 1890 yildayoq bu yerda Shermanning antitrust qonuni qabul qilingan bo'lib, bu antimonopolistik siyosatning asosiy negizi xizmatini bajarib keladi va hozirgacha bu sohada asosiy qonun hisoblanadi. Buning raqobatga qarshi qaratilgan kelishuvlarini oldini olishdagi ahamiyati hozirgacha saqlanib keladi. Bundan keyin ham monopoliyani cheklovchi bir qancha qo'shimcha qonunlar qabul qilinib, bu sohada yaxshi samaralar keltirmoqda. 1914 – yilda Federal savdo komissiyasi tuzilgan bo'lib, u erkin tadbirkorlik va raqobatning ta'minlanishi nazoratini amalga oshiradi. Shu bilan birga bu komissiyaga Amerika korxonalarini antitrust qonunchiligi evolyutsiyasiga oid huquqiy ma'lumotlar bilan ta'minlab turish ham topshirilgan.

AQSH iqtisodiyotining o'sishida ish kuchining ortib borishi xususiyatining ta'siri kam emas va bu sohada ham boshqa rivojlangan mamlakatalrga nisbatan ustunlik qiladi. Ish kuchining o'sishi aholining o'sishiga nisbatan ko'pdir. Bu aholi ichida ishga yaroqlilarni tezlik bilan ko'payishi va ayollarning ishga jalb etilishining o'sib borishi natijasidir. AQSHdagi ishsizlik darajasini olsak, eng keyingi asr ichida eng past hisoblanadi: 1992 – yildagi 7,5% o'rniga, 1997 – yilda 5% bo'lgan. Keyingi o'n yillikda davlat byudjetining o'sishi xususiyatlidir. Bu AQSH davlatining iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarining murakablashuvidan dalolatdir. AQSH iqtisodiy siyosatidagi ijobiy tomonlardan yana biri harbiy xarajatlarning qisqarib borishidir.

AQSH davlat byudjeti xarajatlarida harbiy soha 1950 yilda 32,9 foiz bo'lsa, 1994 yilda 19,3 foiz va 2000 yilda 14,1 foizgacha pasaygan. Shu bilan birga ijtimoiy ehtiyojlar uchun 1950 yildagi 12,6 foizdan 1994 yilda 57,4 foiz va 2000 yilda 62,2 foizgacha o'sgan. Bu ijtimoiy ta'minot, pensionerlar va nogironlarga yordam, tibbiyot, bilim olish, bandlikni o'stirish, daromadlarni sug'urtalash kabilarga qilinadigan xarajatlarning o'sishidan iboratdir.

Moliyaviy o'zgarishlarga federal soliqlarning ortishi, federal xarajatlarning qisqartirilishi, byudjetdagi yetishmovchilikning yuqori darajasining oldini olish, aytganimizdek, ijtimoiy xarajatlarni ko'paytirish kabilarni kiritish mumkin.

AQSH iqtisodiyotining xususiyatlaridan yana eng muhimi uning baynalminallashuvidir. Bunda tashqi savdo va trans milliy korporatsiyalar (TMK)larning o`rni kattadir. Ma'lumki, AQSH tashqi savdo bo'yicha dunyoda birinchi o`rinni egallab keladi. Eksportda sanoat mahsulotlari asosiy o`rinni egallaydi. Ularning hissasi 50 foizdan ortiqdir. Eng o`sb borayotganlari mashina-texnik mahsulotlardir. Keyingi o`rinda iste'mol tovarlari turadi. Sanoat mahsulotlaridan keyingi o`rinni qishloq xo`jalik mahsulotlari egallaydi – ularning hissasi 25 foizga teng.

Jahon bozorida xizmat ko`rsatish mahsulotlarining ham o`rni katta va bu sohada ham Amerika oldingi o`rinda turadi. Aytganimizdek, axborot texnologiyasi bo'yicha dunyoning 75 foiz ma'lumotlari banki AQSHda jamlangan.

Borgan sari AQSH iqtisodiyotining ehtiyojlarida importning o`rni kengayib bormoqda. Aytaylik, 90-yillarning oxiriga kelib maishiy elektronika iste'moli, poyabzal va bir qancha boshqa tovarlar bo'yicha ichki iste'molda import 80 foizdan oshib ketdi, metalga ishlov berish stanoklari va neft bo'yicha 50 foiz, qora metal va to`qima mahsulotlar bo'yicha 20 foizni tashkil etdi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning ko'p shakllari mavjud bo'lib, ular qatoriga tashqi savdo, kapital chiqarish, ilmiy - texnika haykorligi, kompensasiya kelishuvlari, kredit - moliya munosabatlari, turli xil xizmat ko'rsatish yo'llar, xalqaro turizm, ob'ektlarni birgalikda qurish va boshqalar jahonning ko'pchilik maylakatlari uchun tashqi savdo tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shaklidir. Jahon xo'jaligi doirasida xalqaro savdoning bir necha iqtisodiy - geografik yo'nalishlari shakllangan. Masalan, jahonning eng katta hajmli savdosi G'arbiy Evropa, AQSH va Yaponiya o'rtasida olib boriladi va ularning dnyo tovar aylanyasidagi salyog'i 70 % ga teng va ylar asosan tayyor mahsyotlar savdosidan iborat.

XX – asr oxiga kelib kapital importi ham sezilarli ravishda o`sa boshladi. Chet investitsiyasi shunchalik tezlasha bordiki, uning 4/5 qismi harakatdagi Amerika korxonalariga sarf etilib, faqat 1/5 qismi yangi ob'ektlarga sarf etilgan. Hozirgi vaqtda kapital eksportiga nisbatan import ortiqchadir. Bular rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa G`arbiy yevropa, Yaponiya va Kanada kapitallaridir. Buning asosiy sababi Amerika iqtisodiyotining to`xtovsiz o`sishi kapital quyishning foydalilik darajasi, dollarning doimiy qat'iyliги kabilardan iboratdir.

TMKlar halqaro ahamiyatga ega bo'lib, bir necha mamlakatlarda faoliyat ko'rsatadilar va iqtisodiy baynalminallashuv, milliy iqtisodiyotlarni jahon iqtisodiyotiga qo'shilishida hissasi kattadir. TMK xajmida ham AQSH eng oldindadir va ularning katta qismi shu mamlakatlarga taalluqlidir. Amerika TMKlarining chet mamlakatlardagi korxonalarida 10 mln.dan ortiq ishlovchilar banddir. Ular asosan milliy bozorlarni ta'minlaydi. Keyingi vaqtlarda Amerika ichki bozorlarida ham ularning tovarlari ko'paymoqda.

Amerika TMKlari asosan G'arbiy yevropa rivojlangan mamlakatlari, Kanadada to'g'ridan-to'g'ri chet investitsiyalarini amalga oshiradilar. Keyingi yillarda bularning rivojlanayotgan mamlakatlardagi investitsiyasi ortib bormoqda: 1987-yilda 6,8 mlrd. dollar, 1990-yilda 7,6 mlrd, va 1996-yili 29,1 mlrd. dollarga yetdi. Asosan bu Lotin Amerikasi mamlakatlaridan iborat.

Dollar pozitsiyalarining kuchliligi, uning doimo baquvvatligi, valyutalar almashuvlik xususiyati, deyarli jahon puliga aylanganligi va jahon valyuta moliyaviy tizimda eng muhim rezerv va hisoblashuv vositasi Amerika iqtisodiyotiga qo'shimcha kuch bag'ishlaydi va uning jahon miqyosidagi ta'sirini oshiradi.

Amerika mustaxkam keng ichki bozorga ega. Bu avvalo yirik mustaxkam baquvvat iqtisodiyot natijasi bo'lsa, asosan aholi daromadining yuqoriligi va turmush darajasining xaridorlikni rivojlantiruvchi ta'sirining ifodasidir. Bunday xaridorlik xususiyati iste'mol buyumlari va xizmatlarga bo'lgan talabning to'xtovsiz o'sib borishini ta'minlaydi.

Bunday ichki qudratli ishlab chiqarishga ega bo'lishga qaramasdan importga ehtiyojni oshirib boradi. Amerika federal iqtisodiyotidagi boshqaruv xususiyatlaridan yana biri keyingi yillarda, ayniqsa 80-90 yillardan keyin, halqaro savdoning erkinlashuvi natijasida Amerika bozorlariga boshqa mamlakatlardan tovar va xizmatlar oqimini tezlashtirdi. Ayniqsa, bunda Xitoy, Tayvan, Gonkong kabi mamlakatlardan tayyorlanishi murakkab bo'lmagan sanoat tovarlari oqimining tezlashuvi yuz bermoqda. Ma'lumki, bu mamlakatlarda asosan ish kuchining arzonligi tovarlar narxining past bo'lishi hisobiga raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Bu Amerikaning moddiy sig'imi va mehnat sig'imi tarmoqlarda jixozlarni

takomillashtirish, texnologik jarayonlarni kompyuterlashtirish, shu bilan birga resurslarni iqtisodlovchi ilm sig`imli ishlab chiqarishga mutaxassislashuv jarayonining tezlashuviga olib keladi. Bu bilan milliy mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasini ko`tarishga erishuv amalga oshiradi.

Dollar kursining ko`tarilishi eksportni qisqartirish va importni kuchaytirish sharoitlarini tug`diradi. Bu yana davlat byudjetining taqchilligini pasaytirish imkonini ham tug`diradi.

AQSH firmalarining tovarlar, xizmatlar savdosining rivojlanishi hozirgi zamon ilmiy-texnik inqilobi hosilasi va Amerika iqtisodiyotining kompyuterlashuviga asoslanishi kerak. Raqobatbardoshlik kengashi AQSHning jahon bozorlarida egallaydigan yetakchi joyi kompozision materiallar va ularga ishlov berish, formaqevtika preparatlari, atrofni muhofaza qilish jihozlari, chiqindilarni qayta ishlash, EHMLar yordamidagi konstruktiv ishlovlar, axborot texnologiyasi, dvigatel qurilmalari, raketalar hisobiga bo`ladi, deb ta`kidlaydi.

Shu bilan birga Xalqaro savdo tashkilotining (XST) tariflarni bekor qilish va pasaytirish natijasida ko`pchilik AQSHning yevropadagi korxonalari Osiyoga ko`chishi kerak. Chunki bu yerda ish kuchi arzon va mahsulotlar joyida sotilishi mumkin.

AQSH o`zining qudratli iqtisodiyoti salohiyatidan foydalangan xolda o`zining manfaatiga xos davlatlarni rag`batlantirish va moliyaviy qo`llashda bevositalik bilan jahon banki, Halqaro moliya fondi va qator halqaro tashkilotlar ta`sirli o`rin egallagani uchun bularning imkoniyatlarini ham ishga solib, vositachilik usulidan ham keng foydalanadi. Shu bilan birga Shimoliy Amerikada erkin savdo bo`yicha kelishuv ham kelajakda AQSH iqtisodiyotiga katta naf keltirishi kutilmoqda.

5.5. Demokratik xalqchanlik iqtisodiyotining xususiyatlari

AQSH iqtisodiyotining demokratik – xalqlilik xususiyatlari mavjud deyiladi. Bu faqat maqtash, ijobiylikni ko`rsatish uchungina emas, balki haqiqatligi mavjudligi bilan bog`langandir. Amerika iqtisodiyotidagi xalqlilik ikki tomon bilan belgilanadi:

iqtisodiyotda, uning daromad taqsimotidagi xalq qatnashuvi darajasi va biznesdagi ommaviylik.

G`arb iqtisodchilari ikki qarama-qarshi halqaro iqtisodiy-siyosiy tizim mavjudligida Amerikani “xalq kapitalizmi” deb atashar edi. Buning sababi aksioner kapitalining rivojlanishi va kompaniyalarning asosan aksionerlik asosida bo`lishidir. Haqiqatdan AQSH kapitali asosan shu shakldagi tashkiliylikda bo`lib, bunga millionlab ishtirokchilar jalb etilgan.

Aksionerlik jamiyati aksiya chiqarish hisobiga tuzilgan korxonalar, birlashma, korporatsiyalardan iborat. Aksiyalar erkin xolda harakatda bo`lib, uni xatto sotish, taqdim etish kabilardir. Har bir savdoga chiqarilgan aksiyalar istagan shaxs tomonidan xarid qilib olinadi. Aksiyaga ega bo`lish esa shu kompaniyaning mulkiga sheriklik huquqini beradi. Bundagi eng muhim narsa aksiyalarning mulk sifatida harakatda bo`lishi bilan birga u dividend sifatida daromad keltiradi. Dividend darajasi aksiya chiqargan korxonalar faoliyatiga bog`liq bo`lib, asosan bu olinadigan foydaning taqsimlanishidan keladi. Demak, aksiyaga ega bo`lishlikning asosiy maqsadi ham shu, ya`ni yillik xo`jalik faoliyatidan keladigan korxonalar-firmaning foydasiga sherik bo`lishdir.

Aksiyaga egalik bilan aksioner bo`lishlik shu korxonalar, kompaniyaning a`zosi bo`lish huquqini beradi. Bundagi eng muhim narsa aksiyalarning mulk sifatida harakatda bo`lishi bilan birga u dividend sifatida daromad keltirishidir. Dividend darajasi aksiya chiqargan korxonalar faoliyatiga bog`liq bo`lib, asosan bu olinadigan foydaning taqsimlanishidan keladi. Demak, aksiyaga ega bo`lishlikning asosiy maqsadi ham shu, ya`ni yillik xo`jalik faoliyatidan keladigan korxonalar-firmaning foydasiga sherik bo`lishdir.

Aksiyaga ega bo`lish erkin bo`lib, buning egalari, aytganimizdek, Amerikada millionlabdir. Bu tarzda kapital harakatiga xos yana bir narsa shuki, aksiya egalari aksiya chiqaruvchi korxonalar, firmaning faoliyatiga qatnashuv huquqiga ega. Bunda boshqaruvda ishtirok etish, xisoblardan xabardor bo`lib fikr bildirish huquqlari beriladi. Bunga bog`liq chora-tadbirlarda korxonalar egalari qatori faol qatnashuv huquqi beriladi. Lekin amalda bunday bo`lavermaydi. Chunki bu mavjud sharoitlarga

bog`liq. Ommaviy aksiya egalari haqiqiy kapital egalari, firma tashkilotchilaridek korxonani boshqarishda faol qatnashish sharoitiga ega bo`lmaydilar. Birinchidan, bu egalik qilinadigan aksiya miqdoriga bog`liq, ya`ni ovoz berish, o`z fikr, maslahatlarini ro`yobga chiqarish, korxonaga faoliyatiga ta`sir ko`rtaish uchun ko`p miqdordagi aksiyaga ega bo`lish kerak. Shunda ko`p ovoz olish va o`z fikrini o`tkazish mumkin. Ikkinchidan, ko`pchilik egalari o`z ishlari bilan band bo`lib, majlislarga qatnashish, firmani boshqarish kabilarda ishtirok etish uchun vaqtlari ham bo`lmaydi. Xududiy sabab ham mavjud bo`lib, bunda boshqa shaharlarda istiqomat qiluvchilar korxonaga joylashgan shaharga qatnash imkoniyatiga ham ega bo`lmaydilar.

Lekin aksiyador korxonaga mulkiga egalik qilish va dividend olish huquqiga doimo ega bo`ladi hamda o`zini shu aksiya chiqargan firmaning mulkdorlaridan hisoblaydi. Bosharti lozim topsa aksiyalarni sotib, o`ziga ma`qul boshqa firma aksiyasini sotish olishi mumkin. Amalda doimo shunday ham bo`ladi. Bu fond birjalarida to`xtovsiz yuz beradigan xodisadir. Qanday bo`lmasin mulkchilikni amalga oshirishda, xo`jalik faoliyati natijalarini baholi ko`rishda demokratik mazmun yuzaga keladi. Chunki aksiya egalari korxonaga egalariidan hisoblanadi, dividendsiz esa aksionerlarning birgalikda boshqaruv va daromadlarni birgalikda taqsimlash tufayli yuzaga kelishi imkoni tug`iladi. Chunki yuqori boshqaruv organi aksionerlar irodasi va manfaatiga itoat etadi. Aksionerlik jamiyati organlari orqali mulkdorlikka xos mahsulot ishlab chiqarish, daromadni taqsimlash jarayonlarida ishtirok etishi kabilarni aksionerlashgan sarmoyalar hisobiga amalga oshirilishiga ta`sir etish huquqiga ega.

Bundan tashqari iqtisodiyotdagi xalqchilik ommaviy mayda biznesda o`z ifodasini topadi. Erkin bozor iqtisodiyotida tadbirkorlikka katta yo`l ochiq. Shuning uchun har bir fuqaro bu ish bilan shug`ullanishi mumkin. Amalda ham shunday bo`ladi. Juda ko`pchilik imkoni boricha, qo`ldan kelguncha biznes bilan shug`ullanishga harakat qiladi. Ayniqsa mayda biznes hozirgi davrda juda keng tarqalgan xolat hisoblanadi.

**Amerika iqtisodiyotida turli agentlar hissasining o`zgarishi, (umumiya
% hisobida, yillar bo`yicha)**

Monopoliya va korxonalar	1939 yil	1958 yil	1985 yil	1990 yil	1998 yil
Sof monopolistlar	6,2	3,1	2,5	2,3	1,9
Asosiy firmalar	5,0	5,1	2,8	2,2	1,8
Oligopollar	36,4	35,6	18,0	14,5	2,8
Kichik firmalar	52,4	56,3	76,7	81,0	93,5
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Jadvalda keltirilgan raqamlardan ko`rinib turibdiki, kichik firmalar yildan-yilga ko`payib bormoqda va miqdor jixatdan juda ko`pchilikni tashkil etadi. Haqiqatdan ham kichik biznes bilan juda katta ko`pchilik shug`ullanadi.

Umuman olganda yirik va o`rta biznes uchun mayda biznes asos bo`lib hisoblanadi. Ular o`zaro kooperatsiya shaklida faoliyat ko`rsatadi va maydalar yiriklarni to`ldirib keladi.

Amerika statistikasi bo`yicha mayda firmalarga 50 kishigacha band korxonalar kiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu raqam 1-10 kishini tashkil etadi. Bu firmalar shunchalik asosliki, u ko`p pog`onali bozor iqtisodiyotida fundamental quyi qavat hisoblanadi.

Mayda biznes individual, oilaviy va kichik guruxiy shakllarida bo`ladi. Bu hunarmandchilik, kosibchilik, savdoda, xizmat ko`rsatish sohalarida juda avj olgan. Eng muhimi, bu avvalo daromad manbai, tirikchilik asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham ommaviy tus oladi. Shu bilan birga iste`mol buyumlari ishlab chiqarish va ularni sotishda katta o`rin egallaydi. Ko`p xollarda bu ko`pincha daromad va faoliyat qismi bo`lib, pul jamg`armasiga ega bo`lgan yollanma ishlovchilar ham bunday biznes bilan shug`ullanadilar.

Mayda biznes o`z ommaviyligi bilan YaMM va xalq ta`minotida asosiy o`rinni egallab, Amerika iqtisodiyotida juda ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, AQSH davlatining yuzaga kelishi, rivojlanishi erkinlik ruhiyatida davom etib, bu o`ziga xoslikni shakllantirgan. Mavjud tabiiy va ijtimoiy sharoit ishbilaromlik, tashabbuskorik, ijtimoiy faollik ruhida bo`lishga moyilik tug`dirib, har qanday qiyinchilik, mehnatsevarlikka da`vat qilgan. Bu siyosiy erkinlik, demokratik tizim sharoitida jamiyatning shakllanishi, iqtisodiy rivojlanishning tezlashuvi va sog`lom ravishda davom etishiga katta ta`sir ko`rsatib keladi. Siyosiy, iqtisodiy erkinlik haqiqiy kuchli davlat va jamiyatni yaratishga olib kelgan. Albatta bunda avvalo kuchli, taraqqiy etgan bozor munosabatlari asosidagi iqtisodiyotning xal qiluvchi ahamiyati kattadir. Aytish mumkinki, AQSHni shu darajaga yetkazgan avvalo uning qudratli bozor iqtisodiyotidir.

Iqtisodiyotni sog`lomlashtirish, raqobatdoshlikni ta`minlash, ish o`rinlarining qimmatlashib borishi kabilar va shuningdek ayniqsa xomashyolarga jahon narxnavolarining ko`tarilib borishi yangi resurslarni saqlovchi texnologiyani qo`llash, mehnat unumdorligining o`shishini ta`minlovchi texnika va ish usullarini qo`llagan xolda ishlab chiqarishni yangilab borish ilg`or iqtisodiyotni yuzaga keltirishda asos bo`lib xizmat qilgan. Bu esa ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish va yangi serunum texnika va texnologiyalarga talabni kuchaytirib bordi.

AQSH o`zining qudratli iqtisodiyoti salohiyatidan foydalangan xolda o`zining manfaatiga xos davlatlarni rag`batlantirish va moliyaviy qo`llashda bevositalik bilan jahon banki, Halqaro moliya fondi va qator halqaro tashkilotlar ta`sirli o`rin egallagani uchun bularning imkoniyatlarini ham ishga solib, vositachilik usulidan ham keng foydalanadi. Shu bilan birga Shimoliy Amerikada erkin savdo bo`yicha kelishuv ham kelajakda AQSH iqtisodiyotiga katta naf keltirishi kutilmoqda.

Amerika statistikasi bo`yicha mayda firmalarga 50 kishigacha band korxonalar kiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu raqam 1-10 kishini tashkil etadi. Bu firmalar shunchalik asosliki, u ko`p pog`onali bozor iqtisodiyotida fundamental quyi qavat hisoblanadi.

Mayda biznes individual, oilaviy va kichik guruxiy shakllarida bo`ladi. Bu hunarmandchilik, kosibchilik, savdoda, xizmat ko`rsatish sohalarida juda avj olgan.

Eng muhimi, bu avvalo daromad manbai, tirikchilik asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham ommaviy tus oladi. Shu bilan birga iste'mol buyumlari ishlab chiqarish va ularni sotishda katta o`rin egallaydi. Ko`p xollarda bu ko`pincha daromad va faoliyat qismi bo`lib, pul jamg`armasiga ega bo`lgan yollanma ishlovchilar ham bunday biznes bilan shug`ullanadilar.

Takrorlash uchun savollar

1. AQSHning iqtisodiy salohiyati nimalarda ifodalanadi?
2. AQSH bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. AQSH iqtisodiyotida xizmat sohasining ustunligini qanday tushuntirish mumkin?
4. AQSH bozor iqtisodiyoti rivojlanishida federal boshqaruv nimalarda o`z ifodasini topadi?
5. AQSH iqtisodiyotining baynalminalligi nimalarda aks ettiriladi?
6. Dollarning AQSH iqtisodiyotidagi ichki va tashqi omillari ta'sirini ifodalab bering.
7. AQSH bozor iqtisodiyoti xalqchiligi nimalarda o`z ifodasini topadi?
8. AQSH iqtisodiyoti tarmoqlarida mexnat unumdorligini oshirishda xalqiluvchi o`rin nimalarda aks etadi?
9. AQSH jahon yalpi ichki mahsulotini qancha qismini yetishtiradi?
10. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi AQSH da namoyon bo`lishiga sabab nimada deb o`ylaysiz?

6 - BOB. GERMANIYA DA BOZOR IQTISODIYOTI TAJRIBSI

6.1. Germaniya iqtisodiyoti salohiyati

Iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha Germaniya eng yetakchi mamlakatlardan hisoblanadi. Sanoat, ishlab chiqarish miqyosi bo'yicha dunyoda AQSH, Yaponiya va Xitoydan keyingi o'rinni egallaydi.

YAIM bo'yicha jahonning 4,6 foizini tashkil etadi. Jon boshiga YAIMning to'g'ri kelishida ham ilg'orlardan bo'lib, birinchi o'nlidan o'rin egallaydi.

Germaniya eng rivojlangan mamlakatlar kabi ko'p ukladli iqtisodiyotga ega va kichik biznesning o'rni katta hamda, sanoat mahsulotlarida $\frac{1}{2}$ qism, eksportda 40 foiz, investisiyada 44 foiz shu sohaga tog'ri keladi.

G'arbiy yevropaga nisbatan olinsa, barcha tomondan deyarli birinchi o'rinda turadi. Aholi 81 mln. kishi. Germaniya jahon xo'jaligi bilan jips bog'langan va tashqi savdo bo'yicha eng yirik mamlakatlardan bo'lib, AQSHdan keyingi o'rinda turadi. Shu bilan birga kapital eksporti va importi bo'yicha ham eng yetakchilardan hisoblanadi.

Germaniya yevropa hamkorligi tashabbuskorlaridandir. Hozirgi vaqtda yevropada halqaro iqtisodiy integratsiyasini kengaytirish va chuqurlashtirish tarafdorlaridan hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning sifatligi bilan ham ajralib turadi va mehnat unumdorligi darajasi, kapitallashuv va ishlab chiqarishning ilm sig'imligi kabilar bo'yicha dunyoda eng ilg'or mamlakatlardandir.

Germaniya
Tashqi qarz (yalpi ichki mahsulotga nisbatan, %): 176,8%
Yalpi tashqi qarz miqdori: 4,97 trln. \$
Yalpi ichki maxsulot (2009): 2,81 trln. \$
Kishi boshiga tog'ri keluvchi tashqi qarz miqdori: 60 357 \$

Germaniya foydali qazilmalarga boy emas.

Shuningdek qishloq xo'jaligi uchun ham ortiqcha yaxshi sharoitlarga ega emas. Shunga qaramay ilmiy-texnik rivojlanish, "inson kapitali"ning yuqori sifatligi, jahon xo'jalik aloqalarida faol qatnashuvi, ichki aqlli iqtisodiy siyosatning qo'llab borishligi natijasida ulkan iqtisodiy salohiyatni yarata olgan.

Aholi miqdori to'xtovsiz o'zgarib turadi. Aytaylik, birinchi va ikkinchi jahon urushlarida aholi ancha qisqargan. Shu bilan Ikkinchi jahon urushidan keyin Sharqiy hududlardagi aholi boshqa nemis davlatida bo'lgan. Hozirgi vaqtda yana qo'shilib,

aholisi soni ancha ko`paydi. Bundan tashqari ikki urush o`rtasida chetdagi nemislar immigratsiyasi natijasida aholi qo`shilgan. Lekin keskin rivojlanish davrlarida ish kuchiga talab oshib, chet ishchilar hisobiga ham aholi oshib bormoqda. Yuqori maosh, turmush darajasi chetdan keluvchilarni o`ziga jalb etadi. Bu qo`shni Italiya, Yugoslaviya, Gretsiya, Turkiyadan kelganlar hisobiga yuz beradi. sobiq SSSR, Polsha, Ruminiya kabilardan nemislarning qaytishi ham katta o`rin egallagan. Shunday qilib, aholi 90 – yillarning oxiriga kelib 6,5 mln.ga ko`paydi.

Uzoq vaqt ichida ishsizlik muammoga aylanmagan va bandlik yuqori darajada saqlanmoqda. Lekin 90 – yillar oxiriga kelib ishsizlik orta boshladi va G`arbda 11 foiz, Sharqda 17,7 foizga yetdi. Bu uqklik va tuzumiy o`zgarish natijasidir. Bunda tarmoqlar o`zgarishi, Sharq va G`arb birlashuvining hissasi kattadir.

Ish o`rin bahosi yuqori va ishchi sifati ham eng yuqorilardan hisoblanadi. Bu bilim darajasi, ijtimoiy tizim, sog`lomligi, yangilikni tez o`zlashtirish qobiliyati kabilar bilan belgilanadi. Germaniyada yuqori malakali ishchilar 50 foizni tashkil etadi. Bunda bilim, tibbiyot, kasaba bilimlik katta o`rin egallaydi.

Ko`pchilik tabiiy boyliklar, energiya xomashyolari asosan chetdan keltiriladi. Xududlari asosan to`la o`zlashtirilgan va shahar aholisi 90 foizni tashkil etadi.

Milliy iqtisodiy model “ijtimoiy bozor xo`jaligi” deb ataladi. Bu mavjud sobiq totalitar iqtisodga qarshi qaratilgan. Buning asoschisi L. Erxard hisoblanadi. Bundagi eng muhim tomonlar quyidagilardan iborat:

-bozor iqtisodiyoti asosi bo`lgan xususiy mulk, erkin raqobat, erkin baho shakllanishi ishlab chiqarish resurslaridan optimal foydalanish imkonini tug`dirib, aholi talabini to`la qondirish sharoitini yaratadi;

-davlatning faol roli va fuqaroning erkin iqtisodiy faoliyatini ta`minlab, pul muomalasini tashkil etish, iqtisodiy inqirozlarni oldini olish, ijtimoiy odillikni ta`minlash, iqtisodiy monopoliyaga yo`l qo`ymaslik va raqobat uchun teng sharoitlar yaratishni amalga oshiradi.

“Ijtimoiy bozor xo`jaligi” siyosati 50 yil ichida 4 marta tushkunlikka uchradi. Bular tuzumiy o`zgarishlar, moliyaviy takomillashuv, ijtimoiy o`zgarishlar tufayli

oldi olinib, rivojlanishga yoʻl ochilgan. Oxirgisi konsolidatsiya bilan bogʻlanib, bu ham tub oʻzgarishlarni talab etgan.

GFR iqtisodiy siyosatining ustuvor maqsadi farovon jamiyat shakllanishidir. Oʻtgan asr 50 – yillaridayoq yuqori turmush darajasi qoʻlga kiritilgan edi. 80 – yillardan boshlab intensiv iqtisodiy oʻsishga oʻtilgan. Hozirgi vaqtga kelib, haqiqiy postindustrial jamiyat shakllangan va axborot jamiyatining asosi yuzaga kelgan. Shu bilan birga mamlakat bir qancha xususiyatlarga ega.

6.1.1.-jadval

Malakatlarning YAIM yaratish boʻyicha reyting tablitsasi (2009 yil)

Oʻrni	Iqtisodiyoti	Xajmi (mln.)
	Barcha mamlakatlar	60,587,016
1	AQSH	14,204,322
2	Yaponiya	4,909,272
3	Xitoy	4,326,187
4	Germaniya	3,652,824
5	Fransiya	2,853,062

Germaniya keyinroq industriya yoʻliga oʻtgan boʻlsa ham juda tez birinchilar qatoriga yetdi. Hozir u oʻrta industriyalashtirilgan mamlakat hisoblanadi. Milliy xoʻjalikda boshqa mamlakatlarga nisbatan sanoat hissasi katta – u YAIMda 39 foizga teng. U juda tez tuzumiy oʻzgarishlarni amalga oshiradi. Sanoatda yetakchi sohalar asosni tashkil etadi. Ilm sigʻimli tarmoqlar, anʼanaviy tarmoqlarni yangi texnologiya asosida qayta yangilash, texnik rivojlantirishda raqobatdan keng foydalanish Germaniya sanoati uchun xos xususiyatdir.

Hozirgi vaqtda investitsiya yoʻnalishi asosan texnologik yangilanish va jixozlarni yangilashga qaratilib, deyarli 80 foizni tashkil etadi va 20 foizginasi ishlab chiqarish quvvatini oshirishga ishlatiladi.

Oʻtkir raqobat sharoitida Germaniya oldida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish muammosi turibdi. Germaniya raqobatbardoshligining muhim tomonlaridan biri – mahsulotning yangilanib turishidir. Bu sohada ham Germaniya ilgʻor oʻrinlarni egallaydi. Umuman olganda Germaniya sanoati: ishlab chiqarishning

yuqori sifatli darajadali va keng assortimentli buyumlar ishlab chiqarishi; xalqaro standartlardan foydalanish va ayni vaqtda individual, unikal buyurtmalarni bajarishi; mahsulot yetkazib berishni o'z vaqtida bajarish; mahsulotlar sotishning keng tarmog'iga egaligi va savdodan keyin xizmat ko'rsatish, umuman yuqori darajali raqobat talablariga mos kelish xususiyatlariga to'la ega.

Germaniya qishloq xo'jaligi ham ilg'orligi bilan tavsiflanadi. Bunda industrial usullarni keng qo'llash, qishloq xo'jalik amaliyotida ilmiy-texnik rivojning qo'llanilishi yuqori darajadali, intensivlikni yuqorilashuvi, agrosanoat kompleksining shakllanishi katta o'rin egallaydi. Bunda ham YAIMda qishloq mahsuloti ko'p emas, faqat 1,5 foizga teng. Lekin xalq iste'molini to'la ta'minlaydi. Ammo chorvachilik ustunlik qiladi.

Qishloq xo'jaligi texnik ta'minlanganligi bilan farqlanadi. Shu bilan birga zamonaviy, yuqori unumli texnika ortib bormoqda. Kimyoviy usullar, mineral o'g'itlar ishlatilish kengaymoqda. Qishloq xo'jaligida yiriklashuv tezlashmoqda. Shuning uchun ham xo'jaliklar son jixatidan kamaymoqda.

Germaniya o'rta industrial davlat bo'lishiga qaramay, keyingi yillarda xizmat ko'rsatish kengayib, uning YAIMdagi hissasi ortib bormoqda va bu sohadagi bandlik ham ko'paymoqda. YAIMda xizmat ko'rsatish 37 foizga yetgan. Bunga texnik taraqqiyot tezlashuvi va xizmat ko'rsatishga talabning ortishi sabab bo'lsa, shu bilan birga davlatning ijtimoiy siyosatini ham ta'siri katta. Hozir bandlikning 53 foizi xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi.

Germaniya bozor iqtisodiyotida kichik biznesning o'rnini katta. Mayda biznes 10 kishigacha bandlik bilan belgilansa, o'rta biznes 500 kishigacha belgilanadi. Hozir Germaniyada firmalar umumiy sonining 99,8 foizi shu mayda biznesga to'g'ri keladi. YAIMda esa bularning hissasi 46 foizga to'g'ri keladi. Sanoatda esa mahsulotning $\frac{1}{2}$ qismi, yalpi investitsiyaning 44 foiz va tovar eksportining 40 foizi shu kichik biznesnikidir.

Kichik biznes davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi. Bu yiriklarning raqobat ta'siri, xo'jalik qiyinchiliklarini yengish, kredit qo'llash, soliqdagi rag'batlantirish, davlat buyurtmalarini joylashtirish, axborot xizmatlarini

tashkil etish, marketing xizmati ko'rsatish, kadrlar bilan ta'minlash kabilarda o'z ifodasini topadi. Bu innovatsiya sohasida ham qo'llaniladi.

Davlat qo'llashi kichik va katta, yirik ishlab chiqarishlar o'rtasidagi mutanosiblikda ham katta ahamiyatga ega.

Moliya bozorining ishlab chiqarish ustidan nazorati mavjudligi Germaniyaga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Bu banklarning aksiyaga egaliklari orqali amalga oshiriladi va muhim moliyaviy yechim va innovatsiya qarorlariga taalluqlidir. Bank nazorati mexanizmi firmalar ichki ma'lumoti, ishlab chiqarish, moliyaviy, innovatsion faoliyatlariga to'g'ridan-to'g'ri qatnashuvga asoslangan.

Mamlakat ichida chet tadbirkorlik kapitalining hissasi katta. Ayniqsa AQSH TMK (trans milliy korporatsiyalar)ining ta'siri sezilarli. Hozir qo'shni mamlakatlar va Yaponiya kapitali qatnashuvi ham salmog'li bo'lib bormoqda.

Germaniya iqtisodiyotida sanoat, bank va boshqa kompaniyalar birlashuvidan iborat moliya kapitalining o'rnini katta. Bunda biznes strategiyasini aniqlash muhimdir. Tadbirkor Ittifoqi mavjud bo'lib, ularning boshida yirik konsern va banklar turadi. Nemis ish beruvchilar Federal birlashmasi tashkil etilgan, bu xususiy ish beruvchilar – tadbirkorlarning bosh tashkiloti bo'lib, muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni xal qilish asosiy vazifa hisoblanadi. Buning miqyosi tarmoq, federal yerlar chegarasidan chiqib ketadi va mamlakatga taalluqli tadbirkorlar manfaatini ko'zlab, hukumat, parlament, siyosiy partiya, jamoatchilik oldida himoyalaydi.

Germaniya iqtisodiyotida bank tizimining o'rnini katta. Iqtisodiy samaradorlik pul mustahkamligi va valyuta tizimiga asoslangandir. Mamlakat ijtimoiy tuzumida kredit muassasalari juda mustaxkam o'rinni egallaydi. Hammasi bo'lib 49 mingga yaqin bank bo'limlari mavjud bo'lib, buning ichida 4 mingi mustaqil ish yuritadi. Bank xizmatchilari barcha bandlikning 3 foizini tashkil etadi. Bank tizimi ikki pog'onali bo'lib, bir tomonda Markaziy Bank va ikkinchi tomonda, xususiy banklardir. Bularning vazifalari qat'iy chegaralangan. Markaziy Bank xududiy bo'limlarga ega va bular 200 dan ortiqdir. Markaziy Bank (Bundesbank) Federal hukumatga qaraydi va faoliyatida hukumat qatnashadi. Bank direktorlar Kengashi a'zolari hukumat tavsiyasi bo'yicha Prezident tomonidan tasdiqlanadi.

Bundesbankning eng muhim vazifalaridan biri pul siyosatini amalga oshirishdir, avvalo uning qadrini saqlash, qiymatini ta'minlashdir. Bu haqiqatdan ham banklar banki, davlat bankidir. Bunda pul massasini tartiblashtirish va buning iqtisodiy salohiyatdan kelib chiqishini ta'minlashdir. Halqaro taqqoslashda nemis markasi eng mustaxkam valyutalardan bo'lib, jahonda o'z mohiyati bilan 2 – pul rezervi hisoblanadi.

Bank tizimining ikkinchi darajadagilari tijorat banklaridir. Bular asosan universal kredit muassasalaridir. Banklar markazlashuvi davom etib, yirik banklar qo'lida kapital ko'payib bormoqda.

Germaniya hukumatining iqtisodiy siyosatida tashqi aloqaga alohida e'tibor qaratiladi. Asosiy tashqi iqtisodiy aloqada yeI, AQSH va Yaponiyaning o'rnini katta. Shu bilan birga boshqa hudud va mamlakatlar bilan aloqa olib borishga harakat qilinadi. Albatta asosiy diqqat yeI mamlakatlariga qaratiladi. Tashqi savdo Germaniya iqtisodiyotining stimulyatori hisoblanadi. Shuning uchun ham YAIMda katta o'rin egallaydi va 90 – yillarga kelib, 33 foizga yaqin bo'ladi. Lekin konsolidatsiya natijasida bu ko'rsatkich biroz pasaydi.

Germaniya tashqi savdoda doimo ijobiy balansga ega bo'lib keladi. Eksportda sanoat mahsulotlari asos bo'lib, mashina va jihozlar ko'pchilikni tashkil etadi, ya'ni $\frac{1}{2}$ qismdan iborat, sanoat xomashyosi, yarimfabrikatlar $\frac{1}{4}$ ni tashkil etadi. Iste'mol buyumlari esa $\frac{1}{10}$ atrofidadir. Kimyo mahsulotlari va avtomobil bo'yicha dunyoda liderlik qiladi. Qishloq xo'jalik tovarlari eksporti bo'yicha AQSH, Fransiya va Niderlandiyadan keyin 4-o'rinda turadi.

Germaniya eksportini rivojlangan moliyalashtirish va tashqi iqtisodiy faoliyatni sug'urtalash tizimi rag'batlantiradi. Importda esa asosiy qism tayyor sanoat mahsulotlari va yarimfabrikatga to'g'ri keladi. Bunda asosiy o'rinni yeI egallaydi – 55 foiz.

Kapital eksportida ham Germaniya eng yetakchilardan hisoblanadi va dunyoda uchinchi o'rinda turadi. 90 – yillarda chet nemis investitsiyasi 1564 mlrd. markani tashkil etgan. Kapital importi xajmi katta emas. Bu soliqning yuqoriligi, mehnat haqi yuqoriligi kabilan bog'langan.

Germaniyaning investitsiya sheriklari AQSH va yevropa mamlakatlaridir. Lekin boshqa mamlakatlar, ayniqsa Janubiy-Osiyodagilarning hisyasi ham ortib bormoqda.

6.2. Ijtimoiy bozor xo'jaligi modeli

Germaniyada ijtimoiy bozor xo'jaligi shakllangan bo'lib, Ikkinchi Jahon urushidan keyin qisqa vaqt ichida xonavayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklab, tezda rivojlanishni ta'minlash bilan birga yangi milliy bozor iqtisodiyoti modelini yuzaga keltirishga muvaffaq bo'lingan edi.

Ijtimoiy bozor xo'jaligi modeli markazlashtirilgan ma'muriy milliy sotsialistik usuliga qarshi, shuningdek sotsializm iqtisodiy modeliga qarma-qarshi xolda yuzaga keladi. Ma'lumki, bu usullarda xo'jalikning boshqarilishini to'la markazlashtirgan xolda ma'muriy yo'llar bilan xo'jalik yuritish, deyarli barcha xolatlarni oldindan belgilashga asoslangan edi. Albatta bunda tashabbuskorlik, shaxsiy manfaat ustuvorligi inkor etilar va xo'jalik yuritish sharoitlari to'la e'tiborga olinmas va iqtisodiy erkin faoliyat amaliy chegaralangan edi.

Bu bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining harakatini to'xtatar, erkin faoliyatga yo'l bermagan xolda taraqqiyotga katta zarar keltirililar va asosiy diqqat harbiy iqtisodiyotni kuchaytirishga qaratilgan edi. Yangi model esa umuman boshqacha usuldagi xo'jalik yuritishni boshqarish edi. Bunda ijtimoiy yo'nalish iqtisodiyotga yangicha mazmun etib, xalq manfaatiga e'tibor asos hisoblanadi. Bu hozirgacha davom etib, davr talablariga ko'ra takomillashtirib kelinadi.

Ijtimoiy bozor xo'jaligining **nemischa milliy modeli** iqtisodiy taraqqiyot uchun zarur bo'lgan milliy birlik, davlat bilan aholi o'rtasidagi muvozanat mustaxkamligi, iqtisodiy o'sishdagi zarur resurslarni to'g'ri taqsimlab, ulardan samarali foydalanishdagi eng ma'qul usul bo'lib, o'zining hayotiyiligini o'tgan davr ichida isbotlab berdi. Haqiqatdan by model taxsinga sazovor va uni o'rganish foydadan xoli emas.

Germaniyacha ijtimoiy bozor xo'jaligi erkinlikka asoslangan va individual mustaqillikka qaratilgan. Lekin kuchli davlat ta'sirini ko'zda tutadi. Asosiy maqsad

shuki, davlat avvalo raqobatni ta'minlash bilan birga kuchli ijtimoiy siyosatni qo'llaydi. Bu esa iqtisodiy turg'unlik va odillikni qat'iy ta'minlashni talab etadi.

Ijtimoiy bozor xo'jaligi shunday tartibni o'rnatadiki, bunda davlat huquqiy tartibni va jamiyat farovonligini o'rnatish bilan birga qo'shimcha bir qancha vazifalarni ham bajaradi, qaysiki mavjud shart-sharoit, vaqt talabi, iqtisodiy zaruriyat tufayli o'zgarib moslashib boradi.

Ijtimoiy bozor xo'jaligidagi eng asosiy xususiyatlardan biri, davlatning iqtisodiyotdagi katta o'rni mavjud ekanligi hamda iqtisodiy taraqqiyot va faoliyatdagi ta'sirining kuchliligidir. Bu davlatning xo'jalik yuritishga bevosita aralashuvi emas, balki vosita usullari bilan ta'sir etish va bu yo'l bilan iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlashdir. Bu qonunlar, tartib-qoidalarni belgilash va taqsimotda faol ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy o'sish bilan boylikni, tenglikni ta'minlash yo'lida, taqsimlash o'rtasida kelishuvni ta'minlash usullarini keng qo'llaniladi. Masalan, taqsimlanmagan foydadan olinadigan soliq 65 foizni tashkil etadi. Agar taqqoslasak bu ko'rsatkich AQSHda – 32 foiz, Angliyada – 45 foizga tengdir.

Milliy daromadni taqsimlashda davlat ishtiroki juda yuqori darajadadir. Bu 50 foizni tashkil etadi. Davlatning ijtimoiy kafolatlik roli ham katta va bu sohada ko'p yukni o'ziga oladi, ijtimoiy ta'minot va boshqa inson bilan bog'liq iqtisodiy muammolarni davlat o'z gardaniga oladi va amalga oshiradi. Ko'p narsalar to'ppa-to'g'ri davlat ijrosida amalga oshirilsa, qolgan tomonlar bu sohada ish o'rni bahosi orqali bajariladi. Shunga ko'ra Germaniyaga xos narsalardan yana biri ish joyining dunyoda qimmatligidir. Buning ichida ijtimoiy xarajatlar ham mavjuddir. 90 – yillar o'rtasiga kelib bir soatlik ish vaqti 45 marka bo'lib, bu AQSHga nisbatan uch barobar ko'p bo'lgan. Bunda albatta mehnat unumdorligi yuqoriligining ta'siri ham katta.

Ijtimoiy bozor xo'jaligida ishsizlikning juda pastligi va bandlikning yuqori darajada bo'lishi ham o'z ifodasini topadi. Chunki bunga oid ko'p ishlar, usullar qo'llanilib turadi. Eng muhimi iqtisodiy taraqqiyot, ishlshab chiqarishning o'sib borishi, ish joylarining tashkil etilishi va xizmat ko'rstaish sohasining o'sishidir.

Farovonlikka qaratilgan ijtimoiy bozor xo'jaligidagi natijalardan yana biri kichik biznes rivoji va uning keng salmoqligi, ommaviy darajada bo'lishi, bunga

davlatning e'tibori hamda uning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishidir. O'tgan asr 50 – yillardayoq bandlikning yarmidan ko'pi shunga to'g'ri kelgan va umuman aholining farovonligi asosi deb qaralgan. O'sha vaqtdayoq sanoat mahsulotining yarmi kichik va o'rta biznesga to'g'ri kelgan.

Bu modelning yana bir muhim tomonlaridan biri ichki bozorni to'la ta'minlashga harakat qilish bo'lib, avvalo eng ommaviy iste'mol tovarlari bilan bozorni to'ldirish va bu sohada yetishmovchilikka yo'l qo'ymaslikdir. Shu bilan birga haqiqiy bozorbop moliya tizimini shakllantirish va marketing qadrini oshirib borish, uning xaridlik quvvatini ko'tarib borish uchun zarur tadbirlarni doimo qo'llab borish hamma vaqt davlat diqqatida bo'lib, markaning dunyoda eng kuchli valyutalar qatorida ushlab turish, uning halqaro obro'sini ko'tarib borish muhim hisoblanib keladi.

Ijtimoiy bozor xo'jaligining nemischa milliy modeli iqtisodiy taraqqiyot uchun zarur bo'lgan milliy birlik, davlat bilan aholi o'rtasidagi muvozanat mustaxkamligi, iqtisodiy o'sishdagi zarur resurslarni to'g'ri taqsimlab, ulardan samarali foydalanishdagi eng ma'qul usul bo'lib, o'zining hayotiyiligini o'tgan davr ichida isbotlab berdi. Haqiqatdan bu model taxsinga sazovor va uni o'rganish foydadan xoli emas.

6.3. L. Erxardning “Iqtisodiy ravnaq” dasturi

Ikkinchi Jahon urushi natijasida Germaniya katta talofotlarga uchrab iqtisodiyoti chuqur tushkunlik darajasida edi. Xududlari esa asosan ikki bo'lakka, ya'ni G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linib ketgan edi. Sharqiy qismi sobiq sovet tizimi asoratida bo'lib, bunda iqtisodiy yo'nalish sotsializm g'oyasi asosida ijtimoiylik hukmronligi tiklana boshlaydi. G'arbiy Germaniya esa kapitalistik iqtisodiy tamoyillar asosida tiklanadi.

G'arbiy Germaniya uch zonaga bo'linib, AQSH, Angliya va Fransiya okkupatsiya hokimligi asosida bo'lgan. AQSH va Angliya zonalari qo'shilib, bizoniya tashkil etiladi. Bunga G'arbiy Germaniya xududining asosiy qismi kiradi.


Iqtisodiy tiklanish umuman “Marshall rejasi” asosida amalga oshib, jarayon juda tezlik bilan davom etadi.

Bunda o`sha vaqt iqtisodiyot vaziri, so`ngra Germaniya Prezidenti Lyudvig Erxard dasturi va bevosita boshchiligi asosida amalga oshirilgan neoliberallik tamoyillidagi “ijtimoiy bozor xo`jaligi” konceptiyasi asos bo`lib hisoblangan. Bunda erkin bozor iqtisodiyoti, davlat yordamida turli aholi tabaqalari o`rtasidagi daromadlar farqini tenglashtirish, davlat ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish va bozor iqtisodiga ma`lum darajada haqqoniyat kiritish ko`zda tutiladi.

Bunday iqtisodiy siyosat asosida quyidagi tamoyillar yotadi: davlat bevosita xo`jalik jarayonlarini tartibga solish bilan shug`ullanmaydi, lekin xususiy sub`ektlarning erkin raqobat sharoitlarini belgilaydi va sharoitlar chegarasini o`rnatadi. Bunday tartibni o`rnatish uchun harakatga layoqatli, ammo davlat ta`sirida bo`lmagan baholar tizimi, pul muomala turg`unligi, ochiq bozorlar, xususiy mulk, javobgarlik normalari, shartnomalar tuzish erkinligi, mamlakatda iqtisodiy siyosatning turg`unligi

mavjudligi talab etiladi. Bu tamoyillar bozor munosabatlari tug`diradigan ijtimoiy tengsizlikni yumshatuvchi kuchli davlat ijtimoiy siyosati bilan to`ldirib turilishi zarur. Shunday qilib, eski erkin bozorning liberal g`oyalari yangilari bilan to`ldirilib, davlatning ijtimoiy muammolarini xal qilishdagi javobgarligi qo`shilib, bu siyosatga yangi liberalizm deb nom beriladi.

6.3.1- chizma Germaniya iqtisodiy modeli



Bu siyosat o'zining yuqori samaradorligini ko'rsatib aholisi uchun juda yoqimli edi. Shu bilan birga urushdan keyingi Germaniyaning iqtisodiy juda qiyin axvoli xo'jalikning markaziy tartiblash davlat qo'lga topshirishni taqozo etar davlat tartiblashtirishi g'oyasini olding har tomonlama qo'llanilar edi. Eng muhimi shuki, bu siyosatda iqtisodiy o'sish bilan boylikni teng taqsimlashga urinish o'rtasida kelishuvchanlik xosil qilinadi edi.

davlatning faol roli va fuqaroning erkin iqtisodiy erkin iqtisodiy faoliyatini taminlab, pul muomalasini tashkil etish, iqtisodiy monopoliyaga yol qoymaslik va raqobat uchun teng sharoitlar yaratishni amalga oshiradi.

Erxardning fikricha "Bozor iqtisodiyoti faqat erkinlik sharoitida kuchga kiradi. Bu iste'mol, kasb tanlash, ish joyini tanlash, tadbirkorlik faoliyatini tanlash, xususiy mulkni tasarruf etishni tanlash, ayniqsa ishlab chiqarish vositalarini tanlash, shartnomalar tuzish erkinligi kabilardan iborat. Siyosiy erkinlik kabi iqtisodiy erkinlik ham juda zarur", deydi.

Iqtisodiy jonlanish shaxsiy tashabbuskorlik va raqobatning xo'jalik hayotda davlat faolligi bilan bog'lashni taqozo etadi. Erxard kuchli davlat g'oyasini asos bilib, davlatning konstitutsiyalashtiruv, tartiblashtiruv kuchlariga ega bo'lishi va jamiyatni shakllantirishga layoqatligi g'oyasini oldinga suradi.

Erxard islohotlari ko'zlagan past narx-navo, past soliqlar, erkin baho, antitrust va antikartel farmonlari, xususiylarga ko'rsatiladigan imtiyozlar, ichki bozorni tashqi raqobatdan himoyalash kabilar mo'jiza kuchiga ega edi. Bular iqtisodiy tiklanishni jonlantirib, ajoyib natijalarga olib kelgan edi. Aqlli ravishda ichki bozorni himoya eta bilish va o'z muhitida erkin harakat qila olish yaxshi muvaffaqiyatlar bergan edi.

Islohat tadbirlari avvalo pul va bahodan boshlanib, mustaxkam valyutani yaratishga qaratiladi. Yangi davlat markasi davlat puli sifatida kiritilib, juda ehtiyotkorlik bilan eskisini almashtiradi va muomalaga kiritiladi. Bunda ish haqi va nafaqalarga zarar keltirmay, himoya qilishga katta e'tibor beriladi. Emissiya banki ta'sis etiladi va shu bilan birga uning xususiy banklar bilan bo'ladigan munosabatlarini belgilovchi Nizomi tasdiqlanib, baho erkinligi kiritiladi. Resurslarni ma'muriy tarzda taqsimlash bekor etilib, shu vaqtgacha iqtisodiy munosabatlarni belgilovchi xujjatlar ham harakatdan to'xtatiladi. Kreditlar to'g'risida yangi normativ

xujjatlar qabul qilinadi. Soliq siyosatlariga yangiliklar kiritiladi. Antimonopol va antikartel normativ xujjatlar qabul qilinadi.

Iqtisodiy islohotdagi har bir tadbir juda aniqlik, o`rinli va maqsadli ravishda bajarilishini ta`minlanishiga katta e`tibor qaratiladi. Masalan, reyxs markaning kiritilishini olsak, barcha tomonlarni puxta o`ylab hisobga olgan xolda ish yuritiladi. Bunda ayniqsa bozorda tovar – pul muomalasining normal xolda bo`lishiga ahamiyat kuchli bo`ladi. Buning uchun yangi pulni almashtirish qattiq chegaralanib, oldin 40 marka, so`ngra esa 20 marka belgilanadi. Bozorda tovarlar mavjudligini ta`minlash uchun xatto ulgurji savdogarlar shaxsan safarbar etiladi. Hukumat “har kishi uchun tovar” degan dastur qabul qilib, unda arzon iste`mol tovarlari ishlab chiqarish belgilanadi.

Bu tadbirlar narx-navoni muntazamlash, so`ngra uni pasaytirish, reyxs markaning qudratli qilish amalga oshirilib, iqtisodiyotni jonlantirish va tiklash amalga oshirilgan xolda aholi ta`minotini yaxshilash ta`minlangan edi. Hukumat xalq noroziligiga yo`l qo`ymaslikka harakat qilib, bu bilan ikkinchi tomondan okkupasion hokimiyatga nojo`ya harakatlar uchun sabab-bahona bermaslikka urinar edi.

Bunday harakatlar juda tez o`z natijasini berdi va birinchi yilning o`zidayoq ishsizlik kamayadi va mehnat unumdorligi 30 foizga oshadi. Xonavayron bo`lgan iqtisodiyot tez tiklanib, keyingi o`shishga asos solina boshlaydi. Shu bilan birga boshqacha asosdagi iqtisodiyot yaratila boshlandi. Pul islohatining muvaffaqiyati iqtisodiyotni liberallashtirish nafaqat bahoni, shuningdek xo`jalikni erkinlashtirish bilan iqtisodiyotning barcha tomonlarini ishga solib yubordi.

Yangi xo`jalik tamoyillari va ijtimoiy tartib yuzaga kela boshladi. Maxsus ijtimoiy bozor xo`jaligi tizimi yuzaga kelib, bu hozirgacha davom etmoqda. Germaniya namunasidagi ijtimoiy bozor xo`jaligi Erxard islohoti bo`yicha yuzaga kelib, u liberal asosdagi xususiy erkinlikka mo`ljallangan va kuchli davlat tartiblashuviga asoslangan bo`lib, u avvalo raqobatni ta`minlovchi va kuchli ijtimoiy siyosatni o`tkazuvchi hamda ijtimoiy haqqoniyatga asoslanuvchi, muntazamlilik tamoyilidan kelib chiquvchi tizimdir. Ijtimoiy bozor xo`jaligi davlatning huquqiy

himoya tartibini ta'minlash va shuningdek jamiyat farovonligini ko'tarish bilan birga qo'shimcha muhim vazifalarni bajaradiki, bular vaqt va iqtisodiy taraqqiyot sharoitlari bilan belgilanadi.

Erxard islohoti natijasida iqtisodiy o'sish yuqori darajada davom etdi va "nemis mo'jizasi" nomini oldi. 15 yil ichida Germaniya ilg'or iqtisodli davlatga aylanib, yevropada birinchi o'ringa chiqdi.

Islohotning birinchi ikki yili ichida tovarlar ishlab chiqarish ikki barobar o'sdi va yillik o'sish 10-15 foizga teng bo'ldi. Yashirin bozor va chayqovchilik yo'q bo'ldi. 1950 – yilga kelib 1939 yil darajasi qo'lga kiritildi, sanoat ishlab chiqarish bo'yicha AQSH va Angliyadan keyingi uchinchi o'ringa chiqdi. Oltin zahirasi bo'yicha ikkinchi o'rinni egalladi. Asosiy kapital to'la yangilandi. Kapital xarajatlar yuqori darajaga yetdi. 1956 – yilda chetga kapital chiqarish 9 mlrd. markani tashkil etdi. Harbiy xarajatlar keskin qisqarib, katta iqtisodiy yuksalish yuz berdi. Islohotlarning o'ninchi yilida yevropa umumiy bozorida ko'mir qazib chiqarishning 60 foiz, po'lat eritishning 50 foiz, eksportning 40 foiz, importning 35 foizi GFRga to'g'ri kelar edi.

60 – yillarga kelib urushdan keyingi iqtisodiy rivojlanish omillari zaiflashuvi natijasida o'sish pasaya boshlaydi. Bu vaqtga kelib rivojlangan mamlakatlar ichida o'sish darajasi eng yuqori va uqlik tebranishlarni tekislashtirishga erishgan mamlakatlarga aylangan edi. Lekin ortiqcha ishlab chiqarish tushkunligi boshlanadi va GFRning jahon ishlab chiqarishdagi hissasi pasaya boshlaydi. Shakliiy tuzilma inqirozi ham qo'shilib, an'anaviy tarmoqlarga ham tarqaladi. Germaniya davlatining tartiblashtiruvii makroiqtisodiy darajada kuchayishi talab etilib, iqtisodiy taraqqiyotning dasturini ishlab chiqish, moliyaviy rejalashtirishni qo'llash kabilar yuzaga kelib, bu GFR taqdirida birinchi shart edi. Davlat iqtisodiy siyosatida joriy va qisqa muddatli, o'rta va uzoq muddatli yoki tashkiliy tuzumiyluk yuzaga keladi.

70 – yillar o'rtasiga kelib Germaniya iqtisodiyotida ikkinchi inqiroz yuz beradi. Bankrotlik keskin o'sadi, inflyatsiya kuchayadi va ishsizlik o'sadi. Bu inqiroz boshqa rivojlangan mamlakatlardagi inqirozga qo'shilib ketib, iqtisodiy vaziyatni ancha chuqurlashtiradi.

80 – yillar boshida GFRda uchinchi iqtisodiy inqiroz yuz beradi. Bunda ham uqillilik tashkiliy-tuzumiylik inqirozi bilan ulashib ketadi. Ishsizlik o`sb, aholining real ish haqi darajasi pasayadi. Germaniyaning tashqi iqtisodiy aloqalari ancha zarbaga uchraydi. Germaniyaning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, ilm sig`imli mahsulotlar eksporti keskin qisqaradi. Bular xo`jalik mexanizmi inqirozidan xabar berar edi.

Bunday xolat hukumat o`zgaruviga olib keladi va iqtisodiy siyosatda yangi burilish yuzaga keladi. Bunda xususiylashtirishni amalga oshirish birinchi vazifa bo`lib, bu bozor kuchlarini mustaxkamlash, bandlik muammosini yechish, iqtisodiy o`shish va davlat moliyasini tartiblashtirish kabilar bilan bog`langan edi. Iqtisodiy siyosatdagi burilish soliqlar islohotini ham o`zi ichiga olgan edi.

GFR iqtisodida to`rtinchi inqiroz 90 – yillar boshida yuz beradi. Bu asosan integratsiya bilan bog`langan bo`lib, birlashuv qiyinchiliklari asosiy sababchi edi. Bu eng og`ir inqirozlardan bo`lib, navbatdagi uqillik iqtisodiy taraqqiyotning ma`lum bosqichi bo`ldi. Bu inqiroz ham muvaffaqiyatli xal qilinib, qo`shilish og`irliklari yengilgan edi.

Yuqorida ko`rib o`tilgan iqtisodiy inqirozlar tavsifi shuni ko`rsatadiki, bular tabiiy xususiyatli bo`lib, tasodifiy va kutilmagan inqirozlar emas. Chunki bular asosan uqillik taraqqiyot va tashkiliy-tuzumiy o`zgarishlar zaruriyati bilan bog`langan iqtisodiy tushkunlik mazmuniga ega edi. Natijada Erxard islohoti asos solgan ijtimoiy bozor xo`jaligi tizimi o`zgarmasdan takomillasha borgan va asosiy iqtisodiy yo`nalish davom etgan. Umuman Germaniya iqtisodiyoti o`zining rivojlangan, ilg`or va jahonda yetakchi iqtisodiyot ekanligi mustahkamlanib borayotganini ko`ramiz.

Germaniya iqtisodiyoti erishilgan muvaffaqiyatlarning darajasini ko`tarib, o`ziga xos ijobiy tomonlarini boyitib, ko`pchilik mamlakatlarga o`rnak vazifasini bajarib kelmoqda va bundagi tajribani o`rganish foydadan xoli emasdir.

6.4. G`arbiy va Sharqiy Germaniyaning qo`shilishi bilan bog`liq iqtisodiy muammolarning xal qilinishi

Germaniya yerlarining qo`shilishi tarixiy voqea bo`lib, yagona Germaniya milliy iqtisodiyotining shakllanishi yangi bosqichdan iboratdir. Bu jarayon shu bilan birga katta qiyinchiliklarni yengish va yirik-yirik sarf-xarajatlarni amalga oshirish bilan bog`langan edi.

Barcha og`irlik G`arbiy Germaniya gardaniga tushib, xarajatlar va butun o`zgarishlarni asosan o`z bo`yniga olgan edi. O`zgarishlarning asosiy qismi G`arbiy Germaniyadagi iqtisodiy tizimni qo`llash va iqtisodiy taraqqiyot darajasiga tenglashtirish bilan belgilanadi. Birlashish bilan bog`liq xarajatlar 2 trln. markani tashkil etgan.

Asosiy vazifalar Sharqiy yerlarning qoloqlikdan chiqarish, iqtisodiy shakliy tuzilmalarni o`zgartirish, ishsizlikni kamaytirish va mehnat unumdorligini ko`tarish, G`arbiy standartlarga tenglashtirish, xususiylashtirishni amalga oshirish kabilardan iborat edi. Sharqda G`arbga nisbatan mehnat unumdorligi uch barobar past bo`lgan.

Sharqiy Germaniyadagi iqtisodiy o`zgarish va uning islohoti quyidagi jarayonlarni o`z ichiga oladi:

- xususiy mulkni kiritish;
- ishlab chiqarish vositalarini xususiylashtirish;
- o`tish jarayonlarini qisqa vaqt ichida amalga oshirish;
- yangi davlat institutlarini joriy qilish;
- bozor iqtisodiyoti o`zgarishlarini amalga oshirish;
- katta xajmda kapital xarajatlarni bajarish.

Qo`shilish vazifalari 1990 – yilda boshlandi. GFR Konstitutsiyasi GDRda ham kuchga kirdi. Valyuta, iqtisodiy-ijtimoiy ittifoqlar tuzildi. Shu bilan birga institusional tashkiliy tuzilmalar kuchga kirdi. Nemis markasi, rivojlangan bank tizimi, moliyaviy boshqaruv tadbiriq etildi. Xususiylashtirish 1994 – yilda yakunlandi. Shu bilan birga xo`jalik tuzumi ham o`zgartirila boshladi.

Boshqa mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy o`zgarishlar ancha qisqa vaqt ichida bajarilib, iqtisodiy tushkunlikni oldi olinib va bundagi ko`p ishlar muvaffaqiyatli

bajarilib, muntazam iqtisodiy o`shishga o`tilgan edi. Lekin keskin o`zgarishlar bir qancha muammolarni yaratib, bularning ichida eng muhimlari ijtimoiy soha bilan bog`langan edi. Ta`sirlisi ko`pchilik korxonalarining yopilishi va ishsizlikning o`shishi edi. Buning asosiy sababi g`arbiy ishlab chiqaruvchilar bilan bo`lgan raqobatga chiday olmasligi edi. Bu to`g`ridan-to`g`ri sharqiy yerlarga moliyaviy sarmoyalarni jo`natishni talab etib, 1991 – yili 140 mlrd., 1992 – yili 152 mlrd, 1993 – yili 182 mlrd. markani va qisqa vaqt ichida hammasi bo`lib 1,4 trln. nemis markasi miqdorida davlat moliyaviy sarmoyalari yuborilgan. Bu Rossiya, Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlariga nisbatan GDRning ustunligi mavjudligiga qaramay yuz bergan edi.

Sharqiy Germaniya iqtisodiyotining o`zgarishi bir qancha qiyinchiliklarni tug`dirib, bularning ichida eng asosiysi o`shishning doimiyligini ta`minlash edi. Buning uchun o`shishning davomiyligi, o`zidan-o`zi chetki turtkisiz o`shish iqtisodiy mexanizmini yaratish va singdirish talab etilar edi. Bu albatta birdaniga bo`ladigan va oson masala emas edi. Ancha murakkab va kompleks muammo ekanligi ma`lum edi. Chunki Sharqiy Germaniya korxonalarining raqobatbardoshlik darajasini ko`tarib, G`arbiy darajaga yetkazish talab etilardi. Buning uchun ish haqi xarajatlarining mahsulot birligiga to`g`ri kelishini ko`tarish va innovatsion faoliyatni rag`batlantirish talab etilar edi. Bunday vazifa juda qimmatga tushar va ko`p kompleks ishlarning amalga oshirilishi bilan bog`langandir. Ishlab chiqarish quvvatlarini ilg`or texnika va exnologiya asosida yangilash, ish usullarini takomillashtirish talab etilib, bularning hammasi yuqori malakali ishchi, xizmatchilarni talab etardi. Ma`lumki, muammo yuqori texnika bilan birga inson resursiga borib taqaladi.

Bundan tashqari ishlab chiqarish tashkiliy tuzumini tubdan o`zgartirish talab etilib, ichki va tashqi bozor talabiga moslashtirish zaruriyati tug`iladi. Bu ham ma`lum vaqt va katta sarmoyani talab qiladi.

Shu bilan birga xizmat ko`rsatish sohasi, transport va aloqa, axborot, boshqarish kabilar ham tub o`zgarishlarni talab qilib, ularni zamonaviylashtirish va G`arb standarti darajasida qayta tuzish ham juda dolzarb vazifa hisoblanar edi. Eng muhimi turmush darajasi va turmush sifatini ko`tarish va G`arbiy zona darajasiga yetkazish ham juda zarur va katta xajmli ish hamda sormoya talab qilar edi.

Germaniya yerlarining qo`shilishi va yagona davlatning shakllanishi, bitta milliy iqtisodiyotning yuzaga kelishi bilan birga boshqa muammolarni ham yuzaga keltirdi. Qoloq Sharqiy iqtisodiyotning qo`shilishi umumiy pasayishga olib keldi va yagona Germaniya iqtisodiyoti buning natijasida boshqa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan past ko`rsatkichlarga ega bo`ladi. Bu ayniqsa aholi jon boshiga hisoblanadigan ko`rsatkichlar, mehnat unumdorligi darajasi, turmush sifati, daromad ko`rsatkichlari kabilarga taalluqlidir.

Bundan tashqari katta xajmdagi sarmoyalarning sharqiy yerlar uchun sarf etilishi, bunda katta kapital quyilmalarning amalga oshuvi va diqqat e`tiborni qoloqlikdan chiqarish va g`arbiy darajaga yetkazishga qaratish g`arbiy qismdagi iqtisodiy o`shishga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Bu byudjetdagi og`irlikning yuzaga kelishi, soliqlarning ko`tarilishi, g`arbiy qism korxonalaridagi kapital xarajatlarning kamayishi kabilarga olib kelgan.

Lekin o`zgarishlarga qaratilgan tadbirlar tez o`z natijasini berib, Sharqda qoloqlik borgan sari yo`q bo`lib, umumiy o`shish ham boshlanadi. GFR sotsialistik lagerda eng ilg`or mamlakat hisoblanardi. Shunga qaramay qo`shilish oldidan uning YAIM jon boshiga hisoblaganda G`arbiy Germaniyaga nisbatan 1/3 qismga teng edi. 1996 – yilga kelib 57 foizga ko`tariladi. Sharqiy zonada 1994 – yildanoq jonlanish boshlanib, YAIM 8 foizga o`sadi. G`arbiy qismda bu 2,5 foizga teng bo`lib, umuman GFRda 3 foizni tashkil etadi. Ishsizlik ancha pasayib, davlat xarajatlari va soliq to`lovlari darajasi pasaya boshladi.

6.5. Hozirgi davr Germaniya iqtisodiyoti o`shishining muammolari va Shryoder dasturi

Hozirgi davrga kelib Germaniya iqtisodiyotida o`shish sekinlasha boshladi va buning oldini olish uchun hukumat o`zining chora-tadbirlarini belgilay boshlaydi.

Iqtisodiy islohotlar “Shryoder dasturi” nomini olib, bundagi asosiy yo`nalishlar shu dasturda o`z o`rnini olgan. Shryoder dasturidagi asosiy urg`u tub mazmuni bilan bozor iqtisodiyoti tomon bo`lgan harakat bozor munosabatlariga to`la yo`l ochish va uning mexanizmlari harakatiga to`la erkinlik berish bilan bog`liqdir.

Ta'kidlaganimizdek, Germaniya iqtisodiyoida davlatning o'rnini katta bo'lib, uning bozorni tartiblashtirish vazifalari keng xajmli edi. Bu esa o'z navbatida raqobat sharoitlarini toraytirib, uning to'laqonli harakatiga to'sqinlik qilar hamda davlatning aralashuvi yuqori darajada edi. Hozirgi vaqtga kelib bunday xolat o'zgarishni talab etadi.

Qo'ldan berilgan raqobatbardoshlik darajasini qaytarish va bu sohada yuqori cho'qqilarni egallashga harakat qilinayotgan edi. Iqtisodiyotdagi davlat ishtiroki darajasini qayta ko'rib chiqish, to'la erkin bozor iqtisodiyoti yo'lga o'tish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish zaruriyati tug'ilgan edi. Albatta bu barcha soha va tarmoqlardagi davlat iqtisodiyoti siyosatini qayta ko'rib chiqish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga mos siyosatga o'tish yo'llari axtariladi.

Bunda liberallik siyosati, tadbirkorlikka to'la erkinlik berish, soliqlarni pasaytirish, ijtimoiy xarajatlarni kamaytirish, davlat sarflarini qisqartirish kabi nozik masalalarni xal qilish yo'llarini belgilash ko'zda tutiladi. Shu bilan birga ijtimoiy muammolarga e'tiborni qaratish zaruriyati ham tug'ilmoqda edi. Asosiy ijtimoiy muammolar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ish joyining qimmatligi va ijtimoiy yukning og'irligi;
- xalq qarib borishining o'sishi 1997 – yilda 100 ishlovchiga 96 ta mehnatga layoqatsiz to'g'ri kelgan;
- globallik darajasining o'sishi chetdan keluvchilarning ko'payishi va ularni maxalliy bilan tenglashtirish muammosining o'tkirlashuvi.

Ijtimoiy muammolarni yechishdagi eng ma'qul usul o'zini ta'minlay olish yo'llarini qo'llashdir. Eng yaxshi ijtimoiy tartibli joy jamiyat mahsulotini qayta taqsimlash yo'li bilan maksimal keng xajmdagi ijtimoiy qo'llaniladigan joy emas, balki qo'llashga muxtoj fuqarolar eng kam bo'lgan joy hisoblanadi.

Asosiy maqsad bevosita ta'minlash emas, balki muxtojlikni yo'q qilishdir.

Shryoder dasturi bo'yicha davlatning iqtisodiyotga bevosita aralashuvini imkoni boricha kamaytirib, erkin harakatini sharoitini kengaytirish, ayniqsa mayda va o'rta biznesni maksimal qo'llash siyosatini oldinga suriladi. Bu sohada ayniqsa davlat tartiblashtirishi, chegaralashga qarshi kurash olib borish talab etiladi va bu birinchi

darajali ish deb bilinadi. Mayda va o`rta biznesmenlarni xalq taniqli ashulachi va futbolchilardek ardoqlab, hurmat qilishi kerak deb bilinadi. Agar davlat harakati raqobatni susaytirs, u bozorga qarshi qaratilgan bo`ladi, deb bilinadi. Davlat tub mazmunan vatan ishlab chiqaruvchilarini ichki bozorda himoya qilish emas, balki raqobatga qarshi kuchlar, monopoliyaga qarshi kurashni ta`minlashi kerak va samarali xo`jalik yuritish usullarini keng qo`llash sharoitlarini yaratishi zarur.

Asosiy e`tibor yuqori texnikali tarmoqlarga, yangi innovatsiyali firmalarga qaratiladi. Industrial jamiyatdan bilim, axborot, xizmat ko`rsatishga asoslangan iqtisodiyotga o`tish amalga oshirila boshlandi. Buning uchun ta`lim sifatini ko`tarish, ilmiy texnologik siyosatni kuchaytirish, infratuzilmalarni qayta qurish yo`llari qo`llaniladi. Bungacha esa davlat tarmoq shakli tuzilmalariga va ayrim ishlab chiqarishlarga investitsiyani tartiblashtirish usulini qo`llar edi.

Globallik va texnologik siljishlar tezligi davrida hukumat birinchi o`ringa bevosita mehnatkashlar daromadining o`shishini tezlashtirish, qashshoqlikka barham berish, ishsizlikni kamaytirish emas, balki daromadlar, bandlik masalalarini xal qila oladigan va yangi firmalarni tashkil etish va korxonalarining ravnaqini ta`minlashga o`z diqqat – e`tiborini qaratishi talab etiladi.

Soliqlar 2001 yilga kelib 45 foizdan 35 foizga tushurilib, nafaqa xarajatlari kamaytirildi hamda xususiy nafaqa jamg`armalarga soliq imtiyozlari qo`llanila boshladi. Davlat xarajatlari pasaytirilib, umumiy davlat sarmoyalari tejami 16,7 mlrd. dollarni tashkil etadi. Angliyadek bozor liberallashtirishga o`tila boshlanadi va ijtimoiy mo`ljalli iqtisodiyotdan to`laqonli bozor iqtisodiyotiga o`tish asta-sekin kuchga kira boshlaydi. Davlat mulkini xususiylashtirish bo`yicha ancha ishlar qilindi. Shu bilan birga davlatning bozorni tartiblashtirish faoliyati ancha qisqartirilib, iqtisodiy aralashuv susaya bordi.

Shryoder dasturining amalga oshirilishi va unda belgilangan tadbirlarning tadbiriq etilishi, o`z natijalarini berib Germaniya iqtisodiyotining bozor munosabatlari asosida rivojlanishini tezlashtirdi. Bu esa Germaniya iqtisodiyoti salohiyatini ko`tarib, jahon xo`jaligidagi o`rnini mustahkamlaydi va o`ziga xos e`tiborni jalb etadi.

Monopoliyaga qarshi qonunchilikning konseptual asoslari

20 asr iqtisodiyotni erkinlashuvi, bozorlarni ochilishi va tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va taqsimlashda ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar davlat boshqaruviga emas, balki bozor kuchlariga suyana boshlaganiga guvoh bo'ldi. Raqobat siyosati iqtisodiy erkinlikni rag'batlantirish, ba'zida esa mustaqil xaridorlar va sotuvchilar o'rtasida raqobatni talab qilish yo'li bilan qo'llab-quvvatlaydi. Shu sababli barcha rivojlangan mamlakatlar o'zlarining raqobatga qarshi qonunlarini yanada kuchaytirdilar, shu vaqtni o'zida ba'zi mamlakatlar savdo-sotiqqa to'sqinlik qiluvchi, va keyinchalik boshqa xatti-harakatlar bilan qaytadan vujudga keltirilishi mumkin bo'lgan to'siqlarni barataraf etadigan yangi qonunlarni kiritdilar.

Azaldan, raqobat siyosati avvalambor iqtisodiyoti rivojlangan, ichki raqobat tijoratda muhim omil hisoblangan mamlakatlardagi raqobat jarayonini himoya qilish uchun qo'llanib kelingan. Shundan kelib chiqqan holda, eng jiddiy raqobat siyosati AQSH, Germaniya va yeh kuzatiladi.

Qonunning maqsadi

«Raqobat siyosatining oliy maqsadi – resurslarni yanada samarali taqsimlashga erishish uchun samarali raqobat jarayonini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishdir»

GFR "Raqobatni cheklashga qarshi qonun" hajmi katta va mazmunan teran bo'lgani bilan (ushbu qonun oltita bob va 131 moddadan iborat) mazkur qonunning maqsadini oydinlashtirmagan. Raqobatni cheklashni keltirib chiqaruvchi holatlarni ko'p sonli turlari va holatlari juda aniqlik bilan ta'riflanganligi sababli GFR sudlari va Federal kartel organi raqobat siyosati borasida barcha siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni chetlab o'tgan holda ushbu qonunga so'zsiz itoat qiladilar. Lekin ma'lum bir holatda raqobatni cheklanishi iqtisodiyot uchun yoki jamiyat uchun foyda keltirishi isbotlab berilsa, u holda Iqtisodiyot Vazirligi ushbu bitim/kelishuvlarga istisno tariqasida ruxsat berishi mumkin va bu qonunda qayd qilingan.

Shunga qaramasdan, qonunda kichik va o'rta biznes sub'ektlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratadi. Buning sababi nemislar kichik va o'rta biznes sub'ektlarini nemis iqtisodiyotining ishonchi poydevori, innovatsiyalar va bandlik uchun qulay deb hisoblaydilar. Shu sababli ushbu sub'ektlarga ma'lum darajalarda

kartel bitimlarini tuzishga ruxsat berilgan, masalan, agarda ushbu bitimlar ularni yirik raqobatchilariga nisbatan egallagan pozitsiyalarini kuchaytirishga yordam bersa. Qonun shuningdek monopolistga nisbatan preferentsiyalarni qo'llash orqali ustun mavqeni suiiste'mol qilishni qat'iyyan taqiqlaydi.

GFRning "Raqobatni cheklashga qarshi" qonuni Federal Iqtisodiyot Vazirligiga istisno holatlarda qonunning alohida normalaridan (8 modda) ozod qilishi mumkin. Intellektual mulk va patentlardan foydalanish huquqi ushbu huquqlar qanday taqdim qilingan bo'lsa shu holicha qonun ta'siridan ozod qilinadi (17 modda).

Ba'zi bir monopoliyaga qarshi normalardan ozod qilingan va alohida tartibga solinadigan sohalarga: qishloq xo'jaligi, sug'urtalash, intellektual mulk sohasi, sport kiradi (Qonunning V moddasi).

Telekommunikatsiyalar sohasidagi raqobat "telekommunikatsiyalar to'g'risida qonun"(1996 g.) va ushbu sohada maxsus vakolat berilgan organ tomonidan tartibga solinadi.

Barcha turdagi mulk shakliga ega bo'lgan korxonalariga teng sharoitlarda yondashish Qonunning 130 moddasida qayd qilingan.

Asosiy tushunchalar

Qonunda "tovar" ta'rifi berilmagan. Biroq ushbu atama doimo "tijorat xizmatlari" bilan birga ishlatiladi.

Qonunda bir-birini o'rnini bosadigan tovarlar to'g'risida hech nima deyilmagan. Lekin, tovar bozorlarini mahsulot chegaralarini aniqlash maqsadida iqtisodiy tahlil o'tkazilganda bir-birini o'rnini bosish tamoyilidan foydalaniladi. Bunda umum qabul qilingan ekonometrik qoidalardan foydalaniladi: qarama-qarshi egiluvchanlik, 5-10% test.

Qonunda ta'rif berilmagan, biroq yo'riqnomalar bozorlarni tovar (mahsulot) va jug'rofiy chegaralarini ta'rifini talab qiladi. Relevant bozor tushunchasi – yuridik tushuncha emas, lekin iqtisodiy tahlilda undan foydalaniladi (qo'shib ketishda va ustun mavqeini suiiste'mol qilishda).

Ustun mavqe.GFR “Raqobatni cheklashga qarshi” Qonunida ustun mavqega berilgan ta’rif ham ustun mavqeni mavjudligiga asos sifatida korxonaning moliyaviy hukmronligidan foydalanadi. Ta’rif shuningdek jamoa ustunligini ham hisobga oladi.

(1) Xo’jalik yurituvchi sub’ekt ma’lum bir tovarni yoki tijorat xizmatini yetkazib beruvchi yoki sotib oluvchi sifatida ustun mavqega ega bo’lsa, u

1. u raqobatchilarga ega emas yoki raqobatlashishga tortilmagan; yoki

2. raqobatchilarga nisbatan sezilarli bozor pozitsiyasiga ega; ushbu maqsadda uning bozor ulushi, moliyaviy hukmronligi, xom-ashyo resurslaridanyoki bozorlardan foydalanishi, uni boshqa xo’jalik yurituvchi sub’ektlar bilan aloqalari, boshqa xo’jalik yurituvchi sub’ektlarni bozorga kirishi uchun to’siqlar, ushbu qonun chegarasida yoki uni ta’sir doirasidan tashqarida xo’jalik yurituvchi sub’ektlarni haqiqiy yoki potentsial raqobatlashni shakllantirishi, uni o’z tovarlari va tijorat joylashtirish imkoniyatlari, hamda bozorni qarama-qarshi tomonlarini boshqa xo’jalik yurituvchi sub’ektlarga o’tkazish imkoniyatlari hisobga olinadi.

(2) ikkita va undan ortiq xo’jalik yurituvchi sub’ekt ustunlikka ega bo’ladi, qachonki ularni o’rtasida ma’lum tovarlar yoki tijorat xizmatlariga nisbatn sezilarli raqobat bo’lmasa va ular birgalikda taklif shartlarini qondirsalar (1).

(3)xo’jalik yurituvchi sub’ekt ustunlikka ega bo’ladi, qachonki uning bozor ulushi $\frac{1}{3}$ ortiq bo’lsa. Bir nechta xo’jalik yurituvchi sub’ekt ustunlikka ega bo’ladi, agarda ular

1. uchta va undan kam xo’jalik yurituvchi sub’ektni bozordagi birgalikdagi ulushi 50% yetsa, yoki 2. 5 ta yoki undan kam xo’jalik yurituvchi sub’ektni bozordagi birgalikdagi ulushi $\frac{2}{3}$ yetsa, agarda xo’jalik yurituvchi sub’ekt ushbu sharoit ular o’rtasidagi raqobatni qo’llab-quvvatlashishini ko’rsatsa, yoki xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning soni qolgan raqobatchilar uchun ahamiyatga ega bo’lmasa.

Mutlaq monopoliya

Ta’rif yo’q, o’xshashi – ustun mavqeni suiiste’mol qilish va uni ta’siriga tushadigan xatti-harakatlar (quyiga qarang).

Narx sohasida kamsitish

Qonun matnida ta'rif berilmagan. Chamasi u kamsituvchi harakatlarni umumiy tushunchasiga kirib ketgan. Masalan, Qonunning 19 (4) moddasi quyidagilarni talab qilishni man qiladi:

Haq to'lashni unchalik qulay bo'lmagan shartlari yohud boshqa shartlar, qachonki ustun mavqega ega bo'lgan korxonalar o'xshash bozorlardagi haridorlardan talab qilsa, va ushbu tabaqalanishga ob'ektiv sabab mavjud bo'lmasa.

Kamsituvchi shartlar

Ustun mavqeini suiiste'mol qilishni shakllaridan biri sifatida, kamsituvchi shartlar tushunchasi deganda GFR "Raqobatni cheklashga qarshi Qonun" da keltirilgan ta'rifni keltirish mumkin:

... (ustun mavqega ega korxonalar) haq to'lashni qulay bo'lmagan shartlarini yoki boshqa shartlarni talab qiladi, shu vaqtni o'zida ushbu korxonalar taqqoslanayotgan bozorlardagi o'xshash xaridorlardan talab qiladi, agar ushbu tarzda tabaqalashtirishga ob'ektiv isbot mavjud bo'lmasa.

Monopol qiimmat narx

Ta'rif berilmagan. Doktrina ustun mavqeni suiiste'mol qilishni quyidagi turlari doirasida ishlatiladi:

... haq to'lashni qulay bo'lmagan shartlarini yoki boshqa shartlarni talab qiladi, shu vaqtni o'zida ushbu korxonalar taqqoslanayotgan bozorlardagi o'xshash xaridorlardan talab qiladi, agar ushbu tarzda tabaqalashtirishga ob'ektiv isbot mavjud bo'lmasa

Monopol arzon narx

Ta'rif berilmagan. Doktrina ustun mavqeni suiiste'mol qilishni quyidagi turlari doirasida ishlatiladi:

... haq to'lashni qulay bo'lmagan shartlarini yoki boshqa shartlarni talab qiladi, shu vaqtni o'zida ushbu korxonalar taqqoslanayotgan bozorlardagi o'xshash xaridorlardan talab qiladi, agar ushbu tarzda tabaqalashtirishga ob'ektiv isbot mavjud bo'lmasa

Shaxslar guruhi

Germaniyaning monopoliyaga qarshi qonuni raqobat siyosati maqsadlarida shaxslar guruhini (korxonalar) yagona korxonalar sifatida ko'radi. Biroq, shaxslar

guruhi deganda Aksionerlik jamiyatlari to`g`risida qonunga va Qo`shma kompaniyalar to`g`risidagi qonunga talablari nazarda tutiladi:

36 (2) moda. Agar qatnashuvchi korxonalar nazorat qilinsa yoki korxonani Aksionerlik jamiyatlari to`g`risidagi qonunning 17 moddasi doirasida yoki Qo`shma korxonalar to`g`risidagi qonunning 18 moddasi doirasida nazorat qilinsa, u holda ushbu tarzda affilirlangan korxonalar yagona korxonalar sifatida ko`riladi. Agar bir nechta korxonalar birgalikda boshqa korxonaga ta`sir ko`rsatishni amalga oshirishi mumkin bo`lsa, u holda ularning har biri nazorat qiluvchi sifatida ko`riladi.

Xalqaro shartnomalar

GFR Oliy Federal Sudi yuqori fuqorolik sudi hisoblanadi va faqat Federal Konstitusion Sudning qarorlariga bo`ysunadi. Federal Konstitusion Sud va yeH Oliy Adolat Sudi o`rtasida rasmiy ierarxiya mavjud emas, biroq amaliyotda Oliy Adolat Sudining qarorlari Germaniya Konstitutsiyasiga zid bo`lmasligi sharti bilan, birinchisi ikkinchisining qarorlarini hisobga oladi.

Germaniya qonunchiligi OESR Tavsiyalari va VTO qoidalariga amal qilish majburiyatini o`z zimmasiga oladi.

Ustun mavqini suiiste`mol qilish

GFR "Raqobatni cheklashga qarshi Qonun"ni yeH qonunchiligi bilan kelishilgandan so`ng ustun mavqini suiiste`mol qilishni ochiq tarzda man qiladi (19 (1)modda). Qonunning 19 moddasini (4) qismida ushbu qonunbuzilishlarni to`rtta asosiy guruhi keltiriladi:

1. to`sib qo`yish (obstruksiya),
2. ekspluatatsiya,
3. kamsitish, va
4. zarar infratuzilma xizmatlaridan foydalanishni rad etish (inshootlar).

19 (4) modda

Suiiste`mol qilish mavjud bo`ladi qachonki, ustunlikka ega korxonalar tovarlarni ma`lum turlari yoki tijorat xizmatlarini yetkazib beruvchi sifatida bo`lsa:

1. boshqa korxonalarni shunday tarzda raqobatlashish imknini yomonlashtiradi, shunday qilib bozordagi raqobat xech qanday ob'ektiv asoslarsiz buziladi;

2. samarali raqobat mavjud bo'lgan holatda bo'lishi mumkin bo'lmagan xaqni va boshqa ish shartlarini talab qiladi; ushbu ma'noda korxonalarni taqqoslanadigan bozorlardagi xatti-harakatlari, ya'ni samarali raqobat ustun bo'lgan holda, e'tiborga olinadi;

3. ushbu tarzda tabaqalashtirish uchun ob'ektiv sabablar mavjud bo'lmaganda taqqoslanadigan (o'xshash) bozorlarda ustunlikka ega bo'lgan korxonaga o'xshash xaridorlardan unchalik qulay bo'lmagan haq to'lash va boshqa ish shartlarini talab qiladi;

4. boshqa korxonani o'z tarmoqlariga va infratuzilma xizmatlariga kirishiga, bir xil haq to'lashni o'rnatishga to'sqinlik qiladi, bunda vertikal bo'yicha yuqori yoki quyida joylashgan bozorlarda ustunlikka ega bo'lgan korxonani raqibi qonuniy va haqiqiy sabablarga ko'ra ushbu tarzda parallel foydalanish holaiga ega bo'lmasin; bunday holat taalluqli bo'lmaydi qachonki, ustunlikka ega bo'lgan korxonaga operasion yoki boshqa sabablarga ko'ra birgalikdagi (parallel) foydalanish mumkin emasligini ko'rsatib bersa.

Shunday qilib, GFR qonunchiligi qanday holat ustun mavqini suiiste'mol qilish deb e'tirof etilishiga aniq ta'rifni keltirmaydi, va ushbu buzilishlarni 4 ta turinigina keltiradi. Na "bozorlarni monopollashtirish", na raqobatni kamsitish", na iste'molchilar/xaridorlar manfaatlarini himoya qilish" mezonlari eslatiladi. Suiiste'mol qilishni keltirilgan 4 ta turini bittasi ham "bozorlarni monopollashtirish"na tegishli emas. Sherman Qonunidan (AQSH) farqli tarzda, GFR "Raqobatni cheklashga qarshi Qonun"ni "bozorlarni monopollashtirish"ni taqiqlamaydi. Har xil korxonaga ustun mavqeni olishi mumkin va ushbu holat bilan bog'liq o'zining raqobat afzalliklaridan suiiste'mol qilmasdan foydalanishi mumkin.

Raqobatga qarshi bitimlar va kelishib qilingan harakatlar

Germaniyaning kelishib qilingan harakatlarni tartibga soluvchi Raqobatga qarshi cheklash qonuni normalari barcha miliy qonunchiliklar ichida eng mukammali

desa mubolag`a bo`lmaydi. Sherman Qonunidan farqli tarzda GFR qonuni raqobatni cheklash bo`yicha har xil bitimlar, birlashishlar yoki kelishib olishlarga nisbatan umumiy taqiqlashlar yo`q. Unda cheklashning ma`lum shakllariga nisbatan alohida normalar qayd qilingan, ularga quyidagilar kiradi:

1. Gorizontal cheklashlar (1-13 moddalar)
2. Vertikal cheklashlar (14-18 moddalar)
3. Kamsituvchi cheklashlar (20 modda)
4. Boykotlar (21 modda)

Lekin, GFR “Raqobatni cheklashga qarshi Qonuni” yevropa Ittifoqi normalariga moslashtirilgan.

Xulosa qilishimiz mumkinki, Germaniya keyinroq industriya yo`liga o`tgan bo`lsa ham juda tez birinchilar qatoriga yetdi. Hozir u o`rta industriyalashtirilgan mamlakat hisoblanadi. Milliy xo`jalikda boshqa mamlakatlarga nisbatan sanoat hissasi katta – u YAIMda 39 foizga teng. U juda tez tuzumiy o`zgarishlarni amalga oshiradi. Sanoatda yetakchi sohalar asosni tashkil etadi. Ilm sig`imli tarmoqlar, an`anaviy tarmoqlarni yangi texnologiya asosida qayta yangilash, texnik rivojlantirishda raqobatdan keng foydalanish Germaniya sanoati uchun xos xususiyatdir.

Germaniyaning ijtimoiy bozor xo`jaligining nemischa milliy modeli iqtisodiy taraqqiyot uchun zarur bo`lgan milliy birlik, davlat bilan aholi o`rtasidagi muvozanat mustaxkamligi, iqtisodiy o`sishdagi zarur resurslarni to`g`ri taqsimlab, ulardan samarali foydalanishdagi eng ma`qul usul bo`lib, o`zining hayotiyiligini o`tgan davr ichida isbotlab berdi. Haqiqatdan bu model taxsinga sazovor va uni o`rganish foydadan xoli emas.

Germaniyaning Sharqida iqtisodiy qoloqlik borgan sari yo`q bo`lib, umumiy o`shish ham boshlanadi. GFR sotsialistik lagerda eng ilg`or mamlakat hisoblanardi. Shunga qaramay qo`shilish oldidan uning YAIM jon boshiga hisoblaganda G`arbiy Germaniyaga nisbatan 1/3 qismga teng edi. 1996 – yilga kelib 57 foizga ko`tariladi. Sharqiy zonada 1994 – yildanoq jonlanish boshlanib, YAIM 8 foizga o`sadi. G`arbiy

qismda bu 2,5 foizga teng bo`lib, umuman GFRda 3 foizni tashkil etadi. Ishsizlik ancha pasayib, davlat xarajatlari va soliq to`lovlari darajasi pasaya boshladi.

Germaniyada Shryoder dasturining amalga oshirilishi va unda belgilangan tadbirlarning tadbiq etilishi, o`z natijalarini berib Germaniya iqtisodiyotining bozor munosabatlari asosida rivojlanishini tezlashtirdi. Bu esa Germaniya iqtisodiyoti salohiyatini ko`tarib, jahon xo`jaligidagi o`rnini mustahkamlaydi va o`ziga xos e`tiborni jalb etadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Germaniya bozor iqtisodiyoti salohiyatini aytib bering.
2. Germaniyada YAIM va uning jon boshiga to`g`ri kelishini tavsiflab bering.
3. Germaniya iqtisodiyoti tuzumiy tarkibidagi asosiy xususiyatlar nimalardan iborat?
4. Germaniya ijtimoiy bozor iqtisodiyoti tushunchasi nimani bildiradi?
5. Germaniyaning qo`shilishi bilan bog`liq bozor iqtisodiyoti muammolari va ularni hal qilish yo`llari nimalardan iborat bo`lgan?
6. Shryoder islohatining mazmuni nimadan iborat?
7. Evropa Ittifoqi iqtisodiyotidagi Germaniyaning o`rni nimalar bilan ifodalanadi?
8. Germaniyada Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlari nimalarda namoyon bo`ldi?
9. Germaniya sanoatining rivojlanishida davlatning tutgan o`rni nimalardan iborat?
10. GFR va GDR ning qo`shilishiga sabab nimalardan iborat?

7-BOB. FRANSIYA DA IJTIMOYILASHTIRILGAN BOZOR

IQTISODIYOTI

7.1. Fransiyaning iqtisodiy xususiyatlari

Fransiya jahonda iqtisodiy taraqqiyoti bo'yicha beshlar qatoriga kiradi. Hududi va aholi soni bo'yicha yevropaning yirik mamlakatlaridan hisoblanadi. Aholi soni 59 mln. kishidan iborat. YAIM bo'yicha dunyoda 5-o'rinni egallaydi (1,4 mlrd. dollar, aholi jon boshiga YAIM 23,7 ming dollar). Sanoat ishlab chiqarishi, savdo xajmi bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. G'arbiy yevropada sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha 17 foizga to'g'ri kelsa, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning 20 foizi to'g'ri keladi.

FRANSIYA
Tashqi qarz (yalpi ichki mahsulotga nisbatan, %): 244,3%
Yalpi tashqi qarz miqdori: 5,23 trln. \$
Yalpi ichki mahsulot (2009): 2,09 trln. \$
Kishi boshiga to'g'ri keluvchi tashqi qarz miqdori: 79 982 \$

Fransiya iqtisodiyoti qudratli industrial asosli, diversifikatsiyalashgan ishlab chiqarishga ega va yaxshi rivojlangan aviaraketosozlik, energetika, transport va aloqa, agrosanoat sektorlari kabi strategik tarmoqlarga ega. Ko'mir, temir ruda, boksit, gaz, uran rudasi, kaliy tuzi kabi tabiiy boyliklari mavjud.

Mamlakat iqtisodiyotida ilmiy tadqiqot va axborot xizmatlari muhim o'rin egallaydi. Atom energetikasi, aviasion texnika, elektronika texnika kabilar bo'yicha ilmiy tadqiqotlari ahamiyatlidir. ITTKI yalpi xarajatlari bo'yicha jahonda to'rtinchi o'rinda turadi. Bu xarajatlar asosan sanoatda elektronika, aviaraketosozlik, kimyo, formatevtika, energetikaga qaratilib, faqat 19 foiz harbiy sanoat kompleksiga to'g'ri keladi.

Fransiya jahonda iqtisodiy taraqqiyoti bo'yicha beshlar qatoriga kiradi. Hududi va aholi soni bo'yicha Evropaning yirik mamlakatlaridan hisoblanadi. Aholi soni 59 mln. kishidan iborat. YAIM bo'yicha dunyoda 5-o'rinni egallaydi (1,4 mlrd. dollar, aholi jon boshiga YAIM 23,7 ming dollar). Sanoat ishlab chiqarishi, savdo xajmi bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. G'arbiy Evropada sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha 17 foizga to'g'ri kelsa, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning 20 foizi to'g'ri keladi.


Jahonda uchinchi darajali atom yadrosi mamlakati hisoblanadi va G`arbiy yevropada raketsozlik bo`yicha yetakchi o`rinda turadi.

YAIM tarkibiy tuzumi o`ziga xoslikka ega. Qishloq xo`jaligi katta salmog`ligiga qaramay faqat 2 foizni tashkil etadi, sanoatda esa 42 foiz va buning ichida mashinasozlik 31 foizgacha yetadi. Milliy sanoatda avtomobilsozlik yetakchi hisoblanadi va xususiy "Pejo-Sitroen" hamda davlat "Renosi" jahonning 5 foiz yengil avtomobilini ishlab chiqaradi. Energetika jixozlari bo`yicha dunyoda Yaponiyadan keyin ikkinchi o`rinda turadi. Ilm sig`imli tarmoqlar ishlab chiqarishda ustivorlikka ega.

An'anviy ishlab chiqarish hissasi pasayib bormoqda. Bu xatto oziq-ovqat sanoatiga ham taalluqli. Ma'lumki, bunda Fransiya doimo G`arbiy yevropada eng salmog`li hisoblanadi.

7.1.1- chizma

Fransiya iqtisodiyodining diverfikasiyasi



Fransiyaning yel agrar siyosatiga qo`shilishi bilan o`zini ta`minlash yo`nalishi bo`yicha bug`doy, vino, qand, sut, go`sht yetishtirish tezlashdi. Bunda keng bozor mavjudligi, kafolatli narx-navo va kafolatli sotish sharoitlari kabilar qishloq xo`jaligini rag`batlantirdi.

Franiya qishloq xo`jaligida bandlik 6,4 foiz bo`lib, yeIning 25 foiz mahsulotini beradi. Bu Fransiyaning agrar mahsulotlar yetishtirish bo`yicha G`arbiy yevropada birinchi va dunyoda uchinchi o`ringa chiqardi. Bunday mahsulotlar eksporti bo`yicha AQSHdan keyingi ikkinchi o`rinni qattiq ushlab turibdi. Bunda yirik xo`jaliklar barcha mahsulotning 2/3 qismini yaratadi. Chorvachilik asos bo`lib, agrar xo`jalikning 2/3 mahsuloti shunga to`g`ri keladi. An`anaviy ravishda Fransiya vinochilik, bog`dorchilik bilan dovrug`i chiqqan. Qishloq xo`jaligi yuqori darajada industrilashtirilgan.

O`z ta`minoti bo`yicha g`alla va qand yetishtirish 200 foiz, sariyog`, tuxum, go`sht bo`yicha 100 foizni tashkil etadi.

Xo`jalik faoliyati tashkiliyligi bo`yicha ham o`ziga xoslik mavjud. Ishlab chiqarish va kapital markazlashuvi, konçentratsiyalashuv darajasi yuqori bo`lib, 10 ta moliya-monopolistik gurux hukmronlik qiladi. 100 ta yirik kompaniya sanoat ishlab chiqarishning 2/3 qismini o`zida jamlagan. Masalan, qora metallaurgiyada davlat yirik po`lat eritish "Yuzinor-Sasilor" kompaniyasi mamlakatning 70 foiz po`lat qo`yish va 98 foiz eksportini tashkil etadi.

Buni avtomobilsozlik, elektronika sanoatida ham ko`rish mumkin. Rangli metallurgiyani olinsa, bunda ham asosan ikki kompaniya hukmronlik qiladi. Aviasozlik sanoatida bo`lsa 2 va 3 ta yirik kompaniyalar butun tarmoqni o`z qo`lida ushlab turadi.


Bunday xolatni oziq-ovqat sanoati, qurilish, transport va savdoda ham ko`rish mumkin. Bunday xususiyatni jahon miqyosida ham uchramiz va ba`zi tarmoqlarda Fransiya kompaniyalarining jahon liderligi darajasida uchramiz. Kimyo sanoatida shundaylardan "Peships", bosmaxonada "Ashet", elektrokabellarda "Kabl de Lion", samolyotlar navigatsiyasi bo`yicha "Tompson" kabilarni misol keltirish mumkin.

Mayda va o`rta biznes rivojini olsak, bu ham ko`zga ko`rinarli darajadadir. Bunga korxonalar sonining 99 foiziga to`g`ri keladi. Nomoliyaviy bozor xizmatining 83 foiz, qurilishning 80 foiz, savdoning 79,3 foiziga to`g`ri keladi. Sanoatda bular soni faqat 36 foizga teng.

Tadbirkorlik shakllari bo`yicha Fransiya ancha farqlanadi. Asosan tijorat korxonalari yakkashaxslik korxonalaridan iborat bo`lib, barcha kichik va o`rta korxonalarining 2/3 qismi shunga to`g`ri keladi. Bundan tashqari to`la sheriklik, aksioner-kommandit, cheklangan javobgarlik va aksioner jamiyatlari mavjud. Aytaylik, ulgurji savdoda eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyati javobgarligi cheklangan jamiyatlar (kompaniyalarning 44 foizi), xususiy firmalar (29 foiz) va aksionerlik jamiyatlariga (22 foiz) to`g`ri keladi.

Fransuz mayda va o`rta korxonalarining samarali faoliyati ko`pincha tor mutaxassislashuv, chaqqonlik va ishlab chiqarish manevriga asoslangan. Shu bilan birga ular yuqori va texnologik yangi iqtisodiy faoliyatlar bilan farqlanadi. Farmaçevtika, aniq asbobsozlik ta

7.1.1- chizma
Fransiya iqtisodiyodining rivojlangan sohalari



mahsulotning deyarli yarmini ishlab chiqarishadi.

Shu bilan birga yiriklarga nisbatan bank tizimida turg`unsizlikka ega va

tez-tez yopilib turadiki, faoliyat muxlati 2-5 yil. Eksportga kelinsa, bularning imkoniyatlari kichik soha bilan shug`ullanmaydi yoki kam shug`ullanadi.

Fransiya moliya-kredit tizimida 6 xil banklar, bank kooperativlari, moliyaviy sheriklik va moliyaviy institutlar. Barcha kredit muassasalari

Fransiya kredit muassasasiga birlashgan. Bularning bank sektorini asos bo`lib, kredit xajmining 70 foizi shunga to`g`ri keladi. 400 ga yaqin banklar mavjud. Shu bilan birga keng tarmoqli chet mamlakatlar banklari faoliyat ko`rsatadi. Oltita Fransiya banki jahondagi eng yirik 50 ta banklar qatoriga kiradi.

Fransiya davlat banki Markaziy bank hisoblanadi. Uning eng muhim vazifasi kaznacheylikni kreditlashdan iborat. Shu bilan birga hukumatning hisobli

operatsiyalarini bajaradi. Banklar ikki yirik bo`lakdan iborat: kredit-moliya muassasalari va xalq banki kabilardir. “Soste Jeneral”, “Pariba” banklari Fransiyada eng yirik va yevropada uchinchi o`ringa ega. 20 ga yaqin savdo banklari mavjud bo`lib, bular asosan kapital va kapital joylash bozori bilan bog`langan. Bundan tashqari yirik kompaniyalar banklari faoliyat ko`rsatadi. Kooperativ banklarning faoliyati ham keng va operasion bo`limlarning 60 foiz va joriy quyilmlarning 30 foizi shularga to`g`ri keladi. Bularning ayniqsa agrar sektordagi faoliyati xajmlidir.

Moliya kapitali bilan sanoat kapitallarining bir-biriga qo`shilib ketishi natijasida yirik moliyaviy sanoat guruhleri paydo bo`lib, bularning mamlakat iqtisodiy siyosatining shakllanishida va uni halqaro aloqalarida ta`siri kattadir. Fransiya iqtisodiyoti bir necha moliya guruhleri bilan o`ralgan bo`lib, bularni ichida “Pariba”, “Syue”, “Rotshild va Ampen-Shneyder” guruhleri eng yetakchilaridir. Yirik kompaniyalarning manfaatlarini esa fransuz tadbirkorlari milliy Kengashi (Patronat), shuningdek tarmoqlar, tarmoqlararo tadbirkorlar tashkilotlari qo`llab-quvvatlaydilar.

Eng tavsifligi moliyaviy guruxlar bilan konsernlarning yevropa Ittifoqi yagona ichki bozori ichidagi aloqalaridir. Fransiyada xatto Parij-Lill-Strasburg uch burchagi paydo bo`lib, bunda bir qancha Franko-Belgiya, Franko-Gollandiya va boshqa mamlakatlarning aralash korxonalari yuzaga kelgan. Yagona yevropa loyixalari muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilgan bo`lib, yeI energottizimli qo`rilishi, Marsel-Strasburg-Bonn, Lamansh tagida qurilgan temir yo`l toneliga o`xshaganlar shular jumlasidandir.

Fransiya iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy-tuzumiy o`zgarishlarda tashqi iqtisodiy aloqalar aloxida o`rin egallaydi. Buning ichida eng ahamiyatlisi albatta tashqi savdodir. Chunki bu eng yirik o`zgaruvchan va halqaro munosabatlarda qatnashuvning eng muhim shaklidir. Keyingi o`n yillilkar ichida tashqi savdo umumiy iqtisodiy o`shishga nisbatan tezroq kengayib bormoqda va milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga qaramlik darajasi ko`tarilmoqda.

Fransiya iqtisodiyoti tashqi aloqalar uchun doimo ochiq hisoblanadi. Agar aholi jon boshiga hisoblasak, Fransiyada yiliga 8700 dollarga to`g`ri keladi. Buni taqqoslamoqchi bo`lsak, AQSHda – 4800, Germaniyada – 11000, Buyuk Britaniyada

– 7200 dollarga toʻgʻri kelishini koʻramiz. Demak, bu koʻrsatkich boʻyicha Fransiya Germaniyadan keyingi ikkinchi oʻrinni egallaydi. Tovarlar va xizmatlar importi YAIMga nisbatan 23,5 foiz, eksport esa 23 foizga teng keladi. 90 – yillarga kelib import eksportga nisbatan ortib ketdi. Bu esa taqchilik balansini yuzaga keltirdi. Natijada Fransiya iqtisodiyotidagi muammoga aylandi.

Fransiya iqtisodiyotining oqiqligi yetakchi tarmoqlarda eksportning koʻpayishida oʻz aksini topadi. Fransiya jahon eksportida quyidagi sanoat tovarlari boʻyicha sezilarli hisoblanadi: elektrotexnika jixozlari (9 foiz), rangli metal va organik kimyo mahsulotlari (9 foiz), nozik kimyo va qora metallurgiya (10 foiz), formaçevtika tovarlari (12 foiz), kauchuk va plasmassa buyumlari (13 foiz), oynak (14 foiz) kabilardir. Lekin keyingi yillarda tovarlar sifati va xavfsizligi darajasi, oʻz vaqtida taʼminlash, sotuvdan keyingi xizmatlarni uyushtirish, eksport egiluvchanligi, reklama xarajatlari kabilar boʻyicha eng yetakchi AQSH, Germaniya, Yaponiya, Italiya va Buyuk Britaniya mamlakatlaridan orqada qolaboshladi. Raqobatbardoshligi past tovarlar koʻpayaboshladi. Shuning uchun ham davlat tartiblashtirish mexanizmlarida oʻzgarishlar yuz berib, bu avvalo eksportga qaratila boshladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar boʻyicha Fransiyaning eng muhim sheriklari yeti mamlakatlaridir. Mamlakat tovar aylanishining 60 foizi shularga toʻgʻri keladi. Shuningdek eksport ham – 60 foiz, qishloq xoʻjalik mahsulotlari boʻyicha esa 78 foizgachadir. Avtomobilsozlik boʻyicha bu koʻrsatkich 70 foizga teng. Bunda qoʻshni Germaniya asos boʻlib, eksport boʻyicha 16 foiz va import boʻyicha 20 foizga toʻgʻri keladi. Ikkinchi oʻrinda Italiya turadi va bunga 12 foizga toʻgʻri keladi. Buyuk Britaniya ham aloxida oʻrin egallab, unga atom elektr stansiyalaridan elektr quvvati eksport qilish ortib bormoqda. Investitsiyada ham bu mamlakatlar asos boʻlib, bularga Fransiya kapital chiqarilishini 70 foizi toʻgʻri keladi.

Keyingi muhim sherik AQSH boʻlib, buning hissasi 6,1 foizdan iborat. Asosan AQSHga metallurgiya mahsulotlari va yuqori sifatli vino, pishloq kabi tovarlar eksport qilinadi. AQSHdan asosan energetik, kimyo ishlab chiqarishi, kompyuterlar, aviadetallar va shaxsiy isteʼmol tovarlari import qilinadi. AQSH bilan aloqa tashqi savdoga nisbatan ancha kengdir. Bunda investorlik ham katta oʻrin

egallaydi va asosan AQSHning metallurgiya, kimyo, ko`mir va neft sanoatlariga qaratiladi.

Fransiya yirik kapital importeri hisoblanadi. Bu sohada Fransiya hukumati erkinlashtirish siyosatini qo`llab, milliy iqtisodiyotda modernizatsiyani keng qo`llash, ilm sig`imli, ilg`or texnikani qo`llash, eksportni kengaytirish, yangi ish joylarini tashkil qilish, sanoati qoloq xududlarda uni rivojlantirishni tezlashtirish kabilarga chet kapitalini jalb qilishga harakatni kuchaytirmoqda. Hozirga kelib Fransiyada ilg`or tarmoqlar korxonalarining yarmidan ko`pi chet kapital nazoratidadir. Umuman hozir jami tovar aylanishining 1/4 qismi va eksportining 1/3 qismi chet firmalari hisasiga to`g`ri keladi.

7.1.1.-jadval

Fransiya iqtisodiyotining asosiy ko`rsatkichlari dinamikasi

	1991	1992	1993	1994	1995	1996	1997
YAIM	0,8	1,3	-1,5	2,9	2,7	2,2	3,1
Sanoat	0,3	-0,1	-2,7	3,8	2,3	1,1	10,0
Inflyatsiya	3,3	2,1	2,5	1,3	2,1	2,1	0,5
Investitsiyalar	-0,7	-3,1	-5,8	1,6	2,2	-0,5	0,7
Shaxsiy iste`mol	1,3	1,4	0,2	1,5	1,9	2,1	0,5
Eksport	3,9	4,9	-0,4	5,8	6,0	4,8	11,1
Import	2,8	1,1	-3,4	6,8	4,2	2,8	6,8
Davlat byudjeti yetishmovchiligi	-1,9	-3,3	-4,9	-4,2	-3,8	-3,5	-3,1
YAIMga (%da)							
Ishsizlik	9,4	10,4	11,7	12,5	12,5	12,5	12,5
Davlat qarzi							
YAIMga (%da)	41,1	45,4	52,6	54,7	57,5	59,1	57,8

Ikkinchi jahon urushidan keyingi Fransiya iqtisodiyotining tiklanishida Kolbertizm g`oyasi asos qilinib, iqtisodiyotni yuqori darajaga yetkazish asosiy maqsad qilib olinadi. Keng miqyosda milliy lashtirish amalga oshib, 1945-1947 yillar ichida elektroenergiya, ko`mir qazish, gaz sanoati, dengiz floti, havo transporti, "Reno", Fransbank, depozit banklar, sug`urta banklar davlat ihtiyoriga olinadi. Mamlakatning 20 foiz ishlab chiqarish quvvati davlat qo`liga o`tadi. Monopolistlar kompensasiyalanib, pullar boshqa tarmoqlarga sarflanadi. 3 yil ichida sanoat va 5 yil ichida qishloq xo`jaligi tiklanadi.

7.2. Iqtisodiyotda davlat o`rni

Barcha bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ichida Fransiya davlatining ishtiroki yuqori va iqtisodiyotda hissasi ko`p mamlakat hisoblanadi. Iqtisodiy taraqqiyotda davlatning bevositaligi va e`tibori yuqori mamlakatlardandir. Bu asosan ikki tomonlama o`z ifodasini topadi. Birinchisi, davlat iqtisodiy sektorining kengligi va davlatning bozor iqtisodiyotidagi sub`ektlik darajasi bo`lsa, ikkinchi umumiy iqtisodiy vazifalar va iqtisodiyotni, ayniqsa bozor iqtisodiyotini tartibga solib borishdir.

Davlat sektorining milliy iqtisodiyotdagi hissasini sezilarli darajada ekanligi Fransiyaning muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Milliylashtirilgan firmalar aksionerlik jamiyatlari yuridik shakliga egadir. Bularning aksiyalari bevosita yoki milliylashtirilgan banklar, moliya tashkilotlari orqali bilvosita davlat egaligidadir.

Tarmoqlar bo`yicha olsak, davlat kompaniyalari asosan avtomobilsozlik, qora metallurgiya, aviakosmos, elektron, kimyo, neftgaz sanoatlarida faoliyat yurgizadi. Ma`lumki, bu tarmoqlar odatda ko`p xarajatli va yuqori investitsiyali hisoblanadi. Shu bilan birga xususiy kompaniyalar yetarli darajadagi foydani ololmay, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta`minlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Eng muhimi shuki, bu tarmoqlarning xalq xo`jaligidagi ahamiyati kattadir.

Fransiyada tarixan uch xil davlat korxonalarini mavjud. Birinchisi, bevosita davlat korxonalariga kirmaydi, biroq odatiy ma`muriy tartibda boshqariladi va davlat huquqiyligi asosida faoliyat ko`rsatadilar. Bular

Napx-navoni saqlash maqsadida davlat bir qism pulni muomaladan olib, muvazanatni taminlash choralarini qo`lladi. Lekin bu ikkinchi tomondan sanoat o`shiga salbiy tasir eta boshladi, chynki xarajlik darajasini pasaytipish bilan bog`liq edi.

pochta va aloqa, milliy nashriyot, kasalxonalar, depozit kassalar kabilardir.

Ikkinchi xili, kapitallari to`la davlat ihtiyorida bo`lib, faoliyati xususiylik huquqiy harakat asosida bo`ladi. Bularga neft axtarish va uni olish, Parij aeroportlarini boshqarish, dengiz portlarini va boshqa shu kabilarni boshqarish kiradi.

Uchinchi xili, aralash iqtisodiyotga qarashli bo`lib, nazorat paketi davlat qo`lida bo`ladi. Davlat sektoriga qarashli korxonalarining yarmidan ko`pi shunday korxonalaridir.

Davlat iqtisodiyotidagi ikkinchi tomon davlat iqtisodiy tartiblashtirish bilan bog`liq faoliyatdir. Bu asosan diversifikatsiya tarzidagi amaliyotdir va indikativ rejalashtirishni ham o`z ichiga oladi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bir necha o`n yillardan beri davom etib, bu to`xtovsiz kuchayib borgan. Agar davlatning xarajatlari YAIMga nisbatan XX – asr boshida 10-15 foizni tashkil etgan bo`lsa, 90 – yillarga kelib 45 foizdan ortiq bo`lgan. Bu sohadagi asosiy vazifalar Iqtisodiyot vazirligiga yuklatiladi. Shu bilan birga moliya va byudjet orqali amalga oshirilib, Fransiya iqtisodiy siyosatini bir-biriga bog`laydi. Bozorga ta`sir ko`rsatishda iqtisodiyotda byudjet tartibga solish qurolidan hisoblanadi. Chunki u muayyan soliq siyosati va ma`qul maqsadli dasturlarni amalga oshirishni bajaradi.

Soliqqa kelsak, davlat buning amalga oshuvi tufayli mamlakat byudjetining daromad qismini amalga oshirish bilan birga milliy iqtisodiyotning rivojlanishdagi rasmiy ustuvorlikni amalga oshirish amaliyotini ham ifodalaydi. Davlat byudjetining daromad qismining 90 foizini soliq yig`imi tashkil etadi. Shu bilan qurol-aslaxalar sotish kabilar ham ma`lum o`rin egallaydi.

Byudjet xarajatlarida ta`minot va madaniyat, tibbiyot va sog`liqni saqlash, ish joylari yaratish, mudofaa, ijtimoiy to`lovlar asosiy o`rin egallaydi. Bundan tashqari davlat yirik ilmiy-tadqiqot ishlarini, iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirishni amalga oshiradi. Asosan bunda eng ilg`or istiqbolli dastur va loyihalar o`rin egallaydi. Bular Fransiya firmalarining yaqin orada robototexnikasi, aloqa vositalari, yangi materiallar yaratish, biotexnologiya, axborot, miroelektronikalar bo`yicha yetakchi mamlakatlar qatorida bo`lish imkonini tug`diradi.

Davlat faoliyatida, uni iqtisodiy tartiblashtirish sohasida tashqi savdo ham aloxida o`rin olib, bunda ham eng ilg`or o`rinlarni egallash choralari qo`llanilmoqda. Avvalo bu eksportga qaratilgandir. Tartiblashtirishda fransuz tovarlari raqobatbardoshlik darajasini ko`tarish eng muhim bo`lib, bu kompleks asosda amalga oshirilmoqda. U tovarlarni sotish jarayonidan tashqari ishlab

chiqarishni ham o'z ichiga oladi. Bunday davlat harakati selektiv va maqsadli yo'nalishli bo'lib, uning asosiy o'qi moliya-kredit va ma'muriy sohalarni o'z ichiga oladi. Davlatning iqtisodiyotdagi o'rnini uning yalpi mahsulotga va daromad taqsimotidagi ishtiroki, davlat sektorida bandlikni yuqoriligi ham tasdiqlaydi. YAIMning 54 foizi davlat tomonidan taqsimlanadi. Davlatdagi bandlik darajasi 24 foizga yetadi. Kadrlar tayyorlashda ham o'rnini katta bo'lib, oliy o'quv yurtlarida faqat davlatga qarashli korxonalar, tashkilotlarda ishlash uchun kadrlar tayyorlanadi.

Davlatning aholi ijtimoiy hisobidagi o'rnini juda katta bo'lib, asosiy ishlar davlat tomonidan bajariladi va xarajalar ham davlat orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy to'lovlar YAIMning 19,3 foizini tashkil etadi. Bu dunyoda eng yuqori ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Fransiya davlatining iqtisodiyotdagi o'rnini ayniqsa milliyashtirish va xususiyashtirish jarayonlarida juda ahamiyatlidir. Bu jarayonlar iqtisodiy va uning talablariga qarab Fransiyada juda faol yondoshuv amalga oshiriladi. Bunday holatlar ayniqsa 80-90 yillarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Aytaylik, 80 – yillar boshlarida yevropa rivojlangan mamlakatlarga AQSHning valyuta-moliyaviy siyosati katta ta'sir ko'rsatdi. Dollarning kursi shiddatli ravishda ko'tarilib, Fransiyaning savdo yetishmovchiligini o'sishiga olib keldi. Chunki taxminan 1/3 fransuz importi dollar bilan to'lanar edi, bu esa 1981 – yilni o'zidayoq 92 mlrd. franka teng edi. Buning ta'siri ishsizlikni o'sishi, iste'mol tovarlari narxining o'sishi va bir qancha ijtimoiy keskinliklarga olib keldi.

Fransiya davlati iqtisodiy keskinlikning oldini olish uchun bir qancha choratadbirlar bilan birga korxonalarini milliyashtirishni amalga oshirdi. Bu jarayon asosan beshta yirik sanoat guruhlarini o'z ichiga oldi. Davlat sektori keskin ko'tarilib, bandlik 25 foizga yetdi. Eksportda esa 1/4 ni tashkil etdi va 1/3 sanoat mahsulotini qamrab oldi. Buning hissasiga aviatsiya va kosmik sanoatning 85 foiz, qora va rangli metallurgiyaning 70 foiz, Kime sanoatining deyarli yarmi to'g'ri keladi.

Kreditni tarqatishga katta e'tibor qaratilib, 36 ta tijoriy va biznes banklar davlat ihtiyoriga o'tdi. Shu bilan birga ikkita eng yirik moliyaviy guruh davlat qo'liga o'tadi. Bular juda yirik sanoat-moliya guruhi bo'lib, yuzlab yirik kompaniyalarni

birlashtirar edi. Shunday qilib, moliyalashtirish va kredit sohasining 95 foizi davlat ihtiyoriga o'tadi.

Bank vositasi bilan sanoatga yordamlashuv siyosati qo'llanildi va bir qancha tarmoqlarga imtiyozli kreditlar qo'llanildi. Milliyashtirilgan korxonalarining ba'zi qismlarga imtiyozlar konkret xolatda amalga oshirildi. Sanoat tarkibiy tuzumini o'zgartirish xususiy korxonalarda ham amalga oshirilib, ularning xatarlilikini banklar o'z bo'yniga olishi kerak edi.

Narx-navoni saqlash maqsadida davlat bir qism pulni muomaladan olib, muvazanatni ta'minlash choralarini qo'lladi. Lekin bu ikkinchi tomondan sanoat o'sishiga salbiy ta'sir eta boshladi, chunki xaridlik darajasini pasaytirish bilan bog'liq edi.

Davlat shu bilan birga "Delyur rejasi" deb atalmish dasturni qo'llab, "qattiq tejamlik" chorasini qo'llay boshladi. Bu avvalo tashqi savdo kamomadining oldini olishga qaratilgan edi. Soliqlar orttirilishi, majburiy zayom, shuningdek transport, davolash, kommunal xizmatlar narxlari ko'tarildi. Natijada zararli ish yurituvchi korxonalar soni kamaydi va davlat sektorini moliyalashtirishga xususiy sektor ham jalb etila boshladi.

Bularning hammasi tushkunlikni oldini olish va iqtisodiyotni mustahkamlashga yordamlasha boshladi. 90 – yillarga kelib iqtisodiy muxit o'zgarib, asosiy masalalarga yondoshuv boshqa talablarni qo'yib, korxonalar va tashkilotlarning xususiylashtirish siyosatini talab eta boshladi va bunda ham davlat keskin tadbirlar qo'llab, iqtisodiyot rivoji uchun zarur choralar amalga oshirildi.

Bunda firmalar strategiyasi manfaatlarini e'tiborga olib, davlat aralashuvini qisqartirish hamda bozor kon'yunkturasini e'tiborga olib, moslashuvchanlikni qo'llash, xo'jalik faoliyatini baynalminallashtirishda xususiylashtirishning ustunligini e'tiborga olish hamda mayda aksionerlarni ko'paytirish va bunga aholini jalb etish, asos bo'lib hisoblangan.

90 – yillarning birinchi besh yili ichida 65 davlat va yarim davlat korxonalari xususiylashtirilib, buning ichida yirik, eng yiriklari ham mavjud edi. Bular sanoat, banklar, sug'urta guruhlar edi. Xususiylashtirish zarur bo'lgan aktivlar qiymati 200

mlrd. frankka teng edi. Lekin elektroenergiya, gaz ta'minoti, telekommunikatsiya sohalari faqat davlat egaligida qolishi qat'iy edi.

Xo'jalik mexanizmini takomillashtirishdagi ikkinchi yo'nalish soliq to'lovlarini kamaytirish edi. Daromadning asosiy qismini xo'jaliklar ihtiyorida qoldirib, tadbirkorlar erkinligini kengaytirish va shaxsiy tashabbusni ko'tarish kerak edi.

Bundagi davlat siyosatining uchinchi yo'nalishi turli iqtisodiy faoliyat sohasidagi chegaralashni kamaytirishdan iborat bo'ldi. 1987 – yildan boshlab barcha sanoat va xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar o'z mahsulotlari narxini bozor sharoitlaridan kelib chiqqan xolda erkin belgilash huquqiga ega bo'ladilar. Faqat bundan kitob, medikamentlar, gaz temir yo'l istisno edi. Kredit tizimi faoliyatiga davlat aralashuvi keskin kamaytirilib, kredit muassasalari asta-sekin xususiylashtiriladi va kreditdan foydalanishdagi imtiyozlar bekor qilinib, erkin bozor foiz normalari kiritiladi.

Bunday davlat siyosati qisqa vaqt ichida o'zining ijobiy yakunlarini bera boshladi. Iqtisodiy ko'tarilish yuz berib, bu 3-4 foizga yetdi. Kapital xarajatlar deyarli 50 foizga ko'tarildi va asosiy an'anaviy tarmoqlarda o'sish yuz bera boshladi.

Lekin 90 – yillar boshiga kelib iqtisodiyotda axvol yana keskinlasha boshladi. Buning asosiy sababi jahon bozorida narx-navoning eksport tovarlarga pasayishi bo'ldi. Milliy kompaniyalarda o'z sarmoyalarining yetishmasligi, kredit foizlarining yuqoriligi, yirik qarzlarni paydo bo'lishi yuzaga keladi. Bular hukumatdan keskin chorlaar qo'llashni talab etadi. Iqtisodiyotni jonlantirish dasturi tuzilib, bunda ijtimoiy ishlarni ko'paytirish, turar joy qurilishini kengaytirish, ishlab chiqarish o'sishini rag'batlantirish hamda ishsizlikning o'sishini to'xtatishlar ko'zda tutiladi. Shu bilan birga pul-kredit va valyuta siyosatlariga o'zgartirishlar kiritiladi. Bu tezda o'z natijalarini berib, frank mustahkamligini ta'minlash, qarzlardan qutilishlar yuz berdi. Shu bilan birga davlat bu sohada o'zining yangi siyosatini e'lon qildi. Bundagi eng muhimi baho mustahkamligini e'lon qilish edi. Chet valyutalar kursiga frankni tenglashtirish, muomalada pul miqdorini kamaytirishlar yuz bera boshladi.

90 – yillar boshida ishsizlikning oldini olishga qaratilgan choralardan biri davlat zayomi chiqarish bo`ldi. Byudjetdagi qo`llanilgan choralar yangi ish joylarini paydo qilish, vaqtincha ish bilan ta`minlash va yoshlarni o`qitish jarayonlarini moliyalashtirish imkonini tug`dirdi.

80 – yillar oxiri va 90 – yillar boshida yirik xajmda xususiylashtirish amalga oshirildi. Bu xatto raqobatbardosh davlat korxonalarini ham o`z ichiga oladi. Bu yuqori rentabelli va yirik korxonalariga ham taaalluqli edi. Bunda moliyaviy byudjetga xos fikrlashuv asos qilinib, davlat mulki to`g`risida yetakchi partiyalarning strategik masalalari bo`yicha yaqinlashuvi natijasi ustunlik qildi.

7.3. Ijtimoiylashtirilgan bozor iqtisodiyoti

Fransiya bozor iqtisodiyoti chuqur ijtimoiylashtirilgan bo`lib, buning markazida davlat turadi va uni “farovonlik davlat” deb atashadi. Fransiyada aholining barcha qatlamlari fundamental ijtimoiy talablar bo`yicha mamlakat tomonidan jalb etilgan sog`liqni saqlash, nafaqa ta`minoti, oilaviy siyosat, ishsizlik bo`yicha sug`urtalash, daromad manbai bo`lmaganlarga minimal to`lovlar kabilar bo`yicha davlat kafolatligi ta`minlangan. Ijtimoiy ta`minot uchun yiliga 2800 mlrd. frank sarflanadi. Bu 456 mlrd. dollarga teng bo`lib, YAIMning 35 foizini tashkil etadi. Taqqoslasak, darajasi bo`yicha Daniya, Finlyandiya, Avstriya, Gollandiya mamlakatlariga to`g`ri keladi. Bu mamlakatlar aholi hisobidan Fransiyadan ancha kichik davlatlar va ko`p tomondan sharoiti yaxshi mamlakatlardir.

Buning ichida bevosita davlat hissasi yuqoridir. Chunki byudjet xajmi keng bo`lib, uning ijtimoiy xarajatlari qismi kattadir. Ijtimoiy to`lovlar YAIMning 19,3 foizini tashkil etadi. Bu ko`rsatkich AQSHda - 10,4; Shvetsiyada – 14,5; va Angliyada – 6,3 foizga teng.

Fransiyada aholining barcha qatlamlari fundamental ijtimoiy talablar bo`yicha mamlakat tomonidan jalb etilgan sog`liqni saqlash, nafaqa ta`minoti, oilaviy siyosat, ishsizlik bo`yicha sug`urtalash, daromad manbai bo`lmaganlarga minimal to`lovlar kabilar bo`yicha davlat kafolatligi ta`minlangan.

Ijtimoiy muammolarni xal qilishda va bu sohadagi nazoratni ta'minlashda ijtimoiy-iqtisodiy Kengashlarning roli kttadir. Bular mikro va makro darajada bo`lib, demokratik asosda shakllanadilar. Makro darajadagi Kengashlar mamlakat xajmida shakllansa, mikro darajadagilari korxonalar, tashkilotlar darajasida yuzaga keladi. Kengashlar jamoa tomonidan saylanadi va doimo xisobot berib turadi. Bu Kengashlar jamoani ijtimoiy himoyalash bo`yicha o`z dasturlarini tuzib, shu asosda o`z fikrlarini bildiradilar va uning bajarilishini talab qiladilar. Kengashlar o`z takliflari, talablari va iltimoslarining bajarilishiga katta e'tibor qaratadi. Aks xolda jamoatchilikning ta'sir – e'tiborini bu muammoga qaratib zarur choralar belgilanadi.

Kengashlar ijtimoiy muassasalar ustidan boshqaruv vazifalarini ado etadilar. Aytaylik, oshxonalar, turar-joy fondlari, dam olish joylari, kutubxonalar, madaniy va sport inshootlari kabilar shular jumlasidandir.

Makro Kengashlar mamlakat miqyosida faoliyat ko`rsatib, hukumat va uning organlari bilan muloqat hamda muomalada bo`ladilar, o`z taklif, talablarini shu darajada xal qilishga harakat qiladilar, xatto hukumat, davlat yechimlariga muayassar bo`ladilar. Shu sohaga taalluqli qonun-qoidalarining yuzaga kelishida tashabbuskorlik qiladilar.

Bulardan tashqari bozor iqtisodiyotining ijtimoiylik darajasini ko`tarishda xususiy institutlar va tashkilotlar mavjud bo`lib, bular o`z jamg`armalariga egaligi va tijoratdan foydalanishlari tufayli qudratli salohiyatga ega bo`lib, ijtimoiy himoyada samarali ishlarni olib boradilar.

Ijtimoiy masalalarni xal qilishga jamoatchilikning ishtirok etishi bu sohada muvaffaqiyatlarga erishishda yaxshi natijalar beradi va boshliq, rahbarlarning, hukumatning diqqatini jalb etishda qo`l keladi.

Fransiyada ham ish joylari qimmat bo`lib, ishchi va xizmatchilar daromadi yuqori darajadadir. Bu bozor ijtimoiy yo`nalishida eng muhim o`rin egallab, bunga ham doimo e'tibor berilib boradi. Ayniqsa, bunda iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar katta o`rin egallaydi. Masalan, 80 – yillar boshida F. Mitteran davlat boshiga kelganda minimum ish haqi darajasi ko`tarilgan, nafaqalar 40-50 foizga oshgan. Bunday tadbirlar zaruriyatga qarab tez-tez amalga oshirilib turiladi.

Ishsizlik ijtimoiy sohada doimo dolzarb hisoblanib, Fransiyada bunga to'xtovsiz e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, bunda yangi ish joylarini yuzaga keltirish ahamiyatlidir. Xatto bu sohaga byudjet xarajatlari ham vaqti-vaqti bilan sarf etilib turadi.

90 – yillar boshida ishsizlikni oldini olish maqsadida yangi ish joylari tashkil etish, vaqtincha ish bilan ta'minlash kabilarga yiliga 110 mlrd. frank byudjetdan ajratilgan edi.

Ijtimoiy hayotga taalluqli barcha tarmoqlarning rivojlanganligi, ayniqsa sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, turizm, oilaviy siyosat, ta'lim tizimi kabilarning yuqori darajada bo'lishligi bu sohada insonga xos yuqori hayot darajasiga erishish imkonini beradi.

Evropa Ittifoqi (EI)ning yuzaga kelishi bu sohaga yana ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Chunki bu rivojlangan mamlakatlar birlashmasi bo'lib, avvalo bozor iqtisodiyotining ijtimoiylik mazmuniga ijobiy ta'sir etadi. EI ravnaq muhitdan iborat va barcha a'zo mamlakatlar iqtisodiyotining o'sishiga da'vat etadi. Raqobatbardoshlik, juda katta G'arbiy bozori yuzaga kelib, hozirning o'zida 400 mln. iste'molchilarga ega. Tovar va xizmat ko'rsatishning, kapitalning katta xududda erkin harakat qilish sharoiti tug'iladi. Umumiy qishloq xo'jalik siyosati qo'llanilib mahsulotlarning erkin muomalada bo'lishi, moliyaviy hamkorlik, investitsiya va daromadlarning o'sishi, qishloq xo'jaligidagi kafolatlikni yuzaga kelishi qishloq xo'jaligini qayta tiklash kabilarning imkoniyatlari kengayadi.

Sanoatda ham shunday ijobiylik yuzaga kelib, kapital va ishchi kuchi erkin harakati, kapital konçentratsiyalashuvi, investitsiyaning ko'payishi, yangi tarmoqlarning rag'batlanishi, ilmiy hamkorlik, xizmat ko'rsatish sohasining rag'batlanishi kabilar yuqori darajaga ko'tariladi.


EIning shakllanishi boshqa rivojlangan mamlakatlar qatori Fransiyada ham bozor iqtisodiyotining ijtimoiylashuvida yangi bosqich bo'lib, bu sohada yangi muvaffaqiyatlarga erishuv ko'zda tutiladi.

7.4. Jyuppe va Jospen islohatlari

Halqaro raqobat va ye'ning tashkil etilishining iqtisodiy taraqqiyot oldiga yangi talablar qo'yishi Fransiya iqtisodiyoti oldiga ham muhim vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Bu vazifalar iqtisodiyotda o'zgarishlarni amalga oshirishni, uni zamonaviy sharoitlarni e'tiborga olgan holda taraqqiyotning tezlashuvini taqozo etadi.

Bunday o'zgarishlar Jyuppe va Jospen islohatlari deb ataladi. Jyuppe va Jospen Fransiya hukumatining boshliqlari bo'lib, hukumatning bu sohadagi dasturlarini tuzishda va bu dasturlarni amalga oshirishda boshchilik qilishgan va shaxsan faol ishtirok etishgan.

Jyuppe islohatlarining asosiy yo'nalishi ijtimoiy kafolatlikni pasaytirishga qaratilgan va bu bilan bog'langan davlat xarajatlarini kamaytirish, byudjet xajmini qisqartirishga qaratilgan. Albatta bu yuzaki qaraganda xalq manfaatiga qarshi mazmunga ega ijtimoiy himoyani susaytiradigan yo'nalishga o'xshaydi. Lekin ijtimoiy himoya darajasini saqlab bozorning ijtimoiylik yo'nalishi ta'minlangan holda bu islohatlarda ko'zda tutilgan vazifani bajarish talab etilar edi.



Buning uchun islohatda soliq tizimini o'zgartirish, keng xajmli xususiylashtirish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish kabilarni amalga oshirish ko'zlangan. Shu bilan birga bevosita ishsizlikni kamaytirish choralarini qo'llash rejalashtirilgan. Yuqorida ko'rsatganimizdek, davlatning ijtimoiy sohadagi yuki katta bo'lib, bundagi asosiy ishlarning davlat bajarar va ijtimoiy himoyaning deyarli barchasini o'zi ustiga olib davlat sektori ham juda katta xajmli edi. Bu bir

vaqtda zaruriyat bo'lsa, endi ijtimoiylik yuqori darajadali ta'minlanishi bilan bu yukning bir qismini zararsiz ravishda xususiy sektorga va fuqarolarning o'ziga tashlash yo'llarini izlash talab etilib, iqtisodiyotning taraqqiyoti uchun yangi ma'qul usullarini qo'llash zaruriyati tug'ilgan edi.

Shuning uchun xususiy sektorni imkoni boricha kuchaytirish, buning uchun keng miqyosda xususiylashtirish, soliqlarni o'zgartirish va ularni iloji boricha kamaytirish tadbirlari amalga oshirila boshlanadi. Xatto eng yirik sanoat guruhlar va kompaniyalari, banklar xususiylashtirila boshlaydi. Ishsizlikni oldini olish bilan bog'liq katta davlat xarajatlari amalga oshiriladi. Kredit imtiyozlari bekor etiladi va banklarning korxonalar kafolati to'xtatiladi. Davlatning xususiy korxonalar, kompaniyalarga nisbatan qo'llanilayotgan chegaralashlar to'xtatiladi. Ba'zi ijtimoiy vazifalarni davlat gardanidan olish va bu bilan bog'langan davlat xarajatlarini qisqartirish byudjetda ham, uning shakllanish xarajatlari shakliy tuzumida ham o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu soliq tizimini o'zgartirish va nisbatan ba'zi xillarini qisqartirishga olib keldi. Davlatning iqtisodiyotni tartiblashtirishdagi vazifalari kamaytirila boshlandi.

Jospen islohati ham asosan shu yo'nalishda bo'lib, undagi asosiy vazifalar tadbirkorlikni kuchaytirish va iqtisodiyotdagi davlat aralashuvini pasaytirishdan iborat edi. Bunday muhim tomonlar aksionerlar manfaatini kuchaytirish, mehnat bozorini islox qilish, egiluvchan mehnat haqi shakllarini qo'llash, kasaba uyushmalarining rolini pasaytirish, valyutani kuchaytirish kabilardan iborat edi.

Jahon tajribasi, ayniqsa bozor iqtisodi rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat usulida tashkil etilgan xo'jalik yuritishga nisbatan xususiy usulda tashkil etilgan xo'jalik yuritish ustunlik qiladi. Bunday eng muhim xolat erkinlik darajasi va shaxsiy manfaat darajasidir. Bular albatta xususiy xo'jalikda yuqoridir. Tashabbuskorlik imkonini olsak, buning ham xususiylikdagi ustunligini ko'ramiz. Xususiylik sharoitida bozor mexanizmlari samaraliroq harakatda bo'ladi. Xo'jalik yuritishda davlatning ustunlik tomonlari ham mavjud. Lekin hamma vaqt emas. Bunda mavjud sharoit, strategik maqsad xal qiluvchi ahamiyat kasb etishi kerak. Shuning uchun ham zaruriyat tufayli davlat usulini qo'llash talab etiladi. Lekin

imkoni boricha iqtisod bozor usulida bo'lishi va uni xususiy mulk asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Xatto an'anaviy davlat egaligidagi xo'jaliklarni ham xususiylashtirish ko'proq foydaliroqdir va xo'jalik yuritish umuman xususiy bozor usulida tashkil etilishi kutilgan samara beradi.

Valyuta islohatida oldin frank va yevro ittifoqiga erishish to'g'risida bir necha tadbirlar amalga oshiriladi. So'ngra yevro puliga o'tiladi va natijada frank ham yevropa Ittifoqi uchun umumiy bo'lgan yevro bilan almashtirilib, pul muomalasida katta erkinlikka erishiladi. Aksionerlar manfaatini ko'tarishga qaratilgan tadbirlar "dekmokratik kapitalizm" deb atalmish tamoyilga asoslanib, aksiya egalarini ko'paytirish, shu tufayli firma faoliyatida ishtirok etish va eng muhimi mulkdorlik darajasini ko'tarishga erishish ko'zlanadi. Xatto shu usul bilan farovonlikni ko'tarish maqsad qilib qo'yiladi. Bunda asos qilib xususiy aksioner jamiyatlari olinadi va ularning rivojlanishi qo'llab-quvvatlanadi.

Bu islohatlardan maqsad erkin iqtisodiyot tamoyillaridan voz kechgan xolda erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillarini tan olish va ularga keng yo'l ochib samarali foydalanish tufayli yuqori darajali iqtisodiy muvaffaqiyatlarga erishish ko'zlanadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Fransiya iqtisodiy salohiyati va uning jahon miqyosidagi ahamiyatining tavsifi nimada?
2. Fransiyaning yevropa iqtisodiyotidagi o'rni nimalar bilan belgilanadi.
3. Fransiya iqtisodiyotidagi davlatning alohida o'rni nimalarda ifodalanadi?
4. Fransiya qishloq xo'jaligi xususiyatlari nimalar bilan belgilanadi?
5. Fransiya ijtimoiy bozor xususiyatlarini tushuntirib bering.
6. Fransiya hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti rivoji nimalarda o'z aksini topmoqda.
7. Fransiyaning Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozidan chiqish uchun olib borilayotgan islohotlari xaqida nimalarni bilasiz?
8. Xozirgi davrda Fransiyada qanday iqtisodiy muammolar mavjud?

9. Fransiyada tadbirkorlikni qo'llab quvvatlashga qaratilgan chora tadbirlar nimalardan iborat?

10. Fransiya iqtisodiyotida raqobatni rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor qaratilmoqda?

8-BOB. BUYUK BRITANIYA LIBERAL BOZOR IQTISODIYOTI RIVOJI

8.1. Buyuk Britaniya to'g'risida umumiy ma'lumot

Buyuk Britaniya geografik nuqtai nazardan yaxshi joylashgan bo'lib, tabiiy va iqlimiy tomondan ham ancha ustunlikka ega. hududi orollardan iborat bo'lib, dengizlarga to'la chiqa oladigan, issiq oqim zonasiga ega. Bu har tomonlama qulayliklarni tug'diradi. Qishloq xo'jaligi uyushtirish, hayot kechirish uchun ko'p shart-sharoitlarga ega.

Dengiz orqali jahonning barcha qit'a va hududlariga chiqishimkoniga ega. Shuningdek, ko'pchilik yer usti va yer osti tabiiy boyliklariga ega. Dengiz shelflaridan yiliga 100 mln. Tonna neft va 50 mlrd. m³ gaz qazib oladi. Bundan tashqari ko'mir, ohak boyliklariga ega. 30 mlrd. KVt. elektr energiya ishlabchiqaradi. Bular energo resurslar bilan ta'minlash imkonini beradi. hududning 77% qishloq xo'jalik uchun loyiq hisoblanib, bu sohani yaxshi tashkil etish imkonini tug'diradi.

Buyuk Britaniya uzoq vaqt dengiz hukmroni bo'lib, eng yirik dengiz flotiga ega bo'lgan. hozir ham bu sohada yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Angliyaning erta rivojlanishi jahonga hukmronlikni ta'minlashga olib keladi va bir necha asr eng

Buyuk Britaniya

Rasmiy nomi - Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi. Poytaxti - London. Xududi - 24410 km kv. Axolisi - 61. 634. 782 kishi.(2009) Davlat tili - ingliz. Dini - protestantlik (71,6 %), Islom (2,7 %). Pul birligi - funt-sterling.

Geografik joylashuvi:

Evropaning shimoli-g'arbida. Britan orollarida joylashgan davlat. Iqtisodi: Jahondagi eng rivojlangan 8 ta davlatlardan biri. Neft va gaz ishlab chiqarish, mashinasozlik (avtomobilsozlik, kemasozlik), aerokosmik sanoat (dunyoda 3-o'rinda), oziq-ovqat sanoati, elektronika va elektrotexnika, tibbiyot anjomlari, kimyo sanoati, parfyumeriya.

Birlashgan Qirollik - 428,8%

Tashqi qarz (yalpi ichki maxsulotga nisbatan, %): 428,8%

Yalpi tashqi qarz miqdori: 9,12 trln. \$

Yalpi ichki maxsulot (2009): 2,128 trln. \$

Kishi boshiga to'g'ri keluvchi tashqi qarz


yirik mustamlakachi katta imperiyani tashkil etgan. Shimoliy Amerika, Avstraliya, Yangi Zelandiya, hindiston, Janubiy Afrika va yana bir necha boshqa mamlakatlar Angliyaning mustamlaka va yarim mustamlaka, qaram mamlakatlaridan hisoblangan. hozirgacha ham bir necha, asosan orollardan iborat mustamlaka hududlar mavjud bo`lib ularning soni 14 taga yetadi va aholisi 6 mln. dan ortiq.

Imperiya o`z ichki taraqqiyoti, rivojlangan mamlaktalar yuzaga kelishi bilan yemirila borgan.

Jahonda siyosiy va iqtisodiy hukmronligi XIX-asr ikkinchi yarmida eng cho`qqiga chiqadi. AQSH, Germaniya kabi mamlakatlarning rivoji va raqobati Buyuk Britaniya jahon hukmronligining so`nib borishiga olib keladi. I-Jahon Urushiga kelib u o`zining jahon iqtisodiyotidagi liderligini qo`ldan bera boshlaydi.

So`ngra mustamlakachilik tizimining barbod bo`la borishi bilan o`ziga qaram imperiya hududlaridan ketmaket mahrum bo`lib, sobiq mustamlakalar mustaqil milliy davlatchiligiga ega bo`la boshlaydilar va Buyuk Britaniyaga qaramlikdan chiqib ketadilar hamda o`z mustaqilligini ta`minlab rivojlanadilar.

Bunday jahonda yuz bergan tarixiy o`zgarishlar Buyuk Britaniyaning absolyut hukmronligini yo`q qiladi. II-Jahon Urushidan keyin Angliya kontinental yevropa mamlakatlariga yaqinlashib boradi va ular bilan har tomonlama aloqalarni o`rnatib, ularni mustahkamlashga harakat qiladi. Shimoliy Atlantika harbiy tashkilotida yetakchilardan hisoblanadi, yevropa Ittifoqiga a`zo bo`lib, faol ishtirok etadi.



Buyuk Britaniya: YaIM hajmi bo`yicha beshinchi o`rinda turuvchi davlat. AQSh va EH monopoliyaga qarshi qonunchiliklarini tusi va shaklini shakllantirgan, iqtisodiyotni va huquqshunoslikni anglo-sakson turini asosi

Jahon siyosiy va iqtisodiy hayotida liderlikni qo`ldan bersa ham, baribir hozir ham dunyoda eng ta`sirli mamlakatlardan biri bo`lib, eng rivojlangan il-or industrial liberal bozorni yetakchi mamlakatlaridan hisoblanadi. Shu bilan birga o`z xususiyatlarini saqlagan holda har tomonlama farqlanadigan tomonlarga egaki, bu ayniqsa iqtisodiy hayotda o`z aksini topib, kontinental yevropadan farqli o`laroq anglo-saksoniya bozor modeliga ega. Shu bilan birga u jahondja eng taraqqiy etgan yuqori industrial rivojlangan mamlakatlardan bo`lib, sanoat, ishlab chiqarish va ilmiy

tadqiqot hamda ishlovlarga bo`lgan xarajatlar bo`yicha eng ilg`orlardan hisoblanadi. Eng katta eksportyor va importyor mamlakatlar qatoriga kiradi.

Buyuk Britaniyaning hududi 244,1 ming kv²ga teng. Bunga Shimoliy Irlandiya ham kiradi. Aholisi 57,9 mln. kishini tashkil etadi. Asosiy xalqi inglizlar bo`lib 90%ga teng keladi. Pul birligi funt sterling hisoblanadi. 1997 - yilda YAIM - 1,3 trll. Dollardan, aholi jon boshiga esa 22 ming dollardan to`g`ri kelgan. Jahon iqtisodiyotida birinchi o`rinni egallaydi. Aholining 4/5 qismi shaharlardar istiqomat qiladi.

Yirik iqtisodiy sheriklari AQSH, Germaniya Federativ Respublikasi, Fransiya va Niderlandiya hisoblanadi. Eksport va importning 50% yevropa Ittifoqiga to`g`ri keladi. Buyuk Britaniya dengiz portlaridan yiliga kamida 500 mln. tonna yuk o`tadi.

Katta mehnat resurslariga ega. Ular yuqori malakali ishchilar bilan birga olimlar va ko`zga ko`ringan donishmandlardan iborat.

8.2. Buyuk Britaniya to`ng`ich industrial mamlakat

Buyuk Britaniya dunyoda birinchi bo`lib industrial taraqqiyotni boshlab bergan va sanoat inqilobini amalga oshirgan mamlakat hisoblanadi. Bu jamiyatning keskin o`zgarishi, taraqqiyotning keskin tezlashuvida taqdiriy o`rin egallaydi. Eng muhimi qo`l mehnatini mashinalar, stanok, moslama, jihozlar bilan almashinuvi davrini boshlab beradi. Ma'lumki, sanoat inqilobi mehnat unumdorligi o`shida keskin va inqilobiy o`zgarishga olib keladi va natijada iqtisodiy taraqqiyot yangi davrni boshlab beradi.

Industriya manufaktura taraqqiyotining natijasi bo`lib, u asbob-uskunalarining keskin takomillashuvi hamda ulardan mashinalarga o`tish shart-sharoitlari va moddiy, tashkiliy asoslarini yaratgan edi. Mashinalar yaratilishi, bug` energiyasidan foydalanish eng muhim xodisa edi. Bular zamonaviy zavod, fabrika ishlab chiqarishlarini yuzaga keltirdi.

Bunday keskin o`zgarish avvalo to`qimachilikda amalga oshadi. So`ngra mashinasozlik, metallurgiya tarmoqlarini paydo qiladi. Paravoz va temir yo`l transportining vatani ham Buyuk Britaniya hisoblanadi. Angliyadan industrial

taraqqiyot va sanoat o'zgarishlari yevropa kontingentiga yoyiladi va unda ham Fransiya, Italiya so'ngra Germaniyada industrial korxonalar paydo bo'la boshlaydi.

Mashinasozlik, metallurgiya va qazib olish sanoatini paydo qiladi, uni keskin rivojlanishiga olib keladi. An'anaviyga aylangan sanoat tarmoqlari paydo bo'lib, ular takomillashib boradi.

Buyuk Britaniya sanoatining hozirgi xolatini tavsiflasak, bunda qazib olish sanoati bilan ishlov berish sanoatining salmog'i katta. Ko'mir sanoatida rentabelsiz shaxtalar yopilgan. Lekin neft va gaz sanoatiga ahamiyat kuchaytirilgan. Bunda Shimoliy dengiz shelflari asosiy o'rinni egallaydi. Bu sanoati tarmoqg'ida texnologiya doimo o'zgarib, eng ilg'orlari qo'llanilib boriladi va jahonda liderlik qilishga harakat qiladi.

Transport mashinasozlikni o'rni katta bo'lib, sanoat ishlab chiqarishning 12,4%ini tashkil etadi. Bunda avtomobilsozlikning ahamiyati katta bo'lib, Asosan AQSH va Yaponiya kompaniyalari asos bo'lib hisoblanadi. Masalan, Rover va Frd, Xonda va Nisan, Toyota kabilar 99%ni tashkil etadi.

Bu sohada kemasozlik ham katta xajmga ega. Aerokosmik sanoati ham rivojlanib, u AQSH va Fransiyadan keyin uchinchi o'rinda turadi. Bunda samolyot, vertolyot, aorodvigatellar ishlab chiqariladi.

Oziq-ovqat sanoati umumiy ishlab chiqarishda 12,5%ga teng bo'lib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, sut va vinochiliklarni o'z ichiga oladi.

Umumiy mashinasozlik asosan qishloq xo'jalik texnikasi, stanoklari va to'qimachilik jihozlari ishlab chiqarishdan iborat. Stanoklar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yettinchi o'irnda turadi.

Buyuk Britaniya sanoatida elektrnika va elektrotexnika yetakchi o'rinlarda turadi. Bunda kompyuterlar, ayniqsa mashhur IBM va Sotradlar, dasturlar bilan ta'minlash, superkompyuter va processorlar, telekommunikatsiya vositalari, tibbiyot jihozlari, maishiy texnika kabilar o'rin egallaydi.

Kimyo sanoatini olsak, u 11% xajmga ega. Bunda formaçevtika, agrokimyo, parfyumeriya va yangi materiallar asosiy o'rin egallaydi. Dorivorlar ishlab chiqarish bo'yicha Buyuk Britaniya jahonda to'rtincha eng katta mamlakat hisoblanadi.

Metal ishlab chiqarish umumiy sanoatning 10,8%ini tashkil etadi. Qellyuloza qog'oz sanoati ham sezilarli o'rin egallaydi.

Buyuk Britaniya sanoatining hozirgi zamon taraqqiyoti yangi texnologiya bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham u o'zining ilmiy xajmiyiligi bilan farqlanadi. Elektronika va elektrotexnika bo'yicha jahondagi yetakchiligi tan olinadi.

Buyuk Britaniya qurilish industriyasi ham dunyoda yetakchi o'rinlarda turib, yuqori sifatli qurilish ishlarining amalga oshirilishi Lamansh suvosti tonneli, Parij yaqinidagi yevro Disneylend, Atlantadagi 1996 yil Olimpiada o'yinlarining ob'ektlari, Gonkonglagi yangi aeroport qurilishlari bunga misol bo'lishi mumkin.

Sanoat tuzilmasi keyingi yillarda keskin o'zgarishlarga duch kelmoqda. Bu ayniqsa investitsiya dinamikasida o'z aksini topmoqda. Bu jarayon yangi tarmoqlarda keskin ko'paymoqda. Aytaylik, egasi an'anaviy tarmoqlarda investitsiya keskin kamayib, yangi tarmoqlarga qaratilmoqda. Buni ko'mir, metalga ishlov berish, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatiga kamayib, stanoksozlik, elektrotexnika, aviatsiya, elektronika investitsiyaning keskin ko'payishida ko'rish mumkin.

Ayniqsa kimyo va neftkimyo tarmoqlariga katta e'tibor berilmoqda. Shuning uchun ham bu tarmoqlarning mahsulotlari jahon bozorida o'z o'rnini kengaytirmoqda.

8.3. Qishloq xo'jaligi rivoji

Buyuk Britaniya qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliq ovlash xo'jaligining o'zi esa 1,8% bo'lib, bunda bandlik mehnat resurslarining 2,1%iga tengdir.

Buyuk Britaniya qishloq xo'jaligi yuqori darajali samaradorligi va unumdorligi bilan farqlanadi. Uning texnika darajasi va qurollanishi juda yuqori hisoblanadi.

Mamlakat tahminan ta'minotning deyarli yarmini o'z qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan qoplaydi. Qolgan qismi esa import hisobiga amalga oshiriladi.

Ilgari, ayniqsa mustamlakachilikdan oldin o'zini-o'zi ta'minlar edi. Xatto manufaktura va dastlabki kapital qishloq xo'jaligi oziq-ovqat va xomashyo iste'moli faqta o'zi hisobiga qoplar edi.

To'qimachilik sanoati shakllanishi davrida xatto "qo'ylar odamlarni yeb qo'ydi" degan ibora bo'lib, jun yetishtirish to'lig'icha o'z qo'ychiligi orqali amalga oshirilgan. So'ngra xomashyo mustamlaka hududlarida yetishtirilib, xatto oziq-ovqat, ayniqsa go'sht-sut chetdan keltirila boshlagan. Bunda barcha mustamlakalar qatori, ayniqsa Avstraliya qo'ychiligi, Kanada g'allasi kabilar katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Buyuk Britaniyaning o'zida hozirgi vaqtda bug'doy, ARPA, kartofel, qand lavlagi kabilar ko'p miqdorda yetishtiriladi. Chorvachilikda asosan go'sht, sut va tuxum ko'proq yetishtirilib, bog'dorchilik va sabzovot yetishtirish ham yetarli o'rin egallaydi.

Lekin yer resurslarida o'rmonchilik, obodonchilikka qaratilgan hududlar ko'p. Ekologiyaga katta e'tibor beriladi va buning uchun zarur chora-tadbirlar keng qo'llaniladi.

Buyuk Britaniya geografik xolati va dengiz floti xajmi baliqchilikka qulay sharoit yaratadi. Umuman dengiz mahsulidan keng foydalanish va ularni qayta ishlash ham yaxshi rivojlangan.

Keyingi yillarda chorvachilik rivojiga labli enjifalit kasali "sigir qutirishi" katta zarar yetkazdi. Bu sababli ko'p mamlakatlarda Angliya sigir go'shtiga embargo siyosati qo'llanilib, bu mahsulot eksportini ancha qisqartirdi.

Natijada ko'p miqdorda sigirlar qirildi, butun-butun chorvachilik fermalar xonavayron bo'ldi. Chunki bu kasal bitta sigirda bo'lsa ham butun podani yo'q qilishga to'g'ri kelgan edi. Angliya davlati ham katta sarf-xarajat qilishga majbur bo'lgan. Chunki fermerlar ko'rgan zararni qoplash zaruriyati tug'ilgan edi. Buning ichiga sigirlarni o'ldirish, kuyish, sotishdan kelgan zararlarni qoplash kabi xarajatlar kirgan edi. Qayd qilish kerakki chorvachilikda Buyuk Britaniyada sigirchilikning go'sht yetishtirish yo'nalishi sos hisoblanar edi.

Umuman iqtisodiyotning barcha tomonlariga o'xshagandek qishloq xo'jaligining rivojlanishi va yo'nalishi Buyuk Britaniyaning yevropa Itiofigq qo'shilishi bilan albatta o'zgaradi. Chunki yevropa Ittifoqi talablariga va u tug'diradigan shart-sharoitlarga moslashuvi talab etiladi. Bu ayniqsa qishloq xo'jaligi

tuzumiga taalluqlidir. Umumiy bozorga ishlash, iste'molchilarning talabi va boshqacha tuzilma, yo'nalishlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Lekin ko'pchilik kontinent mamlakatlaridan farqli ravishda Buyuk Britaniyaning xomashyo va oziq-ovqat iste'moli asosan boshqa qit'alarga bog'liqdir. Chunki, yuqori ta'kidlaganimizdek bu mahsulotlar ta'minoti mamlakat ehtiyojining yarmini qoplashi kerak.

8.4. Liberal bozor iqtisodi rivoji

Buyuk Britaniya iqtisodi o'zining liberal darajasi bilan farqlanadi. Haqiqiy kapitalizm liberalizmi Angliya uchun juda xosdir. Shuning uchun ham Buyuk Britaniyani haqiqiy klassik kapitalizm mamlakati deb ataladi. Chunki bu mamlakatning asosni haqiqatan ham tadbirkorlik tashkil etadi.

Ma'lumki, burjum liberalligi, kapitalistik xo'jalik usuli dunyoda avvalo Buyuk Britaniyada tashkil topib, haqiqiy kapitalistik ishlab chiqarish usulining vatani hisoblanadi va asrlar oshib, shu usulni takomillashtirib keladi.

Hozirgi vaqtda xususiy sektor 81%ni tashkil etish, bunda bandlik $\frac{3}{4}$ dan iborat. Tadbirkorlikni rivojlantirish va uning uchun barcha qulayliklarni yaratib berish hukumat siyosatining asosini tashkil etadi.

Iqtisodiy taraqqiyotda liberalizm katta o'rin egallab, o'zining afzalligini ko'rsatib keladi. Lekin bularning ichida neoliberalizm ajratib turadi va iqtisodiy liberalizm ustunligini ko'rsatib beradi.

Neoliberalizm ayniqsa "Tetcherizm" bilan jips bog'liqdir. Bu Buyuk Britaniya Premer ministri bo'lgan Margarit Tetcher nomiga aytilgan iboradir. Buning asosiy mazmuni bozor iqtisodiyotini yanada kengroq va chuqurroq liberallashtiruvchi tadbirlarni amalga oshirishdan iborat bo'lgan. Bu AQSHda qo'llangan "Raygonomika"ga juda o'xshaydi. Haqiqatan ham "Tetcherizm"ning shakllanishida amerikalik professor-olimlarning fikrlari va tashviqoti katta ahamiyat kasb etgan.

"Tetcherizm" islohoti bozor mexanizmlarini qo'llash, hukumat xarajatlarini kamaytirish va monstor siyosatlaridan iboratdir.

Bozor mexanizmlarini va tadbirkorlikni qo'llash dastur iqtisodiy tizimining samaradorligining va moslashuvi darajasini ko'tarishga qaratilgan bo'lib, u asosan quyidagilar tufayli amalga oshuvi talab etilgan:

Privatizatsiya siyosati. Bu orqali davlat byudjetiga faqat 1979-1994 yillar ichida 55,5 mlrd. funt sterling daromad keltirgan. Bularning ichida davlatga qarashli bir necha yirik Angliya iqtisodi gigantlari ham bor.


Notartiblashtirish siyosatini kengaytirish. Bo'sh yo'l bilan iqtisodiyotni tartiblashtirishga ketadigan xarajatlar va davlat ma'muriyat sarfi bir muncha qisqartirilgan.

Soliq islohotlari. Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar stavkasi bir qancha qisqartirilib, individual daromadlar solig'ining asosiy stavkasi 25% va korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliq 25 va 33% stavkalari asosida olinadigan bo'lgan.

Hukumat xarajatlari 1982 yildagi IMX (ichki mahsulot xajmi)ning 47,5%dan 1996-yilda 41,6% gacha pasaytirilgan. Shu bilan birga hozirgi vaqtda davlat sektori IMX 8%ni ishlab chiqaradi. Bu tadbirni amalga oshirish uchun ijtimoiy sohada islohotlar amalga oshirilib, xo'jalik ishlariga aralashuv xajmi ancha qisqartirilgan.

8.4.1.-chizma

Inglizcha taklif iqtisodi



Bu tadbirlar ayni vaqtda aholining ijtimoiy manfaatlariga qarshi qaratilgandek bo'lishiga qaramasdan mehnatga rag'batlantirish ancha yuqorilashib, jamiyatdagi boqimandachilik xissiyoti ancha pasaygan va deyarli yo'qola borgan.

Monetar siyosatida kredit-pul siyosati amalga oshirilib, moterizm klassik qoidalariga xos tadbirlar qo`llanilgan. Tetcher hukumat boshiga kelganda inflyatsiya darajasi 13% ga yetgan edi. Avvalo muomaladagi pul miqdori nazoratga olinadi. Shu bilan birga qisqa muddatli foiz stavkali monetor siyosat quroli sifatida qo`llaniladi. Buning evaziga chet kapitallarni tortish ancha kengayib, milliy kapitalning ancha qismi saqlanib qolingan.

Umuman “Tetcherizm” taklif iqtisodiy konsepsiyasi asosida amalga oshib, bu Keyscha g`oyadan chetlashuv edi. Inglizcha taklif iqtisodi quyidagini o`z ichiga oladi:

- davlatning to`g`ridan-to`g`ri nazoratini bekor qilish;
- ichki bozorda raqobatni rag`batlantirish;
- davlat tartiblashuvini minimallashtirish;
- bozor mexanizmlari nosamarali sohalarda selektiv qo`llashni amlaga oshirish, qaysiki atom energiyasi, transportning ba`zi turlari kabilarni o`z ichiga oladi;
- privatizatsiyalash, iqtisodda xususiy sektor rolini faollashtirish.

Natijada davlat nosamarali va zarar bilan faoliyat ko`rsatuvchi korxonalaridan xoli bo`ladi. Bular esa ayni vaqtda xususiy sektor qo`lida yuqori samarali korxonalarga aylanishi mumkin. Davlatning yangi roli esa iqtisodni moneta rva fiskal siyosatlarni qo`llagan xolda iqtisodiyotni vositali usullar orqali tartibga solib borishdan iborat bo`lgan.

Bunday siyosat past darajali inflyatsiya va ijobiy moliya sharoitida iqtisodiy rivojlanishga qaratilgandir. Bu funt sterlingning 1992-yilda yevropa valyuta kursi mexanizmidan chiqib ketishga olib kelgan. edi.

M. Tetcher o`zining liberal tamoyillari uchun kurashda qat`iyligi evaziga “Teter ledi” simvulli laqabini olgan edi. Albatta bu iza qolmagan. Chunki bunday liberal siyosatni bir tomonlama tushunuvchilar ko`p bo`lib, ijtimoiy manfaatlarga qarshi qaratilgan, deb baho beruvchilar kam bo`lmagan, ya`ni an`anaviy konservatorlar tamoyiligi qarshi qo`yuvchilarni ham yuzaga chiqargan. Bunga yana iqtisodiy ba`zi noqulayliklar albatta hokimiyatni almashtirishga olib kelgan.

Lekin hukumat Dj. Meydjer boshliq deyarli Tetchercha neoliberalizm siyosatini davom ettirgan va uni mustahkamlashga uringan. So`ngra hokimiyat leyboristlar qo`liga o`tib, primerlikka T. Bleyer saylanadi. Bleyerning Tetchercha liberal siyosatdan qaytadi deb o`ylanilganda, u aksincha eski yo`lni almashtirmadi va asosan liberal bozor siyosatini davom ettirib, bozor mexanizmlarini maksimal darajada keng qo`llashga harakat qildi.

8.5. Iqtisodiy tuzilma rasionalligi

Buyuk Britaniya bozor munosabatlari va uning mexanizmlari ta'siri tufayli iqtisodiy tuzilmaning eng rasionalligini ta'minlay oldi. YAIM tuzilmasida 20% dan ortiqrog`i sanoatga, 2% qishloq xo`jaligi va 70% xizmatlar sohasiga to`g`ri keladi. Bunday iqtisodiy tuzilmada xuddi moddiy asos zaiflanib nomoddiy xo`jalik asos bo`lib qolgandek tuyiladi. Amalda esa yuqori industrial daraja sanoat ishlab chiqarishining eng rivojlanish darajasiga erishib, yuqori darajali unumdorlik ta'minlanganligi va moddiy ishlab chiqarish miqdori jihatdan o`z cho`qqisiga chiqqaanligini ifodalaydi. Endi sanoat miqdoriy va ekstensiv o`shish emas, balki tuzilmaviy, intensiv o`shishgagina asoslanganligini ko`rsatadi.

Demak, miqdoriy jihatdan xizmat ko`rsatish tarmoqlarining ustunligi ta'minlanganligi va bu sohadagi ehtiyojlarni qondirish iqtisodiy rivoj asosini belgilashligi zarurligini bildiradi.

Sanoat, uni moddiy ishlab chiqarish ham o`z rasionalligini bilan eng samarali darajaga yetishi Buyuk Britaniya iqtisodining ijobiy natijalaridan hisoblanadiki, bunda ham bozor mexanizmlaridan talab va taklifning ta'sirini ko`ramiz.

Xarajat va xomashyoni ko`p talab etuvchi, ekologik talabni oshiruvchi ishlab chiqarish imkoni boricha qisqartirilib, eng samarali tarmoqlar rivojlanishiga sharoitlar ko`proq yaratilgan. Iflos va chiqindilar bilan ko`proq bog`langan, ish kuchini ko`p talab etuvchi tarmoqlar deyarli mamlakat hududidan chiqarilib, bulardagi kapital xomashyoviy va arzon ish kuchi mavjud mamlakatlarga chiqarilgan. Bunga ayniqsa

ish o`rinlarining qimmatligi, mehnat haqining yuqoriligi katta dalda bo`lib, bunday tarmoqlarning mamlakat ichida norentabelli va samarasizligi sabab bo`lgan.

Xizmat ko`rsatish sohasida turizm va moliyani ajratib ko`rsatish mumkin. Bular Buyuk Britaniya YAIMning 25%ini beradi. Bunda 4 mln.dan ortiq odam band bo`lib, mamlakat mehnat resurslarining 12%ini tashkil etadi. Mamlakat markazi London shahri esa shu bilan birga jahon moliya poytaxti hisoblanadi va planetaning eng yirik moliya markaziga aylangan.

Moliya xizmatida banklar faoliyatini ajratib ko`rsatish mumkin. Londonda Angliya banklaridan tashqari 50 ta jahon banklari faoliyat ko`rsatadi. Moliyada bundan tashqari sug`urta, moliyaviy instrumentlar bozori, ya'ni fyuchers, opsiolar, global depozitor tilxatlar bozori rivojlangan. Shu bilan birga obligatsiya (evroobligatsiyalar) bozori, valyuta bozori (evrovalyutalar savdosi), moliyaviy lizing, chet mamlakatlar aktivlari bilan bo`ladigan trast harakatlar baho metallar savdosi kabilar keng miqyosda amalga oshiriladi.

Londondan tashqari Manchester, Kardiff, Liverpool, Edinburg shaharlari ham moliyaviy markaz hisoblanadi. Buyuk Britaniyaning yevropa valyuta integratsiyasidan voz kechishi Londonning o`z moliyaviy pozitsiyalarini Frankfurrga berib qo`yishi xavfi mavjudligidadir. Britaniyaning integratsiya jarayoniga xatarlilik bilan qarashi albatta an'anaviy ehtiyotkorlikning salbiy oqibati bo`lishi mumkin.

Mamlakatning o`z ahamiyati darajasi bo`yicha turizm ikkinchi o`rinda turadi. Bunda bandlik 7%ni tashkil etadi va yillik daromad 8 mlrd. dollarga teng. Shuningdek, London jahonda eng yirik turizm markazlaridan hisoblanadi.

Buyuk Britaniya iqtisodiy tuzilmasiga e'tibor berganda, undagi xususiyatlardan biri xususiy kompaniyalar ta'sirining ortib borishidir. Davlat asosan faqat atom energetikasi va qisman ko`mir sanoati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Taxminan elektro-energiya ishlab chiqarishning 30% ko`mirga, 35% neftga, 25% gazga va 10 atom energiyasiga to`g`ri keladi.

Buyuk Britaniya boshqa yetakchi rivojlangan mamlakatlar qatorida rivojlangan transport infratuzilmasiga ega. yevro tunnelning ochilishi Orolli Britaniya bilan kontinental yevropa aloqasini yanada mustahkamladi.

Buyuk Britaniyaning fuqarolik aviatsiyasining rivoji ancha muvaffaqiyatlidir. British Airways dunyodagi eng yirik aviakompaniyalardan hisoblanadi. Xeabrov esa juda yirik jahon aviamarkazlari qatoriga kiradi.

Angliyaning iqtisodiyotida tashqi savdo o`rni kattadir. Aytish mumkinki, Germaniya va Fransiyaga nisbatan tashqi savdoga Buyuk Britaniya ko`proq ochiq hisoblanadi. Mamlakat YAIMning 28,5% eksport bilan bog`langandir. Eksport bo`yicha esa dunyoda beshinchi o`rinda turadi va jahon eksportining 5,1% ga to`g`ri kelib 272,7 mlrd. dollarni tashkil etadi. Import bo`yicha jahonda uchinchi o`rinda bo`lib, 5,9% va 351,1 mlrd. dollarga teng.

Xizmat ko`rsatish sohasida bu ko`rsatkichlar yana ham ta`sirliroqdir. 1998 yili Buyuk Britaniya xizmat eksporti 99,5 mlrd. dollarga teng bo`lib, jahon eksportini 7,7%ini tashkil etgan. Import bo`yicha xizmat sohasi 71,6 mlrd. dollar yoki jahon importining 5,9% va to`rtincha o`ringa teng bo`lgan. Mamlakat tashqi savdo saldosi salbiy bo`lib 20 mlrd. dollarga teng bo`lgan.

Tashqi savdo juda ijobiydir. Chunki eksportda sanoat va elektron mashinasozlik, elektrotexnika, hisoblash texnikasi, avtomobil, transport vositalari, energiyaga ega mahsulotlar ustunlik qiladi. Import avtomobil, sanoat va elektron mashinasozlik, hisoblash texnikasi, neft, qog`oz, to`qimachilik, qishloq xo`jaligi mahsulotlaridan iboratdir.

Buyuk Britaniyaning asosiy savdo sheriklari yeti mamlakatlari, AQSH, Osiyo Janubiy-Sharqiy mamlakatlari hisoblanadi.

Buyuk Britaniya iqtisodiy tuzilmasi progressiv bo`lib, bunda ilmiy soha muhim o`rin egallaydi. Bu Angliya sanoati yuqori texnologiyaligini belgilaydi. Bu esa Britaniya mahsulotlarining yuqori darajali ilmiy sig`imlilikini ta`minlab beradi. Amalda bu mamlakat dunyoda ilmiy-texnika bo`yicha eng yetakchi mamlakatlar qatoriga kiradi va yirik ilmiy-texnik salohiyatga ega bo`lish imkonini beradi. Buni shu bilan ko`rsatish mumkinki Nobel mukofoti bo`yicha AQSHdan keyin ikkinchi o`rinda turadi va 2000-yilgacha 70 dan ortiq olimlari bunga sazovor bo`lgan. Juda yirik ilmiy kashfiyotlar amalga oshirilgan.

Buyuk Britaniyaning elektronika, telekommunikatsiya, kimyo, aerokosmik sanoat kabilar bo`yicha jahonda birinchiligi tan olingan. Faqat bitta British Telekom mingga yaqin NIOKR (ilmiy ishlar va konstruktorlik ishlari)ni amalga oshiradi. Yangi materiallar, biotexnologiya, farmatsevtika, radar jihozlari, konkord samolyoti, vetikal uchuvchi va qo`nuvchi samolyotlar, havo uchish harakatlarini nazorat etish tizimlari kabilar shular jumlasidandir.

NIOKR uchun Buyuk Britaniyaning xarajati YAIMning 2%dan ortiqdir. Shunday 35%ini davlat moliyalashtiradi. Bu albatta yangit texnologiya xolati, iqtisodiy progressivlikning ko`zglasidir.

Natijada Buyuk Britaniya iqtisodiy tuzilmasi va xolatining rasionallik darajasi ifodalanadi.

Monopoliyaga qarshi qonunchilikning konseptual asoslari

Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya va yeH raqobat to`g`risidagi qonunlari dastavval bozor hukmronligiga emas, balki bozordagi ustun mavqe konsepsiyasiga asoslangan. Ustunlikni eng keng tarqalgan va umum qabul qilingan ta`rifi bu raqobatni to`siqlardan erkinligi yoki savdo bo`yicha hamkorlarni (ishlab chiqarish ierarxiyasini yuqorisida yoki pastida) iqtisodiy faoliyati ustidan nazorat qilishdan erkinligidir. Umuman olganda, o`rganilayotgan iqtisodiyotlardagi raqobat to`g`risidagi qonunlar yetkazib beruvchilarni ustun pozitsiyalarga ega bo`lishi oldini olmaydi, faqatgina uni ushbu pozitsiyani suiiste`mol qilinishiga yo`l qo`ymaydi. Shuningdek, raqobat to`g`risidagi qonunlar odatda ustun firmalarning xatti-harakatlariga jiddiy cheklashlarni qo`yadilar.

Qonunning maqsadi

Xuddi AQSH, yeH va Germaniyadagi singari Buyuk Britaniyaning Raqobat to`g`risidagi Qonuni qonun maqsadini ochiq ko`rsatmaydi. O`z vaqtida hukumat ushbu qonun loyihasini Parlamentga kiritar ekan, shunday degan:

Samarali va insofli raqobat iste`molchi uchun boylik va tanlash kafolati uchun zarur.

Global bozorda raqobat Britaniya kompaniyalarini investitsiyalash va innovatsiyalarni joriy qilish uchun rag`bat hisoblanadi. Raqobatbardoshlik mamlakat

ichida ham, xorijda ham ichki bozordagi raqobat hisobiga ko`payadi. Shunday qilib, raqobat biznes uchun ham foydali.

Shunday qilib, raqobatni himoyalashni siyosiy sababi quyidagicha:

- Sifatni yaxshilash va iste'molchilar uchun tanlash imkoniyatini ko`paytirish;
- Innovatsiyalar va investitsiyalashni joriy etish uchun rag`batlantirishni ta'minlash; va
- Global bozorlarda Britaniya kompaniyalarini obro`sini ta'minlash.

Ushbu maqsadlarning barchasi faqatgina raqobat orqali erishiladi. Lekin, raqobat to`g`risidagi qonunda mavjud bo`lgan istisnolarni berish mexanizmi, raqobatni cheklash yuqorida qayd etilgan siyosiy maqsadlarga erishish uchun zarurligini tan oladi.

Vertikal kelishuvlar Buyuk Britaniyaning Raqobat to`g`risidagi qonuni ta'siri ostiga tushmagan. Qonunda shuningdek, yeH tomonidan tasdiqlangan barcha erkinliklar (istisnolar) milliy qonunchilikka tadbiiq etiladi deyilgan. Individual va sektorial erkinliklar ham qonunda istisno holatlarda ko`zda tutilgan. "Erkinlik" berish huquqi Insofli savdo-sotiiq bo`yicha Bosh Direktorga va Bosh Direktorning tavsiyasiga ko`ra ish olib boradigan Davlat Kotibiga berilgan. Erkinlik mezonlari Raqobat to`g`risidagi qonunning 9 moddasida keltirilgan:

a) yordam beradi:

- 1) ishlab chiqish yoki sotishni yaxshilashga, yoki
- 2) texnologik yoki iqtisodiy taraqqiyotni rivojlanishiga, bunda iste'molchilarga haqqoniy foydaning bir qismi taqdim qilinadi, lekin

b) u:

- 1) manfaatdor xo`jalik yurituvchi sub'ektlar zimmasiga ushbu maqsadlarga erishish uchun majburiy bo`lmagan cheklashlarni yuklamaydi; yoki
- 2) manfaatdor xo`jalik yurituvchi sub'ektlarga ko`rilayotgan tovarlarni ma'lum qismiga nisbatan raqobatni bartaraf etish imkoniyatini bermaydi.

Asosiy tushunchalar

Qonunda "tovar" ta'rifi berilmagan...

Tovar bozori.

Qonunda ta'rif keltirilmagan. Tovar chegaralarini aniqlash bo'yicha barcha nizomlar, qoidalar, yo'riqnomalar yeH va AQSH qonunchiliklari bilan uyg'unlashtirilgan. Ya'ni xuddi o'sha atamalardan foydalaniladi – relevant bozorlar, bozorlarni mahsulot va jug'rofiy chegaralari, va aniqlashni xuddi o'sha usullaridan foydalaniladi -5-10% test.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar

Qonunda ta'rif berilmagan. Biroq, qonun quyidagicha belgilanadigan korxonalariga nisbatan qo'llaniladi:

yuridik maqomidan qat'iy nazar, tovarlar va xizmatlarga nisbatan tijorat yoki iqtisodiy faoliyatni amalga oshira oladigan barcha jismoniy va yuridik shaxslar.

Insofsiz raqobat

“Insofsiz raqobatga qarshi harakatlar to'g'risida Qonun” bilan tartibga solinadi.

Ustun mavqe

Buyuk Britaniyaning Raqobat to'g'risidagi qonunida ustun mavqega ta'rif berilmagan. Ushbu masalada Britaniya qonunchiligi yevropa Adolat Sudi foydalanadigan qoidaga asoslanadi (yuqoriga qarang).

Bozor ulushi o'z-o'zidan ustun mavqeni mavjudligi bo'yicha bir yechimga kelmaydi., ya'ni ushbu holat bozor sosida ko'rib chiqilishi kerak (to'siqlar va boshqalar). yevropa sudlari agarda bozor ulushi 50 % dan ortiq bo'lsa ustun mavqe mavjud deb hisoblaydi. Shu vaqtni o'zida, Insofli Savdo-sotiq bo'yicha Bosh Direktorni ta'kidlashicha, bozor ulushi 40% dan kam bo'lgan korxonalar ham ustun mavqega ega bo'lish e'htimoli bor ekan.

Mutlaq monopoliya

Boshqa mamlakatlarning Qonunlari matnlarida umuman keltirilmagan, buning sababi mutlaq monopoliya va sezilarli bozor hukmronligiga ega bo'lgan korxonalariga va sezilarli darajada bozor hukmronligiga ega bo'lgan korxonalariga yondashishda prinsipial farq yo'q. O'zbek qonuni ham usiz bo'lishi mumkin, chunki ushbu atama keyinchalik qonun matnida umuman ishlatilmagan.

Monopolistik faoliyat

Ta'rif yo`q, o`xshashi – ustun mavqeini suiiste'mol qilish va uni ta'siriga tushadigan xatti-harakatlar

Narx sohasida kamsitish

Qonun matnida ta'rif berilmagan. U balki kamsituvchi harakatlar (quyiga qarang) ni umumiy tushunchasiga kirib ketgan.

Kamsituvchi shartlar

Qonun matnida ta'rif berilmagan. Eng yaqin ekvivalent –

Raqobat tomonidan noqulay holatga solgan holda, sado-sotiq bo`yicha boshqa hamkorlar bilan tuziladigan ekvivalent bitimlarga teng bo`lmagan shartlarni qo`llash

Raqobatga qarshi ushbu harakat ham kelishib qilingan bitimlar /harakatlarga nisbatan, ham ustun mavqeni suiiste'mol qilishga nisbatan taqiqlanadi.

Monopol qiimmat narx

Narx sohasida kamsitishlarni bir xili bo`lib, ustun mavqeni suiiste'mol qilish tushunchasiga yaqin. Qonun aniq ta'rifni keltirmaydi, lekin Yo`riqnomalar “haddan ziyod qiimmat narxlar”ga suyanadilar:

Narxlar samarali raqobat sharoitida mavjud bo`lgan narxlardan ancha qiimmat.

Isbotning uchta elementi – ushbu narxlar:

A) bozorga yangidan kirish yoki bozor ulushini yo`qotmasdan kirishni rag`batlantirmagan holda qo`llab-quvvatlanadi;

B) ob`ektiv oqlash mavjud emas;

V) korxonalar samarali raqobatga duch kelganda ham faoliyatini ushlab turishi mumkin bo`lgan darajadan ancha yuqori.

Monopol arzon narx

Monopol arzon narxlar tushunchasi, ya'ni monopsoniya (yoki ustun mavqega ega bo`lgan korxonalar – sotib oluvchi) holatida o`rnatiladigan narxlar ta'rifi berilmagan. “Yirtqich narxlar” tushunchasini quyidagicha aniqlanadigan ta'rifi mavjud:

Korxonani keyinchalik haddan ziyodqimmat narxlarni o`rnatib raqibini bozordan chiqarib tashlash maqsadida vatinchalik zarar ko`rib ishlashga qaratilgan strategik xatti-harakati.

Huquqni qo`llash amaliyoti yevropa Adolat Sudining tajribasiga binoan asoslangan narxlarni uchta darajasi mavjud:

- o`rtacha o`zgaruvchan xarajatlardan past narx – yirtqich narxlarni shakllanishi belgilarini mavjudligi
- o`rtacha o`zgaruvchan xarajatlardan yuqori, lekin o`rtacha umumiy xarajatlardan past – raqibni chiqarib tashlash niyati isbotlangan taqdirda yirtqich narxlar mavjud bo`ladi
- narx o`rtacha yalpi xarajatlardan yuqori bo`ladi – yirtqich narxlar bo`lmaydi.

Xalqaro shartnomalar

Britaniya qonunchiligi savdo-sotiq sohasida yeH qonunchiligi bilan, jumladan raqobat masalalari bo`yicha eng uyg`unlashgan qonun hisoblanadi. Shuning uchun Buyuk Britaniyaning ko`pchilik qonunlari yeH da belgilangan va milliy qonunlardan ustun deb e`lon qilingan (raqobat to`g`risidagi qonunning 2 moddasi) normalarni hisobga olgan.

Ustun mavqeni suiiste`mol qilish

Buyuk Britaniyaning Raqobat to`g`risidagi qonunini 18 moddasi quyidagini man qiladi:

Bitta yoki undan ko`p korxonani xatti-harakati Birlashgan Qirollik bozorida yoki uning bi qismida ustun mavqeni suiiste`mol qilishga olib kelishi mumkin bo`lgan harakatlari Birlashgan Qirollikdagi savdo-sotiqqa ta`sir (salbiy) ko`rsatishi mumkin bo`lsa...

Shunday qilib, qonunbuzilishni aniqlashni asosiy mezon bo`lib mamlakatdagi savdo-sotiqqa salbiy ta`sir ko`rsatish hisoblanadi.

18 moddaning 2 qismi ustun mavqeni suiiste`mol qilishga keltirishi mumkin bo`lgan hatti-harakatlarga Rim Shartnomasini (EH) 82 moddasidan so`zma-so`z olingan quyidagi misollarni keltiradi:

- Insofsiz sotish va sotib olish narxlarini, yoki savdo-sotiq shartlarini bevosita va bilvosta majburan qabul qildirish;
- Iste'molchilarga zarar yetkazgan holda ishlab chiqarishni, bozorlarni va texnik rivojlanishni cheklash;
- Savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi boshqa tomonlar bilan tuzilgan bitimlarga ekvivalent (o'xshash) bitimlarga nisbatan kamsituvchi shartlarni qo'llash;
- Tusi yoki tijorat(savdo) belgilanganligi bo'yicha kontrakt (bitim, shartnoma) predmeti bilan bog'liq bo'lmagan shartlarni qo'shimcha tarzda kontraktlarga kiritish sharti bilan kontrakt tuzish.

Insofli savdo-sotiq bo'yicha Ofisning Bosh Direktori Yo'riqnomalarida ushbu moddaga nisbatan quyidagicha gapiriladi:

Bunda asosiy ustunlikka ega bo'lgan korxonalar o'z holatidan suiiste'mol qilish tarzida foydalanayaptimi, yo'qligi hisobga olinadi. Bunday holat sodir bo'lishi mumkin, qachonki, u to'qnash keladigan raqobatni cheklash samarasi bilan, yoki o'zini holatini noto'g'ri ekspluatatsiya qilish orqali bozordagi raqobat holatida sodir bo'ladigan harakatlarni ishlatsa..

Raqobatga qarshi bitimlar va kelishib qilingan harakatlar

Birlashgan Qirolliklarni Raqobat to'g'risidagi qonunini raqobatga qarshi kelishilgan harakatlarini man qiluvchi moddasi Rim Shartnomasini 81 moddasiga ko'ra ishlab chiqilgan. Raqobat to'g'risidagi qonunning 2 moddasini 1 qismida shunday deyiladi:

3 moddada qayd qilinar ekan, korxonalar o'rtasidagi , ularni assosatsiyalari qarorlari yoki kelishib qilingan harakatlari:

- a) Birlashgan Qirollik hududida savdo-sotiqqa salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, va
- b) Birlashgan Qirollik chegarasida raqobatni oldini olish, cheklash yoki buzishni o'zini ob'ekti yoki samarasi deb bilsa,

Taqiqlanadi, agarda ushbu Qism (1 qism) shartlariga asosan ozod qilinmasalar

2 moddaning 2 qismi Rim Shartnomasini (EH) 81 moddasidan soʻzma-soʻz olingan ushbu bitimlar turlarini toʻliq boʻlmagan roʻyxatini keltiradi:

- Sotish va sotib olish narxlarini yoki savdo-sotiqni boshqa shartlarini bevosita yoki bilvosita belgilaydilar;

- Ishlab chiqarishni, bozorlarni, texnik rivojlanishni, yoki investitsiyalarni cheklaydilar yoki nazorat qiladilar;

- Bozorlarni yoki yetkazib berish manbalarini taqsimlayodilar;

- Savdo-sotiq boʻyicha boshqa hamkorlar bilan ekvivalent bitimlarga teng boʻlmagan shartlarni qoʻllaydilar va shu bilan raqobatchilarni noqulay ahvolga soladilar;

- Tusi yoki tijorat(savdo) belgilanganligi boʻyicha kontrakt (bitim, shartnoma) predmeti bilan bogʻliq boʻlmagan shartlarni qoʻshimcha tarzda kontraktlarga kiritish sharti bilan kontrakt tuzish.

Ofisni Bosh Direktorini Yoʻriqnomasida, ushbu modda taʼsiriga tushuvchi bitimlar/kelishib qilingan harakatlarni batafsil roʻyxati keltiriladi:

- Narxlarni bevosita va bilvosita cheklash boʻyicha bitimlar

- Savdo shartlarni cheklash boʻyicha bitimlar

- Bozorlarni boʻlib olish boʻyicha bitimlar

- Ishlab chiqarish va investitsiyalarni cheklash yoki nazorat qilish boʻyicha bitimlar

- Savdodagi kelishib olish

- Birgalikda sotib olish/sotish

- Axborotlarni almashtirish boʻyicha bitimlar

- Reklamani cheklash boʻyicha bitimlar

- Standartlashtirish boʻyicha bitimlar

Bunda ushbu roʻyxat illyustrativlangan hisoblanadi. Korxonalar oʻrtasidagi munosabatlar, kelishib qilingan harakatlar turli-tuman boʻlishi mumkin. Iqtisodiy va texnologik rivojlanish munosabati bilan munosabatlarni yangi turlari paydo boʻladi, ularni barchasini bitta hujjatda hisobga olish imkoniyati yoʻq.

Germaniyaning qonunchiligi singari, Buyuk Britaniyaning raqobat to`g`risidagi qonuni raqobatga qarshi bitimlar/kelishib qilingan harakatlarni man qilishdan mustasno qilishni juda murakkab va mufassal ta`riflab berilgan sxemasiga ega.

8.6. Turmush sifati yuqoriligi

Buyuk Britaniyaning rivojlangan va liberallashgan asosdagi bozor iqtisodiyoti aholini turmush darajasining yuqori darajada bo`lishi va uning sifatini ko`tarilib borishini ta`minlaydi. 2000-yilga kelib har bir kishiga to`g`ri keladigan YAIM qismi 22 ming dollarga yetgan. Bu katta daromad olish imkonini tug`diradi. Shu bilan birga davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosati bunga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Iqtisodiy taraqqiyotning to`la inson manfaatiga qaratilishi uning darajasini aholi turmush sifatini ko`tara borishida o`z aksini topadi. Bu daromadlarning ortib borishi, tovarlar sifatining yaxshilanishi, ekologik muhitning muqobilligi kabilar asosiy o`rinni egallab, inson ehtiyoji ta`minlanishi maksimalligida o`z ifodasini topadi.

Buyuk Britaniya rivojlangan mamlakatlar ichida ish joyi bahosining eng yuqorilar qatoriga kiradi va bu daromadning salmog`li bo`lishini kafolatlanishini bildiruvchi omillardan hisoblanadi.

Turmush sifatini belgilovchi omillar ko`p. Bularning ichida o`rtacha daromad, inflyatsiya darajasi, ishsizlik darajasi, foiz stavkasi, ekologik muhitlar eng muhimlaridir.

8.6.1-jadval

Buyuk Britaniya iqtisodiyotidagi aholi turmush darajasiga taalluqli asosiy ko`rsatkichlar

	May 1979 yil	May 1989 yil	May 1999 yil
Inflyatsiya darajasi, %	13,4	7,8	3,4
Foiz stavkasi, %	12	13,75	5,5
Ishsizlik darajasi (kishi va iqtisodiy faol aholiga, %)	1,86 (4,1%)	1,81 mln.	1,31 mln.
Mehnat bozorida ayollar qismi, %	4,4	(6,1 %)	(4,6%)
O`rtacha daromad, foiz stavkasi	5.000	49	51
Menejer o`rtacha daromadi, foiz stavkasi	9.000	11.700	19.000
		25.700	36.400

Jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar Buyuk Britaniya neoliberallik chora-tadbirlarining keskin qo'llanilishi yillariga to'g'ri keladi. Buning natijasida 20 yillik vaqt ichida keltirilgan ko'rsatkichlar juda sezilarli darajada o'zgargan. Buk o'zgarishlar to'g'ri turmush sifatiga ijobiy ta'sirchan bo'lib, uning ancha ko'tarilishi bilan bog'langan. Aytaylik, inflyatsiya 3 barobar qisqargan. Ma'lumki, bu bevosita xaridlikka ijobiy ta'sir etadi, chunki pul qadrsizlanishining oldini oladi. Ishsizlik deyarli o'zgarmay, eski darajada bo'lgan. Ayollarning ishga tortilishi biroz ko'tarilib, erkaklar bilan bir darajada yetgan. Demak, oilada daromad keltiradiganlar ko'paygan. Eng muhim ko'rsatkich daromad bo'lib, u keskin ko'tarilgan, ya'ni bu vaqt ichida 3 barobarga o'sgan. Inflyatsiyaning pasayishi sharoitida bu narsa turmush sifatini keskin ko'tarilishiga olib kelgan va ehtiyojning qondirilishi, iste'molning ko'tarilishiga olib kelgan.

8.6.2.-jadval

Buyuk Britaniyada istiqomat qiluvchilarning texnik buyumlarga egaligi, %

	1979 yil	1989 yil	1999 yil
Avtomobil	60	68	70
Uy, turar-joy	52	66	68
Telefon	75	88	93
Rangli televizor	74	95	98
Uy kompyuteri	-	19	27

O'z-o'zidan ma'lumki, bunday voqelik murakkab tovarlar iste'moli, yuqori sifatli tovarlar iste'moli oilaviy jamg'armalarning ortishiga olib keladi.

Jadvalda mamlakat aholisining eng murakkab va qimmatbaho buyumlarga egaligi dinamikasiga bog'liq raqamlar keltirilgan. Umuman aytish mumkinki, bu tovarlar bilan aholining ta'minlanishi to'xtovsiz ortib bormoqda Avtomobil bo'yicha 70%, xususiy uy bo'yicha 68% ga yetish juda yuqori ko'rsatkichdir. Barcha bu keltirilgan buyumlar bo'yicha oila hisobiga olinsa 100% va undan yuqori bo'ladi, ya'ni har bir oilaga 1,5-2 donadan to'g'ri keladi.

Bu buyumlar turmush sifatini ko'tarishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Agar hozirgi yillar XXI-asr boshlanishi yillari bo'yicha olinsa, albatta aholining ta'minlanish darajasi yana ham yuqori bo'ladi. O'rtacha hayot kechirish 80 yoshni tashkil esadi. Bu eng yuqori ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Aytish mumkinki, inglizcha neoliberallik siyosati bevosita aholi manfaatiga qaratilgan bo'lib, iqtisodning pravopd maqsadi bo'lgan aholi turmush darajasining to'xtovsiz o'sib borishi va uning sifatini ko'tarilib borishida o'z ifodasini topmoqda.

Agar iqtisodiy siyosat iqtisodiyot rivojini tezlashtirib, aholi iste'molini ko'targan xolda turmush sifatini keskin o'sishiga olib kelsa, albatta Buyuk Britaniya neoliberal siyosatining ustunligini ko'rish mumkin.

8.7. Bozor iqtisodining anglo-saksoniya modeli

Buyuk Britaniya bozor iqtisodiyoti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular kontinental yevropa mamlakatlari va ular ichida eng yiriklaridan bo'lgan Fransiya va Germaniya bozor iqtisodiyoti amaliyotidan katta farqlanadi.

Bu anglo-saksoncha model hisoblanib, ko'proq AQSH bozor modeliga yaqinroqdir. Bu modeldagi eng asosiy tafovut nemischa va fransuzcha ijtimoiy bozor xo'jaligidan farqli o'laroq davlatning kam faolli roli va xususiy tadbirkorlikka to'la erkinlik berishdan iboratdir. Neoliberalizm islohotining eng asosiy mazmuni erkin bozorni rag'batlantirish va tadbirkorlar hamda xodimlarning shaxsiy javobgarligini ko'tarishdan iboratdir. Bu liberal tamoyillar uchun kurashda va ijtimoiy dasturlarni qisqartirishda keskin harakatlar qilishni talab qilgan.

Albatta bu hukumatning anglichanlarning ijtimoiy kafolatlari tizimiga faol xujumsiz bo'lmagan. Bunday qat'iylik britanacha iqtisodiy tuzilmani yuzaga keltirgan. Buning asosiy mazmuni o'ziga xos aralash iqtisodiyotning barpo qilinishiga olib keldi. Britanacha aralash iqtisodiyotning asosiy mazmuni davlatning iqtisodiyotga aralashuvini minimallashtirish va xususiy tashabbuskorlikni maksimumlashtirishdan iborat.

Yuqorida ko'rganimizdek, Buyuk Britaniya ilmiy-texnik progress bilan bir qadamlab beradi. Tarmoqlar tuzilmasini qayta tuzish uning iqtisodiyotini ilg'or

texnologiyaning birinchi qatoriga olib chiqdi. Bu esa o'z navbatida yuqori to'lanadigan ish joylarini ko'payishi bilan bog'liqdir.

Pravordida bu iqtisodiy o'sish darajasini ko'tarish bilan yakunlanib, 1996-1998 yillarda 2,5-3,5% ga teng bo'ldi. Ishsizlik esa Germaniya va Fransiyaga nisbatan deyarli ikki barobar kamdir. Buyuk Britaniya bozor modelida privatizatsiyalash va xizmat ko'rsatish sohasi rolini oshirish muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa xizmat sohasining kengayishi qo'shimcha ish o'rinlarini yuzaga keltirib, ishsizlikni kamaytirishda ahamiyatlidir.

Bu modelga korporativ madaniyatning ko'tarilishi xususiy biznesning boshchiligini ta'minlash, davlat tomonidan uning rivojlanishi uchun barcha to'siqlarni olib tashlab yo'q qilinishi xosdir. Mamlakatda investitsiya uchun juda yaxshi sharoitlar, ma'qul muhit yaratilgan.

Anglo-saksoniya bozor modelining ustun tomonlaridan yana biri yoqimli soliq siyosatining olib borilishidir. Bu G'arbiy yevropadagi eng ma'qul soliq tizimini yuzaa keltirgan. Shaxsiy daromad soliqlari va korporativ soliqlar tadbiq etiladi. Bu sohada yana ham oldinga siljish loyihalari mavjud.

Bu investitsiya iqlimini juda yoqimli darajada bo'lishini ta'minlaydi. Past soliq darajalari bilan birga oldingi vaqtlarga qaraganda foiz stavkalarining ham past bo'lishi ahamiyatlidir. Aytaylik, 2000 yilga kelib, taxminan 5,5% bo'lgan. Bundan tashqari ichki bozordagi yuqori darajali raqobat mavjudligi, umuman davlatning iqtisodga chet kapitalini jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish juda muhimdir.

Chet kapitali ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasida ko'proq qo'llaniladi. Mamlakatda eng yirik transmilliy kompaniyalar faollik ko'rsatadi. Jumladan, Motorola, Nokia, yepson, Frod, BMV, Samsung va boshqa ko'p kompaniyalar shular jumlasiga kiradi. Buyuk Britaniya 13 mingdan ortiq chet kompaniyalar faollik ko'rsatadi. yeIning chet investitsiyasining 1/3 qismi Buyuk Britaniyaga to'g'ri keladi. Ayniqsa kompyuterlar va avtomobilsozlikda chet investitsiyasining xajmi kattadir.

Bularning hammasi Buyuk Britaniya iqtisodining yuqori darajada o'sishini kafolatlaydi, milliy valyutaning stabilligini ta'minlaydi. Boshqa rivojlangan mamlakatlar ichida mehnat unumdorligi o'sishida ham farqlanadi. Aytaylik, 1980-

1990 yillar ichida yillik mehnat unumdorligi o`shishi o`rtacha 5%ni tashkil etgan. yevro valyutasiga qo`shilmasligiga qaramasdan Buyuk Britaniya davlat moliyasi yaxshi ko`rsatkichlarga ega.

Agar 1996-yili davlat byudjeti kamomati YAIMga nisbatan 4,8%ga teng bo`lib, davlat qarzi 56,1 ni tashkil qilgan bo`lsa, 1957-yili bu ko`rsatkichlar 1,9 va 53,4%ga teng bo`lgan. Kontinental yevropa mamlakatlarida bunday ko`rsatkich Lyuksemburgdan boshqa birontasida ham bo`lmagan.

Iqtisodiy ko`rsatkichlarning deyarli hammasi keyingi 20-25 yil ichida juda sezilarli bo`lgan. Shu bilan birga ta`kidlash kerakki, xususiy sektor iqtisodi katta muvaffaqiyatlarga erishuvi bilan birga ijtimoiy infratuzilma mamlakatda Germaniya va Fransiyaga nisbatan yuqori rivojlangan emas. Buni anglo-saksoniya bozor modeli rivojining deyarli yagona kamchiligi deyish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, anglo-saksoncha rivojlanish modeli bir qancha afzalliklarga ega bo`lib, u kontinental mamlakatlar, ayniqsa Germaniya va Fransiya ijtimoiy bozor xo`jaligi modeliga nisbatan ustunlikka egadir.

Takrorlash uchun savollar

1. Industriya va sanoat inqilobi vatani qaysi mamlakat hisoblanadi?
2. Liberal iqtisodni qanday tushunasiz?
3. Anglo-saksoniya rivojlanish modelining qanday afzalliklari mavjud?
4. Buyuk Britaniya iqtisodiy tuzilmasining rasionalligini qanday tushunasiz?
5. Buyuk Britaniya aholi turmushi sifati to`g`risida nimalarni bilasiz, uning asosiy ko`rsatkichlarini aytib bering.
6. Buyuk Britaniya bozor iqtisodiyoti rivojlanish bosqichlari xaqida nimalarni bilasiz?
7. Buyuk Britaniyada jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozining salbiy ta`siri nimalarda namoyon bo`ldi?
8. Buyuk Britaniya jahon moliyaviy - iqtisodiy inqiroziga qarshi qanday choralarni qo`llamoqda?
9. Buyuk Britaniya ilmiy va konstruktor ishlariga davlat ahamiyati qanday?

10. Xozirgi zamonda Buyuk Britaniyaning sanoat mahsulotlarini jahon bozoridagi egallagan o`rni xaqida nimalarni bilasiz?

9-BOB. YAPONIYA BOZOR IQTISODIYOTI TAJRIBASI

9.1. Yaponiyaning jahon iqtisodiyotidagi mavqei

Yaponiya jahonda rivojlangan mamlakatlar ichida ikkinchi o`rinda turadi. Yalpi ichki mahsulot 2000 – yilda 4190 mln. dollarga teng bo`lgan. Bu AQSHning 55 foiziga to`g`ri keladi. Aholisi 125 mln. kishidan iborat. Aholi jon boshiga YAIM 26460 dollarga to`g`ri kelib, bu ko`rsatkich bo`yicha ham eng oldingi o`rinlarda turadi. Bu ko`rsatkichlar Yaponiya iqtisodiyotining yuqori darajali rivojini ko`rsaib, AQSH kabi superdavlat qatoriga qo`shdi.

Yaponiya jahonda rivojlangan mamlakatlar ichida ikkinchi o`rinda turadi. Yalpi ichki mahsulot 2000 – yilda 4190 mln. dollarga teng bo`lgan. Bu AQSHning 55 foiziga to`g`ri keladi. Aholisi 125 mln. kishidan iborat. Aholi jon boshiga YAIM 26460 dollarga to`g`ri kelib, bu ko`rsatkich bo`yicha ham eng oldingi o`rinlarda turadi. Bu ko`rsatkichlar Yaponiya iqtisodiyotining yuqori darajali rivojini ko`rsaib, AQSH kabi superdavlat qatoriga qo`shdi.

Yaponiyada davlat byudjeti va soliqlar ham o`ziga xos bo`lib, faoliyat xajmi va xarajatlar darajasidan kelib chiqadi. Davlat byudjetining xarajatlari YaIMning 26-27%iga teng keladi. Soliq ham samarali darajada bo`lib, YaIMning 22-23%ini tashkil etadi. Markaziy byudjetning asosiy daromad manbai to`g`ri soliqdadir. Fuqarolar daromadi, meros, taqdim etish kabilar soliq eg`imlarining 42%ini tashkil etsa, korxonalar foydasi solig`i 26%ni tashkil etadi. Korxonalar solig`i tabaqalangan bo`lib, 26,42%-33,48%dan iborat.

“Meydzi inqilobi” deb atalmish 1867-1868 yillardagi o`zgarishdan keyin Yaponiya 100 yil ichida an`anali feodal ijtimoiy-iqtisodiy tizimdan rivojlangan bozor iqtisodiyotigacha bo`lgan masofani bosib o`tdi. Janubiy Korea, Tayvan, Tailand, Singapur kabi qo`shni davlatlar Yaponiyaning “rivojlanishni quvlab yetish” yo`lidan ko`p jixatdan foydalandilar.

Yaponiya ko`p sohalar bo`yicha AQSH kabi yetakchilik qiladi. Bular mashinasozlik, avtomatika, elektronika, avtomobilsozlik kabilardan iborat. Ayniqsa yangi texnologiya va elektronika bo`yicha eng oldingi mamlakat bo`lib, kam material, kam mehnat sig`imli mahsulot ishlab chiqarish bo`yicha eng ilg`or mamlakatga aylangan.

Malakali ishchi va xizmatchilar, aholining umumiy o`qimishligi bo`yicha juda ilg`orlagan mamlakat hisoblanadi. Dunyo bo`yicha maoshning eng yuqori darajasi

Yaponiyadir. Bu albatta eng ijobiy muvaffaqiyatdir. Bularning barchasi iqtisodiy taraqqiyotning ifodasidan iborat.

Ijtimoiy tuzilma va mehnat munosabatlaridagi o'zgalik katta o'rin egallaydi. Yaponiya uchun mayda tadbirkorlik ijtimoiy qatlami mavjudligi umumiy xolatdir. Ayniqsa oila turidagi xususiy korxonalar chakana savdo, umumiy ovqatlanish bilangina shug'ullanmay, boshqa xizmat ko'rsatish sohalari, xatto ishlov berish sanoati va qurilishda ham keng yoyilgan. Aytaylik, ishlov beruvchi sanoatda 74 foiz yollanib ishlovchilar 300 kishigacha band bo'lgan korxonalariga to'g'ri keladi.

Amalda mamlakat qishloq xo'jaligi yollanma mehnatsiz bo'lib, Yaponiyada asosan 2 mln. 600 ming mayda dehqon xo'jaligi mavjuddir. Bu xo'jaliklarda o'rtacha yer uchastkasi miqdori 1,9 gektarga to'g'ri keladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ishga yaroqli yerlarning yarmidan ko'pi sug'oriladigan va yiliga ikki martadan hosil olinadigan yerlardir. Shunisi ajablanarliki, bularning 17 foizigina nuqul qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi, qolganlari shaharlarga yaqinligi va transportning yaxshi rivojlanganligi sababli daromadning asosiy qismini boshqa tarmoqlar hisobiga oladilar.

Yaponiyaga xos yana bir narsa bandlikning yuqori darajadaligidir. Masalan, 70 – yillar ichida ishga yaroqlilarning 2-2,8 foizigina ishsiz bo'lib, 90 – yillarga kelib 3 foizni tashkil etgan. Bunda “umr bo'yi yollash tizimi” bo'yicha bandlik davriga qarab haq to'lashning ahamiyati kattadir. Bu usul faqat yirik korxonalarda qo'llanilib, eng yuqori mutaxassisli bo'lgan menejer, injenerlargagina taalluqlidir. Bular esa yollanma mehnatning 10 foizini tashkil etadi. Yuqori darajali boshqaruvchilar ichida shuning uchun ham ishsizlik yo'q va mehnat bozori ham yo'q.

Yaponiya O'zbekiston Respublikasini mustaqilligini 1991 yilning 28 dekabrda tan olgan etakchi sanoati rivojlangan davlatlardan biridir. Ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yilning 26 yanvarida o'rnatildi. Ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Yaponiyaga 1994 yilning may va 2002 yilning iyulida amalga oshirgan rasmiy tashriflari muhim rol o'ynadi. Tashriflar chog'ida O'zbek-Yapon davlatlararo munosabatlariga oid bir qator xujjatlar, jumladan “O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya qo'shma bayonoti”, “O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Yaponiya hukumati o'rtasida imzolangan bitimlarga O'zbekistonning xuquqiy vorisligi haqida maktublar almashinuvi”, shuningdek, “O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida do'stona, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risida qo'shma bayonot”lar imzolandi. Ikki tomonlama munosabatlarni rivojlanib borishida 1994 yilda tuzilgan iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbek-Yapon va Yapon-O'zbek qo'mitalari muhim rol o'ynamoqda.

Menejer mansabi umr bo'yicha bo'lib, kompaniyaga to'la bog'langan bo'ladi. Boshqaruvning yuqori pog'onadagilari uchun ishonchli munosabat o'z ta'minotchilari, mijozlari, banklar bilan doimiy sherikligi taqdiriy xolatdir. Bu esa o'z navbatida firma muvozanatining muhim kafolatidir va shu bilan birga menejerning mansab kafolatidir.

Qolgan yollanma ishlovchilar ishsizligining juda past darajada ekanligi bir necha sabablarga bog'liqdir. Bular ijtimoiy sheriklik an'anasi, qaysiki ko'pchilik Osiyo jamolariga xos, ish joylarida o'qitish, chunki ish beruvchi "inson kapitaliga" qilgan xarajatini qadrlaydi; shu bilan birga vaqtincha kelishuv bitim bo'yicha (yoki to'la bo'lmagan ish kuni) savdo va xizmat ko'rsatishdagi bandlikning keng tarqalishi kabilardan iborat.

Yaponiyada tadbirkorlikning tashkil etilishi ham bir qancha o'zga xususiyatlarga ega. Yirik kompaniyalar bilan o'rta va yirik korxonalarda bu farqlanadi. Umuman 800 ming aksionerlik kompaniyalar mavjud bo'lib, bulardan 2,4 mingi yirik aksioner kompaniyalardir. Bu yirik kompaniyalar o'z aksiyalarini fond birjalari orqali tarqatsa, mayda va o'rta korxonalar mulklariga boshqalarni aralashtirishni xush ko'rmay, yopiq aksioner kompaniyalari va o'rtoqlik birlashmalari sifatida boshqarishni lozim ko'radilar.

Yirik kompaniyalarning har biri guruh markazi bo'lib, "keyрецу" deb ataladi. Yaponcha "keyрецуда" mulk va bitim munosabatlari bog'lovchi element hisoblanadi. Qonun banklarning nomoliyaviy kompaniyalar tomonidan chiqarilgan aksiyaning 5 foizidan ortig'ini o'zlashtirishni man etadi.

"Keyрецу" bosh kompaniyasi o'z ishlab chiqarish faoliyatini guruhni moliyaviy boshqarish (ya'ni, xolding funksiyasi) va ishlab chiqarish kooperatsiyalarining ishtirokchilari bilan bog'lab olib boradi. Yaponiyaning xususiyati ham shundaki, bunday guruhning keng tarqalishini ommaviy mayda korxonalar bilan bog'lagan xolda amalga oshuvidir. Chunki mamlakatda 3,7 mln. individual va oilaviy korxonalar, 770 ming sheriklik jamoalari mavjud. Shu bilan birga yirik va mayda biznesning o'zaro aloqalarining ta'minlashinisi boshqa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ularning yaqinligi bilan bog'liqdir.

“Keyreçu”lar ichida texnologik asosdagi vertikal integratsiya va konglomerat misollari mavjud. “Miçubisi dzyukoge”, “Komaçu” mashinasozlik kooperatsiyasi, “Toshiba”, “Soni” elektrotexnika kompaniyalari, “Toyota” va “Nissan” avtomobil korporatsiyalari 300-400 kompaniyalarga ega. Bular ta’minotchilar va buyurtmalarni bajaradilar. Shu bilan birga mulkiy bog’liqligi bo’lmagan subpodryachilar tarmog’i bilan qo’shib ketadi. Ko’pchilik guruhlar chet mamlakatlarda keng tarqalgan tarmoqlarga ega bo’lib, Yaponiya TMKsi hisoblanadi.

Amalda barcha korxonalar tarmoq ittifoqlariga birlashgan. Bu ittifoqlar foyda asosida birlashuv emas va undan ixtiyoriy ravishda chiqib ketish mumkin. Yaponiyada bunday ittifoqlar, ya’ni umumilliy tadbirkorlik ittifoqlar soni 100 dan oshadi. Mahalliy mayda biznes tashkilotlarining soni esa 20 mingdan ko’pdir. Umumilliy tadbirkorlar ittifoqi birlashib, Federal iqtisodiy “Keydanren” tashkilotini uyushtiradi.

Yaponiyada an’anaviy ravishda aholining yuqori darajali omonat saqlash xususiyati mavjud. Bu shaxsiy daromadning 15-18 foizini tashkil etadi. Bu asosan banklar depoziti shaklida mavjud bo’ladi va banklar tizimining keng xajmli resurs asosini yuzaga keltiradi.

Yaponiya korporatsiyalari moliyaviy tuzumi kompaniya xususiy kapitali hissasining past darajadali bilan tavsif etiladi, ya’ni 30 foizdan oshmaydi. Shuning uchun aniq kreditlarga muxtojlik yuqori darajadadir. O’z vaqtida mamlakatning industrial rivojini moliyalashtirish yukini banklar ko’targan edi.

Yaponiyada banklar faoliyatining ham o’zgi xos xususiyatlari mavjud. Mamlakatda to’qqizta shahar banklari deb atalmish bo’limlar ochish huquqiga ega banklar mavjud. Shu bilan 129 ta faqat o’z prefekturalarida bo’limlarga ega banklar, xususiy nafaqa va pay fondlarini boshqaruvchi 33 ta trastbank mavjud. Bundan tashqari uzoq muddat kredit beruvchi 3 ta bank mavjud: Sanoatbank, Uzoq muddatli kredit banki, Yaponiya kredit banki. Bundan tashqari qishloq xo’jaligi uchun keng tarmoqli kooperativ banklar tizimi faoliyat ko’rsatadi.

Banklar foydani maksimallashtirish, aksiya kursini ko’tarish bilan qiziqmaydilar. Balki foydaning doimiyliigi va bankrotdan qochishni ko’zlaydilar. Banklar o’z

mijozlarini himoyalashlari, kredit shartlarining yengillashtirishi, kompaniya-qarzdolarga sanatsiya qo'llash misollari ko'p.

Bunday shartlar yuqori darajali taraqqiyot vaqtida pulga muxtojlik kuchlilik davrida yuzaga kelgan. Hozir esa pul bozorida kuchli talab pasayib, qarz olishda mijozlar uchun kurash sharoiti hukmronlik qiladi.

AQSHga o'xshagan va yevropa mamlakatlaridan farqli o'laroq Yaponiyaning davlat xo'jaliklari xajmi katta emas. Markaziy hukumat qaramog'ida unitar korxonalar mavjud. Shuni ichida Moneta saroyi va davlat o'rmonchilik xo'jaligi bor. Bundan tashqari 13 ta bank, Oliy o'quv yurti muassasalari va 73 ta notijoriy tashkilotlarida pay bilan ishtirok etadi. Bular fundamental ilmiy muassasa va laboratoriyalar, ilmiy-texnik axborot markazi, Yaponiya madaniy almashuv fondi, shuningdek o'rmon resurslarini izlash, neft razvedkasi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish tarmoqlaridan iborat. Bundan tashqari avtomobil yo'llari, ko'priklar, to'g'onlar, Xonsyu va Sikoku orollarini birlashtiruvchi unikal ko'priklar inshooti kabi maxsus korxonalar kiradi.

Davlat temir yo'l korporatsiyasi, milliy telefon-telegraf tizimi, tamaki va alkagol monopoliyalari "JAL" avia yo'llari kabilar 80 – yillarga kelib xususiy lashtirilgan.

Mahalliy darajada vodoprovod, kanalizatsiya, axlat yig'ish, transport, maktablar, kasalxonalar kabilar davlat ihtiyoridadir. Shu bilan birga minglab muniipial turar joy qurilishi va undan foydalanish, pullik avtomobil

O'zbekistonda bozor munosabatlarini rivojlantirishda "Yapon mo'jizasi"ning ham ba'zi jihatlari olish mumkin.

Ya'ni:

- qattiq intizom, yuqori darajadagi mehnat unumdorligi;
- innovatsiyaga, yangilikka intilish;
- jamiyat, korxonalar manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish;
- yuksak tadbirkorlik, erishilgannatija bilan qanoatlanib qolmaslik;
- raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni o'z burchi deb bilish, ichki va tashqi bozorni ajratmaslik;
- beshta "S" ga qat'iy rioya qilish, ya'ni:
 - Seyri - uyushqoqlik
 - Syton - poklik
 - Seyso - tozalik
 - Seykets – ahloqlik
 - Sitsuks – intizom
- ilmiy – amaliy ishlar va ixtirochilikni rag'batlantirish;
 - makroiqtisodiyot miqyosida "optimal biznes" rejasini ishlab chiqish;
 - har oyda tuziladigan buxgalteriya hisobi;
 - "tovar yoki xizmatning o'zi uchun o'zi gapirsin" shiori;
 - Yaponiya halqining mehnatsevarligi. U erda mehnat ta'tili muddati asosan bir haftadan oshmasligiga qaramasdan, xodimlar dam olishga shoshilmaydilar;
 - Yapon ishchilariga yoshlikdan boshlab biror firmaga mansublik uchun faxrlanish his-tuyg'usi singdiriladi. Shu sababli ular o'z firmalarining shon – shuhrati uchun bilim va iste'dodlarini ayamaydilar.
 - Hozirdan kelajagini yaratayotgan firmalarning juda ko'pligi.
 - Mamlakatning intellektual salohiyatini davlatning birinchi boyligi deb qarash.

yo'llari, port jixozlari, yopiq bozorlar kabi aksioner va pay korxonalari kiradi.

Ko'rinib turibdiki, davlat asosan sanoatda emas, balki infratuzim sohasida faoliyat ko'rsatadi. Davlat bevosita xo'jalikni boshqarish o'rniga kuchli iqtisodiy siyosat qo'llovchi bo'lib hisoblanadi. Bu solig' – byudjet, pul – kredit, tashqi savdoni, boj tarifni tartiblashtirish; bozorda raqobatni qo'llash, tabiiy monopoliyalar faoliyatini tartibga solish kabilarni o'z ichiga oladi.

Yaponiyada davlat byudjeti va soliqlar ham o'ziga xos bo'lib, faoliyat xajmi va xarajatlar darajasidan kelib chiqadi. Davlat byudjetining xarajatlari YAIMning 26-27%iga teng keladi. Soliq ham samarali darajada bo'lib, YAIMning 22-23%ini tashkil etadi. Markaziy byudjetning asosiy daromad manbai to'g'ri soliqdadir. Fuqarolar daromadi, meros, taqdim etish kabilar soliq yeg'imlarining 42%ini tashkil etsa, korxonalar foydasi solig'i 26%ni tashkil etadi. Korxonalar solig'i tabaqalangan bo'lib, 26,42%-33,48%dan iborat.

Davlat byudjetining xarajat qismini olsak, harbiy juda oz – xarajatlarga nisbatan 6 foiz va YAIMga nisbatan esa 1 foizdan ham kam. Eng yirik qismi ijtimoiy sug'urta va nafaqalardir – 18-20 foiz. Shu bilan birga davlat qarzlarini to'lash ham o'tgan asr 90 – yillariga kelib katta xajmli bo'lib qoldi. Bu byudjet talofati bilan bog'liq bo'lib, qaysiki 90 – yillar oxiriga kelib, YAIMning 11,2 qismiga to'g'ri kelgan.

9.2. Iqtisodiy “mo'jizada” milliy xususiylik ahamiyati

Yaponiyaning nisbatan qisqa vaqt ichida qoloqlikdan chiqib, katta ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'liga o'tib, dunyoda yetakchi mamlakatlarga aylanishi, iqtisodiy rivoj darajasining juda yuqori bo'lishligi, buyuk iqtisodiy salohiyatga ega bo'lib, dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o'rinni egallashi “mo'jiza” nomini olgan.

Bu “mo'jiza”da albatta milliy xususiyatlarning o'rnini kam bo'lmagan. Milliy urf-odatdagi o'ziga xoslik tomonlardan tartiblilik, sharqiy tarbiya kabilar, oilada, katta-kichik o'rtasidagi munosabat, umumiy birlik, ayol va erkak munosabatlari kabilarning iqtisodiy faoliyatga ta'siri bo'lgan. Bunda itoatkorlik xususiyatining

ijobiy tomonlari ko'p bo'lgan. Oilaviy bir-birini qo'llash, ishonch kabilar mavjud bo'lib, kompaniya, firmalar xatto oilaviy-klanlik asosida tashkil topishi kabillardir. Birgalikda ish tutish, har bir harakatning bir-biriga bog'liqligi, o'z vaqtida ijro etishlik xususiyatlarining iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rnini albatta katta. Milliy o'zgalikka qo'shni Xitoy va Koreyaning ta'siri katta bo'lgan. Ma'lumki, asriy qo'shnilik diniy, urfiy umumiylik, iqtisodiy aloqalar albatta o'z izini qoldirgan. Shu bilan birga bu mamlakatlarning Yaponiya asoratida bo'lishining ham ta'siri bo'lgan.

Aytish mumkinki, bu xususiyatlar Yaponiya iqtisodiy "mo'jiza"da ijtimoiy hayot ta'siri sifatida yuz bergan. G'arbdagilarning bunday xolatga "yagona oila" deb nom berishida albatta jon bor. Chunki Yaponiya "mo'jiza"sida milliy birlik ta'siri bo'lib, Yaponiya kompaniyalari buni yapon xalqiga xos sinfiy dunyo tariqasida foydalanishga urinilgan va g'oyaviy turki sifatida ishlatilgan. Ma'lumki, G'arb va Amerika bilan raqobatda albatta millatni birlashtirish, jipslashtirishda qo'l kelgan. Yaponiya kompaniyalari esa bundan o'z manfaatlariga qaratgan xolda korxonalarini "ikkinchi oila" sifatida foydalanib, ishchi-xizmatchilarni o'ziga jalb etishda bu g'oyani keng qo'llashga harakat qilganlar. "Ikkinchi oila" g'oyasi yapon menejmentida katta o'rin egallaydi. Buning natijasi shuki, yollanuvchi kompaniyada deyarli umrbod band bo'lishi kerak. Ish joyini almashtirish faqat kompaniya ichida bo'lib, kompaniyadan chiqib ketmasligi kerak, ya'ni u kompaniyani oilaga o'xshatib, doimiy bog'langan bo'lishligi talab etiladi. Bunday tartib G'arbda tushunilishi qiyin. Chunki bu yerda ishchi-xizmatchilarning ish joylarini o'zgartirishi odatiy tusda bo'lib, erkin xolda kompaniyalarni almashtira oladilar, kompaniyalarni o'z istagi bo'yicha o'zgartiradilar va ularni shaxsiy bog'liqlik tomonlari yo'q.

Yaponcha "ikkinchi oila" tartibining qo'llanilishida katta ustunlik mavjud. Chunki kompaniya ichida ish joyini o'zgartirish kompaniya bilan yaxshi tanishish, uni maqsadini, tizimini to'liq tushunish imkonini beradi. Kompaniya faoliyatini to'la xolda bilish, ayniqsa boshqaruvchi menejerlar uchun zarurdir. Yirik Yaponiya "Maçusita Denki» kompaniyasining asoschisi Maçusita bu sohada quyidagilarni ta'kidlaydi:

1.Siz bilan ishlaydigan odamlarni oilangiz a'zolari deb biling. Muvaffaqiyat avvalo ish bilan bog'liq bo'lgan odatlarning bir-birini yaxshi tushunishlariga bog'liqdir.

2.Tovarlarni sotilgandan keyingi ko'rsatiladigan xizmatlar undan oldingilariga qaraganda qadrliroqdir. Chunki bunday xizmatlar doimiy mijozlarni shakllantira oladi.

3.Iste'molchiga o'zini jalb etadigan tovarlarni emas, balki ularga foydali tovarlarni soting.

4.Faqat xalol ishlashning o'zi kifoya emas. Qanday ishni bajarishdan qat'iy nazar, o'zingizning ishingiz uchun yagona javobgar ekanligingiz to'g'risida o'ylashingiz kerak.

5.Agar foydasiz ishlasak, bu jamiyat oldidagi jinoyatdir. Jamiyat kapitali, uning odamlari, uning materiallaridan foydalanamiz, foydasiz ularni bekorga sarf etamiz, boshqa joyda bo'lsa ulardan samarali foydalanishgan bo'lishar edi.

Albata bunday tartib o'z vaqtida samarali bo'lib, G'arb kompaniyalariga ta'sir ko'rsatgan. Davr o'zgarishi bilan erkin bozor munosabatlarining ta'siri kuchayib, bunday odatlar ta'siri ham o'zgarib, takomillashuvi kerak.

O'z vaqtida yaponcha monopoliyalarning asosini klan-oilaviy firmalar tashkil etib, ularning har biri o'nlab kompaniyalarni birlashtirgan. So'ngra ular Ikkinchi Jahon urushidan keyin Amerika va G'arbiy yevropa kompaniyalari tamoyili asosida o'zgartirilgan xolda tashkil etilgan.

Yaponiya moliya tizimida aholi jamg'armalarining o'rni katta. Banklarga ishonch yuqoriligi natijasida ular bank jamg'armalarining 20 foizini tashkil etadi va kredit tizimida salmog'li o'rinni egallab, iqtisodiy rivojlanishda keng foydalaniladi.

9.3. Demokratik kapitalizm modeli

Yaponiya iqtisodiyotidagi "mo'jiza"da va uning qudratli darajasida Ikkinchi Jahon urushidan keyingi islohatlar tufayli amalga oshirilgan chora-tadbirlarning

ahamiyati kattadir. Bunda Amerika okkupatsiya ma'muriyatining tashabbusi asos hisoblanadi.

Iqtisodiy islohatlar juda qiyin axvolda amalga oshgan. Chunki Yaponiya iqtisodiyoti to'la harbiy izda bo'lib, barcha narsalar chegaralangan, qat'iylik sharoitida bo'lgan. Markazlashgan rejalashtirish, barcha narsalar oldindan qat'iy belgilangan xolatda edi. Xatto haq to'lash oldindan aniq ko'rsatilgan, baholar o'zgarmaydigan qat'iy belgilangan tarzda edi. Ishlab chiqaruvchilar ham oldindan bir-biriga majburiy bog'langan, mol beruvchi va mol oluvchilar oldindan aniqlangan hamda iqtisodiy aloqalarni qat'iy bajarish tartibi o'rnatilgan edi.

Shu bilan birga taqsimot ham qat'iy o'rnatilgan tartibda bo'lib, iste'mol buyumlari kartochkalar bo'yichaa taqsimlangan. Iqtisodiyotda qat'iy davlat tartibi o'rnatilib, bunda hech qanday ihtiyoriylikka yo'l qo'yilmas edi. Davlat monopoliyasi to'la hukmronlik qilib, iqtisodiyot militarizatsiya (harbiylashtirilgan) asosda davom etar edi.

Yirik-yirik konsernlar mavjud bo'lib, asosan harbiy sanoatdan iborat bo'lgan. Markazlashtirilgan harbiy mazmundagi iqtisodiyot mavjud bo'lib, bu tub o'zgarishlarni talab etar edi. Sanoat yo'nalishini, moliyani, iqtisodiy tashkililikni tubdan boshqacha usulda o'zgartirish zaruriyati tug'ilib, Yaponiya rivojini harbiy izdan chiqarib, sog'lom iqtisodiyot yo'lga o'tkazish talab etilgan.

Bu o'zgarishlar demokratik kapitalizm modeli asosida amalga oshirilgan. Bundagi birinchi navbatli masala Yaponiya harbiy mashinasini sindirib, militarizatsiyani barbod qilish va uning iqtisodiy asosini yo'q qilib, erkin bozor iqtisodiyoti taraqqiyotiga yo'naltirishdan iborat edi.

Buning uchun iqtisodiyotda keskin o'zgarishlarni amalga oshirish talab etildi. Mehnat munosabatlari o'zgartirilib, harbiycha majburiylik o'rniga yollanishga asoslangan munosabatlarga o'tish bilan bog'liq tadbirlar amalga oshirildi. pomonolistik iqtisodiy siyosat qo'llanilib, monopoliyalar yo'q qilina boshladi. Yirik xajmda konversiya qo'llanilib, harbiy mahsulotlarni o'rniga tinchlik hayotiy talab mahsulotlari ishlab chiqarishga o'rnatila boshladi. Harbiy korxonalar bitirildi va bundan keyin uning imkoniyatlarini yo'q qilish uchun davlat konstitutsiyasida qattiq

chegaralanish belgilanib, umuman mamlakat mudofaaa xarajatlari milliy mahsulotga nisbatan 1 foiz bilan belgilanadi.

Byudjet islohatlari amalga oshirilib, pul muomalasi mustahkamlashtirildi va valyuta kursi qat'iy lashtirildi. Solig` siyosati o`zgartirilib, iqtisodiy normal rivojlanish darajasiga qaratildi va shunga mos shakllari qo`llanila boshladi.

Natijada harbiy sanoat asoslari bo`lgan yirik konsernlar bitirilib, ularning aksiyalari sotilib, juda katta konsernlar, ya'ni oilaviy xolding ("dzaybauu") kompaniyalar bitirildi, monopol xolatdan chiqarildi, tinch mazmunli iqtisodiy taraqqiyotga yo`l ochildi.

Bu islohatlar sobiq agressorning quolsizlantirishga va demokratik iqtisodiy taraqqiyotga yo`l ochib berdi. Normal iqtisodiy taraqqiyot sharoitlari yaratilib, militarizatsiya o`rniga ishonchli muxit tug`ildi. Tashqi iqtisodiy strategiya o`zgarib, eksport va import rag`batlantirila boshlandi. Davlat bilan biznes o`rtasida kooperatsiya paydo bo`ldi.

Agrar islohatlar natijasida yirik yer egaligi bitirilib, ommaviy ravishda yerlarni sotish amalga oshirildi. Natijada mustaqil fermer xo`jaliklari yuzaga keld. Bu esa qishloq xo`jaligida normal rivojlanish asoslarini paydo qildi.

Okkupatsiya hokimiyati davlat korxonalarini tizimini ham o`zgartirdi va xususiy korxonalar moliyasini sog`lomlashtirish tadbirlarini qo`lladi. Moliyaviy islohatlar esa korxonalarga jamg`arishning ichki manbaalirini tug`dirish imkonini berdi.

Amalga oshirilgan islohatlarning tadbirlari yuqori malakali ish kuchining mavjudligi, iqtisodiyotda ilmiy-texnik progressning keng qo`llanishning boshlanishi kabilar Yaponiya demokratik kapitalizm modelini shakllantirib iqtisodiy "mo`jiza" asosini yaratib berdi.

Iqtisodiy o`shishning tezlashuvi rivojlangan mamlakatlarga texnik jixatdan yetib olish va texnologik o`zgarishlar davriga to`g`ri keladi. Chunki Yaponiya o`tgan asr 50 – yillarida xomashyo va yoqilg`i resurslarini ommaviy qayta ishlash texnologiyasini o`zlashtira boshlagan edi. Bu vaqtga kelib qora metallurgiya, ko`mir konlari, elektrostansiyalar rekonstruksiya qilinib, savdo floti qayta qurilgan edi. 60 –

yillarga kelib harbiy korxonalarni konversiyalash asosida va yangi qurilish hisobiga maishiy tovarlar, radioappaturalar, avtomobil sanoati tarmoqlari yaratiladi. Shu bilan birga neft-ximiya, sintetik va smola tolasi, elektronika tarmoqlarining urushdan keyingi avlodlari yuzaga keladi. Raqobatbardoshligi bo'lmagan ko'mir shaxtalari yopiladi va arzon import nefti energetik xo'jalikning yoqilg'i asosini tashkil etadi.

Tarmoqlar tuzumining qayta qurilishda yangi texnika asosida ishlov berish sanoati tarmoqlarini yaratish asosiy yo'nalish hisoblangan. Buning asosiy sabablari arzon va yaxshi o'rgatilgan serob ish kuchi mavjudligi, xomashyo va energetika bo'yicha o'z manbaining yo'qligi, yangi texnologiyaga yo'l ochiqdigi, ichki jamg'armalar manbai mavjudligi, kapital xarajatlarni moliyalash mexanizmlarining ta'minlanganligi kabi omillardan iboratdir.

Bu vaqtlarda Yaponiya ichki qarzlarga muxtoj emas edi. Tashqi qarzlari ham asosan yo'q edi. Yirik tashqi qarzlardan foydalanilmagan. Pul tizimining mustahkamligi bunda ancha qo'l kelgan. Korxonalarining moliyalashuvi asosan banklar tomonidan bajarilgan.

Urushdan keyingi bolalar tug'ilishining yuqori darajada bo'lishi 1955-1970 yillar ichida mamlakat aholisining 90 mln.dan 104 mln. gacha yetkazdi. Industrlashtirish qishloqlardan ish kuchi oqimini kuchaytirdi. Noqishloq xo'jaligidagi bandlik 17 mln.dan 36 mln.gacha ko'tarildi, ya'ni 2 barobardan ortiqroq ko'paydi.

Bu jarayonlar yollanma ishlovchilarning daromadini juda tez o'sishi bilan davom etdi. Mayda ishlab chiqarish juda tezlik bilan ko'paydi va mayda korxonalar soni 1,5 barobar oshdi. Tez o'sish davri Yaponiyada hozirgi o'rta sinfni shakllantirdi. Makroiqtisodiy darajada aholi talabidagi o'zgarishlarni aloxida ko'rsatish mumkin. Chunki bu iqtisodiy o'sishning asosini tashkil etgan, ya'ni shu vaqtlarga kelib yalpi mahsulot o'sishining 60 foizi shaxsiy iste'molga to'g'ri kelgan va 30 foizginasi iqtisodiy o'sishga sarf etilgan. Shundan 18-20 foiz ishlab chiqarish qurilishi va jixozlarning investitsiyasini tashkil etgan.

Yaponiya yangi texnika asosida raqobatbardosh eksport tarmoqlarini qurguncha o'sishning eng muhim cheklovchisi chet hisoblash xolati bo'lib kelgan.

Bu davr uchun dalvatning sanoat siyosati tavsifli bo`lib, bunda resurslarni tarmoqlar o`rtasida taqsimlash, muayyan sanoat tuzumini tashkil etishda davlatning faol aralashuvi mavjud bo`lgan. Zaruriy import to`lovlaridagi moliya kvotalari muhim uskuna hisoblangan. Shu bilan birga chet investitsiyalaridan foydalanish faqat individual tarzda qo`llanilib, amalda kartochka taqsimoti hukm surgan. Bu bilan ichki bozorda chet raqobati minimumlashtirilgan. Demak, o`z vaqtida sanoat siyosatining asosini proteksionizm tashkil etgan.

O`tgan asr 70 – yillaridagi ikki marta yuz bergan jahon neft inqirozi Yaponiyada chuqur inflyatsiyani yuzaga keltirib, iqtisodiy o`shishni keskin pasaytiradi. Qayd qilganimizdek, import nefti yaponiya energetikasining asosini tashkil etar edi. Shu bilan birga 70 – yillarga kelib io` kuchining yangi resurslari tugab, ekstensiv o`shish rezervi tamomlangan edi. Sanoat mahsuloti tovar nomenklaturasining yangilanishi resursi ham tugagan edi. Bu kapital qurilishning qimmatlashuvi, ish haqining ko`tarilishi, yangi ish joylarining jixozlarinishi qimmatlashtirgan edi. Natijada iqtisodiy resurslarni tejash va kapital xajmli o`shishning pasayishiga olib keladi. O`shish darajasi ikki barobar pasayishiga qaramasdan jamg`arish normasi yuqoriligicha qolib, YAIMning 30 foizini tashkil etgan.

Bu Yaponiya iqtisodiyotini borgan sari ilmiy sig`imli tarmoqlarga e`tibor berishni kuchaytiradi. Bunda elektron mashinasozlik, zamonaviy aloqa vositalarini ishlab chiqarish tarmoqlari yetakchilik qiladi. Erkin taraqqiyot kuchayishi bilan davlatni iqtisodiyotni shatakka olishi qisqarib, uning sanoat siyosati o`z kuchini yo`qotib boradi. Raqobatbardoshlikni yo`qotib borayotgan ichki ishlab chiqarish mahsulotlari o`rnini import egallay boradi.

Bu Yaponiya iqtisodiyotining borgan sari jahon xo`jaligiga qo`shilishini tezlashtirdi. Lekin tashqi iqtisodiy aloqalar erkinlashuvining uzoqqa cho`zilishi ichki bozordagi kuchli raqobat sharoitida halqaro bozor raqobatiga chuqur tayyorgarlik ko`rish imkonini tug`diradi.

Lekin dunyoda bunga boshqacha baho berish mavjud bo`lib, Yaponiya iqtisodiyotini berk iqtisodiyot deb tushunish mavjud edi. Amalda esa ichki

iqtisodiyotni himoyalash va proteksionizm siyosati qo`llangan edi. Bunday chegaralar olib tashlanib halqaro raqobatga to`la qo`shilish yuz berdi. 80 – yillarning o`rtalariga kelib AQSH va G`arbiy yevropa mamlakatlari bilan bo`lgan savdoda katta ijobiy savdoning yuzaga kelishi o`tkir kelishmovchiliklarga va Yaponiya uchun davlatlararo iqtisodiy munosabatlarda muhim masalaga aylanishiga olib keladi. 1986 – yili Yaponiya hukumati ijobiy saldoni iqtisodiyotning kuchli eksport tuzumining natijasi, deb tushuntiradi va bunga tuzumiy disproportsiya mavjudligi sabab, deb aytiladi. Importga imtiyozlar qo`llanila boshlab, chetga kapital chiqarish ko`chayadi va Yaponiyaning chet mamlakatlardagi aktivi ikki barobar ko`payadi. Bu asosan ish joylarini ko`payishi hisobiga bo`ladi. Natijada eksport tovar hisobiga emas, balki ish kuchi o`rinlari hisobiga yuz beradi.

Yaponiyaning tashqi savdodagi o`rni katta. Jahon savdosida Yaponiyaning hissasi 7,3 foiz (1997 yil)ni tashkil etadi. Dunyoning oltin rezervlarining esa 12,8 foiziga to`g`ri keladi. Mamlakatlarning jahon savdosiga tortish darajasi iqtisodiyotdagi eksport va import kvotasi bilan belgilanadi. Yaponiyaning YAIMdagi eksport kvotasi 10,5 foizga teng, ichki provordgi iste`moldagi import hissasi 10 foizni tashkil etadi. Bu G`arbiy yevropa mamlakatlari ko`rsatkichlaridan ikki barobar past va AQSHga yaqin.

Yaponiyaning tashqi savdo aylanishi eksporti 46,1 foiz rivojlangan mamlakatlarga, shundan 27,8 foiz – AQSHga to`g`ri kelsa, rivojlangan mamlakatlarga – 44,8 foizga to`g`ri keladi. Importning 45,7 foizi rivojlangan mamlakatlarga, shundan 22,3 foizi – AQSHga, rivojlangan mamlakatlarga – 39,1 foiz to`g`ri keladi.

Yaponiya eksportida 59,8 foiz ishlab chiqarish jixozlariga, uzoq muddatli iste`mol buyumlariga esa – 17,7 foiz to`g`ri keladi. Importda esa 43,3 foiz xomashyo, yonilg`i, yarimfabrikatlarga to`g`ri keladi, ishlab chiqarish jixozlari esa – 24,0 foizni tashkil etadi.

Tashqi savdodagi eng yirik sherik AQSHdir. Ilgari neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlar asos bo`lib, ularning hissasi 19,6 foiz (1980 yil)dan 6,4 foiz (1996 yil)ga

tushib qoldi. Osiyodagi Janubiy Koreya, Tayvan, Malayziya, Tailandlarning ham hissasi ortib bormoqda.

Tashqi investitsiyada birinchi o`rinda AQSH turadi va bundagi hissa 40 foizdan oshadi, 18 foizga yaqini Osiyo mamlakatlariga to`g`ri keladi. Umuman Yaponiyaning tashqi investitsiyasi keyingi 6 yil ichida ikki martaga oshgan.

Yaponiyaning tashqi iqtisodiy aloqalarida o`tuvchi iqtisodiyotli mamlakatlarning o`mi ham ortib bormoqda. Buning ichida O`zbekistonning hissasi ham sezilarli darajadadir.

Yaponiya hozirgi vaqtda G`arbiy yevropa Ittifoqi va AQSHdan keyingi dunyoda uchinchi qudratli iqtisodiyot mamlakati hisoblanadi.

9.4. Yaponcha ishlab chiqarishning boshqarilishi xususiyatlari

Yaponiya iqtisodiy taraqqiyotida va raqobatbardoshlikni yuzaga keltirishda ishlab chiqarish menejmenti va o`zgi xos rahbarlik uslubining yaratilishi muhim o`rin egallaydi. 70 – yillargacha uzoq davom etgan arzon ish kuchi va yonilg`i – xomashyo past baholi importga asoslangan raqobatbardoshlik mavjud edi. Dollarga nisbatan iena pas kursda bo`lib, yapon mahsulotlari eksporti ham boshqa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan past edi. YOnilg`i – xomashyo narxining, ayniqsa neftning narxini baland bo`lib ketilishi, katta o`zgarishlarga olib keldi. Yaponiya sanoati o`zida tezda o`zgarishlar yasab, kam resurs sig`imli tarmoqlarga o`tishni ta`minlay oldi va resurs tejimli, mehnat tejimli texnologiyalarni ishlab chiqib, sanoatda qo`llay boshladi.

Yaponiya kompaniyalarining turg`unlik xususiyatini yaponcha yollanma mehnat tizimi bilan bog`laydilar. Bu tizimning uch tomoni mavjud: 1) ishchilarning umr bo`yi yollanishi. Bunda ishchilarning to nafaqaga chiqquncha ish bilan ta`minlanishi kafolatlib, ish joyining doimiyligi ta`minlanadi. 2) Maxsus ish haqi tizimi. Bunda yoshiga va kompaniyadagi ish stajiga qarab maosh ortib boradi. 3) Kasaba uyushmalari tarmoq bo`yicha emas, balki firma bo`yicha tuziladi va muayyan korxonada ichida faoliyat ko`rsatadi.

“Umr bo`yi yollanish” asosan yirik korporatsiyalarda va qisman o`rta korxonalarda qo`llaniladi. Umuman taxminan sanoat ishlab chiqarishidagi bandlikning 15-20 foizini tashkil etadi. Bu tizim yuridik asossiz bo`lib, kelishuv bo`yicha amalga oshiriladi. Yaponiyada ikki xil mehnat bozori mavjud bo`lib, birinchisi “tashqi mehnat bozori” deyiladi. Bu boshqa mamlakatlardan deyarli farqlanmaydi. Ikkinchisi “ichki mehnat bozori” bu korporatsiya yoki “Keyreçu” sanoat guruhida qo`llaniladi. Bunda firma ichida past samarali joydan boshqasiga o`tkazilib, yuqori malakali ishchilarni saqlab qolishga erishiladi. Shu bilan birga ishga qabul qilish ma`lum mutaxassisligi, malakaga egaligi asosida bo`lmay, “inson yollanishi” tarzida amalga oshadi. Chunki o`qitish, hunarga o`rgatish butun ish va amal davrida davom etadi. Halollik va mehnat bilan bog`langan insof, xatarlikka qattiq e`tibor beriladi va bunda mehnat bilan menejment o`rtasidagi to`la kelishuvlik katta ahamiyat kasb etadi. Malakali ishchilar va boshqaruv xodimlarining ish haqi farqi juda kam bo`ladi. Injener-texnik xodimlar va ishchilarning bir-biriga yaqin bo`lishi va farqning kamligi rag`batlantiriladi.

Bu tizim hozirgacha ham Yaponiyada asos bo`lib hisoblanadi. Tadqiqotlar bo`yicha 1000 kishiga nisbatan sanoat kompaniyalarida universitetlardan to`g`ri yollanganlar ichida 30 yoshgachasi – 78,9 foiz, 40 yoshgachasi – 70 foiz, 50 yoshgachasi – 66,2 foiz, 60 yoshgacha – 33,6 foizni saqlab qolgan. Bu raqamlar “umr bo`yi” tizimining amalda ekanligini ko`rsatadi.

Malakali xodimlarni saqlab qolish uchun kompaniyalar yangi usullar qo`llashni lozim topadilar. Aytaylik, o`rta va yuqori menejerlar uchun aksiyalarni imtiyozli baholarda sotish. Bu avvalo AQSHda qo`llanilgan bo`lib, hozir Yaponiyada ham keng qo`llanila boshladi.

9.4.1.-jadval

Mintaqalar va mamlakatlar bo`yicha ta'rischi – korporatsiyalar va ularning chet ellarda shahobchalari miqdori

Mintaqa/mamlakat	Yil	Mamlakatda joylashgan ta'rischi korporatsiyalar	Mamlakatda joylash-gan chet el firmalari
1	2	3	4
Rivojlangan mamlakatlar		43442 v	96620
G`arbiy yevropa		33302	63782
Evropa Ittifoqi		27846 v	54875
G`arbiy yevropa va boshqa mamlakatlar		6044	9111
Yaponiya	2001	4821	3241
AQSH	2001	3838	2001
Boshqa rivojlangan mamlakatlar		2530	10916
Rivojlanayotgan mamlakatlar		11421	2509
Afrika		42	375
Lotin Amerikasi va Karib dengizi havzasidagi mamlakatlar		1341	2323
Evropaning o`tish davri mamlakatlari (Xorvatiya, Sloveniya, sobiq Yugoslaviya)		1482	6045
Janubiy, Sharqiy va Janubi – Sharqiy Osiyo		7324	214621
Koreya Respublikasi	2002	48059	4120
Xitoy	2002	379452	175112
G`arbiy Osiyo (Bahrayn, Ummon, Saudiya Arabiston, Turkiya, Markaziy Osiyo)		555	2790
Tinch okeani (Fidji)	2001	-	1198
Markaziy va Sharqiy yevropa		980	141612
Butun dunyo bo`yicha		5930	471719

Yaponiya ishchilari dunyoda eng yuqori ish haqiga ega. Bu mehnat bilan menejment o`rtasida to`la kelishuvning katta asosi bo`lib hisoblanadi. Masalan, ish kunining yo`qotilishi bo`yicha yetakchi rivojlangan mamlakatlar ichida yaponiya eng past o`rinda turadi. Ma`lumki, ish kunlarini yo`qotish avvalo mehnat bo`yicha kelishmovchilik sababi bilan yuz beradiki, ishchilar o`z boshliqlariga qarshi norozilik bildirishini natijasi hisoblanadi.

Yaponiya korxonalarida texnika xavfsizligi darajasi juda yuqori. Bularning barchasi ish kuchi sifatining yuqoriligi va buning raqobatbardoshlikka ta`siri kattaligini ko`rsatadi.

Keyingi yillarda Yaponiya ishlab chiqarish menejmenti tizimi va boshqarishda bir qancha takomillashuv amalga oshmoqda. Bunda “Toyotizm” yangi modeli ahamiyatlidir. Buni ishlab chiqqan Toyota firmasidir. Yangi tizim standartlikning ustuvorligini saqlagan xolda diversifikatsiyalashgan mahsulotlar sifatini ko`tarish va moslashuv darajasini ko`tarish imkonini beradi. Ma`lumki, fordcha ommaviy mahsulot ishlab chiqarish modeli vaqtlarida bir qancha qiyinchiliklarga duch kelib, o`zgarish talab etgan xolda yangi texnologiyalarni yuzaga keltiradi.

Yangi tizimda “albatta o`z muhlatida” va “sifatni total nazorati” usulari ishlab chiqarilib, bular kompaniyalar bilan ta`mineotchlar o`rtasida jips aloqani talab etadi. Ishlab chiqarishni ilmiy asosda olib borish, dizayn, injiniring va sanoat ishlab chiqarishini integratsiyalashuvi hamda yagona ishlab chiqarish jarayoni uqkliga aylantirish yuz beradi. Iste`molchilar va talab me`yoriga katta e`tibor beriladi. Bunday sharoitda inson resursi menejmenti yangi talablarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga ishchilarning malakasi, mutaxassisligi to`xtovsiz takomillashib borishi zarur bo`ladi.

Pravodgi “Toyotizm”dan kelib chiqadigan natija zarur mahsulotlarning zarur miqdorda va zarur vaqtda ishlab chiqarilishini ta`minlashga to`la erishuvdan iboratdir. Bu tizimda avtomatlashuv, ya`ni aqlli mashinalar yaratish va defektni avtomatikaning o`zi boshqarishi, bir vaqtda bir necha modellarni yig`ish,

buyurtmachilar bilan ta'minotchilar o'rtasida axborot doimiyligini ta'minlash kabilar asos hisoblanadi.

Toyota avtomobil kompaniyasida qo'llanilgan bu ishlab chiqarish menejmenti tizimi boshqa mamlakatlarga ham tarqalgan va sanoatda inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi.

Yaponiya kompaniyalaridagi boshqaruv usuli qisqa vaqtda foyda olishga emas, balki foyda olishning doimiyligini ta'minlashga qaratilgandir. Shuning uchun Yaponiya menejmenti G'arbiy menejmentdan ko'p tomonlama farqlanadi.

Yaponiya menejmenti dunyoda eng ilg'or hisoblanadi va u to'xtovsiz takomillashib boradi, og'ir xolatlarga moslashuvchan bo'lib, Yaponiya kompaniyalarining raqobatdoshligini ta'minlashda katta o'rin egallaydi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda Yaponiya iqtisodiyoti boshqaruvi tajribalarini o'rganib borish va foydalanish usullarini belgilab borish ahamiyatlidir.

9.5. Ilmiy-texnik progress va iqtisodiy taraqqiyot

Yaponiya taraqqiyotida, uning iqtisodiy "mo'jiza"sida ilmiy-texnik taraqqiyotning o'rnini beqiyosdir. 90 – yillarga kelib Yaponiya kapital xarajatlari AQSH darajasiga yetdi. Agar buni aholi jon boshiga hisoblaganda AQSH darajasidan ikki barobar yuqoridir. Aytish mumkinki, kapital xarajatlari bo'yicha Yaponiya dunyoda liderlik qiladi. Amortizatsiya ajratmalari ham yuqori darajada bo'lishga qaramasdan investitsiyaning asosiy qismi mashina, jixozlar va texnologiyaga sarf etilib, raqobatdoshlikka qaratiladi. Yaponiya sanoatchilarining diqqati doimo ilmiy-texnik rivojiga qaratilgan. Bunda asosiy o'rinni ilmiy-tadqiqot tajriba-konstruktorlik ishlari investitsiyasi egallaydi (ITTKI). Buning asosiy maqsadi ilmiy g'oyalarni ishlab chiqish va tadbiq etishdan iboratdir.

Ilgari Yaponiya texnologiyasini boshqa mamlakatlar bilan istar-istamay baham ko'rgan. Biroq, endi vaziyat o'zgara boshladi. Yaponiya bo'yicha mutaxassis Ronald Morzening fikricha, "Ular yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy kuchayishiga yordam beradi hamda shu tufayli u erlarda siyosiy va strategik tayanchga ega bo'ladi".

Keyingi 20 yil ichida ilm, texnika va texnologiya rivoji uchun qilingan jami xarajatlar 8 marta ortgan. Bu Yaponiyaning bu sohada dunyoda birinchi o`rinda turishini bildiradi. Lekin bunda asosiy yuk xususiy kompaniyalar yelkasida bo`lib, davlat mamlakatda ilmiy-tadqiqot ishlarini mujassamlashtirish va ITTKIning rivojlantirish, davlat dasturini amalga oshirish, xususiy kompaniyalarni rag`batlantirish ishlarini bajaradi. Shuni qayd qilish kerakki, bu sohada davlat bilan xususiy sektor o`rtasida aniq mehnat taqsimoti mavjud.

ITTKI xarajatlarning 80 foizi xususiy sektorga to`g`ri keladi. Umumiy bunday xarajatlarning 2/3 qismini elektronika, kimyo sanoati va kemasozlik tashkil etadi. 70-90 – yillar ichida Yaponiyada kompyuter va ofis jixozlari ishlab chiqarish xarajatlari 40 barobarga ko`paytirilgan. Ko`pchilik kompaniyalarda ITTKI xarajatlari uncha ko`p bo`lmasa ham samaradorlik yuqoridir.

Yaponiyaning taraqqiyot muvaffaqiyatini ko`pincha g`arb texnologiyalari importi hisobiga bo`lgan, degan tushunchalar mavjud, o`zlari esa hech yangilik yaratmaydi, deyishadi. Amalda esa unday emas, chunki Yaponiya kompaniyalari ko`p sohada yangi texnologiya bo`yicha yetakchilik qiladilar va import texnologiyani esa takomillashtiradilar. O`z kashfiyotlarini ro`yxatdan o`tkazib, patentlashtirish xolati ko`p uchraydi. Masalan, “Hitachi” kompaniyasi ITTKIga to`xtovsiz o`z xarajatlarini kengayt irib boradi, 1997 – yilning o`zida texnologiya litsenziyalarini sotishdan olgan foydasi 50 mlrd. ienni tashkil etgan, qaysiki kompaniya umumiy foydasining 48 foiziga to`g`ri keladi. 1981 – yili “Hitachi” kompaniyasi diqqat markazini patentlar sifatiga qaratish yo`nalishini qo`llab, patentlarni “oltin”, “kumush” va “bronzalarga” bo`lgan. Shu bilan birga o`zida intellektual mulki bo`lishini tashkil etib, bu bo`lim strategik muhim kashfiyotlarni ajratib “oltin” statusi berish va ularni aniq texnologiyaga aylantirish, litsenziyalarni sotish ishlarini bajara boshlagan.

Hozirgi vaqtda “Hitachi” kompaniyasi 50 mingdan ortiq Yaponiya va chetda ro`yxatga olingan patentlarga ega. Har yili kamida 10 ming yangi patentlar uchun buyurtma beradi. Kashfiyot mahsulotlarini tenglashtirish uchun (o`zimi, chetdami, ayniqsa AQSHda) qattiq raqobat kurashi boradi.

O`rta, kichik korxonalar ham yirik kompaniyalar kabi ITTKI xarajatlariga imkoniyatlari bo`lmasa ham tadqiqot ishlarini olib boradilar, injener-texnik xodimlar bilan yangi texnologiya yaratish sohasida doimiy uchrashuv, muloqotlar tashkil etib turadilar.

Amaliy fanlarda muvaffaqiyat juda kuchli bo`lishiga qaramay keyingi yillarda fundamental tadqiqotlarda zaiflik sezila boshladi. Agar bu sohada asosan chet mamlakat muvaffaqiyatiga ishonilgan bo`lsa, endi qattiq patent tizimi qo`llanilishi bilan bu muammoga aylanmoqda.

Yaponiya hukumati bunga e`tibor berib, sabablarini o`rgangan xolda umuman ilmiy-tadqiqot tizimi, ta`lim tuzumlari kabilarni takomillashtirish chora-tadbirlarini qo`llashga qaratilgan dasturlar tuzishga qaratilgan katta xajmdagi islohotlar amalga oshirilishini kutish kerak.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiya ko`p sohalar bo`yicha AQSH kabi yetakchilardan biridir. Bular mashinasozlik, avtomatika, elektronika, avtomobilsozlik kabilardan iborat. Ayniqsa yangi texnologiya va elektronika bo`yicha eng oldingi mamlakat bo`lib, kam material, kam mehnat sig`imli mahsulot ishlab chiqarish bo`yicha eng ilg`or mamlakatga aylangan.

Malakali ishchi va xizmatchilar, aholining umumiy o`qimishligi bo`yicha juda ilg`orlagan mamlakat hisoblanadi. Dunyo bo`yicha maoshning eng yuqori darajasi Yaponiyadadir. Bu albatta eng ijobiy muvaffaqiyatdir. Bularning barchasi iqtisodiy taraqqiyotning ifodasidan iborat.

Yaponiyaning nisbatan qisqa vaqt ichida qoloqlikdan chiqib, katta ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo`liga o`tib, dunyoda yetakchi mamlakatlarga aylanishi, iqtisodiy rivoj darajasining juda yuqori bo`lishligi, buyuk iqtisodiy salohiyatga ega bo`lib, dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o`rinni egallashi “mo`jiza” nomini olgan.

Bu “mo`jiza”da albatta milliy xususiyatlarning o`rni kam bo`lmagan. Milliy urf-odatdagi o`ziga xoslik tomonlardan tartiblilik, sharqiy tarbiya kabilar, oilada, katta-kichik o`rtasidagi munosabat, umumiy birlik, ayol va erkak munosabatlari kabilarning iqtisodiy faoliyatga ta`siri bo`lgan. Bunda itoatkorlik xususiyatining

ijobiy tomonlari ko'p bo'lgan. Oilaviy bir-birini qo'llash, ishonch kabilar mavjud bo'lib, kompaniya, firmalar xatto oilaviy-klanlik asosida tashkil topishi kabilardir. Birgalikda ish tutish, har bir harakatning bir-biriga bog'liqligi, o'z vaqtida ijro etishlik xususiyatlarining iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rnini albatta katta. Milliy o'zgalikka qo'shni Xitoy va Koreyaning ta'siri katta bo'lgan. Ma'lumki, asriy qo'shnilik diniy, urfiy umumiylik, iqtisodiy aloqalar albatta o'z izini qoldirgan. Shu bilan birga bu mamlakatlarning Yaponiya asoratida bo'lishining ham ta'siri bo'lgan.

Iqtisodiy islohatlar juda qiyin axvolda amalga oshgan. Chunki Yaponiya iqtisodiyoti to'la harbiy izda bo'lib, barcha narsalar chegaralangan, qat'iylik sharoitida bo'lgan. Markazlashgan rejalashtirish, barcha narsalar oldindan qat'iy belgilangan xolatda edi. Xatto haq to'lash oldindan aniq ko'rsatilgan, baholar o'zgarmaydigan qat'iy belgilangan tarzda edi. Ishlab chiqaruvchilar ham oldindan bir-biriga majburiy bog'langan, mol beruvchi va mol oluvchilar oldindan aniqlangan hamda iqtisodiy aloqalarni qat'iy bajarish tartibi o'rnatilgan edi.

Yaponiya iqtisodiy taraqqiyotida va raqobatbardoshlikni yuzaga keltirishda ishlab chiqarish menejmenti va o'zgi xos rahbarlik uslubining yaratilishi muhim o'rin egallaydi. 70 – yillargacha uzoq davom etgan arzon ish kuchi va yonilg'i – xomashyo past baholi importga asoslangan raqobatbardoshlik mavjud edi. Dollarga nisbatan iena pas kursda bo'lib, yapon mahsulotlari eksporti ham boshqa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan past edi. Yonilg'i – xomashyo narxining, ayniqsa neftning narxini baland bo'lib ketilishi, katta o'zgarishlarga olib keldi. Yaponiya sanoati o'zida tezda o'zgarishlar yasab, kam resurs sig'imli tarmoqlarga o'tishni ta'minlay oldi va resurs tejimli, mehnat tejimli texnologiyalarni ishlab chiqib, sanoatda qo'llay boshladi.

Yaponiya taraqqiyotida, uning iqtisodiy “mo'jiza”sida ilmiy-texnik taraqqiyotning o'rnini beqiyosdir. 90 – yillarga kelib Yaponiya kapital xarajatlari AQSH darajasiga yetdi. Agar buni aholi jon boshiga hisoblaganda AQSH darajasidan ikki barobar yuqoridir. Aytish mumkinki, kapital xarajatlar bo'yicha Yaponiya dunyoda liderlik qiladi. Amortizatsiya ajratmalari ham yuqori darajada bo'lishga qaramasdan investitsiyaning asosiy qismi mashina, jixozlar va texnologiyaga sarf

etilib, raqobatdoshlikka qaratiladi. Yaponiya sanoatchilarining diqqati doimo ilmiy-texnik rivojiga qaratilgan. Bunda asosiy o`rinni ilmiy-tadqiqot tajriba-konstruktorlik ishlari investitsiyasi egallaydi (ITTKI). Buning asosiy maqsadi ilmiy g`oyalarni ishlab chiqish va tadbqiq etishdan iboratdir.

Takrorlash uchun savollar

1.Yaponiya iqtisodiyotining jahondagi yetakchiligi nimalarda o`z ifodasini topadi?

2.Yaponiya iqtisodiy “mo`jizasi”ning mazmuni nimada?

3.Yaponiyaning yangi texnologiya, avtomatikada jahondagi yetakchiligini aytib bering.

4.Yaponiya tadbirkorligida milliylikning mazmuni nimadan iborat?

5.Yaponcha menejment deganda nimani tushunasiz?

6.Yaponiya militarizmini Ikkinchi Jahon urushidan keyin demokratik kapitalizm bilan almashuvining bozor iqtisodiyoti rivojidadagi ahamiyati nimalardan iborat?

7.Yaponiya iqtisodiy “mo`jizasi”da ilmiy-texnik taraqqiyotning o`rni qanday bo`lgan?

8. Yaponiyaga jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozining ta'sir doirasi qay darajada bo`ldi?

9. Yaponiyaning jahon moliyaviy - iqtisodiy inqiroziga qarshi qo`llayotgan choralari xaqida nimalarni bilasiz?

10. Yaponiyada iqtisodiyotda raqobat va monopoliyalarni tutgan o`rni xaqida tushuntiring.

10-BOB. JANUBIY-SHARQIY OSIYODAGI YANGI INDUSTRIAL MAMLAKATLARDA BAZAR TAJRIBASI

10.1. Osiyo “Ajdaholari” va “Yo`lbarzlari”

XX – asrning ikkinchi yarmida Sharqiy-Janubiy Osiyoda tez rivojlangan va industrial mamlakatlar paydo bo`lib, o`z iqtisodiy salohiyati bo`yicha rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo`shilgan va yaqinlashayotgan mamlakatlar yuzaga keldi. Bulardagi yirik muvaffaqiyatlarni bozor munosabatlariga o`tish va uning mexanizmlaridan keng va chuqur foydalanish tufayli yuz berib, davlat iqtisodiy siyosatlarining oqilona amalga oshirishining natijasi, deb tushuntirish mumkin. Osiyo “Ajdaholari” qatoriga Janubiy Koreya, Singapur,, Tayvan va Gonkong davlatlari kiradi. Janubiy Korea, Tayvan va Gonkong Sharqiy Osiyoda joylashgan bo`lsa, Singapur Sharqiy-Janubiy Osiyodadir. Bularda iqtisodiy taraqqiyot darajasi yuqori bo`lib, rivojlangan mamlakatlar hisoblanadi va o`z iqtisodiy salohiyati bilan shu mazmunga to`la muvofiq keladi.

Osiyo “Yo`lbarzlari” Malayziya, Tailand, Indoneziya va Filippin davlatlari kirib, bular asosan Sharqiy-Janubiy Osiyoda joylashgan, iqtisodiy darajasi bo`yicha rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo`shilishga yaqinlashib qolgandir.

Bu mamlakatlar ikkinchi jahon urushidan keyin ham qoloq agrar mamlakatlar hisoblanib, boyligi asosan sholi yetishtirish va biroz qazilma boyliklariga ega, mahsulot ishlab chiqarish esa past darajada va qoloq xoldagi qishloq xo`jaligiga ega bo`lib, agrar mamlakatlardan iborat edi.

Lekin juda qisqa vaqt ichida qoloqlikdan chiqib, qashshoqlikning oldi olinib, iqtisodiy ravnaq yo`nalishini qo`llay oldilar. Bunda davlat barcha imkoniyatlarni to`la hisobga olgan xolda iqtisodiy ochiqlik, erkin taraqqiyot siyosatini qo`llagan xolda oqilona ish yuritib bozor munosabatlariga o`tishni tezlashtirgan tarzda taraqqiyot sari intila boshladilar. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini keng va maksimal ravishda foydalanilib, ularning yordamlarini ishga solgan xolda, iqtisodiyot harakatini erkinlashtirdilar.

Hozirga kelib bu mamlakatlar tez rivojlanuvchi va xatto AQSH, Yaponiya va G`arbiy yevropa mamlakatlarigacha mahsulotlar yetkazib beruvchi hamda yuqori

sifatli va xalqaro standartlarga to'g'ri keluvchi tovar ishlab chiqaradigan mamlakatlar qatoriga qo'shilgandir. Bunda ilg'or texnologiyaning keng qo'llanishi, ishlab chiqarishning ekologikligi darajasida bo'lishligi rivojlanish darajasiga yanada aniqlik kiritadi.

Birinchi to'rtlik, ya'ni "Ajdaholar" shu bilan birga, aytganimizdek, rivojlangan mamlakatlardan hisoblanib, jahonda eng yirik moliya markazlaridan va jahon eksporterlaridandir. Osmon o'par binolar, zamonaviy aeroportlar, sun'iy yo'ldoshlar kabilar bularning muvaffaqiyatlaridan dalolat beradi. "Yo'lbarslar" ham qolishmaslikka, oldinga intilishmoqda. Dunyoda eng baland, osmon o'par binolar Tayvan va Malayziyadadir.

Albatta haqqoniy savol tug'iladi, qanday qilib bu mamlakatlar shunday darajaga erisha olishdi, buning asosiy xususiyatlari nimada? Albatta ilohiy kuchda emas, balki asosiy kuch, sabablar yer usti voqe'ligida, odamlar harakatida. Hozirgacha dunyoda qoloq mamlakatlar oz emas, ochlik, qashshoqlik muammolari ko'pchilikni o'ylatadi va qoloq mamlakatlar ham shular qatoriga qo'shilishni istaydi. Demak, bu va bunga o'xshagan oldin yoki keyin rivojlanish yo'lga o'tgan mamlakatlar tajribasini o'rganish va ular erishgan darajaga yetish uchun yo'l axtarish juda muhim, olamshumul vazifalardandir.

Albatta har bir mamlakatda bozor munosabatlariga va bu asosda iqtisodiy taraqqiyotga erishish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Avvalo bu Sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniyati bilan bog'liqdir. Milliy madaniyat, urf-odat albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi, mentalitetning o'rni katta. Bularning ichida insonlarning bir-biriga hurmati, o'z davlatiga munosabat, davlatga itoatkorlik, uning ko'rsatkichlarini gap so'zsiz bajarish, milliy birlik va g'urur kabilarni sanab o'tish mumkin. Bunda yana oilaviy munosabatlar, katta yoshdagilar hurmati, ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar, ishonchlikka o'xshagan xususiy mentalitetning o'rni bor. Bir-birini qo'llash, jamoatchilik xususiyatlari, mehnatsevarlik, boshliqning, kattaning obro'-e'tiborliligi, oilaviy va qarindosh-urug'chilikka bog'liqlik, oilaviy va urug'chilik asosidagi rejalarining mavjudligi kabilar ham bu sohada kam ahamiyat kasb etmaydi.

Milliy birlikda va mamlakatni ma'lum maqsadga qarata bilishda bu milliy xususiyatlardan foydalana bilish albatta g'alabaga erishuvda qo'l keladi.

Bundan tashqari bu mamlakatlarda aholi bilim darajasi juda yuqoridir. Bilim standarti bo'yicha olinsa, jahonda eng yuqori o'ringa ega bo'lgan mamlakatlar Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiyava Gonkongdir. Ma'lumki, inson resursi hozirgi davr taraqqiyotida xal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu eng muhim va qudratli "inson kapitalidir".

Hayotdagi topshiriq berish va ijrochilik ruhi kuchliligi, oilaviy qo'llash, himoyani sezish kabi xususiyatlar Sharq xalqlarida, ayniqsa bu Sharqiy yangi industrial mamlakatlar xalqlarida kuchlidir.

Qo'shni Yaponiya tajribasi, uning yaponcha, "iqtisodiy mo'jiza" ta'siri ham o'z kuchiga ega bo'lgan va ma'lum darajada turtki vazifasini o'tagan hamda to'g'ridan-to'g'ri o'rganish nuqtasi vazifasini bajargan. Ko'p tomondan bevosita Yaponiya yordamidan foydalanilgan.

Industriallashtirishning boshlang'ich davrida qoloq to'qimachilik sanoati negiz bo'lib hisoblangan. Bu o'tgan asr 50 – yillarga to'g'ri kelib, deyarli past bahodagi tovarlar o'z tashqi ko'rinishi bilan o'ziga tortadigan bo'lishligi, keng assortimenti bilan jahon bozorida o'ziga yarasha joy topa bilgan. Shu yo'l bilan eng boshlang'ich miqdorda valyutaga ega bo'lishlikka muvassar bo'lgan. Eksportdan tushgan sarmoya avvalo mavjud qoloq korxonalarining asbob-uskunalarini yangilash, imkon darajada yangi texnika kiritish maqsadlarida foydalanilgan. Bunda albatta Yaponiya tajribasi qo'l kelgan.

Industriallashtirishda davlatning roli juda katta bo'lgan va barcha jarayonlar davlat ishtiroki, qovushtirish faoliyati tufayli amalga oshgan. Investitsiya uchun keng sharoit yaratilib, chet kapitalining kiritilishi uchun rag'batlantirish usullari samarali ravishda qo'llanilib borilgan. Bunda albatta arzon ish kuchining serobliligi juda qo'l kelib, chet kapitali foydasini yuqori darajada bo'lishini ta'minlagan.

Asta-sekin importning o'rnini bosuvchi tarmoqlarni yaratishga e'tibor kuchayib, yangi-yangi sanoat tarmoqlari yuzaga kela boshlaydi. Bunda hukumatning oqilona ish tutish, ustuvor tarmoqlarni tanlay bilish, jahon bozori kon'yukturasini

tezda seza bilib ish tutish albatta hukumat harakatiga bogʻliqdir. Albatta oʻrinli darajada proteksionizm siyosatini qoʻllay bilish, bunda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi bozorlarga qarata bilish, hamda bundagi bogʻliqlikni taʼminlash juda oʻrinlidir.

Umuman davlat sanoat siyosatining mavjudligi va buni oʻz vaqtida tezlik bilan amalga oshira olish talab etilgan. Yangi tarmoq va korxonalarining davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi, moliyalashtirishni taʼminlash va bunda zaruriyat talabiga koʻra oʻzgaruvchanlikning boʻlishi muhim rol oʻynagan.

Sanoat tashkiliy tuzumini shakllantira borish ahamiyatli boʻlib, bu jahon bozori talabi asosida olib borilgan va bunda mavjud imkoniyatlardan yuqori samarali foydalanish talab etilgan. Oʻtgan asr 50 – yillarida toʻqimachilik va shishasozlik tarmoqlari rivojlantirilgan boʻlsa, 60 – yillarda cement, mineral oʻgʻitlar, neftni qayta ishlash, poʻlat quyish, sintetika sanoat tarmoqlari rivojlantirilgan. 70 – yillarga kelib, kemasozlik, investision tovarlar, uzoq muddat foydalaniladigan jixoz, avtomobil kabilar ishlab chiqarishga ahamiyat kuchayadi. 80 – yillarga kelib esa elektronika, telekommunikatsiya, axborot texnika tarmoqlari paydo boʻla boshladi. 90 – yillarda asosiy eʼtibor yangi materiallar va texnologiya, aerokosmik texnikaga qaratiladi.

Koʻrinib turibdiki, industrilashtirish oddiydan murakkabga tomon amalga oshib, pravardida eng yuqori texnika va texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish yaratiladi. Shu bilan bu ketma-ketlik va maxsus sharoitlar yaratilishi asosida rivojlanish davom etadi va natijada yuqori choʻqqilarga chiqiladi hamda murakkablashib boradi.

Boj haqi yuqori darajada boʻlib, iqtisodiy siyosatni qoʻllashda katta qurol boʻlib xizmat qilgan. Boshida maxalliy tovarlar asosan past narxli boʻlib, bozorga yoʻl ochishni yengillashtirgan. Kreditlar imtiyozli boʻlib, foizlar deyarli past boʻlgan.

Iqtisodiyotning muntazam rivojlanishini taʼminlash uchun zarur kapitalning yetishmovchiligi muammosini xal qilish uchun eʼtibor doimiy tusda boʻlgan. Shu bilan birga hukumat iqtisodiy siyosatida iqtisodiyotdagi diktatura oʻrniga dekmokratik usullarni qoʻllab borishga toʻxtovsiz eʼtibor qaratiladi.

Davlatning iqtisodiy siyosatida bevositalik asos bo`lmay, bilvositalik ustunlik qilgan. Bunda asosiy urg`u iqtisodiy mexanizmlardan foydalanishga qaratilgan.

Bu mamlakatlarda hozirgi davr taraqqiyot vazifasi ekstensivlikdan intensivlikka o`tishdir. Bu ayniqsa rivojlangan hisoblanuvchi “Ajdaholar” deb atalmish to`rtlik mamlakatlariga taalluqlidir. Bundagi yo`nalishlar albatta yangi texnologiya, ilmiy sig`imli mahsulot yetishtirish, nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining ustunlik bilan rivojlanishini ta`minlashdir. Ma`lumki, bu ishlab chiqarishda tub o`zgarishlarni amalga oshirish va umuman yuqori darajaga ko`tarishni talab etadi.

Yuqori malakali mehnat asosida ichki bozorning o`sb borishini ta`minlash amalga oshiriladi. Aytaylik, Tayvanda kompyuter texnikasi ko`p negiz yaratish va samolyot qismlarini tayyorlash uchun Janubiy Korea Respublikasida asos solish kabilardir.

Industriyashtirishning yuqorilashuvi, ishlab chiqarishning yuqori darajada bo`lishi iqtisodiy o`shishni tezlashtirish natijasida xizmat ko`rsatish sohasining rivojlanishiga olib keladi va bu moddiy ishlab chiqarishga nisbatan tez sur`atlar bilan o`sb boradi. Bu mamlakatlarda oldin ham xizmat ko`rsatish past darajada bo`lmagan. Endi esa buning zamonaviy tarmoqlarini yuzaga keltirgan xolda yuqori texnika asosida yangi xil xizmatlar hisobiga tezlik bilan o`shish yuzaga keladi. Ayniqsa axborot texnologiyasi, turizm va moliyaviy xizmat ko`rstaish tarmoqlari keng quloq yoza boshlaydi.

Bu Osiyo mamlakatlari uchun ITIKI (ilmiy-tadqiqot va ilmiy-konstruktorlik ishlari)ning takomillashuvida katta rol o`ynaydi. Ayniqsa 80 – yillardan boshlab bunga katta ahamiyat berila boshladi. Qisqa muddat ichida ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o`quv yurtlari, amaliy muammolar bo`yicha laboratoriyalarning keng tarmog`i yaratilgan edi. Bunda ITIKIning milliy loyixalari amalga oshirilib, bular asosan yarim o`tkazgichlar, AESlarga jixozlar tayyorlash (atomelektrostansiyalari), kompyuterlar, ishlab chiqarishga qaratilgan loyixalar edi. Ilmiy-texnik siyosatning asosiy yo`nalishi miqroiqtisod, sof kimyo, axborot, ishlab chiqarishni

avtomatlashtirishlardan iborat edi. ITIKI rivoji uchun qaratilgan xarajatlar yildan-yilga ko`payib, YAIMdagi ularning hissasi xatto AQSHdan ham yuqori bo`ladi.

Bu mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarining muhim tarkibiy qismi hisoblangani radikal agrar islohatlardir. An'anaviy yer munosabatlarining o`zgarishi irrigatsiya ishlarini keng xajmda olib borish, bu bilan unumdorlikni ko`tarish, qishloq xo`jaligi infratuzilmasini yaxshilash, agrokompleksning qismlarini yaxshilash ishlarini olib borish imkonini beradi. Bular esa o`zidan-o`zi iqtisodiy o`sish omillariga aylanishi, shuningdek ichki jamg`arilishlarning qo`shimcha manbaiga aylanishi va sanoatning ham o`sish manbaiga aylanishini belgilaydi. Industrilashtirish uchun qishloq xo`jaligi hisobidan sarmoyalarning jamg`arilishida 1949-1952 yillardagi Janubiy Korea Respublikasida o`tkazilgan islohatlar, 1949-1953 yillarda Tayvanda o`tkazilgan agrar islohatlar bilan rag`batlantirilgan edi.

10.2. Janubiy Koreyada bozor iqtisodiyoti rivoji

Yangi industrial mamlakatlar ichida eng baquvvati Janubiy Koreya Respublikasidir. YAIM bo`yicha dunyoda o`ninchi o`rinda turadi. Aholi jon boshiga YAIM 15 ming dollardan ko`proq to`g`ri keladi. Ilm sig`imli mahsulotlar yetishtirish bo`yicha dunyoda yetakchi o`rinlardan birini egallaydi, sun'iy yo`ldosh uchirgan mamlakatlardan biri bo`lib hisoblanadi. 1999-2003 yillar ichida ta'lim va texnologiya, ilm sig`imli sanoat markazlarini tashkil etish kabilarga 110 mlrd. doll. sarf qilingan .

Rivojlanish strategiyasining muhim tomoni tuzumiy siyosatdir. Bunda turli tarmoqlar va ishlab chiqarishning rivojlanish maqsadiga muvofiqligi tuzumiy o`zgarishlarning ketma-ket ravishda amalga oshirilishi, xarajatlar va natijalarni nazorat qilish amalga oshirilgan. 70 – yillargacha tuzumiy siyosat makroiqtisodiyotning shakllanishiga qaratilgan edi. Agrar islohatlar va sanoat hissasini o`stirishga aloxida e'tibor berilgan. Iqtisodiyotning tuzumiy o`zgarib borishi tufayli sanoatda bir qancha siljishlar yuz beradi. Asosan bu industrial negizda amalga osha boshlaydi. Bundan oldin industriya ahamiyatli bo`lmay, xizmat ko`rsatish sohasi, nomoddiy ishlab chiqarish asos bo`lgan.

Shunday qilib, iqtisodiyotdagi tuzumiy o`zgarishning asosiy bosqichi va uning o`z o`shini ta`minlashga asoslanishi industrlashtirishdan iborat bo`ladi. Bunda faqat sanoat tarmoqlarida mashina texnikasiga o`tish bilan chegaralanmay, qishloq xo`jaligini qayta qurish, uni sifat jixatidan yangi rivojlanish bosqichiga o`tish hamda zamonaviy infratuzilmalarni paydo qilishdan iborat bo`lgan.

Iqtisodiy tartiblashtirishda asosan Yaponiyadan o`rnak olingan va bunda Janubiy Koreya Respublikasi ayniqsa ajralib turgan. Bunda iqtisodiy siyosatni asosan sanoat va savdo, moliya, ta`lim, mudofaa, fan va texnika vazirliklari olib borgan. Bularning birgalikdagi faoliyatlarini ta`minlashni iqtisodiy rejalashtirish Kengashi boshqargan. Yaponiyada esa bunday tashkilot Iqtisodiy rivojlanish agentligi deb atalar edi.

Biznes va davlatning o`zaro harakati indikativ rejalashtirish tamoyili asosida olib borilgan. Masalan, Koreyada to`rtinchi besh yillik rejani tuzishda asosan Koreya rivojlanish instituti olimlari ishtirok etgan. Oltinchi to`rt yillik rejalar asosan sanoat va infratuzilmalar ob`ektlarining loyixalarini tuzish bilan chegaralansa, keyingi yillarda ancha murakkablashgan yirik makroiqtisodiy modellar tuzila boshlagan.

Dasturlarni tuzish va amalga oshirishning yuzaga kelgan tizimi davlat va biznesning o`zaro harakat tizimini tashkil etib, bunda sheriklar va qo`llaniladigan usullar ahamiyatlidir. Janubiy Koreya Respublikasida biznesga ta`sir ko`rsatuvchi o`z usullari ishlab chiqilgan. Bunda davlat tartiblashtirish

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1992 yil iyun, 1995 yil fevral, shuningdek, 1999 yilda Koreya Respublikasiga tashrif chog`ida 1994 yilning iyunida esa Koreya Respublikasi Prezidenti Kim En Sanning O`zbekistonga rasmiy tashriflari chog`ida mamlakatlar o`rtasida o`zaro savdo - iqtisodiy munosabatlarini rivojlanishi uchun huquqiy asos qo`yildi va hamkorlikning asosiy yo`nalishlari belgilab olindi. O`zbekiston va Koreya Respublikasi o`rtasida "Savdo to`g`risida", "Investitsiyalarni o`zaro himoyalash va kengaytirish to`g`risida" kabi bir qator savdo-iqtisodiy, investitsion va ilmiy-texnikaviy bitimlar imzolandi. Hozirgi kunda O`zbekiston va Koreya Respublikasi o`rtasida xuquqiy-shartnomaviy asosga ega bo`lgan 22 tadan ortiq hukumatlararo shartnoma va hujjatlar imzolangan.

usullarining standartli yig`ini asos hisoblanadi, qaysiki soliq va kredit-pul, savdo va valyuta siyosati, shuningdek jamg`arilgan resurslarni joylashtirishga undash maqsadida biznesga ta`chir o`tkazish choralar tizimidan iborat. Sanoatni

ragʻbatlantirishning iqtisodiy siyosati importning oʻrnini bosuvchi va eksportga moʻljallangan industriallashtirish strategiyasiga asoslangan. Buning sababi xususiy kapitalga yordam qilish, chet firmalar raqobatidan himoyalash, toʻlov balansidagi yetishmovchilikning oldini olish kabilardir. Avvalo bu isteʼmol buyumlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlardan boshlangan. Industriallashtirish chuqurlashib borishi bilan importning oʻrnini bosish, kimyo va neftni qayta ishlash, qora metallar, mashina va jixozlar komponentlari kabilarda ham qoʻllanila boshlaydi.

Importning oʻrnini bosish siyosatini amalga oshirishda qayta taqsimlash jarayoni ishlatilgan. Bunda qishloq xoʻjaligi va qazib olish sanoati, savdo sharoitlarini sanoat foydasiga oʻzgartirish, chet kapitalini bunga qaratish usullari qoʻllanilgan. Ikki xil nazorat ishlatilgan: savdo va valyuta usullari. Import qilinadigan tovarlarga nisbatan milliy valyuta kursining sunʼiy koʻtarish yoʻli bilan narxi oshirilgan.

Davlatning iqtisodiyotdagi aralashuvi ham oʻziga xosdir. Koreyada u faoliyatlidir. Bu tartiblashtirishda, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashda oʻz aksini topadi. 80-90 yillarda ishlab chiqarish quvvatlariga munosabat oʻziga eʼtiborni tortadi. 80 – yillar oxiri va 90 – yillar boshida baʼzi tarmoqlarda ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari paydo boʻladi va bularni ishdan toʻxtatish maʼqul topiladi. Bular asosan elektronika sanoati, mineral oʻgʻitlar ishlab chiqarish va boshqalardan iborat edi. Buning uchun maxsus depressiv kartellar tuziladi. Kartellar hukumat qoʻllashi tufayli mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish va korxonalarda eng samarali boʻlimlarni saqlab qolish toʻgʻrisida oʻz xohishlari boʻyicha kelishadilar. Shu bilan birga ortiqcha quvvatlarni sotish yoki yoʻnalishini oʻzgartirish toʻgʻrisida ham ihtiyoriylikka kelishiladi. Depressiv kartellarning faoliyatini tijoriy banklar hukumat kafolatligi asosida moliyalashtiradi. Ortiqcha quvvatlarni yoʻq qilishda yangi ish joylarining manbai boʻlib kichik biznes xizmat qiladi.

Kichik biznes bozor iqtisodiyoti uchun tizimlashtiruvchi omil boʻlib hisoblanadi. Bu sektorga 100 nafargacha band boʻlgan mayda va oʻrta korxonalar kiradi. Yirik korxonalarining oʻzgarishi ham oʻz xususiyatiga ega. Agar 1963 – yilda 100 kishigacha band boʻlgan korxonalar Janubiy Koreada 1,9 foizni tashkil etgan

bo`lsa, 1976 - yilga kelib ular, barcha korxonalar ichida 12 foizga yetdi. Yirik korxonalarining yetishtirgan mahsuloti xajmi esa shu yili 86 foizgacha ko`paygan. Bunday harakat keyingi yillarda ham davom etgan.

Iqtisodiyotda erkinlikka yo`l berish va davlat aralashuvini qisqartirish yo`nalishi asosan 80-yillarda boshlanadi. Bunda aksiyalarni ochiq sotish, davlat korxonalarini boshqarishning xususiylashtirish, ijara, oldindan belgilangan inestorlarga aksiyalarni sotish, korxonalarni maydalash, davlat korxonalariga xususiy investitsiyalarni kiritish, davlat mulkini auksion tarzda sotish, korxonalarni o`z boshqaruvchisi yoki boshqa xodimlari tomonidan sotib olishi keng ko`lam ola boshlaydi.

Avvalo korxonalarni sotish qimmatga tushib, byudjetga foydali bo`lmay kelgan. Ikkinchi tomondan xususiylashtirilgan korxonalar ichida monopollashuvni rag`batlantirgan.

Janubiy Koreada qisman xususiylashtirish muvaffaqiyatli bo`lib, bunda asosan aksiyalar ko`pchilikka sotilgan. Shu bilan birga oldindan norentabelligi aniq bo`lgan korxonalar qurilishi to`xtatilgan. Xususiylashtirishda chet kapitalining qatnashuvida moslashuvchanlik usullarini ishlatish qo`l kelgan.

Tashqi savdoda rivojlangan mamlakatlar bozoriga chiqish ahamiyatlidir. Shu bilan birga bu mamlakatlarning Janubiy Korea bozorlariga mahsulot chiqarishni ko`paytirish ikki tomonlama foydalidir. Chunki rivojlangan mamlakatlarning Janubiy Korea kabi mamlakatlarga nisbatan proteksionizm siyosatini qo`llash umumiy rivojlanishga salbiy ta`sir etadi.

10.3. Singapurda bozor iqtisodiyoti xususiyatlari

Singapur yangi industrial mamlakatlar ichida eng kichik, aholisi 3 mln kishidan iborat va har tomonlama taraqqiy etgan hisoblanadi. Janubiy Osiyoda joylashgan bo`lib, Sharqiy-Janubiy Osiyo mamlakatlari dengiz yo`lida muhim rol o`ynaydi va halqaro aeroportga ega. Singapurda davlat aralashuvi kuchliroq va tashqi ochiqlik boshqa mamlakatlardagidek emas. Chunki iqtisodiyotni tartiblashtirish ancha qattiqlik bilan olib boriladi va iqtisodiyotni kuchli boshqarish modeli mavjud.

Bu nuqtai nazardan ayniqsa Gonkong modelidan ancha farq qiladi. Singapur iqtisodiyoti “boshqariladigan demokratiya” nomini olgan.

Iqtisodiyotda importning o`rnini bosuvchi siyosat kuchli va bu qat’iylik bilan ta’minlanadi. Regionda negizli tarmoqlar mahsulotini qayta ishlash bo`yicha yaxshi moslashib, bu sohada asosiy o`rinni egallaydi. YAIMda qishloq xo`jaligi 0,2 foiz sanoat – 35 foiz, moliya va biznes kommunikatsiya – 13 foizni egallaydi.

Iqtisodda elektronika, axborot va biotexnologiya asos bo`lib hisoblanadi. Yirik moliyaviy markazga aylangan. Biznes bo`yicha eng yaxshi shahar hisoblanadi. 1997 – yilda YAIM 89,6 mln. dollarni tashkil etgan, aholi jon boshiga esa 29 ming dollardan to`g`ri keladi. 1990-1997 yillar ichida YAIMning o`sishi yiliga 8,5 foizga to`g`ri kelgan.

Davlat sektori xajmi bo`yicha katta emas. U 1974-yildagi 180 korxonadan 1983-yilda 450 korxonaga o`sgan. Bularda bandlik 5 foizga teng. Davlat korxonalari dengiz, havo transportlari, kommunal xo`jalik, uy-joy qurilishida faoliyat ko`rsatadi. Singapurga xos narsalardan biri shuki, davlat korxonalarining yalpi omonatdagi hissasi kattadir. Bular son jixatidan oz bo`lsa ham kuchli moliyaga ega bo`lish bilan birga byudjetga yaqinligi kuchli.

Singapurning o`ziga xos tomoni boshqalarga nisbatan tartibning yuqori darajadagidir.

10.4.Tayvan va Gonkong bozor rivoji tajribasi

Tayvan va Gonkong asli Xitoy yerlari. Tayvan Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) yuzaga kelishi bilan Chankayshi boshliq oldingi Xitoy hukumati bu orolga joylashib, mustaqil davlatga aylangan. Gonkong esa Buyuk Britaniya mustamlakasi sifatida ajralib qolgan va hozir esa XXR yerida, biroq ma’lum vaqtgacha avtonomiyalik saqlanib qolgan, asta sekin to`la qo`shilishi ko`zda tutilgan.

Tayvan va Gonkong haqiqiy rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega. Bularning, ayniqsa Gonkongning jahon bilan Xitoyni iqtisodiy bog`lashda o`rni katta va katta xajmdagi Xitoy

Gonkong
Tashqi qarz (yalpi ichki maxsulotga nisbatan, %): 224,7%
Yalpi tashqi qarz miqdori: 678,29 mlrd. \$
Yalpi ichki maxsulot (2009): 301,8 mlrd. \$
Kishi boshiga to`g`ri keluvchi tashqi qarz miqdori: 96 142 \$

tovarlari shular orqali jahon bozorlariga chiqadi. Bular yirik moliya markaziga aylangan. Tashqi iqtisodiy aloqalarda bularning o'rnini katta.

Gonkong iqtisodiyotining ochiqlik darajasi juda yuqori va jahon uchun har tomonlama ochiq Xitoy xududi hisoblanadi. Chunki iqtisodiy faoliyat uchun dunyo mamlakatlariga to'siqlik yo'q va iqtisodiy harakatlar chegaralanmaydi, keng xajmda turli tarzdagi moliyaviy, savdo, investitsiyalarga to'la yo'l ochiq va erkinlik mavjud.

Xitoy Xalq Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalari uchun amaliy pog'ona bo'lib, katta xajmdagi iqtisodiy harakatlar Gonkong orqali amalga oshiriladi hamda yirik vositachilik vazifalarini bajaradi. XXR eksport va importlarida o'rnini katta. YAIM asosan xizmat ko'rsatishdan iborat bo'lib, 81 foizni tashkil etsa, sanoat va qishloq xo'jaligi 19 foizdangina iborat. Orol bo'lganligi tufayli dengiz portlari rivoji uchun imkoniyat katta. Xalqaro darajadagi aeroportlarga ega. Tayvan juda tez rivojlanib, yirik iqtisodiy muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi va asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olgan.

Gonkong aholisi 7 mln. kishidan iborat, umr ko'rishi o'rtacha 80 yosh (bu Shvetsariya bilan teng), YAIM 174 mln. dollar, YAIM jon boshiga 25,6 ming dollarga to'g'ri keladi. Tayvan ham juda tez rivojlanib, yirik iqtisodiy muvaffaqiyatlarni egalladi. YAIM 90 mlrd. doll., aholi jon boshiga 15,0 ming dollar to'g'ri keladi. Juda yirik eksportyor mamlakatlardan hisoblanib dunyoda birinchi o'nliliklar qatoridan o'rin egallaydi. Valyuta zaxirasi bo'yicha dunyoda Xitoy va Yaponiyadan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Eksportning 90 foizi sanoat mollari to'g'ri keladi, YAIM tarkibini olsak, qishloq xo'jalik mahsulotlari faqat 3,5 foiz bo'lsa, sanoat mahsulotlari 40 foizni tashkil etadi.

Tayvan sanoati eksportga mo'ljallangan bo'lib, asosan to'qimachilik, kiyim-kechak, elektronika, kimyo buyumlari ishlab chiqariladi. Iqtisodiyotda davlat sektori ancha ta'sirli hisoblanib, sanoatni 1/6 qismini tashkil etadi, tovar aylanishning esa 50 foizini tashkil etadi.

Tayvan bozor iqtisodiyoti rivojlanishda ochiqlik siyosati ijobiy o'rinni egallab, jarayonni tezlashtirgan. Ayniqsa, bunda AQSHning roli kattadir. Bu albatta AQSHning XXRga qarshi siyosati bilan bog'langan bo'lib, Tayvanning kuchli

bo`lishida manfaatdor bo`lgan. Shuning uchun Tayvan rivojlanishi uchun AQSH har tomonlama qo`llab-quvvatlab, barcha chora-tadbirlarni ayamagan va tez vaqt ichida XXRga qarshi rivojlangan mamlakatga aylanishga erishgan. Tayvan o`z taraqqiyoti yillari avvalo iqtisodiy tuzumiy o`zgarishlarni amalga oshirib, bunda murakkab texnologiyali tarmoqlarga asosiy ahamiyat qaratilgan. Bu esa birinchi navbatda ish kuchining yuqori malakali bo`lishini talab etgan. Yangi tarmoqlar ichida ilm sig`imli va katta kapital xarajatlari talab etadiganlari tezroq rivojlangan.

Eksportga qaratilgan tarmoqlarga diqqat-e`tibor kuchliligi natijasida Tayvan Osiyoda birinchi bo`lib kapitalni netto-eksportyori darajasiga erishgan. Ayniqsa "inson kapitali" aloxida o`rin egallaydi. Bu esa Tayvanda ta`lim siyosatiga katta ta`sir ko`rsatadi. Ta`lim, fan, madaniyat rivoji uchun davlat xarajatlarining 15-20 foizi sarflanadi. Bu esa YAIMning 3-5 foizini tashkil etadi. Aholini boshlang`ich va o`rta ta`limga tortilishi bo`yicha Tayvan rivojlangan mamlakatlardan qolishmaydi. Oliy ta`lim darajasi bo`yicha liderlar qatoridadir.

Import o`rnini bosish yo`nalishi iqtisodiy taraqqiyotda qolgan yangi industrial mamlakatlari qatori sinov bosqichi bo`lgan. Buning sababi xususiy sektorga yordam berish deb ataladi. Chunki tashqi firmalar raqobatiga qarshi tura olish zarurati tug`illar edi. Bundan tashqari to`lov balanslaridagi yetishmovchilikning oldini olish talab etilar edi. Chunki xomashyoga narxning pasayishi, import qilinadigan tayyor buyumlarga narxning ko`tarilishi kabilar doimo shunday xolatlariga olib keladi.

Avvalo bunday vaziyat oziq-ovqat, poyabzal, to`qimachilik kabi tarmoqlarda yuz bersa, so`ngra industriallashtirish kengayishi bilan ishlab chiqarishga atalgan tovarlar bilan bog`liq bo`lib boradi.

Valyuta kursini o`zgartirib turish ham keng qo`llanilib boriladi, xatto provardida bu milliy valyutaning devalvatsiya qilinishigacha olib keladi. Valyuta kursining tez-tez o`zgarib turishi va ularning turli xilligi chayqovchilikning avj olishi va chet iqtisodiy aloqalar ishtirokchilariga muammolar tug`diradi. Tayvanda o`z vaqtida hatto turli tovarlar uchun turli xil valyuta kurslari bo`lib, pullarning almashtirilishida turli kurslar bilan amalga oshirilgan. Aytaylik, davlat sektori import qiladigan tovarlarni olish uchun sarf etiladigan valyuta maxsus joriy past darajali

valyuta kursi bo`yicha amalga oshiriladi. Shuningdek jixozlar, muhim xomashyo materiallari va o`rtalik buyumlari ham shu tarzda yuz bergan. Boshqa tovarlar uchun esa ancha yuqori kurs bo`yicha amalga oshirilgan. Bunda importga qo`shimcha soliq qo`yish qo`llanilgan. Ko`rinib turibdiki, import o`mini bosish siyosati valyuta nazorati asosida emas, balki yuqori samarali bo`lgan tashqi savdo harakatlarini tartiblashtirish, birinchi navbatda importni litsenziyalash, kvotalash va boj proteksionizmini qo`llash orqali amalga oshirilgan.

Bu siyosatda shuningdek, xomashyolar va pul resurslarini taqsimlash tizimlari ham qo`llanilgan. Masalan, Tayvan to`qimachilik ishlab chiqarish Kengashi to`qimachilik sanoatini zarur xomashyo va boshqa resurslar bilan ta`minlash yo`li bilan qo`llab turilgan. Bu ayniqsa AQSH yordamidagi kanallardan foydalanishga taalluqli edi.

Rivojlanish strategiyasini o`zgartirish eksport mo`ljalini kuchaytirish bilan to`g`ri keladi. Bunda boshqa shunga o`xshash mamlakatlar kabi ko`p mehnat sig`imli tarmoqlardan kapital xajmli va ilm sig`imli tarmoqlarga o`tish ham turtki bo`lgan. Aniqrog`i neft mahsulotlari narxlari ko`tarilishi tufayli ishlov berish sanoati tarmoqlarini rivojlantirish va bu bilan bog`liq bo`lgan jihozlarga talab o`sishi ro`y beradi. Ilm sig`imli va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilishini ko`paytirish ITIKI xarajatlarining o`sishi tufayli bu bilan bog`liq tashkilot, muassasalarning rivojiga olib keladi.

Tayvanda agrar islohatlar ham o`z xususiyatiga ega. Bu asosan 1949-1953 yillardagi o`zgarishlardan iborat. Industriallashtirishning boshlang`ich yillarida sanoatga qishloq xo`jaligidan resurslarning tashlanishi davlatning agrar mahsulotlarni eksport qilish asosiy hisoblangan. "Yashirin guruch solig`i", fermerlarning pul jamg`armalarini kredit-moliya tizimi sanoatga qaratish orqali amalga oshirilgan. Shu bilan birga yirik xususiy va davlat yer egaligidan ancha mahsuldor bo`lgan mayda oilaviy yer egaligi tizimiga o`tila boshladi. Bunda yirik yer egalari to`lov miqdori 2,5 yillik xosil qiymatidan oshmagan. Shu bilan birga to`lovning 70 foizi guruch bilan va 30 foizi davlat sanoat korxonalarining aksiyalari bilan qoplangan.

Amalga oshirilgan agrar islohatlar ko`p masalalarni xal qilishga qaratilgan. Bularning ichida davlat byudjetini to`ldirish, yer egaligining mahsuldor shaklini tadbiq qilish, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarilishini maydalash, qishloq xo`jaligini diversifikatsiyalash, monoekinchilikning oldini olish, agrar ishsizlikning bir muncha yumshatish kabilar mavjud.

Ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi eng og`ir muammolardan biri dasturlarni resurslar bilan ta`minlashdan iboratdir. Albatta tuzumiy o`zgarishlar va modernizatsiyani amalga oshirish davrida moliyalashtirish faqat ichki manbaalar bilan chegaralanmagan. Chet kapitalni iqtisodiy taraqqiyotga jalb etish zarur shart bo`lgan. Ichki jamg`armaning qanchalik katta bo`lishiga qaramay, ayniqsa 70-80 yillari yangi tarmoqlarga chet investitsiyasi jalb etilib, bu hozirgacha davom etadi. Yangi investitsiya nomini olgan moliyalashtirish kengaya boradi. Bu aralash tadbirkorlik, moliyalashtirishning turli xillarini qo`llash, texnologiyalarni o`tkazish xizmatlari, boshqaruv va maslahat xizmatlari, qurilish va jixozlarni o`rnatish bilan bog`liq texnik xizmatlarni tashkil etish kabilardan iborat. Chet banklar kreditlaridan foydalaniladi.

80 – yillarnng ikkinchi yarmiga kelib Tayvan dunyodagi eng boy mamlakatlardan biri hisoblana boshladi. Hozirgi vaqtda uning oltin-pul zahirasi 100 mlrd. dollardan ko`p hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiyotida davlatning o`rni va sektori davr talabiga qarab o`zgarib turgan. Industriallashtirishning dastlabki yillari Tayvanda davlat sektori sanoatda 57 foizni tashkil etib, 50 – yillardan boshlab xususiy sektorga berila boshlaydi. Aytaylik, cement, ko`mir qazish, qog`oz ishlab chiqarish korxonalari, o`rmon sanoati korxonalari qa qishloq xo`jalik korporatsiyalari shular jumlasidandir. Xususiy tadbirkorlarda kapital yetishmovchiligi va xususiylashtiriladigan korxonalar daromadi pastligi sababli davlat bularga xaridorlar topishda qiyinchiliklarga duch kelar edi. Davlat ihtiyorida temir yo`l, kemasozlik, temi rva po`lat ishlab chiqarish, kommunal sohalar saqlanib qoladi. Keyingi 20 yil ichida xususiy sektor juda tezlik bilan o`sib, davlat sektori 20 foizga tushib qoldi. So`ngra yangi po`lat quyish zavodi, eng yirik dengiz porti qurilishi bilan davlat mulki yana biroz o`sdi.

Tayvan orolidagi kichik biznesning rivojlanishi boshqa bunga o`xshash mamlakatlar uchun namuna bo`lishi mumkin. Tayvanning mayda va o`rta korxonalariga bo`lgan maxsus sharoitlariga hunar korxonalari va ishlov beruvchi hamda mahsulotni qayta ishlash korxonalarini qo`shish mumkin. Bunday o`z xususiy kapitali 40 mln. va qo`shma aktiv 120 mln. tayvan dollaridan oshmasligi va tog` qazilma sanoatida 40 mln. tayvan dollaridan kam o`z kapitaliga egalik, shuningdek, eksport-import, transport hamda boshqa tijorat firmalarida yillik aylanish 40 mln. tayvan dollari xajmida bo`lgan xususiy korxonalar mavjud. Mayda biznes va bularni qo`llash uchun tuzilgan davlat organlari o`rtasidagi barcha munosabatlar ixtiyoriy ravishda amalga oshadi.

Mayda biznes rivojini rag`batlantirishga qaratilgan Tayvan davlat faol siyosati 60 – yillarning o`rasidan boshlanadi. Bu bundan keyingi yillarda eksportni kuchaytirish bilan bog`liq xolda olib borilgan. 60-90 yillar ichida kichik va o`rta korxonalar soni xatto 98 foizgacha o`sgan va YAIM xajmining 99 foizigacha yetgan. Tayvan sanoat mahsulotlari eksportining 60 foizi kichik va o`rta korxonalariga to`g`ri kelib, o`z tushumlarining 70 foizigachasining hisobida bo`lgan.

Eksportga mo`ljallangan Tayvan mayda va o`rta korxonalarining yuqori rentabelligining siri chaqqonlik bilan bozor siyosatini qo`llay bilishi, o`zgaruvchan bozor kon'yunkturasiga tez moslasha olishi, xalqaro savdo kompaniyalari va chet importchilar bilan birga ish tutishlari kabilardadir.

Mayda va o`rta korxonalarining tashkiliy tuzumi juda oddiy bo`lib, xodimlar soni faqat boshliq va hisobchidan iborat bo`ladi. Maxsus organlar, murakkab boshqaruv tuzilmalari bo`lmaydi. Menejerlikda qisqa muataxassislikka emas, balki universalizmga asoslanadi. Mayda va o`rta korxonalaridagi ijtimoiy himoyalash katta biznesdan farqlanmaydi va ish beruvchi bilan yollanuvchilar o`rtasidagi munosabatlar qonuniylik asosida olib boriladi.

Yuzaga keladigan kichik biznesdagi qiyinchiliklarni xal qilish bilan maxsus tuzilgan mayda va o`rta biznes boshqarmasi shug`ullanadi. Bunda tez-tez maslahatlar berish, maslahatchilarni taklif etish, seminarlar o`tkazish, tajribalar almashish kabilar ham qo`llaniladi. Ayniqsa, yosh ish boshlovchi tadbirkorlarga yordam qilishi

diqqatga sazovordir. Bular uchun aloqada yoshlar komissiyasi tuzilgan. Keng miqyosda bularga moliyaviy yordam uyushtirilgan. Bunga qaratilgan maxsus kichik biznes banki ta'sis etilgan. Xattoki mayda va o'rta biznesning kredit – kafolat fondi tashkil etilgan.

Bundagi xususiyat yana shundan iboratki, ko'pchilik mayda biznesda oilaviylik hukmronlik qilib, bunday korxonada boshida oila boshlig'i turadi va qarindoshchilik munosabatlari kuchga ega bo'ladi.

10.5. “Yo'lbarslar”da bozor munosabatlarining iqtisodiy rivojga ta'siri

Iqtisodiy taraqqiyotda yuqorida ko'rib o'tgan “Ajdaholar” deb ataluvchi to'rt rivojlangan yangi industrial mamlakatlardan keyingi Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bo'lib, bular: Indoneziya, Malayziya, Filippin va Tailanddir. Bular ham o'zlarining keyingi bir necha o'n yilliklar ichida iqtisodiy rivojlanishi va bundagi doimiylik bilan diqqatga sazovordir. Bundagi iqtisodiy o'sish jarayonlarida ham umumiylik, shu bilan birga xususiylik tomonlar ko'pdir. Bundagi umumiylik xususiyati sanoat ishlab chiqarishning to'xtovsiz o'sishi, iqtisodiyotning ilmiy sig'imli, eksportbop mahsulotlar yaratishga qaratilishi, shu bilan birga bunday mahsulotlarga tashqi bozorlarda yetarli darajada talab mavjudligidir.

Bundan tashqari iqtisodiyotning ochiqligi va chet mamlakatlar qatnashuviga erkinlik tug'dirilishi va ular bilan keng xajmda aloqada bo'lish imkoniyatlari mavjudligi ahamiyatlidir. Xalqaro iqtisodiyot bilan tanish bo'lishlik, kon'yukturadan xabardorlik, o'z tijorati uchun zarur chet sheriklar bilan aloqa o'rnatish, birgalikda tadbirkorlik faoliyatida samarali ishtirok etish imkoniyatlari mavjudligi, samarali agrar islohatlarning amalga oshirilishi, milliy ta'limning muntazam ravishda taraqqiy etishi va iqtisodiy rivojga kadrlar yetishtirish tizimini uyushtirish va boshqa shu kabi omillar bu mamlakatlarni ham doimo oldinga qarab tezlik bilan harakat qilish sharoitini tug'dirib rivojlangan mamlakatlarga yetib olish uchun harakat qilish imkonini tug'dirmoqda.

**Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi iqtisodiy
rivojlanish ko`rsatkichlari**

Iqtisodiy ko`rsatkichlari	Indoneziya	Filippin	Tailand	Malayziya
YAIM: 1995-1996 y., %	7,2	5,6	8,6	9,2
YAIM aholi jon boshiga, 1993 y., AQSH doll.	7,1	6,2	8,5	8,3
Aholi, mln.	740	850	2110	3140
Savodsizlik, %	187,2	64,8	58,1	19,0
Inflyatsiya 1980-1993 y., %	23	10	7	22
Sanoat hissasi, % YAIMda 1995 y.	8,5	13,6	4,3	2,2
Qishloq xo`jaligi YAIMda, 1995 y.	15	30	40	42
Xizmat ko`rsatish sohalari, YAIMda 1995 y.	16	21	11	12
	40	42	48	40

Jadval raqamlaridan ko`rinib turibdiki, bular ichida eng yirik mamlakat Indoneziya, uning ketidan deyarli bir xil Filippin va Tailanddir. Aholisi kami Malayziya, lekin iqtisodiy taraqqiyot darajasi Malayziyada eng yuqori va Indoneziya hamda Filippin bir-biriga yaqin, nisbatan orqada hisoblanadi. Lekin umuman rivojlangan Osiyo mamlakatlariga nisbatan rivojlanish darajasining farqi katta. Bu ayniqsa YAIMning aholi jon boshiga to`g`ri kelishiga taalluqlidir. Lekin iqtisodiy o`sinh darajasi bo`yicha ko`rsatkichlar yomon emas va erishilgan daraja ham diqqatga sazovor hamda bu sohada katta muvaffaqiyatlarga erishilgan.

Bu mamlakatlarda uchun tuzumiy o`zgarishlar kattaligi tavsiflidir. Ayniqsa qishloq xo`jaligining YAIMdagi hissasini kamayishi, xizmat ko`rsatish tarmoqlarining tezlik bilan o`sishi ko`zga tashlanadi. Eng muhimi yuqori texnikali va ilm sig`imli tarmoqlarning paydo bo`lishi va hissasining ortib borishi e`tiborlidir. Bularda ham ish kuchiga e`tibor va buning uchun ta`lim sohalarning rivoji, bu tarmoqlarga xarajatlarning ortib borishi ijobiy xolatdir. Eng muhimi industriallashtirish darajasining tezlashuvi va bunga xos ishlarning amalga oshuvidir.

Bu mamlakatlarda qarzli sarmoyalarning keng jalb etilishi hamda chet investitsiyasidan katta foydalanish albatta balans yetishmovchiligi va bu bilan

bogʻlangan muammolarning mavjudligini yuzaga keltiradi. Shuning uchun iqtisodiy faoliyatda inqiroz xolatlariga duch kelib, uni xal qilib borish ahamiyatlidir. Bu ayniqsa, eng yirik boʻlgan Indoneziyada sezilarlidir. Xatto bu mamlakatda, shuningdek Filippinda siyosiy inqirozga ham olib kelgan. 70 – yillar oʻrtasidagi Sharqiy va Janubiy-Sharqiy mamlakatlarida yuz bergan keng xajmli moliya inqirozi juda taʼsirli boʻlgan.

Osiyoda ancha taraqqiy topgan Malayziyada ham 1998 – yili hech kutilmagan ogʻir inqiroz xolati yuz bergan. Bu toʻla xajmli iqtisodiy inqirozga aylanib, siyosiy inqirozni yuzaga keltirgan. Natijada davlat va xususiy investitsiyaning pasayishi, ichki ishlab chiqarish va talabning pasayishi, shuningdek tashqi bozorda elektron va elektrotexnik sanoati mahsulotlariga talabning qisqarishiga olib kelgan, Malayziya eksportining 80 va 67 foizini tashkil etgan. Bu valyuta siyosatining kuchayishi va dollarga nisbatan milliy valyutaning belgilangan kursi qoʻllanilishiga olib kelgan.

Bu inqiroz Tailandga nisbatan kam taʼsir koʻrsatgan va bu sohadagi koʻrilgan tadbirlar mamlakatda samaraliroq boʻlgan.

Davlat sektori harakatini olsak, bu Filippinda 70-80 yillar ichida 10 barobar koʻpaygan. Bu asosan zarar bilan ishlovchi korxonalarni sotib olish hisobiga boʻlgan. Hozir davlat sektorida koʻmir qazish, kemasozlik, poʻlat quyish, toʻqimachilik, qand, qurilish, mehmonxona tarmoqlari mavjud.

Indoneziyada ham davlat sektori keng xajmlidir. Agar 50-yillarda faqat ikkita korxonada davlat ihtiyorida boʻlsa, 90-yillarga kelib 200 taga yetgan. Asosan neftni qayta ishlash, neft-kimyoy, oʻgʻitlar ishlab chiqarish, poʻlat, alyuminiy, cement, asosiy kimyo tovarlari, kemasozlik tarmoqlari mavjud.

Sharqiy-Janubiy Osiyo mamlakatlarida davlatning asosiy taʼsiri koʻproq tuzumiy oʻzgarishlarda ishtirok etish, korxonalar yoʻnalishini aniqlash va ularni oʻzgarishda qatnashuv, ortiqcha quvvatlarni yoʻq qilishga qartiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bu mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarining muhim tarkibiy qismi hisoblangani radikal agrar islohatlardir. Anʼanaviy yer munosabatlarining oʻzgarishi irrigatsiya ishlarini keng xajmda olib borish, bu bilan unumdorlikni koʻtarish, qishloq xoʻjaligi infratuzilmasini

yaxshilash, agrokompleksning qismlarini yaxshilash ishlarini olib borish imkonini beradi. Bular esa o`zidan-o`zi iqtisodiy o`sinh omillariga aylanishi, shuningdek ichki jamg`arilishlarning qo`shimcha manbaiga aylanishi va sanoatning ham o`sinh manbaiga aylanishini belgilaydi. Industrlashtirish uchun qishloq xo`jaligi hisobidan sarmoyalarning jamg`arilishida 1949-1952 yillardagi Janubiy Korea Respublikasida o`tkazilgan islohatlar, 1949-1953 yillarda Tayvanda o`tkazilgan agrar islohatlar bilan rag`batlantirilgan edi.

Tashqi savdoda rivojlangan mamlakatlar bozoriga chiqish ahamiyatlidir. Shu bilan birga bu mamlakatlarning Janubiy Korea bozorlariga mahsulot chiqarishni ko`paytirish ikki tomonlama foydalidir. Chunki rivojlangan mamlakatlarning Janubiy Korea kabi mamlakatlarga nisbatan proteksionizm siyosatini qo`llash umumiy rivojlanishga salbiy ta`sir etadi.

Singapur davlatining esa o`ziga xos tomoni boshqalarga nisbatan tartibning yuqori darajadagidir.

Sharqiy-Janubiy Osiyo mamlakatlarida davlatning asosiy ta`siri ko`proq tuzumiy o`zgarishlarda ishtirok etish, korxonalar yo`nalishini aniqlash va ularni o`zgarishda qatnashuv, ortiqcha quvvatlarni yo`q qilishga qartilgandir.

Takrorlash uchun savollar

1. Yangi industrial mamlakatlar qanday mamlakatlar va ularning asosiy iqtisodiy xususiyatlari nimalardan iborat?

2. "Osiyo Ajdaholari"ga qaysi mamlakatlar kiradi va asosiy iqtisodiy mavqelari nimalar bilan belgilanadi?

3. "Osiyo Yo`lbarzlari"ga qaysi mamlakatlar kiradi va asosiy xususiyatlari nimalar bilan belgilanadi?

4. Yangi industrial iqtisodiy "mo`jizalarida" bozor munosabatlarining ahamiyati nimalardan iborat?

5. Bu mamlakatlar bozor iqtisodiyoti rivojida milliy madaniyat, urf-odat va mentalitetning o`rni nimalar bilan ifodalanadi?

7. Tez iqtisodiy rivojda davlatlar o`rnini aytib bering.

8. Mamlakatlar iqtisodiy rivojida moliyaviy markaz va eksportning ahamiyatini tushuntiring.

9. Yangi industrial mamlakatlarga jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siri xaqida nimalarni bilasiz?

10. Ushbu mamlakatlarning jahon moliyaviy - iqtisodiy inqiroziga qarshi yo`naltirilgan chora-tadbirlari nimalardan iborat?

11-BOB. XITOIDA BOZOR MUNOSABATLARI ISLOHOTLARI TAJRIBASI

11.1. Xitoy iqtisodiyoti to`g`risida umumiy ma'lumotlar

Xitoy dunyoda eng aholisi ko`p katta mamlakatdir. Hozirga kelib aholisi soni 1,3 mlrd.ga yetgan. Keyingi 50 yil ichida 700 mln. odam qo`shilib, o`shish 2,3 barobarga to`g`ri kelgan. XXRning keyingi 20 yillar ichidagi iqtisodiy o`shishi hammani xayratda qoldirib, jahon iqtisodiyot tarixida eng muhim voqealardan hisoblanadi. YAIM o`shishi juda yuqori bo`lib, bu sohada eng oldingi mamlakatga aylandi. Keyingi islohatlar natijasida dinamik ravishda rivojlanayotgan mamlakatlarga aylandi.

Lekin faqat aholining 20 foizi shaharlarga to`g`ri keladi va 90 foiz aholi Sharqiy tomonda istiqomat qiladi. yerining 7 foizigina dehqonchilikka mos xolos. Iqtisodiy rivojlanishda sanoat ishlab chiqarishi asos bo`lib, ko`p xil mahsulotlar

Xitoyliklar o`z davlatini "Chjungo" deb atashadi, xitoy tilidan tarjima qilganda "Markaziy davlat" - degan ma'noni anglatadi. Qadimiy Xitoy axolisi o`z vatanini butun olamni markazi deb xisoblashgan. Xitoyliklar o`zini "xan" deb atashadi, qadimiy Xan sulolasi avlodi deb bilishadi.

Xitoy quruqlikning 7%ini egallovchi dunyoning yirik davlatlaridan biridir. Sharqdan qarbga uzunligi 5700 km, shimoldan janubga 3650 km, quruqlik chegarasining uzunligi 21500 km, dengiz bilan chegarasining uzunligi 15000 km. Mamlakatning umumiy maydoni 9.596.960 km².

Xitoy quruqlikda shimoli-sharq va shimoli-g`arbda Rossiya bilan, shimolda Mongoliya bilan, shimoli-sharqda KXDR bilan, shimoli-g`arbda Qozog`iston va Qirg`iziston bilan, g`arbda Pokiston, Tojikiston, Afg`oniston bilan, janubi-g`arb va janubda Xindiston bilan, janubda Myanma, Vetnam, Butan, Nepal, Laos bilan chegaradosh.

Xitoy soxillari sharqda Sariq dengiz va Sharqiy Xitoy dengizi, janubda Janubiy Xitoy dengizi suvlari bilan yuvilib turadi. Orollar bilan birgalikda soxil bo`yining uzunligi 18000 km.dan ortiq.

Xitoy janubida ikkita aloxida ma'muriy rayonlari - 150 ildan ortiq Buyuk Britaniya mustamlakasi bo`lgan Syangan (Gonkong), 1557 ildan Portugaliyaning sobiq mustamlakasi bo`lgan Aomin (Makao) joylashgan. Shartnomaga muvofiq 50 ыл mobaynida ular Xitoy tarkibida "bir mamlakat - ikki tizim" tamoili asosida mustaqil iqtisodiyotni yuritishadi.

Tayvan oroli (maydoni 36 000 km², axolisi 22 mln.kishi) - Xitoy provinsiyasi bo`lib materikdan kengligi 150 km bo`lgan bo`g`oz bilan ajralgan. Amalda bu "yangi sanoatlashgan mamlakat" rivojlangan iqtisodga

bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi. Ko'mir, po'lat, uement, g'alla, go'sht, paxta ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda eng oldingi o'rinni hamda neft, elektroenergiya xajmi bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. Yillik YAIM bo'yicha 90 – yillar o'rtasidan boshlab dunyoda uchinchi o'rinda turadi. 2005 yilga kelib AQSHga tenglashuvi kerak.

Xitoyni eng istiqbolli bozor deb hisoblaydilar va u 300 mlrd. dollarni tashkil etadi. Chet investitsiyasi bo'yicha AQSHdan keyingi o'rinda turadi va 90 – yillar o'rtasida u ishlab chiqarilgan mahsulotning 19 foiziga to'g'ri keladi va bandlikda 17 mln. kishidan iborat. Yillik tashqi savdo aylanmasi 90- yillarda 16-17 foizga yetib, Xitoyni bu sohada eng yetakchi mamlakatlar qatoriga qo'shdi. Lekin aholi jon boshiga hisoblaganda Xali Xitoy rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ancha orqada va mehnat unumdorligi darajasi ham past.

Xitoy hukumati 2009 yilda mamlakatdagi iqtisodiy o'sish 8.7 foiz bo'lganini e'lon qildi. Ushbu ko'rsatkich bilan Xitoy Yaponiyadan o'zib ketdi va jahonda iqtisodi yirik davlatlar orasida AQSHdan so'ng ikkinchi o'rinni egalladi. Xitoy Milliy statistika byurosiga ko'ra, 2009 yilning so'nggi choragida mamlakatda yalpi ichki mahsulot ko'lami 10.7 foizga o'sgan. Bu esa, o'z navbatida, global moliyaviy bo'hron davomida Xitoy hukumati tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlarning samarali bo'lganini namoyish qilgan.

XITOIY MO'JIZASI

Xitoy iqtisodiyoti o'sishida eng ko'zga tashlanadigan tomoni YAIM

o'sishining tezligidir. U iqtisodiy islohat davrida 1978-1997 yillar ichida 5,7 barobar o'sgan bo'lib, bu yiliga 9,6 foizga to'g'ri keladi. Aholi jon boshiga olinsa, ishlab chiqarish 4,4 barobar, mehnat unumdorligi (YAIM har ishlovchiga nisbatan) – 3,5 barobar o'sgan. O'sish tezligini olsak, yiliga 5-7 foizga to'g'ri keladi. Natijada aytilgan davr ichida Xitoy iqtisodiy salohiyati 2,5-3,5 marta o'sgan.

Taqqoslasak, 1978-yili Xitoy YAIM Rossiyaga nisbatan 23% kam bo'lgan bo'lsa, 1997-yilda 6,2 barobar ko'p bo'lgan. YAIMni jon boshiga olinsa 1978-yili Rossiyanikiga nisbatan 11%, 1990-yili 23%, 1997-yili 75% ga yetgan.

Xitoy tarmoqlar tuzumida qishloq xo'jaligi yetakchilik qiladi. Keyin sanoat va xizmat ko'rstaish sohalari to'ri keladi. Keyingi yillarda bunda ham o'zgarishlar yuz bermoqda. Agrar sektorda bandlik 1978 – yili 71 foiz bo'lsa, 1995 – yili 59 foiz bo'lgan. Sanoat va qurilishda esa 12 va 23 foiz, ko'rinib turibdiki eng ko'p o'sish

xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi. Lekin sanoat va qurilishda ham o'sish kam bo'lmagan. Natijada qishloq xo'jaligidagi bandlik 12 foizga pasaygan.

Hozirgi vaqtda Xitoy qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli bo'lib, dehqonchilik bilan bir qatorda sanoat, savdo, transport, xizmat ko'rsatishlar ham qo'shib ketgan. Dehqonchilikni olsak, bu ham monokultura o'rniga ziroatchilikning ko'p tarmoqliligiga o'tgan.

Ilgari asosan g'allachilik bo'lsa, keyingi vaqtlarda g'alla, texnik ekinlar va boshqa xillari mavjud. Ziroatchilik, chorvachilik, o'rmonchilik, baliq xo'jaliklarini qo'shib katta qishloq xo'jaligi tarkibiga aylanib ketgan.

Bu katta qishloq xo'jaligida hozirda noagrар qism 80 foizga yetib qoldi. Noqishloq xo'jaligi tarmoqlari juda tezlik bilan o'sib bormoqda va yillik o'sish xatto 34 foizga yetdi. Xitoy qishloq iqtisodining rivojida bular muhim bo'lib, asosan volost-poselok korxonalariga kiradi. Hozir bu korxonalar strategik yo'nalish hisoblanadi. Xatto buni xalq xo'jaligi va qishloq iqtisodi ravnaqi deb belgilangan.

Keyingi yillarda qishloq sanoat iste'mol tovarlari yetkazib berish bilan

chegaralanmasdan energiya beruvchi, sanoat qismlari yetishtiruvchi kimyo o'g'itlari, kimyoviy zaxar moddalar, ishlab chiqarib, qishloq xo'jaligini ta'minlamoqda. Buning hissasiga ipak va trikotaj buyumlari yetishtirishning 50 foizi, g'ishtning 95 foizi, mayda

Agrar sohadagi islohotlar kutilganidan ziyoda muvaffaqiyat keltirdi. Agar 1978 yilga qadar g'alla hosildorligi yiliga 2,1 foizga oshib kelgan bo'lsa, undan keyin bu ko'rsatkich karyib besh foizga etdi. 1978-84 yillar davomida qishloq xo'jaligidagi yutuqlarning to'satdan uch qismi islohotlar tufayli erishilgan bo'lsa, uning bir qismi erga ishlov berishdagi yangiliklar hisobiga qo'lga kiritildi. Xitoyning yangicha yo'li etti yilda nainki - mamlakat aholisini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'la ta'minlash, balki, chet ellarga ham eksport qilish imkonini yaratdi. Hozirgi paytda bu mamlakat g'alla, paxta, sholi, raps, tamaki, go'sht, tuxum, dengiz mahsulotlari va ko'katlari etishtirish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. Masalan, 1992 yil 443 million tonna g'alla, 5 million tonnagacha paxta etishtirildi. 2002 yildan boshlab g'alla tayyorlash salmog'i 486 million tonnadan ortdi.

qishloq xo'jaligi asboblari va cherapiuqalarning 90 foizi, charm poyabzalining 35 foizi, uement va ko'mirning 40 foizi to'g'ri keladi. Bu korxonalar katta eksport salohiyatiga ham ega. Masalan, 40 foiz ishlab chiqarilgan poyabzal tashqi savdoda sotiladi. Faqat AQSHning o'ziga yiliga 700 mln. juftdan ortiq pofafzal eksport etiladi, bu esa AQSH poyabzal importining yarmini tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligidagi bunday o'zgarishlar bir qancha muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu ayniqsa g'allachilikka ko'p ta'sir etmoqda. Noqishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning o'sib borishi baho erkinligi sharoitida, dehqonlarning daromadli tarmoqlarni tanlash erkinligi tug'iladi. Bu esa foyda yuqori tarmoqlarga resurslar ko'chishiga olib kelib, bevosita qishloq xo'jaligining o'ziga salbiy ta'sir etmoqda. Kapitalning qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoqqa siljishi yuz bermoqda. Keyingi bir necha yil ichida bunday siljish 40 mlrd yuanga yetmoqda.

Shu bilan birga qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab bilan mavjud qishloq xo'jalik tuzumi o'rtasidagi ziddiyatning o'sishiga olib kelmoqda. Past Navli g'allaga talab kamayib yuqori sifatli bo'lgan bug'doy, guruchga talab o'sioqda. Bu va bunday xolat qishloq xo'jalik tuzumiy shaklining o'zgarishini talab etmoqda.

Sanoatda bevosita davlat sektori ustunlik qiladi. Davlat sektorida 15,7 ming yirik va o'rta korxonalar mavjud. Bular 44,5 foiz mulkni tashkil etib, barcha sanoat korxonalarining 43 foiz foydasini bergan. Davlatning sanoat sektori davlatning 60 foiz moliyaviy daromadini bergan va bularda shahar ishchi va xizmatchilari bandligining 2/3 qismi to'g'ri keladi.

Sanoatda bevosita iste'mol bilan bog'langan tarmqlar tezroq rivojlanmoqda. Aytaylik, yonilg'i-xomashyo tarmoqlari, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy texnik tarmoqlar o'zaro bog'liqligi natijasidagi infratuzilmalar shular jumlasidandir.

90 – yillarga kelib to'qimachilik, poyabzal, maishiy texnikaga qaratilgan strategik iqtisodiy o'sish o'zgarmoqda. Industrial rivojlanish, mashinasozlik, elektronika, avtomobilsozlik, neftkimyo, qurilishlarga qaratilmoqda. Masalan, avtomobilsozlik umuman og'ir sanoat ichida ustunlik bilan o'sib, yaqin 10-15 yil ichida jahon talabiga mos avtomobillar ishlab chiqarish darajasida, Xitoyni umumiy avtomobillashtirish vazifasi qo'yilgan.

Ilg'or va yuqori texnologiyaga aloxida e'tibor berilib, buning uchun maxsus dalvat dasturi amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga an'anaviy tarmoqlarni ham esdan chiqarmayotir. Buni po'lat ishlab chiqarishda ko'rish mumkin va tarmoq bo'yicha Xitoy jahonda birinchi o'ringa chiqdi.

Xitoy iqtisodiy rivojida xizmat sohasining o`rni ham o`sib bormoqda. Avvalo bu savdo rivojida o`z aksini topmoqda. Kooperativ va xususiy savdo tarmoqlari kengaymoqda. Oziq-ovqat bozorlari Xitoy aholisi hayotida o`ziga yarasha o`rin egallamoqda. Chakana tovar aylanishi keyingi 25 yil ichida 9 marta o`sdi, shuning ichida chakana savdoda 26 martadan ortiqroq ko`paydi. Noishlab chiqarishga qaratilgan dalvat xarajatlari ham o`sib bormoqda. Keyingi 15 yilda ayniqsa bu tezlashdi. Davlatning ijtimoiy maqsadlarga qaratilgan xarajatlari harbiy xarajatlardan ustun keladi.

Xitoy iqtisodiga an'anaviy ravishda moliyaviy sohasining xalqaro standartlarga mos kelmasligi ma'lum. Lekin keyingi yillarda bu sohada ham o`zgarishlar yuz bermoqda. 90 – yillarda Xitoy fond bozori o`zining Shanxay va Shenchjendagi asosiy birjalari bilan o`zini ko`rsata boshladi. Trast investitsiya kompaniyalari, investision fondlar, maxsus davlat banklarining tijorat banklariga aylanishi kabilar yuzaga kelmoqda. Yangi xil kredit-pul xarakterlari kiritilmoqda. Qimmatbaho qog`ozlar savdosi avj olmoqda. Keyingi yillarda buning xamji 5-6 barobarga o`sgan. Tashqi savdoda yirik ijobiy saldogaga ega. Masalan, 1997 yilda bu 40 mlrd. dollarga teng bo`lgan. Oltin valyuta zahirasi ham katta. Bu Xitoyda 140 mlrd. dollar va Syanganda 100 mlrd. dollarga teng.

Xitoy maxsus sotsializm modeli iqtisodiy taraqqiyot yo`nalishini belgilaydi. Bunda Xitoy sotsiolizmining boshlang`ich bosqichi ekanligi ko`rsatilib, davlat asosligi va bevosita xususiylashtirish inkor qilinadi. Rejalashtirish bozor mexanizmlari bilan mos kelishi tan olinadi. Makro daraja davlat qo`lida va mikro daraja bozor ihtiyoridaligi e`tiborga olinadi. Mehnatga taqsimlash asos bo`lib, kapital bo`yicha taqsimot qo`shimcha hisoblanadi. Bu Xitoy sotsiolizmining asosiy tamoyili deb tan olinadi. Tarmoqlar ustuvorligi qishloq xo`jaligi, yengil sanoat – og`ir sanoat tizimida belgilanadi. Tashqi dunyoga nisbatan ochiqlik siyosatida ketma-ketlikni amalga oshirish ko`zda tutilgan. Umuman hozirgi Xitoycha sotsiolizm modeli “sotsiolistik rejani tovar iqtisodiyotidan sotsiolistik bozor iqtisodiyotiga” o`sib o`tdi.

Xitoy iqtisodiyoti u`tkilik xususiyatga ega bo`lib, vaqti-vaqti bilan salbiy oqibatlarga duch kelib turadi. Ya`ni, yuksalish-pasayish bilan o`rin almashtirib turadi.

Bu inflyatsiyaning o`zini bildirib turishi, narx-navoning ko`tarilish sharoitlari bilan o`rin almashtirib turiladi. Bu asosan o`shishning qizib ketishiga olib ketishi sababi orqali yuz beradi. Davlatning bunga ta'sir etishi iqtisodiy o`shishning pasayishi bilan o`rin almashadi. Masalan, 1988 – yili iqtisodiy o`shish yuqori darajadiligida shunday xolat yuz beradi, ya'ni YAIM o`shishi 11,3 foiz bo`lgan xolda inflyatsiya darajasi 18,5 foizga yetadi. Hukumatning narxlarni pasaytirib inflyatsiya oldini olish harakatlari inflyatsiyani 2,1 foizga tushiradi, biroq iqtisodiy o`shish darajasi 3,8 foizga pasayadi.

1992 – yilda ham iqtisodiy o`shish 14,2 foiz bo`lganda inflyatsiya 21,7 foiz bo`lgan. Hukumat asta-sekinlik bilan harakat qilib, inflyatsiya uzoqroq davom etib, o`shish pasayishi birdan bo`lmay bu ham sekinlik bilan davom etdi. Shunday xolat 1997-1998 yillarda ham yuz berib iqtisodiy o`shishni 7 foizgacha saqlashga erishilgan.

Bunday uqklik xolatni makro va mikro darajada ko`rish mumkin. Mikro darajada bu davlat korxonalarining islohat darajasidan orqada qolishi va bozor o`zgarishlarining oldinga ketishi bilan bog`langandir. Islohat davrida davlat resurslarning to`g`ridan-to`g`ri taqsimlanishini pul oqimini tartiblashtirish orqali amalga oshira boshlagan va davlat korxonalariga ko`p qo`shimcha huquqlar berilgan. Amalda esa ular mustaqil bo`la olmagan. Ularning mahsulotlari ko`pincha bozorda xaridorlarga ega emas. Ishlab chiqarishni to`xtatib bo`lmaydi. Chunki bu ishsizlik va mahalliy byudjetlarga tushum bo`lmasligi bilan bog`liqdir. Bank kreditlari safarbar etilib, og`ir ahvoldan chiqishga harakat qilinadi. Bu investitsiyaga ham ta'sir etadi. Makro darajada esa guruhviy manfaatdorlik monetar hokimiyatlarning yumshoq pul siyosatini o`tkazishga undaydi. Korxonalarining ehtiyojlarini qondirish shartlari bo`lib emissiya hisoblanadi.

Pul massasining ko`payishi albatta inflyatsiya bilan bog`liqdir. Pul siyosatining kuchayishiga korxonalar to`lamlaslik, qarzlarning ko`payishi bilan javob beradi. Natijada daromadning ancha qismi byudjetning taqsimot mexanizmida qatnashmay boshqaruv tizimining pastki qatlamlarida qolib ketadi. Bu korxonalarining investitsiyaga bo`lgan talabini to`xtovsiz ortib borishi va aholining iste'mol talabining o`shib borishiga olib keladi. Daromadning tez o`shib borishi uning

iste'mol xarajatlarini ko'paytirish bilan birga, jamg'armani ham davom ettirish imkonini berib, banklarning kreditlarni davom ettirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytish mumkin, Xitoydagi makroiqtisodiy uiklni shunday tushunish mumkin: iqtisodiy o'sishni saqlash, qo'shimcha ish joylari yaratish, tarmoqlar va regional darajadagi guruhvi manfaatlar siquvi natijasida davlat pul siyosatini birlashtiradi. Bu maxalliy hokimiyatlar va korxonalar xo'jalik faoliyatining kuchayishiga olib keladi. Mamlakatda gipertrofik investitsiya yuz beradi va yuqori darajali o'sish bilan birga inflyatsiya kuchayadi. Inflyatsiya ijtimoiy chegaradan o'tishi bilan davlat pul siyosatini kuchaytiradi va kapital xarajatlar ustidan nazoratni qat'iyashtiradi bu esa iqtisodiy o'sishni pasaytiradi.

11.2. Bozor munosabatlariga qaratilgan islohatlar

XXR keyingi 20 yil ichidagi iqtisodiy o'sishlari – bu sohadagi islohatlar natijasidir. Islohatlarning asosiy yo'nalishi va mazmuni bozor munosabatlariga o'tish, uning mexanizmi va vositalaridan foydalanishdir. Islohat tizimli o'zgarish bo'lib, uning eng tavsifli tomoni asta-sekinlik, qadam-baqadamlikdir. Bunda hech “xushdan ketadigan terapiya” usuliga yo'l qo'yilmaslikka harakat qilinadi. O'zgarishlardagi barcha tomonlarga, aytaylik, iqtisodiyotning institusional tuzilmalarini o'zgartirish, baho mexanizmi, tashqi iqtisodiy tartiblashtirish kabilar evolyutsiya yo'li bilan muxlatni cho'zish, oraliq xosil qilib borish orqali bajariladi.

Rivojlangan bozor iqtisodiga xos xo'jalik tashkiliy shakllari namuna sifatida qo'llanilib, birdaniga emas, balki sekinlik bilan tadbiiq etiladi va avvalo sinovdan o'tkaziladi, tajriba qilib ko'riladi. So'ngra xo'jaliklarda tadbiiq qilib ko'riladi. Avvalo aloxida xududda, tarmoqda sinovdan o'tadi. Shu bilan birga turli o'tish shakllari qo'llaniladi. Basharti muvaffaqiyatli bo'lmasa orqaga qaytiladi. Agar qaysi bir xo'jalik yangilik mokroiqtisodiyotga ta'sir etsa yoki ijtimoiy vaziyatni buzsa, albatta eski usulga o'tiladi.

Bunday sekinlik va ehtiyotkorlik bozor usullarini qo'llash doimo yumshoqlik bilan olib boriladi degan tushunchani bermaydi. Aksincha vaqti kelganda Xitoy rahbariyati islohatni amalga oshirishda qattiq qo'llik qilib, vaziyatni kuchaytirib ham

turadi. Ayniqsa Xitoyda “tartiblashtirish” amaliyoti inflyatsiyaga qarshi stabillashtirish siyosati bu sohada misol bo`lishi mumkin. Bu vaqtda byudjet va pul siyosati qattiq qo`llanilib, iste`mol va investitsiya talablarini chegaralab, tashqi iqtisodiy sohada cheklanish siyosatlarini qo`llashga olib keladi. Siyosat sohasida hech qanday cheklanishlarga yo`l qo`yilmaydi. Aksincha kuchli davlat tizimi uchun harakat qilinib, bu iqtisodiy islohatlarning kafilligi deb bilinadi. Ana`aviy sobiq sotsialistik mamlakatlarga xos siyosiy va g`oyaviy nazorat hozirgi XXR rahbariyatiga qo`l kelib, iqtisodiy islohatlarda ko`pchilikka ma`qul kelmaydigan nazorat usullari ishlatiladi, qaysiki demokratik siyosiy tizim sharoitida ommaviy norozilikka olib kelishi mumkin.

Bunda o`tkazilayotgan tadbirlarni g`oyaviy tayyorgarlik asosida olib borilishi ahamiyatlidir. G`oyaviy tayyorgarlik yangiliklarni ruhiy yangilik bilan o`tishini ta`minlaydi. Shunday qilib, bozor qadriyatlarini davlat g`oyasiga singdirilib, aholining asosiy qismi uchun ma`qul va odatiy tusga kirib bormoqda.

Islohatlarni g`oyaviy ta`minlash takomillashib boradi. Aytaylik, asta-sekinlik sotsialistik mazmun emas, balki vatanparvarlik oldinga suriladi. Aholiga Xitoy iqtisodiyoti kuchliligi g`ururi, xalqaro iqtisodiyotdagi o`rni kabilar singdirilib boradi. Iqtisodiy rivojlanish davrida milliy birlik, ijtimoiy-siyosiy muntazamlilik g`ururi singdiriladi.

Xitoy xalqining ko`pchilik

asosiy qismi qishloqlarda joylashgani va qishloq xo`jaligi iqtisodiyotida asosiy o`rin egallashi albatta iqtisodiy islohatga ta`sir etib, uni oldinga suradi. Qishloqlardagi islohat asosan qishloq xo`jaligi jamoalashtirilishini o`zgartirishdan boshlanadi. Qishloqda ishlab chiqarish munosabatlarining o`zgarishi shunchalik tez amalga oshadiki, bu ijobiylikni bildiradi. Bunda oilaviy ijarasi asos qilinib, yer uchaskalari

Xitoy mamlakatimizning ishonchli hamkorlaridandir. Mamlakatlarimiz o`rtasidagi o`zaro tovar ayirboshlash hajmi 2006 yilda qariyb 698 million AQSh dollarini, 2007 yilning yanvar-may oylarida esa 2006 yilning shu davridagiga nisbatan 92 foiz oshib, 300,76 million AQSh dollarini tashkil etgan.

O`zbekistondan Xitoyga energiya resurslari, neft va neft kimyosi mahsulotlari, paxta tolasi, ipak, o`g`it, meva-sabzavot kabi mahsulotlar eksport qilinadi. Xitoydan esa mamlakatimizga mexanik va elektron uskunalari, optik apparatlar, dori-darmon, to`qimachilik, oziq-ovqat mahsulotlari, plastmassa va plastmassa buyumlar, rangli va qora metallar, yog`och va yog`ochdan tayyorlangan mahsulotlar import qilinadi

dehqon xovlilariga taqsimlanadi. Dehqonlar belgilangan miqdordagi xosilni qattiq baho asosida davlatga sotishi va qolganini o'z ihtiyorlari bo'yicha ishlatishi mumkin bo'ladi. Avvalo yer ijara muxlati 3-5 yil bo'lsa, so'ngra 15 yilga cho'ziladi. Agar 1980 – yilda oilaviy pudrat tizimi dehqon xo'jaliklarining 20 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1983 – yili 94,2 va 1984 – yili esa 96,5 foizga yetadi.

Islohatning birinchi 6 yili ichidayoq yig'ilgan xosil 304,8 dan 407,3 mln. tonnaga yetdi. 80 – yillar o'rtasiga kelib, qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorida mutanosiblik yuzaga kelib, oziq-ovqat yetishmovchiligi o'z dolzarbligini yo'qotadi. Agar 80 – yillar boshida Xitoy xalqining 1/4 qismi ochlikka duch kelib, qashshoqlik chegarasidan yashagan bo'lsa, 80 – yillarning 2-yarmida aholining oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan minimal ta'minlash qishloqda 95 foiz va shaharda to'la amalga oshirilgan edi.

Agrar islohatlarning muvaffaqiyatli borishi industrlashtirishning yangi mexanizmini harakatga keltiradi. Bu bevosita qishloq joylarda viloyat korxonalarining tashkil etilishi edi. Katta bo'lmagan sanoat korxonalari va xizmat ko'rsatish korxonalari islohatdan oldin ham bor edi hamda bular davlat tomonidan o'tkaziladigan ba'zi joylarda o'zini ta'minlash siyosatining tarkibiy qismiga kirar edi. Lekin islohat yillari bu korxonalarining vazifalari tubdan o'zgaradi. Avvalo bu ishsizlarga taalluqli bo'lib, Xitoy qishloq joylaridagi ortiqcha ish kuchi muammosi bilan bog'liq edi. Islohat vaqtida esa bu muammo ancha zo'raydi. Chunki tovar-pul munosabatlarining intensiv o'sishi va jadallik bilan tabaqalashishning kuchayishi qishloq joylardagi ishsizlikni avjiga chiqarib yubordi. 80 – yillar o'rtasiga kelib bularning soni 250 mln.ga yetdi.

Viloyat va qishloq korxonalari soni 1984 – yildagi 6 mln.dan 1990 – yilga kelib 24 mln.gacha ko'paydi. Bandlikni olsak, 52 mln. kishidan 130 mln.ga yetdi. 15 yil ichida bu korxonalar qishloqdagi mehnat resurslarining yarmini o'ziga jalb etdi. Hozir kunda Xitoy YAIMning 1/3 qismi shu korxonalarga to'g'ri keladi, milliy sanoatda esa bularning hissasi 50 foitzga yetadi. Shu bilan birga bu vaqt ichida yangidan 50 mingga yaqin kichik shaharlar paydo bo'ldi. Bu korxonalarda keng xajmdagi iste'mol va investitsiya ahamiyatidagi tovarlar ishlab chiqarila boshlandi.

Aytaylik, trikotajning 1/2 qismi, charm-poyabzalning 4/3 qismi, g'isht va cherepiyaning 95 foizi kabilardan iborat.

Agar 1950-1972 yillarda yillik milliy daromadning o'sishi 6 foiz bo'lib, qishloq iqtisodi hissasi 37,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1978-1988 yillarda 63,6 foizga yetgan va milliy daromad o'sishi 9,2 foiz bo'lgan. 1992-1994 yillarga kelib, YAIM o'sishining asosiy qismi qishloqdagi qo'shilgan qiymat hisobiga bo'lib, uning hissasi 1994 – yilda 75 foizga teng bo'lgan.

Iqtisodiy islohat davri mulkchilik turli shakllarga ega bo'ladi. Avvalo davlat mluki markaziy yoki maxalliy darajada bo'lib, shu bilan birga jamoa mulki, individual hamda xususiy 8 kishidan ko'p bo'lmagan yollanma ishchilar bilan birga va aksionerlar, chet investitsiyali mulklar mavjud bo'lgan. Lekin bular yagona shaklda bo'lmay, bir-biriga o'tadigan, o'zgarib turadigan, aralash shakllari ham bo'lgan. Umuman olganda davlat va boshqa xil ukladlar deyilsa to'g'ri keladi. Lekin keyingi 10 yil ichida iqtisodiy o'sish asosan nodavlat tashkilotlari hisobiga yuz bergan.

11.2.1-jadval

Xitoy sanoatining o'sishi (% hisobida)

Sanoat	1979 y.	1980 y.	1990 y.	1995 y.
Davlat sektori	8,9	5,6	3,0	8,4
Nodavlat sektor	8,4	22,2	12,7	26,6
Jami	8,8	9,3	7,8	21,5

Jadvaldagi raqamlardan ko'rinib turibdiki, ayniqsa 1995 yilda davlat sektorida o'sish faqat 8,4 foizga teng bo'lsa, nodavlat sektorida o'sish 26,6 foiz bo'lib, buning hisobiga XXRda 21,5 foizga yetgan. Bu nodavlat sektorida ustunliklar mavjudligidan dalolat beradigan tuzumiy o'zgarishlarga olib keladi. Agar mamlakat sanoat yalpi mahsulotida davlat sektori hissasi 1978-1996 yillar ichida 77,6 foizdan 28,5 foizgacha pasaygan bo'lsa, nodavlat sektori esa 22,4 foizdan 71,5 foizgacha ko'tarilgan.

Xitoy islohatida ikki turli yo'nalishli harakatni ko'rish mumkin. Biri uni tezlatish uchun qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi orqaga qaytish yoki islohatni

sekinlashtirishga qaratilgandir. Bunda birida davlat erkinlikni qo'llasa, ikkinchisida tartiblashtirish, chegaralash choralarini qo'llaydi. Masalan, 1993 yilgi uiklni olsak, davlat choralari islohatni mikrodarajada kuchaytirish va davlat korxonalariga taalluqli bozor munosabatlari mexanizmlarini kiritish ko'zlangan edi. Shuningdek makro darajada bank va soliqlarga qaratilgan tadbirlar belgilangan bo'lib, 1994-1995 yilgi yuqori darajadagi inflyatsiya tufayli bular amalga oshmay qoladi. Chunki ijtimoiy buzilish xavfi bor edi.

Bank tizimini olsak, bunda ham shunday. Aytaylik, Xitoy xalq banki haqiqiy mamlakat markaziy bankiga aylanib, uning faoliyatiga markaziy va mahalliy hokimiyat aralashmasligi kerak bo'lib, u banklar ishini koordinatsiyalashi kerak edi. Lekin bu amalga oshmay, eskicha qoladi. Shuningdek bu bankda ko'zda tutilgan ma'muriy o'zgarishlar ham amalga oshmaydi.

Soliq tizimida ketma-ketlik ko'proqdir. 1994-yildan boshlab barcha xil mulkdagilardagi korxonalariga daromad solig'i 33% belgilanadi. Ilgari davlat korxonalarida 55% va individual korxonalarda 60% edi. Shu bilan birga davlat korxonalaridagi soliq to'lashda pudrat tizimi yo'q qilinib, endi ular bir xil stavka bo'yicha soliq to'laydilar. Boshqa xil soliqlarda keskin o'zgarishlar yuz beradi. Buning ichida eng salmog'lisi qo'shilgan qiymat solig'i bo'lib, bu ishlab chiqarish, savdo, importlarga taalluqlidir. Uning negiziy boshlang'ich stavkasi 17%dan iborat. Aksiz solig'i qisqarib, import tovarlarga to'lanmaydi.

Keyingi islohat yo'nalishi byudjetlararo munosabatlarga taalluqlidir. Bunda hududiy moliyaviy pudrat tizimi bekor qilinadi va u ikki kanallilik tizimi bilan almashtiriladi. Bunda turli darajadagi byudjet o'rtasidagi daromadlar manbai to'la ajratiladi.

Davlat korxonasi va banklarini isloh qilish bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Bunda ishsizlik muammosi kuchayadi. Chunki yangi joylar tashkil etilishi orqada qoladi. Shuning uchun ham davlat mayda korxonalar davlat mayda korxonalar sotilishini sekinlashtirish, ba'zi joylarda to'xtatib turishni tavsiya etadi. Turar-joy islohotida ham shunday xolatni ko'rishimiz mumkin va tekinga joy berish o'rniga ipateka kredit tizimini kiritish tavsiya etiladi. Bunga ajratilgan sarmoyani esa

mahalliy hokimiyatdagilar ishdan bo`shalgan xodimlarga nafaqa tarzida to`lashni afzal ko`rishgan.

Lekin xulosa qilib shuni aytilish mumkinki, bozor munosabatlari bilan bog`langan islohatlar ijobiy ta`sir ko`rsatib, Xitoy iqtisodiyotida katta o`shirlarga olib kelmoqda.

11.3. Iqtisodiy o`shir va ekstensivlik

Xitoyda xususiy sektorni yuzaga keltirish va umuman iqtisodiy o`shirni ta`minlash tubdan farqlanadi. Bunga o`xshash mamlakatni yo`q desa ham bo`ladi. Albatta xususiy sektorni paydo bo`lishini, bozor iqtisodiyotining shakllanishi mavjud tizimni yo`q qilish va uning o`rniga va hisobiga yuzaga kelgani yo`q. Sobiq sotsialistik iqtisodiy mamlakatlardagi iqtisodiy o`zgarishga hech o`xshatib bo`lmaydi.

To`g`ri, mavjud siyosiy tizimni saqlagan xolda asta-sekin islohat usullari Yugoslaviya, Vengriya kabi mamlakatlarda tajriba qilib ko`rilgan. Iqtisodiy islohatga sobiq SSSRda ham harakat qilib ko`rilgan. Lekin 90 – yillar oxiriga kelib sobiq partiya-davlat tizimlari falokatga uchrab, iqtisodiy jarayonlarni nazorat etish imkonini to`la qo`ldan berib, rejalashtirish tizimlari yemiriladi. Bular esa bozor institutlari bilan almasha olmagan. Chunki bular tayyor emas edi. Jarayon juda keskinlik bilan davom etib, yemirilish birdaniga ro`y beradiyu, o`rniga yangisi tayyor emas edi. Shuning uchun ham bularda asta-sekinlik, ketma-ketlik uchun sharoit va buning uchun siyosiy-iqtisodiy muxit yo`q edi.

Eng muhimi shuki, Xitoy iqtisodiyoti umuman boshqacha xususiyatlarga, boshqa sifatli tomonlarga ega bo`lib, bu qolgan o`tkinchi mamlakatlarga o`xshamaydi. Sobiq SSSR asosidagi yangi mamlakatlar – SMD va Sharqiy yevropa mamlakatlari yuqori darajali industrial mamlakatlar bo`lsa, Xitoy uchun hozirgacha ham industriallashtirish jarayoni kelajak vazifasi bo`lib, uning boshlang`ich pog`onasidadir va 80 foiz aholi qishloqda istiqomat qilib keladi. Xitoyda iqtisodiy rivojlanishni faollashtirish uchun butunlay boshqacha rezervlar bo`lib, erkinlikka chiqarish yo`li bilan dehqonchilik xo`jalik g`ayratini ishga solib, qishloq xo`jaligi

ishlab chiqarishini rag'batlantirish orqali erishilish sharoitlari mavjud edi. Yoki bo'lmasa tarixda bo'lganidek, qishloq aholisini ommaviy ravishda ko'chirib, industriyani shakllanishida foydalanish mumkin. Lekin arzon va ortiqcha ish kuchining mavjudligi bundan ham boshqacha va oson yo'lni belgilab beradi. arzon va juda ko'p ish kuchi sanoat ishlab chiqarishni yuzaga keltirish imkonini beradi. Bu boshidanoq eksportga atalgan va jahon bozorida narx-navo raqobatbardoshligiga ega sanoatni yaratish imkoniga ega bo'lgan. Bu omillar Xitoycha o'zgarish tizimini belgilab beradi. Yuqorida esga olgan mamlakatlarga nisbatan xususiy sektorni davlat sektori asosida, xususiylashtirish yo'li bilan emas, balki u bilan bir qatorda nodavlat ukkladni birlamchi industrilashtirish davrida yuzaga keltirish mumkin.

Bundagi iqtisodiy o'sish intensiv yo'l asosida bo'lmay, ekstensiv yo'l bilan amalga oshadi, yangi xo'jaliklar tuzish, qo'shimcha ish kuchi jalb etish hisobiga bo'ladi. Chunki bunday resurslar Xitoyda juda katta. Aytganimizdek, millonlab dehqonchilikda ish kuchini ishlatish imkoniga ega bo'lmaganlar mavjud. Shu bilan birga mahalliy xomashyo, ishlab chiqarish materiallari ham nisbatan yetarli darajadadir.

Xususiy sektorning ommaviy ravishda yuzaga kelishi oddiy xo'jaliklar tuzish hisobiga yuz beradi. Oddiy mehnat qurollari, past texnik darajali mehnat vositalari asosida tashkil topadi. Bu esa o'z navbatida katta kapital xarajatlarni talab etmaydi. Xitoy sharoitida bularni xususiy jamg'armalar hisobiga yaratish mumkin bo'ladi. Xitoy iqtisodiyoti va sanoatining to'xtovsiz o'sib

Xitoy xududi uchun tabiiy sharoitda, tarixiy rivojlanishida axoli va xo'jalik geografiyasida katta farqlar bor. 80 - yillar boshida rayonlar to'rini qayta ishlab chiqish boshlandi, uni asosida mamlakat xududini 3 ta zonaga bo'lish etar edi: Sharqiy, Markaziy, G'arbiy.

1. Kuchli iqtisodiy Sharqiy zona yangi, ilmtalab tarmoqlar va sanoat ishlab chiqarishida chet el kapital qo'yilmalarini jalb etishda, eksport tovarlar ishlab chiqarishda etakchi bo'lishi kerak. Uning tarkibiga 8 ta dengiz bo'yi provinsiyalari va markazga bo'ysinuvchi barcha shaxarlar - Shanxay, Pekin, Tyanszin kiradi. Uning rivojlanishi "maxsus iqtisodiy zona" shakllanishi bilan bog'liq. Unda chet el va Xitoy kapitallari to'planib ilmtalab tarmoqlar - elektronika va elektrotexnika yoki yuqori foyda keltiruvchi - to'qimachilik, tikuvchilik, oziq - ovqat sanoatlarini keyingi rivojlanishini belgilab beradi.

Kuchli ijtimoiy va ishlab chiqarish strukturasi tashkil etilmoqda. Undan tashqari chet el kapitallari uchun 14 ta portlar ochilgan, Xaynan oroli va Yanszi, Chjusyan daryo delta xududlari aloxida tashqi iqtisodiy maqom olinadi.

2. Markaziy zona yoqilg'i elektroenergiya, kimyo maxsulotlari, xom ashyo va yarim fabrikatlarni katta xissasini o'zida to'playdi. Qulay sharoit yaratilishiga mos ravishda fan va texnikani keyingi rivojini o'zida aks ettiruvchi tarmoqlar va ishlab chiqarishni tashkil etadi.

3. G'arbiy zona o'zini kichik sanoati bilan qishloq xo'jaligini o'sishiga e'tibor berilishi, mineral xom-ashyo resurslaridan foydalanish, barcha maxalliy xom ashyoni birinchi ishlovi kam axolili va kam o'zlashtirilgan xududlarda transportni tashkil etish bilan nisbatan ko'p rivojlanagan

borishida mayda, texnik jixatdan primitiv ishlab chiqarishning juda tez o`shishi muhim omil hisoblanadi. Xalq tashabbusiga keng yo`l ochilishi sababli shahar va qishloqlarda millionlab mayda korxonalar paydo bo`ladi. 1981-1997 yillar ichida sanoat mahsuloti xajmi 9 barobar ko`payadi. Bu asosan shunday tarzda shakllangan korxonalar hisobiga yuz beradi. Bunda ayniqsa qishloqlardagi viloyat korxonalarining o`rni katta, boshqacha qilib aytganda o`shish qishloq sanoati hisobiga to`g`ri keladi.

Bunday sanoatda ma'lumki, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish qiyin. Lekin eng foydali tomoni arzonga tushadi va tovarlar past baholi bo`lgani tufayli yuqori raqobatbardoshli bo`ladi. Past texnika negizida sanoatning juda tez o`shishi, zamonaviy texnologiyalar yo`qligi, xodimlar malakasining yetishmasligi yirik xajmda sifatsiz mahsulotlar ishlab chiqarishga olib keladi. Bunda albatta iste'molga noloyiqlik darajasi ham yuqori bo`ladi. 1985 – yil tayyor mahsulotlar omboridan tanlab sifatni aniqlash o`tkazishning natijasida muayyan standartlarga 56,4 foiz tovarlar loyiq deb topilgan. Buni o`sha vaqtdagi Xitoy bozorining tovarlarga ochligi, taqchilikning yuqoriligi bilan ham tushuntirish mumkin. Ammo asta-sekin bu xolat tuzala boshlaydi. Chunki 1996 – yildagi shunday tekshirishda 79 foiz tovarlar standartga loyiq topilgan. Shu bilan birga 20 foiz tovar nostandart bo`lib, o`z xaridorlarini topolmay, sotilmay qolgan edi. Sifatsiz tovarlar chiqarish va ularga talabning sust bo`lishi 1997 – yilda 71 mlrd. dollarli tovarlarning sotilmay qolishiga olib kelgan. Bunday tovarlarni asosan jamoa va xususiy xo`jaliklar yetishtirgan.

11.4. Investitsiya xususiyatlari

Islohat davrida ochiqlik siyosati chet kapitalga ham taalluqli bo`lib, bu Xitoy iqtisodiy o`shishida katta o`rin egallaydi. 80 – yillardayoq chet investitsiyasining doimiyliigi ta'minlangan bo`lsa, 90 – yillarga kelib, uning xajmini keskn o`shishi va investitsiya tuzumining o`zgarishi muhim ahamiyatga ega bo`ldi. 1979-1982 yillarda hammasi bo`lib chet kapitali 12,46 mlrd. dollar bo`lib, bundan faqat 1,17 mlrd. dollar to`g`ri investitsiya edi. 1993 – yilga kelib, umumiy investitsiya 38,96 mlrd. dollardan

27,52 mlrd. dollari to`g`ri investitsiya, 1996 – yilda 55,27 mlrd. dollardan 42,35 mlrd. dollari to`g`ri investitsiya edi. Ko`rinib turibdiki, keyingi yillarda chet kreditlariga qaraganda to`g`ri investitsiya asosiyga aylangan.

XXRning chet qarzi 1988 – yildagi 42,4 mlrd. dollardan 1998 – yili 131,0 mlrd. dollarga yetadi. Lekin qarzni uzish koeffitsienti 10%dan oshmaydi. Xalqaro amaliyotda xavf chegarasi 20-25%ni tashkil etadi. Qarz tuzumi ham ancha yaxshi bo`lib, umumiy xajmning 85%i o`rta va uzoq muddatli kreditlarga to`g`ri keladi. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya tashkilotlariga ustunlik beriladi. Buning ichiga chet mamlakatlar kreditlarini ham qo`shish mumkin. Bunday qarzlarning foizi ham past, muhlati ham katta. Bunday kreditlar asosan qishloq xo`jaligi, energetika, transport kabilarni moliyalashtirish uchun qaratiladi. Chet xususiy banklarining tijoriy kreditlari keyingi yillarda ancha qisqargan. Masalan, 1987 – yildagi 2,58 mlrd. dollardan 1996 – yili 1,49 mlrd. dollarga pasaygan. Xalqaro moliya tashkilotlarida esa shu vaqt ichida 0,77 mlrd. dollardan 2,99 mlrd. dolarga ko`paygan.

Xitoy 90 – yillar o`rtasiga kelib, AQSHdan keyingi to`g`ri chet investitsiyasini oluvchi mamlakatga aylandi. Bu rivojlanayotgan mamlakatlar ichida juda katta xajmli investitsiya edi. Chet tadbirkorlarni Xitoyga tortadigan narsa mahalliy juda arzon ish kuchidan va tabiiy boyliklardan foydalanishdir. Bunda chet diasporaning ham o`rni katta. Bular boshqa mamlakatlarda kapitalga ega bo`lib, bu yirik va juda moslashgan savdo tarmoqlari hamda jahon bozorida kata tajribaga egadirlar. Chetdagi xitoylar va o`z vaqtida turli sabablarga ko`ra Xitoydan ajralib qolgan Gonkong, Makao, Tayvan kabilarga to`g`ri investitsiyaning 60 foizi to`g`ri keladi.

Bunday investitsiyaviy hamkorlik salohiyati davlatning oqilona siyosati natijasidir. Chunki bularga nisbatan rag`batlantirish usullarini qo`llash, ishonch xosil qila bilishlikning ahamiyati kattadir. Bunday imtiyozlar soliq, boj, valyuta siyosatlariga taalluqlidir. Bu avvalo islohatning birinchi yillarida juda sezilarli edi. Chunki, Xitoy ochiq siyosat boshlangan vaqtda ham ancha xavfli hisoblanib, xo`jalik tizimining o`zgarishi endi boshlangan vaqtlar edi. Bir tomondan chet

investitsiyasining ko`paya borishi, ikkinchi tomondan bozor isloahlarining chuqurlasha va kengaya borishi natijasida xo`jalik yuritish tartiblari chet va milliy investorlar uchun yaqinlashib boradi.

Chet investitsiyasining erkinlashuvi sekinlik bilan tadbiiq etilib, maxsus imtiyozlar avvalo ustivor sohalardan boshlandi. Bular mashinasozlik, elektronika, qishloq xo`jaligi kabi tarmoqlardan iborat edi. Aksincha, moliyaviy xizmatlar va chakana savdoda chet investitsiyasi faqat iqtisodiy ancha rivoj topgan dengiz bo`yi shaharlaridan birnechasigina ruhsat berildi.

Amalda qabul qiluvchi mamlakat eksportning o`shishi, bandlik, texnologiyani qabul qilish kabi maqsadlarga qaratilgan investitsiyalar turli xil chet investorlari bilan hamkorlik qilish tarzida amalga oshiriladi. Investorlar arzon ishchi kuchidan foydalanish tufayli xarajatlar tejamligidan manfaatdor bo`lganda loyihalar eksportini ma`qul topadilar. Shuning uchun ham sanoatning past texnologik ko`p mehnat talab tarmoqlari eng ko`p valyuta daromadlari keltiradi. Bunda chet investorlarining ichki bozorlarni egallashi ko`zda tutiladi.

Soliq tizimi ham bir chanqa imtiyozlarni o`z ichiga oladi. Barcha chet investorlari ishtirokidagi sanoat korxonalarini faoliyati 10 yildan ortiq bo`lsa, foydali faoliyatning birinchi 2 yili ichida yarmiga qisqartiriladi. Korxonalar eksporterlar soliq imtiyozi muxlati tugugandan keyin mahsulot xajmining 70 foizgachasi eksport qilish sharti bilan soliqning yarmini to`laydi. Chet investorlar ishtirokidagi korxonalar yuqori texnologik statusga egalari soliq imtiyozi tamom bo`lgandan ikeyin yana 3 yil ichida yarmini to`lash huquqini saqlab qoladi.

Xitoy tajribasida chet investitsiyasining bir qancha xil shakli tadbiiq etiladi. Pay asosidagi aralash korxonalar va to`la chet mulkiga asoslangan korxonalardan tashqari ham bir necha xillari qo`llaniladi. Aytaylik, Xitoy korxonalarini bilan subpodryad kelishuvlar, kompensasiya savdosi, kontraktli birgalikdagi korxonalar kabilar shular jumlasidandir. Bunday usullar ancha soda va qulay bo`lib, texnologiyaga ega bo`lishga olib kelmasa ham yangi ish joylari va valyuta daromadlariga ega bo`lish imkonini tug`diradi.

Investitsiya tizimida birgalikdagi tadbirkorlik zonalarini tashkil etilishi katta o`rin egallaydi. Bunday Xitoycha amaliyot turlichadir. Bu 80 – yillardan boshlangan bo`lib, asosan dengiz bo`yi xududlaridan iboratdir. Xitoyning Sharqiy-Janubiy qirg`og`idagi maxsus iqtisodiy zonalarda eksportga mzljallangan sanoat bilan birga qishloq xo`jaligi, moliyaviy sektor, turizm va boshqa sohalarning rivojlanishi ham amalga oshadi.

Bunday zonalarga qo`shimcha ravishda Xaypan orolida ham shunday zona paydo bo`ladi. Keyingi yillarda yana 14 ochiq shaharlar belgilanib, bular ham Sharqiy qirg`oqlardir. Bularda mavjud industrial kompleksdagi iqtisodiy va texnik rivojlanish texnologik modernizatsiyalashga asoslangan. Bunday ochiq zonalar yana bir qancha Sharqiy xududlarda yuzaga keldi. Bular bir qancha qishloq hamda tumanlar bo`lib, asosan ko`p mehnat talab qiluvchi eksportga mo`ljallangan sanoat rivojlanadi.

90 – yillarda yuqori texnologiyali deb atalgan zonalar paydo bo`la boshladi. Bular ilmiy-ishlab chiqarish saroylari bo`lib, bularga umuman yangi texnologiya materiallar yaratish, mayda seriyali eksperimental ishlab chiqarishlar uyushtirish paydo bo`ladi. Hozirgi vaqtda XXRda 52 ta shunday zonalar tashkil etilgan. 1992 – yildan boshlab erkin savdo zonalarini tashkil etilib, bular eksport-importga maxsuslashgandir. Hozir bularning soni 13 taga yetdi. Bularning 12 tasi Sharqiy qirg`oq dengiz portlariga joylashgan va bittasi Yanizi daryosi portida o`rnashgan. 1992 – yildan boshlab shunday zonalar chegara rayonlarda ham paydo bo`lib, hozircha asosan Rossiyaga yaqin yerlarda joylashgan.

Bu zonalar rivoji asosan chet investitsiyalarga hisoblangan va shular evaziga taraqqiy etib, Xitoy iqtisodiyotida borgan sari katta o`rin egallab bormoqda. Hozirgi kunda Xitoy investitsiyasi bo`yicha birinchi o`ringa chiqqan.

11.5. Ichki va tashqi bozor

Iqtisodiy o`sish bozor rivojiga asoslanadi va o`z navbatida uni to`xtovsiz kengaytirib boradi. Xitoy bozor munosabatlari islohatida bu jarayon ham o`zgi xos

xususiyatlarga ega. Iqtisodiy o`shish daromadlar o`shishini taqozo etadi, bu albatta turmush darajasida o`z ifodasini topadi.

Bu jarayonda savdoning rivojlanishi tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yuqori darajali iqtisodiy o`shish Xitoyda YAIMning tez ko`payishi bilan davom etadi. Ta`kidlaganimizdek, YAIM va uning jon boshiga to`g`ri keladigan hissasi islohat vaqtida juda tezlik bilan bordi. Buning asosiy qismi ichki bozorda sotilsa, ma`lum qismi tashqi bozorlarda sotiladi. Ichki va tashqi bozorlarning to`xtovsiz kengayishi Xitoy iqtisodiy o`shishini rag`batlantirdi. Ayniqsa, Xitoy ichki bozor resurslaridan foydalanish juda jadal ravishda kengayib bordi.

Iqtisodiyotning tez sur`atlar bilan o`shishi ichki bozorning kengayishi uchun ikki omilni tezlashtiradi: bozorni kerak bo`lgan tovarlar bilan to`ldirish va xaridor uchun daromad o`shishini tezlashtirishdir. Xitoy islohatlarining bozor munosabatlari asosida amalga oshuvi bu omillar uchun juda qulay sharoitlar yaratib, bozorlarni kengaytirib bordi. Yangi-yangi millionlab korxonalar paydo bo`lishi, bunga yuz millionlab izsizlarning jalb etishi to`g`ridan-to`g`ri xaridorlarning juda tezlik bilan ko`payishiga olib keldi.

Avvalo buoziq-ovqat tovarlari bozorlarida o`z aksini topdi. Milionlab ochlar, qashshoqlik chegarasidagilar uchun tovarlar bozorlarni to`ldirib xaridorolaga aylantirildi. Bunda ayniqsa, qishloqlarning o`rni katta bo`ldi. Qishloq xo`jaligini isloh qilish ishlab chiqarishni keskin o`shishiga, daromadlarning ko`payishiga olib keldi. Shu bilan birga bu jarayonda viloyat korxonalarining xajmda yuzaga kelishi aloxida o`rin egallaydi.

Iqtisodiy o`shish borgan sari turmush darajasiga ta`sir etib boradi. Chunki miqdorga bog`liq muammolarni xal qilish darajasi sifat o`zgarishlariga olib keladi. Shuningdek Xitoy iqtisodiy islohatlari daromadlar darajasini ko`tarishga ta`sir etuvchi omillar harakatini tezlashtiradi. Pul daromadlari ortib boradi. Bozordagi tovarlar miqdor jixatdan ko`payish bilan birga turlarini ham orttirib boradi va ularning taklifini talabga mos keltirishga undaydi. Bu esa o`z navbatida ichki bozorlarning kengayishini tezlashtiradi. Juda yirik xajmdagi ishlab chiqarilayotgan tovarlar bozorlarni o`ziga mos ravishda to`xtovsiz kengaytirib boradi.

Xitoy iqtisodiyoti o`sisli yirik va to`xtovsiz kengayib boruvchi ichki bozor bilan birga tashqi bozorga ham asoslanadi. Bunda ochiqlik siyosatining oqilona qo`llanishi ma`qul keladi. Xitoy islohati strategiyasining tarkibiy qismi tashqi dunyoga ochiqlik siyosatining qo`llanishidir. Bu oldindanoq mamlakatni o`zgartirishning sharti hisoblangan bo`lib, davom etib kelgan iqtisodiy avtarkiyaning aksi hisoblanadi.

11.5.1-jadval

Xitoy tashqi savdosi, mlrd. dollar

Yillar	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanishi	Balans
1987	39,4	43,2	82,6	-3,8
1990	62,1	53,4	115,5	8,7
1993	91,8	104,0	195,8	-12,2
1995	148,0	132,1	280,9	16,7
1997	182,7	142,4	325,1	40,3

Jadval raqamlaridan ko`rinib turibdiki 10 yil ichida tashqi savdo xajmi deyarli 4 barobar o`sgan va bu sohada Xitoy 32-o`rindan 10-o`ringa ko`tarilgan. 90 – yillarga kelib yillik o`sish deyarli 20 foizni tashkil etgan.

Tashqi savdo tuzumida ham katta o`zgarishlar yuz bergan. Oldin hukmron o`rinni xomashyo mahsulotlari egallagan bo`lsa, keyingi yillarda sanoat mahsulotlari xajmi ortib boran va bu 90 – yillar o`rasiga kelib 85 foizga yetgan. Aytganimizdek, albatta bular asosan past texnologik va ko`p mehnat talab qiluvchi tovarlardan iborat. 1995 – yilga kelib eksportda mashinasozli, elektronika tovarlari o`z hissasi bo`yicha birinchi o`ringa chiqqan. Albatta bunda asosan ommaviy iste`mol buyumlari ko`zda tutiladi, ya`ni bular avvalo radio tovarlar, magnitafonlar, soatlar kabilardan iboratdir.

Tashqi savdo xolati ichki makroiqtisodiy uqiklga mos keladi. Ahvolga qarab tashqi savdo, ayniqsa import vaqti-vaqti bilan chegaralanib turadi va balans normallashtirib turadi.

Xitoy tashqi iqtisodiy aloqalar, ayniqsa tashqi siyosat ma`qul darajada proeksionizm mazmunida bo`lib, milliy bozor himoyalani b turgan va bu XXR industrlashtirish siyosatidan kelib chiqqan. Bu sohadagi yengillik 1993-1994 yillarga

to`g`ri kelib, import tarifi 36-23% gacha tushirilgan edi. Bu ham albatta yuqori bo`lib, rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan 1,5 barobar baland edi.

Eksport sohasidagi erkinlikning kiritilishi ham asta-sekinlik bilan orib boriladi. XXRda korxonalarining chet bozorga chiqishida registratsiya usuli emas, balki ruxsat berish tartibi qo`llaniladi. 90 – yillarning o`rtasiga kelib eksportni mustaqil olib borish huquqiga faqat 2,5 ming korxonaga ega edi. Aytish kerakki, bunga chet investitsiyali korxonalar kirmaydi, chunki ular avtomatik ravishda bu huquqga ega bo`ladilar. Qolgan milliy ishlab chiqaruvchilar bu sohadagi o`z faoliyatlarini maxsus davlat tashqi savdo kompaniyalari orqali olib borishlari kerak. Bunday kompaniyalarning XXRda bir necha mingtasi mavjud.

Tashqi savdo xajmining keyingi yillarda o`shishi valyuta tartiblashuviga bog`liqdir. Bunda 1994 – yilda yuanning valyuta kursi ko`p xilligini bekor qilinishi ahamiyatlidir. Kurs bozor asosida belgilanib, banklarda yangidan yuzaga keltirilgan tizim asosida amalga oshadi. Davlat korxonalari va tashqi savdo korxonalari oldingi valyuta ajratma amaliyoti bekor qilinadi va barcha eksport tushumi davlat banki vakillariga sotilishi kerak. Shu bilan birga valyuta sotib olish erkinlashtiriladi. Chetga chiqadigan Xitoyliklar davlat bankidan valyutani sotib olish huquqiga ega bo`ladilar. Bunday holat pravordida joriy harakatlar uchun yuanning konvertatsiyalashuviga olib keldi. Keyingi yillarda valyuta zahiralarini bo`yicha Xitoy dunyoda ikkinchi o`ringa chiqdi va 1998 - yilga kelib uning xajmi 145 mlrd. dollarga teng bo`ldi. Bu tashqi savdoda juda ahamiyatlidir va kelajakda katta imkoniyatlar tug`diradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Xitoydagi makroiqtisodiy uqikni shunday tushunish mumkin: iqtisodiy o`shishni saqlash, qo`shimcha ish joylari yaratish, tarmoqlar va regional darajadagi guruhviy manfaatlar siquvi natijasida davlat pul siyosatini birlashtiradi. Bu maxalliy hokimiyatlar va korxonalar xo`jalik faoliyatining kuchayishiga olib keladi. Mamlakatda gipertrofik investitsiya yuz beradi va yuqori darajali o`shish bilan birga inflyatsiya kuchayadi. Inflyatsiya ijtimoiy chegaradan o`tishi bilan davlat pul siyosatini kuchaytiradi va kapital xarajatlar ustidan nazoratni qat`iylashtiradi bu esa iqtisodiy o`shishni pasaytiradi.

Davlat korxonalar va banklarini isloh qilish bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Bunda ishsizlik muammosi kuchayadi. Chunki yangi joylar tashkil etilishi orqada qoladi. Shuning uchun ham davlat mayda korxonalar davlat mayda korxonalar sotilishini sekinlashtirish, ba'zi joylarda to'xtatib turishni tavsiya etadi. Turar-joy islohotida ham shunday xolatni ko'rishimiz mumkin va tekinga joy berish o'rniga ipateka kredit tizimini kiritish tavsiya etiladi. Bunga ajratilgan sarmoyani esa mahalliy hokimiyatdagilar ishdan bo'shalgan xodimlarga nafaqa tarzida to'lashni afzal ko'rishgan.

Iqtisodiyotning tez sur'atlar bilan o'sishi ichki bozorning kengayishi uchun ikki omilni tezlashtiradi: bozorni kerak bo'lgan tovarlar bilan to'ldirish va xaridor uchun daromad o'sishini tezlashtirishdir. Xitoy islohatlarining bozor munosabatlari asosida amalga oshuvi bu omillar uchun juda qulay sharoitlar yaratib, bozorlarni kengaytirib bordi. Yangi-yangi millionlab korxonalar paydo bo'lishi, bunga yuz millionlab ishsizlarning jalb etishi to'g'ridan-to'g'ri xaridorlarning juda tezlik bilan ko'payishiga olib keldi.

Takrorlash uchun savollar

- 1.Xitoy mamlakatini jahondagi mavqeini ta'riflab bering.
- 2.XXR iqtisodiy islohatlarining mohiyati nimada?
- 3.Xitoy iqtisodiy rivojida bozor munosabatlarining ahamiyati qanday?
- 4.Xitoy iqtisodiy "mo'jizasi"da milliylikning o'rnini tushuntirib Bering.
- 5.Xitoy qaysi xil mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni egallaydi.
- 6.Qishloq xo'jaligidagi bozor munosabatlariga o'tish bilan bog'liq o'zgarishlar nimalardan iborat?
- 7.Iqtisodiy islohatlarda XXR davlatining roli nimalarda ifodalanadi?
- 8.Xitoy iqtisodiy "mo'jizasi"da ichki va tashqi bozorlar rivoji sabablari nimada?
- 9.Xitoy iqtisodiy rivojida milliylikning o'rnini nimalardla namoyon bo'lmoqda?

10. Xitoy xukumatining jahon moliyaviy - iqtisodiy inqiroziga qarshi chora tadbirlari nimalardan iborat?

12-BOB. MARKAZIY VA SHARQIY YEVROPA MAMLAKATLARINING BOZOR IQTISODIYOTIGA O`TISH TAJRIBASI

12.1. Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti

Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlariga Albaniya, Bolgariya, Bosniya va Gerdogovina, Vengriya, Makedoniya, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Xorvatiya, Chexiya va Yugoslaviya mamlakatlari kiradi. 1997 – yilda bu mamlakatlarda 118,7 mln. aholi bo`lib, jami YAIM 636 mlrd. dollarga teng bo`lgan (jahonning aholisi 1,85 foizi, 1995 – yilda YAIM 2,24 foiz). Umumiy taraqqiyot darajasi bo`yicha industrial, industrial-agrar mamlakatlar hisoblanib, industrial rivojlangan mamlakatlar yo`q. Albaniya esa rivojlanayotganlar qatorida. Aholi jon boshiga nisbatan YAIM miqdori bo`yicha G`arbiy yevropa mamlakatlaridan ikki-uch barobar past va deyarli Lotin Amerikasi rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida turadi.

Bu mamlakatlar Ikkinchi Jahon urushidan keyin ma`muriy-buyruqbozlik asosidagi iqtisodiyot tizimida edilar. Yugoslaviya, Vengriya va Polsha asta-sekin boshlang`ich davrdagi sovet modelidan milliy modellarga o`tgan. Ma`lum darajada bozor iqtisodiyoti elementlarini qo`llab, baribir asosiy ma`muriy markazlashgan iqtisodiyot tizimida bo`lishgan. Bu mayda xususiy xo`jaliklarni saqlash, bozor iqtisodli mamlakatlar bilan tashqi aloqalarni olib borish kabilar mavjud bo`lgan. Xattoki chet kapitalining kiritilishi darajasida ham bo`lgan.

Keyingi o`n yillik ichida bu mamlakatlar o`tuvchi iqtisodli bo`lib hisoblanadi. Chunki bozor iqtisodiga o`tish amalga oshmoqda. Shu bilan birga o`tish davrining boshlang`ich yillaridek iqtisodiy taraqqiyot darajasi, ma`muriylik saqlanishi bilan bozor munosabatlariga o`tish, aholi mentaliteti, rivojlangan mamlakatlarga nisbatan iqtisodiyotning ochiqligi kabilar mavjudligi ham xosdir. Aytaylik, Chexiya va Sloveniya mamlakatlari bozorga o`tishda ancha oldinga siljishib, Bolgariya va Ruminiya kabilardan ilg`orlashga ulgurgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda evolyusion yo'l bilan birga radikal usulning qo'llanayotganlari ham mavjud. Evolyusionlik Bolgariya, Vengriya, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Xorvatiyalarga xos bo'lsa, radikal usul Polshaga va kamrom Chexiyaga xosdir. Polshadagi "Xushdan ozish" usuli hammaga ma'lumdir. Chunki bozor munosabatlariga o'tishda juda keskin usul asos qilib olingan edi.

Bozor iqtisodi asoslarini yaratishda Markaziy yevropa mamlakatlari hisoblangan Vengriya, Polsha, Sloveniya va Chexiyalar ancha tez harakat qilganlar. Bolqon mamlakatlari hisoblanadigan Albaniya, Bolgariya, Ruminiyada, Sobiq Yugoslaviyaga kiruvchi respublikalarda bozorga o'tish juda og'irlik bilan amalga oshib, bularda o'zgarishlar juda sekinlik bilan davom etmoqda.

Bu mamlakatlar Ikkinchi Jahon urushi natijasida Sobiq SSSR ta'siridagi mamlakatlar bo'lib, sotsialistik iqtisodiyot qurish yo'liga o'tganlar. Shuning uchun ham SSSR turidagi iqtisodiyotni shakllantirilib, bozor munosabatlaridan chetlashgan, markazlashtirilgan xolda qat'iy reja ostida boshqariladigan iqtisodiyotga ega edilar. Shuning uchun ham bularning oldida Sobiq SSSR respublikalari asosida tashkil topgan yangi mamlakatlarga o'xshash juda murakkab vazifalar turar edi. Rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli xolda tub iqtisodiy o'zgarishlarga xos vazifalar ko'p edi. Chunki ishni boshidan boshlashdan oldin qilinadigan ishlarning o'zi ham ko'p edi. Bu esa iqtisodiyot rivojini davom ettirish emas, balki uni o'zgartirish, mavjud ko'p narsalarni yo'q qilish bilan bog'liq vazifalarni bajarmasdan yangisini boshlab bo'lmas edi. Bu esa mavjud iqtisodiy darajani pasaytirish, ortiqcha xarajatlarni amalga oshirishni talab etar edi, ya'ni inqiroz bosqichini bosib o'tish, tiklanish ishlarini bajargandan keyingina yangisini yuzaga keltirishga o'tish kerak edi. Albatta bu ma'lum vaqt va yo'qotishlarni talab etar edi.

Bu vazifalarni mamlakatlar bir xilda va bir tarzda amalga oshirmaydi, chunki turli mamlakatlar turli jarayonda bu bosqichni bosib o'tadi. Bu sof iqtisodiy o'zgarishlarga albatta siyosiy xolat turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa mamlakatlarning bo'linishi, avtonomlik uchun harakat qilish iqtisodiy jarayonga turli darajada ta'sir etadi. Aytaylik, Chexoslovakiya ikki mustaqil Chexiya va Slovakiya davlatlariga bo'linadi. Ma'lumki, bularning iqtisodiy taraqqiyot darajasi bir xil

bo`lmay, Chexiya ancha rivojlangan edi. Bu yo`nalish ancha tinch yo`l bilan davom etadi.

Yugoslaviya ham bir necha davlatlarga bo`linib ketadi. Lekin bu urushlar, talofat ko`rishlar bilan amalga oshib, iqtisodiyotni ancha oqsashiga va orqaga surilishga olib keldi va yangi rivojlanish yo`liga o`tishni juda ham og`irlashtirdi.

Umuman tizimli o`zgarishlarning o`zi inqirozli xolatni yuzaga keltirsa, urushlar asosida mustaqillikka erishish, chuqur inqirozlarga olib kelgan edi. Shuning uchun ham bu mamlakatlarda yuz bergan siysiy xolat turli darajada ish olib borish, ya'ni avvalo tiklanish, dastlabki darajaga erishishni birlamchi vazifa qilib qo`yadi.

Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlari ichida eng yirigi Polsha bo`lib, uning aholisi 1997 – yilda 39,0 mln.dan iborat edi. Undan keyingi Ruminiya – 22,7 mln, Chexiya – 10,3 mln, Vengriya – 10,2 mln, Yugoslaviya – 10,5 mln. aholiga ega. Qolganlarida 8,3 mln.dan 2,0 mln. gacha aholi mavjud.

Iqtisodiy tiklanishni olsak, bu ham turli darajada davom etmoqda. Aytaylik, YAIM Polshada 225 mlrd. dollar bo`lsa, 1990 – yilga nisbatan 123,6 foizni tashkil etgan. Chexiyada 98 mlrd. dollar bo`lib, 108,9 foiz bo`lgan, Sloveniyada 22 mlrd. dollar va 103 foiz, Xorvatiyada 22 mlrd. dollar va 96,0 foiz, Vengriyada 68 mlrd. dollar va 93,0 foiz bo`lgan. Bu mamlakatlar shu yillar ichida YAIM ko`rsatkichi bo`yicha yomon bo`lmay, iqtisodiy tiklashni amalga oshirishgan va shunga yaqinlashishgan. Lekin qolgan mamlakatlar bu vazifani shu yillar ichida bajara olmagan. Ayniqsa, Albaniya – 60 foiz, Makedoniya va Bolgariya – 70 foiz, Ruminiya – 80,7 foiz darajasida bo`lgan.

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida eng muhim ko`rsatkich YAIMning aholi jon boshiga to`g`ri kelishidir. Bu ko`rsatkich bo`yicha biz tahlil qilayotgan mamlakatlar ichida oldingilari Sloveniya – 11 ming, Chexiya – 9,50 ming dollar. Bundan keyin Slovakiya – 7,50 ming, Vengriya – 6,65 ming dollardan iborat. Eng past ko`rsatkich. Albaniya – 0,75 ming dollar, Yugoslaviya – 3,15 ming, Makedoniya, 3,35 ming, Bolgariya – 3,65 ming dollardan iborat.

Bozor iqtisodiyotining shakllanishida davlat byudjetining xajmi, uning YAIMdagi hissasi ahamiyatlidir. Chunki iqtisodiy erkinlik xususiy sektorning o`sishi,

daromadning taqsimlanishida uning qismini ortib borishiga olib kelishi kerak. Tizimiy o'zgarish davlat byudjetida o'z aksini topishi kerak va bozor iqtisodiga o'tish bilan YAIMda byudjet hissasi pasayib borishi tabiiydir. Agar bu jarayonga e'tibor bersak, biz ko'rayotgan mamlakatlar turlicha ekanligini guvoxi bo'lamiz. Albaniya davlat byudjet daromadi YAIMga nisbatan 1990 – yilda 47,1 foizni tashkil etsa, 1995 – yilda 17,8 foiz, Rumiyaniki – 40,5 dan 33,5 foizga, Bolgariya – 53,3 dan 36,0 foizga tushgan. Qolgan mamlakatlarda bu ko'rsatkichlar taxminan 50 foizdan 44,5 foizgacha pasaygan. Polshada esa, aksincha, 42,9 foizdan 46,8 foizga o'sgan, shuningdek Xorvatiyada 34,0 foizdan 50,6 foizgacha ko'tarilgan.

Tizimiy o'zgarish ayniqsa narx-navoda o'z aksini topadi. Bu mamlakatlarda ham bu narsa yaqqol ko'zga tashlanadi va inflyatsiya jarayoni juda tezlashadi. Masalan, Bolgariyada 1990-1997 yillar ichida narxlar 1203 marta, Xorvatiyada – 597, Ruminiyada – 336, Sloveniyada – 14 marta yuqori bo'lgan. Lekin Chexiyada – 298 foiz, Slovakiyada – 306 foizni tashkil etgan. Bu raqamlardan ko'rinib turibdiki, ba'zi mamlakatlarda narxlar bir necha marta ko'tarilsa, boshqalarida bir necha yuz marotaba oshgan tva giperinflyatsiya darajasigacha yetganki, moliyaviy tuzilish va uning izdan chiqishi yuqori darajada bo'lgan.

Bozor iqtisodiga asos solishda xususiy sektorning shakllanib borishi muhimdir. Chunki haqiqiy tadbirkorlik uchun bu kuchli va eng ta'sirli negizdir. 1996 – yilga kelib, bu mamlakatlarda bu soha sezilarli o'rin egalladi. Buni ayniqsa YAIMdagi hissasi ko'rish mumkin. Masalan, Chexiya xususiy sektorining YAIMni xosil qilishdagi hissasi 1996 – yilda 65 foizga teng bo'lgan, Vengriyada – 60 foiz, Slovakiyada – 59foiz, Polshada – 56 foiz, Bolgariyada – 40 foiz, Ruminiyada – 35 foiz, Sloveniyada – 33 foizni tashkil etgan.

Bu mamlakatlar Chexiyadan tashqari asosan agrar sektor salmog'li mamlakatlardir. Shuning uchun yer munosabatlaridagi o'zgarishlar ahamiyatlidir.

12.1.1-jadval

Qishloq xo`jalik ekinzorlarining umumiy maydonida turli xo`jaliklar hisssasi

Mamlakatlar	Kooperativlar		Davlat xo`jaliklari		Xususiy xo`jaliklar	
Bolgariya	-	41	90	40	10	19
Vengriya	80	55	14	7	6	38
Polsha	4	4	19	18	77	78
Ruminiya	61	36	14	14	25	51
Slovakiya	68	63	26	16	6	13
Sloveniya	-	-	8	7	92	93

Jadvaldagi raqamlardan ko`rish mumkinki, ko`pchilik mamlakatlar qishloq xo`jaligida xususiy qism asosiy bo`lib bormoqda. Bu ayniqsa Sloveniya va Polshada ko`zga tashlanadi, bularda asosiy ekin yerlar xususiy xo`jaliklar qo`lidadir. Slovakiya, Vengriya, Bolgariyada kooperativ xo`jaliklar saqlanmoqda. Davlat xo`jaliklariga kelsak, bunda ham Bolgariyada buning hisssasi katta. Albatta bunda agrar siyosat, xo`jaliklar faoliyati, sarmoyalar mavjudligi kabi omillarning ta`siri kuchli bo`lishi kerak.

O`tish yillari bu mamlakatlarda ishsizlik yuqori darajada saqlanib kelgan bo`lsa, iqtisodiy siljish natijasida kamayib bordi. Masalan, 1995-1999 yillarga kelib Chexiyada – 8, Polshada – 9,5, Vengriyada – 10, Yugoslaviyada – 15, Makedoniyada – 11, Bosniyada – 12, Xorvatiyada – 9, Sloveniyada – 10 foizni tashkil etdi. NATOning bambardimon qilishi bilan Yugoslaviyada ishsizlik ko`payib, 20 foiz atrofida bo`lgan.

Bozor islohatlarida samarali kredit-pul tartiblashuvi muhim o`rin egallaydi. Chunki bu moliyaviy muntazamlik, investitsiyani faollashtirishga imkon tug`diradi. Bunda bank faoliyatidagi davlat monopoliyasi o`rniga ikki pog`onali bank tizimining shakllanishi yuz beradi. Birinchisi davlat banki bo`lsa, ikkinchisi tijorat banklari va boshqa erkin moliyaviylikning yuzaga kelivudir. Bunda huquqiy tadbir va xujjatlarning kuchga kirishi, har bir tashkilotning vazifalarini oydinlashuvi bank-moliya tizimining samarali faoliyatini ta`minlaydi.

12.2.O`tkazilayotgan iqtisodiy islohatlarning asosiy tomonlari

Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlari o`tish iqtisodiyoti mamlakatlari qatoriga kiradi. Chunki bular ham 80 – yillardan boshlab ma`muriy-komanda iqtisodiyotidan hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga o`tayotgan davlatlardir. Bular o`tish muammolarini tizimli islohat yo`li bilan xal qilmoqdalar. Lekin tizimli islohatning turli modellarini qo`llab, bu ichki va tashqi iqtisodiy sohalarda mos kelmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish zaruriyat bo`lib, bu har tomonlama bozor munosabatlarining ustunligi bilan taqozo etilib, sotsialistik iqtisodiyot tarixiy davr bo`lib qolayotgan edi. Chunki mehnat unumdorligi, aholi turmush sifati va umuman ijtimoiy-iqtisodiy tizim samaradorligi bo`yicha sotsialistik iqtisod noloyiqligini amalda ko`rsatgan edi.

Bunday o`tish muammolari tarixan birinchi marta yuz berib, hech qanday tajriba va ichki, tashqi ziddiyatlar tufayli ko`p xatolarga yo`l qo`yilayotgan edi. Bundan tashqari mamlakat boshlang`ich xolati turli va sharoitlar bir xil emasligi ham o`z ta`sirini ko`rsatgan edi.

Tizimli islohat deyilishining sababi bir xil ijtimoiy tizimdan umuman boshqa bir-biriga qarama-qarshi tizimga o`tishdan iborat bo`lib, bu o`z ahamiyatiga ko`ra inqilobiy o`zgarish edi va qisqa muddat, ya`ni bir necha yillar ichida tizimiy o`zgarishlar yuz beradi. Bozor iqtisodiga o`tish va uni vujudga keltirish turlicha bo`lishi mumkin. Bu siyosiy tartibga juda kuchli ravishda bog`liqdir. Shu bilan birga siyosiy kuchlar turliligi ham ahamiyatlidir. Tizimli islohat modelini belgilashda siyosiy tartibni o`zgartirish yoki uni saqlagan xolda islohatni amalga oshirish talab etiladi. Xitoy va Vetnamda siyosiy tartib saqlangan xolda asta-sekin bozor munosabatlariga o`tish amalga oshirilmoqda. Boshqa sotsialistik iqtisodli mamlakatlarda bu jarayon siyosiy tuzumning o`zgarishi bilan boshlanadi.

Shunday qilib, tizimli islohatning ikki xil modeli mavjud bo`lishi mumkin. Biri radikal, ikkinchisi ketma-ket islohatdir. Radikal usulda keskinlik, keng va tez ravishda o`zgarishlarni amalga oshirib, “xushdan ketish terapiyasi” nomini olgan

mazmunda ish ko`rish asos hisoblanadi. Bu yo`l bilan bozor iqtisodiga o`tish va uni qurish juda tez amalga oshuvi kerak.

Asta-sekin asosdagi tizimli islohatda nisbatan uzoq cho`ziladigan va keskin bo`lmagan o`zgarishlar tufayli amalga oshiriladigan yo`lni tanlashdan iboratdir. Sharqiy yevropa mamlakatlarida mavjud rejali taqsimot xo`jaligi mexanizmini birdaniga yo`q qilishdan boshlandi. Xali bozor institutlarining yuzaga keltirishdagi faol harakat boshlanmasdan yo`q qilish albatta katta yzqotish va qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga olib keladi. Bu bir sektorli iqtisod bo`lib, bozor munosabatlaridan iborat edi. Chunki eski rejalashtirish, markaziy-ma`muriy asosdagi taqsimot deyarli o`z faoliyatini to`xtatgan edi. Asta-sekinlikda esa ikik sektorli iqtisodiyat, ya`ni eskisi ham, yangisi ham to nozarur bo`lguncha ishlashi kerak edi. Yangisi bozor mexanizmlari voyaga yetmaguncha, eskisida esa ma`muriy taqsimotdan foydalanib turishi kerak edi. Rejali mexanizm o`z o`rnini bozorcha taqsimotga asta-sekinlik bilan kiritish yo`lini tutsa dualizm mavjud bo`lib, radikallik tarzida bozor qurilishi amalga oshuvi mumkin.

Agarda siyosiy hokimiyat birdan o`zgarib, eski tizim yo`q qilinadigan bo`lsa, eski iqtisodiy mexanizmlar harkatdan to`xtaydi. Yangisi esa uning o`rnini egallashga ulgurmaydi. Chunki bozor mexanizmlari shakllanib ulgurmay to`la harakatda bo`la olmaydi. Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarida xali sobiq SSSRga o`xshagan shunday vaziyat yuz beradi.

Dualizm iqtisodini qo`llash albatta amaliy jixatdan oson emas. Chunki bular avvalo boshqa-boshqa tizim va eskisi ruhan zaif, chunki yo`q bo`lishga maxkum, yangisi esa tajribasiz va zaif. Eng muhimi bu sohada tajriba bo`lmay, aniq shakl, kelishuv usullarini belgilash va ularni qo`llash oson emas.

Lekin baribir bu jarayon Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarida sobiq SSSR respublikalari asosida yuzaga kelgan mamlakatlarga nisbatan boshqacharoq va yengilroq ko`chadi. Buning sababi ham bu mamlakatlarda xususiylik mavjudligi va uning yo`q bo`lib ketmaganligi hamda rejali-ma`muriy usuldagi xo`jalik tizimining nisbatan qisqa davr ichida mavjud bo`lishidir. Aytaylik, qishloq xo`jaligida jamoatlashtirishning to`la bo`lmaganligi, hunarmandchilik, kosibchilik qisman

xususiy tarzda mavjudligi, rejalashtirishning ham juda to'la xajmli emasligi, xususiy savdoning mavjudligi kabilar. Bundan tashqari G'arbiy yevropaning yonida bo'lib, uning ta'siri mavjudligi ham bozor ustunligini ko'rsatishiga olib kelgan. Mamlakatlarning kichikligi ham bu sohada ma'lum darajada o'z o'rniga ega bo'lib, o'zaro kelishmovchilikning yo'qligi (Yugoslaviyadan tashqari), G'arb bilan kam xajmda bo'lsa ham iqtisodiy aloqalar olib borilganligini ham e'tiborga olish mumkin.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirish bilan bog'langan islohatlarni asosan to'rt guruhga bo'lish mumkin:

1. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash – soliq va kredit siyosatlari to'g'ri yo'lga qo'yish.

2. Iqtisodiyotni erkinlashtirish – ichki baholarni isloh etish, tashqi savdoni erkinlashtirish, resurslar taqsimoti, ish haqi, mehnat bozori, moliyalarni erkinlashtirish, bank tizimini isloh etish va h.k.

3. Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish – privatizatsiya, nodavlat mulklarini rivojlantirish, monopoliyaga barham berish va tuzumiy-shakliy o'zgarishlarni amalga oshirish.

4. Davlat rolini o'zgartirish – qonunlar, institutlar, davlat moliyasi va soliqlashtirishlarni isloh etish.

Qisqa muddatli davr ichida bu vazifalar ziddiyatni yuzaga keltirishi mumkin. Aytaylik, inflyatsiyaning o'zi investitsiyani susaytiradi, chunki u rag'batlantirmaydi. Bu esa tuzumiy o'zgarishlar sharoitini yomonlashtiradi. Inflyatsiyaga qarshi siyosat ham iqtisodiyotga katta salbiy ta'sir etishi mumkin. Chunki qat'iy, cheklantiruvchi siyosat, aynan muomaladagi pul miqdorini kamaytirish, kredit foizlarini ko'tarish kabilar iqtisodiyotni jonlantirmaydi, balki harakatini susaytiradi.

Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarida bozorni shakllantirish bilan bog'liq jarayonlar birinchi navbatda erkinlashtirish bilan bog'langan edi. Iqtisodiyotda davlat monopoliyasiga barham berish 80 – yillardayoq boshlanib, 90 – yillarda yakunlangan edi. Vengriya, Polsha, sobiq Yugoslaviyada 90 – yillar boshidayoq tovarlar, xizmatlarning ko'pchiligiga baholar chegaralanishi bekor qilingan edi. Barcha bu mamlakatlarda yangi xususiy tadbirkorlik korxonalarini uchun

to'la yo'l ochilib, chegaralar olib tashlanadi. Direktiv rejalashtirish yo'q qilinib, iqtisodiy vakillarning chet mamlakatlar bozorlariga chiqishlari uchun ruxsat beriladi. Bu tashqi savdoni rivojlantirish uchun chet sheriklar bilan xo'jalik aloqalari o'rnatish imkonini beradi.

Fond birjasi, tijorat banklari, nomonopolistik tartiblashtirish, bankrotlik qonunlari kabi bozorga xos yangi institutlar paydo bo'la boshlaydi. Erkinlashtirishning kengayib borishi bilan YAIMda davlat hissasi pasayib boradi. Lekin bunda ehtiyotkorlik sababli o'sish to'xtaydi. Chunki davlat ijtimoiy vazifalarni saqlash maqsadida daromadni taqsimlashda o'z ishtirokini saqlashga harakat qiladi.

Bozor munosabatlariga o'tish va baholar nazoratini yo'q qilib, uning erkin harakatiga yo'l ochish inflyatsiyaning kuchayishiga olib kelib, xatto Polsha, Bolgariya va Xorvatiyada giperinflyatsiyagacha yetib boradi. Lekin Markaziy-Sharqiy yevropa mamlakatlarini juda tez va bir-ikki yil ichida bundan qutilib nisbatan toqat qilsa bo'ladigan darajaga tushurishga ulguriladi. Lekin Bolgariya va Ruminiyada kuchli inflyatsiya ancha uzoq cho'ziladi.

Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bunday sharoitda eng muhim vazifa edi. Bunga qaratilgan choralar byudjetni qat'iy chegaralash, xatto ma'lum vaqtgacha aholi daromadini qotirib qo'yish va bunda valyuta kursidan faol foydalanish yo'li bilan narx-navoga ta'sir o'tkazish kabilar qo'llaniladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish esa jahon narxi darajasiga chiqish, ichki bozorda raqobat darajasini ta'minlash va maxalliy monopol korxonalarining narx-navoga bo'lgan ishtahasini so'ndirishga yordam qilish kerak edi.

Inflyatsiyaga qarshi dasturlarni qo'llab uni nazorat qilinadigan darajada saqlab turish mumkin edi. Lekin amalda uni 20-40 foizga yetkazgan xolda undan pastga tushurishga erisha olmadilar. Rejali – markaziy tizimdan qolgan tuzumiy nomutanosiblik mavjudligi va haqiqiy raqobat muxiti yaratilmaganligi bunga asosiy sabab bo'lgan.

Moliyaviy barqarorlik Markaziy yevropa mamlakatlarida ancha muvaffaqiyatli bo'lgan. Chunki pul-kredit sohasida oqilona chegaralovning qo'llanilishi samarali bozor infratuzilmalarining yaratilishi va ishlab chiqarishni,

ayniqsa mayda biznesni yuzaga keltirish bilan bog`liqligi qo`l kelgan. Markaziy-Sharqiy yevropa mamlakatlarining kredit-pul siyosati hukumat va tijorat banklariga kredit berish, muomaladagi pul miqdorini qisqartirish, pul aylanishini tezlashtirish kabilarga qaratilib, inflyatsiyaning oldini olish imkoni tug`iladi.

12.3. Davlat mulkini xususiylashtirish

Bozor iqtisodiga o`tishdagi eng muhim jarayon davlat mulkini xususiylashtirishdir. Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarida sotsialistik iqtisodning asosi davlat mulki bo`lib, asosiy ishlab chiqarish vositalari ijtimoiy mulkkka aylantirilgan va xususiy mulkchilik qisman saqlangan bo`lib, u ham bo`lsa asosan oz miqdordagi mayda xo`jaliklarga oid bo`lgan xolos. Bozor munosabatlari esa xususiy mulkchilikni talab etib, busiz hech samara berishi mumkin emas edi.

Davlat mulkini xususiylashtirishning bir necha modellari mavjud. Bular nominallashtirish, sotish va bepul taqsimlashlardan iborat. Nominallashtirishda mulkni eski egalari qaytarish ko`zda tutiladi. Bu restitutsiya deyilib, barcha Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarida qo`llanilgan. Bunda mulk milliylashtirishdan oldin kimga qarashli bo`lsa o`ziga yoki merosxo`rlariga qaytarilgan. Bu albatta katta qismni etashkil etmagan.

Davlat korxonalarini sotish Bolgariya, Vengriya, Polsha, Yugoslaviyada keng qo`llanilib, Chexiya va Slovakiyada qisman qo`llanilgan. Bunda ko`proq davlat korxonalarini aksioner jamiyatlarga aylantirish, korxonada xodimlariga mulkka egalik huquqini berish, korxonani auksion orqali sotish, aksiyalashtirish va aksiyalarni erkin savdoga tashlash kabilar qo`llanilgan. Shu bilan birga bankrotlik qo`llanilib, aksiyalashtirish yoki sotish usularidan foydalanilgan.

Tekinga taqsimlash ham bu mamlakatlarda keng qo`llanilib, buni ommaviy xususiylashtirish ham deb ataladi. Bu aholining asosiy qismi kapitalga ega bo`lmaganligi va chet kapital oqimi kamligiga asoslangandir. Buning dastlabki shakllari vaucher (sertifikatlar, kupon kabi)larni aholiga tarqatish bo`lib, so`ngra venchurlarni korxonalar aksiyalariga almashtirish yuz beradi. Bu bilan aholi milliy boylikka aksiya orqali ega bo`lishi ko`zda tutiladi. Pravordida qonun bilan

belgilangan muxlatdan so`ng venchurlar muomaladan chiqarilib, aksiyalarni sotib olish faqat pul bilan bo`ladi.

Xususiylashtirishni tezda va birdaniga amalga oshirish mumkinligi o`rganilib, uni qayta ko`rib chiqish fikri tug`iladi. Chunki birdaniga xususiylashtirish davlat mulkini nazoratsiz taqsimlanishiga aylanib ketadi.

Xususiylashtirish “kichik” va “kattaga” bo`linib, usullari shunga qarab ishlatiladi. “Kichik” xususiylashtirish mayda va o`rta korxonalariga taalluqli bo`lib, ijaraga berish, sotish, restitutsiya (oldingi egasiga qaytarish) usulida juda tez amalga oshib borib, 90 – yillar boshidayoq keng qo`laniladi. Magazin, restoran, kichik va o`rta korxonalar pulga xususiy mulkdorlarga sotiladi. “Kichik” xususiylashtirish iste`molchilarning manfaatlarini hisobga olgan xolda amalga oshiriladi. Masalan, Chexiya va Slovakiyada ma`lum vaqtgacha sotib olingan korxonalar faoliyatini o`zgartirish ta`qiqlangan. Bunda foyda darajasiga qarab ijtimoiy zarurligiga e`tibor bermaslikka yo`l qo`yilmagan.

“Katta” xususiylashtirish katta qiyinchiliklarga duch kelib, radikal usul ham ketma-ket, asta-sekinlik usullari ham yaxshi samara bermay, juda sekinlik bilan siljir edi. Masalan, Polshada xususiylashtirish qattiq kirishgan xolda 1990-1996 yillar ichida xususiylashtirish qo`liga faqat 250 yirik davlat korxonalari o`tgan xolos. “Katta” xususiylashtirish pullik va pulsiz asosda amalga oshirilgan.

Vaucher asosidagi xususiylashtirish Chexiya, Slovakiya, Bolgariya, Polsha, Ruminiya davlatlarida qo`llanilgan. Bu mamlakatlar fuqarolari vaucher, sertifikat, bonlar olishgan va bu asosda xususiylashtiriladigan davlat mulkining ma`lum qismiga egalik qilish huquqini qo`lga kiritishgan. Bu kuponlar shaxsiy nomlangan bo`lib, ularni qalbakilashtirish ancha og`ir bo`lgan. Bu vaucherlar asosida fuqarolar xususiylashtirish natijasida ancha salmog`li mulkka ega bo`lish huquqini qo`lga kiritganlar. Aytaylik, Chexiyada – ming dollarga yaqin, Ruminiyada – taxminan 500 dollarga yaqin qadrga ega bo`lgan. Amalda faqat Chexiyada bu kuchga ega bo`lib, qolganlarida davlat mulkini taqsimlashda haqiqiy kuchga ega bo`lmagan va vaucherlar ta`sirli bo`lmagan.

Xususiylashtirishda Vengriyada ham o`ziga xoslik ko`p bo`lgan. Birinchidan, vengerlar tekinga mulkni topshirishdan voz kechishgan va mehnat jamoalari albatta korxonalar qiymatini to`la qoplashlari zarur bo`lgan. Xususiylashtirish faqat oldi-sotdi asosida amalga oshuvi mumkin bo`lgan. Bundan faqat ijtimoiy sug`urta, cherkov, mahalliy o`zini-o`zi boshqaruv organlari istisno bo`lgan.

Yirik korxonalar sotilishida 15-20 foiz aktivlar auksionlarda xususiy investorlarga, ayniqsa chet investorlarga sotiladi. Shunday qilib, Vengriyaning davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan daromadning 1991 – yildagi 80 foiz va 1992 – yildagi 60 foiz chet investorlarga to`g`ri kelgan. Ikkinchidan, Vengriyada xususiylashtirish shakllarini tanlashda qat`iy chizmalardan voz kechilgan. Bu davlat mulk agentligi va davlat korxonalarini tashabbusi bilan amalga oshuviga yo`l qo`yilgan. Uchinchidan, Vengriya hukumati barcha davlat korxonalarini xususiylashtirishni maqsad qilib qo`ymagan. Ayniqsa harbiy ishlab chiqarish, qurol sotish, o`rmon xo`jaligi kabi korxonalar davlat mulkida qolishi ko`zda tutilgan. To`rtinchidan, xususiylashtirish davlat qarzini qoplashni ko`zlagan. Taxminan 75-85 foiz xususiylashtirishdan keladigan daromad davlat qarzini kamaytirishga atalgan.

Vengriyada qishloq xo`jaligidagi xususiylashtirishda uning yuqori darajali taraqqiyoti ahamiyatli bo`lgan. Bu boshqa Sharqiy yevropa mamlakatlari ichida Vengriyani aloxida o`ringa qo`yadi. Agrar islohatlar ikki asosiy yo`nalishda amalga oshib, birinchisi yerlarni xususiylashtirish va yirik xo`jaliklarning o`zgarishi bo`lsa, ikkinchisi davlat xo`jaliklarini aksioner jamiyatlarga aylantirilgan. Natijada barcha qishloq xo`jalik yerlarining 86 foizi xususiy egalikka topshirilgan. Vengriyada restitutsiyadan voz kechib, sobiq xususiy yer egalariга ko`rilgan zarar mulk faqat qisman qoplangan.

Polshada xususiylashtirish iqtisodiyotning xususiy qismini tez rivojlantirish imkonini tug`dirdi. Oldin bunday xo`jaliklar qishloq mavjud bo`lib, 90 – yillar boshidayoq qishloq xo`jalik mahsulotlari qiymatining 80 foizini tashkil etar va 85 foizdan ortiq xo`jalikni o`z ichiga olar edi. Xususiylashtirish natijasida xususiy sektor umuman juda tezlik bilan kengayib bordi. Moddiy ishlab chiqarishda u yagona tez rivojlanayotgan sohaga aylanib, davlat iqtisodiyoti tushkunligidan ushlab turuvchi

hisoblanadi. Eng muhimi xususiy sektorning mayda ishlab chiqarishda, savdoda va xizmat ko`rsatishlarda tezlik bilan o`shishi keyingi xususiylashtirish uchun negiz bo`ladi va keng xajmda xususiylashtirishni amalga oshirishning ichki manbaalariga aylanadi.

Lekin Polshada xususiylashtirish kutilganidek tezlik bilan amalga oshmaydi. Birinchi bosqichi muvaffaqiyatli bo`lsa, keyingilari sekinlik bilan davom etadi.

Bu to`lov talabi, moliyaviy va ijtimoiy muammolar, institusional tayyorgarlik past darajada bo`lishi kabilarga duch kelib, xususiylashtirish davlatni boyitishga olib kelmaydi. Hatto davlat soliq xajmini qisqartira boshlaydi. Xususiy sektor davlat korxonalarini siqib chiqarishi mumkinligi amalga oshmay, hatto bankrotlik xususiy sektorning faolashuvi tezlashib boradi va 1992 – yildan boshlab bozorga o`tishdagi eng og`ir bosqich bosib o`tilib, ishlab chiqarish tushkunligi to`xtatila boshlaydi.

Barcha Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarida agrar islohat natijasida yerlar davlat va kooperativ mulkidan xususiyga aylantiriladi. Qonuniy ravishda yerga xususiy mulk tiklanib, u taqdirlanadi. Lekin ihtiyoriy ravishda yer hamda texnikadan kooperativ asosda foydalanish huquqi ham saqlanadi. yerni sotish, sotib olish Polsha, Yugoslaviya, Chexiya, Vengriya mamlakatlarida keng qo`laniladi. yer bozori bu mamlakatlarda keng rivojlanmoqda.

Ammo bu umuman mamlakatalarda mulk shakllarining o`zgarishi kutgan darajada tez amalga oshayotgani yo`q. Buning asosiy sabablari aholida tegishli miqdorda pul resurslarining bo`lmasligi, xususiylashtiriladigan korxonalarining past daromadliligi kabilar bo`lishi kerak. Shu bilan birga bu jarayon sekinlik bilan davom etib, kam samara bermoqda.

12.4. Iqtisodiyotdagi tuzumiy o`zgarishlar

Markaziy-Sharqiy yevropa mamlakatlarining iqtisodiy tuzumiy o`zgarishi ikki tomonlama zaruriyatga aylanadi. Birinchidan, bozor iqtisodiyotiga o`tish bilan belgilansa, ikkinchidan O`zaro iqtisodiy yordam kengashidan chiqish bilan belgilanadi. Bu mamlakatlar ilgari sobiq SSSR boshliq iqtisodiy birlashmada bo`lib, ishlab chiqarish sharqiy mamlakatlarda, sobiq sotsialistik iqtisodiy mamlakatlar bilan

birlashgan xolda va ularning talabi asosida shakllanar edi. Bundan tashqari ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasi nisbatan past darajada edi. Bozor munosabatlariga o'tish esa bunga qo'shimcha ravishda tuzumiy o'zgarishlarni talab etadi.

Tuzumiy o'zgarish va bozor xo'jaligiga o'tish avvalo yangi texnologiyaga asoslanish, progressiv tarmoqlarni yaratish, raqobatbardoshlikni ta'minlash, zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga moslashuvlar bilan ifodalanadi. Bozorga o'tishdan oldin bu mamlakatlar uchun og'ir sanoat va mashinasozlik asos bo'lib hisoblanib, sanoat ishlab chiqarishining YAIMdagi hissasi yuqori bo'lgan. Masalan, Ruminiyada – 61, Bolgariyada – 58, Chexoslovakiyada – 57, Polshda – 52, Vengriyada – 36 foizga to'g'ri kelgan. 90 – yillar oxiriga kelib esa, 25 dan 33,2 foizga, qishloq xo'jalik 6,6 dan 12 foizgacha, qurilish 7 dan 11 foizgacha to'g'ri keladi.

Sanoatning YAIMdagi qisqarishi birinchi navbatda og'ir sanoat tarmoqlariga to'g'ri keladi. Buning sababi avvalo norentabel korxonalar hisobiga bo'lsa, so'ngra talabning kamayishidir. Chunki mahsulot ishlab chiqarish sobiq SSSR va boshqa O'zaro iqtisodiy yordam kengashi mamlakatlariga qaratilgan bo'lsa, endi bu tub o'zgaradi. Shu bilan birga xomashyo manbaalari ham o'zgarib, davlat dotatsiyalari to'xtaydi.

Ayniqsa yuqori texnologiyali elektronika kabi tarmoqlar katta zarbaga duch keladi. Bundagi asosiy sabab G'arbiy mahsulotlarning ancha arzonligi va raqobatbardosh bo'ladi. Sanoatda eng raqobatbardoshli tarmoqlar to'qimachilik, oziq-ovqat, yog'ochga ishlov berish, bosmaxona kabilar hisoblanib, bular talabli iste'molga ega bo'ladilar. Bundan tashqari bu tarmoqlar katta investitsiya talab etmaydi va arzon ishchi kuchi mavjudligi bilan G'arb mahsulotlariga raqobatbardosh bo'la oladi. Lekin baribir bu tarmoqlar ham kengaya olmagan va boshqalarga nisbatan kamroq qisqargan, xolos.

Shu bilan birga bir necha tuzumiy o'zgarishlar yuz berishi sezilib, tuzumiy tarmoqlarning bir-biriga yaqinlashuvi, tenglashuvi kabi xodisalar amalga oshadi. Qo'llanilayotgan texnika asta-sekin muntazam energiya tejamli bo'lib boradi. Yangi

xil ishlab chiqarishlar yuzaga keladi va buning hisobiga ishlab chiqarishning to'xtovsiz tabaqalashishi yuz beradi. Sanoatning diversifikatsiyalashuvi kuchayib, ishlab chiqarishlar o'rtasida o'zaro ayriboshlash rivojlanadi.

Avvalo mashinasozlikda tuzumiy o'zgarishlar amalga oshirilib, umuman investitsiya o'sadi va ayniqsa ITKTI (ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik-tajriba ishlari)ga kapital xarajatlar ko'proq sarf etiladi. Texnika va texnologiyaning o'sishi sababli an'anaviy sanoat tarmoqlari asoslari va tuzumlari o'zgaradi. Yangi ilm sig'imli tarmoqlar paydo bo'ladi. Masalan, avtomatika ishlab chiqarish, radioelektronika, EHM, robot texnika kosmik va lazer texnikasi kabilar shular jumlasidandir.

Metallurgiyada sifat o'zgarishi yuz berib, sifatli po'lat chiqarish, ijara buyumlarining tejamllilarini ishlab chiqarish o'sadi. Bu sohada ayniqsa Chexiya va Polsha ko'p samarali ishlarni amalga oshiradi. Sanoatning ba'zi tarmoqlarida tub o'zgarishlar yuz beradi. Masalan, Polshada 1995 – yildan boshlab ko'mir qazish sanoatida keskin o'zgarishlar berib, qoloqlikdan chiqariladi. Chunki u ancha yillardan beri tushkunlikda davom etar edi.

Qishloq xo'jaligini olsak, agrar siyosatning bu mamlakatlardagi eng muhim vazifalari mahsulot yetishtirishning muntazam o'sib borishini amalga oshirgan xolda aholini ular bilan to'la ta'minlashdan iboratdir. Qishloq xo'jaligida bandlik 25 foizni tashkil etib, u YAIMning 8 foizini ta'minlaydi. Bu mamlakatlar agrosanoat kompleksida asosiy ishlab chiqarish fondlari va mehnat resurslarining 20-30 foizgachasi banddir. Ijtimoiy yalpi mahsulotning 25-40 foizgachasi shu tarmoqqa to'g'ri keladi.

Hozirgi vaqtda bu mamlaktalar qishoq xo'jaligida agrar ishlab chiqarishning tuzumida faol ravishda o'zgarishlar davom etmoqda. Narx-navoni to'la va qisman erkinlashtirish, tovar ishlab chiqaruvchilarning to'la erkinligini ta'minlash asosida bozor munosabatlari muntazam ravishda rivojlanmoqda. yerga bo'lgan egalik, xo'ajiklar tuzumi o'zgarib bormoqda.

Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlariga o'tish bu mamlakatlarda deyarli o'z asosi bo'yicha bir xilda davom etmoqda. Ammo tezligi, nodavlatlashtirish xajmi,

xususiylashtirish shakllarini tanlashda farqlar mavjud va ba'zi xollarda bu farqlar ancha kattadir.

Aytaylik, Vengriyada yerga egalikni xususiylashtirish bilan birga dehqon-fermer xo'jaliklarining shakllanishi qo'llanilmoqda. Ammo ayni vaqtda ularni qo'llash va kooperativ mahsulotlarini xarid qilish, norentabel ishlayotgan xo'jaliklarni o'zgartirish, faoliyatini to'xtatish kabilarga e'tibor susaymoqda.

Polshada oilaviy va individual shaklli xo'jalik qishloqda asos bo'lib kelgan va mahsulot xosil qilishning 75-80 foizi shunga to'g'ri kelgan. Agrar siyosatda norentabel xo'jaliklar faoliyatini to'xtatish, yer bozorini jonlantirish, qishloq xo'jalik infratuzilma va servisga e'tibor berish, ayniqsa mahsulotni qayta ishlash va qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish kabilarga doimo e'tibor qaratiladi.

Chexiya va Slovakiyada esa vaqtincha foydalanilmayotgan yerlarni ishga solish, fermer xo'jaliklarini soliqdan ozod qilish tufayli qo'llash kabilardan foydalaniladi. Umuman yirik xo'jaliklar asos bo'lib qolmoqda. Qishloq jlylarda xo'jalik turlarini ko'paytirish taqdirlanadi.

Bu mamlakatlarda islohatlarning boshidanoq iqtisodiy o'sishga xos soha xizmat ko'rsatishdir. Bu asosan moliya va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlariga xosdir.

Bu mamlakatlarda aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning YAIMdagi hissasi rivojlangan mamlakatlar darajasida bo'lib, 1993 – yildayoq Polshada – 21, Vengriyada – 22,5, Chexiyada – 14,6 foizga teng bo'lgan. Ijtimoiy ta'minotga bo'lgan ajratma bu mamlakatlarda dunyo bo'yicha eng yuqori darajadagilardir.

Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarida ijtimoiy xarajatlar darajasi diqqatga sazovorligi juda ahamiyatlidir.

12.5. Tashqi iqtisodiy aloqalar

Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlari an'anaviy ravishda tashqi bozor bilan bog'lanib kelgan. Eksport kvotasi YAIMga nisbatan 20-40 foizgacha bo'lgan. Lekin islohat davrida tashkiliy va tizimli o'zgarishlar tashqi iqtisodiy aloqalarda erkinlik asos bo'lishi bilan jahonga chiqish sharoitlari yuzaga keldi. Lekin

rivojlangan mamlakatlarga nisbatan texnik mahsulotlar raqobatbardoshligi, mehnat unumdorligi darajalarida orqada qolish muammosini xal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy va iqtisodiy o`zgarishlar tufayli G`arbiy yevropa mamlakatlari bilan tashqi aloqalar kuchaytirila boshlandi va bunda asosiy yo`nalish yevropa Ittifoqiga qaratildi. 1997 – yilga kelib Vengriya, Polsha, Slovakiya, Chexiya mamlakatlarining yevropa Ittifoqiga haqiqiy a`zligi to`g`risida kelishuvlar boshlandi. Shuningdek qo`shilishga tayyorgarlik ishlari Bolgariya, Ruminiya va Sloveniyada ham boshlandi. Avvalo bu mamlakatlar yeIga qo`shilish maqsadida 1993 – yildayoq Markaziy yevropa erkin savdo assosatsiyasini tuzgan edi. Hatto bu birlashma a`zolari o`rtasida 90 foiz sanoat-tovarlar xolatlari bo`yicha boj to`lovlar bekor qilingan edi. Qishloq xo`jalik mahsulotlari bo`yicha ham proteksionizm siyosati qo`llanildi.

G`arbiy yevropacha mo`ljal eksport tovrular tuzumining yomonlashuviga duch keladi. Shunga ko`ra hozircha tashqi savdoda qishloq xo`jalik mahsulotlari asosiy o`rinni egallaydi. Shu bilan birga iste`mol buyumlari, qora metal, ximikatlar ham asta-sekin o`z o`rnini topa boshlaydi. Faqat Chexiya va Polsha mashina eksporti imkoniga ega bo`lib, umumiyning 25% darajasigacha olib borishga erishilgan.

Iqtisodiy islohatlarning dastlabki yillaridayoq Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarida davlat maxsus tashqi aloqalar firmalari bilan birga mulk shakllaridan mustasno barcha korxonalariga tashqi savdo bilan shug`ullanish imkoni berilgan edi. Bu tashqi iqtisodiy aloqalar bilan shug`ullanuvchi tashkilotlarning ko`payishiga olib keladi. Ochiq iqtisodiy aloqalar o`rnatishda davlatlar tomonidan valyuta monopoliyasining bekor qilinishi qo`l kelgan. Natijada importyorlar chet valyutalarini ma`lum banklardan sotib olish imkoniga ega bo`ladi. Shu bilan birga eksportyorlar ham o`z valyutalarini shu banklarga sotishi zarur edi. Dastavval yuridik shaxslarga xususiy valyuta vositalariga egalik qilish huquqi berilmagan edi. Polsha va Vengriyada valyuta holati ancha yaxshi bo`lishiga qaramasdan bunday xolda bekor etilmagan. Chexiya va Slovakiyada valyuta pozitsiyalarini yaxshilagan xolda o`z korxonalariga milliy tijoriy banklarda o`z hisobini ochishga ruhsat berilgan.

Shularga qaramay Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarida kapital eksporti bo'yicha ancha to'siqlar mavjud edi. Ayniqsa, chet mamlakatlarda ko'chmas mulk sotib olish va to'g'ridan-to'g'ri portfel investitsiyasi bo'yicha qilinadigan to'lovlar qattiq nazorat ostida edi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda investitsiyaning o'rni o'sib bormoqda. Bu mamlakatlarga chetdan keladigan investitsiyaning umumiy miqdori 1989-1997 yillarda 40 mlrd. dollarni tashkil etgan. Chet investitsiyasi uchun eng qulaylari Vengriya, Chexiya va Polsha hisoblanadi. Buning sababi taraqqiyot darajasi, bozor islohatlarining tezlik bilan amalga oshirilishi, keng xajmdagi xususiylashtirish, turli imtiyozlar mavjudligidan iboratdir.

Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlari uchun chet investorlarga mulkni sotish uchun byudjetga tushumlardan tashqari korxonalarini texnik qayta qurish, yangi ishlab chiqarish va texnologiyani qo'llash, tajribali menejerlarni jalb etish imkoniyatlari tug'iladi. Chet investitsiyalari asosan avtomobilsozlik, elektrotexnika, kimyo, qog'oz ishlab chiqarish, oziq-ovqat sanoatlari qaratilgan. Korxonalarini qayta tiklash, mahsulotlar raqobatbarboshligini ko'tarish chet bozorlarga kirish, eksportni kengaytirish imkonini oshiradi.

Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlaridagi chet investitsiyasini kengaytirishga ishonch quyidagilarga asoslangandir: mutaxassislik va arzon ish kuchi mavjudligi; qulay geografik joylashuv; o'rta tabaqa shakllanuvi sababli ichki talabning o'sib borishi. Ya'ni ichki bozorning kengayish imkonlari va erkin qonunchilik mavjudligidan iborat. Amalda bunga qarshi omillardan qonunchilikning kamchiliklari, siyosiy va iqtisodiy vaziyatdagi ba'zi noqulayliklar, kasaba tashkilotlari faolligi kabilar ta'siri ostida 90 – yillarda chet investitsiyasini ko'zlagan darajada bo'lmagan.

Bozorga o'tishning boshlang'ich yillarida asosan qishloq xo'jalik mahsulotlari eksport etilgan bo'lsa, keim importer milliy qishloq xo'jalik ishlab chiqarish o'sib borishi bilan bu qisqaradi, chunki o'zini-o'zi ta'minlash darajasi o'sadi. Bunday xolat sanoat mahsulotlari eksportining kuchayishini taqozo etadi. Shunga ko'ra mashinasozlik mahsulotlari eksportini kuchaytirishga harakat qilinadi.

Buning uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik darajasini ko'tarish, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish uchun katta harakatlar qilinadi. Bu mamlakatlarda mashinasozlik umumiy eksportda 30-60% gacha boradi, shuni ichida rivojlangan mamlakatlar hissasi 6-7% ni tashkil etadi.

Importda tashqi savdo aylanishida mashina va jixozlarga katta o`rin ajratilib, importning 30-70 foizini tashkil etgan. Shu bilan birga importdagi eng muhimlar neft, toshko`mir, temir ruda, cho`yan, rangli metallar hisoblanadi. Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyotida yeIga qo`shilish muhim o`rin egallaydi. Birinchi navbatda Vengriya, Polsha, Sloveniya va Chexiya qo`shilsa so`ngra Bolgariya, Ruminiya va Slovakiyalalar qo`shildi. Buning uchun katta tayyorgarlik ko`rilib, qo`shilish shartlarini bajarish talab etildi. Bu vazifalar ichida eng muhimlari G`arbiy yevropa standarti darajasida bo`lish, xalqaro mehnat taqsimotida arzigulik o`rinni egallashdir. Xalqaro maxsuslashuviga xos yangi tarmoqlarning shakllanishi va to`la demokratiya o`rnatilishi kabilardan iborat bo`lgan.

Xulosa qilib aytganda, keyingi o`n yillik ichida bu mamlakatlar o`tuvchi iqtisodli bo`lib, mamlakatda bozor iqtisodiga o`tish amalga oshmoqda. Shu bilan birga o`tish davrining boshlang`ich yillaridek iqtisodiy taraqqiyot darajasi, ma`muriylik saqlanishi bilan bozor munosabatlariga o`tish, aholi mentaliteti, rivojlangan mamlakatlarga nisbatan iqtisodiyotning ochiqligi kabilar mavjudligi ham xosdir. Aytaylik, Chexiya va Sloveniya mamlakatlari bozorga o`tishda ancha oldinga siljishib, Bolgariya va Ruminiya kabilardan ilg`orlashga ulgurgan.

Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlari o`tish iqtisodiyoti mamlakatlari qatoriga kiradi. Chunki bular ham 80 – yillardan boshlab ma`muriy-komanda iqtisodiyotidan hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga o`tayotgan davlatlardir. Bular o`tish muammolarini tizimli islohat yo`li bilan xal qilmoqdalar. Lekin tizimli islohatning turli modellarini qo`llab, bu ichki va tashqi iqtisodiy sohalarda mos kelmoqda.

Barcha Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarida agrar islohat natijasida yerlar davlat va kooperativ mulkidan xususiyga aylantiriladi. Qonuniy ravishda yerga xususiy mulk tiklanib, u taqdirlanadi. Lekin ihtiyoriy ravishda yer hamda texnikadan kooperativ asosda foydalanish huquqi ham saqlanadi. yerni sotish, sotib olish Polsha, Yugoslaviya, Chexiya, Vengriya mamlakatlarida keng qo`laniladi. yer bozori bu mamlakatlarda keng rivojlanmoqda.

Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlari uchun chet investorlarga mulkni sotish uchun byudjetga tushumlardan tashqari korxonalarini texnik qayta qurish, yangi ishlab chiqarish va texnologiyani qo`llash, tajribali menejerlarni jalb etish imkoniyatlari tug`ildi. Chet investitsiyalari asosan avtomobilsozlik, elektrotexnika, kimyo, qog`oz ishlab chiqarish, oziq-ovqat sanoatlari qaratilgan. Korxonalarini qayta tiklash, mahsulotlar raqobatbarboshligini ko`tarish chet bozorlarga kirish, eksportni kengaytirish imkonini oshirdi.

Takrorlash uchun savollar

1. Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarining qanday umumiy tomonlari mavjud?
2. Nima uchun bu mamlakatlar o`tuvchi mamlaktalar hisoblanadi?
3. Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarining bozor munosabatlariga o`tishda qanday umumiylik va farqli tomonlari mavjud?
4. Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyoti qaysi darajada?
5. Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarining yevropa Ittifoqiga qo`shilish istiqboli qanday va bu nima beradi?
6. yeI ning vujudga kelishiga nimalar sabab bo`lgan?
7. yeI ga a`zo mamlakatlar ichida iqtisodiy qudratga ega mamlakatlarni bilasizmi?
8. Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarida raqobatbardosh kompaniyalarni sanab bering?

9. Ushbu mamlakatlarda jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlari nimalarda nomoyon bo`ldi?

10. Ushbu mamlakatlarning jahon bozorida tutgan mavqeyi xaqida nimalarni bilasiz?

13-BOB. YEVROPA ITTIFOQI BOZOR IQTISODIYOTI XUSUSIYATLARI

13.1. G`arbiy yevropa mamlakatlarining rivojlangan iqtisodiyoti

Odatda G`arbiy yevropa qit'aning juda katta qismini tashkil etib, 20 dan ortiq mamlakatlarni o`z ichiga oladi. Chunki, Shimoliy va Janubiy yevropa mamlakatlarini ham bunga qo`shishadi.

Buning ichida yirik, o`rta va kichik davlatlar mavjud. Bularning barchasi rivojlangan hisoblanadi va o`zidan-o`zi ularning o`zaro bog`liqlilik, faoliy yaqinlashuviga olib keladi. Avvalo integratsiyalashuv jarayoni tufayli G`arbiy yevropa yagona xo`jalik kompleksiga aylanmoqda. Hozir bu jahondagi eng yirik uch "markaziy kuch"ning bittasiga aylangan, ya'ni bir tomonda AQSH va ikkinchi tomonda Yaponiya bo`lsa, uchinchi tonda yevropa Ittifoqidir.

O`zbekiston Respublikasi va EI o`rtasidagi hamkorlik 1992 yilning 15 aprelida O`zbekiston Respublikasi hukumati va EI Qo`mitasi o`rtasidagi o`zaro hamkorlik to`g`risida Memorandumning imzolanishi bilan boshlandi. 1994 yilning 24 yanvarida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida EI qo`mitasining O`zbekistondagi texnik aloqalar hamkorligi bo`yicha byurosini tashkil etish to`g`risida qaror qabul qilindi. Bu tashkilotlarning maqsadi iqtisodiy islohotlar jarayoni va bozor munosabatlariga o`tishda texnik yordam ko`rsatish, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi hukumati va EI qo`mitasining harakatlarining hamkorligini kuchaytirishdan iborat.

G`arbiy yevropa ishlab chiqarish omillari bilan turli darajada ta'minlangan bo`lib, tabiiy boyliklarga kambag`aldir. Agar mineral xomashyolarning aniqlangan qismi bo`yicha Rossiyada 30-40 trln. dollar, AQSHda 8-8,5 trln, Xitoyda 6-6,5 trln. dollargina hisoblanadi. "Uch kuch markazlari"dan faqat Yaponiyada eng kamdir, ya'ni 0,1 trln. dollar, xolos. Bunday tabiiy taqsimlanuv G`arbiy yevropaning chet dunyoga bu sohadagi qaramligini ko`rsatadi. Shuning uchun ham G`arbiy yevropa mamlakatlari ishlatayotgan 2/5 qism energiyani va 3/4 qism boshqa xomashyolarni import qiladi.

Ish kuchini olsak, bu bilan ortiqcha ta'minlangan. Ba'zi G'arbiy yevropa mamlakatlarida bu ortiqchalik 10-12 foizgacha boradi. Mehnat unumdorligi bo'yicha AQSH va Yaponiyadan orqada. Keyingi 10-15 yillar ichida bu sohada siljish bo'lsa ham ancha farq mavjud. 90 – yillar oxiriga kelib YAIMning jon boshiga taqsimlanishi bo'yicha AQSHning 70,2 foizi Yaponiyaning 82,6 foziga to'g'ri kelgan. Albatta bunday xolatda qoloqroq hisoblangan Gretsiya, Portugaliya, Ispaniya va Irlandining hissasi katta.

Mehnat unumdorligi darajasida ITTKIning o'rni katta. Chunki bu innovatsiyaga kuchli ta'sir etadi. Texnologiya sohasida siljish sezilarli bo'lishiga qaramay, baribir tenglik yo'q. An'anaviy asosli tarmoqlar hisoblangan metallurgiya, mashinasozlik, metalga ishlov berish kabilar bo'yicha AQSH va Yaponiyadan qolishmaydi, kimyo sanoati bo'yicha xatto ilg'orlik ham qiladi. Lekin yangi tarmoqlar bo'lmish mikroelektronika, robot texnika, biotexnologiya, yangi materiallar va optik texnologiya bo'yicha nisbiy qoloqlik davom etmoqda.

G'arbiy yevropa bu sohada tezkor choralar qo'llashga kirishgan va yevropa Ittifoqi (EI)ning ITTKI bo'yicha dasturlar asosida mintaqa mamlakatlarining jips hamkorligi rivojlanishi yaxshi natijalar berishi mumkin. Shuning uchun uch "kuch markazlari" o'rtasida bu sohada yaqinlashuv yuz berishi va ITTKI, innovatsion jarayoni hamda texnologiya bo'yicha katta siljishlar yuz berishini kutsa bo'ladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy model bo'yicha G'arbiy yevropa mamlakatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin:

1.Xo'jalik mexanizmida yuqori qatlam hisoblangan davlatning tartibga solish darajasi bo'yicha yel xatto AQSH va Yaponiyadan ustun turadi. Birinchidan, bu AQSH va Yaponiya TMKlarining o'z sohalarida G'arbiy yevropanikiga qaraganda ustunligini bosish bilan bog'langan. Ikkinchidan, davlatning iqtisodiy rolini kuchliligi ijtimoiy funksiyalari yuqoriligi bilan belgilanadi.

2.G'arbiy yevropada hozirgi davrda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning ijtimoiy yo'nalishi dunyoda eng yuqori hisoblanadi. Davlat eng ko'p ijtimoiy vazifalarni yuqori intensiv tarzda bajaradi. Shuning uchun ham G'arbiy yevropa kapitalizmi "ijtimoiy bozor xo'jaligi" belgisiga juda to'g'ri keladi.

3. AQSH va Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi ichida individualizm tamoyili va ijtimoiy hayotning asosiy qoidasiga aylangan bo'lsa va hamkorlikdan ustunlik qilsa, G'arbiy yevropada individualizm yetakchiligida hamkorlik bilan nisbiy balans yuzaga kelgan.

4. G'arbiy yevropa mamlakatlarida jahon xo'jaligiga ochiqlik va xo'jalik hayotining baynalminalligi yuqori darajadali mavjuddir.

G'arbiy yevropa iqtisodiyotining dunyoga ochiqligi avvalo tashqi savdoda bilinadi. Masalan, eksport va import kvotasi (eksport va importning YAIMga nisbati) yel mamlakatlarida 30 foiz atrofida bo'lsa, AQSHda – 9-11 va Yaponiyada – 11-13 foizga to'g'ri keladi. Bunda resurs asoslarining kamligi va ichki bozorlarning torligini sabab qilib ko'rtaish mumkin.

Bunda eng ko'zga tashlanadigan xolat shuki, tashqi savdoning asosiy qismi shu mintaqaga to'g'ri keladi. G'arbiy yevropa, ayniqsa yelga a'zo mamlakatlari tashqi savdoda bir-biriga sherik hisoblanadi. Shuning uchun tashqi savdoning 70 foizi, ya'ni G'arbiy yevropa mamlakatlararo savdoga to'g'ri keladi. AQSHda esa bu faqat 40 foizini tashkil etadi.

To'ppa-to'g'ri investitsiyada axvol boshqacha va to'g'ri chet kapital xarajatlarning 60 foizi mintaqadan tashqari mamlakatlarga to'g'ri keladi. Chunki investitsiyalash shartlari bo'yicha G'arbiy yevropa mamlakatlari bir-biriga juda o'xshash va bir-biriga investitsiya qilish yaxshi foyda keltirmaydi. Shu maqsadda investitsiya uchun yaxshi sharoitli mamlakatlar tanalanadi. Investitsiya asosan AQSH, yangi industrial mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin yevropa mamlakatlarining iqtisodiy keskin zaiflashuvi, urushdan Amerikaning iqtisodiy kuchli bo'lib chiqishiga qaramay, AQSH G'arbiy yevropani qo'llashga harakat qilib kelgan. Bunda mashhur "Marshall rejasi" iqtisodiy tiklanishda G'arbiy yevropaga hamkorlik qilgan. 80 – yillarga kelib G'arbiy yevropa AQSHga teng sherik darajasiga yetdi. Hozirga kelib, G'arbiy yevropa YAIM miqdori AQSH darajasida bo'lib, tashqi savdo xajmi bo'yicha uch barobar ko'plik qiladi. Investitsiya bo'yicha esa AQSHdagi 2/3 qismi G'arbiy yevropa mamlakatlariga to'g'ri keladi.

Yaponiyaga nisbatan bo'lsa G'arbiy yevropa mamlakatlari AQSH bilan sherik bo'lib harakat qiladilar, uning ekspansiyasiga birgalikda qarshilik ko'rsatishga urinadilar. Yaponiya bilan bo'lgan savdoda G'arbiy yevropa zaiflik qilib, Yaponiya ustunlik qiladi. Yaponiya kapitalining ustunligi yelga nisbatan ikki tomonlamayo'nalishga ega. Birinchisi, Yaponiya uchun kuchli hisoblangan bank sohasi, maishiy elektronika, avtomobilsozlik kabilarga qaratilgan. Ikkinchisi, kimyo, formaçevtika, mashinasozlik kabi yevropa uchun azaliy hisoblanadigan tarmoqlarga qaratilgan.

G'arbiy yevropa mamlakatlari iqtisodiyotining kelajagi ikki yo'nalishda bo'lishi kutilmoqda. Birinchisi, mintaqa ichida integratsiya rivoji jarayonining chuqurlashuvi va kengayishidir. Bu G'arbiy yevropaning jahon xo'jaligida mustaxkamlanish darajasini ancha ko'taradi. Bunda eng muhim voqealardan biri yel mamlakatlarning yagona valyutaga-evroga o'tishidir. Ikkinchidan, integratsiya G'arbiy yevropada xo'jalik hayotining mintaqalashuvi jarayonini tezlashtiradi. Buning amalga oshuvida submintaqaviy xo'jalik komplekslari yuzaga keladi. Kelajakda bandlik muammosi kuchayishi mumkin. Chunki ishga yaroqlilar sonna o'sadi va chetdan keluvchilar ko'payishi mumkin. Shuning uchun turmush darajasi ko'tarilishining tezlashuviga yo'l qo'ymaslik muammosi yuzaga kelishi mumkin.

90 – yillar boshlarida G'arbiy yevropada iqtisodiy o'sish biroz pasayib, 1993 – yildan yana o'sishning yangi davri boshlanadi. Bu albatta Shimoliy Amerikaga va ayniqsa YAIM – yangi industrial mamlakatlarga nisbatan ancha tez bo'lmasa ham ijobiy tomonlari ko'pdir. Chunki buning asosida zamonaviy texnologiya, integratsiyalashuvning tezligi, eksport salohiyatining o'sishi kabilar yotadi. Shu bilan birga ijtimoiy bozor xo'jaligida o'zgarishlar yuz bera boshlaydi.

AQSHga taqqoslagan xolda “yangi yevropa iqtisodiyoti” ustida gap yuritish mumkin. yevropada ijtimoiy bozor xo`jaligida erkinlikka o`tish uncha tez emasligini qayd qilish bilan birga bir qancha yangi milliy xo`jaliklarda yagona yevropada sezilarli siljishlar mavjudligini sezamiz hamda ancha tarmoqlarda erkin bozor shakllanishini ko`rish mumkin.

Biznesning bank va moliya faoliyatlarida, aviatransport, energetika, mas-media kabilarda keyingi yillarda davlat aralashuvi va uni tartiblashtirish choralari ancha susayib, to`la erkinlikka o`tilgan. Raqobat hatto davlat korxonalarining sog`lomlashuviga olib kelib, tadbirkorlik sohasiga yangi turtki bo`lmoqda. Bunday xolat telekommunikatsiyada, uyali aloqa kompaniyalari faoliyatida ham kuzatilmoqda. yevropa kompaniyalari endi shunday aloqa standartlarini qo`llashlari bu tuner yuziga tarqalishi mumkin. Bunda ayniqsa Finlyandiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya kompaniyalari oldinda turadi.

Telekommunikatsiya tarmog`ida bo`lsa Germaniya va Fransiya kompaniyalari namuna bo`lmoqda.

G`arbiy yevropa asta-sekin o`zining eski ana`aviy Osiyo, Lotin Amerikasi va Rossiya bilan bo`lgan tashqi savdo faoliyati ustuvorligini o`zgartirmoqda. Bunda asosiy diqqatni AQSH va Kanadaga qaratmoqda. Buning uchun G`arbiy yevropa kompaniyalari faqat o`z uyida emas, balki Shimoliy Amerika bozorlarida ham raqobatbardosh bo`lishlari kerak. Agar tovar sifati va ilm sig`imligi darajasi bunga

1990 yilning mayida Evroparlament va EI a`zo davlatlari bilan sherikchilik va hamkorlik haqida bitimning ratifikatsiyasi bo`yicha barcha tadbirlar nihoyasiga etdi. 1999 yilning 1 iyulida “Sherikchilik va hamkorlik haqidagi bitim” kuchga kirdi va “EI-O`zbekiston” qo`shma qo`mitasi o`rniga O`zbekiston-EI hamkorlik qo`mitasi tuzildi. 1999 yilning 14 dekabrda 1993 yilning iyunidagi shartnoma muddatini uzaytirgan va o`zbek ishlab chiqaruvchilarining to`qimachilik mahsulotlarini EI bozorida sotish sharoitlarini yaxshilovchi “Evropa Ittifoqi va O`zbekiston Respublikasi o`rtasida to`qimachilik mahsulotlari savdosi haqida bitim” tasdiqlandi. Ushbu bitim 2000 yilning 1 yanvaridan “de-fakto” nomi bilan kuchga kirdi va 2004 yilning 31 dekabrighacha amalda bo`ldi. EI O`zbekistonning muhim savdo-iqtisodiy sheriklaridan biri hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasi va EI mamlakatlari o`rtasidagi tovar ayirboshlashning o`sishi ko`rsatkichlari savdo-iqtisodiy munosabatlarning muvaffaqiyatli rivojlanayotganligidan guvohlik beradi. 2002 yil yakuni bo`yicha O`zbekiston Respublikasining EI mamlakatlari bilan ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi 1 mlrd. 065,8 mln. AQSh dollarinini tashkil etgan, undan 520,6 mln. AQSh dollari eksport, import esa 545,2 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.

mos kelsa ham boshqarish usullari Shimoliy Amerikadek samarali emas. Buning sababi avvalo yevropa ijtimoiy yo`naltirgan model bilan AQSH erkin kapitalizm modeli o`rtasida tafovutdadir. Davlat tartiblashtirilishi o`zgartirilgan yevropa kompaniyalari va tarmoqlari raqobatda muvaffaqiyatga erisha olmayotgan bo`lsa, bu usulni saqlab qolayotgan yeI ishlab chiqaruvchilari ustida bunday deb bo`lmaydi. Lekin yevropada bir qancha iqtisodiy tarmoqlar yeI mamlakatlari uchun global raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan juda kuchli asoslar mavjud. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aviasozlik (Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya);
- bank faoliyati (Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Germaniya, Ispaniya);
- biotexnologiya (Germaniya);
- avtomobilsozlik (Germaniya, Fransiya);
- raqamli televideniya (Fransiya);
- moliyaviy xizmatlar (Buyuk Britaniya, Lyuksemburg);
- sug`urtalash (Niderlandiya);
- mobil aloqa (Finlyandiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya);
- nashriyot ishlari (Germaniya);
- dasturiy ta'minot (Germaniya, Belgiya, Irlandiya);
- to`qimachilik (Italiya);
- suv ta'minoti (Fransiya).

Yuqorida qayd qilingan global raqobatdoshlik tarmoqlari mavjudligiga qaramasdan yeIdagi kuchli fuqarolar ijtimoiy himoyasi mehnat bozorini susaytiradi va o`z navbatida tadbirkorlik rivojini kerakli darajada rag`batlantira olmaydi. yevropaliklar hayotni sug`urtalashning davlat kafolatligi tarafodoridirlar. Shuningdek, mehnat munosabatlarini qattiq tartiblashtirish, nafaqa ta'minoti, ishsizlik nafaqalarida ham davlat kafolatlari bo`lishini talab etadilar. Ijtimoiy kafillikning kuchayishini saylovchilar tomonidan qo`llanilishi natijasida yeIning 15 mamlakatidan 13 tasi so`l oqimli partiyalar hukumat ustida turadi. Bu mamlakatlarda ijtimoiy himoya juda yuqori darajadadir va tadbirkorlik ham avjida emas. Bularning asosida ijtimoiy bozor xo`jaligi modeli yotadi. AQSH bilan raqobatbardosh bo`lish uchun

yevropa o`zini yangilash arafasida turibdi. Bu ayniqsa bozor ijtimoiyligiga taalluqlidir.

13.2. Yevropa Ittifiqigacha bo`lgan bozor iqtisodiyoti rivoji davrlari

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi 1945-1957 yillar ichida yevropada xo`jalikni tiklash davri boshlangan. Iqtisodiyotga urush juda katta talofatlar keltirgan va yevropaning tashqi savdo kapital eksporti va importiga katta zarar keltirilgan edi. Natijada AQSHga qaram bo`lib, dollar hukmronligi ta`minlangan edi. “Marshall rejasi” deb atalmish tadbir ostida katta xajmli yordam amalga oshirildi. Bu reja bo`yicha 12,3 mlrd. dollar AQSH tomonidan ajratilib, o`z davrida juda katta xajmdagi mablag` edi. Asosan bu yordamni Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya mamlakatlari oladi. L. Erxard islohati amalga oshiriladi.

Amaliyot shuni ko`rsata boshlaydki, o`z kuchlarini birlashtirishgina yangi raqobat sharoitida yashash, chidash imkonini bera oladi. “Marshall rejasi” asosida olinadigan yordamdan foydalanish va uni taqsimlash uchun 1949 yilga kelib Fransiya tashabbusi bilan yevropa Kengashi tuziladi. 1950 – yili Fransiya tashqi ishlar vaziri Robert Shuman Germaniyaga murojaat etib, tinchlik tamoyili asosida munosabat qurishni taklif etadi. So`ngra bu kegayib, rivojlanadi va “Shuman rejasi”ga aylanadi.

Buning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

-ziddiyatlar va ixtiloflar bilan bo`linish o`rniga tinchlik sevar yevropani qurish;

-yagona yevropani qurishdagi ketma-ketlik, boj ittifoqi tuzish bosqichidan yevropada iqtisodiy valyuta Ittifoqlari tuzishga o`tish;

-iqtisodiy integratsiya asosida yagona yevropa qurishni boshlash;

-integratsiya va umumiy institutlar tizimining huquqiy negizini shakllantirish.

Xo`jalikni tiklashda muvaffaqiyatlar qo`lga kiritilib, rivojlanishga asos solina boshlaydi. Bundan

2002 yil davomida tovar ayirboshlash hajmi bo`yicha EI mamlakatlari ichida respublikamizning eng yirik savdo sheriklari: Buyuk Britaniya (302,0 mln. AQSh dollari), GFR (250,8 mln. AQSh dollari), Italiya (123,8 mln. AQSh dollari), Bel giya (95,5 mln. AQSh dollari), Frantsiya (91,5 mln. AQSh dollari), Niderlandiya (68,5 mln. AQSh dollari) davlati bo`ldi.

keyingi davr 1957-1974 yillarni o'z ichiga olib, ekstensiv rivojlanish bilan tavsiflanadi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, tashqi savdolarida o'sish boshlanib, o'sish ko'rsatkichlari AQSHga nisbatan yuqori bo'ladi. Davlat nazorati amalda bo'lib, davlat buyurtmalari sezilarli xajmda bo'ladi. yevropadagi ekstensiv o'sish jang'arish normasining yuqoriligi, asosiy kapitalga qaratilgan investitsiyaning ko'paya borishi, kapital ta'minlanish va mehnat unumdorligining o'sib borishini bildiradi. Ishlab chiqarishga arzon import xomshayoni jalb qilish, nisbatan arzon ish kuchining mavjudligi qo'shimcha ish joylari tashkil etilib, ishlab chiqarish xajmi kengayib borish imkonini beradi. Bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha, ya'ni YAIMning jon boshiga to'g'ri kelishi, ish haqi darajasi, mehnat unumdorligi bo'yicha AQSH darajasiga yaqinlashadi. Lekin texnologiya rivoji bo'yicha orqada qoladi. Buning sababi ITTKIning moliyalashtirish imkonining pastligi bo'lib, AQSH darajasida bu sohaga sarmoya ajratishning yevropada hali imkoni yo'q edi. yevropa fundamental ilmiy-tadqiqot ishlarini uyushtirish bo'yicha AQSHdan orqada bo'lib, o'zining texnologik rivojini yarata olmagan edi. Lekin iqtisodiy integratsiya bo'yicha ancha ilg'orlashga ulgurgan edi.

Keyingi davr 1974-1985 yillarni o'z ichiga olib, iqtisodiy inqiroz va investitsiyaning biroz sustlashuvi bilan tavsiflanadi. 70 – yillar o'rtasidagi inqiroz to'laqonli bo'lib, 80 – yilga kelib sanoat ishlab chiqarishda tushkunlikka ulanib ketadi. Ekstensiv o'sish o'zining cheklanganligini bildirib boshlaydi. Endi iqtisodiyot tuzumiy o'zgarishlarni talab etishi sezilarli boshlaydi. O'tgan inqirozlar tashqi aloqalardagi salbiy tomonlarning mavjudligi o'z ta'sirini kuchaytirgani muhim sabablardan ekanligini bildiradi. Endi yevropa uchun integratsiyani davom ettirish asosiy bo'lmasdan iqtisodiyotni saqlash muammosi oldinga suriladi.

70 – yillar o'rtalaridan boshlab iqtisodiy tuzumiy o'zgarishlarni amalga oshirishga kirisha boshlanadi. Asosiy sanoat fondlari yangilanib, amortizatsiya normalari ko'tariladi. yevropa TMKlari o'z ishlab chiqarish bazalarini ish kuchi arzon bo'lgan chet mamlakatlarga ko'chirib boshlashadi. Bu an'anaviy sanoat tarmoqlariga taalluqli bo'lib, o'z vatanlarida ilmiy-sig'imli murakkab ishlab chiqarishni kengaytirib boshlaydilar. Yangi materiallar, biotexnologiya kabi tarmoqlar va xizmat

ko`rsatish sohasi ustivor tarmoqlar hisoblanadi. Aholi bandligida ham o`zgarishlar yuz beradi.

Iqtisodiy integratsiyada jonlanish yuz berib, bir qancha umumiy tashkilotlar paydo bo`ladi.

1984 – yildan umumiy qishloq xo`jalik islohati amalga osha boshlaydi. Ilmiy texnik rivoji dasturi kiritiladi. Bundan keyingi davr 1985-1992 yillarni o`z ichiga olib, bunda integratsiyani kuchaytirish va uzoq davom etayotgan iqtisodiy ko`tarilish yuz beradi. Bu davrda iqtisodiy birlashuv sohasida yeI tomon katta qadamlar qo`yiladi.

Iqtisodiy rivoj sohasidagi siljishlar jahon iqtisodiyotidagi G`arbiy yevropaning mustahkamlanishiga olib keladi. ITTKIga suyangan holda texnologik qoloqlikni oldini olish bo`yicha bir necha yirik ishlar amalga oshiriladi. 1985 – yildan uzoq davom etgan iqtisodiy rivojlanish intensiv ravishda bo`lib, to 1990 yillargacha davom etadi. Bu davr G`arbiy yevropa iqtisodiyoti uchun quyidagilarga xos bo`ladi:

- inflyatsiyaning susayishi;
- valyuta kurslarining muntazamligi;
- YAIM o`sishi;
- tashqi savdo aylanishining kengayishi.

Ishlab chiqarishda sifat o`zgarishlar yuz beradi. Rivojlanish asosida ITR yotadi. Ilm sig`imli ishlab chiqarish, mahsulot sifatini ko`tarish, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish hisobiga moddiy sig`imli ishlab chiqarishni qisqartirish yuz beradi. Fan va texnika taraqqiyoti bo`yicha maxsus birgalikdagi dastur asosida ish olib boriladi. Xizmat ko`rsatish sohasi juda tez rivojlanadi. Bunda ayniqsa dasturlashtirish, logistika, konsalting, injenering katta o`rin egallaydi. Ilg`or texnologiya asosida ishlab chiqarish tarmoqlar tuzumida o`zgarishlar amalga oshadi. Shaxsan elektronika ishlab chiqarish xajmi oshadi, shuningdek mashinasozlik va kimyo sanoati o`sadi.

13.3.Evropa Ittifoqi tuzilishi sabablari va tarkibi

Evropa Ittifoqining yuzaga kelishi iqtisodiy taraqqiyotda katta ahamiyat kasb etadi. Bu bir qancha muhim global masalalarni xal qilish bilan yevropa mamlakatlarning rivojlanishini tezlashtiradi. Chunki bir qancha yig`ilib qolgan muammolar yechiladi va taraqqiyot uchun zarur imkoniyatlar yiriklashadi va mamlakatlar birgalikda faoliyat ko`rsatish yevropa salohiyatini yangi yuqori darajaga ko`taradi.

Ittifoqning yuzaga kelishi mavjud zamonaviy ishlab chiqarishning baynalminallashuvi bilan milliy davlat chegaralari o`rtasidagi ziddiyatlar natijasi edi. Bu ayniqsa Ikkinchi Jahon urushidan keyin yaqqol ko`zga tashlanar va kelajak rivojlanishining zarur shartiga aylangan edi. Bunda birinchi va ikkinchi jahon urushlarini boshlagan Germaniyaning ahamiyati katta bo`lib, uning taqdiri, qaysi yo`nalishda tiklanishi, rivojlanish yo`nalishi G`arbiy yevropa uchun, ayniqsa bevosita qo`shni davlatlar uchun deyarli taqdiriy masala edi.

Bundan tashqari yevropada ikki qarama-qarshi tizimlarning paydo bo`lganligi, kelajakda yana vayronagarchilik urushlarning oldini olishlik sabablar birgalikda ish tutishga yo`llar edi. Germaniyaning tiklanishi va bunda AQSHning faol ishtirok etishi, yevropada o`zining ta'sirini saqlab qolish uchun harakat qilishi ham birlashuv uchun kurashni kuchaytiradi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyin Germaniya ustidan g`alaba qozonilganda bundagi ikki yetakchi kuch hisoblangan SSSR va AQSH o`rtasida kelishuv bo`lmay, sovuq urush xolati yuz beradki, yevropada siyosiy muammo kuchayib boradi va bunda Germaniyani yana bo`lajak urush markaziga aylanish xavfi ham bor edi. Chunki ikki tomon harbiy harakatni susaytirish o`rniga uni jonlantirishga urunishar va xattoki bunda qadimgi german vermaxtidan foydalanish xavfi ham yo`q emas edi. Demak, yeIning iqtisodiy sabablari bilan siyosiy sabablari ham mavjud edi.

Sobiq SSSR rahbariyati o`sha vaqtlarda axvolni yumshatish emas, balki uni keskinlashtirish choralarini qo`llab, xuddi G`arbiy Germaniyada yuz berayotgan jarayonlarga javoban harakat qilayotgandek bo`lar edi. 1948 – yilgi Praga talofati, 1949 – yildagi Berlin blokadasi kabilarni unga misol qilib keltirish mumkin.

Evropa yetakchi siyosiy va iqtisodiy arboblari uchun bunday xolat keskin chora ko`rish, salbiy yo`nalishning oldini olish va birlashuvsiz kelajakni to`g`ri belgilash mumkin emasligi aniq edi. Chunki yevropa o`z manfaatlarini ta`minlashi va bu SSSR va na AQSH manfaatlaridan farq etishi tushunilayotgan edi.

AQSH va SSSRning yadro hukmronligidagi ulug` davlatlarga aylanishi, jahonga real hukmronlik qilishi va vaziyatni to`la qo`lga olishlari ham yevropani bezovlantirar va uni batamom ikkinchi darajali mamlakatlarga aylanib qolishi xavfi aniq ko`zga tashlanar edi. Bu ikki buyuk davlatlarning global ravishda bir-biriga qarama-qarshi turishi, dunyoni qayta taqsimlash uchun yirik kurashni boshlab yuborilganligi va bunga yevropani to`la aralashishi aniq narsa ekanligi, na yevropaga bunda joy ajratishi na uning jahon strategik manfaatlariga e`tibor berishi imkoniyatlarining tugalla yo`q qilinayotganligi aniq edi.

Evropa birlashuvi avvalo Fransiya va Germaniya manfaatlariga taalluqli bo`lgan. Chunki Fransiya tarixan bir necha marta Prussiya va Germaniya tomonidan tajovuzga uchrab kelgan. 1945 – yildan keyingi AQSH va Angliyaning G`arbiy Germaniya iqtisodiyotini tiklanishi va armiyasining jonlanishi Fransiyaning xavotirlanishiga sabab bo`lar edi. Chunki Germaniyaning notinch harakatlari hamisha iqtisodiy tiklanishdan keyin boshlanar edi.

Bevosita Fransiya uchun 1949 – yilda GFR statusi belgilanishi bilan axvol ancha og`irlashadi va u ham AQSHga yonbosishi talab etilar edi. Chunki AQSHning Germaniyani tiklanishi to`g`risidagi talablari Fransiyaning zonasiga taalluqli bo`lib, ayniqsa bu Rur va Saarga bevosita bog`liq edi. Biroq bu o`zgarishlar G`arbiy Germaniya tiklanishi, uning tomonidan kelajakda xavf tug`ilmasligi kafolatligi emas edi.

“Marshall rejasini” G`arbiy yevropaning tiklanishiga olib kelgan tadbir deb bo`lmaydi. Lekin uning urushdan keyingi dastlabki vazifalarini bajarishda katta yordam bergan, u hayotiy zaruriy xo`jalik inshootlarini tiklash, aholini oziq-ovqat bilan ta`minlashda katta ahamiyatga ega bo`lgan. Lekin urush yillari Germaniya tomonidan birlashtirilgan yevropa mamlakatlari iqtisodi yana bo`linib, maydalanib ketgan. Bo`linish eski an`anaviy tarzda bir-biriga bog`lanmagan va ajralgan

xolda bo`lib, jahon mehnat taqsimoti tamoyillari bo`yicha juda bo`sh bog`langan iqtisodiyot asosida yuz bergan. Albatta bunday iqtisodiyot samarali darajada bo`lmagan. Uzoq vaqt tushkunlik xolatida bo`lishi mumkinligi, ishlab chiqarish quvvatlarining juda past texnik xolatdaligi, eski tuzumiyligi va texnologik innovatsiyani qabul etmasligi real xolatni belgilab berar edi. Bularni AQSH korporatsiyalari o`zlariga qo`shib yuborishi xavfi ham mavjud edi. Umumiy xolat barcha sohada yetishmovchilik bilan tavsiflanar edi.

Talab pasayib borar, narx-navo pasayishi tezlashar va xali sust xoldagi sanoatga salbiy ta`sir etar edi. Biroz qisqargan ishsizlik yana o`sa boradi. Chayqovchilik, yashirin iqtisod o`sishi xavfi kuchli bo`lgan. Bularning hammasi bozor-raqobat munosabatlarini to`la bo`g`ib qo`yish xavfi mavjud bo`lib, aholi asosan vahimaga tusha boshlagan vaqtni eslatar edi.

Bunday xolatdan chiqish, yevropaning rivoji uchun yangi yo`llanma talab etilib, avvalo bu iqtisodiy jamlovdan iboratligi yevropa birlashmasini harakatga keltiruvchi vosita bo`lishi talab etilar edi. Birlashuvga intilish Fransiyadan boshlanib, Germaniya bilan yaqinlashuv va ular o`rtasida ishonch xosil qilish, mavjud muammolarni xal qilishda avvalo tarmoqlar asosida, so`ngra sohalar asosida birgalikda harakat qilishdan boshlanadi. Bunda albatta umumiy manfaatlar asos bo`lishi talab etilar edi. Buning uchun siyosiy birlik, xavfsizlik choralari, ishonch tug`diruvchi harakatlar birlashuv tarkibini tashkil etardi. So`ngra bularga boshqa mamlakatlarning qo`shila borishi, ayniqsa bozor bo`yicha birlashuvning ahamiyati va bundagi ketma-ket erishilgan muvaffaqiyatlar muhimdir.

Birlashuv faoliyatini sharoit tug`ilishi bilan kengaytirish juda muhim ahamiyat kasb etardi. Shuning uchun ham ketma-ketlik, asta-sekinlik usuli oqilona amalga oshirilib, yeI tarkibi kengayib bordi.

13.4. Integratsiyalashuv jarayoni bosqichlari

EIning eng boshlang`ich davrida yevropa ko`mir va po`lat birlashmasi yotadi (EKPB). yevropa birlashmasiga asos solgan, buning dastur va rejalarini tuzgan, uning asosiy tamoyillarini belgilashda faollik qilib, umuman bularni birlamchi shakllarini

amalga oshirishda katta ishlarni bajargan fransuz Shuman va Monnelardir. Katta iqtisodiy-siyosiy bilim va tajribaga ega bo'lgan Monne va bu ishlarda tashabbuskorlik hamda boshliq bo'lgan Shumanlar axvol va vazifalarni yaxshi bilan xolda ish tutishgan.

Ular yuz bergan xolat va yevropaning ikkiga bo'linib qolganligi sababli "Sovuq urush" bo'lib, bunda Germaniya alohida rol o'ynashini chuqur tushungan tarzda to'g'ri yo'l tutganlar. Bunda G'arbiy Germaniya siyosati amerikacha siyosat manfaatidan kelib chiqib, G'arbiy yevropa ham shunday xolatda bo'lib, AQSHga bo'ysunar edi.

Albatta asosiy muammo Germaniyaga borib taqalsa, ikkinchi tomondan mamlakatlar mustaqilligiga zarar yetkazmaslik zarur edi. Chunki ular endi zulmdan qutilib, o'z milliy davlatligini qo'lga kiritgan bo'lib, siyosiy mustaqillik, suverenlikni chegaralovchi har qanday harakat milliy g'ururga ta'sir etishi turgan gap edi. Bungacha ham yevropa mamlakatlarini birlashtirishga urinishlar bo'lgan, aytaylik, 1948 yili Buyuk Britaniya boshliq yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tuzilgan edi. Lekin u faqat tavsiya darajasidagi faoliyat bilan chegaralangan. 1949 yilda esa yevropa Kengashi tuzilgandek bo'lib, u ham maslahat vazifasi bilan shug'allangan, xolos.

Fransiya va Germaniya birlashmasida siyosiy integratsiyani uzoq kelajakka mo'ljallagan xolda iqtisodiy integratsiyaga e'tibor qaratish, eng yirik va aniq iqtisodiy muammolarni belgilagan xolda harakat qilish va ularni bajarishda millatdan yuqori mexanizmlarni ishlatish, yagona bojxona tartiblarini ishlab chiqish, bu muammolarni umumdavlatlar negizida xal qilish iqtisodiy soha bilan birga yevropa xalqlari uchun siyosiy-ruhiy ahamiyat kasb etishi kabilar muhim bo'lishi ko'zda tutiladi. Bu sohada memorandum va aniq takliflarga oid xujjatlar tuzilib, Fransiya hukumati muhokamasiga kiritiladi. Bundan oldin Monne Germaniya kanu'leri Adenauer bilan uchrashib, uning roziligini oladi. Kanu'ler bu xajjatni qo'llamasdan iloji ham yo'q edi. Chunki g'olib mamlakat eng teng munosabatlar uchun, teng iqtisodiy hamkorlikka qo'l cho'zgan edi.

1951 – yilda yevropa ko`mir va po`lat birlashmasini ta`sis etish to`g`risidagi shartnomaga olti davlat qo`l qo`yadi va u 1952 – yilda shu davlatlar tomonidan radifikatsiya qilinadi. Shartnoma muxlati 50 yil bo`lib, Birlashma shtab kvarturasi Lyuksemburgda joylashadi. Germaniya va Fransiya tomonidan tuzilgan bu shartnomaga Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg va Italiya ham qo`shiladi.

Bu birlashma haqiqatdan ham davlatlarga bog`liq bo`lmay mustaqil ish yuritish asoslari yaratilgan bo`lib, buni boshqaruvchi organlari faqat Parlament assambleyasiga itoat etishi va moliyaviy asosi mamlakat hukumatlari ajratmasi emas, balki iqtisodiy faoliyatga bog`liq bo`lgan soliq hisobidan tarkib topadi. Shu bilan birga davlatlar tengligi tamoyili asos qilib olinadi.

Bu birlashmaning keyingi rivojlanish bosqichi atom energetikasini birlashtirish bo`lib, bunda Belgiyaning tashabbusi kuchli bo`ladi. yevropa birlashmasining faollashuviga Suvaysh kanali va Vengriya voqealari ham turtki bo`ladi. 1957 – yilda Rimda bo`lib o`tgan olti mamlakat vakillari uchrashuvida yevropa iqtisodiy birlashmasi to`g`risidagi shartnomaga qo`l qo`yiladi. yeKPB va yevroatom bu iqtisodiy birlashmaning “birinchi qavati” xizmatini ado etadi. yevropa Iqtisodiy birlashma (EIB)ning yuqori boshqaruv organi etib Birlashma komissiyasi belgilanadi. Parlament assambleyasi yevropa parlamentiga aylantiriladi. Bu birlashmaning shtab va kvartallari Bryussel va Lyuksemburgda joylashadi.

Rim shartnomasida birlashmaning faoliyati qishloq xo`jaligi, savdo sohasidagi umumiy siyosat, bojxona qoidalarini tartiblashtirish, ijtimoiy masalalar, ilmiy-texnik tadqiqot va ta`lim, atrof-muhit, “uchinchi dunyo”, mamlakatlar bilan hamkorlik siyosatlari hisobiga kengayib boradi, deb qayd qilinadi. Shu bilan yevropa iqtisodiy yaqinlashuv, kuchli integratsiyalashgan bozorni shakllantirish yo`liga o`tgan edi. yeIB boshqa mamlakatlar uchun ochiq ekanligi aytiladi.

1972 – yilga kelib, yeIBga Daniya, Irlandiya va Buyuk Britaniya davlatlari ham qo`shildi. Keyinroq, Gretsiya, Ispaniya va Portugaliya ham qo`shiladi. 1975 – yilda Rim sessiyasida yevropa kengashi yevropa parlamentiga to`g`ri saylovlar o`tkazish to`g`risida qaror qabul qiladi. Bu parlament markazi etib Strasburg belgilanadi. Shu yili kelishilgan xolda yeIBni rivojlantirish to`g`risidagi birlashma

a'zolari muhokamasiga takliflar kiritiladi. Bunda iqtisodiy va valyuta hamda mintaqaviy siyosatlar, umumiy sanoat siyosati kabi sohalar bo'yicha takliflar kiritiladi. Avvalo 1979 – yilda yevropa valyuta tizimini kiritish to'g'risida kelishuv yuz beradi.

1984 – yilgi yevropa parlamenti yevropa Ittifoqi to'g'risida loyihani qabul qiladi. 1991 – yildagi Maastrix sessiyasi yevropa Ittifoqini e'lon qiladi. Bu o'zgarish ketma-ketlik asosida amalga oshib, 1999 – yilgacha davom etishi kerak edi. Birinchi bosqichda kapital harakatini nazorat etishning bekor qilinishi ko'zda tutiladi. Ikkinchi bosqich 1994-1997 yillarni o'z ichiga olib, bunda iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaqinlashtirish va nisbatan orqada bo'lgan Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya va Irlandiya mamlakatlari iqtisodiy darajasini ilg'orlar darajasiga ko'tarish ko'zda tutiladi. Yangi yevropa valyuta instituti (EVI) tuziladi.

Uchinchi bosqichda Markaziy yevropa banki ta'sis etiladi va yagona pul – yevro qabul qilinadi hamda muomalaga kiritiladi.

EIda davlatlararo birlashtiruvchi mazmundagi yechimlar ustunlik qiladi. Lekin davlatlardan ustun mexanizm mazmunidagi qattiq yechimlar ustunlik qiladi, deb bo'lmaydi. Integratsiya rivoji va kengashida bunday davlatlardan yuqori elementlar ko'paya borishiga qaramasdan baribir milliy davlatlik ustunlik qilib, buni yevropa davlatlari konfederatsiyasi darajasida tushunish mumkin. Chunki siyosiy va iqtisodiy masalalarning xal qilinishi milliy davlatlar qo'lidadir. Faqat tashqi savdo bundan mustasno bo'lib, u to'g'risida yel komissiyasi ihtiyoridadir.

EI quyidagi organlar bilan boshqariladi:

- 1.EI kengashi
- 2.EI komissiyasi – bu ijro organ
- 3.Evropa parlamenti
- 4.Evropa sudi
- 5.Evropa ijtimoiy fondi
- 6.Evropa mintaqaviy rivojlanish fondi
- 7.Evropa investitsiya banki

EI kengayib, 1995 – yili Avstriya, Shvetsiya va Finlyandiya qo`shiladi. Keyingi yillarda qo`shilish talabi o`zgarmoqda. Chunki Kipr (greklar) va Sloveniyadan tashqari mamlakatlar o`tuvchi va sobiq sotsialistik yo`nalishdagilar bo`lib, ularda bozor mexanizmlari endi harakatga kelib, har tomonlama G`arbiy yevropa mamlakatlaridan farqlanadi. Shu bilan birga iqtisodiy taraqqiyot jihatidan turli darajadadir.

EIga qo`shiladigan nomzodlar ikki darajada bo`lib, bularning o`rtasida ham taraqqiy xolat turlichadir. Birinchi navbatdagi Sloveniya, Kipr, Chexiya, Vengriya, Polsha, Estoniya bo`lsa, navbatdagi Slovakiya, Bolgariya, Ruminiya, Litva, Latviyalarga nisbatan taraqqiyot darajasi yuqoriroqdir. Shuning uchun ham ularning to`la qo`shilish jarayoni va vaqti ancha uzoq bo`ladi.

EIning kengayishi iqtisodiy erkinlik xajmini yer yuzida oshirish bilan siyosiy muammolarning yengillashuvi, hal qilinishini tezlashtiradi.

13.5. yevro pulining kiritilishi va uning ijobiy tomonlari

EIning eng katta yutuqlaridan biri bir xil pulning yuzaga kelishi va uning barcha a`zo mamlakatlar hududida yagona pul birligi sifatida harakatda bo`lishi edi. Albatta buning ahamiyati juda katta bo`lib, buning uchun uzoq yo`l bosib o`tilgan va ko`p vaqtlardan beri davom etib kelgan hamda katta tayyorgarlik ko`rishni talab etgan jarayon edi. Valyuta tizimi yevropa hamkorligi uchun eng muhim sohalardan biri bo`lib, birlashuv sohasidagi harakatlar albatta yagona yevropa pulining shakllanishiga olib kelishi kerak edi.

Avvalo yevropa umumiy valyuta birligi bo`lgan ekyu kiritilib, so`ngra yevroga o`tiladi. ekyuni yuzaga kelishi uchun bir qancha iqtisodiy birlik tashkilotlari tuzilib, umumiy G`arbiy yevropa bozori shakllanishida muhim ishlar amalga oshib, valyuta tizimi uchun zaruriy tayyorgarliklar ko`rilishi bunga sharoit yaratgan edi. 1974 – yili yevropa kengashi tuzilib, bu davlat boshliqlari darajasida bo`lgan. 1975 – yili mintaqaviy rivojlanish fondi tuziladi. 1977 – yildan boshlab G`arbiy yevropa sanoat tovarlari umumiy bozori shakllanadi. 1979 – yili yevropa valyuta tizimi harakatga kiradi. Bu ishtirokchi mamlakatlar pul birliklarining muntazam valyuta

kursini ta'minlovchi mexanizm hisoblanar edi. Shu yili ekyu paydo bo`lib, u umumiy pul birligidan iborat edi.

Evro pulining muomalaga kiritilishi uchun eng boshlang`ich yirik tadbir VTE (valyuta tizimi evolyutsiyasi)ning ishlab chiqilishi bo`lgan. Chunki yevro uchun sharoitlar evolyusion usul bilan yaratilishi talab etilar edi. VTEga o`tish uchun yagona yevropa puli bo`lgan yevroni muomalaga kiritish va yevropa Markaziy Bankini tuzishdan iborat edi. Buning uchun avvalo 1989-1980 yillarda VTENing qurilish va rivojlanishi strategiyasi ishlab chiqilgan.

VTEga qo`shiladigan har bir mamlakat quyidagi shartlarni bajarishi zarur bo`lgan:

-VTEga kiruvchi mamlakatlardagi inflyatsiya darajasi boshqa mamlakatlardagi ko`rsatkichga nisbatan 1,5 foizdan yuqori bo`lmasligi;

-foiz birligi 2 foizdan yuqori bo`lmasligi;

-davlat byudjeti yetishmovchiligi YAIMning 3 foizidan oshmasligi;

-yo`l qo`yiladigan davlat qarzi YAIMning 60 foizidan yuqori bo`lmasligi;

-ikki yil davomida mamlakat milliy valyutasi devalvatsiya qilinmasligi va almashuv kursi valyuta tebranishi yo`l qo`yiladigan darajada bo`lishi.

VTE qurilishida uch bosqich belgilanadi: 1) 1990 – yil 1 iyul, 1993 – yil 31 dekabr – yevropa yagona bozori shakllanishini tamomlash va valyuta konvergentsiyasi chegaralarini ishlab chiqish; 2) 1994 – yil 1 yanvar, 1998 yil 31 dekabr – valyuta ittifoqining institusional, ma'muriy va yuridik negizini yaratish; 3) 1999 – yil 1 yavar, 2002 yil 30 iyul – yagona yevropa valyutasi yevroni bosqichma-bosqich harakatga kiritish.

Evroni kiritish ham uch fazadan iborat bo`ladi: 1998 – yili zarur tayyorgarlik ishlarini bajarish; 1999-2001 yillar muomalaga yevroni o`zimiz kiritish va jahon moliya bozorida yevro asosidagi harakatlarni amalga oshirish; 2002 – yili yevroni chop etish va milliy valyutalar qatorida muomalga kiritib, 2002 – yil 1-iyulgacha barcha milliy valyutalarni yevroga almashtirish.

Evropada yagona valyuta tizimining amalga oshuvi va yevroning pul birligi sifatida katta iqtisodiy hududda muomalaga kiritish yirik ustunliklarni tug`diradi.

yevro yirik kuchli pulga aylanish va dollarning real raqobati bo`lishi kutiladi. U shu bilan birga valyuta xatarligini qisqartiradi va valyutalar almashuvi bilan bog`liq bo`lgan xarajatlarni kamaytiradi. Birinchi bosqichda yevro 11 ta mamlakatda muomalaga kiritiladi, so`ngra bularning soni ortib boradi. Iqtisodchilar yeIga qo`shilgan 11 mamlakatda pul almashtirishni sinovdan o`tkazib, boshlang`ichdagi 1000 dollar provardida 500 dollar bo`lib qaytganini ta`kidlaydilar. yevro kiritilishi bilan bu xarajatlar minimumlashadi.

Bundan tashqari yevro shu mamlakatlarni qudratli bozorga birlashtiradi va o`z iqtisodiy salohiyati bo`yicha AQSH bilan har tomonlama raqobatbardoshga aylantiradi. Raqobatbardoshlikda kompaniyalar, fuqarolar imkoniyatini ko`taradi. yevropada yirik xajmda qo`shilish, birlashish jarayoni davom etmoqda. Bular yevro vositasi bilan juda arzonga tushadi, chunki bu jarayonlarni moliyalashtirish soddalashtirilib yengillashtiriladi. Endi G`arbiy yevropaliklar uchun boshqa mamlakatlarga borsa valyuta konversiyalash va u yerlarda tovar sotib olishning zaruriyati bo`lmaydi.

Bundagi eng qiziq tomoni yevroning dollarga nisbatan yuzaga keladigan kurs darajasi qanday holatda bo`lishidir. Boshida yevro dollarning hokimiyatiga qanday ta`sir ko`rsatadi, kuchli valyuta aylana oladimi deb o`ylangan. Lekin 1999 – yilning yarmida aksincha uning dollar paritetigacha pasayishi yuz beradi. Bu yevro avvalo o`z ishonchini to`la oqlay olmagan bo`lsa, shu bilan birga yevroning pasayishi yevropa uchun foydali bo`ladi. yevroning silliq pasayishi AQSHga eksportni taqdirlaydi va yevropa eksporti foydasiga xizmat qiladi.

Evro integratsiya rivoji va yagona bozorning yuzaga kelishi bilan birga yevropada ilgari hech bo`lmagan darajada davlat tartiblashtiruvining keskin qisqarishi va iqtisodiyotning tuzumiy o`zgarishiga olib keladi. Bu albatta yevropaning AQSH kabi iqtisodiy salohiyat darajasiga yetkazishi bilan uning kapitalizm rivoji modeliga o`xshatadi. Bir qutbli global tizim ham o`zgarib, ikki qutblilikka aylanishi mumkin.

VTE yevroning kiritilishi bilan birga bank tizimida ham katta o`zgarishlarga olib keladi. yevropada baholar muntazamligini ta`minlash, umumiy kredit-pul

siyosatini qo'llash maqsadida yevropa Markaziy banki va milliy markaziy banklarning mustaqilligi to'g'risida kelishiladi. Shu bilan G'arbiy yevropada valyuta-pul tizimi reallashadi. Yaponiyaning bir qancha iqtisodiy susayishi bilan yeI va AQSH, demak dollar va yevro o'rtasidagi munosabatlar kelajagi aktuallashadi.

Hozirgi vaqtga kelib yevro dollarga nisbatan qudratliroq bo'lmoqda va o'z kursini ko'tarib, obro'si va ta'sirini kuchaytirmoqda. yevro ham bir qancha muammolarga ega. Chunki uning qadrini saqlab qolish oson emas, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. yevro mamlakatlararo valyuta bo'lgani uchun markaziy byudjetga ega emas va yeI'da turli soliq tizimlari mavjud, byudjet xarajatlari turli xilda. Ish kuchi safarbarligi mamlakatlar o'rtasida faol darajada emas, nafaqalar tizimi ham turlicha va hk. Lekin aytish mumkinki, bu va bunga o'xshash muammo va masalalar o'z yechimini topishi kerak va albatta o'z hosilini beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, G'arbiy yevropa ishlab chiqarish omillari bilan turli darajada ta'minlangan bo'lib, tabiiy boyliklarga kambag'aldir. Agar mineral xomashyolarning aniqlangan qismi bo'yicha Rossiyada 30-40 trln. dollar, AQSHda 8-8,5 trln, Xitoyda 6-6,5 trln. dollargina hisoblanadi. "Uch kuch markazlari"dan faqat Yaponiyada eng kamdir, ya'ni 0,1 trln. dollar, xolos. Bunday tabiiy taqsimlanuv G'arbiy yevropaning chet dunyoga bu sohadagi qaramligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham G'arbiy yevropa mamlakatlari ishlatayotgan 2/5 qism energiyani va 3/4 qism boshqa xomashyolarni import qiladi.

Iqtisodiy rivoj sohasidagi siljishlar jahon iqtisodiyotidagi G'arbiy yevropaning mustahkamlanishiga olib keladi. ITTKIga suyangan holda texnologik qoloqlikni oldini olish bo'yicha bir necha yirik ishlar amalga oshirildi. 1985 – yildan uzoq davom etgan iqtisodiy rivojlanish intensiv ravishda bo'lib, to 1990 yillargacha davom etdi.

Evropa birlashuvi avvalo Fransiya va Germaniya manfaatlariga taalluqli bo'lgan. Chunki Fransiya tarixan bir necha marta Prussiya va Germaniya tomonidan tajovuzga uchrab kelgan. 1945 – yildan keyingi AQSH va Angliyaning G'arbiy Germaniya iqtisodiyotini tiklanishi va armiyasining jonlanishi Fransiyaning

xavotirlanishiga sabab bo`lar edi. Chunki Germaniyaning notinch harakatlari hamisha iqtisodiy tiklanishdan keyin boshlanar edi.

Evro pulining muomalaga kiritilishi uchun eng boshlang`ich yirik tadbir VTE (valyuta tizimi evolyutsiyasi)ning ishlab chiqilishi bo`lgan. Chunki yevro uchun sharoitlar evolyusion usul bilan yaratilishi talab etilar edi. VTEga o`tish uchun yagona yevropa puli bo`lgan yevroni muomalaga kiritish va yevropa Markaziy Bankini tuzishdan iborat edi. Buning uchun avvalo 1989-1990 yillarda VTEning qurilish va rivojlanishi strategiyasi ishlab chiqdi.

Takrorlash uchun savollar

- 1.EIning asosiy xususiyati nimadan iborat?
- 2.Mamlakatlar iqtisodiy integratsiyasini qanday tushunish kerak?
- 3.Mamlakatlar iqtisodiy globallashtiruvining mazmuni nimadan iborat?
- 4.EI shakllanishining tarixi va zaruriyati nimalarni o`z ichiga oladi?
- 5.EIga tashabbuskor va birinchi qo`shilgan mamlakatlar qaysilar?
- 6.EIning kengayishi va unga qo`shilayotgan mamlakatlar qaysilar?
- 7.Evro va uning ta`sir doirasini aytib bering.
8. yel ning vujudga kelish sabablari nimalardan iborat?
9. yel ga kiruvchi mamlakatlarni sanab bering.
10. yel ning jahon xo`jaligiga qo`shgan xissasi izoxlang.

14-BOB. XALQARO TASHKILOTLAR VA BIRLASHMALARNING BOZOR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDAGI O`RNI

14.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya

Bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti xalqarolik xususiyatini kuchaytirib, integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlarini tezlashtirmoqda. Globallashuv tushunchasi butun jahon xo`jaligiga taalluqli bo`lib, bu bir-biriga bog`liqlik va qaramlik xolda jismoniy butunlikning bosqichma-bosqich shakllanishi va tuzilma siljishlarning jamg`arilib borishi jarayonidan iborat deyish mumkin. Bunda ayrim bo`g`imlar moliyaviy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-texnik, axborot va aloqalar vositasida oldingi bosqichga nisbatan har tomonlama, ko`p miqdorli va chuqur xolda bog`lanib borish yuz beradi. Bu ishlab chiqarishning ancha yuqori darajadagi baynalminallashuvi bo`lib, xalqaro iqtisodiy munosabatlar milliy iqtisodiyotlar ta'sir etgan tarzda dunyo iqtisodiy birligini mustahkamlab boradi.

Hozirgi vaqtda tovarlar, xizmatlar siljishi uchun kunlar va haftalar talab etilsa, axborot uchun juda kam vaqt kerak. U tezda tarqaladi va yetib boradi. Agar dunyoning bir yeridagi bozorda qandaydir o`zgari sh bo`lsa, uning xabari tezda tarqaladi. Bu ayniqsa birja fondlari, valyuta va tovar bozorlari, ilmiy kashfiyotlar hamda ularni qo`llash kabilarga taalluqlidir.

Jahon iqtisodiyoti evolyutsiyasi rivojlanish hosilasi bo`lib, u jahon mehnat taqsimoti, ulug` grafik kashfiyotlar, industrial va texnologik inqilobiy o`zgarishlar bilan bog`liq ravishda yuz bergan. Bular globallashuvga olib kelib, 80-90 yillarda real olamshumul xolatga aylandi. Globallashuv jarayonining xajmliligi, ta'sirliligini sezish oddiy xolatga aylanmoqda.

Iqtisodiy faoliyatdagi globallashuv quyidagi yo`nalishlardan iborat deyish mumkin:

1) ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati:

-TMKlarning to`g`ri investitsiyalari;

-borgan sari baynalminallashib boruvchi ish kuchi (mehnat);

2) xalqaro moliyaviy harakatlar:

-valyutalar harakati;

-qarz va kreditlar;


-qimmatbaho qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qarz majburiyatlari);

-moliyaviy bog'liq instrumentlar (fyucherslar, opsiyonlar kabilar).

Jahon iqtisodiyoti globallashuvining manbai ko'pdir. U faqat an'anaviy tovar va xizmatlar tashqi savdosi emas, balki valyutalar oqimi, kapitallar harakati, axborot va g'oyalar oqimi, odamlar harakatidan iboratdir. Xalqaro moliyaviy kelishuvlarni olsak, aytaylik, faqat 1998 – yili Nyu-York valyuta bozorida har kuni 1,3 trln. dollarni tashkil etgan. Boshqa xalqaro qimmat baho qog'ozlar savdosini olsak, bu raqam ancha ko'payadi. Texnologik rivojlanish transport va kommunikatsiya xarajatlarini keskin o'zgartirmoqda. Axborotlarni saqlash, ularni o'zlashtirish va foydalanishni juda tez arzonlashtirmoqda. Internet elektron pochtasining tarqalishi

axborot xizmatini arzonlashuviga olib kelib, elektronikadaga muvaffaqiyatlarga bog'langandir. Arzon va yuqori samarali kompyuterlar yuzaga kelmoqda.

Savdo va boshqa sohalardagi liberallashtirish proteksionizm siyosatini chegaralamoqda. Natijada boj tariflari sezilarli qisqarmoqda, chegaralar



kamaymoqda. Shuningdek kapital harakati va boshqa ishlab chiqarish vositalari harakatini kengaytirmoqda hamda tezlashtirmoqda.

Axborot texnologiyasining rivojlanishi kompaniyalarning mahalliy bozorlar bilan chegaralanishi o`rniga milliy va xalqaro, global darajalariga chiqishini ta`minlab, ishlab chiqarish va tovarlar sotish imkonini kengaytirmoqda. Global korporatsiyalar soni ko`paymoqda.

Jahon iqtisodiy globallashuvda AQSHning o`ziga xos roli mavjud. Bu buyuk iqtisodiy kuch, innovatsiyani qo`llashdagi, shuningdek boshqaruv, texnologik va molyaiviy sohalarda foydalanishdagi mavqei uni jahon iqtisodiyoti yetakchisiga aylantirmoqda. Bunda avvalo AQSH TMKlarining o`rni kattadir. Ayniqsa, bular globallashuvdan manfaatdordir. Jahon iqtisodiy globallashuv uning agentlariga bog`liqdir. Ularni shartli ravigda quyidagi guruhlariga bo`lish mumkin:

Birinchisi, moliyaviy iqtisodiy guruh:

- xalqaro moliya tashkilotlari(xalqaro moliyaviy fond, xalqaro rivojlanish va rekonstruksiya banki, yevropa rivojlanish va rekonstruksiya banki hamda ularning mintaqaviy filiallari);

- xalqaro iqtisodiy, savdo, oziq-ovqat tashkilotlar (xalqaro savdo tashkiloti, xalqaro mehnat tashkiloti, qisman Yunesko);

- xalqaro moliya guruhlar va fondlari (Parij klubi, London klubi, Beydenberg klubi).

Iqtisodiy globallashuv ikkinchi guruh agentlar:

- TMK;

- transmilliy banklar.

Iqtisodiy globallashuv uchinchi guruh agentlar:

- regional tashkilot va ittifoqlar (EI, NAFTA, ASEAN va b.)

To`rinchi guruhga jahon siyosati va iqtisodiyotiga ta`sir etuvchi yetakchi davlatlar birlashmasini kiritish mumkin (“katta sakkizlik”).

Xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuv qo`shni mamlakatlar iqtisodiyotining birlashuvi va bunda ular kompaniyalari o`rotasidagi iqtisodiy aloqalar muntazamligi asosida yagona xo`jalik kompleksining shakllanuvdir. Umuman olganda hozirgi


davrda ikki tomonlama integratsiya mavjuddir. Birinchisi, trans milliylik va globalashuv jarayonlari bilan yuzaga kelayotgan jahon iqtisodiyoti integratsiyasi bo'lsa, ikkinchisi, muayyan institusional shakllarda rivojlanayotgan an'anaviy, mintaqaviy integratsiyadir.

Iqtisodiy integratsiya iqtisodiy jarayonlarning baynalminallashuvi, xalqaro mehnat taqsimoti jarayonining chuqurlashuvi natijasida yuzaga keladigan xolatdir. Trans milliy kapital va zamonaviy ilmiy-texnik inqilob xo'jalik hayotining omillarini xalqaro bir-biriga o'ralashib ketishiga va uning kuchayishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunda rivojlangan mamlakatlar xususiy kapitali va ular TMKlarining o'rni katta.

Integratsiyalashuv ikki bosqichli – global va mintaqaviy darajada rivojlanib, birinchidan xo'jalik hayotining baynalminallashuvini kuchayishi bo'lsa, ikkinchi tomondan mamlakatlarning mintaqaviy asosda iqtisodiy yaqinlashuvidan iborat. Tub mazmuni bilan integratsiya birlashuv emas, balki birlashuv jarayonidir.

O'zbekiston ham bir necha integratsiyalarda qatnashadi. Bular MDM,

Markaziy
Osiyo
tashkiloti,
Qozog'iston
,
O'zbekiston
va
Qirg'iziston
erkin savdo
kelishuvi,
Gruziya va
Ukraina,
O'zbekiston
,
Ozarbayjon,
Moldoviya



kelishuv tashkiloti, Shanxay kelishuvi mamlakatlari kabilar shular jumlasidandir.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya oddiydan murakab shakllarga o'tadi. Bunda eng muhimi moddiy asos xo'jalik hayotining baynalminallashuvidir. Buning uchun eng oddiy misol ye'ldir. Bu avvalo tovar muomalasi sohasidan boshlanib, to murakkab iqtisodiy integratsiyagacha rivojlangan. Hozirgi vaqtda xalqaro kapital harakati intensiv ravishda bo'lib, xajmi juda kengaygan va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lmoqda.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya oddiydan-murakkab shakllarga o'tishda quyidagi bosqichlik xususiyatlarini ko'rsatadi:

- erkin savdo xududi;
- boj ittifoqi;
- yagona yoki umumiy bozor;
- iqtisodiy ittifoq;
- iqtisodiy va valyuta ittifoqi.

Ta'kidlash zarurki, hozirgacha faqat ye' shu bosqichlarning hammasini bosib o'tib, ularni ketma-ket shakllantirishga muvaffaq bo'ldi.

Eng oddiy va boshlang'ich xalvaro integratsiya shakli *erkin savdo xududlarining* tashkil etilishidir. Bunda o'zaro savdo erkinligi ta'minlanib, qatnashuvchi davlatlar o'rtasida bu sohadagi cheklanuvlar bekor qilinadi. Avvalo boj to'lovlari to'xtatiladi. Bunda oldin pasaytirilib, keyin bekor etish mumkin. Bu sohadagi integratsiya Butun jahon savdo tashkilotining tashqi iqtisodiyot amaliyoti va konsepsiyasiga to'g'ri keladi-ki, tashqi savdoni erkinlashtirish va ishtirokchi mamlakatlarning savdo siyosatini muntazamlashga qaratilgan. Ko'pinchi boshqa xil bu faoliyatdagi cheklanishlar ham olib tashlanadi. Bu avvalo qishloq xo'jalik mahsulotlariga taalluqlidir.

Erkin savdo xududi kelishuvida ishlab chiqaruvchi mamlakatlar ahvolini og'irlashtirishi va raqobatni kuchaytirgan xolda bankrotlikka olib kelishi mumkin. Chunki importning to'la erkinlashuvi ishtirokchi raqiblar uchun mahsulot sifatini va texnik darajasini ko'tarishga dalda bo'ladi va chet tovari raqobatiga bardosh berish zaruriyati tug'iladi.

Yaqin hamkorlik o`rnatishda *boj ittifoqining* ahamiyati katta bo`lib, yagona tashqi savdo siyosatini qo`llash ko`zda tutiladi. Bunda xatto valyuta konvertatsiyasi va yagona hisoblashuv pul tizimi amalga oshiriladi.

Boj ittifoqi erkin savdo xududi kelishuviga nisbatan ancha takomillashgan bo`lib, tashqi iqtisodiy siyosatni bog`lashda ustun keladi va bu ayniqsa boj-tarif qoidalari, proceduralariga taalluqli bo`lib, ishlab chiqarish va eksportni tartiblashtirish hamda import talabini to`laroq qondirish imkonini tug`diradi.

Ishtirokchi davlatlarning integratsiya jarayonini keyingi rivoji *umumiy bozorning* shakllanishida o`z ifodasini topadi. Bunda to`rt erkinlik – tovarlar, xizmatlar, kapital va odamlarning davlat chegaralaridan erkin o`tish imkoniyati tug`iladi. Umumiy bozorning yuzaga kelishi sanoat standartlari va huquqiy normalarning moslashuviga ham olib keladi. Bunda ayniqsa raqobatni tartiblashtirish va normalarini tuzishning oldini oluvchi tadbirlar tizimiga katta e`tibor beriladi.

Ko`rib chiqilgan xalqaro iqtisodiy integratsiyaning uch shakli asosan muomala sohasiga taalluqlidir va bunda tashqi savdoni va o`zaro moliyaviy hisoblar uchun teng sharoitlar paydo etiladi. Xalqaro iqtisodiy integratsiyadagi ancha murakkabroq shakli iqtisodiy va moliyachviy ittifoqdir. Bu yuqori rivojlangan, uzoqni ko`zlagan tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalar to`g`risidagi kelishuvdir. Bunda erkin tashqi savdo, boj ittifoqi va umumiy bozor kelishuvlariga umumiy iqtisodiy va valyuta siyosatlari qo`shiladi. Milliy davlat usti institutlari tuziladi, ya`ni davlat boshliqlari, vazirlar kengashidan iborat integratsiya hamkorlikni boshqaruvchi davlatlararo organlar barpo etiladi. Provardida yagona valyuta siyosati qo`llanilib, uni muomalaga tadbiriq etiladi.

Hozirgi davrda bir qancha xalqaro iqtisodiy guruxlar yuzaga kelgan. Lekin ularning barchasini samarali faoliyat ko`rsatmoqda, deb bo`lmaydi. Shu bilan birga mustahkamlanib borayotgan xalqaro iqtisodiy integratsiyalashgan birlashmalar ham mavjud. Bulardan ba`zilarini ko`rib chiqishga harakat qilamiz.

14.2. Shimoliy Amerika erkin savdo assosatsiyasi (NAFTA)

Shimoliy Amerika erkin savdo assosatsiyasi AQSH, Kanada, va Meksika o`rtasidagi kelishuv bo`lib, u 1994 yili yuzaga kelgan. Oldindan AQSH va Kanada o`rtasida iqtisodiy aloqalar juda kuchli bo`lgan va bu mamlakatlar ilgaridan biri-biri bilan chatishib, o`zaro kapital va ish kuchining mamlakatlararo harakati mavjud edi. Bularda TMK ta`siri kuchli bo`lib, integratsiyalashuvda rasmiy davlatlararo kelishuvlarga ehtiyoj bo`lmagan. Ma`lum darajada shunday jarayon Meksikaga ham taalluqli edi. Bundan tashqari 90 – yillarga kelib, jahonda yuz berayotgan siysiy va iqtisodiy o`zgarishlar integratsiyaning kuchayishini talab etar edi. Ayniqsa, yeI, Yaponiya, Xitoy, Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarining iqtisodiy salohiyatining o`shishi, hamkorlik harakatining kengayishi kabilar Shimoliy Amerika davlatlari integratsiyasini chuqurlashtirishni zaruriyatga aylantirgan edi. Bunda AQSH tashabbuskor bo`lib, jahon bozorlarida raqobatbardoshlikni oshirish choralari qo`llashga undar edi.

AQSH, Kanada va Meksika yetakchi kompaniyalari moliyaviy, ilmiy-texnik va tadbirkorlik salohiyatlarini birlashtirishni ko`zlagan xolda raqobatbardoshlikni kuchaytirish maqsad qilingan edi. Albatta AQSH va Kanadaning rivojlangan iqtisodiyoti va Meksikaning ishlab chiqarish xarajatlarining pastligi birgalikda samara berishi mumkin. Aytaylik, bir soatlik ish vaqti 1993 – yili Kanadada – 5,75 dollar, AQSHda – 4,5 dollar bo`lgan bo`lsa, Meksikada – 50 centga teng kelgan. Birinchi navbatda Meksika bilan tovar ayriboshlashni erkinlashtirish ko`zda tutilgan. Chunki bu muammo AQSH va Kanada o`rtasida hal qilingan edi.

Kelishuvda tashqi iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish, boj to`siqlarini bartaraf etish va tovar, xizmat, kapital va ish kuchi harakatlarining erkinligini ta`minlash kabilar ko`zda tutilgan. Avvalo uch mamlakat o`rtasidagi tayyor buyumlar savdosini chegaralash yo`q qilinadi. 1994 yildayoq sanoat va oziq-ovqat tovarlari poshlinasi 65% ga kamaytiriladi. Energoresurslar, qishloq xo`jalik mahsulotlari, to`qimachilik tovarlari, avtomobillar bozorlarida asta-sekinlik bilan erkinlashtirish ko`zda tutilgan.

1994 – yildan boshlab 15 yil ichida barcha savdo va investitsiya to`siqlarini olib tashlab, uch milliy bozorlarni birlashtiriladi va 400 mln.dan ortiq aholi uchun erkin savdo maydonini tashkil etiladi. Bunda 10 trln. dollardan ortiq jami mahsulot bir xalqaro bozorda siljishi ko`zda tutiladi. Bu jahon YAIMning 18 foizini tashkil etishi kerak. Shunday integratsiya bu uch mamlakat o`rtasida atrof muxitni saqlash va mehnat sohasida ham ko`zda tutiladi. Kelishuvdagi tadbirlarni bajarmaslik jazolanishga olib keladi.

Bu mamlakatlar o`rtasida iqtisodiy salohiyat bo`yicha farq katta. Aytaylik, Kanada YAIM AQSHning 10 foiz, Meksikaniki esa 5 foizni tashkil etadi. Aholi jon boshiga nisbatan olinsa, Kanada AQSHga nisbatan 90 foiz va Meksikada 15 foizga teng. NAFTA bu uch davlatlar ichida qoloq hisoblangan Meksikaga yordam bermaydi. Aytish kerakki, Meksikaning bu kelishuvga qo`shilishi rivojlanish davrini 50 yildan 10-15 yilgacha qisqartiradi, deb baholanadi. Bunda chet kapitali miqdori, ayniqsa AQSH kapitalining yordami yuqori bo`lishi mumkin.

90 – yillar o`rtasidayoq chet investitsiya miqdori bo`yicha Meksika Lotin Amerikasi mamlakatlari ichida birinchi o`ringa chiqadi va yillik miqdori 8 mlrd. dollarga yetadi. 90 – yillar oxiriga kelib mehnat haqi real 29 foizga o`sadi. Shuningdek, NAFTA Meksikaga bir qancha majburiyatlarni yuklaydi. Qishloq xo`jalik mahsulotlari bo`yicha Meksika AQSH va Kanada bilan aloxida ikki tomonlama kelishuv tuzadi. AQSH va Kanada kompyuterlariga bo`lgan 20 foiz soliqni bekor qiladi. Bu arzon bo`lgan Yaponiya va Janubiy Korea texnikasini Meksika bozoridan siqib chiqarishga olib kelishi kerak. 10 yil ichida avtomobillarga bo`lgan ko`pchilik cheklanishni olib tashlashlari kerak. 1994 – yildan chet investitsiyalarni kengaytiruvchi qonun qabul qilinadi. Chet kapitalining Meksika banklari va sug`urta kompaniyalarida qatnashuviga yo`l ochiladi.

NAFTA AQSHga katta imkoniyat tug`dirmoqda, Amerika eksportining va shu bilan ish joylarini kengayishi, mehnat xajmli, material sig`imli, ekologik qimmatga tushadigan ishlab chiqarishni Meksikaga ko`chirish kabilar AQSH uchun ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va bir qancha sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini ko`tarish imkonini beradi.

NAFTA orqali Amerika TMKlari Lotin Amerikasi bozorlaridagi o'z mavqelarini kuchaytirishga umid qilmoqdalar. Shu bilan birga bu mamlakatlarda o'z kompaniyalari uchun ish joylarini ko'paytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va foydani kuchaytirishga harakat qiladilar.

Kanada ham bu kelishuvdan ko'p tomonlama o'z manfaatini kengaytirishga harakat qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, foydani ko'paytirish, yuqori texnikali tarmoqlarni (kompyuterlar, telekommunikatsiya, elektronika) kabilarni kengaytirishni amalga oshirish uchun harakat qilmoqda.

Qisqa vaqt ichida bu kelishuv o'z samarasini ko'rsatdi. Aytaylik, uch yil ichidayoq, ya'ni 1994-1997 yillar ichida AQSHning Meksika va Kanada bilan tovar aylanish xajmi 44 foizga o'sgan.

Shunga o'xshash kelishuv Janubiy Amerikada ham bo'lib, u *Merkasur* deb ataladi. Unga: Argentina, Braziliya, Paragvay va Urugvay davlatlari birlashtiriladi. Bu birlashma qit'aning 45% aholisi, 50% YAIM, 40% to'g'ri chet investitsiyasi, 60% tovar aylanishi va 33% tashqi savdo xajmini birlashtiradi.

14.3. Osiyo Tinch okeani bo'yi davlatlari hamkorligi (ATES) ASEAN

Osiyo-Tinch okean mintaqasida bir necha integratsiyali birlashmalar bo'lib, bularning ichida eng ahamiyatlisi ASEAN va ATESdir.

ASEAN 1967 – yilda tashkil topib, unga avvalo Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand va Filippin davlatlari kirgan. Keyinchalik Myanma, Bruney, Laos, Vetnam va Kambodja qo'shiladi. Bu mamlakatlar sanoat va qishloq xo'jaligi, ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha hamkorlik qilib, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni maqsad qilib qo'yganlar.

ASEANning yuqori organi davlat boshliqari konferentsiyasi hisoblanadi. Markaziy rahbar organi Tashqi ishlar vazirlari uchrashuvi hisoblanadi. Sohalar bo'yicha vazirlar uchrashuvi rahbarlik qiladi. Masalan, iqtisodiy masalalar davlatlar iqtisodiy vazirlari uchrashuvida xal qilinadi. Boshqa tarmoqlar bo'yicha komitetlar qaror qabul qiladi. Maxsus muassasalar ham mavjud bo'lib, neft bo'yicha Kengash, Kema egalari assosatsiyasi, Bank kengashi, Moliya korporatsiyasi kabilardir.

ASEANning tashqi aloqalari maxsus komitetlar tomonidan olib borilib, ular 11 mamlakat poytaxtlarida mavjud.

Umuman iqtisod bo'yicha erkin savdo xududini yuzaga keltirish ko'zlanib, bu juda uzoq muxlatni o'z ichiga oladi. Hamkorlikni xavfsizlik, moliya, telekommunikatsiya, turizm, atrof-muxitni saqlash, qishloq xo'jaligi, transport, sog'liqni saqlashlarga qaratish ko'zda tutiladi. Hamkorlik asosan Avstraliya, Kanada, yel, Yaponiya, Janubiy Korea va AQSHga qaratilgan.

1997 – 1998 yil inqirozi ASEAN mamlakatlarida iz qoldirgan. Bunda tuzumiy muammolar mavjudligi o'sishga ta'sir etishi turgan gap. Lekin asosiy xususiyat uiklli jarayonda deb bilingan. Bu inqirozdan chiqish uchun tadbirlar qo'llanilgan. Bularning ichida eng muhimi Yaponiyaning moliyaviy yordami bo'lib, bundan avvalo Malayziya, Tailand (1,85 mlrd. dollar) foydalana olgan. Umumiy jamoa valyutasini qo'llash, kapital siljishi nazoratini o'rgatish, milliy iqtisodiyotni dalvat tartiblashuvini kuchaytirish kabi takliflar o'rta qo'yilgan. Biroq bular asosan amalga oshmagan.

Osiyo yangi industrial mamlakatlarining ko'pchiligi ASEANga kiradi. Ma'lumki, bularning yarmi rivojlangan mamlakatlar hisoblanib, ikkinchi yarmi shunga yaqindir.

ATES 1989 – yilda tashkil topgan bo'lib, mamlakatlararo yig'ilish hisoblanadi. Bunga avvalo 18 ta mamlakat qo'shilgan: Avstraliya, Bruney, Gonkong, Kanada, Xitoy, Kiribati, Malayziya, Marshain orollari, Meksika, Yangi Zelandiya, Papua-Yangi Gvineya, Janubiy Korea, Singapur, AQSH, Tailand, Tayvan, Filippin, Chili bo'lib, so'ngra yana uch mamlakat qo'shilgan, bular: Vetnam, Peru va Rossiya. Ko'rinib turibdiki, bu juda yirik tashkilot bo'lib, Osiyo, Amerika qit'alari hamda Polineziya mamlakatlarini birlashtiradi. ATES maslahat qavmida bo'lsa ham, amalda uning ishchi organlari savdo, investitsiya, moliya faoliyatlarining mintaqa qoidalarini ishlab chiqadi. Vazirlar va ekspertlar uchrashuvi bo'lib turadi. Savdo va investitsiya komitetlari, Iqtisodiy komitet va ishchi guruhlar, Ta'lim fondi kabilar shular jumlasidandir.

Integratsiyalashuvdan keladigan daromadlarning taqsimlanishidagi notekislik mavjudligi aniqlanib, hisob bo'yicha savdo erkinligi o'rtacha 2%dan real daromadning o'sishiga olib kelishi kerak. Lekin bu asosan raqobatbardosh mamlakatlarga tegadi. 2020 – yilgacha rivojlangan (rivojlangan mamlakatlarda 2010 – yilgacha) erkin savdo hududini yaratish va investitsiyani erkinlashtirishga o'tish belgilangan. Boj chegaralanuvlarini pasaytirish JST (jahon savdo tashkiloti) kelishuvi asosida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Lekin ko'p mamlakatlarda aniqlik kam, kelishilmagan masalalar hali ko'p.

Keyingi yillarda Osiyo-Tinch okean mintaqasi (OTM)ning jahon iqtisodiyotidagi hissasi ortib bormoqda. Unga jahon YAIMning 60 foizi to'g'ri keladi. Ichki mintaqaviy savdo va investitsiya oqimi ustunlik bilan o'smoqda. Agar 70 – yillarda OTMning geografik mamlakatlari tashqi savdoda yevropaga mo'ljal qilsa, 80-90 yillarga kelib OTM asos hisoblanadi va mintaqaviy o'zaro iqtisodiy aloqalar ahamiyatli bo'lib qoladi. OTM mamlakatlarining jahon savdosidagi hissasi 40 foizgacha ko'tarildi. Bu mamlakatlar rivojlanish yo'liga o'tib, islohatlarni amalga oshirmoqdalar. Davlatlarni tartiblashtirish rollari o'zgarmoqda, bank sohasida, tashqi savdo erkinligi, chet investitsiya oqimi kabilarda ham ko'p o'zgarishlar yuz bermoqda. Bularning hammasi iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

14.4. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi

Sobiq Ittifoq o'rniga mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi mavjud iqtisodiy aloqalarning uzitlashiga olib kelib, bu juda salbiy xolatlarni yuzaga keltirdi. Faqat shuning sababi bilan 1/3 dan 1/2 gacha pasayishi yuz bergan.

MDH avvalo uch yangi mustaqil mamlakatlar – Rossiya, Ukraina va Belorussiya o'rtasida tuzilib, 1991 – yil oxirida Boltiq bo'yi respublikalaridan boshqa barcha sobiq SSSR respublikalari qo'shiladi.

MDH risola bo'yicha tashkiliy tarkib topib, bir necha kengashlar tuziladi. Shu bilan ijrochi sekretariat mavjud. MDHning yuqori organlari faoliyati bir ovozlik tamoyiliga asoslangan. Shu bilan birga qabul qilingan yechimlar ijrosini nazorat

qiluvchi mexanizm tuzilmagan. Juda ko'p miqdorda tarmoqlar darajasidagi organlar mavjud. Bular hamkorlikning aniq sohalari bilan shug'ullanadilar.

MDH tuzilgandan keyin 90 – yillar ichida mingga yaqin birgalikdagi yechimlar qabul qilingan. Ammo asosan ular qog'ozda qolib ketmoqda. Buning sabablari ko'p. Eng muhimi a'zo mamlakatlarning o'z mustaqiligini biron qismidan voz kechmayotganligidadir. Ma'lumki, busiz real integratsiya bo'lishi mumkin emas.

MDHning samarasizligi to'g'risida fikrlar ko'p, xattoki bu g'oya umuman keraksizligi to'g'risida ham tanqidiy mulohazalar bo'lgan. Lekin bu tashkilot mavjud va uning o'ziga yarasha ijobiy tomonlari ham ko'p. Bunga munosabat oldingi salbiy xolatlarning ta'siri, mustaqilikning yangiligi, tajriba kamligi, qisman ishonchsizlik mavjudligi, g'arbga intilish kabilar albatta o'z kuchini ko'rsatadi.

Integratsiyalashuv kerak, kerak ayniqsayaqin mamlakatlar o'rtasida va eski birgalik an'analari MDHni takomillashuvi, mavjud sharoitlarga mos xolda ish yuritish va muammolarni hal qilib borish va o'zaro manfaatdorlikni e'tiborga olgan tarzda ish tutish yo'llarini axtarish talab etiladi.

Mustaqillikning mustahkamlanib borishi, milliy iqtisodiyotlarning tiklanishi va rivojlana borishi sari bunday integratsiyaga muxtojlik ortib boradi. Lekin MDHdan boshqa mamlakatlarga eksport qilish qiyinchiliklarga duch kelib boradi. Bunda mahsulotlar sifati, xarajatlar darajasining yuqoriligi, xalqaro savdodagi raqobatbardoshlikning kuchliligi buning asosiy sababidir. Rivojlanishni ta'minlash bilan birga eski uzilib qolgan iqtisodiy aloqalarni tiklash, MDH mamlakatlari o'rtasidagi savdoni jonlantirish imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

Mintaqaviylik, ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tiklash harakatlari ham mavjud. Shu bilan birga bo'lib turayotgan iqtisodiy, moliyaviy inqirozlar ham o'z ta'sirini o'tkazib turibdi. Ammo mintaqalar bo'yicha MDH ichida bo'layotgan kelishuvlar ham yomon natijalar bermayapti. Bu kelishuvlar turli darajada va turli sohalarda bo'yicha amalga oshirilmoqda. Bunda eng intensiv Rossiya va Belorussiya o'rtasidagi kelishuvdir. Xatto bu ittifoq tuzish yo'nalishi mazmunini olmoqda. Chunki Belorussiya rivojlangan mashinasozlik, ayniqsa og'ir mashinasozlik tarmoqlariga egaki, buning iste'molchisi asosan Rossiyadir. Shuningdek, xomashyo

va yonilg`i Belorussiyada juda kam bo`lib, bu Rossiyaga bog`liqdir. Tashqi iqtisodiy aloqalarda bu ikki mamlakatning bir-biriga bog`liqligi kuchlidir. Shu bilan birga buni to`la amalga oshirish uchun salbiy ta`sir etuvchi muammo va sabablar ham ko`p.

1995 – yildan boshlab Rossiya, Belorussiya, Qozog`iston, Tojikiston o`rtasida boj ittifoqi shakllana boshladi. Keyinroq bunga Qirg`iziston ham qo`shildi. Ittifoq yagona boj xududini tashkil etish va uchinchi mamlakatlar bilan savdo tartiblarini umumlashtirgan xolda oddiylashtirishni ko`zda tutadi. Lekin bu ham oson bo`lmay, yaxshi natijalar berish darajasiga ko`tarila olgani yo`q.

Boj ittifoqi 1996 – yilda “To`rtlar ittifoqi” (Rossiya, Belorussiya, Qozog`iston, Qirg`iziston) bilan to`ldirildi. Bu milliy, gumanitar sohalar bo`yicha hamkorlikni ham o`z ichiga oladi. Iqtisodiy bilan ijtimoiy hamkorlik masalalari integratsiyasi ham ko`zda tutilgan. Lekin buning ham natijasi juda past.

Mintaqaviy manfaatdorlik asosida Markaziy Osiyo mamlakatlari – Qozog`iston, O`zbekiston, Qirg`iziston, Turkmaniston o`rtasida hamkorlik ittifoqi tuzilgan bo`lib, asosiy ko`zlangan masalalar iqtisodiy va mudofaa sohalariga taalluqlidir. An`anaviy iqtisodiy aloqalar asos bo`lgan. Aytaylik, Qirg`iziston va Tojikiston, O`zbekiston va Qozog`iston gazi, ko`miri bilan ta`minlanib kelgan. G`alla Qozog`iston tomonidan ta`minlanib turgan. Qishloq xo`jalik texnikasi O`zbekistondan ta`minlangan va h.k. Umumiy transport xizmatlari mavjud bo`lib kelgan.

Ukraina, Gruziya, Ozarbayjon, Moldoviyalar o`rtasida yaqinlashuvga moyillik bo`lib, buning asosida transport yo`lagi xosil qilish yotadi. Bunda neft va gaz mahsulotlari eksportini uyushtirish asosiy maqsad hisoblanadi.

MDH ichida bunday kelishuvlarning bo`lishi albatta ob`ektivlikka ega va umumiy integratsiya bilan bog`liq bo`lishi mumkin, xattoki uni rag`batlantirish ham turgan gap.

MDH mamlakatlari o`rtasidagi integratsiyalashuvning rivojlanishi ko`p jixatdan o`tkazilayotgan islohatlar natijasi, iqtisodiy salohiyat, mamlakatlar boshqaruvidagi siyosat kabilarga bog`liqdir. Ammo bularning ichida eng ta`sirlisi Rossiya iqtisodiy taraqqiyoti, tizimiy islohatlar natijasidan iboratdir.

Iqtisodiy aloqalarning keskin qisqarishi, tovar aylanishini kamayishi eski mehnat taqsimotlarining samarasizligidan bo`lsa, bunga siyosiy yondoshuv qo`shimcha bo`lib hisoblanadi. Lekin o`zgarishlar muvaffaqiyati yana bu mamlakatlar o`rtasidagi integratsiyaga ehtiyoj tug`dira boshlayapti. Islohatlar yaqinlashuvi, mustaqillik mustahkamlanishi yana integratsiyalashuvning zaruriyatini tug`dirib boradi. Chunki bu davr talabi, MDH esa asosan eng yaqin bir-biriga qo`shni mamlakatlar bo`lib, o`zaro integratsiyasiz to`laqonli rivojlantirishni amalga oshirish mumkin bo`lmaydi.

14.5. Umumjahon iqtisodiy tashkilotlar

Iqtisodiy globallashuv va integratsiyaning kuchayib borishi jahon iqtisodiyoti va jahon iqtisodiy munosabatlari bilan bog`liq bo`lgan hamda jahon davlatlari, jamoatchiligi xal qilishi kerak bo`lgan muammolar ko`payib bormoqda. Bunday xolat xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni yuzaga keltirib, faoliyatini kuchaytirmoqda. Chunki bunday muammolarni tezlik bilan oldini olish choralarini qo`llash talab etilib, avvalo buning institusional tuzumlari, doimiy harakatda bo`lish talab etiladigan mexanizmlarni yaratish ayni muddaodir. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning maqsadi esa xuddi shulardan kelib chiqadi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ikki xil bo`lib, birinchisi davlatlararo bo`lsa, ikkinchisi nodavlat xalqaro tashkilotlardir. Birinchisida bevosita davlatlar yoki hukumatlar ishtirok etsa, ikkinchisida kompaniyalar, firmalar, ilmiy jamiyatlar kabilar qatnashadi. Davlatlararo tashkilotlar haqiqiy xalqaro huquqiy shakllar hisoblanadi, nodavlat xalqaro tashkilotlar esa bunday statusga ega emas. Bu esa davlatlar siyosatiga ma`lum darajada ta`sir etadi.

Hozirgi vaqtda nodavlat xalqaro tashkilotlar soni 7000 dan oshib ketdi. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni 5 turga bo`lish mumkin:

- xalqaro universal tashkilotlar;
- mintaqa va mintaqalararo xalqaro tashkilotlar;
- jahon bozorining ayrim segmentlarida harakat qiluvchi iqtisodiy tashkilotlar;
- yarim shaklan birlashma turidagi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar;

- turli savdo-iqtisodiy, valyuta-moliyaviy, tarmoqli va maxsus iqtisodiy, ilmiy-texnik tashkilotlar.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar yetakchisi Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tizimidir. Bu birinchi turga kirib, uning bevosita iqtisodi bilan shug'ullanuvchi bo'lagi Assambleyaning Iqtisodiy va Ijtimoiy kengashidir (GA/IK). Bundan tashqari Xalqaro savdo markazi (XSM), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Xalqaro rekonstruksiya va rivojlanish banki (XRRB), Xalqaro taraqqiyot assosatsiyasi (XTA), Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK), Xalqaro valyuta fondi (XVF), Ko'ptarmoqli investitsiyani kafolatlovchi agentlik (KIKA), Umumjahon savdo tashkiloti (UST) kabilar BMT tizimidagi iqtisodiy rivojlanish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi umumjahon tashkilotlar hisoblanadi.

BMTdagi yetakchi iqtisodiy tashkilot IIK 54 a'zoga ega va yilda 2 marta sessiyaga yeg'iladi. Bu BMT iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini umumlashtiruvchi organdir. Bu organ rahbarlagida bir necha mintaqaviy komissiyalar faol ko'rsatiladi. Bulardan eng yiriklari yevropa iqtisodiy komissiya (EIK) 55 davlat – a'zoga ega, Osiyo va Tinch Okean BMT iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi – 49 davlat a'zo. Xuddi shunday G'arbiy Osiyo komissiyasiga – 53 davlat a'zo. Lotin Amerika va Kariyb basseyini komissiyasiga – 41 davlat a'zo. Bu komissiyalar qoshida komitetlar mavjud. Har bir komissiyaning ijrochi organi bo'lib sekretariat hisoblanadi.

Mintaqalararo, davlatlararo tashkilotlar mavjud bo'lib, shulardan biri - Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotidir (IHRT). Tashkilot 1961 – yili tuzilib, Parijda joylashgan. U ikki xil qaror qabul qiladi: biri a'zolar uchun majburiy bo'lsa, ikkinchisi ixtiyoriy mazmunda bo'ladi, lekin aksariyat xollardagina bajariladi. Buning a'zolari asosan rivojlangan mamlakatlardir.

Bu tashkilotning asosiy vazifasi iqtisodiy tahlil va shu asosda 1,5 yillik prognoz tuzishdan iborat. Shu bilan birga xo'jalikni makro va tarmoqlar xajmida tartiblashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda tashqi savdoni boshqarish, moliyaviy yordam sohasida siyosatni umumlashtirish ishlari bajariladi.

Keyingi vaqtlarda bu tashkilotda to'g'ri investitsiyalarni tartiblashtirish bo'yicha ko'p tomonlama kelishuvga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunday asosiy maqsad erkin investitsiya bozorini ta'minlashdir.

Bu tashkilotning 150 dan ortiq maxsus komitetlari mavjud. Masalan, Rivojlanishga ko'maklashuv komitetiga 21 davlat a'zo bo'lib, bunga yevropa komissiyasi ham kiradi. Uning asosiy vazifasi rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatishni umumlashtirish va boshqarishdir. Bu komitet yordam samarasini ko'tarish, yordam olayotgan mamlakatlarda hayotiy iqtisodiy tizimni yaratish va uni jahon iqtisodiyotiga qo'shilishga ko'maklashishni qo'llaydi.

Bu xalqaro iqtisodiy tashkilotning avtonom va yarim avtonom organlari ham mavjud.

Ko'p tomonlama xalqaro savdo-iqtisodiy tashkilotlar faoliyati ahamiyatlidir. Bunday tashkilotlardan biri Umumjahon savdo tashkilotidir (UST). Bu 1947 – yilda tuzilgan tarif va savdo bo'yicha general kelishuvining vazifasidir. Bunga a'zo davlatlar o'rtasidagi o'zaro tashqi savdo munosabatlari tamoyillari, huquqiy norma va qoidalari bo'yicha ko'p tomonlama kelishuv bo'lib, 23 davlat a'olari qo'l qo'ygan edi. U 40 yildan ortiq faoliyat ko'rsatib, savdo masalalari bo'yicha markaziy organ bo'lgan. Bu tashkilot o'z xususiyati bo'yicha takomillashib boradigan kelishuvning huquqiy normalarini rivojlantirib boruvchi, tashqi iqtisodiy aloqalar sharoiti o'zgarishi bo'yicha tashkiliy shakllarini moslashib borish qobiliyatiga ega edi. Buning asosiy maqsadi xalqaro savdo munosabatlarini erkinlashtirish va rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashuvdan iborat bo'lgan. Bunda bojxona to'siqlariga barham berish, halqaro savdoda kamsitishga yo'l qo'ymaslik, turmush darajasini ko'tarish, xomashyolardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish va savdo ayriboshlashni o'sishini ta'minlash kabilarga erishish asosiy yo'llanma hisoblangan.

Bu tashkilot aosisda 1995 – yildan boshlab UST faoliyat ko'rsata boshlaydi. Unga 128 mamlakat a'zo bo'lib, yana 30 mamlakat kuzatuvchi sifatida a'zolik uchun kelishuvlar o'tkazmoqda. USTning esa asosiy vazifasi savdoni yanada erkinlashtirish va savdo qoidalarining yanada takomillashuvini ta'minlashdan iborat. Bunda tashqi

savdo bilan bogʻlangan investitsiya boʻlib, uning uchun koʻp tomonlama qoida ishlab chiqish muhim oʻrin egallaydi.

BMTning savdo va rivojlanish boʻyicha konferentsiyasi (YuNKTAD) General Assambleya organi sifatida 1964 yilda tuzilgan. Unga 186 davlat aʻzo. U Jenevada joylashgan. Uning asosiy vazifalari xalqaro savdoni ragʻbatlantirish, ayniqsa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar oʻrtasidagi savdoga eʼtibor berish, xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojiga taalluqli masalalar boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish kabilardan iborat. Umumjahon savdo tashkiloti (UST) tuzilishi bilan buning keragi bormi yoki yoʻqmi degan masala qoʻyilib, ularning faoliyat sohalari aniqlangan edi. Kelishuv boʻyicha YuNKTAD oʻz faoliyatini jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga qaratilgan hamda umumiy savdo-siyosiy tamoyillarni ishlab chiqarishga qaratsa, UST oʻz diqqatini sof savdo masalalariga qaratishi lozim topildi.

Xalqaro bojxonalar tashkiloti (XBT) 1952 – yilda tashkil topib, bojxona hamkorligi kengashi sifatida ish tutadi. Unga 139 davlat aʻzo boʻlib, uning asosiy vazifasi yagona bojxona qoidalarini ishlab chiqish va tadbqiq qilishdan iboratdir. Bu bilan tovarlar va shaxslarning bojxona chegaralaridan erkin oʻtishi, bojxonalarning esa nazorat va fiskal vazifalari bilan aniq taʼminlangan boʻlishligi talab etiladi.

Xalqaro savdo palatasi (XSP) nodavlat xalqaro iqtisodiy tashkilotlaridan boʻlib, 1919 – yilda tashkil topgan va Parijda joylashgan. Bu nodavlat Xalqaro tashkilotlari ichida eng obroʻlilaridan boʻlib, 6 ming xususiy kompaniyalar va 1,5 ming milliy tadbirkorlar ittifoqini birlashtiradi. Bular 110 rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga taalluqli. Tadbirkorlikni qoʻllashda va shakllanishida hissasi katta boʻlib, ular uchun savdo, investitsiya, ochiq bozorlar, kapitalning erkin harakatini taʼminlashga taalluqli vazifalarni bajaradi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro valyuta-moliyaviy va kredit tashkilotlarining oʻrni oʻsib bormoqda. Bular, birinchidan, valyuta-xisobot munosabatlarining bajarilishida zaruriy tartiblashtirish va maʼlum doimiylikni taʼminlash, ikkinchidan, mamlakatlar oʻrtasida valyuta xisobot munosabatlarini oʻrnatishda forum vazifasini bajarishi, uchinchidan, jahon xoʻjaligining muhim muammolarini oʻrganish, tahlil etish va rivojlanishi boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqishlardan iboratdir.

Bunday tashkilotlarning eng yetakchilaridan biri Xalqaro valyuta fondi (XVF)dir. U 1944 – yilda tuzilib, Vashingtonda joylashgan, 182 ta mamlakat a’zo. 1997 – yilda XVFning resursi 28,8 mlrd. dollarni tashkil etgan. Bu a’zo mamlakatlar badali hisobiga shakllanadi. XVF tomonidan kredit Fond tomonidan qarzidor mamlakatlar milliy valyutasiga erkin almashinuvchi valyuta (EAV)ni sotish hisobiga bo`ldai. kreditli qoplashda esa uning aksicha, ya’ni milliy valyutani EVA hisobiga sotib olish amlaga oshadi. Kredit summasi EAVning ustav fondi kvotasi bilan belgilanadi. Masalan, AQSH kvotasi – 18,2 % ga, Rossiyaniki – 2,99% ga teng.

XVF o`z faoliyatida maxsus iqtisodiy siyosatning amalga oshuvini shart deb belgilaydi. Aytaylik, byudjet kamomadini pasaytirish, kredit foizini inflyatsiya darajasidan yuqoriga ko`tarish kabilar shart sifatida qo`llanilishi mumkin. XVF krediti xususiy kapital uchun o`ziga xos ko`rsatkich vazifasini bajarishi mumkin. Chunki kredit olinayotganda valyuta zahiralarining jamg`arilishini majburiyat qilib olinadi. Bu esa xususiy kreditlarning qarzini to`lay olishini ta’minlaydi.

Xalqaro rekonstruksiya va rivojlanish banki (XRRB) yoki umumjahon banki ham Vashingtonda joylashgan bo`lib, unga 180 mamlakat a’zo bo`lib kirgan. Ustav kapitali 142 mlrd. dollarni tashkil etadi. A’zo mamlakatlar o`zlarining ustav kapitalidan kvotalarning 20 foizini to`laydi, shundan 2 foizi almashtiriladigan valyuta va 18 foiz milliy valyuta bilan to`lanadi. Har bir a’zo mamlakatning vaziri bu bank Boshqaruvchilar kengashining a’zosi hisoblanadi.

Xalqaro rivojlanish assosatsiyasiga (XRA) 160 davlat a’zo va u ham Vashingtonda joylashgan. Maqsadlari bo`yicha UJBga o`xshab ketadi. Faqat moliyaviy manbaalar va kredit shartlari bilan farqlanadi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi ham Vashingtonda joylashgan. Shu bilan birga bir necha mamlakatlarda o`z byurolari mavjud. Bunga 174 davlat a’zo. Bu faqat bevosita korxonalarini moliyalashtiradi. Asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda faoliyat ko`rsatadi. Davlatlar kafolatisiz ishtutadi. U dunyoda xususiy kapital qo`yish loyihalarini to`g`ridan-to`g`ri moliyalashtiruvchi tashkilot hisoblanadi.

Investitsiyalarni kafolatlovchi ko`p tomonli agentlik (IKA)ka hozir 134 davlat a’zo. Vashingtonda joylashgan. Buning maqsadi chet investitsiyalarni, ayniqsa

rivojlanayotgan mamlakatlarda, rag`batlantirish va bir mamlakatda boshqa mamlakat investitsiyasini, sug`urtani ishga tushgan xolda kafolatlashdan iborat.

IKKA siyosiy va maslahat xizmatlari Departamenti orqali maslahat va reklama xizmatlarini tavsiya etadi. Infrastrukturaning rivojlantirish bo`yicha chet investitsiyasini jalb etish bo`yicha o`z xizmatlarini taklif etadi.

Shuningdek, Xalqaro hisoblar banki (XHB), yevropa rekonstruksiyalash va rivojlantirish banki (ERRB) kabilar mavjud bo`lib, bular ham shu sohadagi xizmatlarni uyushtirish, ayniqsa xususiy banklarga yordam berish, milliy banklar faoliyatini umumlashtirish ishlarida ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti xalqaroлик xususiyatini kukchaytirib, integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlarini tezlashtirmoqda. Globallashuv tushunchasi butun jahon xo`jaligiga taalluqli bo`lib, bu bir-biriga bog`liqlik va qaramlik xolda jismoniy butunlikning bosqichma-bosqich shakllanishi va tuzilma siljishlarning jamg`arilib borishi jarayonidan iborat deyish mumkin. Bunda ayrim bo`g`imlar moliyaviy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-texnik, axborot va aloqalar vositasida oldingi bosqichga nisbatan har tomonlama, ko`p miqdorli va chuqur xolda bog`lanib borish yuz beradi. Bu ishlab chiqarishning ancha yuqori darajadagi baynalminallashuvi bo`lib, xalqaro iqtisodiy munosabatlar milliy iqtisodiyotlar ta'sir etgan tarzda dunyo iqtisodiy birligini mustahkamlab boradi.

Hozirgi davrda bir qancha xalqaro iqtisodiy guruxlar yuzaga kelgan. Lekin ularning barchasini samarali faoliyat ko`rsatmoqda, deb bo`lmaydi. Shu bilan birga mustahkamlanib borayotgan xalqaro iqtisodiy integratsiyalashgan birlashmalar ham mavjud.

Keyingi yillarda Osiyo-Tinch okean mintaqasi (OTM)ning jahon iqtisodiyotidagi hissasi ortib bormoqda. Unga jahon YAIMning 60 foizi to`g`ri keladi. Ichki mintaqaviy savdo va investitsiya oqimi ustunlik bilan o`smonoqda. Agar 70 – yillarda OTMning geografik mamlakatlari tashqi savdoda yevropaga mo`ljal qilsa, 80-90 yillarga kelib OTM asos hisoblanadi va mintaqaviy o`zaro iqtisodiy aloqalar ahamiyatli bo`lib qoladi. OTM mamlakatlarining jahon savdosidagi hissasi

40 foizgacha ko`tarildi. Bu mamlakatlar rivojlanish yo`liga o`tib, islohatlarni amalga oshirmoqdalar. Davlatlarni tartiblashtirish rollari o`zgarmoqda, bank sohasida, tashqi savdo erkinligi, chet investitsiya oqimi kabilarda ham ko`p o`zgarishlar yuz bermoqda. Bularning hammasi iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta`sir ko`rsatmoqda.

Mustaqillikning mustahkamlanib borishi, milliy iqtisodiyotlarning tiklanishi va rivojlana borishi sari bunday integratsiyaga muxtojlik ortib boradi. Lekin MDHdan boshqa mamlakatlarga eksport qilish qiyinchiliklarga duch kelib boradi. Bunda mahsulotlar sifati, xarajatlar darajasining yuqoriligi, xalqaro savdodagi raqobatbardoshlikning kuchliligi buning asosiy sababidir. Rivojlanishni ta`minlash bilan birga eski uzilib qolgan iqtisodiy aloqalarni tiklash, MDH mamlakatlari o`rtasidagi savdoni jonlantirish imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

Iqtisodiy globallashuv va integratsiyaning kuchayib borishi jahon iqtisodiyoti va jahon iqtisodiy munosabatlari bilan bog`liq bo`lgan hamda jahon davlatlari, jamoatchiligi xal qilishi kerak bo`lgan muammolar ko`payib bormoqda. Bunday xolat xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni yuzaga keltirib, faoliyatini kuchaytirmoqda. Chunki bunday muammolarni tezlik bilan oldini olish choralarini qo`llash talab etilib, avvalo buning institusional tuzumlari, doimiy harakatda bo`lish talab etiladigan mexanizmlarni yaratish ayni muddaodir. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning maqsadi esa xuddi shulardan kelib chiqadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyoti rivojining xalqaroлик jarayonini kengaytirish va tezlashtirish mohiyati nimada?
2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya qanday bosqichlarni o`z ichiga oladi?
3. Integratsiyalashuv nima uchun xalqaro iqtisodiy guruhlar shakllanishiga olib keladi?
4. Qanday yirik xalqaro iqtisodiy guruhlarini bilasiz, ularga tavsif bering.
5. BMT qanday tashkilot va uning xalqaro iqtisodiy globallashuv hamda integratsiyalashuvga ta`siri nimalardan iborat?
6. Qanday xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni bilasiz va ularning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

7. Moliya, valyuta, kreditlar bo'yicha qanday xalqaro tashkilotlari mavjud, ularni tavsiflab bering.

8. Xalqaro globallashu xaqida fikringizni izoxlang.

9. Xalqaro globallashuvning axamiyati nimalardan iborat?

10. MDH mamlakatlari iqtisodiyoti xaqida nimalarni bilasiz?

TEST SAVOLLARI

1. "Rivojlangan mamlakatlarda bozor tajribasi" fanining predmeti nima?

a) jaxon bozori tajribasi taxlili va uning urganishdan iborat bulib, bunda asosiy dikkat rivoj topgan mamlakatlarga karatiladi.

b) bozor iktisodiyotiga utish va uning rivojlanishiga oid umumiy masalalarning taxlili

v) eng yirik va yukori darajada rivojlangan xamda iktisodiyotining shakllanishi, rivojlanishi xususiyatlari, belgilarini taxlil etish.

g) yukoridagi javoblarning barchasi tugri.*

2. Bozor iktisodiyotini shakllanishining asosiy shartlari kaysi javobda kursatilgan?

a) kup mulkchilik, tadbirkorlik

b) kichik va urta biznes, milliy bozor modellari

v) talab, taklif va rakobat

g) A va B *

3. Bozor mexanizmining amal kilinishida kaysi konunlar muxum urin tutadi?

a) talab, taklif, narx va rakobat *

b) rakobat, monopoliya va naflilik

v) talab, taklif va rakobat

g) renta, investittsiya, va narx siyosati

4. Rivojlangan mamlakatlar ichida buyuk yettiliklarni ajratib kursating?

a) AKSh, Avstraliya, Kanada, Koreya, Ispaniya, Angliya, Rossiya

b) AKSh, Kanada, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Italiya *

v) AKSh, Kanada, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Germaniya, Rossiya

g) AKSh, Xitoy, Yaponiya, Rossiya, Germaniya, Ispaniya, Kanada

5. Yalpi ichki maxsulot (YAIM)ning tugri tarifini belgilang.

a) ijtimoiy-iktisodiy rivojlanish

b) bozor munosabatlari rivoji natijasi

v) ishlab chikarish xajmi uning axoli jon boshiga tugri kelishi *

g) ishlab chikarish xolatining yukori darajada bulishi

6. Bozor infratuzulmasi bu-....

a) bozor alokalarini urnatish va ularning bir maromda amal kilishiga xizmat kursatuvchi muassasalar tizimidir.*

b) pul shaklidagi kapitalning foiz tulash sharti karzga berish buyicha oldi-sotdi munosabatidir.

v) xujalik subektlari urtasida moliyaviy vositalarning erkin xarakat kilishini taminlaydi.

g) xamma javoblar tugri

7. Bozor infratuzulmasi tarkibiga kiruvchi muassasalarni kuyidagi asosiy yunalishlarni kursating.

a) tovar va xizmatlar muomilasiga xizmat kiluvchi muassasalar, moliya-kredit munosabatlarga xizmat kiluvchi muassasalar

b) ijtimoiy soxaga xizmat kiluvchi muassasalar, axborot xizmati idoralari

v) A va B *

g) tugri javob kursatilmagan

8. Davlat iktisodiyoti nechta kismga bulinadi va ular kanday faoliyatdan iborat?

a) xech kanday kismga bulinmaydi, davlat iktisodiyoti yagona faoliyatdan iboratdir

b) 2 kismga bulinadi, 1- tijorat biznes mazmunidagi faoliyat. 2-xakikiy davlat mazmunidagi faolit. *

v) 3 kismga bulinadi, 1-mamuriy xukukiy faoliyat. 2- makroiiktisodiy bekarorlik va iktisodiyotning uqilliligi faoliyati. 3-davlatning milliy iktisodiyotini tartibga solish faoliyati.

g) B va V

9. Mulkchilik munosabatlari- bu....

a) mulkning iktisodiy faoliyatda ishlatilishi vaijtimoiy xayotda kullanilishi.

b) mulk takdirining mustakil xal kilinishidir.

v) mulkka egalik kilish, foydalanish, tassaruf etish, uzlashtirish jarayonlari . *

g) mulkning bir kismi davlat kulida bulib, u iktisodiyotda faol rol uynaydi

10. Xususiylashtirish xakidagi kaysi fikr notugri kursatilgan?

a) davlat mulkiga egalik xukukining davlatdan xususiy shaxslarga utishidir.

b) fukorolarning va davlatga taalukli bulmagan yuridik shaxslarning davlat mulki obektlarini yoki davlat aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olinishidir.

v) davlat monopoliyasini bitirish,uning urniga mulk erkinligini taminlash,davlat mulkini kupchilik urtasida tarkatgan xolda mulkdorlarni kupaytirish jarayonidir.

g) egalik kilish, foydalanish va davlat ixtiyorida bulagan mulk obetlaridir. *

11. Tadbirkorlikning ayni vaktidagi 4 omilini belgilang.

1-iktisodiy, 2-siyosiy, 3-ruxiy, 4-yuridik, 5-ijtimoiy, 6-madaniy

a) 1, 2, 3, 4 *

- b) 1, 3, 4, 5
- v) 1, 3, 4, 6
- g) tugri javob berilmagan

12. Tadbirkorlik bozorda kanday munosabatlar tasiri asosida xarakat kiladi?

- a) talab va taklif tasiri asosida *
- b) yollanma boshkaruvchilik sharoiti tasirida
- v) cheidan keltirilgan sarmoya tasirida
- g) xamma javoblar tugri kursatilgan

13. Xusisiy tadbirkorlik kanday tarmoklarda rivojlanadi?

- a) oz xajmli kapital talab etadigan, tez foyda keltiradigan tarmoklarda *
- b) kup xajmli kapital tovarlarni ishlab chikarish tarmoklarida
- v) xusisiy tadbirkorlik xamma tarmoklarda rivojlanadi
- g) innovatsiyalar tufayli yangi tovar va xizmatlar barpo etish tarmoklarida

14. Biznes-rejaning tuzilish kismlarini tugri kursating.

- a) korxananing umumiy malumoti, moliyaviy rejasi, boshkaruv persanali
- b) umumiy malumot, marketing rejasi, ishlab chikarish rejasi, tashkiliy reja va moliyaviy reja. *
- v) umumiy malumot, loyixaning kiskacha malumoti, marketing rejasi, tashkiliy reja, moliyaviy reja
- g) B va V

15. Tadbirkorlikning muxum xusisiyati, uzini uzi boshkarish va maxalliy xokimiyat doirasida xam boshkarilishdir. Bu usul kanday iktisodiy termin bilan ataladi?

- a) liberalizm
- b) kapitalizm
- v) federalizm *
- g) sotsializm

16. Uzbekiston Respublikasida “Xusisiy tadbirkorlik, kichik va urta biznesni ragbatlantirish chora tadbirlariga” karatilagan formoni kachon kabul kilingan?

- a) 1999 yil 9 may
- b) 1997 yil 9 aprel
- v) 1998 yil 9 aprel *
- g) 1999 yil 19 apreli

17. Respublika Koordinatsiyalashgan Kengashi, Uzbekiston tovar ishlab chikaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, Dexkon va fermer xujaliklari assosatsiyalarining vazifasi nimadan iborat?

- a) kichik va urta biznesning respublika infra tuzulmasini tashkil etish.
- b) asosan kichik va urta tadbirkorlikning rivojlanishini ragbatlantirish
- v) A va B*

g) fakat A

18. Kichik va urta biznesning muxum xususiyati nima?

- a) asosiy istemol buyumlarini ishlab chikarish va axolini ular bilan taminlash xamda boyish manbaiga ega bulishdir *
- b) kiska vakt ichida bozor iktisodiyotida katta saloxiyatga bulish
- v) davlat monopoliyasini bitirish, uning urniga mulk erkinligini taminlash, davlat mulkini kupchilik urtasida tarkatgan xolda mulkdorlarni kupaytirish
- g) xamma javoblar tugri

19. Uzbekistonning milliy bozor modellarini kursating.

- a) ijtimoiy muxofaza, umumiy xamkorlik, iktisodiy sarmoya
- b) umumiylik, ususiylik, xalkaro tajriba-xamkorlik *
- v) umumiylik , xususiylik , milliy xususiyatlar
- g) A va B

20. Bozor iktisodiyotining umumiy konunlari , jarayonlari, vokealiklari milliy bozor modelining kaysi modeliga tugri keladi?

- a) umumiy *
- b) xususiy
- v) bozorga xos umumiy boshka koidalarga
- g) umumiy xamkorli

21. Bozor iktisodiyotiga utishdagi Uzbekistonda mavjud sharoitlar, tabbiy, milliy, iktisodiy, geografik va madaniy xususiyatlar kaysi milliy bozor modeliga tugri keladi?

- a) xususiy *
- b) umumiy
- v) xalkaro tajriba
- g) bozor tarakkiyoti usullari

22. Jaxon bozor xukukiy asoslari, bozor tarakkiyoti usullari , umumiy xamkorlik, iktisodiy yordam xususiyatlari kaysi milliy bozor modellariga tugri keladi?

- a) xalkaro tajriba *
- b) xususiylik
- v) umimiylik
- g) xech kaysi modellarga tugri kelmaydi

23. ndustrlashtirish – bu.....

- a) zamonaviy iktisodiyotni bozor asosida barpo etish tarakkiy etgan ishlab chikarishni industriya asosida kurish
- b) milliy iktisodiyot, bozor iktisodiyotining moddiy asosidir
- v) milliy iktisodiyotning shakllanishi va uning barkarorligini taminlash
- g) A va B *

23. Kanday munosabatlar bozor iktisodiyotiga utish asosida amalga oshirilishi shart?

- a) barkarorlik, industrilashtirish *
- b) bozor infrastrukturasini yaratish munosabatlari
- v) xalkaro iktisodiy munosabatlarni shakllantirish
- g) tugri javab kursatilmagan

24. Mamlakat maydoni 9.7 mln km² ni tashkil etib, maydoni jixatdan dunyoda turtinchi urinda turadi?

- a) AKSh *
- b) Angliya
- v) Yaponiya
- g) Rossiya

25. Garb iktisodchilari nima sababdan, xalkaro iktisodiy-siyosiy tizim mavjudligida Amerikani “xalk kapitalizmi” deb atashgan?

a) aksioner kapitalining rivojlanishi va kompaniyalarning asosan aksionerlik asosida bulishidir. *

b) AKSh bozor iktisodiyotida demokratik xalkchilik xususiyatiga ega bulib, bu aksionerlik jamiyatlarining keng rivojidir.

v) mexnat unumdorligi, ish joyi kimmati darajasi buyicha dunyoda eng yetakchi urinlardan birini egallagani uchun.

g) iktisodiy rivojlanishda bozor munosabatlarining urni katta bulib, bu soxada AKSh juda katta va bosh tajribaga egadir.

26. AKShning “ikkinchi iktisodiyoti” deb nima atalgan?

- a) xalkaro savdo va chetga kapital chikarish xajmi
- b) TMK faoliyatining katta xajmliligi
- v) ijtimoiy texnik saloxiyatining yuksakligi
- g) xamma javoblar tugri *

27. AKSh Prezidenti Franklin Ruzvelt isloxati nima deb nomlangan va uning ososiy tamoyilini kursating.

a) “yangi kurs”, “biznes xukumatdan yukori bulishi mumkin emas” *

b) “kapital”, “boylikning manbai - savdo”

v) “siyosiy iktisod”, “davlat iktisodiyotga faol aralishishi, savdoni uz panoxiga olishi zarur”

g) A va B

28. Germaniyada “ijtimoiy bozor xujaligi” konsepsiyasining asosi nima bulib xisoblanadi?

a) davlat bevosita xujalik jarayonlarini tartibga solish bilan shugullanmaydi

b) xususiy subektlarning erkin rakobat sharoitlarini belgilaydi va sharoit chegarasini urnatadi

v) davlat ijtimoiy ximoya tizimini rivojlantirish va bozor iktisodiga malum darajada xakoniya kiritish

g) xamma javoblar tugri *

29. German xukumati “xar kishi uchun tovar ” degan dasturida nimani asos kilib belgilab oldi?

a) baxo erkinligini kiritish

b) arzon istemol tovarlarini ishlab chikarish *

v) mustaxkam valyuta tizimini yaratish

g) A va B

30. Ikkinchi jaxon urushidan keyingi Germaniya bozor iktisodiyotining rivojlanishida L.Erxardning kaysi dasturining axamiyati katta bulgan?

a) “iktisodiy ravnak” *

b) “iktisodiy antimonopol va antikartel normativlari”

v) “xujalik tamoyillari va ijtimoiy tartib”

g) “kuchli ijtimoiy-iktisodiy siyosat”

31. Shryoder isloxatining mazmuni nimadan iborat?

a) Germaniya iktisodiyotida davlatning urnini katta bulishi, rakobat sharoitlarini toraytirib, uning tulakonli tuskinlik kilish va davlatning aralashuvi yukori darajada bulishi.

b) davlatning iktisodiyotga aralashuvini imkoni boricha kamaytirib, kichik va urta biznesni maksimal kullash siyosatini oldinga surdi.

v) bozor munosabatlariga tula yul ochish va uning mexanizmlari xarakatiga tula erkinlik berish bilan boglik.

g) B va V *

32. Fransiya xukumatining iktisodiy dasturlarini tuzishda va amalga oshirishda boshchilik kilgan va faol ishtirok etgan shaxslar nomini kursating.

a) Jyuppe va Jospen *

b) Kolbert va Frans

v) Rotshild va Shneyder

g) xamma javoblar tugri

33. Milliy avtomobilsozlik sanoatida yetakchi xisoblangan va xususiy “Pejo-Sitroen”, “Reno” avtomobillarini kaysi davlat ishlab chikaradi?

a) Germaniya

b) Angliya

v) Fransiya *

g) Yaponiya

34. Fransiyada “demokratik kapitalizm” tamoyilining asosi nimada ?

a) aksiya egalarini kupaytirish

b) xususiy aksionerlik jamiyatlarini kullab kuvvatlash

- v) mulkdorlik darajasini kutarish
- g) xamma javoblar tugri *

35. Fransiya bozor iktisodiyoti chukur ijtimoiylashtirilgan bulib, buning markazida davlat turgani uchun uni nima deb atashadi?

- a) "farovonli davlat" *
- b) "rentabelli davlat"
- v) "tejamkor davlat"
- g) "kattik kul davlat"

36. Dengiz orkali jaxonning barcha kita va xududlariga chikish imkoniyati kaysi davlat imkoniyatiga ega?

- a) Yaponiya
- b) Turkiya
- v) Buyuk Britaniya *
- g) AKSh

37. Angliya pul birligini tugri kursating?

- a) funt sterling *
- b) dollar
- v) lira
- g) frank

38. Angliyaning yirik iktisodiy sheriklarini belgilang.

- a) AKSh, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya *
- b) AKSh, Fransiya, Ispaniya, Avstriya, Germaniya
- v) AKSh, Italiya, Zelandiya, Niderlandiya
- g) xamma javoblar tugri

39. Xakikiy kapitalizm liberalizmi kaysi davlat uchun juda xosdir?

- a) Niderlandiya
- b) Germaniya
- v) Buyuk Britaniya *
- g) Fransiya

40. Buyuk Britaniya kanday iktisodiyotga ega?

a) Buyuk Britaniya iktisodiyoti anglo-saksoniya modeli buyicha rivojlanib, u katta imkoniyatlarga ega.

b) Buyuk Britaniya liberal iktisodiyotga ega bulib, tadbirkorlik va xususiy tashabbuskorlikka katta imkoniyatlar mavjud.

v) Britaniya iktisodiyoti yukori kursatgichlarga ega bulib, yukori turmush tarzini taminlash saloxiyatiga ega

- g) xamma javoblar tugri *

41. Buyuk Britaniyada Londondan tashkari kaysi shaxarlari xam moliyaviy markaz xisoblanadi?

- a) Manchester, Kardiff, Liverpool, Edinburg *
- b) Manchester, Livirpul
- v) fakat Edinburg
- g) Frankfurt, Karfird, Liverpool, Edinburg

42. Buyuk Britaniya bosh vaziri bulgan Margarit Tetcher isloxati kanday bulgan?

- a) bozor mexanizmlarini kullash, xukumat xarajatlarini kamaytirish
- b) privatizatsiya siyosati, notartiblashtirish siyosatini kengaytirish, solik isloxlarni amalga oshirish
- v) davlatning tugridan tugri nazoratini bekor kilish
- g) xamma javoblar tugri *

43. Rivojlanishi jixatdan AKShdan keyingi ikkinchi urinni egallashi va mujiza nomini olgan davlatni kursating.

- a) Angliya
- b) Germaniya
- v) Yaponiya *
- g) Italiya

44. Ikkinchi jaxon urushidan keyin Yaponiya kanday iktisodiy yulni tanladi.

- a) Xarbiy iktisodiy demokratik kapitalizm bilan urin almashtirdi va militarizatsiya barpo etildi. *
- b) davlat tartiblashuvini minimallashtirish
- v) bozor mexanizmlari nosamarali soxalarda selektiv kullashni amalga oshirish, iktisodda xususiy sektor rolini faollashtirish
- g) B va V

45. Ishchilarning umr buyicha ishga yollanishi, maxsus ish xakki tizimi, kasabalar tarmok buyicha emas, balki firma buyicha tuzulishi kaysi davlat mexnat tizimiga xos?

- a) xech kaysi
- b) Yaponiya *
- v) Xitoy
- g) Singapur

46. Osiyo "Ajdxolari" katoriga kaysi davlatlar kiradi?

- a) Janubiy Koreya, Singapur, Tayvand, Gongong *
- b) Koreya, Singapur, Xitoy, Yaponiya
- v) Malayziya, Xitoy, Koreya, Yaponiya
- g) Tailand, Xitoy, Indoneziya, Koreya

47. Osiyo "Yulbarlari" katoriga kaysi davlatlar kiradi?

- a) Malayziya, Tailand, Indoneziya, Filippin *

- b) Tailand, Gongkong, Xitoy, Koreya
- v) Malayziya, Xitoy, Koreya, Yaponiya
- g) Singapur, Tailand, Malayziya, Tayvand

48. Janubiy Koreyada 1999-2003 yillar ichida talim va texnologiya, ilm sigimli sanoat markazlarini tashkil etishga kancha mablag sarf kilgan?

- a) 110 mln.doll *
- b) 100 mln.doll
- v) 112 mln.doll
- g) 120 mln. doll

49. Kaysi davlat Janubiy Osiyoda joylashgan bulib, Sharkiy –Janubiy Osiyo mamlakatlarida dengiz yulida muxim rol uynaydi va xalkaro aeraportga ega?

- a) Gongong
- b) Singapur *
- v) Malayziya
- g) Janubiy Koreya

50. Singapur iktisodiyoti nima uchun “ boshkariladigan iktisodiyot ” nomini olgan?

- a) davlat aralashuvi kuchlirok va tashki ochiklik boshka mamlakatlari gidaka emas
- b) iktisodiyotni kuchli boshkarish modeli mavjud
- v) importni urnini bosuvchi siyosat kuchli va bu katiylik bilan taminlanadi
- g) xamma javoblar tugri

51. Germaniyada “ijtimoiy bozor xujaligi” konsepsiyasining asosi nima bulib xisoblanadi?

- a) davlat bevosita xujalik jarayonlarini tartibga solish bilan shugullanmaydi
- b) xususiy subektlarning erkin rakobat sharoitlarini belgilaydi va sharoit chegarasini urnatadi
- v) davlat ijtimoiy ximoya tizimini rivojlantirish va bozor iktisodiga malum darajada xakoniyat kiritish
- g) xamma javoblar tugri *

52. German xukumati “xar kishi uchun tovar ” degan dasturida nimani asos kilib belgilab oldi?

- a) baxo erkinligini kiritish
- b) arzon istemol tovarlarini ishlab chikarish *
- v) mustaxkam valyuta tizimini yaratish
- g) A va B

53. Ikkinchi jaxon urushidan keyingi Germaniya bozor iktisodiyotining rivojlanishida L.Erxardning kaysi dasturining axamiyati katta bulgan?

- a) “iktisodiy ravnak” *

- b) “iqtisodiy antimonopol va antikartel normativlari”
- v) “xujalik tamoyillari va ijtimoiy tartib”
- g) “kuchli ijtimoiy-iqtisodiy siyosat”

54. Shryoder isloxatining mazmuni nimadan iborat?

a) Germaniya iqtisodiyotida davlatning urnini katta bulishi, rakobat sharoitlarini toraytirib, uning tulakonli tuskinlik kilish va davlatning aralashuvi yukori darajada bulishi.

b) davlatning iqtisodiyotga aralashuvini imkoni boricha kamaytirib, kichik va urta biznesni maksimal kullash siyosatini oldinga surdi.

v) bozor munosabatlariga tula yul ochish va uning mexanizmlari xarakatiga tula erkinlik berish bilan boglik.

g) B va V *

55. Fransiya xukumatinin iqtisodiy dasturlarini tuzishda va amalga oshirishda boshchilik kilgan va faol ishtirok etgan shaxslar nomini kursating.

a) Jyuppe va Jospen *

b) Kolbert va Frans

v) Rotshild va Shneyder

g) xamma javoblar tugri

56. Milliy avtomobilsozlik sanoatida yetakchi xisoblangan va xususiy “Pejo-Sitroen”, “Reno” avtomobillarini kaysi davlat ishlab chikaradi?

a) Germaniya

b) Angliya

v) Fransiya *

g) Yaponiya

57. Fransiyada “demokratik kapitalizm” tamoyilining asosi nimada ?

a) aksiya egalarini kupaytirish

b) xususiy aksionerlik jamiyatlarini kullab kuvvatlash

v) mulkdorlik darajasini kutarish

g) xamma javoblar tugri *

GLOSSARIY

Turmush sifati - kasal bo'lishlik, shaxsiy xavfsizlik, tabiiy muxit, ishsizlik, turli xil tovarlar va xizmatlarni iste'mol etish darajalari bilan belgilanib, eng muhimi umr uzoqligidir

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) - ishlab chiqarish xajmi uning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi hamda YAIMning tarmoqlar bo'yicha tuzumi, turmush darajasi va sifati bilan o'lchanadi.

Yuqori darajali ko'rsatkichga ega 24 mamlakat- ajratilgan bo'lib, ularning aholi soni 13,5 %ga teng bo'lgan xolda umumiy yalpi mahsulotda 80%ga teng bo'lgan.

Past darajali mamlakatlar - soni 45 ta bo'lib, aholining miqdori 55 %ga teng bo'lgan xolda umumiy YAIMning 5%inagina tashkil etgan. Jon boshiga olganda YAIM 324 dollar bo'lib, yuqori darajali mamlakatlarga nisbatan 71 marta pastdir. Iste'mol xajmini taqqoslasak, bu ko'rsatkich bo'yicha tafovut 60 barobarga to'g'ri keladi.

O'rta darajadagilarga nisbatan - ham aholi jon boshiga YAIM 11 barobar va iste'mol xajmi bo'yicha esa 10 barobar yuqoridir.

Bozor - uivilizatsiyali taraqqiyot maxsuli bo'lib, u inson iqtisodiy faoliyatining yuqori cho'qqisidir

Bozor iqtisodiyoti erkin harakatdagi, o'zini-o'zi boshqaruvchi va tartibga soluvchi ichki qudratga ega. Bu qudrat – kuch bozor munosabatlari, bozor mexanizmlaridir.

Talab bozordagi eng muhim xodisa bo'lib, u inson shaxsiy manfaatidan kelib chiqadi va shunga xos iqtisodiylikni o'zida aks etadi. Talab insonga bevositalik, uning manfaatini bozorda ifodalash tufayli bozor iqtisodiyotining tub mazmuniga asosiy ta'sir ko'rsatadi va uning harakat yo'nalishini belgilab beradi

Taklif mexanizmi ishlab chiqarish tomoni, uning bozorda ifodalanishidir. Buning ahamiyati nuqtai nazaridan talabdan keyingi muhim mexanizmlardir. Ayirboshlash, sotish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar taklifni shakllantiradi.

Raqobat kurashi keng mazmunli, ko'p qirrali bo'lib, bozor iqtisodiyotining barcha davrlari, sohalari, tarmoqlarida yuz beradi

Bozorni liberallashtirish – bu baholar erkinligiga o'tish bilan birga, raqiblarni bozorda ko'paytirish choralari qo'llash, kichik biznesni kuchaytirish, chet tovarlarni ko'proq keltirish sharoitlarini kengaytirish kabilar bozorni o'zidan-o'zi

privatizatsiyasiz nodavlatlashtirib, kengaytiradi va talabni qondirish darajasini ko`taradi.

Aksionerli davlat – shaxsiy korxonalarini yaratish, ularning faoliyat sohasini kengaytirish. Bunda davlatning aksiyali kapitaldagi hissasini pasaytirib borishga qaratilgan soliq, kredit kabi mexanizmlar mavjud.

Davlat iqtisodiyotiga xos nobozor muhitni ketma-ket yo`q qiluvchi nodavlatlashtirish usullari. Bular byudjet hisobiga korxonalarining ishini yaxshilash, davlat buyurtmasini qisqartirish, kredit qarzlardan voz kechmaslik, xususiy investitsiya sharoitlarini davlat korxonalariga tadbiiq etishlardan iboratdir. Bu bozor munosabatlariga yo`l ochadi.

Xususiylashtirishni amalga oshirish. Agar xususiylashtirish keng qo`llanilsa ayrim shaxslar, sotiladigan korxonalar, bank, yangi aksioner jamiyatlar, chet firmalarning jamoa a`zolari mulkdorlar qatoriga qo`shilib boradilar.

Tadbirkorlik doimo ma`lum mazmunda tashkil topib, aniq shakllarda ifodalanadi. U xo`jalik yuritish usuli sifatida bir qancha umumiy belgilarga ega. Bularga asosan xo`jalik sub`ektlarining mustaqilligi va suverenligi, iqtisodiy manfaatdorlik, doimiy xo`jalik xatarliliigi va javobgarliklarni kiritish mumkin

“Shreder dasturi”- Germaniyadagi iqtisodiy islohotlar , bundagi asosiy yo`nalishlar shu dasturda o`z o`rnini olgan. Shryoder dasturidagi asosiy urg`u tub mazmuni bilan bozor iqtisodiyoti tomon bo`lgan harakat bozor munosabatlariga to`la yo`l ochish va uning mexanizmlari harakatiga to`la erkinlik berish bilan bog`liqdir.

Jyuppe va Jospen islohatlari - Jyuppe islohatlarining asosiy yo`nalishi ijtimoiy kafolatlikni pasaytirishga qaratilgan va bu bilan bog`langan davlat xarajatlarini kamaytirish, byudjet xajmini qisqartirishga qaratilgan. Albatta bu yuzaki qaraganda xalq manfaatiga qarshi mazmunga ega ijtimoiy himoyani susaytiradigan yo`nalishga o`xshaydi. Lekin ijtimoiy himoya darajasini saqlab bozorning ijtimoiylik yo`nalishi ta`minlangan xolda bu islohatlarda ko`zda tutilgan vazifani bajarish talab etilar edi.

Buning uchun islohatda soliq tizimini o`zgartirish, keng xajmli xususiylashtirish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish kabilarni amalga oshirish ko`zlangan. Shu bilan birga bevosita ishsizlikni kamaytirish choralari qo`llash rejalashtirilgan.

“Tetcherizm”- Bu Buyuk Britaniya Premer ministri bo`lgan Margarit Tetcher nomiga aytilgan iboradir. Buning asosiy mazmuni bozor iqtisodiyotini yanada kengroq va chuqurroq liberallashtiruvchi tadbirlarni amalga oshirishdan iborat bo`lgan. “Tetcherizm” islohoti bozor mexanizmlarini qo`llash, hukumat xarajatlarini kamaytirish va monstor siyosatlaridan iboratdir.

Bozor iqtisodining anglo-saksoniya modeli - ko`proq AQSH bozor modeliga yaqinroqdir. Bu modeldagi eng asosiy tafovut nemischa va fransuzcha ijtimoiy bozor xo`jaligidan farqli o`laroq davlatning kam faolli roli va xususiy tadbirkorlikka to`la erkinlik berishdan iboratdir.

Yapon “mo`jiza”si- Yaponiyaning nisbatan qisqa vaqt ichida qoloqlikdan chiqib, katta ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo`liga o`tib, dunyoda yetakchi mamlakatlarga aylanishi, iqtisodiy rivoj darajasining juda yuqori bo`lishligi, buyuk iqtisodiy salohiyatga ega bo`lib, dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o`rinni egallashi “mo`jiza” nomini olgan.

G`arbiy yevropa mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy modeli bo`yicha o`ziga xos xususiyatlarga ega. Buni quyidagilarda ko`rish mumkin:

1.Xo`jalik mexanizmida yuqori qatlam hisoblangan davlatning tartibga solish darajasi bo`yicha yeI xatto AQSH va Yaponiyadan ustun turadi. Birinchidan, bu AQSH va Yaponiya TMKlarining o`z sohalarida G`arbiy yevropanikiga qaraganda ustunligini bosish bilan bog`langan. Ikkinchidan, davlatning iqtisodiy rolini kuchliligi ijtimoiy funksiyalari yuqoriligi bilan belgilanadi.

2.G`arbiy yevropada hozirgi davrda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning ijtimoiy yo`nalishi dunyoda eng yuqori hisoblanadi. Davlat eng ko`p ijtimoiy vazifalarni yuqori intensiv tarzda bajaradi. Shuning uchun ham G`arbiy yevropa kapitalizmi “ijtimoiy bozor xo`jaligi” belgisiga juda to`g`ri keladi.

3.AQSH va Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi ichida individualizm tamoyili va ijtimoiy hayotning asosiy qoidasiga aylangan bo`lsa va hamkorlikdan ustunlik qilsa, G`arbiy yevropada individualizm yetakchiligida hamkorlik bilan nisbiy balans yuzaga kelgan.

4.G`arbiy yevropa mamlakatlarida jahon xo`jaligiga ochiqlik va xo`jalik hayotining baynalminalligi yuqori darajadali mavjud.

“Marshall rejasi”- Ikkinchi Jahon urushidan keyingi 1945-1957 yillar ichida yevropada xo`jalikni tiklash davri boshlangan bo`lib, Natijada AQSHga qaram bo`lib, dollar hukmronligi ta`minlangan edi. “Marshall rejasi” deb atalmish tadbir ostida katta xajmli yordam amalga oshirildi. Bu reja bo`yicha 12,3 mlrd. dollar AQSH tomonidan ajratilib, o`z davrida juda katta xajmdagi mablag` edi. Asosan bu yordamni Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya mamlakatlari oladi. L. Erxard islohati amalga oshiriladi.

ASEAN 1967 – yilda tashkil topib, unga avvalo Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand va Filippin davlatlari kirgan. Keyinchalik Myanma, Bruney, Laos, Vetnam va Kambodja qo`shiladi. Bu mamlakatlar sanoat va qishloq xo`jaligi, ilmiy-tadqiqot ishlari bo`yicha hamkorlik qilib, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni maqsad qilib qo`yganlar.

ATES 1989 – yilda tashkil topgan bo`lib, mamlakatlararo yig`ilish hisoblanadi. Bunga avvalo 18 ta mamlakat qo`shilgan: Avstraliya, Bruney, Gonkong, Kanada, Xitoy, Kiribati, Malayziya, Marshain orollari, Meksika, Yangi Zelandiya, Papua-Yangi Gvineya, Janubiy Korea, Singapur, AQSH, Tailand, Tayvan, Filippin, Chili bo`lib, so`ngra yana uch mamlakat qo`shilgan, bular: Vetnam, Peru va Rossiya. Ko`rinib turibdiki, bu juda yirik tashkilot bo`lib, Osiyo, Amerika qit`alari hamda Polineziya mamlakatlarini birlashtiradi. ATES maslahat qavmida bo`lsa ham, amalda

uning ishchi organlari savdo, investitsiya, moliya faoliyatlarining mintaqa qoidalarini ishlab chiqadi.

Xalqaro bojxonalar tashkiloti (XBT) 1952 – yilda tashkil topib, bojxona hamkorligi kengashi sifatida ish tutadi. Unga 139 davlat a'zo bo'lib, uning asosiy vazifasi yagona bojxona qoidalarini ishlab chiqish va tadbiiq qilishdan iboratdir. Bu bilan tovarlar va shaxslarning bojxona chegaralaridan erkin o'tishi, bojxonalarning esa nazorat va fiskal vazifalari bilan aniq ta'minlangan bo'lishligi talab etiladi.

Xalqaro valyuta fondi (XVF)- 1944 – yilda tuzilib, Vashingtonda joylashgan, 182 ta mamlakat a'zo. 1997 – yilda XVFning resursi 28,8 mlrd. dollarni tashkil etgan. Bu a'zo mamlakatlar badali hisobiga shakllanadi. XVF tomonidan kredit Fond tomonidan qarzdor mamlakatlar milliy valyutasiga erkin almashinuvchi valyuta (EAV)ni sotish hisobiga bo'ldai. kreditli qoplashda esa uning aksicha, ya'ni milliy valyutani EVA hisobiga sotib olish amlaga oshadi.

Xalqaro rekonstruksiya va rivojlanish banki (XRRB) yoki umumjahon banki ham Vashingtonda joylashgan bo'lib, unga 180 mamlakat a'zo bo'lib kirgan. Ustav kapitali 142 mlrd. dollarni tashkil etadi. A'zo mamlakatlar o'zlarining ustav kapitalidan kvotalarning 20 foizini to'laydi, shundan 2 foizi almashtiriladigan valyuta va 18 foiz milliy valyuta bilan to'lanadi. Har bir a'zo mamlakatning vaziri bu bank Boshqaruvchilar kengashining a'zosi hisoblanadi.

Xalqaro rivojlanish assosatsiyasiga (XRA) 160 davlat a'zo va u ham Vashingtonda joylashgan. Maqsadlari bo'yicha UJBga o'xshab ketadi. Faqat moliyaviy manbaalar va kredit shartlari bilan farqlanadi.

NAFTA – Shimoliy Amerika erkin savdo assosatsiyasi qit'a darajasidagi yirik iqtisodiy guruh bo'lib, AQSH, Kanada va Meksika yetakchi kompaniyalari moliyaviy, ilmiy-texnik va tadbirkorlik salohiyatlarining birlashtirishni ko'zlagan xolda raqobatbardoshlikni kuchaytirishni maqsad qilingan. Asta-sekinlik barcha savdo va investitsiya to'siqlarini olib tashlash va yagona savdo maydonini shakllantirish ko'zda tutilgan.

MDH – Mustaqil davlatlar hamdo'stligi sobiq SSSR hududida yangi paydo bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega birlashmadir. Asosiy maqsad bozor munosabatlariga o'tish bilan bog'liq muammolarni birgalikda xal qilishdan iborat.

Kooperatsiya aloqalari- turli soxa ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum maxsulotni tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish.

Soliq yukini yengillashtirishg` foiz stavkalarini kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

Yangi moliyaviy “ko`piklar”- real qiymatga ega bo`lmagan pul hajmining ko`payishi.

“Katta yigirmalik”-20 ta yirik mamlakatlar guruxi bo`lib, unga jahondagi eng boy mamlakatlar va yirik rivojlanayotgan davlatlar kiradi va ular jaxon YAIM 90 foiz ulushini tashkil etadi.

INFORMASION USLUBIY TA'MINOT

I. O`zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.: O`zbekiston, 2009. – 40 b.

1. O`zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi Qonuni. -O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. № 3 - T.: Adolat, 2004. – 7-9 b.

2. O`zbekiston Respublikasi Qonuni "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida" 26.04.96 y. N 221-I.

II. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

3. "Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" : O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 fevraldagi PF-4191-son Farmoni // O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – 9 son – 2010- 9 mart.

4. "Barkamol avlod yili" davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida: O`zR Prezidentining Farmoyishi. 2009 yil 9 dekabr //Xalq so'zi. -2009. - № 238. – mo dekabr. – 1 b.

5. "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 26.01.2009 y. N PQ-1046

6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Farmoni// Xalq so'zi, 2005 , 15 iyun.

7. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan xisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida" Farmoni// Xalq so'zi, 2005,15 iyun.

III. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O`zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy - me'yoriy hujjatlari

8. O merax po dalneyshemu razvitiyu i modernizatsii predpriyatiy tekstilnoy promyshlennosti i rasshireniyu proizvodstva otechestvennykh neprodovolstvennykh potrebitelskix tovarov na 2009-2011 gody: Postanovlenie Kabineta Ministrov Respubliki Uzbekistan ot 20 avgusta 2009 goda № 236 //Sobranie zakonodatelstva Respubliki Uzbekistan – 2009. - № 34. – 372.

9. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi" to'g'risida Qarori//O`zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to'plami, 1999 54 – son, 1999 dekabr. – T.:Uzbekiston. Adliya vazirligi., 2000.-15-20 b. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va

sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risida NIZOM. 1999 yil 5 fevral. – T.:O`zbekiston, 1999.- 92 b.

IV. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

10. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko`lamli islohotlar va modernizatsiya yo`lini qat`iyat bilan davom ettirish. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2012 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilgi iqtisodiy dasturning asosiy ustuvor vazifalariga bag`ishlangan majlisi. T.:Xalq so`zi 2013 yil 19 yanvar, № 13(5687), 3 bet.

10. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz qarovonligini oshirishga xizmat qiladi. / Karimov I.A. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo`ljallangan eng muhim ustuvor yo`nalishlarga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. // Xalq so`zi, 2011 yil 22 yanvar.

11. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir /I.A.Karimov. – Toshkent: «O`zbekiston», 2010. – 68-73 bet.

12. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma`ruzalarini o`rganish bo`yicha O`quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 93-97 bet.

13. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir/I.A.Karimov. – Toshkent: «O`zbekiston», 2010. – 34-50 b.

14. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari/-T.: O`zbekiston, 2009.-56 b.

15. I.A.Karimov. “2008 yilda respublikani ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruza” “Xalq so`zi”, 2009 y.14 fevral, № 33-34 (4696-4697)

16. Karimov I.A. “Bizning bosh maqsadimiz –jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir”. –T.: O`zbekiston, 2005. – 136 b.

17. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo`lishi darkor. Xalq so`zi, 2006 yil 25 fevral.

18. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Xalq so`zi, 2006 yil 11 fevral.

V. Darsliklar

19. Bulatova A.S. Страны i регионы mira: ekonomiko-politicheskiy spravochnik.. – M.: Prospekt, 2010. – 704 str.

20. Volgina N.A. Mejdunarodnaya ekonomika: Uchebник – M.: Eksmo, 2010. – 480 str.

21. Nikitin A.K., Kabulova O.Z. Model vzaimodeystviya Rossii i Germanii po preodoleniyu globalnogo finansovogo krizisa. Uchebnik. – M.: Kniznyy dom LIBROKOM, 2010. – 104 str.

22. Kindlberger Ch., Aliber R. Мировые финансовые кризисы. Мани, панки и крахи. . Uchebnik. – SPb.: Piter, 2010. – 544 str.

23. Zuev V.N. Globalnoe ekonomicheskoe regulirovanie: Uchebnik. – M.: Magistr, 2009. – 574 str.

24. Sutygin S.F. WTO: mexanizm vzaimodeystviya natsionalnykh ekonomik. Ugrozy i vozmojnosti v usloviyax vыхoda na mejdunarodnyy ryнок. Uchebnik. – M.: Eksmo, 2008. – 400 str.

25. Rendi Epping Putevoditel po mirovoy ekonomike. Uchebnik. – M.:, 2009. – 240 str.

VI. O`quv qo`llanmalar

26. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma`ruzalarini o`rganish bo`yicha O`quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 341 bet.

27. I. Malyuk, A.M. Nemchin. Proizvodstvennyy menedjment.: Uchebnoe posobie. - SPb. Piter, 2008.- 288 str.

28. Chausova N.Yu., Kalugina O.A. Menedjment: Uchebnoe posobie.– M.: KNORUS, 2010. – 496 str.

29. Xodiev B.Yu. va boshq. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: O`quv qo`llanma. – T.: TDIU, 2010. – 267 b.

30. Axmin M.M., Gasyuk D.P. Osnovy upravleniya kachestvom produkcii. Uchebnoe posobie. SPb.: Izdatelstvo «Soyuz», 2008. – 256 str.

31. Gladkov I.S. Mirovaya ekonomika i Mejdunarodnyye ekonomicheskie otnosheniya: Uchebnoe posobie. – M.: BINOM. 2009. – 341 str.

32. Nikitin V.A. Upravlenie kachestvom na baze standarta ISO 9000-2000. – SPb.: Piter, 2008. – 315 str.

33. Berger Ya.M. Ekonomicheskaya strategiya Kitaya. – M.: ID FORUM, 2009. – 560 str.

VII. Statistika to`plamlari ma`lumotlari

34. Investitsii respubliki Uzbekistan 2009. Statisticheskii sbornik. – T.: Goskomitet RUz po statistike, 2009. – 148 str.

35. Promyshlennost respubliki Uzbekistan 2009. Statisticheskii sbornik. - T.: Goskomitet RUz po statistike, 2007. – 156 str.

36. Selskoe xozyaystvo Uzbekistana 2009. Statisticheskii sbornik. – T.: Goskomitet RUz po statistike, 2009. – 160 str.

VIII. Internet saytlari

37. "Norma" 2009.
38. "Pravo" 2009.
39. www.edu.ru
40. www.labourmarket.ru
41. www.gov.uz
42. www1.parliament.gov.uz
43. www.tsue.uz
44. www.nalog.ru.
45. www.mf.uz

IX. Virtual kutubxona elektron darsliklari va o`quv qo`llanmalari

46. Nazarova G.G., Muxamedjanova G.A., Babadjanov B.R. Ekonomika zarubejnyx stran. 1.5 Mb. (ma'ruza matni)
47. Nazarova G.G., Muxamedjanova G.A. Xaydarov N.X., Umarova Z. Mirovaya ekonomika. 4 Mb. (ma'ruza matni)
48. Nazarova G.G., Xaydarov N.X. Mejdunarodnyie ekonomicheskie otnosheniya. 12 Mb. (ma'ruza matni)
49. Nazarova G.G`., Xakimov N.Z., Babadjanov B.R. Jahon iqtisodiyoti va XIM. 4MB. (ma'ruza matni)

MUNDARIJA

Kirish	3
1-bob. “Rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasi” va uni o`rganishning ahamiyati	5
1.1. Rivojlangan mamlakatlarning bozor tajribasini o`rganish zaruriyati.....	5
1.2. Rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasining magistrlar faoliyatidagi ahamiyati.....	10
1.3. Rivojlangan mamlakatlar tushunchasi.....	13
1.4. Rivojlangan mamlakatlar belgilari.....	16
1.5. “Rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasi” fani predmeti va usullari.....	25
Takrorlash uchun savollar.....	28
2-bob. Bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy shartlari	29
2.1. Bozor iqtisodiyotining asosiy mohiyati.....	29
2.2. Bozor iqtisodiyotining yetakchi mexanizmlari.....	33
2.3. Bozor infratuzilmasi.....	42
2.4. Davlat faoliyati va bozor iqtisodiyoti muvozanati.	44
2.5. Mulk shakllarining bozorga ta'siri.....	47
2.6. Davlat mulkini xususiyashtirish.....	57
Takrorlash uchun savollar.....	64
3-bob. Bozor iqtisodida tadbirkorlikning o`rni	65
3.1. Tadbirkorlik mohiyati.....	65
3.2. Tadbirkorlik sharoitlari.....	75
3.3. Tadbirkor tushunchasi.....	81
3.4. Tadbirkor va menejment.....	88
3.5. Mayda tadbirkorning iqtisodiyotdagi o`rni.....	97
3.6. O`zbekistonda kichik va o`rta biznes sharoitlari.....	106
Takrorlash uchun savollar.....	109
4-bob. Bozor iqtisodiyotining milliy modellari.	111
4.1. Milliy model mohiyati.....	111
4.2. Iqtisodiyotning barqarorlashuvi zaruriyati.....	117
4.3. Industrlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o`tish....	120
Takrorlash uchun savollar.....	124
5-bob. AQSHning bozor iqtisodiyoti tajribasi.	125
5.1. AQSHning jahon bozor iqtisodiyotidagi yetakchi o`rni va buni belgilovchi asosiy ko`rsatkichlar.....	125
5.2. Milliy xo`jalikda nomoddiy ishlab chiqarish ustuvorligi.....	131
5.3. XX – asr birinchi yarimida bozor iqtisodi rivoji.	133
5.4. Federal iqtisodiyotni boshqaruv xususiyatlari.....	145
5.5. Demokratik xalqchanlik iqtisodiyotining xususiyatlari.....	149
Takrorlash uchun savollar.....	153

6-bob.	Germaniyada bozor iqtisodiyoti tajribasi.	154
6.1.	Germaniya iqtisodiyoti salohiyati.....	154
6.2.	Ijtimoiy bozor xo`jaligi modeli.....	160
6.3.	L. Erxardning “Iqtisodiy ravnaq” dasturi.....	162
6.4.	G`arbiy va Sharqiy Germaniyaning qo`shilishi bilan bog`liq iqtisodiy muammolarning xal qilinishi...	167
6.5.	Hozirgi davr Germaniya iqtisodiyoti o`shining muammolari va Shryoder dasturi.....	169
Takrorlash uchun savollar.....		179
7-bob.	Fransiyada ijtimoiylashtirilgan bozor iqtisodiyoti.	180
7.1.	Fransiyaning iqtisodiy xususiyatlari.....	180
7.2.	Iqtisodiyotda davlat o`mi.....	186
7.3.	Ijtimoiylashtirilgan bozor iqtisodiyoti.....	191
7.4.	Jyuppe va Jospen islohatlari.....	194
Takrorlash uchun savollar.....		196
8-bob.	Buyuk Britaniya liberal bozor iqtisodiyoti rivoji.	198
8.1.	Buyuk Britaniya to`g`risida umumiy ma`lumot.....	198
8.2.	Buyuk Britaniya to`ng`ich industrial mamlakat.....	200
8.3.	Qishloq xo`jaligi rivoji.....	202
8.4.	Liberal bozor iqtisodi rivoji.....	203
8.5.	Iqtisodiy tuzilma rasionalligi.....	206
8.6.	Turmush sifati yuqoriligi.....	215
8.7.	Bozor iqtisodining anglo-saksoniya modeli.....	217
Takrorlash uchun savollar.....		220
9-bob.	Yaponiya bozor iqtisodiyoti tajribasi.	221
9.1.	Yaponiyaning jahon iqtisodiyotidagi mavqei.....	221
9.2.	Iqtisodiy “mo`jizada” milliy xususiylik ahamiyati.....	226
9.3.	Demokratik kapitalizm modeli.....	228
9.4.	Yaponcha ishlab chiqarishning boshqarilishi xususiyatlari.....	233
9.5.	Ilmiy-texnik progress va iqtisodiy taraqqiyot.....	237
Takrorlash uchun savollar.....		241
10-bob.	Janubiy-Sharqiy Osiyodagi yangi industrial mamlakatlarda bozor tajribasi.	242
10.1.	Osiyo “Ajdaholari” va “Yo`lbarslari”..	242
10.2.	Janubiy Koreyada bozor iqtisodiyoti rivoji.....	247
10.3.	Singapurda bozor iqtisodiyoti xususiyatlari.....	250
10.4.	Tayvan va Gonkong bozor rivoji tajribasi.....	251
10.5.	“Yo`lbarslar”da bozor munosabatlarining iqtisodiy rivojga ta`siri.....	256
Takrorlash uchun savollar.....		260
11-bob.	Xitoyda bozor munosabatlari isohatlari tajribasi.	261
11.1.	Xitoy iqtisodiyoti to`g`risida umumiy ma`lumotlar.....	261

11.2.	Bozor munosabatlariga qaratilgan islohatlar.....	267
11.3.	Iqtisodiy o`shish va ekstensivlik.....	271
11.4.	Investitsiya xususiyatlari.....	274
11.5.	Ichki va tashqi bozor.....	277
	Takrorlash uchun savollar.....	280
12-bob.	Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarining bozor iqtisodiyotiga o`tish tajribasi.	282
12.1.	Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti.....	282
12.2.	O`tkazilayotgan iqtisodiy islohatlarning asosiy tomonlari.....	286
12.3.	Davlat mulkini xususiylashtirish.....	290
12.4.	Iqtisodiyotdagi tuzumiy o`zgarishlar.....	294
12.5.	Tashqi iqtisodiy aloqalar.....	297
	Takrorlash uchun savollar.....	300
13-bob.	yevropa Ittifoqi bozor iqtisodiyoti xususiyatlari.	302
13.1.	G`arbiy yevropa mamlakatlarining rivojlangan iqtisodiyoti.....	302
13.2.	Evropa Ittifoqigacha bo`lgan bozor iqtisodiyoti rivoji davrlari.....	307
13.3.	Evropa Ittifoqi tuzilishi sabablari va tarkibi...	310
13.4.	Integratsiyalashuv jarayoni bosqichlari.....	313
13.5.	Evro pulining kiritilishi va uning ijobiy tomonlari.....	316
	Takrorlash uchun savollar.....	320
14-bob.	Xalqaro tashkilotlar va birlashmalarning bozor iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o`rni.	321
14.1.	Xalqaro iqtisodiy integratsiya.....	321
14.2.	Shimoliy Amerika erkin savdo assosatsiyasi (NAFTA).....	326
14.3.	Osiyo Tinch okeani bo`yi davlatlari hamkorligi (ATES) ASEAN.....	329
14.4.	Mustaqil davlatlar hamdo`stligi.....	331
14.5.	Umumjahon iqtisodiy tashkilotlar.....	333
	Takrorlash uchun savollar.....	340
	Test savollari.....	341
	Glossariy.....	354
	Informasion uslubiy ta`minot.....	360

Mundarijani Ruscha

CONTENTS

Introduction		3
Chapter-1.	“Market experience of the developed countries” and its impotency	5
1.1.	Necessity of learning market experience of the developed countries.....	5
1.2.	Impotency of the market experience of the developed countries in the masters’ activity.....	10
1.3.	Conception of developed countries.....	13
1.4.	Signs of developed countries.....	16
1.5.	The object and ways of the course “Market experience of the developed countries”	25
	Questions for repeating.....	28
Chapter-2.	The main terms of formation market economics	29
2.1.	Essence of market economics.....	29
2.2.	The main mechanizes.....	33
2.3.	Market infrastructure.....	42
2.4.	State activity and the balance of market economics.....	44
2.5.	The influence of the forms of property to the market.....	47
2.6.	To privatization of state property.....	57
	Questions for repeating.....	64
Chapter-3.	The role of discretion in the market economics	65
3.1.	Essence of discretion.....	65
3.2.	Condition of discretion.....	75
3.3.	Conception of discretion	81
3.4.	Discrete and business management.....	88
3.5.	The role of small scale business in the economics.....	97
3.6.	Condition of small and middle scale business in Uzbekistan.....	106
	Questions for repeating.....	109
Chapter-4.	National models of the market economic	111
4.1.	Essence of national model.....	111
4.2.	Impotency of maintaining economics.....	117
4.3.	Inducting and passing to the market economics.....	120
	Questions for repeating.....	124
Chapter-5.	Experience of market economics in the USA	125
5.1.	The role of the USA in the the world market economics and its main indicators.....	125
5.2.	The most important priority of unfinancial producing in the national economy.....	131
5.3.	The development of the market economy in the first part of the 20-centure.....	133
5.4.	Managing features of the federal economy.....	145
5.5.	Democratic humanity is the features of economics.....	149

	Questions for repeating.....	153
Chapter-6.	Experience of the market economics in Germany	154
6.1.	Capacity of economics in Germany.....	154
6.2.	Model of social market economy.....	160
6.3.	L.Erhard's "Economic flourish".....	162
6.4.	Revolving of the economic problems dependent on jointing Western and Eastern Germany.....	167
6.5.	The problems of increasing economics in the present Germany and Shredder's theory.....	169
	Questions for repeating.....	179
Chapter-7.	Social market economics in France	180
7.1.	France's economic features.....	180
7.2.	The role of state in the economics.....	186
7.3.	Social market economics.....	191
7.4.	Jyuppe and Jospen's reforms.....	194
	Questions for repeating.....	196
Chapter-8.	The development of liberal market economics in Great Britain	198
8.1.	General information about Great Britain.....	198
8.2.	Great Britain is an older industrial country.....	200
8.3.	The development of agriculture.....	202
8.4.	The development of liberal market economics.....	203
8.5.	Of economic structure.....	206
8.6.	The height of quality life.....	215
8.7.	The model of Anglo-Saxons in the market economics.....	217
	Questions for repeating.....	220
Chapter-9.	Experience of market economics in Japan	221
9.1.	The position of Japan in the world economics.....	221
9.2.	Impotency of national privatization in the miracle economics.....	226
9.3.	The model of democratic capitalism.....	228
9.4.	The peculiarities of Japan producing of manage.....	233
9.5.	Scientific technical progress and economic development.	237
	Questions for repeating.....	241
Chapter-10.	Experience of market in the new industrial countries of South-Eastern Asia	242
10.1.	Asia Dragons and Tigers.....	242
10.2.	The development of the market economics in South Korea.....	247
10.3.	The development of the market economics in Singapore	250
10.4.	Experience of developing market in Taiwan and Garcon.....	251
10.5.	The influence of market attitude to economic development in Tigers.....	256
	Questions for repeating.....	260

Chapter-11.	Experience of reforms of the market attitude in China	261
11.1.	General information about China's economics.....	261
11.2.	Reforms dependent on the market attitude.....	267
11.3.	Economic and extensive.....	271
11.4.	The peculiarities of investigation.....	274
11.5.	Interior and foreign market.....	277
	Questions for repeating.....	280
Chapter-12.	Experience of passing to the market economics in the Central and Eastern Europe Countries	282
12.1.	Economy in the Central and Eastern Countries.....	282
12.2.	The main aspects of the passing economic reforms.....	286
12.3.	To privatization of state property.....	290
12.4.	Structural changes in the economics.....	294
12.5.	Foreign economic affairs.....	297
	Questions for repeating.....	300
Chapter-13.	The peculiarities of market economics in Europe Union	302
13.1.	The developed economics of the Western Europe Countries.....	302
13.2.	The developed periods of the market economics until EEurope Union.....	307
13.3.	The reasons and structure of organizing of Europe Union.....	310
13.4.	The phases of integration process.....	313
13.5.	Inserting of Euro and its good sides.....	316
	Questions for repeating.....	320
Chapter-14.	The role of international organizations and associations developing of the market economics	321
14.1.	International economic integration.....	321
14.2.	Northern America free-trade association.....	326
14.3.	The concordance of the countries over Asian Pacific Ocean.....	329
14.4.	Independent States Organization.....	331
14.5.	Public world economic association.....	333
	Questions for repeating.....	340
	Test questions	341
	Glossary	354
	List of basic literature	360